2026-yil, 30-oktabr 20(88)-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2021-9752

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802





DOLZARB MAVZU

Baxtiyor XOLMUXAMEDOV,
SamDU professori

AQSHDA O‘ZBEK TILI VA MADANIYATINING O‘RGANILISHI: DIASPORADAN ILMIY MAKTABGACHA

Annotatsiya: AQSHda o‘zbek tilini o‘rganishning dastlabki bosqichlari, Indiana universitetida o‘zbek tili ta’limining yo‘lga qo‘yilishi, darslik va lug‘atlarning yaratilishi, shuningdek, o‘zbek tilining AQSHdagi o‘rganilishi faqat til ta’limi doirasidagi jarayon emas, balki o‘zbek xalqi tarixi, madaniyati va milliy o‘zligini ilmiy tadqiq etish bilan uzviy bog‘liq hodisa ekanligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, AQSH, turkologiya, Indiana universiteti, o‘zbek diasporasi, til ta’limi, darslik, lug‘at, Markaziy Osiyo, madaniyat.*

Аннотация: в статье показано, что начальные этапы изучения узбекского языка в США, организация преподавания узбекского языка в Университете Индианы, создание учебников и словарей, а также изучение узбекского языка в США представляют собой не только процесс языкового образования, но и неразрывно связаны с научным исследованием истории, культуры и национальной идентичности узбекского народа.

Ключевые слова: *узбекский язык, США, тюркология, Университет Индианы, узбекская диаспора, языковое образование, учебник, словарь, Центральная Азия, культура.*

Annotation: the article demonstrates that the initial stages of Uzbek language studies in the United States, the establishment of Uzbek language instruction at Indiana University, and the development of textbooks and dictionaries, as well as the study of the Uzbek language in the United States, constitute not merely a process of language education but are closely connected with the scholarly study of the history, culture, and national identity of the Uzbek people.

Key words: *Uzbek language, USA, Turkology, Indiana University, Uzbek diaspora, language education, textbook, dictionary, Central Asia, culture.*

Kirish. O‘zbek tilining xorijiy mamlakatlarda o‘rganilishi tarixini tadqiq etishda AQSHdagi turkologiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. AQSHda o‘zbek tiliga bo‘lgan ilmiy qiziqish, bir tomondan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatini o‘rganish ehtiyoji bilan, ikkinchi tomondan esa, o‘zbek diasporasining shakllanishi va faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlangan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek tili universitet ta’limi, turkologik tadqiqotlar va mintaqashunoslik doirasida muntazam o‘rganila boshladi.

AQSHdagi o‘zbek tili tadqiqotlarining shakllanishida Indiana universitetining o‘rni ayniqsa muhimdir. Bugungi kunda ham ushbu universitetda o‘zbek tili Markaziy Yevroosiyo tillari qatorida muntazam o‘qitilib, boshlang‘ichdan yuqori bosqichlargacha bo‘lgan kurslar tashkil etilgan.

AQSHda o‘zbek diasporasining shakllanishi.

XX asrning 20–30-yillaridagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, qatag‘onlar, majburiy kollektivlashtirish va boshqa omillar natijasida Markaziy Osiyodan, jumladan, O‘zbekistondan tashqariga ko‘chib ketgan kishilar soni ortdi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Yevropada qolib ketgan turkistonliklarning bir qismi AQSHga ko‘chib o‘tdi. Shu tariqa AQSHda o‘zbeklarning dastlabki jamoalari shakllana boshladi [1].

O‘zbek diasporasining shakllanishi nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki ilmiy-ma’rifiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbek ziyolilari va ma’rifatparvarlari o‘z ona tili, adabiyoti, tarixi va madaniyatini saqlash, keyingi avlodga yetkazish bilan birga, AQSH ilmiy muhitida O‘zbekiston va Markaziy Osiyo haqidagi bilimlarning kengayishiga ham xizmat qildilar.

1958-yilda Pensilvaniyada “Turkiston-Amerika” uyushmasining ro‘yxatdan o‘tkazilishi ham diasporaning tashkiliy jihatdan shakllanganidan dalolat beradi [1]. Bunday uyushmalar o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning milliy-madaniy merosini targ‘ib qilish, jamoatchilik aloqalarini rivojlantirish hamda ilmiy-ma’rifiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynadi.

Indiana universitetida o‘zbek tili ta’limining shakllanishi

AQSHda o‘zbek tilining akademik darajada o‘qitilishi va tadqiq etilishida Indiana universiteti alohida o‘rin tutadi. Mazkur universitetda Markaziy Osiyo va turkiy tillarni o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy muhit shakllanib, o‘zbek tili ham ushbu tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi [1].

O‘zbek tili ta’limi bosqichma-bosqich takomillashib, talabalar tilni boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Hozirgi Indiana universiteti ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zbek tili bo‘yicha uch yillik kurslar mavjud bo‘lib, yozgi intensiv mashg‘ulotlar ham tashkil etiladi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuv, zamonaviy multimedia vositalari va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kengaydi. Malik Xo‘jayevning tadqiqotlarida Indiana universitetida o‘zbek tilini boshqa universitetlar talabalariga masofadan o‘qitish, onlayn kurslar tashkil etish va o‘quv materiallarini raqamlashtirish tajribasi batafsil yoritilgan [6]. Xususan, muallif o‘zbek tilini

o‘qitishda sinxron va asinxron ta’lim shakllarini uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratadi [6].

Bugungi kunda Indiana universitetining o‘quv resurslarida o‘zbek tili uchun audio, video va matnli materiallar, shuningdek, turli bosqichlarga mo‘ljallangan darsliklar mavjud. Bu holat AQSHda o‘zbek tilini o‘qitish an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlaridan raqamli va multimediaviy ta’lim shakllariga tomon rivojlanganini ko‘rsatadi.

Darslik va lug‘atlarning yaratilishi.

AQSHda o‘zbek tilini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish jarayonida darslik, o‘quv qo‘llanma va lug‘atlarning yaratilishi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ingliz tilida so‘zlashuvchi talabalar uchun o‘zbek tilining grammatik qurilishi, lug‘at tarkibi va amaliy qo‘llanishiga bag‘ishlangan turli o‘quv manbalari yaratildi [1].

O‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlik talabalar ehtiyojini qondirish maqsadida grammatik qo‘llanmalar, o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlar, matnlar to‘plami va amaliy mashqlar tizimi shakllandi. Xususan, AQSHda yaratilgan o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlar tilni mustaqil o‘rganish va ilmiy tadqiq etish uchun muhim manba vazifasini bajardi [1].

Indiana universiteti huzuridagi Markaziy Osiyo tillari markazida o‘zbek tili bo‘yicha boshlang‘ich va o‘rta bosqichlarga mo‘ljallangan darsliklar, audio-video materiallar va test topshiriqlarining yaratilgani ham mazkur yo‘nalishning institutsional tus olganini ko‘rsatadi.

AQSHdagi olimlarning o‘zbek tili va madaniyatini o‘rganishdagi faoliyati.

AQSHda o‘zbek tili va madaniyatini o‘rganish tarixida bir qator olimlarning faoliyati alohida e’tiborga loyiq. Ular orasida Xayrulla Ismatullayevning ilmiy-pedagogik faoliyati muhim o‘rin egallaydi. U o‘zbek tili va adabiyotini xorijliklarga o‘rgatish, o‘zbek tili bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar yaratish hamda o‘zbek madaniyatini xalqaro ilmiy muhitda targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shgan [1].

Nazif Shahrani faoliyatida esa Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va mintaqa xalqlarining etnomadaniy xususiyatlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi [2; 3]. Uning tadqiqotlari Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-madaniy hayoti, etnik tarkibi va tarixiy taraqqiyotini kengroq kontekstda tadqiq etish imkonini berdi.

Villiam Fierman tadqiqotlarida til siyosati, milliy o‘zlik va Markaziy Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar masalalari markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Uning *“Language Planning and National Development: The Uzbek Experience”* asari o‘zbek tili, til siyosati va milliy taraqqiyot munosabatlarini o‘rganishda muhim tadqiqotlardan biridir [4]. Olimning Markaziy Osiyoga bag‘ishlangan boshqa ishlari ham mintaqadagi til va milliy identifikatsiya masalalarini yoritadi [5]. Indiana universitetining rasmiy ma’lumotlarida ham Fiermanning asosiy ilmiy qiziqishlari Markaziy Osiyo siyosati, til, islom va davlat identifikatsiyasi bilan bog‘liqligi qayd etilgan.

Malik Xo‘jayev esa o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan mutaxassislardan biridir. U 2002-yildan Indiana universitetida o‘zbek tili o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritib, o‘zbek tilini bosqichma-bosqich o‘qitish, intensiv kurslar va onlayn ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha izlanishlar olib borgan [6]. Uning tajribasi o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning zamonaviy metodik asoslarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

AQSHda o‘zbek tilining o‘rganilishi tarixini o‘zbek diasporasining shakllanishi, turkologik tadqiqotlarning rivojlanishi va universitet ta’limining takomillashuvi bilan uzviy bog‘liq holda baholash mumkin. Dastlab milliy-madaniy ehtiyojlar asosida shakllangan qiziqish keyinchalik akademik va institutsional tus olib, o‘zbek tilini muntazam o‘qitish, ilmiy tadqiq etish, darslik va lug‘atlar yaratish tizimining shakllanishiga olib keldi.

Bu jarayonda Indiana universiteti o‘zbek tilini AQSH akademik muhitida o‘qitish va tadqiq etishning muhim markazlaridan biriga aylandi. O‘zbek tili kurslarining muntazam yo‘lga qo‘yilishi, o‘quv-metodik materiallarning yaratilishi, masofaviy va raqamli ta’lim imkoniyatlarining kengayishi mazkur ilmiy maktabning izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

AQSHdagi o‘zbekshunoslik tajribasi tilni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki tarix, madaniyat, milliy o‘zlik va mintaqaviy tadqiqotlar bilan bog‘liq kompleks obyekt sifatida o‘rganishga asoslangan. Bu tajriba o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi ilmiy va ta’limiy mavqeini yanada mustahkamlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayev X. AQSHda o‘zbek tili va madaniyatining o‘rganilishi hamda o‘qitilishi haqidagi materiallar. – Indiana universiteti materiallari.

2. Shahrani M.N. *The Kirghiz and Wakhi of Afghanistan: Adaptation to Closed Frontiers and War*. – Seattle–London: University of Washington Press, 2002.

3. Shahrani M.N., Canfield R.L. (eds.). *Revolutions and Rebellions in Afghanistan: Anthropological Perspectives*. – Berkeley: Institute of International Studies, University of California, 1984.

4. Fierman W. *Language Planning and National Development: The Uzbek Experience*. – Mouton, 1991.

5. Fierman W. (ed.). *Soviet Central Asia: The Failed Transformation*. – Westview Press, 1991.

6. Hodjaev M. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida online usulida o‘qitish: AQSH Indiana universiteti misolida // *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы*. 2022. – №1. 427–429-b.

Munira XUDOYOROVA,
Profi university Navoiy filiali nodavlat oliy ta'lim muassasasi
"Tillar" kafedrasi dotsenti
Email:muniraxudoyorova77@g.mail.com (Ўзбекистон)

SHARAF GAVHARINING KONI...

Annotatsiya: maqolada Navoiy ijodida komillik sifatlarining INSON ma'naviy dunyoqarashining shakllanishidagi o'rni haqidagi fikrlar tadqiq etilgan. Komillik sifatlarining eng avvalida ILM turishi Navoiyning badiiy, ilmiy, diniy va tasavvufiy asarlari misolida dalillangan. Ilm va ilmparvarlik bilan bog'liq qarashlar Navoiyning ijtimoiy faoliyati misolida ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, ilm, komillik,olim,vali,amal.*

Annotation: the article examines the role of qualities of perfection in shaping the spiritual worldview of a person in the works of Alisher Navoi. It is demonstrated, through examples from Navoi's artistic, scientific, religious, and Sufi writings, that knowledge stands at the forefront of these qualities. Views related to knowledge and devotion to learning are also analyzed through the lens of Navoi's social activities.

Key words: *Alisher Navoi, knowledge, perfection, scholar, saint, deed.*

Аннотация: в статье исследуются взгляды на роль качеств духовного совершенства в формировании духовного мировоззрения человека в творчестве Навои. На примере его художественных, научных, религиозных и суфийских произведений доказано, что во главе этих качеств стоит ЗНАНИЕ. Взгляды, связанные со знанием и стремлением к науке, также проанализированы на основе общественной деятельности Навои

Ключевые слова: *Алишер Навои, знание, совершенство, учёный, праведник, деяние.*

Kirish. Jahon adabiyotida olamshumul ijodi bilan nom qozongan daho ijodkorlar ko'pchilikni tashkil etadi, lekin ular orasida din-u davlatining homiysi, o'z millati farovonligi va ma'naviyatining yuksalishida sobitlik bilan xizmat qilganlari nihoyatda oz. Hazrat Alisher Navoiyning tilimiz va adabiyotimiz rivoji yo'lidagi faoliyati qanchalik yuksak e'tirof etilgan bo'lsa, shoirning insoniylik, saxiylik, futuvvat-u muruvvatda tengsizligi, o'z davri ijtimoiy faoliyatining "rub'i maskunida" ham qahramon ekanligi o'z zamonasidayoq munosib bahosini topgan.

Asrdosh va zamondoshlarining Alisher Navoiyning insoniylik, komillik sifatlariga berilgan ta'rif-u tavsiflari bir joyda jamlansa, nafaqat o'z zamonasida, undan keyingi davrlarda ham Navoiyga teng, Navoiyning o'rnini egallashga munosib boshqa bir INSON tavallud topmagan, degan xulosaga kelish shubhasizdir. O'z davrining "zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi", deya ta'riflangan Abdurahmon Jomiy shuning uchun ham Navoiyning komillik sifatlarini ijodidan ustun qo'yadi. Mashhur muarrix G'iyosiddin Xondamir ham Navoiy shaxsi ulug'langan asarida uni mukammal xulqlarning timsoli, deb biladi va muborak hadislarimiz mazmunidan kelib chiqib, o'z asarini "Makorim ul-axloq" deb nomlaydi. Muallif Hazrat Navoiyning mehribonligi va marhamati, karam-u saxovatining sharafi haqida yozar ekan "hech qachon himmat etagiga foniy dunyo moliga muhabbat g'uborini, bu jahon ashyosiga qiziqish gardini yuqtirmagan"ligini, o'z xususiy mulklarini elining manfaati, yurt tinchligining barqarorligi yo'lida sarflaganligini tarixiy hujjatlar bilan dalillaydi. Zamonasining hukmdori Sulton Husayn Boyqaro mamlakatining ilm-fani rivojida, obodonchiligi va ma'murligida alohida o'rin tutgan bu ulug' zotni "Saltanat rukni, mamlakat tayanchi, din va davlat arbobining zubdasi, mulk va millat sohiblarining peshvosi, xayrli binolar muassisi, pokiza ishlarga yo'llangan hoqon davlatning madadkori..." deb ta'riflaydi.

Buyuk mutafakkir allomaning rahbarlik faoliyati davlatchilik boshqaruvi va rahbar shaxs ma'naviyati nuqtayi nazaridan ham ibrat namunasi bo'la oladi. "Munshaot" asarida amirlar janob Xoja Fazliddin Muhammad va Xoja Shahobiddin Abdullohga nasihat tariqasida yozilgan maktubida davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritadiganlarning amal qilishi zarur bo'lgan asosiy jihatlarni ta'kidlab

yozadi: “…Podshohga yaqinlik saodatini ato etgan kishilardan shuni so‘raymizki, manmanlikka berilib, g‘aflat ko‘chasiga kirib ketmasinlar. Ojizlar va qo‘l ostilaridagi kishilarni rahmdillik va mehribonlik bilan erkalatsinlar. O‘zlarini nafs va shayton aldovidan omonlikda, deb bilmasinlar. Shohning davlati, xalq va qo‘shinning manfaati yo‘lida to‘g‘ri so‘zni aytishdan qo‘rqmasinlar. O‘zlarining manfaatlarini podshohning manfaatidan, podshohning zohiriy manfaatini esa ilohiy amr manfaatidan ustun qo‘ymasinlar”. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. “Mahbub ul-qulub” asarida turli toifa vakillarining ahvoloti haqida gapirar ekan, ularning ham faoliyatlarini ijtimoiy qatlamlarga munosabati bilan baholaydi. Odil podshohlar, islompanoh beklar, nomunosib noiblar, vazirlar, noqobil sadrlar, shayxulislom, muftiyi faqihlar, mudarrislar, imom-u hofizlar haqidagi yuksak axloqiy qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Qonunshunos muftiylar haqida gapirar ekan, ularning kasbidagi bosh mezonni adolat bilan ish ko‘rishida, deb belgilaydi. Bir tanga uchun yuzta haqni nohaq qilmasligi, ozgina marhamat uchun “yo‘q”ni “bor” deb yozmasligini, bir savat uzum uchun bir bog‘ning kuyib ketishidan g‘am chekmaydigan va bir botmon bug‘doy uchun butun xirmon sovrilishidan tashvish chekmaydigan bo‘lmasligi kerakligini uqtiradi. Islompanoh beklar zikrida yozar ekan, ularga “nochorlarning panohi va podshohlarning xayrixohidir”, deb ta’rif beradi. Maqsadi tinchlik va jamiyatning ravnaqi bo‘lgan beklar xizmat qilgan shoh davlatining quyoshi aslo zavolga ketmasligini haqli ravishda e’tirof etadi.

Alisher Navoiy turli mavzuda va janrda yaratgan badiiy asarlarida ham, eng avvalo, INSON va uning kamolotida muhim o‘rin egallaydigan sifatlarni targ‘ib etadi. “Hayrat ul-abror” dostonida inson degan nomga munosib bo‘lishning muhim tamoyillarini belgilab beradi. Va insoniylikning asosini karam-u saxovatda ko‘rib,

Bermak ishi xotiridin ketmamak,
Bermak-u, olmakni xayol etmamak[2] kabilargagina inson degan sharafli nomni munosib ko‘radi:

Oni bashar xaylining Insoni bil,
Odamiylar odamisi oni bil. [3]

Muborak kitoblarimizda zohiriy va botiniy ilmlarni to‘liq egallagan, kamolga yetgan va ma’rifatga erishgan zotlarga komil inson martabasi beriladi. Shuningdek, ular insoniylikning butun ezgu sifatlarini o‘zida to‘plagan yuksak toifa egalari bo‘lishadi. Kamtarinlik, xokisorlik, niyozmandlik, saxiylik, rahmdillik kabi ezgu sifatlar egasi bo‘lgan avliyotabiat Navoiy hazratlari ham komillik martabasiga yetgan. Shuning uchun ham u yer yuzidagi insonlarni tarbiya va irshod qilish vazifasida o‘zining nodir shaxsiyati va asarlarining qahramonlari bilan asrlar davomida qoyimdir.

Natijalar. Komil insonning eng avval tanitadigan belgisi ILM ekanligini Navoiy asarlarining adabiy turi va janridan qat’iy nazar qayta-qayta ta’kidlaydi. Bu mavzudagi fikrlarning manbasi uchun, eng avvalo, Muqaddas kitobimiz “Qur’oni Karim” va Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo alayhissalomning muborak hadislariga tayanadi. “Kimki olimlarning orqasiga o‘tirib namoz o‘qisa, go‘yo payg‘ambarning orqasida namoz o‘qigandek bo‘ladi.” Yana bir sahih hadis Navoiyning asarlarida o‘zining badiiy ifodasini topgan. “Olimlar Payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir” “Xamsa” asarining dastlabki dostoni “Hayrat ul-abror”ning XI maqolotini “Ilm osmonining yulduzlardek baland martabaligi haqida” deb nomlaydi. Ilm so‘zidagi uch harfni quyosh, oy va kunduzga tamsil etadi. Eng e’tiborli joyi shundaki, bir olimning kamoloti uchun 30 yil kerak, deydi Navoiy:

Qarn ila davron topibon iqtiron,
To bo‘libon bir kishi sohibqiron.
Ko‘ngli bo‘lib maskanu ma’voyi ilm
Qatra kibi paykari daryoyi ilm.
Ibriyu yunoniyu suryoni ham,
Hindi agar so‘rsa, bilib oni ham.[4]

Lekin olimning ilmi zinhor amal uchun qurbon qilinmaslik sharti ham belgilab qo‘yiladi:

Ilmni kim vositai joh etar,
O‘ziniyu xalqni gumroh etar [5]

Olim qachon haqiqiy ilmli hisoblanadi? Bu savolga Hazrat Navoiy nihoyatda sahli mumtane san’ati bilan javob yozadi:

Olim agar qat’i amal aylasa,
Ilmiga shoyista amal aylasa.[6]

1 Ғиёсиддин Хондамир.Макорим ул-ахлоқ. –Тошкент: Академнашр, 2018.113-бет.
2 Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2006.74-bet.
3 Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.75-bet.
4 Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2006.154-bet.
5 Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2006.157-bet.
6 Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2006.157-bet.

“Saddi Iskandariy”dagi Iskandar va Arastuning savol-javobi kishini yanada sergaklantiradi. Dostonning 42-bobida Arastu hakim tilidan shunday fikrlar bayon etiladi: “…Dunyo aqli barkamol insonlarsiz qolmasin. Agar bunday aqlli kishilar hayot va jamiyatda o‘z shaxsiy manfaatlari uchun kurashmay, o‘z nafsini demay, halollik bilan ish yuritsalar, qanoat bila tirikchilik qilsalar, ularni payg‘ambar desa ham, valiy desa ham, hakim-faylasuf-donishmand desa ham bo‘ladi.”

Ki ul qavm erur yo nabi,yo vali,
Va yo hikmat ahli aro a’qali
Ki, nafsoniyat qilmayin ishta fosh,
Qilurlar nechukkim keraktur maosh
Badan ichra topib riyozat subut,
Ko‘ngilga berurlar safo birla qut

“Mahbub ul-qulub” asarida bu asarning tabiatidan kelib chiqib, ikki toifa odamlarining umri behuda ekanligini 27-tanbehda keltirib yozadi. Biri – fosiq olim, ya’ni Ilmiga amal qilmagan olim. Ikkinchisi davlatmand baxil. Bularning biri – ilm o‘rganish uchun qancha mashaqqat tortdi, lekin ilmiga amal qilmadi; ikkinchisi – mol-dunyo yig‘ish uchun ko‘p ovora bo‘ldi-yu, nimaga sarflashni bilmadi.

Navoiyning ilm va ilmli insonlar haqidagi fikrlari va hayotiy xulosalari bu nodir shaxsiyatning o‘z davri ma’naviy-ma’rifiy rivojidagi xizmatlari bilan yanada uyg‘unlashib, o‘z mohiyatini, ilmning qadrini, ilmlining nufuzini mustahkamlaydi. Xondamir “Makorim ul-axloq”da shunday tarixiy dalillar keltiradi. Zamonasining eng mashhur olimlarining asarlarining yaratilishida homiylik qilganini nomma-nom keltirgan holda dalillaydi. Shu o‘rinda yana muborak hadislarimizga murojaat qilsak. Ularda ikki dunyoda ham savobi kesilmaydigan sadaqa haqida gapiriladi. Ana shular toifasiga el uchun foydali inshootlar va kitoblar kirar ekan. Xondamir yozadi: Navoiy homiylik qilgan olimlarning ilmlaridan hosil bo‘lgan savob qiyomatga qadar soya solib turar ekan. Navoiyning homiyligida yaratilgan yigirmadan ortiq asarlarni keltiradi. Bular Amir Asiliyning Payg‘ambar va uning oilasi haqidagi “Do‘stlik bog‘i” , Husayn Koshifiyning “Tafsiri Forsiy”, Mavlono Shirvoniyning “Hikmat ul-ayn” asarlaridir.

Navoiy ilm va uning foydalari haqidagi fikrlarini “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ilmiy jihatdan isbotlaydi. Va o‘rni bilan badiiy asarlari qatiga singdirib yuboradi. Masalan, Luqmoni Hakim haqida yozar ekan, uning ilmi qullikdan ozod qilganini rivoyatlar orqali dalillaydi. Yoki Aristotel haqida yozar ekan, uning Aflotunning shogirdi bo‘lganligini aytish bilan cheklanmaydi. Ularning eng sara fikrlarini ham asrdan asrga olib o‘tadi. “Shoh ulkan daryodur. Xalq esa undan ajralib chiqqan ariqlardan. Ul sof bo‘lsa, bular sof, Ul loy bo‘lsa, bular ham loy.

Shoh daryo va xalq erur anhor,
Ikisining suyida bir maza bor.”

Xulosa. Uzoq asrlar Navoiy asarlarini butun turkiy xalqlar asl nusxalarda o‘qib kelgan va shoir o‘zi yozganidek “ko‘ngil bergan”. Bu haqida taniqli turk olimi Fuod Ko‘prulining quyidagi fikrlarini ham keltirish o‘rinlidir. “Alisher Navoiy faqatgina O‘rta Osiyo turkiylarining, ya’ni o‘zbek adabiyotining buyuk shoiri bo‘libgina qolmagan, uning asarlari yuz yillar davomida turk dunyosining har tarafida, Onado‘li va Rum elida, Ozarbayjonda, Eronda, Iroqda, Qrimda, Volga bo‘ylarida, turkmanlar orasida, hattoki Hindistondagi turk saroylarida o‘qib-o‘rganib kelingan”. Shunday ekan, ulug‘ ajdodimiz ijodiga va shaxsiyatiga doir asarlarning mukammal nusxalarini, ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish eng muhim vazifalardan biridir.

Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ygan mamlakatimizda xalqimizning ming yillik tajriba, tushuncha va qadriyatlariga tayangan Navoiyning tengi yo‘q badiiy, ilmiy, hayotiy merosini o‘rganish va anglash xalqimiz ma’naviyati va ma’rifatining ajralmas bo‘lagi bo‘lib qolaveradi.

Dilobar JURAYEVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Olot tuman bo'linmasi rahbari,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

TIL VOSITAI ROBITAI OLAMIYONDUR (TIL – DUNYO XALQLARI O'RTASIDAGI ALOQA VOSITASIDIR)

Annotatsiya: ushbu maqolada tilning inson hayoti, tafakkuri, ma'naviyati va milliy o'zligini shakllantirishdagi beqiyos o'rni yoritilgan. Unda ona tiliga hurmat bilan bir qatorda, xorijiy tillarni o'rganishning yoshlar dunyoqarashi, ilm-fan va zamonaviy taraqqiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada Avaz O'tar ijodidagi til, ilm-ma'rifat va yoshlar tarbiyasiga oid qarashlar misollar asosida sharhlanib, tilning xalqlar o'rtasidagi aloqa vositasi hamda ilm va hunarga eltuvchi muhim vosita ekanligi ochib beriladi. Shuningdek, ona tilini asrab-avaylash, yosh avlodga til va muomala madaniyatini singdirish, chet tillarini puxta egallash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *til, ona tili, o'zbek tili, xorijiy til, muloqot, milliy o'zlik, ma'naviyat, tafakkur, Avaz O'tar, ilm-ma'rifat, yoshlar, ta'lim, til o'rganish, globallashuv.*

Аннотация: в данной статье освещается особая роль языка в жизни человека, формировании его мышления, духовности и национальной идентичности. Наряду с уважением к родному языку рассматривается значение изучения иностранных языков для расширения мировоззрения молодёжи, развития науки и современного общества. На примере творчества Аваза Отара анализируются его взгляды на язык, просвещение и воспитание молодого поколения, раскрывается значение языка как средства общения между народами и важного инструмента для получения знаний и овладения профессией. Особое внимание уделяется сохранению и развитию родного языка, формированию культуры общения у молодого поколения, а также необходимости глубокого изучения иностранных языков.

Ключевые слова: *язык, родной язык, узбекский язык, иностранный язык, общение, национальная идентичность, духовность, мышление, Аваз Отар, просвещение, молодёжь, образование, изучение языков, глобализация.*

Annotation: this article highlights the significant role of language in human life and its importance in shaping thinking, spirituality, and national identity. Along with respect for the mother tongue, the article examines the importance of learning foreign languages for expanding young people's worldview, developing science, and adapting to modern progress. Based on the literary works of Avaz Otar, the article analyzes his views on language, education, enlightenment, and youth development. It also reveals the role of language as a means of communication among peoples and as an important tool for acquiring knowledge and professional skills. Particular attention is paid to preserving and developing the mother tongue, fostering a culture of communication among the younger generation, and mastering foreign languages in accordance with the requirements of the modern world.

Keywords: *language, mother tongue, Uzbek language, foreign language, communication, national identity, spirituality, thinking, Avaz Otar, enlightenment, youth, education, language learning, globalization.*

Til – insoniyatga Yaratgan tomonidan tuhfa qilingan eng buyuk ma'naviy boylikdir. Inson dunyoga kelar ekan, u eng avvalo, ona allasini, yaqinlarining ovozini, tevarak-atrofning tovushini, demakki, ona tilining navosini eshitadi. U shu tovushlar orqali atrofidagi olamni taniydi, fikrlaydi, tili orqali esa hislarini ifodalaydi va boshqalar bilan muloqotga kirishadi. Shuning uchun til faqat so'zlar yig'indisi bo'libgina qolmay, balki insonning ruhiy olami, tafakkuri va milliy o'zligini namoyon etuvchi bebaho boylikdir. Bugun jonimizga og'riq solayotgan globallashuv jonajon o'zbek tilimizga ham o'z ta'sirini sezilarli darajada o'tkazmoqda. Oddiygina telefondagi xabarlashuvni misol qilaman: yaxshigina ziyoli bo'lgan bir o'qituvchi bilan ish yuzasidan telegram orqali suhbatlashib qoldik. Yozishmalar davomida uning juda ko'plab

xatoliklarga yo‘l qo‘yganiga guvoh bo‘ldim. Masalan: shovqin so‘zidagi “v” harfi o‘rniga “w” harfini, barcha qattiq x harflari o‘rniga h harflarini va eng achinarlisi “xo‘p, unda xayr” deyilgan jumlani esa “hop, unda hayir” deb yozibdi. Essiz, dedim o‘zimga o‘zim. Oliy ma’lumotli kishilarki shunday xatoliklarga yo‘l qo‘yar ekan, boshqalardan xafa bo‘lishga haqqimiz bormi? Bugun hamma sharoitlarimiz zo‘r bo‘lib borayotgan ana shunday dorulomon zamonda, ertangi kelajak avlodga shu xato va kamchiliklarimiz bilan namuna bo‘la olamizmi? Yaqinda tuman hokimining davlat tili bo‘yicha maslahatchisi qo‘ng‘iroq qilib, “Opa, Umummilliy diktant loyihasi” o‘tkazilyapti, barcha tashkilot rahbarlari hamda boshqa mas’ullarni shu loyihaga jalb qilyapmiz, siz ham qatnashasiz, shuni bildirib qo‘yay deb qo‘ng‘iroq qilayapman, – deb qoldi. Unga albatta qatnashaman deya rozilik bildirdim-u, lekin ko‘nglim xijil bo‘ldi. Bu dunyoda xato qilmaydigan inson yo‘q, lekin ko‘pchilik bilan tashkil qilinayotgan bu loyihada bexato yoza olarmikanman, deb bir-ikki marta o‘zim bolalarim bilan diktant yozib, mashq qildik. Farzandlarim ham, o‘zim ham birgalikda qilgan mashg‘ulotimizdan zavq oldik. Ona tilimiz ana shunday har bir insonga qalb halovati, g‘urur va iftihor bo‘lib singmog‘i lozim. Kichik yoshdagi bolalarda asosan, maktabgacha ta’lim muassasalarida muloqot orqali muomala madaniyati shakllanib boradi. Aynan shu davrdan boshlab ularga o‘zbek tilimizning jozibadorligi, uning jarangi va bugungi kundagi mavqei haqida singdirib borishimiz lozim. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qaysi tadbirda jaranglasa, qo‘shilib, baland ovozda kuylayman. Bu qo‘shiq tomirlarimda Vatan mehri, tinchlik sururi bo‘lib jo‘sh uradi va har bir ta’lim muassasasida bu ilohiy qo‘shiqni barcha faxr-u iftihor bilan kuylasa, uning naqadar jonbaxsh kuy ekanligini his qilsa, menimcha bu avlod kelajakda Vatanini sevadigan, unga sadoqat bilan xizmat qiladigan, yetuk insonlar bo‘lib yetishadi.

Ayni insondagi bu vosita xususida Avaz O‘tar ijodida alohida teranlik bilan ifodalangan. Shoirning til o‘rganish, ilm-ma’rifat va yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlangan g‘azali o‘z davri uchun nihoyatda ilg‘or qarashlarni ilgari suradi:

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.

G‘azalning ilk satrlaridanoq shoir tilni “jon”ga qiyoslaydi. Bu juda kuchli badiiy ifoda. Inson uchun jon qanday zarur bo‘lsa, jamiyat uchun ham til shunday zarur. Til bo‘lmasa, inson o‘z fikrini boshqasiga yetkaza olmaydi, xalqning tajribasi avloddan avlodga o‘tmaydi, madaniyat va ma’naviyatning uzviyligi buziladi.

Ikkinchi misrada esa “Robitai olamiyon”, ya’ni olam ahli o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etilgan til insonlar o‘rtasidagi masofalarni yaqinlashtiradi. Turli millat va xalqlar bir-birining tilini o‘rgangani sari ular o‘rtasida o‘zaro tushunish, hamkorlik, hurmat va do‘stlik rishtalari bog‘lanadi.

Bugungi hayotga nazar tashlasak, shoir fikrining naqadar hayotiy ekanini ko‘ramiz. Hozirgi davrda yoshlarning chet tillarini o‘rganishi, o‘qituvchi va ziyolilarning til bilish darajasi bo‘yicha sertifikatlarga ega bo‘lishi, bir necha tillarda so‘zlasha oladigan insonlar dunyoning turli mamlakatlaridagi odamlar bilan bemalol muloqot qilishi, chet el adabiyotlarini asl holida, haqiqiy zavq-u shavq bilan o‘qishi, ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi va o‘z bilimini kengaytirishi mumkin. Til nafaqat so‘zlashuv vositasi, balki inson kamoloti uchun yangi ufqlarni ochadigan kalit hamdir. Xuddi shu narsani bashorat qilgan shoirning keyingi satrlariga diqqatni qaratamiz:

G‘ayri tilini say qiling bilgani, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.

Bu yerda asosiy e’tibor “yoshlar”ga qaratilgan. Chunki har qanday jamiyatning ertangi kuni yosh avlod qo‘lida. Bugun maktab partasida o‘tirgan bola ertaga olim, shifokor, muhandis, o‘qituvchi yoki davlat arbobi bo‘lishi mumkin. Uning dunyoqarashi qanchalik keng bo‘lsa, jamiyatga keltiradigan foydasi ham shunchalik katta bo‘ladi.

Shoir tilni ilm va hunar bilan bog‘laydi. Chet tilini bilishning o‘zi maqsad emas, til orqali ilm olish, kasb-hunar egallash, dunyo tajribasini o‘rganish muhim ekanini ochib beradi. Demak, **til – maqsadga eltuvchi vosita, ilm esa o‘sha vosita orqali egallanadigan ma’naviy boylikdir.**

Shundoq men ishlaydigan xonaning ro‘parasida maktab o‘quvchilari uchun kichik til to‘garagi tashkil qilingan. Shu to‘garakka o‘g‘limni olib kelgan ilk kunlarim, u zerikayotganini aytib, shikoyat qildi. Dastlab u oddiy so‘zlarni yodladi, grammatik qoidalarni o‘rgandi, xatolar qildi. Ammo vaqt o‘tishi bilan u topshiriqlarni o‘zi bajarib, lug‘atlarni yod ola boshladi. Bugun u tengdoshlari bilan ingliz tilida muloqot qiladi, keyinchalik xalqaro kurslarda

qatnashadi. Bir vaqtlar uning uchun yopiq bo‘lgan ulkan bilim olami asta-sekin ochila boshlaydi. Avaz O‘tar nazarda tutgan “til – ilmga eltuvchi vosita” degan fikrning zamonaviy hayotdagi ko‘rinishi aynan shudir.

G‘azalning keyingi baytida shoir til o‘rganishga bo‘lgan munosabatini yanada kuchaytiradi:

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g‘ayrat eting foida kondur.

Bu satrlarda “ona tilidek” iborasi alohida e’tiborga loyiq. Shoir tilni yuzaki bilish bilan kifoyalanmaslikni, u insondan g‘ayrat va jiddiy mehnat talab qilishini uqtiradi. Har qanday bilim singari til ham izlanish, sabr va muntazam mashq orqali egallanadi.

Hozirda ham til o‘rganayotgan odamning yo‘li doim ham ravon emas. Ba’zan yangi so‘zlar yodda qolmaydi, ba’zan talaffuzda xatolar yuz beradi, gohida esa inson o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi. Ammo shoir aytgan “g‘ayrat” ana shu to‘siqlarni shiddat bilan yorib o‘tishga yordam beradi.

Til o‘rganish aslida insonning o‘z ustida ishlash maktabidir. Har kuni bir nechta yangi so‘z o‘rganish, kitob o‘qish, suhbatlashish, eshitish va yozish orqali inson nafaqat yangi tilni, balki sabr-toqat va intizomni ham o‘zlashtiradi.

G‘azalning eng muhim ijtimoiy mazmunini ifodalovchi baytlardan biri esa quyidagicha:

Ilm-u fan uyig‘a yuboringlar bolangizni,
Onda o‘qug‘onlar bori yaktoyi zamondur.

Bu yerda Avaz O‘tar bevosita ota-onalarga murojaat qiladi. Shoirning nazarida bolaning kelajagi uning qanday ta’lim olishi bilan chambarchas bog‘liq. “Ilm-u fan uyi” deb atalgan dargoh bu maktab, ta’lim maskani, ma’rifat uyi. Shoir bolani shu maskanga yuborishni ota-onaning muhim vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

Maktabda tahsil olayotgan har bir yosh avlod: kimdir kelajakda yangi dori yaratishi, kimdir zamonaviy texnologiya kashf qilishi, yana kimdir ilm-fan yoki san’at orqali xalqini dunyoga tanitishi mumkin. Buning boshlanishi esa ko‘pincha oddiygina maktab partasidan boshlanadi.

Shu jihatdan qaraganda, Avaz O‘tarning “bolangizni ilm-u fan uyiga yuboringlar” degan da’vati oddiy nasihat emas. Bu – jamiyat kelajagini ta’lim orqali qurish g‘oyasidir.

G‘azalning yakuniy bayti esa avvalgi keltirilgan fikrlarni yuksaklarga chiqaradi:

Zor o‘lmasun onlar dog‘i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidan oni bag‘ri to‘la qondur.

Shoir g‘azal so‘nggida o‘zini misol sifatida keltirib, “Bag‘ri to‘la qondur” – deya izohlaydi. Shoir til bilmaslik sabab insonning qanday imkoniyatlardan mahrum bo‘lishi mumkinligini o‘zining ruhiy kechinmasi orqali ko‘rsatadi.

Bu misralarni o‘qiganda ko‘z oldimizda bir insonning hayotiy manzarasi gavdalanadi: u ilmga intiladi, dunyoni bilishni xohlaydi, ammo til to‘sig‘i uning oldida devordek turaveradi. Atrofida ulkan imkoniyatlar bor, biroq ularning eshigini ochadigan kalit yetishmaydi. Ana shu holat shoirning “bag‘ri to‘la qon” degan obrazida mujassam.

Ona tili – insonning ma’naviy ildizi. Chet tillari esa uning dunyoga chiqadigan qanotlaridir. **Ildizsiz daraxt baland o‘sa olmaganidek, o‘z tilini unutgan inson ham o‘zligini to‘la anglay olmaydi. Qanotsiz qush uzoqqa ucha olmaganidek, zamonaviy dunyoda til bilmagan insonning imkoniyatlari ham cheklanib qolishi mumkin.**

Xulosa qilib aytganda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bugungi kunda jahonning nufuzli forum va minbarlarida o‘z ona tilimiz – o‘zbek tilida nutq so‘zlayotgani milliy tilimiz va milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan yuksak ehtiromning yorqin ifodasidir. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tilining nufuzi tobora yuksalib, yurtimiz o‘z tili, o‘zligi va erkinligini butun dunyoga namoyon etayotganidan dalolat beradi. Bugungi yosh avlod zimmasida esa ona tilimizni asrab-avaylash, uni hurmat qilish va ravnaqiga munosib hissa qo‘shish bilan birga, zamonaviy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, chet tillarini ham puxta o‘rganish vazifasi turibdi. Zero, ona tiliga hurmat va xorijiy tillarni bilish – milliy o‘zlik hamda zamonaviy dunyo bilan uyg‘unlikning muhim mezonidir.



TILSHUNOSLIK

Zohida MUQIMOVA,
O‘zR FA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: zohidamuqimova69@gmail.com
ORSID: https://orsid.org/0009-0006-6429-5022

O‘ZBEK TILIDAGI AYRIM KIYIM-KECHAK LINGVOMADANIY KODLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya: o‘zbek tilidagi ayrim kiyim-kechak lingvomadaniy kodlarining maqol va topishmoqlarda ifodalanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyat, milliy-madaniy birliklar, qadriyat, lingvomadaniy kod, somatik kod, kiyim-kechak lingvomadaniy kodi, zoomorf lingvomadaniy kod, metonimiya, sifatlovchi.*

Аннотация: рассматривается выражение в узбекском языке определенных лингвокультурных кодов, связанных с одеждой, в пословицах и загадках.

Ключевые слова: *лингвокультура, natsionально-культурные единицы, ценность, лингвокультурный код, соматический код, лингвокультурный код одежды, зооморфный лингвокультурный код, метонимия, модификатор.*

Annotation: the expression of certain linguocultural codes related to clothing in the Uzbek language within proverbs and riddles is examined.

Key words: *linguoculture, national-cultural units, value, linguocultural code, somatic code, clothing-related linguocultural code, zoomorphic linguocultural code, metonymy, modifier.*

Kirish. Til va madaniyatning uzviy aloqadorligi, bir-birini muntazam to‘ldirib turishi, tilning boyishi va rivoji uning egasiga hamda ular tafakkuriga, tiliga mansub madaniy kodlarning shakllanish omiliga bog‘liq.

Lingvomadaniy kod turlaridan biri kiyim-kechak lingvomadaniy kodi “Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan kiyim-kechakka tegishli tushunchalarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch qism bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Masalan: Ko‘k k o‘ y l a k ka g‘o‘za yoydim (Osmon, yulduzlar), bir y o q a dan bosh chiqarmoq, t o‘ n i ni teskari kiymoq, d o‘ p p i si yarimta, ikki oyog‘ini bir e t i k ka tiqmoq kabi” [4, 2024:34].

Do‘ppi, chust do‘ppi, ukpar qadalgan do‘ppi, g‘ijim ro‘mol, beqasam to‘n, belbog‘, atlas kabi milliy-madaniy birliklar ma’lum ma’noda o‘zbek xalqining milliy-madaniy tarixini aks ettiradi, xalqimizning o‘tmishi, madaniyati, milliy idrok tarzini o‘zida yaqqol ko‘rsatadi. Jumladan, *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi* maqolida *do‘ppi*, *Oqko‘ngillikning oti ham ozmas*, *To‘ni ham to‘zmas; Otga boqma, to‘nga boq, Ichidagi jonga boq* maqollarida *to‘n, belida belbog‘i bor* iborasida *belbog‘* kiyim-kechak lingvomadaniy kodi madaniy qimmatga ega.

Asosiy qism. O‘zbek tilida *do‘ppi*, *to‘n* kiyim-kechak lingvomadaniy kodlari boylikni ifodalaydi. *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar*; *Omon bo‘lgan ot minar, Ola parcha to‘n kiyar* maqollari buning isbotidir.

Otni yaxshi ko‘rsatgan – tuyoqdagi taqasi, To‘nni yaxshi ko‘rsatgan – yengi bilan yoqasi maqolida *to‘n* so‘zi metonimiya asosida umuman inson tushunchasini ifodalagan. *Yeng* va *yoqa* kiyim-kechak lingvomadaniy kodlari insonning tashqi ko‘rinishini anglatgan. Ushbu maqolda tashqi ko‘rinish ham insonni baholovchi mezon bo‘la olishi aytilgan bo‘lsa, *Otga boqma, to‘nga boq, Ichidagi jonga boq* maqolida insonning tashqi ko‘rinishiga – suratiga emas, balki siyratiga – aql-zakovati, bilimi va qobiliyatiga qarab baholamoq lozimligi uqtirilgan. Bunda *ot* zoomorf lingvomadaniy kodi mol-dunyo, amal-martaba, *to‘n* kiyim-kechak lingvomadaniy kodi insonni, *jon* somatik kodi inson ma’naviy dunyosini, aqlini ifodalaydi.

Otini ayagan ot minar, To‘nini ayagan to‘n kiyar maqolida *ot* zoomorf lingvomadaniy kodi, *to‘n* kiyim-kechak lingvomadaniy kodi *mavjud mol-dunyoni*

anglatgan. To‘n o‘zbekning milliy kiyimi bo‘lib, metonimiya asosida mavjud bo‘lgan turli xildagi kiyimlarni bildirgan. Ushbu lingvomadaniy kodlar vositasida insonlar shukr qilib, boriga qanoat qilib yashashga, bor narsani asrab-avaylab ishlatishga, uni isrof qilmaslikka chaqirilgan.

Lingvomadaniy kodlar o‘z mazmuniga ko‘ra topishmoqlarning semantik turlaridan biri bo‘lgan metaforik mazmunli topishmoqlarning shakllanishida asosiy omil rolini bajaradi. Kiyim-kechak lingvomadaniy kodlari ham topishmoqlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bunda til egalarining lisoniy tafakkuridagi kognitiv jarayon – topishmoqning javobi bo‘lgan so‘z ifodalagan obyekt bilan lingvomadaniy kod sifatida voqelangan so‘z ifodalagan obyekt o‘rtasidagi yashirin o‘xshatish topishmoqning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Masalan, *Pak-pakana bo‘yi bor, Yetti qavat t o‘ n i bor (Piyoz);* Mazkur birlikda to‘n va piyozning po‘sti yashirin tarzda qiyoslangan. O‘quvchi topishmoqning javobini lingvomadaniy kod sifatida voqelangan so‘z ta’sirida yuzaga keluvchi assotsiatsiyalar vositasida topadi.

Belida belbog‘i bor birligi xalqimizning purma’no iboralaridan biridir. Zamirida millatning ibratli qadriyati mujassam bo‘lgan bu birlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *Belingda belbog‘ing bormi*? (Yigitmisan? Yigitlik g‘ururing bormi?) [5, 2022:387] ko‘rinishida izohlangan. Mazkur ibora “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da “kimning? g‘ururini yo‘qotmagan, o‘z qadr-qiymati uchun kurashadigan, izzat-nafsining tahqirlanishiga yo‘l qo‘ymaydigan” deb izohlangan[4, 2022:71]. Ayonki, *belbog‘* so‘zi ikki so‘z – *bel* va *bog‘* qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Ushbu so‘z qatnashgan iboralarning deyarli barchasida voqelikka milliy munosabat va ruhiyat uyg‘undir. Chunki bu kabi lingvomadaniy birliklarda o‘zbek xalqining muayyan tarixi, madaniyati, milliy idrok tarzi o‘z izini qoldirgan. Masalan: *bel bog‘lamoq* (shaylanmoq, astoydil kirishmoq), *bel olishmoq* (kurash tushmoq, kuch sinashmoq), *beli og‘rimaydi* (mashaqqat chekmaydi, qiynalmaydi), *beliga tepmoq* (xalaqit bermoq), *beli baquvvat* (polvon, kuchli; puldor), *beli bukildi* (ruhan cho‘kib qolmoq). Ushbu iboralar o‘zbek kishilarining milliy psixologiyasi va milliy turmush tarzi tasvirining haqqoniy ifodachisidir. Bugungi kunda tilshunosligimizda bu kabi birliklarni lingvomadaniy kodlar nuqtayi nazaridan o‘rganishga e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, madaniyat kodlari tilda asosan, turg‘unlik kasb etgan birliklar – maqol, ibora, metafora va turg‘un o‘xshatishlar orqali aniqlanadi [3, 2019:16].

Belida belbog‘i bor iborasidagi *belbog‘* so‘zi kiyim-kechak lingvomadaniy kodi hisoblanadi. Mazkur so‘zning kiyim-kechak lingvomadaniy kodi sifatida voqelanganini quyidagicha asoslash mumkin. *Belbog‘* so‘zi milliy xoslanganligi, milliy-madaniy bo‘yoqdorligi bilan xarakterlanadi. *Belbog‘* so‘zining lingvomadaniy kodga aylanishida uning ko‘chma ma’nosi rol o‘ynagan. O‘zbek yigitlari, ayniqsa, og‘ir ish qilganda, kurash tushganda beli mustahkam bo‘lishi uchun beliga belbog‘ bog‘lashgan. Keyin bu ma’no ko‘chma ma’no kasb etib, *mard yigitlar* ma’nosida tushuniladigan bo‘lgan. Tilshunos olim Y.Odilov ta’kidlaganidek, “Azaldan o‘zbek erkaklari to‘n va yaktak ustidan belbog‘ bog‘lagan, shuning uchunmi, mard va lafzi halol yigitlar *belida belbog‘i bor* deb sifatlangan [2, 2020:14]”. Odatda, hozirgi kunda o‘zbek erkaklari belbog‘ bog‘lashmaydi. Hozirgi vaqtda u ta’ziya belgilaridan biri bo‘lib qolgan.

O‘zbek erkaklarining belbog‘ bog‘lashi “Ikki eshik orasi” [1, 2016:752] romanida Kimsan va Oqsoqol bilan bog‘liq tasvirlarda o‘z ifodasini topgan: *U etigini yechib uyga kirib ketdi. Etigini chetga olib qo‘ya turib, paytavasi terlab ketganini bildim. Qarasam, ayvon burchagida qizil belbog‘iyam turibdi. Oshxonaga kirib suv isitdim. Avval qiyiqchani, keyin paytavani yuvdim.* (110-6.) (Kimsanning tasviri); *Bobom oyimning bilagidan tutgancha nuqul bir gapni qaytarib, yalinar edi: – Ko‘zingni och, onasi, ko‘zingni och... Oqsoqol belbog‘ini shosha-pisha yechib, oyimni yelpishga tushdi. Menga qarab o‘shqirdi: – Suv obkelsang-chi, Robiya!* (129-6.)

Roman qahramoni Orif oqsoqolni o‘zbek xalqining fidoyi, jonkuyar oqsoqollarining ramziy timsoli desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Orif oqsoqol belida belbog‘i bor kishilardan. Quyidagi matnda Orif oqsoqolning, haqiqatdan ham, shunday inson ekanligi Shomurodning nutqida o‘z isbotini topgan: *Oqsoqolning o‘zi ham terlab-pishib bug‘doy o‘radi. Baraka topkurlar, yana jinday g‘ayrat qilaylik, belida belbog‘i bor odam shunaqa paytda o‘zini ko‘rsatmasa, qachon ko‘rsatadi! – deb odamlarga bosh-qosh bo‘ladi.* (496-6.)

Romandagi quyidagi matnlarda esa *belida belbog‘i bor* iborasi mard, lafzi halol ma’nosida qo‘llanib, urush ortidagi kishilarning urushda qatnashayotgan

odamlarga muruvvati, insonparvarligini yoritishda vosita bo‘lgan: *Oqsoqol raisligi paytida bunaqa dag‘dag‘alar yo‘q edi. Zarur bo‘lib qolganida Oqsoqol:“Xaloyiq, shu ish shundoq bo‘p qoldi, belida belbog‘i bor deganing kelaver”, desa, odamlar o‘tgayam-suvgayam urib ketaverardi.* (83-б.)

Jon omon bo‘lsa, mol topiladi. Bolang sog‘-salomat kelsa, to‘yni taqinchoqsiz ham qilaverasan. Omadi gap shu: belimda belbog‘im bor deganing obchiqaver lash-lushingni! (369-б.)

Bir so‘z bilan aytganda, *belida belbog‘i bor* iborasida o‘zbek xalqining tarixiy, ijtimoiy voqelar bilan bilan bog‘liq oilaviy hayoti, odamlarning o‘zaro munosabati, kishilarning fazilatlari, xullas, o‘zbekona tafakkur o‘z tajassumini topgan. Bunda *belbog‘* so‘zi lingvomadaniy kod sifatida muhim o‘rin egallaydi. Chunki belbog‘ o‘zbek lingvomadaniyatida o‘zbek yigitlarining sifatlaridan biriga aylangan.

Ma’lumki, o‘zbek tili maqol va topishmoqlarida atlas so‘zi ko‘p kuzatiladi. Masalan, *Eshakka atlas to‘qim ursang ham*, *baribir eshak*. Ushbu maqolda *atlas* kiyim-kechak lingvomadaniy kodi qimmatbaho gazlama ma’nosida qo‘llangan. Atlas bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama bo‘lib, o‘zbek xalqining milliy madaniyatini ko‘rsatuvchi belgilaridan biri [O‘zbek tilining izohli lug‘ati (1 jild), 2022:167]dir. *Eshakka gilam to‘qim ham bir*, *juldur to‘qim ham bir* maqolida *juldur* (*to‘qim*) kiyim-kechak lingvomadaniy kodi *Eshakka atlas to‘qim ursang ham*, *baribir eshak* maqolidagi *atlas* kiyim-kechak lingvomadaniy kodiga zidlantirilgan. *Juldur* (*to‘qim*) kiyim-kechak lingvomadaniy kodi tutilaverib dabdalasi chiqqan narsani ifodalagan [O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2 jild), 2022:690].

*Yirtiq **to‘n**ni it qopar* maqolida o‘zganing rizqini qiyishdan qiynalmaydigan vijdonsiz odamlar qiyofasi itga o‘xshatilib, tanqid qilingan. Bunda *to‘n* kiyim-kechak lingvomadaniy kodi birovning mehnati, kuchi bilan topilgan narsa, boylikka ega bo‘luvchi kishini ifodalagan. *To‘n* metonimiyasi oldidagi *yirtiq* sifatlovchisi birovning rizqi bilan kun kechiruvchi kishining razillik xususiyatini bo‘rttirib ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa. Har qanday millatning lingvomadaniyatini to‘liq idrok etish uchun uning lingvomadaniy kodlarini, jumladan, kiyim-kechak kodlarini ham anglash taqozo etiladi. U yoki bu xalqning milliy-madaniy tasavvurlari, obrazli tafakkuri in’ikosi sifatida olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasini o‘zida ifodalovchi lingvomadaniy kodlarni o‘rganish, ularni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq qilish millatning turmush tarzi, mental xususiyatlari va milliy-madaniy xarakterini, ijtimoiy munosabatlarini, muomalasining axloqiy-madaniy me’yorlarini, milliy qadriyatlari, an’analarini atroflicha tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 752-bet.

2. Odilov Y. O‘zbek tili va uning etnomadaniy zanginligi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2020. №2.4-bet.

3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – № 3.16-bet.

4. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024.30-bet.

5. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.71-bet.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 387-bet.

Munosibxon ISHANJANOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti professori
Filologiya fanlari doktori (DSc)

ETNOGRAFIK BIRLIKLAR VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI

Annotatsiya: maqolada etnografik birliklarning madaniy va lingvistik xususiyatlari, ularning tarjimadagi o‘rni yoritiladi. Etnografizmlar muayyan xalqning tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari va turmush tarzini aks ettiruvchi, ko‘pincha boshqa tillarda ekvivalentga ega bo‘lmagan birliklar sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, ularni adekvat tarjima qilishda tarjima transformatsiyalarining ahamiyati hamda etno-madaniy lug‘atlarning vazifasi tahlil qilinadi va madaniy tafovutlarning tarjimaga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *etnografizm, etnografik birliklar, tarjima transformatsiyasi, madaniy tafovut, ekvivalentsizlik, etno-madaniy lug‘at, madaniy qadriyatlar.*

Annotation: the article highlights the cultural and linguistic features of ethnographic units and their role in translation. Ethnographicisms are described as units that reflect the history, customs, values, and lifestyle of a particular people and often have no equivalents in other languages. The article also analyzes the importance of translation transformations in achieving adequate translation, the functions of ethnocultural dictionaries, and the impact of cultural differences on translation.

Key words: *ethnographism, ethnographic units, translation transformations, cultural differences, non-equivalence, ethnocultural dictionary, cultural values*

Kirish. Tarjima elementlari madaniy tafovutlarga ko‘ra mos keladigan va mos kelmaydigan turlarga ajralib turadi. Madaniyatni anglatuvchi birliklarning aksariyati mos kelmaydigan elementlarni tashkil etadi. Tarjima tillari madaniyatlari bir-biriga yaqin bo‘lsa, ularning madaniy farqlari kam bo‘ladi, agar ular uzoq bo‘lsa, til qurilishi va so‘z birliklari tanlovida katta o‘zgarishlarga uchraydi. Boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan ma’lum xalq madaniyatini aks ettiruvchi so‘zlar etnografik birliklarni tashkil qiladi. Etnografik birliklar etno-madaniy lug‘atlarda o‘z aksini topadi.

“Etno-madaniy lug‘at” – bu ma’lum bir xalqning o‘ziga xos madaniyati haqidagi bilimlar tizimini insonlarning tarixiy va etnik xususiyatlaridan kelib chiqib tavsiflovchi lug‘atdir.[1]

Akademik A.Kaydar etnografik birliklarni insonlarning kundalik va lingvistik xususiyatlarini, o‘tmishda yoki hozirda ishlatiladigan, ma’lum bir hunarmandchilik, iqtisodiyot, urf-odatlar, marosimlar, belgilar, e’tiqodlar, uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat, qarindoshlik munosabatlari, mamlakatni boshqarish xususiyatlarini aks ettiruvchi birliklar deya ta’riflaydi.[2]

Muhokama va natija. Etnografizmlar madaniy qadriyatlarni shakllantirish va madaniyatlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi lingvistik omillardan biri hisoblanadi. Ular yordamida ma’lum bir millatning tilinigina emas, tarixini, qadriyatlarini ham o‘rganish mumkin. Etnografizmlar ekvivalenti bo‘lmagan so‘z birikmalar yoki tilda to‘liq va qisman leksik ekvivalentlariga ega bo‘lmagan so‘zlarga ishora qiladi. Etnografizmlar ma’lum bir etnik guruhga xosdir, ular boshqa tilda o‘z variantlariga ega bo‘lmaydi. Etnografik birlikni tarjima qilishda tarjimonga tarjima transformatsiyasi yordamga keladi. Tarjima transformatsiyasi deganda sifatli, adekvat va ekvivalent tarjimaga erishish uchun manba va tarjima tillari o‘rtasidagi tillararo transformatsiya munosabatlari tushuniladi. Ular etnografik birlikning ma’nosini to‘liq ochib berishda ahamiyatga ega bo‘lib, bunda tarjima asar o‘quvchilarga tushuncha haqida ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Etnografizm – biron bir joyda etnografik xususiyatlar, tavsiflar, tafsilotlarning mavjudligidan darak beradi.

Etnografik birlik, etnomadaniy leksika, etnografik dialektizm, etnografizm atamalari – barchasi etnografik leksikani hosil qilib, ularni tadqiq etishda, avvalo, ularning mohiyatini anglash zarurdir.

Etnografiya lug‘atlarda “... etnos xalqlari va boshqa etnik jamoalarni, ularning etnogenezini, turmush tarzini, madaniy-tarixiy munosabatlarini o‘rganadigan ijtimoiy fan” sifatida ham talqin etiladi.[3] Shuningdek, xalqning etnik qiyofasini shakllantiradigan an’anaviy madaniyat xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilib, etnografik lug‘at etnosning butun qiyofasini ochib beradigan xo‘jalik ishlaridan tortib, to diniy e’tiqodlarga qadar so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy manbalarda etnografiya atamasi “insonlarning hayoti, fe’l-atvori va urf-odatlarining tavsifi” deb ta’riflanadi.[4] Bu insonlarning hayoti, an’analari va urf-odatlarini tavsiflashda ishlatiladigan har qanday tilning so‘zlari to‘plami etnografik lug‘atni tashkil qilishligini anglatadi.

Ayrim lug‘atlarda esa bu atamaga quyidagicha ta’rif beriladi:

1. Xalqlarning moddiy va ma’naviy madaniyatini, ularning madaniy va tarixiy munosabatlarini o‘rganadigan fan.

2. Har qanday xalqning hayoti, urf-odatlari, madaniyati, millatining barcha xususiyatlarining umumiyligi.[5]

Etnomadaniyatlarni moddiy va ma’naviy meroslarni farqlash prinsipi, ma’lum bir konvensiyani tuzish va unga asoslanishni oqlaydi va bu tasniflash prinsipi nafaqat etnolingvistlar, balki madaniyatshunoslar, etnograflar va boshqa olimlarni ham amal qilishga undaydi.[6] Demak, etnografik leksikaga quyidagilar kiradi: birinchidan, moddiy madaniyat leksikasi, ikkinchidan, ma’naviy madaniyat leksikasi. Bundan tashqari, “moddiy madaniyat” tushunchasi ishlab chiqarish va iste’mol sohasidagi moddiy obyektiv madaniy hodisalar, shuningdek, ular bilan bog‘liq inson faoliyati, yo‘nalishi va tajribasi shakllarini qamrab oladi. Etnografik leksika kundalik leksikaga yaqin turadi. Masalan, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechak, asbob-anjomlar, arxitektura obidalari, ya’ni moddiy madaniyatni anglatuvchi birliklar kundalik leksikada faolligi bilan etnografik leksikani qamrab oladi. An’ana va urf-odatlarni tashkil etish va amalga oshirish usullari ularni avloddan-avlodga o‘tib kelayotgani muayyan xalqning kundalik hayoti faqat unga xos bo‘lgan faoliyat tarzini shakllantiradi, bu etnografik tadqiqotlarning obyekti hisoblanadi. Lingvistik tadqiqotlar uchun insonlarning turmush tarzi tushunchalarini o‘z ichiga olgan so‘zlar va iboralar muhimdir. Ammo bu o‘rinda kundalik va etnografik leksika bir xil emasligini aniqlashtirish kerak. Kundalik leksika, uning etnolingvistik holati va materialni qamrab olishning tor va keng yondashuviga qarab farqlanadi. Kundalik leksika ba’zi asarlarda uy-joy qurilishi tushunchalari, kiyim-kechak, bosh kiyimlar, poyabzal va zargarlik buyumlari va boshqalarda aks etib, entografik leksika bilan bog‘liq nomlarni o‘z ichiga oladi.

Tabiiyki, bularning barchasi kundalik leksikani etnografik leksikaga yaqinlashtiradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, birinchidan, kundalik leksikaning leksik-semantik guruhlari nomlari ro‘yxati etnografik leksikaning barcha jihatlarini qamrab olmaydi, bunda kundalik leksika til lug‘atida tor leksik qatlam sifatida baholanadi; ikkinchidan, etnografik leksika tarixiy davrlar mobaynida faollashib kelgan, xalq turmush tarzini ifodalaydi, shuningdek, barcha turkiy xalqlar uchun ma’lum bo‘lgan tushunchalarni namoyon etib, madaniyatlar mushtarakligida xalq etnomadaniyatining doimiy an’anasini aks ettiradi. Etnografik leksika ba’zan kasbiy leksika bilan kesishadi. Biroq, etnografik leksika, kasbiy leksikadan farqli o‘laroq, bitta kasb bilan birlashtirilgan cheklangan shaxslar guruhiga tegishli emas, balki ushbu tilda so‘zlashuvchilarning barcha sohasiga tegishli yoki ma’lum hunarmandchilik va hunarmandchilik buyumlari hamda vositalari nomlarini anglatuvchi birlik xolos. “Ma’naviy madaniyat” tushunchasi musiqiy, og‘zaki va she’riy ijod, urf-odatlar, marosimlar, e’tiqodlar, mentalitet, an’anaviy tibbiyot kabi insoniyat jamiyati tomonidan yaratilgan ma’naviy qadriyatlar to‘plamini anglatadi. Bunda ma’naviy madaniyatning so‘z boyligi qarindoshlik va oilaviy munosabatlar atamalarini o‘z ichiga olishi kuzatiladi; mifologiya, folklor, marosimlar bilan bog‘liq so‘zlar; xalq musiqasi, og‘zaki folklor san’ati shular jumlasidandir. Etnografik leksika semantik jihatdan xilma-xil bo‘lib, moddiy madaniyatning milliy xususiyatlari, ma’naviy ko‘rinishning o‘ziga xos etnik xususiyatlari, milliy-etnik xarakterlarini aks ettiruvchi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda etnografik leksika sifatida “etnokultural leksika”[7], “etnografik dialektizmlar”, ‘etnografizmlar[8]’, “etnografik atamalar” kabilar sinonim tarzda qayd etiladi. Bunda “atama” tushunchasi yuzasidan ilmiy adabiyotlarda eng ziddiyatli qarashlar va hukmlar mavjud. Nazariy tadqiqotlarda ikkita yo‘nalish ajralib turadi. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari (G.O.Vinokur, B.N.Golovin, V.P.Danilenko va boshqalar) atamalarni adabiy tilning barcha xususiyatlariga ega bo‘lgan birliklari sifatida belgilaydilar. Masalan, N.P.Petrovning ta’kidlashicha, “prinsipial jihatdan har bir so‘z atama bo‘lishi mumkin, ammo faqat maxsus funksiya bajarishi kerak[8]”. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari (O.S.Axmanova, E.M.Galkina-Fedoruk va boshqalar) bu atamalar o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan tilning maxsus birligi ekanligini ta’kidlaydilar.

Xulosa. Adabiy til atamasi va ma’lum so‘z o‘rtasidagi farqni ajratmoqchi bo‘lgan olimlarning aksariyati ularning o‘ziga xos vazifasiga e’tibor berishadi. Aynan vazifasi jihatdan farqlash hozirda olimlar tomonidan yoqlab chiqilmoqda. Ular atama leksik birlikning maxsus turi emas, balki maxsus vazifasi, uni ishlatish usuli ekanligidan kelib chiqadi. Olimlar shundagina leksik birlik ma’lum bir atama sifatida ishlashga qodir deya ta’kidlaydilar; terminologik vazifani umumiy adabiy leksikadan olingan har qanday so‘z bajarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Кайдар А. Казак тілінің озекті мәселелері / А. Кайдар. – Алматы, 1998. – Б.167.
2.Большая Советская Энциклопедия. – Москва: 1978, Т. 30. – С. 892.
3.Ashirov A. Etnologiya. – Toshkent: “IQTISODMOLIYA”, 2008. 176-b.
4.Словарь русского языка. – Москва: 1961, Т. 4. – С.1056.
5.Ахметьянов Р.Г. Общая лексика духовной культуры народов Среднего Поволжья. – Москва, 1981. – 144 с.
6.Жанпеисов Е.Н. Этнокультурная лексика казахского языка. – Алма-Ата, 1983. – С.3.
7.Шанский Н.М. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. – Москва, 1959. – С.111.
8.Петров Н.П. Чувашская терминология. – Чебоксары, 1976. – С.5.

Dildora TO‘RAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
https://orcid.org/0009-0002-7644-5631
dildoratorayeva9@gmail.com

SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADA KONFLIKTOGEN NUTQIY AKTLARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: amaliy tilshunoslikning sud-lingvistik ekspertiza sohasida nutqiy akt, nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va konfliktogen holatlar yuzasidagi masalalarning pragmalingvistik tahlili dolzarbdir. Maqolada konfliktli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi lisoniy va nolisoniy omillar, nutqning denotativ va konnotativ funksiyalari, performativ tuzilmalar hamda ularning mohiyati xususida fikr yuritilgan. Konfliktogen nutqiy aktlar tasnifi berilgan, sud-lingvistik ekspertiza turlari farqlangan: semantik baholash va lingvistik profillash hamda misollar asosida tahlillar amalga oshirilib, xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *sud-lingvistik ekspertiza, nutqiy akt, konfliktogen, intensional indikator, nutqiy intensiya, performativ tuzilma, illokutiv yo‘nalish, perlokutiv natija.*

Annotation: in the field of forensic linguistic expertise of applied linguistics, the pragmalinguistic analysis of speech acts, speech situations, communicative goals, and conflict-related situations is relevant. The article discusses linguistic and non-linguistic factors that cause conflict situations, the denotative and connotative functions of speech, performative structures, and their essence. The classification of conflictogenic speech acts is given, the types of forensic linguistic expertise are differentiated: semantic assessment and linguistic profiling, and analyses are carried out based on examples, and conclusions are presented.

Key words: *forensic linguistic expertise, speech act, conflictogen, intensional indicator, speech intensity, performative structure, illocutionary direction, perlocutionary result.*

Аннотация: в области судебно-лингвистической экспертизы прикладной лингвистики актуален прагмалингвистический анализ вопросов на поверхности речевого акта, речевой ситуации, коммуникативного назначения и конфликтогенных ситуаций. В статье рассматриваются языковые и нелисциплинарные факторы, вызывающие конфликтные ситуации, денотативные и коннотативные функции речи, перформативные структуры и их сущность. Дана классификация конфликтогенных речевых актов, выделены виды судебно-лингвистической экспертизы: проводится семантическая оценка и лингвистическое профилирование, а также анализ на примерах, приводятся выводы.

Ключевые слова: *судебная лингвистическая экспертиза, речевой акт, конфликтоген, интенсиональный индикатор, речевая интенция, перформативная структура, иллокутивная направленность, перлокутивный результат.*

Jahon tilshunosligida XX asr o‘rtalaridan *nutqiy akt* tushunchasi keng o‘rganila boshlandi. Bu tilshunoslikda antroposentrizm nazariyasining kirib kelishi va turli mavzudagi tadqiqotlarning ko‘payishi bilan baholanadi. Muloqot jarayonida hosil bo‘ladigan nutqiy aktlarni alohida lisoniy birlik sifatida talqin qilish va ularni mazmunan tasniflash g‘oyasini Oksford universiteti professori Jon Ostin ilk bor targ‘ib qilgan[1]. J. Ostinning fikricha, har bir gap talaffuz qilinganida asl ma’no ifodasidan tashqari ma’lum bir harakat ham bajariladi, ya’ni biror-bir voqea haqida darak, xabar beriladi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, iltimos qilinadi, ta’qiqlanadi, buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va’da, taklif, targ‘ibot, da’vat, takalluf kabilar amalga oshiriladi[2]. Nutq orqali kommunikatorlar o‘rtasida axborot almashinuvi sodir bo‘lishi bilan bir qatorda muayyan nutqiy harakat ham amalga oshiriladi. Nutqiy akt mazmunini to‘liqroq tushunish uchun ikki bosqichli jarayon yuzaga keladi: boshlang‘ich intensiya (maqsad) va natijaviy intensiya[3]. Nutqda dastlab nutqiy maqsad ifodalanadi va mazkur axborotdan kutilgan natija ham ko‘zlanadi. Xususan, *Moskvaga bilet bormi?* misolida avia biletining mavjud/mavjud emasligini bilish nutqiy maqsad bo‘lsa, Moskvaga safar uyushtirish niyat, ya’ni natija hisoblanadi. Lingvistik ekspertizada semantik tahlil obyekti bo‘lgan matnlarda nutqiy maqsadni aniqlashning ikki bosqichini qo‘llash samarali natija beradi. Masalan, da’vat, tahdid, iltimos kabi ruhdagi matnlar semantik tahlilida nutqiy maqsadni aniqlashda boshlang‘ich intensiyada da’vat, iltimos kabi maqsad aniqlansa, natijaviy intensiyada ushbu nutqiy akt orqali ko‘zlangan niyat, istak oydinlashadi. Nutqiy ta’sir — bu kommunikatsiya jarayonida nutq egasining til vositalari (leksik, grammatik, stilistik, pragmatik) orqali tinglovchiga ma’lum psixologik, ijtimoiy yoki axloqiy vaziyat, holatni singdirishga, uning fikrini o‘zgartirishga yoki harakatga undashga qaratilgan nutq faoliyati turi. Demak, nutqiy akt lisoniy va nolisoniy omillar asosida yuzaga keladi. Ulardan kommunikatsion jarayonda nutqiy maqsaddan kelib chiqqan holda foydalaniladi.

1 Austin J.L. How To Do Things With Words. – Oxford: Oxford. Univ. Press., 1973. – p. 167.
2 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 78.
3 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 81.

Nutqiy aktning funksional xususiyatlari murakkab matn tuzish, diskurs yaratishdan iborat. Olimlar nutqiy aktning bu kabi vazifalarini aniqlash uchun intensiya tahlil usulini taklif qiladilar. Intensional tahlil orqali nutqiy akt maqsadi aniqlanadi. Intensiya tahlilining asoschisi Syorl bo‘lib, ushbu tahlil kommunikativ jarayonda voqelanadigan nutqiy faoliyatning so‘zlovchi maqsadi, istagi bilan bog‘liq tomonlari o‘rganiladi. Intensional tahlil – nutqning denotativ ma’nosi ortida konnotativ funksiyalari, kommunikativ maqsad, nutqiy ta’sir, nutqiy intensiya (niyat) kabilarga aniqlik kiritishga qaratilgan lingvopragmatik usul hisoblanadi. Lingvist-ekspert nutqdan faqatgina axborotni emas, balki kommunikativ maqsad, nutqiy ta’sir, tinglovchiga munosabat kabi intensional indikatorlarni aniqlaydi. Intensional usul o‘ziga xos xususiyati shundaki, tahlil jarayonida so‘zlovchi, nutqiy maqsad, illokutiv yo‘nalish, tinglovchi, nutqiy ta’sir, nutqiy akt kabilar kompleks tahlil qilinadi, nutqning konnotativ funksiyalari aniqlanadi, keyin ekspert xulosasi shakllantiriladi. Intensional indikatorlar sifatida quyidagilarni baholash mumkin: leksik birliklar (ogohlantiraman, aldadi), grammatik shakllar (buyruqni bajar, tugating), sintaktik birliklar (so‘roq gap buyruq ma’nosida ishlatilishi, darak gap), pragmatik vositalar (presuppozitsiya, kinoya). Ekspertiza xulosasi mazkur indikatorlar asosida shakllantirilishi, nutqiy maqsadni yuzaga keltiruvchi vositalar birma-bir dalillantirilishi natijaning obyektivligini ta’minlaydi.

Lingvistik ekspertizada so‘zlovchining nutqiy maqsadini aniqlash quyidagi masalalarning yechimiga imkon beradi:

1. Nutqiy aktni munosib identifikatsiya qilish. Masalan, *ehtiyot bo‘l, yarim soatlardan keyin gaplashamiz.* Mazkur misol shaklan ogohlantirishga o‘xshaydi, mazmunan esa tahdid, qo‘rqitish kabi mohiyatni yuzaga keltiradi.

2. Tuhmat, haqorat, tahdid, da’vat kabilarni o‘zaro farqlash. Xususan, *u o‘g‘rilik qildi.* Mazkur gap bir vaqtning o‘zida axborot berish, gumon qilish, tuhmat qilish, ayblash, obro‘sizlantirish kabi mazmunni yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatda lingvist-ekspert *So‘zlovchi bu gapni qanday maqsadda muloqotga kiritgan?* savoliga yechim topadi.

3. Bevosita yoki bilvosita axborotni aniqlash. Bu, asosan, grammatik shakl, intonatsiya vositasida yuzaga keladi. Masalan, *Ish hali davom etyaptimi?* formal jihatdan ish kechgacha davom etganligiga aniqlik kiritish mazmuni mavjud. Kommunikatsion maqsad esa *ish hali tugamadimi, ish shunchalik ko‘p vaqt davomida bajarildimi, ishni to‘xtating* kabi kinoya, kesatiq, talab kabi ma’nolarni ifodalaydi.

4. Til birligining turli funksional ma’nolarini farqlash. Bunda bir so‘z bir nechta matnda turlicha ma’noni yuzaga keltirishi aniqlanadi. Bu jarayonda nutq *leksik birlik – matn, so‘zlovchi – kommunikativ maqsad – pragmatik funksiya* tizimi asosida tekshiriladi.

5. Lingvist-ekspert xulosasining obyektivligini ta’minlash. Bu jarayonda ekspert muayyan faktga tayanib qolmasdan, bir nechta asoslarni tizimlashtirib, aniq xulosa hosila qiladi, xususan, nima deyilgan (semantika), kimga aytilgan (tinglovchi), qanday vaziyatda aytilgan (matn), qanday vositalardan foydalanilgan (lisoniy va nolisoniy vositalar), qanday maqsadda aytilgan (nutqiy intensiya), tinglovchidan nima kutilgan? (illokutiv yo‘nalish), nutq qanday ta’sirga ega? (perlokutiv natija).

Lingvistik ekspertizada nutq shakllantiruvchi lisoniy va nolisoniy vositalari alohida emas, balki kompleks tarzda tahlil qilinishi muhim. Yuqoridagi tizim asosida bir nutqiy aktni tahlil qilib ko‘raylik: *Sen o‘g‘rilagansan.* Semantika: harakatni sodir etganlik haqida bayonot; kommunikativ maqsad: so‘zlovchiga ta’sir ko‘rsatish; illokutiv yo‘nalish: tuhmat/gumon/ayblash/obro‘sizlantirish; kontekst: rahbar-xodim munosabati; pragmatik mazmun: tinglovchini muayyan harakatni bajarganlikda ayblash nutq akti: bu tuhmat yoki obro‘sizlantirish maqsadida talqin qilinishi mumkin. Demak, lingvistik ekspertizada so‘zlovchining nutqiy maqsadini aniqlash til birliklarining semantik-pragmatik vazifalarini aniqlash, asl va yashirin ma’noni farqlash, semantik ziddiyatli birliklarni farqlash, shuningdek, tizimli va obyektib ekspert xulosasini shakllantirish imkonini beradi[4].

Nutqiy maqsadni aniqlash bo‘yicha turlicha yondashuvlar mavjud. Bu lingvistik ekspertizaning semantik tahliliga aloqador masala sanaladi. Y.A. Belchikovning fikriga qo‘shilgan holda, olimlar bahsli SMS xabarning lingvistik ekspertiza jarayonini 3 bosqichga ajratishdi[5]:

1) suhbatning semantik bloklarini aniqlash – so‘zlovchi va qabul qiluvchi o‘rtasidagi suhbatning mavzusi aniqlanadi. Bunda mavzu markaziy o‘rinda bo‘lib, suhbatdoshlar bir nechta mavzuda suhbatlashayotgan bo‘lsa-da, bir mavzu xususida bir aylana chiziq orqali harakatlanishadi, ya’ni suhbat davomida bir necha bor aynan shu mavzuga qaytib kelinadi. Bu so‘zlashuv jarayonining semantik maydonini tashkil qiladi;

2) nutq harakatlarining turlarini aniqlash – axborot berish, ma’lumot so‘rash, rag‘batlantirish, rozilik, norozilik, kelishmovchiliklarni ifodalash, suhbatdoshga bo‘lgan munosabatni ifodalash, his-tuyg‘ular kabilar. Matnda suhbat jarayoni xabar, bayonot, izoh, tushuntirish, fikr bildirish, taxmin, ogohlantirish, da’vat kabi nutq harakatlarida amalga oshadi;

3) informatsion komponentlarni aniqlash va tavsiflash – bahsli matnning ichki semantik mohiyatini yuzaga chiqaruvchi lingvistik birliklarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy yozishmaning umumiy strukturasi, so‘zlarning to‘liq yo to‘liq emasligi, haqiqiy mazmunni yashirish uchun qo‘llanadigan o‘ziga xos lingvistik shakllarning ifodasiga ahamiyat qaratiladi.

Lingvistik ekspertizada nutqiy akt ikki asosga ko‘ra tahlil qilinadi:

1. Semantik baholash tahlili – bunda ijtimoiy-emotsional nutqiy ta’sirga ega birliklar tahlil qilinadi. Masalan, yuridik yoki ijtimoiy shaxsni obro‘sizlantirish, ishchanlik salohiyatiga daxl qilish mazmunidagi matnlar konfliktli sanaladi.


4 To‘rayeva, D.A. (2021). Shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertiza mohiyati. O‘zMU xabarlari. № 4. – B. 268-271.; To‘rayeva, D.A. (2021) O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning lingvistik ekspertizasi. Til va adabiyot ta’limi. № 6. – B. 17-19.; Turaeva D.A. (2024) The role of synchronous and diachronic methods in linguistic expertise. American Journal of Research. – USA, Michigan 33. – P. 11–12. https://doi.org/10.5281/zenodo.14513972

5 Бельчиков Ю.А. Проблема выбора слова в речевой практике современных СМИ. 90-е годы XX века//Язык и мы. Мы и язык. 2006. – С. 367-372.

2. Lingvistik profillash tahlili – bunda konfliktli matn nutqiy aktidan so‘zlovchining yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy qatlami, hududiy mansubligi kabi belgilari aniqlanadi[6].

Muallifning ijtimoiy belgilarini aniqlashda V. Milomning xatolarning xususiyatlarini aniqlashga asoslangan tasnifi mavjud[7]:

1.2.1.-rasm



Leksik, grammatik, sintaktik xatolar so‘z va qo‘shimchalarning qo‘llanishi, boshqa birliklar bilan valentlik imkoniyati, o‘ziga xos ifoda xususiyatlari tahlil qilinadi. Pragmatik xatolar matn mazmunidagi nomuvofiqliklar, nutqiy vaziyatga mos til birliklaridan foydalanish, mazmundagi izchillik kabi jihatlar; texnik xatolarda punktuatsion, belgilarni qo‘llashdagi o‘ziga xosliklar; fonetik xatoda esa til birliklaridagi fonetik o‘zgarishlar, urg‘uning qo‘llanishi (bu, asosan, mantiqiy urg‘u bilan aloqador) kabilar tahlil qilinadi.

Lingvistik ekspertizada semantik baholash tahlili o‘ziga xos bo‘lib, u bevosita kommunikatsiya jarayonida nutqiy akt, nutqiy maqsad, nutqiy ta’sir natijasida konfliktik vaziyatlar yuzaga kelishi, lingvistik dalillar farqlanishi va me’yorlarga ko‘ra asoslanishini o‘z ichiga olgan ekspertiza yo‘nalishidir. Nutqiy akt so‘zlovchi va tinglovchining kommunikatsion munosabatida yuzaga keladi. Nutqiy aktning konfliktli vaziyatni yuzaga keltirishi muloqot jarayonida biror nutqiy maqsadga ko‘ra axborot berish hamda tinglovchiga ta’sir o‘tkazish funksiyalariga aloqadordir. Xususan, nutqiy akt lokutiv, illokutiv, perlokutiv bosqichlaridan iborat[8]. Lokutiv nutq – so‘zlovchining mazmundor lisoniy jumlani hosil qilishi va talaffuz orqali nutqda voqelantirishi. Bunda nutqning talaffuz qilinishi muhim, agar yozuv orqali nutq shakllantirilsa, talaffuz etilmasa, u lokutiv nutq bo‘la olmaydi. So‘zlovchi lisoniy tuzilmani nutqda voqelantirar ekan, muayyan maqsadni ko‘zlaydi. Masalan, *yerosti suvlari kimlarga pulli?* nutqiy tuzilmadan muayyan maqsad ko‘zlanadi, keyin talaffuz etiladi. Savoldan maqsad: yerosti suvlari kimlar uchun pulli ekanligini bilish, ya’ni savolga javob olish. Maqsaddan ko‘zlangan niyat esa yerosti suvlarining to‘lovi jamiyatning barcha qatlami uchun pullimi yoki quyi, yuqori, o‘rta tabaqalari uchun farqlimi? Illokutiv maqsadni turli lisoniy vositalar: modal so‘zlar, yuklamalar, modal ma’noli grammatik shakllar, intonatsiya kabilar hosil qilishi mumkin. Yuqoridagi gapda -lar ko‘plik shakli butun qismlik (hammagami yoki har birigami) ma’nosini yuzaga keltirgan va axborot jamiyatning barcha qatlami yoki alohida qatlamiga tegishli ekanligi haqidagi munosabat aniqlanadi. Demak, lokutiv nutq talaffuz orqali yuzaga keladi, uning maqsadli tarzda amalga oshirilishi, nutq muayyan maqsad asosida yuzaga kelishi illokutiv nutq sanaladi.

Z. Vendler talqinicha, illokutiv nutq, aslida, “mental harakat bo‘lib, so‘zlovchi nutq orqali tinglovchini ushbu harakatga undaydi”[9]. Illokutiv nutq kommunikatsiya jarayonining asosi bo‘lib, so‘zlovchi hamda tinglovchi o‘rtasida axborot uzatish va qabul qilish, nutqiy maqsadni nutqiy vaziyatga munosib ravishda taqdim etish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Illokutiv nutqda kommunikatsion maqsad ifodalanadi. Nutq jarayonida til birliklarining pragmatik vazifalari esa kommunikatsion maqsad doirasida yuzaga keladi. Natijada, perlokutiv nutq hosil bo‘ladi. Perlokutiv nutq so‘zlovchining nutq jarayonida til birliklaridan foydalanib nutqiy ta’sirni yuzaga keltirishi. Perlokutiv nutq nutqiy aktning tinglovchi ongi, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatiga ta’sir o‘tkazish bosqichidir. Masalan, *sizni issiq qahvaga taklif etaman* gapida *taklif etaman* birikmasi orqali illokutiv maqsad ifodalansa, *issiq qahva* birikmasi vositasida tinglovchiga *ma’qul kelishi-kelmasligi, xohlashi-xohlamasligi, qabul qilish-qilmasligi* kabi hissiy-emotsional ta’sir yuzaga keladi. Bu esa yuqorida aytganimizdek, boshlang‘ich nutqiy maqsad va natijaviy nutqiy maqsad holatlaridir. Nutqda illokutiv maqsad va nutqiy ta’sir *mayl shakllari, modal so‘zlar, yuklamalar, undov so‘zlar* kabilar vositasida yuzaga kelishi mumkin.

Matnda illokutiv nutq zohiran va botinan namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, *hamma paxta terimiga jalb etilsin* gapida *jalb etilsin* illokutiv fe’l sanalib, buyruq maqsadini ifoda etyapti. Gapda illokutiv til vositalari bevosita, to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalansa, bunday til birliklari *aniq performativlar* deb nomlanadi. Bunday birliklar,

6 To‘rayeva, D.A. (2023). Nutq hududiy xoslanishining lingvistik ekspertizasi. Bookmany print.
7 Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. – USA, 2019. – 45 p.
8 Qarang: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 81.
9 Вендлер З. Иллокутивное самоубийства. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М: Прогресс, 1985.

masalan, *va'da qilmoq, iltimos qilmoq, taklif qilmoq, jazolamoq, haydamoq, ariza yozmoq* kabi fe'llar vositasida yuzaga kelishi mumkin. Fe'ldan tashqari boshqa turkumdagi so'zlar ham aniq performativ bo'lishi mumkin. Olim Sh. Safarov aytganidek, nutqiy akt maqsadining ochiq bayoni turli ko'rinishdagi lisoniy birliklar vositasida bajariladi va bulardan eng asosiysi pragmatikada performativ formula (qolip) atamasini olgan. Masalan, *achinarlisi, siz ma'muriy qoidalarga rioya etmagansiz.* Bu kabi gaplarda illokutiv so'z ham fe'l (*rioya etmagansiz*), ham modal (*achinarlisi*) so'z sanaladi. Misolda illokutiv fe'l zohiran namoyon bo'lgan. Gaplarda nutqiy maqsadni ifodalovchi birliklar aniq ifodalansa, zohiran mavjud bo'lsa, bunday nutq ko'rinish *performativ tuzilma* deb nomlanadi. Performativ tuzilma nutq orqali axborot uzatish bilan bir qatorda muayyan harakat (iltimos, taklif, ogohlantirish, talab, da'vat kabilar) ni ham amalga oshirishni ta'minlovchi lingvistik-pragmatik konstruksiya bo'lib, uning kommunikativ funksiyasi nutqni aniq va tinglovchi uchun ancha tushunarli tarzda namoyon etishdir.

J. Syorl, J. Ostin, K. Bax, R. Harnesh, J. Lich kabi olimlar nutqiy aktlarni turlicha tasniflashgan. J. Lich nutqiy aktlar guruhlarini ajratishda sotsiolingvistik ko'rsatkichlarga tayanib, ularni muloqot jarayonida "xushmuomalalikni ta'minlovchi va shu muhitni o'rnatish maqsadi bilan qay yo'sinda bog'liqligiga" nisbatan guruhlaydi. Bu guruhlar quyidagilar[10]:

1) kompititiv (illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga mos kelmaydi, masalan, buyruq, savol, talab, iltimos kabi nutqiy aktlar);

2) konvivial (illokutiv va ijtimoiy maqsad o'zaro mos, masalan, taklif, qutlov, tabrik, tashakkur izhor qilinishi);

3) kollaborativ (illokutiv nutq ijtimoiy maqsadga nomuvofiq, masalan, tasdiq, xabar berish, e'lon qilish, ma'lumot berish kabi harakatlar);

4) konflektiv (illokutiv va ijtimoiy maqsadlar o'zaro qarama-qarshi, masalan, tahdid, ayblov, haqorat, qarg'ish, tuhmat harakatlari).

J.Lich ijtimoiy maqsad jamiyatda yuzaga keladigan nutq bilan aloqador ziddiyatli holatlarga xushmuomalalik kategoriyasi vositasida yechim topish kerakligini ta'kidlaydi. Tasnifning konflektiv turiga ko'ra jamiyatda yuzaga keladigan nutqiy nizolar, qarama-qarshi nutqiy aktlar, munozarali matnlar kiradi. Performativ tuzilmalar orqali konfliktli nutqiy vaziyatlar yuzaga keladi. Chunki performativ tuzilmalarda nutq faqat axborot berish funksiyasini emas, balki tinglovchilarga tezda ta'sir o'tkazish, ularni javob harakatiga undash harakatlarini ham o'zida namoyon etadi[11]. Bunda performativ fe'llar nutqiy aktni nomlaydi va ular bevosita ishtirok etadi: *ogohlantiraman, iltimos qilaman, taklifimni qabul qilsangiz kabi.* Nutqiy aktning bilvosita ifodalanishida esa performativ fe'llar matn mazmunidan anglanadi. Matn kompleks tarzda lingvistik tahlil qilinadi. Xususan, *ishni tez bajarmasangiz, oqibati yaxshilikka olib kelmaydi.* Gapdagi *oqibati yaxshilikka olib kelmaydi* ogohlantirish, ehtiyotkorlikka chaqiriq; *tez bajarmasangiz birikmasidagi - sa shart mayli shakli* shartlilik, sabab-oqibat mazmunini yuzaga keltiradi. Bu turli mavzudagi nutqiy aktlarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan*, korrupsion ruhdagi* matnlarda illokutiv nutq *ishimni bitir, tez bitirish kerak, hal qil, gaplashib ko'r, yaxshi taklif* kabi birliklarda namoyon bo'ladi. Bilvosita nutqiy akt barcha lisoniy va nolisoniy vositalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, *aytilgan narsani ertaga yetkazaman* gapida *yetkazaman* fe'li grammatik jihatdan muayyan joyga mahsulotni yetkazib berish tushunchasi mavjud. Fe'lda ifodalangan - *a* zamon, - *man* shaxs-son shakllari, shuningdek, *ertaga* payt ravishi – leksik va grammatik shakllar *"va'da bermoq"* performativ fe'lini yuzaga keltiradi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin: *aytilgan narsani ertaga yetkazishga va'da beraman.*

Umuman olganda, kommunikatsiya jarayonida nutqiy akt muayyan maqsad va kutilgan natija asosida axborot berish va tinglovchiga ta'sir o'tkazish kabi funksiyalarni bajaradi. Bu jarayonda nutqiy aktni yuzaga keltiruvchi vositalar bilvosita va bevosita tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Nutqiy aktning funksiyasini aniqlash, nutq jarayonini obyektiv tahlil qilish, kommunikatsiyani munosib baholash uchun jarayon lingvistik-pragmatik jihatdan kompleks tadqiq qilinishi maqsadga muvofiqdir.

10 Leech G. Principles of pragmatics. – London: New York, 1983. – 250 p.

11 Qarang: Сафаров Ш. Ирагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – 89 б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J.L. How To Do Things With Words. – Oxford: Oxford. Univ. Press., 1973. – p. 167.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 78.
3. Бельчиков Ю.А. Проблема выбора слова в речевой практике современных СМИ. 90-е годы XX века//Язык и мы. Мы и язык. 2006. – С. 367-372.
4. To'rayeva, D.A. (2021). Shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertiza mohiyati. *O'zMU xabarlari.* № 4. – B. 268-271.
5 To'rayeva, D.A. (2021) O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning lingvistik ekspertizasi. *Til va adabiyot ta'limi. № 6.* – B. 17-19.;
6. Turaeva, D.A. (2024) The role of synchronous and diachronic methods in linguistic expertise. *American Journal of Research.* – USA, Michigan 33. – P. 11–12. https://doi.org/10.5281/zenodo.14513972
7. Turayeva, D.A. (2020) Linguistic expertise as a branch of legal linguistics. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal.* Vol. 10, Issue 12, Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13 5. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01813.3
8. To'rayeva, D.A. (2023). *Nutq hududiy xoslanishining lingvistik ekspertizasi.* Bookmany print.

Maxfurat OMONOVA,
Qarshi davlat universiteti, Lingvistika kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: omonovamaxfurat@gmail.com



SUD HUJJATLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada sud hujjatlarining pragmatik xususiyatlari nutqiy aktlar nazariyasi va huquqiy diskurs asosida tahlil qilinadi. Sud qarorlarida performativlik, deontik modallik, dalillash va adresatga yo‘naltirilganlikning vazifalari yoritiladi. Fuqarolik protsessual normalari hamda muallif tuzgan shartli misollar asosida huquqiy aniqlikning til vositalariga bog‘liqligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *sud hujjati, yuridik diskurs, pragmatika, nutqiy akt, performativlik, deontik modallik, adresat.*

Аннотация: в статье анализируются прагматические особенности судебных документов на основе теории речевых актов и юридического дискурса. Рассматриваются перформативность, деонтическая модальность, аргументация и адресованность судебных решений. На материале процессуальных норм и условных примеров показана связь языковых средств с юридической точностью документа.

Ключевые слова: *судебный документ, юридический дискурс, прагматика, речевой акт, перформативность, деонтическая модальность, адресат.*

Annotation: the article examines pragmatic features of court documents from the perspectives of speech act theory and legal discourse. It discusses performativity, deontic modality, reasoning and addressee orientation in judicial decisions. Drawing on procedural rules and constructed examples, the study shows how linguistic choices affect the legal clarity of a document.

Key words: *court document, legal discourse, pragmatics, speech act, performativity, deontic modality, addressee.*

Kirish (introduction)

Sud hujjati huquqiy ma’lumotni bayon etish bilan cheklanmaydi: u vakolatli sud nomidan protsessual munosabatlarga ta’sir etuvchi institutsional matndir. Uning mazmunini to‘g‘ri tushunishda fikrning kim tomonidan, kimga va qanday vaziyatda yo‘naltirilgani muhim. Shu bois sud tilini o‘rganish grammatik shakllardan tashqari nutqiy aktning maqsadi va natijasini aniqlashni ham talab etadi [3; 4].

Masalan, «Sud ish materiallarini o‘rgandi» jumlasi xabar bersa, «Da’vo talabi qanoatlantirilsin» ifodasi qarorning dispozitiv mazmunini anglatadi. Ikkinchi iboraning huquqiy kuchi faqat grammatik buyruq shaklidan emas, sudning vakolati va protsessual tartibdan kelib chiqadi. Bu jihat sud matnini kundalik muloqotdan farqlaydi [5].

Tadqiqotning maqsadi sud qarorlaridagi asosiy pragmatik vositalarni tasniflash hamda ularning huquqiy aniqlik va adresat uchun tushunarlilikka ta’sirini izohlashdir.

Materiallar va metodlar (methods)

Tadqiqot sifat va funksional-pragmatik yondashuvga asoslandi. Normativ manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 249- va 253-moddalari hamda Oliy sud Plenumining 2019-yil 24-maydagi 12-sonli qarori olindi [1; 2]. Nazariy asosni J. L. Austin, J. R. Searle, P. Tiersma va J. Gibbons ishlari tashkil etdi [3–6].

Nutqiy aktlarni tasniflash, kontekstual talqin va kompozitsion tahlil usullari qo‘llandi. Tahlil birligi — sud hujjatiga xos ifoda va uning kommunikativ vazifasi. Keltirilgan jumlalar muallif tomonidan yaratilgan shartli lingvistik namunalardir; ular haqiqiy sud ishlaridan olingan korpus yoki statistik kuzatish sifatida talqin qilinmaydi.

Natijalar (results)

Tahlil sud hujjatlarining pragmatik qurilishida o‘zaro bog‘liq besh mexanizmni ajratishga imkon berdi. Birinchisi — institutsional performativlik. Sud qaroridagi «qanoatlantirilsin», «rad etilsin», «undirilsin» kabi shakllar muayyan huquqiy pozitsiyani shunchaki tasvirlamaydi, balki qarorning xulosa qismida uning dispozitiv yo‘nalishini ifodalaydi. Biroq bunday shaklning haqiqiy protsessual kuchi sud vakolati, hujjatning belgilangan shakli va qonunda nazarda tutilgan tartib bilan belgilanadi.

Ikkinchisi — deontik modallik, ya’ni huquq, majburiyat va ruxsatni til vositalari orqali ifodalash. «Shart», «lozim», «mumkin», «huquqiga ega» birliklari turlicha normativ munosabatni bildiradi. Masalan, shikoyat qilish imkoniyatini tushuntiruvchi «shikoyat berishi mumkin» konstruksiyasini «shikoyat berishi shart» shakliga almashtirish adresatga yetkaziladigan huquqiy mazmunni tubdan o‘zgartiradi. Shu bois modal birlik tanlovi pragmatik hamda huquqiy aniqlik mezonidir.

Uchinchisi — asoslantirishning evidensial va presuppozitsion mexanizmi. «Ish materiallaridan aniqlanishicha», «taqdim etilgan dalillarga ko‘ra», «sud quyidagi xulosaga keldi» kabi formulalar matnda dalilga tayanuvchi xulosa kutilishini hosil qiladi. Ayni vaqtda bunday til birikmasi mustaqil isbot emas: xulosa qaysi dalil va huquqiy normadan kelib chiqqani asoslantiruvchi qismda ko‘rsatilgandagina u kommunikativ jihatdan ishonarli bo‘ladi.

To‘rtinchisi — kompozitsiyaning pragmatik vazifa bilan uyg‘unlashuvi. Fuqarolik protsessual kodeksining 253-moddasida

hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlariga ajratiladi [1]. Kirish qismi institutsional manbani belgilaydi; bayon qismi tomonlar pozitsiyasini aks ettiradi; asoslantiruvchi qism dalil va norma o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi; xulosa qismi esa qarorning amaliy mazmunini hamda shikoyat qilishga doir ma’lumotni yetkazadi. Demak, matn qismlari axborot tartibi bilangina emas, alohida illokutiv vazifalar bilan ham farqlanadi.

Beshinchisi — adresatga moslashuv. Sud matni bir vaqtning o‘zida yuristlar, protsess ishtirokchilari va zarur hollarda ijroni ta’minlovchi subyektlarga qaratiladi. Terminologik qat’iylik professional va aniq talqinni ta’minlasa, izchil sintaksis va tushunarli ifoda taraflarning o‘z protsessual mavqeini anglashiga yordam beradi. Shunday qilib, aniqlik va ravshanlik qarama-qarshi emas, bir-birini to‘ldiruvchi mezonlardir.

1-jadval. Sud hujjatlaridagi pragmatik vazifalarga shartli misollar

Til birligi (shartli namuna)	Nutqiy akt	Pragmatik vazifa
«Sud materiallarni o‘rgandi»	Xabar berish	Ko‘rilgan harakatni qayd etish
«Da’vo qanoatlantirilsin»	Dispozitiv akt	Qaror yo‘nalishini belgilash
«Shikoyat berish mumkin»	Huquqni tushuntirish	Protsessual imkoniyatni ko‘rsatish
«Dalillarga ko‘ra…»	Asoslash	Xulosaga daliliy asos berish

Jadvaldagi misollar turli nutqiy aktlarning vazifasini ko‘rsatadi. Xabar beruvchi ifoda protsessual holatni bildiradi, asoslantiruvchi ifoda xulosaning sababini ochadi, dispozitiv akt esa sud qarorining yo‘nalishini belgilaydi. Bu aktlarning bir hujjatda mantiqiy izchillikda berilishi uning kommunikativ yaxlitligini oshiradi.

Janrlar o‘rtasida ham pragmatik tafovut mavjud: da’vo arizasida talab bildirish, ajrimda protsessual masalani hal qilish, hal qiluv qarorida nizoni mazmunan yakunlash ustuvor. Shuning uchun bitta rasmiy qolipni barcha hujjatlarga bir xil qo‘llash ularning kommunikativ vazifasini xiralashtirishi mumkin.

Muhokama (discussion)

Sud hujjatining illokutiv kuchini buyruq mayli yoki rasmiy uslub bilan cheklab izohlash yetarli emas. Unda til vositasi, sud vakolati, protsessual shakl va adresatga yetkaziladigan huquqiy natija birgalikda amal qiladi. Masalan, qarorning xulosa qismidagi ifoda qonuniy asoslantirish bilan bog‘lanmasa, uning tushunilishi qiyinlashadi [3; 4].

Betaraflik ham pragmatik mezondir. Sud shaxsiy hissiy bahodan chekinishi, ayni paytda dalillarga huquqiy baho berishi zarur. Demak, betaraf bayon xulosasizlik emas, balki xulosaning ishonchli dalil va normaga tayanishidir. Qonuniylik hamda asoslantirilganlik talablari ushbu tamoyilni mustahkamlaydi [1].

Pragmatik noaniqlik uch holatda ko‘p kuzatilishi mumkin: modal birlikni noto‘g‘ri ishlatish, dalil bilan xulosa orasidagi sababiy bo‘g‘inni tushirib qoldirish va noaniq havola. Masalan, «belgilangan tartibda» iborasi tegishli norma ko‘rsatilmasa, adresat uchun tushunarsiz qoladi; «u» olmoshining mavhum referenti esa talqinni qiyinlashtiradi [5; 6].

Amaliy tahrirda izchillik muhim: avval subyekt va talab, so‘ng dalil hamda uning bahosi, keyin norma va huquqiy xulosa ifodalanadi. Qarorning oxirida tegishli huquq, majburiyat yoki shikoyat qilish imkoniyati aniq ko‘rsatilishi lozim. Bunday yondashuv hujjatni ortiqcha soddalashtirmagan holda o‘qilishini yengillashtiradi.

Tadqiqotning cheklovi — keng ko‘lamli haqiqiy sud hujjatlari korpusi tahlil qilinmaganidir. Keyingi izlanishlarda fuqarolik, jinoyat va ma’muriy sud matnlarini qiyoslash, ularni turli adresatlar qanday tushunishini tekshirish maqsadga muvofiq.

Pragmatik sifatni baholashda uch savol foydalidir: matn subyekti aniqmi; ifoda xabar, asos yoki qaror vazifalaridan qaysi birini bajaradi; adresat amaliy natijani to‘g‘ri tushunadimi? Bu mezonlar protsessual talablarning o‘rnini bosmaydi, lekin tahrir va lingvistik ekspertizaga ko‘maklashadi.

Xulosa (conclusion)

Sud hujjatlarining pragmatik tabiati ularning institutsional vakolati, dalillash tuzilishi va adresatga ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda performativlik, deontik modallik, evidensiallik, kompozitsion vazifa va adresatga moslashuv muhim omillar sifatida ajratildi. Hujjat sifati uchun dalil–norma–xulosa zanjiri izchil bo‘lishi, modal birliklar o‘rinli tanlanishi hamda protsessual imkoniyatlar ravshan bayon etilishi lozim. Ushbu mezonlar sud matnlarini lingvistik tahlil qilish va yuridik yozuv madaniyatini rivojlantirishda qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 2018-yil 22-yanvar, 249- va 253-moddalar. Lex.uz: https://lex.uz/uz/acts/-3517337

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudning hal qiluv qarori haqida»gi 12-son qarori. 2019-yil 24-may. Lex.uz: https://lex.uz/uz/acts/-4396483

3. Austin, J. L. How to Do Things with Words. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 1975.

4. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

5. Tiersma, P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999.

6. Gibbons, J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. – Malden, MA: Blackwell, 2003.

Furqat NURMANOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti O‘zbek tili,
jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchisi
Email: furqatnx@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-2895-4717

MATBUOT TILIDA QO‘LLANILADIGAN DIALEKTIZM VA FOLKLORIZMLARNING O‘RNI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek matbuoti tilida qo‘llaniladigan dialektizm va folklorizmlarning funksional-pragmatik o‘rni tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi matbuot tilining adabiy me’yorni ommalashtiruvchi va ayni paytda xalq jonli nutqiga yaqinlashishga intiluvchi ikki yoqlama tabiati bilan belgilanadi. Tadqiqotda nodavlat va davlat gazetalarining intervyu, lavha, feleton, tanqidiy maqola janrlari hamda sarlavhalaridan olingan misollar asosida shevaga xos fonetik, leksik va morfologik birliklar, maqol, ibora, marosim formulalari, doston va ertak obrazlariga ishoralar tasniflangan.

Kalit so‘zlar: *matbuot tili, dialektizm, sheva elementi, folklorizm, maqol, pretsedent matn, frazeologik transformatsiya, ekspressivlik, adabiy me’yor, nutq madaniyati.*

Аннотация: в статье анализируется функционально-прагматическая роль диалектизмов и фольклоризмов в языке узбекской прессы. Актуальность темы определяется двойственной природой языка прессы, который, с одной стороны, распространяет литературную норму, а с другой - стремится приблизиться к живой народной речи. На материале интервью, очерков, фельетонов, критических статей и заголовков государственных и негосударственных газет классифицированы фонетические, лексические и морфологические диалектные единицы, а также пословицы, фразеологизмы, обрядовые формулы и аллюзии на образы эпоса и сказок.

Ключевые слова: *язык прессы, диалектизм, фольклоризм, пословица, прецедентный текст, фразеологическая трансформация, экспрессивность, литературная норма, культура речи.*

Annotation: the article analyses the functional and pragmatic role of dialectisms and folklorisms in the language of the Uzbek press. The relevance of the topic stems from the dual nature of press language, which both disseminates the literary norm and seeks closeness to vernacular speech. Drawing on interviews, sketches, feuilletons, critical articles and headlines from state and non-state newspapers, the study classifies phonetic, lexical and morphological dialect units, as well as proverbs, idioms, ritual formulae and allusions to epic and fairy-tale characters.

Keywords: *press language, dialectism, folklorism, proverb, precedent text, phraseological transformation, expressiveness, literary norm, speech culture.*

Kirish. Matbuot tili milliy tilning eng faol va ta’sirchan qatlamlaridan biri bo‘lib, unda adabiy me’yor va jonli xalq nutqi o‘rtasidagi munosabat doimiy harakatda bo‘ladi. Gazeta, bir tomondan, adabiy til me’yorlarini keng ommaga yetkazuvchi vosita hisoblanadi, ikkinchi tomondan esa auditoriyaga yaqinlashish, matnni jonli va ta’sirchan qilish maqsadida so‘zlashuv nutqi, sheva va xalq og‘zaki ijodi birliklariga murojaat qiladi. G.X. Bakiyeva va D.M. Teshabayeva ommaviy axborot vositalari tilida adabiy va noadabiy sohalar doimiy ta’sirda ekanini, OAV tili o‘ziga xos “poligon” sifatida ham singuvchan, ham singdiruvchan tabiatga ega ekanini ta’kidlaydilar [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 3]. Mualliflar so‘zlashuv uslubiga xos lisoniy vositalarning matbuot janrlariga tez-tez jalb etilishi gazeta tilining xalqqa tushunarliroq, yaqinroq bo‘lishiga olib kelganini ham qayd etadilar [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 73].

Bunday vositalar orasida dialektizmlar va folklorizmlar alohida o‘rin tutadi. Dialektizm deganda adabiy matnda qo‘llangan, muayyan hududiy shevaga xos fonetik, leksik, morfologik yoki sintaktik birlik tushuniladi. O‘zbek shevalarining tasnifi va tavsifi o‘zbek dialektologiyasida atroflicha ishlab chiqilgan [Reshetov, Shoabdurahmonov: 1978]. Folklorizm atamasi esa fanda ikki ma’noda qo‘llanadi. Adabiyotshunoslikda u yozma adabiyot va san’atda folklor an’analari, obraz va poetik vositalaridan foydalanishni anglatadi. Etnologiya va folklorshunoslikda esa xalq madaniyati unsurlarining o‘z tabiiy muhitidan tashqarida, ikkilamchi kontekstda qo‘llanishini bildiradi.

Ikkinchi ma’nodagi tushunchani 1962-yilda nemis xalqshunosi H. Mozer ilmiy muomalaga kiritgan va uni xalq madaniyatining “ikkinchi qo‘l”dan yetkazilishi va namoyish etilishi sifatida ta’riflagan [Moser: 1962, 179]. Matbuot aynan shunday ikkilamchi kontekst bo‘lib, unda maqol, matal, ibora, marosim formulalari, doston va ertak obrazlari publitsistik maqsadlarga xizmat qiladi. Maqolada folklorizm deganda xalq og‘zaki ijodiga mansub, matbuot matnida aynan yoki o‘zgartirilgan holda qo‘llangan birliklar tushuniladi.

O‘zbek matbuoti tilida so‘zlashuv va noadabiy unsurlar, frazeologizm va maqollarning qo‘llanishi bir qator tadqiqotlarda qisman yoritilgan [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 162–165; Nurmonov: 2026]. Biroq dialektizm va folklorizmlarning matbuot tilidagi o‘rni ularning janr, muallif yoki personaj nutqi, sarlavha yoki matn ichidagi pozitsiyasiga ko‘ra yaxlit tizimda ko‘rib chiqilmagan. Maqolaning maqsadi o‘zbek matbuoti materiallari asosida dialektizm va folklorizmlarning turlari, funksiyalari va me’yoriy chegaralarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlartahlili. Matbuottilidanoadabiyunsurlarning qo‘llanishi masalasi funksional stilistikaning markaziy muammolaridan biridir. V.G. Kostomarov gazeta tilining asosiy qonuniyatini ekspressiya va standartning dialektik birligida ko‘rgan [Kostomarov: 1971]. Bu konsepsiya nuqtai nazaridan dialektizm va folklorizmlar ekspressiya qutbiga mansub vositalar bo‘lib, ular standartlashgan gazeta nutqini jonlantirish, o‘quvchi e’tiborini tortish vazifasini bajaradi. G.X. Bakiyeva va D.M. Teshabayeva gazeta tilida ikki tendensiya, ya’ni ekspressivlikka intilish va standartga moyillik doimiy kurashda ekanini ta’kidlaydilar [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 68-69].

Rus medialingvistikasida feleton janrida noadabiy birliklarning qo‘llanishi komik effekt yaratish usullari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. N.A. Kuzmina tahriri ostidagi o‘quv qo‘llanmada feleton barcha til me’yorlarini ataylab buzishga asoslanishi, ammo bunday buzilish kontekstda asoslangan bo‘lishi shartligi qayd etiladi. Qo‘llanmada frazeologizmlarni individual qayta ishlash usullari, xususan, birlamchi va ko‘chma ma’nolarni to‘qnashtirish, ikki frazeologizmni qo‘shish, tarkibga yangi so‘z kiritish, qisqartirish va komponentlarni almashtirish batafsil tavsiflangan [Kuzmina: 2011, 148]. Iqtiboslarning media matndagi funksiyalari orasida ko‘rsatilgan “parol” funksiyasi folklorizmlarni tushunish uchun ayniqsa muhim, chunki pretsedent birlikni taniy olgan o‘quvchi muallif bilan bir madaniy doiraga kiradi [Kuzmina: 2011, 34].

O‘zbek tilshunosligida matbuot tilidagi folklor birliklari, asosan, pretsedent matn nazariyasi doirasida o‘rganilgan. G.X. Bakiyeva va D.M. Teshabayeva Y.N. Karaulovga tayanib, pretsedent matnlarning iqtibos, asar nomi, muallif ismi va personaj ismidan iborat to‘rt turini ajratadilar va gazeta sarlavhalarida iboralar, maqollar, shiorlar, she’riy misralar va iqtiboslardan foydalanish holatlarini misollar bilan ko‘rsatadilar [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 166-169]. Mualliflar maqol va matallar ta’sirchanlik va hissiylikni oshirish, auditoriya e’tiborini jalb etish maqsadida qo‘llanishini, gazeta frazeologiyasi esa vaqti-vaqti bilan “yosharib” turishini ta’kidlaydilar [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 164-165]. S.X. Shomaqsudova va M. Isroil sarlavhalardagi lisoniy-uslubiy san’atlarni tavsiflar ekan, tajnis uchun *Hashar elga yarashar*, metafora uchun esa *Kambag‘alni tuyani ustida ham it qopadi* kabi maqollarga asoslangan sarlavhalarni misol qiladilar [Shomaqsudova, Isroil: 2018, 59]. Ayni paytda mualliflar yangilik matnida jargonlardan qochish lozimligini alohida uqtiradilar [Shomaqsudova, Isroil: 2018, 157].

Noadabiy unsurlarning nutq madaniyatiga ta’siri masalasida O.B. Sirotininaning nutq madaniyati tiplari tasnifi muhim ahamiyatga ega. G.X. Bakiyeva va D.M. Teshabayeva ushbu tasnifga tayanib, OAV vositasida targ‘ib qilinayotgan adabiy-jargonlashgan nutq madaniyati tipi tilga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini qayd etadilar [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 193-194]. I.X. Sotvoldiyeva esa zamonaviy o‘zbek media tilida sleng va so‘zlashuv bo‘yoqli birliklarning faollashuvi uslubiy nomuvofiqlik va “aralash norma”ning shakllanishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi [Sotvoldiyeva: 2025, 391, 394]. F. Nurmonovning monografiyasida nodavlat gazetalarning intervyu, lavha, ocherk va feleton janrlarida frazeologizm, maqol, sheva elementlari, varvarizm va argolarning qo‘llanishi tahlil qilingan [Nurmonov: 2026].

Folklorshunoslikda xalq og‘zaki ijodi janrlari, jumladan, maqol, matal, doston va ertaklarning poetik xususiyatlari tizimli yoritilgan [Imomov va boshq.: 1990]. O‘zbek maqollarining eng to‘liq to‘plamlaridan biri ham maqol matnlarini qiyoslash uchun manba bo‘lib xizmat qiladi [O‘zbek xalq maqollari: 2005]. Frazeologik birliklarning ma’nosi va variantlari Sh. Rahmatullayevning izohli frazeologik lug‘ati asosida aniqlanadi [Rahmatullayev: 1978].

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar matbuot tilida noadabiy va folklor birliklarining qo‘llanishiga oid muhim nazariy asoslarni beradi. Biroq dialektizm va folklorizmlarni yagona funksional-pragmatik tizimda, ularning janr va matn pozitsiyasiga ko‘ra o‘rni hamda me’yoriy chegarasi nuqtai nazaridan tahlil qilish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Metodologiya. Tadqiqotning empirik materialini nodavlat gazetalarining sonlaridan olingan intervyu, lavha, ocherk, feleton va tanqidiy materiallar tashkil etdi. Qiyosiy material sifatida G.X.Bakiyeva va D.M.Teshabayevaning monografiyasida keltirilgan o‘zbek gazeta sarlavhalari va matnlaridan olingan misollar ham jalb qilindi. Tadqiqotda tasniflash, kontekstual tahlil, komponent tahlil va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Dialektal birliklarni aniqlashda ularning adabiy til shakli bilan qiyoslanishi va o‘zbek dialektologiyasidagi tavsiflar asos qilib olindi. Folklor birliklari maqollar to‘plami va izohli frazeologik lug‘atdagi shakllar bilan solishtirilib, ularning aynan yoki o‘zgartirilgan holda qo‘llangani aniqlandi. Har bir birlikning qaysi janrda, kimning nutqida (muallif yoki personaj) va matnning qaysi qismida (sarlavha, savol, javob, asosiy matn) qo‘llangani hamda uning pragmatik vazifasi belgilab chiqildi. Argo, jargon va varvarizmlar dialektizmlardan farqlanib, ular faqat qiyos uchun hisobga olindi.

Natijalar. Dialektizmlarning turlari va vazifalari. Tahlil qilingan materialda dialektizmlar, asosan, feleton va tanqidiy materiallarda, kamroq hollarda intervyu javoblarida uchraydi. Ular ko‘pincha personaj nutqida qo‘llanib, voqea joyi va qahramon tabiatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, *Chet elga chiptalar b-o-r* sarlavhali feletondagi *Oka, bilet kerakmi?* jumlasidan voqelik Toshkentda kechayotganini bilib olish qiyin emas (D., 18.11.2010). *Dollar olaman, dollar...* sarlavhali feletonda *men* olmoshi o‘rnida *man* shakli qo‘llangan, *Bu yerning “ko‘ki”ni faqat man hal qilaman, man, eshitdingmi?* jumlasida sheva shakli argo birlik (*ko‘ki* – “dollar”) bilan birga kelib, valyuta olibsotarining ijtimoiy-nutqiy portretini yaratgan (D., 16.12.2010). Dialektizmlarning asosiy turlari va matndagi vazifalari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Matbuot matnlarida dialektizmlarning turlari va vazifalari

Turi	Misol	Adabiy shakli	Kimning nutqida	Vazifasi
Fonetik dialektizm	*man hal qilaman* (D., 16.12.2010)	*men*	Personaj	Ijtimoiy-hududiy portret
Fonetik-leksik dialektizm	*Oka, bilet kerakmi?* (D., 18.11.2010)	*aka*	Personaj	Voqea joyini ko‘rsatish
Fonetik dialektizm (intervyu javobida)	*shunday bo‘lsa ham maning ham aytganlarimni qiladi-da* (D., 08.11.2012)	*mening*	Suhbatdosh	Jonli nutq izi; tahrir jarayonida tuzatilmagan shakl
Leksik-morfologik dialektizm	*mang, oka, pulni oling* (D., 16.12.2010)	*ma*, *ol*	Personaj	Jonli dialog, so‘zlashuv ohangi
Morfologik dialektizm (yuklama)	*bo‘lib ketadi-yov*; *o‘chirib tashlashsa kerag-ov* (D., 27.01.2011)	*-ov*, *-yov* gumon yuklamalari	Muallif (hikoyachi)	Kinoya, gumon va taajjub ottenkasi
So‘zlashuvga xos yuklama va undovlar	*Ol-a*, *a, labbay?*, *yo‘g‘-e* (D., 13.01.2011; 03.02.2011)	-	Muallif va personaj	Jonli nutq imitatsiyasi

Jadvaldan ko‘rinadiki, dialektizmlarning aksariyati personaj nutqida qo‘llanib, badiiy tasvir vazifasini bajaradi. Bunday hollarda ular matnning ishonchliligini oshiradi va o‘quvchini voqea muhitiga olib kiradi. Muallif nutqida qo‘llangan *-ov*, *-yov* yuklamali shakllar esa kinoyaviy ohang yaratadi. Masalan, *Bora-bora erkak va ayollarning sartaroshi bitta bo‘lib ketadi-yov, bu ketishda* jumlasida yuklama hikoyachining kinoyali xavotirini ifodalagan (D., 27.01.2011).

Intervyu janrida dialektizmlar kam uchraydi va, asosan, suhbatdoshlar javobida kuzatiladi. Masalan, *Lekin shunday bo‘lsa ham maning ham aytganlarimni qiladi-da* javobida *mening* olmoshining sheva shakli saqlanib qolgan (D., 08.11.2012). Jurnalist savollarida esa dialektizmlar deyarli qo‘llanmaydi. Bu holat intervyu matnining og‘zaki shakldan yozma shaklga o‘tkazilishida tahrir bosqichi bilan bog‘liq bo‘lib, yozma variantda nutq kodifikatsiyalangan adabiy tilga yaqinlashadi [Kuzmina: 2011, 71].

Folklorizmlarning turlari va vazifalari. Folklorizmlar matbuotning deyarli barcha janrlarida, ayniqsa, intervyu savollarida, feleton, sud ocherki va sarlavhalarda faol qo‘llanadi. Ularning qo‘llanish shakli va pragmatik vazifasi 2-jadvalda ko‘rsatildi.

2-jadval

Matbuot matnlarida folklorizmlarning turlari va *vazifalari*

Turi	Misol	Qo‘llanish shakli	Matndagi o‘rni	Pragmatik vazifasi
Maqol (aynan)	*G‘ayrati bor kishining, unumi bor ishining* (D., 22.09.2011); *Sevib olmasang ham, sinab ol* (S., 26.05.2013)	Aynan	Intervyu savoli	Suhbatdoshni munosabat bildirishga undash
Maqol (mazmuni o‘zgartirilgan)	*O‘ttizga kirgani o‘tin bo‘lgani, qirqqa kirgani to‘kilgani deyishadi* (D., 22.02.2011)	Mazmunan qayta ifodalangan	Intervyu savoli	Suhbatdoshda e’tiroz va faol javob uyg‘otish
Maqol (kengaytirilgan)	*Ota rozi - xudo rozi, payg‘ambar mustafo roziligida* (S., 10.05.2013)	Qo‘shimcha birikma bilan	Intervyu savoli	Ta’kid; ortiqcha balandparvozlik xavfi
Maqol (qisqartirilgan)	*Sabrning tagi... nima?* (D., 10.03-07.04.2011)	Ikkinchi qismi tushirilgan	Ocherkning kichik sarlavhasi	Intriga, o‘quvchini maqolni davom ettirishga undash
Maqol asosidagi ibora	*pichoqning sopini o‘zidan chiqarish* (D., 03.02.2011)	Transformatsiya	Sud ocherki matni	Firibgarlik sxemasini xalqona obraz orqali izohlash
Marosim va urf-odat formulasi	*Qizni beshikka sol, sepini sandiqqa sol* (S., 12.02.2011)	Aynan	Intervyu savoli	Samimiy, hazilomuz muhit yaratish
Doston qahramoni va tarixiy shaxs obraziga ishora	*Agar bobolarimiz Alpomishmi yoki Jaloliddin Manguberdi ko‘rib qolishsa bormi...* (D., 27.01.2011)	Alluziya	Feleton xotimasi	Milliy ideal bilan zamonaviy illatni qiyoslash, kinoya
Ertak janriga ishora	*Ertak eshitgan boladan yovuzlik chiqmaydi* (D., 29.03.2012)	Hikmatli so‘z shaklida	Lavhaning kichik sarlavhasi	Axloqiy-tarbiyaviy xulosa
Maqol va iboralar sarlavhada	*Qovun qovundan rang olar*; *O‘zim sari boqma, so‘zim sari boq*; *Yaxshi niyat murodga eltar*; *Kambag‘alni tuyani ustida ham it qopadi* (“Media+”)	Aynan	Gazeta sarlavhasi	E’tiborni jalb etish, madaniy umumiylik

Natijalar folklorizmlarning matnda ikki asosiy pozitsiyada to‘planishini ko‘rsatadi. Birinchisi sarlavha bo‘lib, unda folklor birligi pretsedent matn sifatida o‘quvchi diqqatini tortadi va matn mazmuniga ishora qiladi. Ikkinchisi intervyu savoli bo‘lib, unda maqol jurnalist fikrini bilvosita ifodalovchi va suhbatdoshni faollikka undovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, *Dilbar opa, ayol kishining o‘ttizga kirgani o‘tin bo‘lgani, qirqqa kirgani to‘kilgani deyishadi, siz bunga qanday qaraysiz?* savoliga suhbatdosh maqol mazmuniga e’tiroz bildirib, o‘z pozitsiyasini qat’iy ifodalagan (D., 22.02.2011).

Sud ocherki va feletonlarda folklorizmlar ko‘pincha transformatsiyalangan holda keladi. *Firibgarlik ortidagi mashmashalar* ocherkining kichik sarlavhalaridan birida *sabrning tagi – sariq oltin* maqoli *Sabrning tagi... nima?* shaklida qisqartirilgan, matnda esa *do‘ppisi tor kelmoq* iborasi *do‘ppisi tor kelgan chog‘da* shaklida qo‘llangan (D., 10.03-07.04.2011). Bunday o‘zgarishlar tanish shaklni buzib, o‘quvchi idrokida kutilmaganlik effektini yuzaga keltiradi.

Muhokama. Tahlil natijalari dialektizm va folklorizmlarning matbuot tilida bir-biriga yaqin, ammo turli vazifalarni bajarishini ko‘rsatadi. Dialektizmlar asosan, nutqiy portret va makon ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi, ularning qo‘llanish doirasi feleton, tanqidiy material va intervyu javoblari bilan cheklanadi. Folklorizmlar esa baholovchi va kommunikativ vazifalarni bajarib, sarlavhadan tortib intervyu savoligacha bo‘lgan keng doirada qo‘llanadi. Bu farq ikki hodisaning tabiati bilan izohlanadi. Dialektizm hududiy jihatdan cheklangan birlik bo‘lgani uchun u matnda muayyan joy va ijtimoiy guruhga ishora qiladi. Folklorizm esa butun lingvomadaniy jamoaga tanish birlik bo‘lgani uchun o‘quvchi bilan madaniy umumiylik o‘rnatadi. Bu holat N.A. Kuzmina tahriri ostidagi qo‘llanmada tavsiflangan iqtibosning “parol” funksiyasiga mos keladi [Kuzmina: 2011, 34].

V.G. Kostomarovning ekspressiya va standart konsepsiyasi nuqtai nazaridan har ikki hodisa ekspressiya qutbiga mansubdir [Kostomarov: 1971]. Biroq folklorizmlar, ayniqsa, ko‘p takrorlanadigan maqol va iboralar vaqt o‘tishi bilan o‘z ekspressivligini yo‘qotib, publitsistik klishega aylanishi mumkin. Shuning uchun jurnalistlar ularni ko‘pincha transformatsiya qiladi. Bu jarayon G.X. Bakiyeva va D.M. Teshabayeva qayd etgan gazeta frazeologiyasining doimiy “yosharib” turishi hodisasining bir ko‘rinishidir [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 164]. N.A. Kuzmina tahriri ostidagi qo‘llanmada ko‘rsatilgan frazeologik transformatsiya usullaridan qisqartirish, kengaytirish va komponentlarni almashtirish o‘zbek matbuotida ham faol qo‘llanadi [Kuzmina: 2011, 148].

Dialektizm va folklorizmlarning me’yoriy chegarasi masalasi alohida e’tiborni talab qiladi. Personaj nutqida qo‘llangan dialektizmlar badiiy jihatdan asoslangan bo‘lsa, muallif nutqida izohsiz qo‘llangan sheva, argo va varvarizm birliklari matbuot tilining madaniylik darajasini pasaytiradi. Bu xavf O.B. Sirotinina tasnifidagi adabiy-jargonlashgan nutq madaniyati tipining OAV orqali tarqalishi bilan bog‘liq [Bakiyeva, Teshabayeva: 2019, 193-194]. I.X. Sotvoldiyeva ham sleng va so‘zlashuv birliklarining nazoratsiz qo‘llanishi “aralash norma”ning shakllanishiga olib kelishini qayd etadi [Sotvoldiyeva: 2025, 391]. Folklorizmlarda esa me’yor buzilishi boshqa shaklda namoyon bo‘ladi. *Ota rozi – xudo rozi, payg‘ambar mustafo roziligida* yoki *yoshlik – beboshlik, yosh chog‘im – oltin chog‘im* kabi kengaytirilgan va qo‘shib qo‘llangan maqollarda ortiqcha balandparvozlik seziladi (S., 10.05.2013; D., 02.02.2012). Maqol mazmunining o‘zi ta’sirchanlikni ta’minlash uchun yetarli bo‘lgan holatlarda qo‘shimcha bezaklar uslubiy g‘alizlikka olib keladi.

Natijalar matbuotda folklorizmning faqat bezak vositasi emas, balki mazmun va baho ifodalashning faol vositasi ekanini ham ko‘rsatadi. Feleton xotimasidagi Alpomish obraziga ishora milliy ideal bilan zamonaviy illatni qarama-qarshi qo‘yib, matnning tanqidiy g‘oyasini kuchaytiradi. Lavhadagi *Ertak eshitgan boladan yovuzlik chiqmaydi* kichik sarlavhasi esa xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy qimmatini publitsistik xulosa darajasiga ko‘taradi. H. Mozer ta’kidlaganidek, folklor materiali ikkilamchi kontekstda yangi funksiya kasb etadi [Moser: 1962, 179]. O‘zbek matbuotida bu funksiya, asosan, baholash, ishontirish va madaniy o‘zlikni ta’kidlash bilan bog‘liq.

Xulosa. O‘zbek matbuoti tilida dialektizm va folklorizmlar ekspressivlikni ta’minlovchi muhim vositalar bo‘lib, ular turli vazifalarni bajaradi. Dialektizmlar asosan, feleton, tanqidiy material va intervyu javoblarida personaj nutqini tavsiflash, voqea joyini ko‘rsatish va kinoyaviy effekt yaratish uchun qo‘llanadi. Folklorizmlar esa sarlavha, intervyu savoli, sud ocherki va feletonlarda aynan yoki transformatsiyalangan holda kelib, suhbatni yo‘naltirish, baho ifodalash, diqqatni jalb etish va o‘quvchi bilan madaniy umumiylik o‘rnatish vazifalarini bajaradi.

Dialektizmlarning qo‘llanishi personaj nutqida asoslangan, muallif nutqida izohsiz qo‘llanganda esa me’yor buzilishi va nutq madaniyatining pasayishiga olib keladi. Folklorizmlarda me’yor buzilishi, asosan, ortiqcha kengaytirish va balandparvozlikda namoyon bo‘ladi. Shu bois jurnalistlar uchun dialektizm va folklorizmlardan foydalanishning janr va kontekstga bog‘liq mezonlarini tahririyat uslub qo‘llanmalarida belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq. Kelgusida mazkur hodisalarni internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlardagi media matnlar materialida miqdoriy korpus tahlili asosida o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн: монография. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2019. 208 б.
2. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. 232 б.
5. Sotvoldiyeva I.X. O‘zbek mediatilining lingvistik xususiyatlari va nutq madaniyatiga ta’siri // Innovations in Science and Technologies. 2025. № 11. B. 390–397.
6. O‘zbek xalq maqollari / tuzuvchilar T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq, 2005.
7. Shomaqsudova S.X., Isroil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. 180-b.
8. Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. – М.: Изд-во МГУ, 1971.
9. Кузьмина Н.А. (отв. ред.). Современный медиатекст: учебное пособие. – Омск: Полиграфический центр «Татьяна», 2011. 414 с.
10. Moser H. Vom Folklorismus in unserer Zeit // Zeitschrift für Volkskunde. 1962. - Jg. 58. S. 177– 209.

Эльвина АДЖЕМИНОВА,
старший преподаватель кафедры русской филологии,
Ферганского государственного университета,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам

ЭВФЕМИЗАЦИЯ КАК КОГНИТИВНО-ЯЗЫКОВОЙ И ДИСКУРСИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

Аннотация: в статье эвфемизация рассматривается как процесс, в котором соединяются когнитивные механизмы концептуализации и дискурсивные стратегии управления коммуникативным взаимодействием. Целью работы является выявление когнитивных оснований эвфемистической номинации и описание её прагматических функций в речи. Показано, что эвфемизм возникает на пересечении концептуальной метафоры, метонимического смещения и социальной установки на сохранение лица собеседника.

Ключевые слова: *эвфемизация, эвфемизм, табу, когнитивная метафора, дискурс, вежливость, прагматика, речевая стратегия.*

Annotatsiya: maqolada evfemizatsiya konseptuallashtirishning kognitiv mexanizmlari hamda kommunikativ muloqotni boshqarishning diskursiv strategiyalari tutashgan jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Ishning maqsadi evfemistik nominatsiyaning kognitiv asoslarini ochib berish va uning nutqdagi pragmatik vazifalarini yoritishdan iborat. Evfemizm konseptual metafora, metonimik siljish hamda suhbatdoshning obro‘-e’tiborini (yuzini) saqlashga qaratilgan ijtimoiy ko‘rsatmaning kesishuv nuqtasida yuzaga kelishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *evfemizatsiya, evfemizm, tabu, kognitiv metafora, diskurs, xushmuomalalik, pragmatika, nutq strategiyasi.*

Annotation: the article examines euphemization as a process in which cognitive mechanisms of conceptualization and discursive strategies for managing communicative interaction are combined. The aim of the work is to identify the cognitive foundations of euphemistic nomination and to describe its pragmatic functions in speech. It is shown that euphemism arises at the intersection of conceptual metaphor, metonymic shift, and the social orientation toward preserving the interlocutor’s face.

Key words: *euphemization, euphemism, taboo, cognitive metaphor, discourse, politeness, pragmatics, speech strategy.*

ВВЕДЕНИЕ

Эвфемизация относится к числу языковых процессов, которые особенно чутко реагируют на изменение социальных норм. Всякий раз, когда общество признаёт тему болезненной, опасной или неприличной, язык вырабатывает способы говорить о ней обходным путём. Поэтому эвфемия традиционно связывается с языковым табу [1; 2], а её изучение долгое время велось преимущественно в лексикологии и стилистике: исследователей интересовали состав эвфемизмов, тематические группы и способы образования.

Современная лингвистика смещает акцент с описания единиц на анализ процессов. С одной стороны, в рамках когнитивного подхода язык понимается как средство структурирования опыта, и эвфемистическая номинация предстаёт результатом особой операции с концептом [3; 4]. С другой стороны, прагматика и теория дискурса требуют учитывать, кто, кому, с какой целью и в каких условиях употребляет смягчающее обозначение [5; 6]. Несмотря на обилие работ, сопряжение этих двух перспектив остаётся недостаточно разработанным: когнитивные описания нередко игнорируют коммуникативную ситуацию, а прагматические – механизмы смыслообразования.

Цель исследования – рассмотреть эвфемизацию как единый феномен, в котором когнитивный и дискурсивно-прагматический уровни взаимно обусловлены. Для достижения цели решаются следующие *задачи*: уточнить понятие эвфемизации; выделить основные когнитивные механизмы создания эвфемизмов; описать их дискурсивные функции; показать, как различаются эвфемистические стратегии в бытовом, медицинском и политическом общении.

МЕТОДЫ

Теоретическую базу составили работы по эвфемии и языковому табу [1; 2; 7], когнитивной семантике [3; 4], теории вежливости и прагматике [5; 6], а также по критическому анализу дискурса. В работе использованы следующие методы: описательный метод с приёмами наблюдения и классификации; концептуальный анализ, направленный на выявление моделей переосмысления обозначаемого; контекстуально-интерпретационный анализ, позволяющий определить коммуникативное намерение говорящего. Иллюстративный материал отобран способом целенаправленной выборки из публицистических текстов, речи медиков и чиновников, а также из разговорного общения. Выборка носит качественный характер и не претендует на статистическую репрезентативность.

Под *эвфемизацией* понимается процесс замены прямого обозначения нейтральной или положительно окрашенной номинацией с целью смягчения, маскировки или вуалирования нежелательных аспектов предмета речи. Результат этого процесса – *эвфемизм*.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ показал, что большинство эвфемизмов опирается на три основных механизма.

Концептуальная метафора переносит неприятную или запретную область опыта в более безопасную. Смерть описывается как путь или уход («ушёл от нас», «отошёл в мир иной»), что соответствует модели «жизнь – путешествие» [3]. Такая метафора не просто заменяет слово, а предлагает иную схему осмысления события, при которой исчезает окончательность и появляется образ продолжения.

Метонимия и синекдоха позволяют назвать явление через его часть, следствие или сопутствующий признак: «интимная близость», «места не столь отдалённые», «неблагоприятный исход». Говорящий выбирает периферийный признак, а центральный, наиболее болезненный, остаётся в тени [4].

Перекатегоризация и семантическое обобщение состоят в отнесении обозначаемого к более широкому классу: «сокращение кадров» вместо «увольнение», «ограниченные возможности здоровья» вместо «инвалидность». Приём основан на размывании границ категории, из-за чего конкретный референт становится менее определённым.

Отдельного внимания заслуживает *перифраз*, который можно рассматривать как композиционную реализацию перечисленных механизмов: в нём метафорический или метонимический перенос разворачивается в словосочетание [2]. Кроме того, в современной речи заметна заимствованная и терминологическая эвфемизация («рецессия», «оптимизация», «коррекция»), где иноязычная или специальная форма создаёт дистанцию между словом и его эмоциональным содержанием.

В коммуникации эвфемизмы выполняют несколько взаимосвязанных функций: *Функция сохранения лица.* Смягчение угрозы лицу адресата или говорящего соответствует стратегии негативной вежливости [5]. Фраза «ваш результат не совсем соответствует требованиям» щадит самооценку собеседника в большей мере, чем прямой отказ. *Функция табуирования и соблюдения норм.* Эвфемизм позволяет затронуть тему, не нарушая этикетных и ритуальных ограничений [1; 7]. *Манипулятивная функция.* Эвфемизация может скрывать неблагоприятную информацию или снижать оценочную остроту события: «боевые действия» заменяются нейтральными обозначениями, «массовые увольнения» – «оптимизацией штата». Здесь эвфемизм служит инструментом воздействия на картину мира адресата. *Функция солидарности и принадлежности.* Профессиональные и групповые эвфемизмы маркируют говорящего как носителя общих норм и общего знания.

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты подтверждают, что эвфемизация не сводится ни к чисто лексическому, ни к чисто этикетному явлению. На когнитивном уровне она представляет собой способ перестройки концепта: говорящий выбирает ракурс, при котором неприемлемая часть содержания уходит на периферию. На дискурсивном уровне та же перестройка получает цель и оценку: она оправдана вежливостью, табу или стратегическим интересом. Принципиально, что границы между «добросовестным» и «манипулятивным» эвфемизмом определяются не формой единицы, а интенциональным и ситуативным контекстом. Один и тот же перифраз может проявить заботу или скрыть правду.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Эвфемизация представляет собой комплексный феномен, объединяющий когнитивные операции переосмысления концепта и дискурсивные стратегии управления общением. К основным когнитивным механизмам относятся метафора, метонимия, перекатегоризация и перифраз; к ведущим прагматическим функциям – сохранение лица, соблюдение табу, воздействие и маркирование групповой принадлежности. Оценка эвфемизма как этически нейтрального, смягчающего или манипулятивного возможна лишь с учётом контекста и намерений участников коммуникации. Перспективой исследования является корпусный анализ эвфемизации с количественной проверкой выделенных моделей и сопоставление русского материала с данными других языков.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия. – Ленинград: Ленинградский государственный педагогический институт им. А. И. Герцена, 1988. 80 с.

2. Allan K., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – New York: Oxford University Press, 1991. 264 p.

3. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. 256 с.

4. Кубрякова Е. С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика – психология – когнитивная наука // Вопросы языкознания. 1994. № 4. С. 34–47.

5. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.

6. Грайс Г. П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – Москва: Прогресс, 1985. С. 217–237.

7. Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия (1985–1995). – Москва: Языки русской культуры, 1996. С. 384–408.

Dr. Ahmad Musa Abdullah Sayfiddin,
Associate Professor (Docent)
International Islamic Academy of Uzbekistan
Uzbekistan State World Languages University
Dr. Nabila Nabil Tokhy Kandil
Tashkent State University of World Languages
Email: Nabilaeltokhyy@gmail.com

A PROPOSED SCENARIO-BASED LEARNING PROGRAM TO DEVELOP SPEAKING SKILLS AND ORAL FLUENCY AMONG LEARNERS OF ARABIC AS A FOREIGN LANGUAGE

A Design Study and a Plan for Empirical Validation

Annotation: this study proposes a 20-lesson scenario-based program to improve speaking skills and oral fluency among intermediate learners of Arabic as a foreign language. It integrates interactive tasks, repeated performance, and feedback to enhance communication. The program distinguishes speaking quality from measurable fluency indicators. Its effectiveness remains untested, and expert review and empirical evaluation are proposed.

Key words: *scenario-based learning; speaking skills; oral fluency; Arabic as a foreign language; task repetition.*

Аннотация: в статье предлагается программа из 20 занятий на основе сценарного обучения для развития навыков говорения и беглости речи у изучающих арабский язык на среднем уровне. Программа включает интерактивные задания, повторное выполнение речевых задач и обратную связь. Качество говорения оценивается отдельно от измеряемых показателей беглости речи. Эффективность программы пока не подтверждена экспериментально; предусмотрены экспертная оценка и последующая эмпирическая проверка.

Ключевые слова: *обучение на основе сценариев; навыки говорения; беглость устной речи; арабский язык как иностранный; повторение задания.*

Annotatsiya: ushbu maqolada arab tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan o‘rta darajadagi talabalar uchun og‘zaki nutq va ravonlikni rivojlantirishga qaratilgan ssenariy asosidagi 20 darslik dastur taklif etiladi. Dastur interaktiv vazifalar, takroriy mashqlar va fikr-mulohazalar orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Unda nutq sifati va ravonlikning o‘lchanadigan ko‘rsatkichlari alohida baholanadi. Dastur samaradorligini aniqlash uchun ekspert bahosi va empirik sinovlar rejalashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *ssenariy asosida ta’lim; og‘zaki nutq ko‘nikmalari; nutq ravonligi; arab tilini xorijiy til sifatida o‘qitish; topshiriqni takrorlash.*

1. Introduction, Research Problem and Objectives

Learners of Arabic as a foreign language may acquire sufficient vocabulary and grammatical knowledge yet still struggle to communicate spontaneously in everyday situations. Anxiety, limited speaking opportunities, and difficulties with pronunciation or vocabulary retrieval can affect their oral performance [1]. As a result, learners may understand linguistic structures without being able to use them confidently in meaningful conversations. This gap highlights the need for instructional approaches that provide regular opportunities for interaction and practical language use. Scenario-based learning offers a way to address this challenge by engaging learners in realistic situations that require communication, problem-solving, and decision-making. Unlike memorized dialogues, scenarios encourage learners to select appropriate expressions, respond to unexpected situations, and negotiate meaning with others. Previous research has explored scenario-based instruction and task repetition in language learning [4, 6]. However, the present study identifies a need for a more explicit instructional connection between scenario-based activities, repeated oral performance, and the systematic assessment of fluency among learners of Arabic as a foreign language.

Accordingly, this study aims to design a twenty-lesson instructional program for intermediate learners, using B1 as an approximate reference level [3]. The proposed

program combines linguistic preparation, interactive tasks, selective feedback, and repeated performance under modified conditions. Its main contribution is the integration of these elements into a structured framework that distinguishes general speaking quality from observable indicators of oral fluency, including speech continuity, pauses, and response time.

The study addresses three main questions: What speaking skills and fluency indicators should be targeted? How can scenarios and repeated tasks be organized to support meaningful communication? How can learners' speaking performance be assessed reliably? The research adopts an educational design approach rather than reporting a completed experiment. Therefore, it does not claim that the proposed program has already improved learners' speaking ability. Instead, it presents a framework for expert evaluation and subsequent empirical testing.

2. Theoretical Framework and Contribution

Speaking quality is organized into five dimensions: pronunciation and intonation, linguistic resources, discourse, interaction, and contextual appropriateness. Fluency is assessed separately through continuity, speech rate, pauses, response time, repetition, and repair. Speed alone is not fluency; understandable and sustained interaction matters [5].

A scenario places the learner in a realistic or plausible situation with a role, an objective, information, and constraints. For instance, a student asking to reschedule an appointment does not recite a memorized dialogue but chooses appropriate wording in response to a staff member or peer. Speaking thus becomes a means of completing a task. This approach aligns with the action-oriented perspective, which regards the learner as a social agent using language to achieve a specific goal [3].

Scenario-based teaching is not new to Arabic instruction [4]. The proposed contribution is a coherent combination of purposeful scenarios, varied task repetition, and separate assessment of speaking quality and temporal fluency. Evidence on repeated performance supports examining these links but does not establish their effectiveness for this proposed Arabic program [6, 7].

3. Method and Program Design

This educational design study draws on the structure of earlier instructional materials (program, teacher's guide, and learner's book) and a focused, non-systematic review of speaking, fluency, scenarios, and task repetition. Its process involved defining target skills, formulating design principles, adapting twenty sessions for oral performance, and preparing assessment and validation procedures. The emphasis on communicative use rather than isolated linguistic knowledge is consistent with established Arabic-language pedagogy [2].

Each lesson proceeds through context-setting, role and goal clarification, limited language support, short planning, first performance, selective feedback, varied second performance, and self-reflection. Teachers facilitate and observe; learners listen, decide, negotiate, and adapt their language.

One learner receives a card describing a new student who needs a library card before an approaching lecture. A classmate receives an employee's card listing the office location, required documents, collection time, and an additional fact about a system failure. After one minute of planning, they conduct a conversation in which the student asks for information, raises follow-up questions, and seeks to understand the delay. The scene is repeated after the appointment time or required documents are changed. The value of the exercise is that participants cannot complete it simply by reading a script: each holds information unknown to the other.

4. Twenty-Lesson Sequence

Twenty sessions comprise an introduction, eighteen progressively demanding lessons, and a final integrated performance. Activities move from everyday transactions to description, narration, negotiation, problem-solving, and group interaction. Every scenario has roles, an outcome, selective feedback, and a modified second attempt.

Introduction: Let us speak—getting acquainted with the scenario method.

- 1: Introducing oneself and others at different levels of formality.
- 2: Making inquiries at a university or educational center.
- 3: Requesting a service and resolving a problem in a shop.
- 4: Asking for directions and using transportation.
- 5: Ordering food and making special requests in a restaurant.
- 6: Booking a medical appointment and describing simple symptoms.
- 7: Describing a person and a place.

• 8: Narrating a coherent experience or event.

• 9: Expressing opinions and handling disagreement.

• 10: Describing while gradually reducing the time available.

• 11: Telling a story from a sequence of pictures.

• 12: Retelling a short news item or announcement.

• 13: Responding to an unexpected problem.

• 14: Conversation circles with changing partners.

• 15: Repeating a task with less planning time.

• 16: Group discussion and decision-making.

• 17: Giving a short presentation and answering questions.

• 18: An integrated simulation involving connected situations.

• Conclusion: Final oral performance and reflection on progress.

5. Assessment and Fluency Indicators

Assessment combines a baseline task, formative observations, and final tasks of comparable difficulty but different content. Individual speaking, paired dialogue, and group problem-solving are assessed through a rubric for pronunciation, language, discourse, interaction, and contextual appropriateness. A separate fluency record tracks continuity, pauses, response time, hesitation, and repair.

With consent, recordings can provide speech rate, length of fluent runs, prolonged pauses, repetitions, and repairs. Scoring rules and pause thresholds should be set in advance. Trained independent raters should score samples and their agreement should be quantified, for example through an appropriate intraclass correlation coefficient.

6. Empirical Validation Plan

Validation should begin with expert review of lesson content, scenarios, and scoring rubrics, followed by a small pilot to refine instructions, duration, and recording procedures. A later controlled study should compare the program with conventional conversation teaching using pre- and post-tests. Without random assignment, baseline differences between groups must be documented and addressed.

Sample size should follow a prior power analysis. ANCOVA or a suitable repeated-measures model can estimate change while accounting for baseline differences. Reports should include effect sizes, confidence intervals, and rater agreement. Blind scoring where feasible, informed consent, and secure recordings are essential.

7. Discussion, Limitations and Conclusion

The completed output of this study is an instructional design: a twenty-session sequence, defined speaking and fluency indicators, an assessment framework, and a validation plan. It is not evidence of improved learner performance. Its strengths are the alignment of communication goals, feedback, and varied repetition; its limitations include the absence of classroom data, an invalidated rubric, and possible variation across dialect exposure, teachers, and learner backgrounds. Next steps are expert review, pilot refinement, teacher preparation, and a properly reported field comparison. Only then can claims about effectiveness or generalizability be considered.

References

[1] Al-Jadani, Anwar bin Saad. (2023). Difficulties in learning speaking skills among learners of Arabic as a second language at the Institute for Teaching Arabic to Non-Native Speakers, King Abdulaziz University [Original article in Arabic]. Teaching Arabic as a Second Language, 5(9), 188–225.

[2] Tu'aymah, Rushdi Ahmad. (2004). Language skills: Levels, teaching, and difficulties [Book in Arabic]. Dar Al-Fikr Al-Arabi.

[3] Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Council of Europe Publishing.

[4] Mohamed, S. (2025). Designing a scenario-based learning framework for a university-level Arabic language course. Language Learning in Higher Education, 15(1), 191–220.

[5] Segalowitz, N. (2010). Cognitive Bases of Second Language Fluency. Routledge.

[6] Suzuki, Y., & Hanzawa, K. (2022). Massed task repetition is a double-edged sword for fluency development: An EFL classroom study. Studies in Second Language Acquisition, 44(2), 536–561.

[7] Abdi Tabari, M., Zhuang, J., & Farahanynia, M. (2025). Task repetition and L2 oral performance: A meta-analysis. System, 135, 103868.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Ayimxan ESHNIYAZOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari doktori (DSc)

HIKOYALARDA AYOL QISMATINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: maqolada Nazar Eshonqulning keyingi yillarda folklordan oziqlanib yaratilgan “Qultoy”, “Bepoyon osmon” hikoyalari talqini va tahlili berilgan. “Qultoy” hikoyasida o‘z yaqinlari, farzandi tomonidan anglanmagan, tan olinmagan jabrdiyda ayol qismatini Qultoy timsolida aks ettirgan bo‘lsa, “Bepoyon osmon” hikoyasida befarzand ayolning dardi, armoni bilan birga osmon qadar keng qalbning dardlarining talqini o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *hikoya, ramz, metaforik tafakkur, obraz, homiy, ayol.*

Annotation: this article provides an interpretation and analysis of Nazar Eshonqul’s stories “Qultoy” and “Boundless Sky” which were created in recent years drawing inspiration from oral folk traditions. The story “Qultoy” reflects the fate of a victimized woman who is misunderstood and unacknowledged by her relatives and child. In “Boundless Sky” the author explores the pain and longing of a childless woman, along with an interpretation of the sorrows within a heart as vast as the sky.

Key words: *story, symbol, metaphorical thinking, character, patron, woman.*

Аннотация: в статье представлены интерпретация и анализ рассказов Назара Эшонкула “Култай” и “Бескрайнее небо”, созданных в последние годы под влиянием устных народных традиций. Рассказ “Култай” повествует о судьбе женщины, ставшей жертвой обстоятельств и не нашедшей понимания и признания у своих родных и собственного ребенка. В произведении “Бескрайнее небо” автор исследует боль и тоску бездетной женщины, осмысливая глубину страданий, таящихся в сердце, столь же необъятном, как небо.

Ключевые слова: *рассказ, символ, метафорическое мышление, образ, покровитель, женщина.*

Nazar Eshonqulning 2000-yildan keyin yozilgan hikoyalari xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot bilan birgalikda bugungi nasrga xos ramz va metaforik tafakkur uyg‘unligining yetuk namunalaridir. Yozuvchi mulohazalarini “Qultoy”, “Bahovuddinning iti”, “Qo‘l”, “Farishta” hamda “Zanjirband” hikoyalari asoslaydi. “Qultoy” va “Bahovuddinning iti” hikoyasidan boshlab men boshqacha yozishga urinyapman deydi yozuvchi. Bosh maqsadim o‘zbek millati, ruhi va qalbining adabiy manzaralarini ko‘rsatishdir”[1].

Yozuvchining ayollarga qarashi o‘zgacha, ba’zan ularni ojiza, ardoqlanishi kerak, tayanchga muhtoj deb bilsa, ba’zan ilk taqiqni buzgan, gunohni boshlab bergan xilqat, ba’zan esa erkak barobarida ichki matonat, to‘fonga ega kuch deb biladi. Suhbatlarda esa “ayollik dunyoning boshlanishi bo‘lgani kabi, uning intihosi hamdir. Tiriklik ayol bilan boshlanib, ayol bilan yakun topadi. Go‘zallik ham ayol bilan boshlanib, ayol bilan yakun topadi. Umuman, dunyodagi barcha qarashlar va tushunchalar ayol degan xilqat atrofida aylanadi”[2], dunyo ayol bilan butun, ayol bilan tirikligini aytadi.

“Qultoy” hikoyasida epigrafdagi murojaatni Alpomish Qalmoqqa Qultoy bilan xayrlashib ketishda aytadi. Qultoyni ota, qiblagoyim deb murojaat qiladi, duo qilgin, xush qolgin... deya xayrlashib ketadi. “Alpomish” dostonida Qultoy oddiy chol emas. Alpomish buzilgan yurtni tuzuvchi, uning homiysi Qultoy. Folklorshunos olim Sh.Turdimov “Etnos va epos” tadqiqotida “... bilgan odamlar aytar edi. Qultoy Alpomishning quli der edi, bilmagan odam Alpomish Qultoyning o‘g‘li der edi”. Qultoy – Boysun-Qo‘ng‘irot vijdoni edi. Aslida Alpomishning ikki ma’naviy qanoti bor. Biri – Qultoy, ikkinchisi emikdosh singlisi – Qaldirg‘och. Qultoy Boysun-Qo‘ng‘irotni ko‘k ilohi bilan bog‘lovchi quvvat sohibi. Boysun-Qo‘ng‘irotning ma’naviyati, e’tiqodi Qultoy quvvatida jamlanadi. Qultoy – ustoz, o‘qituvchi, shoir-baxshi, san’atkor, sportchi. U ruh va tan kamoliga kamarbasta tarbiyachi murabbiy timsoli[3]. Alpomish zindonda payti Qultoy eldan ajratildi, g‘amdan ko‘zi ko‘r bo‘ldi. Qultoyning ko‘zi ojiz holati ulkan timsol. Bu ma’naviy ko‘rlik, ko‘rib ko‘rmaslikka mahkum etilgan xalq holining ifodasi[4]. N.Eshonqul majruh ayol Arzixol orqali jamiyatda insonlarning qalbi majruh ekanini aytmoqchi bo‘lgan. Arzixol – tahqirlangan, toptalgan, jismoniy va hayotiy nuqsoni bor ayolning alamli hasrati.

Shu bilan birga Qultoy dostonda kuzatib qo‘yuvchi va kutib oluvchi homiy qahramon. Nazar Eshonqulning “Qultoy” hikoyasida homiy kuzatib qo‘yuvchi va kutib oluvchi qahramon Arzixol. U majruh, bir oyog‘i maymoq ayol edi. Salom chavandoz uning nomusini toptap tashlab ketdi. Arzixol buni hech kimga aytolmadi. Opasi Rohat va uning eri Rajab cho‘ponning o‘g‘li yo‘q edi. Otasi nomusga chidolmay qizini Tersotaga Rohatning uyiga narsalari bilan tashlab ketdi va qaytib uyiga olib ketmadi. Arzixolning o‘g‘lini Rohatga o‘g‘il qilib berishgandi. Hikoyada o‘g‘il Arzixolniki ekani Rajab cho‘ponga ham oshkora aytilmaydi. Ammo voqealar jilovidan bilamizki, Rajab cho‘pon maydakash odam emas, u kimning farzandi ekanini bilib turib, xotiniga indamagan. Sababi bola bir yoshga chiqib yura boshlaganda Rajab cho‘pon uning bo‘liq oyoqlariga qarab turib xotiniga: “Bu endi bizning ul bo‘ldi, Uljon qo‘yaqol”, – deydi. Arzixol shu xonadonning bir umrlik cho‘risiga aylandi. Oldin Rohat, keyin o‘zining o‘g‘li Uljon va uning xotini ya’ni kelin tahqirlab yashadi. Arzixol hech kimga aytmagan

1 Eshonqul N. Kitob bandasi. – T.: Akademnashr, 2022. 393-b.
2 Eshonqul N. Ijod falsafasi. – T.: Akademnashr, 2018. 168-b.
3 Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O’zbekiston, 2012. 68-b.
4 Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O’zbekiston, 2012. 69-b.

faqat keliniga aytgan yagona siri, ya'ni chavondoz yigitga ko'ngli tushgani, yigit qir ortidagi qishloqdan kelib, to'qayzorda uchrashib turgani, yigitning qamchisiga kashtali bandak to'qib bergani, keyin nima bo'lib, chavondoz yigit ko'rinmay qolgani, oradan oylar o'tsa ham undan xabar bo'lmagani, hali ham o'sha yigit navqiron va o'ktam qiyofada, yulg'un va zirk bilan to'lgan to'qayda yurgandek, o'sha to'qayga borgisi, uni ko'rib, ko'kragiga bosh qo'yib shuncha yillik ayriliq uchun gina qilib, to'yib-to'yib yig'lagisi kelishi[5] edi. Shu sirning oqibati tufayli oilasi va butun qishloq tomonidan bir umr tahqirlandi. Rohat vafotidan keyin sichqon hidi bosgan omborda yashadi. Umri davomida Uljonni himoya qilib, u uchun kuyib yashadi. Buning evaziga faqat tahqirlandi. Uljon qaynilari tomonidan do'pposlanganda tayoqlarga o'zini tutib berdi, qaynilarining qotili bo'lishdan saqlab qoldi. Uljonni poda izidan Azlar qirgacha kuzatib qo'yar, agar kech qolsa, hech kimga aytmay o'sha qirga chiqib podaning changi ko'ringanda peshvoz chiqib kutib olardi. Arzixol qahraton qishda o'zini tahqirlagan, uni qabul qilmagan dunyoni opasining omborxonasida tark etdi. Hikoya kitobxonni mulohazaga chorlaydi. Arzixol bir umr nomus qurboni bo'lib yashadi. Otasi nomus yo'lida o'g'lini Rohatga berib yubordi. Shu nomusni deb o'g'liga onangman deb aytolmay yashadi. Insonlar qo'ygan mezonlar, o'lchovlar va qarashlarning qurboni bo'ldi. Tersotada qirq yil yashadi, ammo Tersota uni o'ziniki qilmadi. O'z uyidan, qishlog'idan ketgan, Tersota uni qirq yil qabul qilmagan, Yaratgan uni shunday yaratgan ekan bandlarining uni bunchalik tahqirlashga asosi bormi? Yana uning qahraton qishda jon berishi. Shu kabi savollar kitobxonni mulohazaga chorlaydi. Hech narsasi o'ziniki bo'lmagan ayolning qismati juda achinarli deb so'raganimizda yozuvchi: "Men ayolni qurbonlikka mahkum aybsiz, aybdor deb bilaman. Taqiqlangan mevani yeyish, iblisga aldanish bu ayolning aybimi, yoki pershonasiga shu bitikni avvaldan yozganningmi? Qiziq mantiq. Diniy tushunchaga ko'ra, Yaratgan yaratishdan avval yaratig'ining qismatini belgilab qo'yadi, oqibatni taqdir qilib bitadi. Unda taqiq mevasini yeyish bitikmidi yo gunoh"[6].

Hikoya xotimasida bobo Uljonga " – Arzixol sizning tuqqan onangiz bo'ladi, bolam. Salom chavondoz badnom qilib ketgach sizni Rohatga berdik. Aslida sizni Arzixolning o'zi emizib katta qildi, bolam... U sizning haqiqiy onangiz...", deydi. Yozuvchi uchun hikoyadan keyin o'quvchi ko'nglida tug'iladigan tuyg'u, iztirob – yorug'lik, saboq – yorug'lik. Uljon "... itchalik ham qadri bo'lmagan jimitday jussali ayolga berilgan shuncha yillik xo'rliklarga "mana, men guvohman" deyotgandak qad kerib turgan tayoq bilan yuzma-yuz turardi"[7]. Yozuvchining quyidagi iqrorlari hikoyaning mantig'ini asoslaydi: "Oddiy otaxonning peshonasidagi ajinda ham, cho'ponning silliqlangan tayog'ining yorig'ida ham romanlarni to'ldiradigan dard, iztirob bor. O'zimdan o'zimni topish uchun uzoq kezganga o'xshayman"[8]. Yozuvchining bu mulohazalari asarlarining qulfini ochuvchi kalit vazifasini bajarishi mumkin.

N.Eshonqulning yozuvchi Erkin A'zam tomonidan "nihoyatda o'zbaki hikoya" deya ta'riflangan ***"Bepoyon osmon"*** hikoyasi farzand ne'matidan bebahra insonlarning cheksiz mehr-u muhabbatidan so'zlaydi. Hikoyada mehr-muhabbatning osmon kabi bepoyonligi, ulug'ligini aytish, osmon kabi bepoyon qalbni tasvirlash bo'lgan. Asarda bir umr ta'na dashnomlar ichida yashagan, sadoqat timsoliga aylangan Oyto'ldi enaning iztiroblari, muhabbati hikoya qilinadi. Bu hikoyada ham insonning butunligi, qalbining daryoligi, kengligi u tarbiya topgan oila bilan bog'liqligi qizil ip bo'lib o'tadi. Oyto'ldi enaning oilasi Tersotaning eskicha an'analariga, eskicha munosabatlariga hali ham sodiq qolgan obro'li xonadondan edi. "Dadamning aytishicha, quda bobo hunar egalarini ayniqsa, hunarli sulolalarni juda hurmat qilarkan. Qancha obro-e'tibori baland bo'lmasin, oddiy egarchi bobomni xuddi o'z jigariday ko'rgan ekan"[9].

Bibi Oyna amma – o'zbekning kayvoni ayollarining oynasi. Bir umr Oyto'ldini tahqirlab yashagan ayol. Oyto'ldi eriga yog'dirilishi mumkin bo'lgan malomatlarni o'z zimmasiga oldi. Bir umr o'zi dashnomlar ichida yashadi. Bibi Oyna akasi va yangasi o'lgandan keyingina tinchidi. Oyto'ldi ena erining erkaklik g'ururi toptalmasligi uchun barcha ta'na-yu dashnomlarga o'zini qalqon qilgan, ammaning va butun qishloqning bir umrlik xo'rliklariga, malomatlariga yelka tutib bergan matonat timsoli.

"Ochilmagan eshik" hikoyasida anglanmagan ayol iztirobi va fojiasi, "Bepoyon osmon" hikoyasida Oyto'ldining azobli va ayni damda sadoqat timsoliga aylangan hayoti, "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida millat timsoliga aylangan Bayna momo, "Urush odamlari" qissasida Biydi momo, "Zanjirband" hikoyasida Odamboyning faqat Bayna momo bilan gaplashishi, "Farishta" hikoyasida Sanchoning bag'rikeng ayoli, "Qultoy" hikoyasida jafokash, bir umr tahqirlanib yashagan Arzihol. Yozuvchi asarlarida ayollar timsoli mulohazaga chorlaydi. Homiy, jafokash, jabrdiyda va shu bilan birga millat timsoliga aylangan ona obrazlari bor.

5 Eshonqul N.Qultoy. Saylanma I. – T.: Akademnashr, 2022. 403-b.
6 Eshniyazova A. Odam hali ham borliq oldida ojiz – yozuvchi Nazar Eshonqul bilan suhbat. https://oyina.uz/uz/article/4174
7 Eshonqul N. Qultoy. Saylanma I. – T.: Akademnashr, 2022. 383-b.
8 Eshonqul N. Mendan "men"gacha. – T.: Akademnashr, 2014. 187-b.
9 Eshonqul N. Bepoyon osmon. Saylanma I. – T.: Akademnashr, 2022. 391-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonqul N. Mendan "men"gacha. – T.: Akademnashr, 2014.
2. Eshonqul N. Bepoyon osmon. Saylanma I. – T.: Akademnashr, 2022.
3. Eshonqul N. Qultoy. Saylanma I. – T.: Akademnashr, 2022.
4. Eshonqul N. Kitob bandasi. – T.: Akademnashr, 2022.
5. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O'zbekiston, 2012.
6. Eshniyazova A. Odam hali ham borliq oldida ojiz – yozuvchi Nazar Eshonqul bilan suhbat. https://oyina.uz/uz/article/4174

УДК: 821.512.133.09

Sobirjon BAZAROV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti

ULUG‘BEK HAMDAM ROMANLARIDA MIFOLOGIYANING O‘RNI

Annotatsiya: maqolada mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining vakili Ulug‘bek Hamdam romanlarida mifologiyaning o‘rni, xususan, olam va odamning yaratilishi haqidagi talqinlarning badiiy funksiyasi tadqiq etiladi. Qur’oniy, tasavvufiy, mumtoz adabiy va turkiy mifologik an’analardagi yaratilish rivoyatlari nazariy asos sifatida ko‘rib chiqiladi. “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, “Yo‘l va yo‘lovchi” romanlari misolida yaratilish mifologemasining asar konsepsiyasi, konflikti va obrazlar tizimini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *mif, mifologema, yaratilish mifi, kosmogoniya, antropogoniya, isyon va itoat, Odam Ato, Iblis, tush, yo‘l motivi, badiiy funksiya, roman poetikasi.*

Аннотация: в статье исследуется роль мифологии в романах Улугбека Хамдама, представителя узбекской литературы периода независимости, в частности художественная функция интерпретаций сотворения мира и человека. В качестве теоретической основы рассматриваются предания о сотворении в коранической, суфийской, классической литературной и тюркской мифологической традициях. На материале романов «Бунт и покорность», «Сабо и Самандар», «Путь и путник» раскрывается роль мифологемы сотворения в формировании концепции, конфликта и системы образов произведения.

Ключевые слова: *миф, мифологема, миф о сотворении, космогония, антропогония, бунт и покорность, Адам, Иблис, сон, мотив пути, художественная функция, поэтика романа.*

Annotation: the article examines the role of mythology in the novels of Ulugbek Hamdam, a writer of the Uzbek literature of the independence period, focusing on the artistic function of interpretations of the creation of the world and of man. Creation narratives in the Quranic, Sufi, classical literary and Turkic mythological traditions are considered as the theoretical basis. Drawing on the novels «Rebellion and Obedience», «Sabo and Samandar» and «The Road and the Traveller», the article reveals the role of the creation mythologeme in shaping the concept, conflict and system of images of the work.

Key words: *myth, mythologeme, creation myth, cosmogony, anthropogony, rebellion and obedience, Adam, Iblis, dream, road motif, artistic function, poetics of the novel.*

Kirish. Olam va odamning yaratilishi haqidagi qarashlar insoniyat tafakkurining eng qadimiy va barqaror qatlamidir. Kosmogonik va antropogonik miflar barcha xalqlar madaniyatida uchraydi va dunyoning tuzilishi, insonning unda tutgan o‘rni, ezgulik va yovuzlikning kelib chiqishi haqidagi savollarga javob beradi [4; 5]. Islom madaniyati mintaqasida bu qarashlar Qur’oni karim va uning tafsirlari, qissai anbiyolar va tasavvufiy asarlar orqali shakllangan [1; 2].

Mustaqillik davri o‘zbek romanida ushbu qadimiy mavzularga qaytish kuzatiladi. I.Yoqubov bu davrda Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, “Yo‘l” romanlari turkiy va jahon adabiyotida sayqal topgan qadimiy mavzularga murojaat etgan asarlar qatorida ekanini ta’kidlaydi [8]. Tadqiqotchilar “Isyon va itoat” romanida insonning yaratilishi, yaratilgan zotning dunyoga yuborilishi, o‘zini va Yaratganni anglash izlanishlari aks etganini qayd etadi [13].Mavzuning dolzarbligi shundaki, adib romanlari asosan psixologizm, konflikt, muhabbat talqini nuqtayi nazaridan o‘rganilgan [14; 15; 16]. Ularda olam va odamning yaratilishi haqidagi talqinlarning badiiy funksiyasi esa maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yaratilish miflari nazariy jihatdan chuqur o‘rganilgan. M. Eliade kosmogonik mifni barcha miflarning namunasi deb baholab, har qanday yangilanish va boshlanishning dunyo yaratilishini takrorlashini ko‘rsatgan [5]. Ye.M. Meletinskiy mifning asosiy vazifasi xaosni kosmosga, tartibsizlikni tartibga aylantirish ekanini ta’kidlagan va XX asr romanidagi mifologizmni tahlil qilgan [4]. “Mifi narodov mira” ensiklopediyasida turli xalqlar, jumladan, turkiy xalqlarning kosmogonik va antropogonik miflari tizimli yoritilgan [6]. V.N. Toporov olam modeli va uning mifopoetik timsollarini tadqiq etgan [7].

O‘zbek adabiyotida Odam Ato va Iblis haqidagi qissalar Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida

batafsil bayon etilgan [3]. Alisher Navoiy asarlarida esa insonning yaratilishi va uning Yaratganga qaytishi tasavvufiy ruhda talqin etilgan. Xususan, “Lison ut-tayr” dostonidagi qushlarning Semurg‘ sari safari ruhning o‘z asliga qaytishi timsolidir [2]. Ulug‘bek Hamdam romanlari adabiyotshunoslikda turli jihatlardan o‘rganilgan. I. Yoqubov mustaqillik davri roman poetikasini tadqiq etib, adib ijodini qadimiy mavzularga qaytish tamoyili doirasida baholagan [8; 9]. Q. Husanboyeva «Sabo va Samandar»ni buyuk muhabbat qo‘shig‘i sifatida, N. Qilichev esa lirik-psixologik roman sifatida tahlil qilgan [11; 12]. Q. Yo‘ldosh zamonaviy o‘zbek nasridagi esselashgan tafakkurni o‘rgangan [10]. Biroq mavjud tadqiqotlarda yaratilish mifologemasining adib romanlaridagi badiiy funksiyasi alohida o‘rganilmagan.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, “Isyon va itoat” romani “Muvozanat”ning mantiqiy davomi bo‘lib, unda insonning yaratilishi, yaratilgan zotning dunyoga yuborilishi va uning o‘zini hamda Yaratganni anglash izlanishlari aks etadi [13]. Romanda, shuningdek, qahramonlar o‘rtasidagi psixologik, ijtimoiy vaxarakterlararo konfliktlar syujet rivojini belgilaydi [14].Bizningcha, roman sarlavhasining o‘zi yaratilish mifologemasiga bevosita ishora qiladi. Qur’oniy an’anada “isyon” va “itoat” tushunchalari yaratilish lahzasida yuzaga kelgan ikki birlamchi munosabatni anglatadi: farishtalar itoat etadi, Iblis esa isyon qiladi [1].

Odam Ato ham avval xato qilib, keyin tavba orqali itoatga qaytadi [1; 3]. Demak, sarlavha qahramon taqdirini insoniyatning birlamchi tanlovi – isyon va itoat o‘rtasidagi tanlov bilan bog‘laydi.Shu asosda romanda yaratilish talqinining quyidagi badiiy funksiyalari ko‘zga tashlanadi:

1) ontologik funksiya – qahramon taqdiri “yaratilish – dunyoga yuborilish – aslni anglash” mifologik sxemasi doirasiga joylashtiriladi. Shu tariqa individual hayot insoniyat taqdirining bir ko‘rinishi sifatida anglanadi [13];

2) konflikt hosil qiluvchi funksiya – isyon va itoat ziddiyati qahramonning ichki va tashqi konfliktlari uchun arxetipik model bo‘lib xizmat qiladi [14];

3) xarakterologik funksiya – qahramonlar isyon yoki itoat yo‘lini tanlashiga qarab tavsiflanadi, ularning ruhiy izlanishlari yaratilish mifologemasiga qiyoslanadi [15]. [Bu yerga romandan yaratilish yoki isyon va itoat mavzusiga oid 1–2 ta iqtibos va bet raqamini qo‘shing.]

“Sabo va Samandar” romani tadqiqotchilar tomonidan muhabbat romani sifatida baholangan [11; 12]. Asarda bir necha muhabbat tarixi “Layli va Majnun” dostoni bilan parallel ravishda rivojlanadi [16]. Nodir va Nilufar muhabbati uchun o‘zlarini qurbon qiladi. Aziza Samandarni javobsiz sevadi va uning do‘sti Hamidga turmushga chiqadi. Sabo esa oila nomusini o‘z baxtidan ustun qo‘yib, umr bo‘yi xastalik va yurak dardi bilan kurashadi [16].

Bizningcha, roman qahramonlari ismlari mumtoz adabiyotdagi mifologik ramzlarga ishora qiladi. Samandar olovda yonmaydigan afsonaviy mavjudot bo‘lib, ishq otashida kuyib ham yashovchi oshiq timsolidir. Sabo esa oshiq va ma’shuqa o‘rtasida xabar tashuvchi tong shamoli. Shu tariqa ismlar qahramonlarning ishqdagi o‘rnini mifologik darajada belgilaydi. Romanda odamning yaratilishi mavzusi o‘ziga xos kontrast orqali ifodalanadi. Sherdil ismli qahramon muhabbat mavjudligiga ishonmaydi, hamma narsani moddiy qiymat bilan o‘lchaydi va hissiz, odamsimon robotlar yaratishni istaydi [16]. Bizningcha, bu obrazda ilohiy yaratilishga qarama-qarshi bo‘lgan “ruhsiz Yaratilish” g‘oyasi aks etadi. Qur’oniy an’anada odamni odam qilgan narsa unga puflangan ilohiy ruhdir [1]. Sherdilning robotlari esa ruhsiz va ishqsiz mavjudotlardir. Shu tariqa roman ishqni insonning yaratilishidagi ilohiy mohiyat, ruhning belgisi sifatida tasdiqlaydi. Bu yerda yaratilish mifologemasi kontrast funksiyasini bajaradi.

Romanda tush ham muhim mifologik vazifa o‘taydi. Sabo tushida ikki sohil oralig‘idagi daryoda oqib borayotganini ko‘radi: bir sohilda eri, boshqasida Samandar turadi. U bolalari turgan sohil tomon buriladi va Samandar cho‘kayotganini ko‘rib, uning nomini aytib qichqiradi [16]. Mifologik tafakkurda daryo hayot va o‘lim, ikki olam o‘rtasidagi chegara timsolidir [6; 7]. Tush shu tariqa qahramon taqdirini oldindan ko‘rsatuvchi vahiy-tush funksiyasini bajaradi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, adibning deyarli barcha romanlarida asosiy sir tush orqali ochiladi [13].

Adibning “Yo‘l va yo‘lovchi” romani qisqa sarlavhali boblarga tayanadi. Undagi hikoya va suhbatlar “asl haqiqat” sari yo‘l va unga tomon izchil harakat g‘oyasi bilan birlashgan [13]. Bizningcha, bu g‘oya yaratilish mifologemasining davomidir: yaratilgan inson dunyoga yuborilgach, o‘z asliga qaytish yo‘lini izlaydi. Qur’oni karimda insonning Allohdan kelib, Unga qaytishi ta’kidlanadi [1].

Tasavvufiy adabiyotda esa bu qaytish ruhning safari sifatida talqin etiladi [2]. Shu ma’noda romanda yaratilish talqini teleologik funksiyani bajaradi: u inson hayotining maqsadini, yo‘lning oxirini belgilaydi. Yaratilish (boshlanish) va qaytish (yakun) bir-birini to‘ldirib, adib romanlari uchun umumiy mifologik doira – “yaratilish – dunyoga yuborilish – sinov – aslga qaytish” modelini hosil qiladi.

Adibning o‘zi “Muvozanat”, “Isyon va itoat” va “Sabo va Samandar” romanlarini 1998-yilda yozilgan. “Yolg‘izlik”

asari g‘oyalarining kengroq o‘quvchiga mo‘ljallangan muqobil tarjimasi va sharhi deb atagan [20]. Bu e’tirof romanlar yagona konsepsiya asosida yozilganini tasdiqlaydi. Ushbu konsepsiyaning mifologik o‘zagi esa yaratilish va aslga qaytish haqidagi talqinlardir.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ulug‘bek Hamdam romanlarida olam va odamning yaratilishi haqidagi talqinlar Qur’oniy, tasavvufiy, mumtoz adabiy va turkiy mifologik an’analarga tayanadi. Bu an’analarning umumiy jihati – yaratilishni inson mohiyati, tanlov erkinligi va mas’uliyatini belgilovchi boshlang‘ich nuqta sifatida talqin etishdir.

“Isyon va itoat” romanida yaratilish mifologemasi ontologik, konflikt hosil qiluvchi va xarakterologik funksiyalarni bajaradi. Sarlavhadagi isyon va itoat ziddiyati yaratilish lahzasidagi birlamchi tanlovga ishora qiladi.

3. “Sabo va Samandar” romanida yaratilish mavzusi samandar va sabo ramzlari, Sherdilning ruhsiz “yaratilish” g‘oyasi va daryo-tush timsoli orqali ifodalanadi. Ular kontrast, vahiy-tush va xarakterologik funksiyalarni bajarib, ishqni insondagi ilohiy ruh belgisi sifatida tasdiqlaydi.

Kelgusida adibning “Muvozanat”, “Ota” va boshqa romanlaridagi mifologik unsurlarni o‘rganish, ularni mustaqillik davri boshqa ijodkorlari asarlaridagi yaratilish talqinlari bilan qiyoslash dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992.

2. Навоий А. Лисон ут-тайр. – Т.: [нашриёт, йил].

3. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий: 2 китобдан иборат. – Т.: Ёзувчи, 1990–1991.

4. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976. – 407 с.

5. Элиаде М. Аспекты мифа. – М.: Инвест-ППП, 1996. – 240 с.

6. Мифы народов мира: Энциклопедия: В 2 т. / Гл. ред. С.А. Токарев. – М.: Советская энциклопедия, 1980–1982.

7. Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ: Исследования в области мифопоэтического. – М.: Прогресс-Культура, 1995. – 624 с.

8.Ёқубов И.А. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Т.: Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2018.

9. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Т.: Nurafshon Business, 2021. – 335 б.

10. Йўлдош Қ. Замонавий ўзбек насри ёки эсселашган тафаккур // Тил ва адабиёт таълими. – 2011.

11. Ҳусанбоева Қ. Буюк муҳаббат қўшиғи // Тил ва адабиёт таълими. – 2009. – № 10.

12. Қиличев Н. «Сабо ва Самандар» романида ишқ талқини // Филологик тадқиқотлар тўплами. – Нукус, 2010.

13. Абдурашидова М. Улуғбек Ҳамдам романлари хусусида мулоҳазалар // Ёш олимлар илмий-амалий конференцияси. – Самарқанд. – Б. 48–50. – DOI: 10.5281/zenodo.15056722.

14. Каримова М. Улуғбек Ҳамдамнинг «Исён ва итоат» романида образлар ҳаётига конфликтнинг таъсири // Мактабгача ва мактаб таълими. – 2025. – Т. 3, № 5. – Б. 7–11.

15. Маматова М. Улуғбек Ҳамдамнинг «Исён ва итоат» романида инсон психологиясининг бадиий талқини // Scientific Epicenter. – 2026. – № 1(2). – Б. 42–48.

16. Сабурова М. Улуғбек Ҳамдам ижодидан «Сабо ва Самандар» романи // International Journal of Researchers (uzresearchers.com). – URL: https://www.uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/download/579/530/1074

17. Ҳамдам У. Исён ва итоат. – Т.: Янги аср авлоди, 2003.

18. Ҳамдам У. Сабо ва Самандар. – Т.: Шарқ, 2007.

19. Ҳамдам У. Йўл ва йўловчи. – Т.: [нашриёт, йил].

20. Умирова А. Умидбахш адабиёт эҳтиёжи: Ёзувчи Улуғбек Ҳамдам билан суҳбат // Ҳуррият. – 2015.

Faridaxon TURSUNOVA,
Farg‘ona davlat texnika universiteti dotsenti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

HAJVIY QAHRAMON TASHQI QIYOFASINI TASVIRLASHDA MONOLOGIK NUTQNING O‘RNI
(Abdulla Qodiriy asarlari misolida)

Annotatsiya: maqolada hajviy qahramon tashqi qiyofasini tasvirlashda A.Qodiriyning monologik nutqdan foydalanish mahorati haqida fikr yuritilgan. Xarakterning tashqi holat o‘zgarishlari portret chizgilari, detallar, so‘zlash ohangi orqali ochib berilganligi misollar yordamida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *qahramon, nutq, poetik niyat, hajviy qahramon, obrazli ifoda, individuallik, tashqi qiyofa, ruhiy holat.*

Аннотация: в данной статье описывается умелое использование писателем А.Кадыри монологической речи при изображении внешнего облика сатирического персонажа. На основе примеров проанализировано изменение характера через линии портрета, детали, и интонации.

Ключевые слова: *герой, речь персонажей, поэтический умысел, сатирический герой, образное выражение, индивидуализм, внешний облик, душевное состоение.*

Annotation: this article describes the skillful use of monologic speech by the writer A. Kadiri when depicting the appearance of a satirical character. With the help of examples, an analysis is made of the disclosure of the change in the external state of character through the portrait lines, details, and intonation.

Key words: *hero, speech, poetic wish, satirical hero, figurative, exspress, personality, appearance, emotional state.*

XX asr xalqimiz tarixida o‘zlikni anglash, milliy uyg‘onish davri bo‘ldi. Bu davr bir qator fidokor va zahmatkash kishilarni yaratdiki, ular o‘zlarining samarali hayot yo‘li va ibratli asarlari bilan Vatanga bo‘lgan sadoqatlari, odamiyliklari va insonparvarliklari tufayli o‘z xalqining qalbidan chuqur joy oldi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q” [1]. Chindan ham bunday siymolarni xotirlash, ular qoldirgan ma’naviy merosni asrab-avaylab kelajakka qoldirish adabiyotshunoslar zimmasidagi buyuk mas’uliyatdir. Ayniqsa, o‘zbek realistik adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan, uning ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shgan, qisqa umri davomida o‘z xalqi va adabiyoti uchun g‘oyat katta ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik ahamiyatga molik asarlar yozib qoldirgan Abdulla Qodiriy shaxsini, uning ijodini o‘rganish barchani birdek qiziqtiradigan mavzudir. Adib hayoti va ijodiy merosi tadqiqiga oid o‘zbek adabiyot-shunoslari tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan [2,6], lekin hajviy asarlarida monologik nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash masalasi kam o‘rganilgan bo‘lib, adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Abdulla Qodiriy o‘zbek xalqi tarixi, urf-odatlari, ruhiyati va turmush sharoitlariga uzviy bog‘langan g‘oyat boy, hayotimiz ko‘zgusi bo‘lgan hajviy asarlari bilan o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Adib ijodda o‘zining alohida ovoziga ega bo‘lgan iste’dod egasi, serqirra ijod sohibidir. U o‘z hajviyalarida kulgi yaratishning turli yo‘llaridan ustalik bilan foydalanadi. Yozuvchi oddiy xalq ommasining fikr-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, ko‘ngil kechinmalarini badiiy-estetik tarzda bayon etadi, milliy kolorit yaratib, jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi ijtimoiy illatlarni qoralash orqali o‘sha davr ruhini berishda qahramon monologiga murojaat etadi. Hajviyalarda monologik nutqning o‘rnini belgilash haqida bahs yuritar ekanmiz, eng avvalo, monolog haqida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Monolog (grek.-monos – bir, logos – so‘z, nutq deganidir) badiiy nutq tiplaridan biri bo‘lib, tor

ma’noda olganda, badiiy asarda ishtirok etuvchi qahramonlardan birining o‘z-o‘ziga, suhbatdoshiga yoki ommaga qaratilgan nutqidir. Keng ma’noda olganda, muallif nutqining o‘zi monolog asosiga qurilgan bo‘ladi. Shu jihatdan har bir badiiy asar yaxlit olganda ulkan monologdan iboratdir, – deydi adabiyotshunos Y.Solijonov [3, 64]. Monologik nutqda so‘zlovchi o‘ziga ma’lum bo‘lgan voqea-hodisalar, o‘z ichki kechinmalari haqida ma’lumot beradi. Bunday nutq tinglovchilarni suhbatga faol aralashuvga undamaydi: ulardan aytilganlarga javob talab qilinmaydi. Abdulla Qodiriy hajviyalarida badiiy tasvirni aniq, ixcham, individual, xolis berish vazifasini oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu ulkan vazifani hal etish jarayonida yozuvchi qahramon monologi orqali o‘z-o‘zini fosh etish yo‘lini tanlaydi. Izzat Sultonning fikricha, “Abdulla Qodiriy salbiy xarakterlarni tasvirlash orqali ijobiy hodisalarni tasdiq etadi”, “yozuvchi mustabid tuzum davridagi ijobiy hodisalarni shu hayotda eskilik sarqiti bo‘lgan salbiy personajlar orqali tasvir etadi” [4, 345]. Adibning satirik va yumoristik asarlariga yuksak baho berib, o‘lmas hajviy tiplar yaratganini tan olgan Oybek, “katta hajviy yozuvchi”, “kulgi, yumoristik asarlarida ravshan tiplar chiqardi”, - deya e’tirof etadi [5, 95]. Hajviy xarakterlar tabiatiga, hajviyalarining asl mohiyatiga realistik san’at mezonlari asosida munosabatda bo‘lishga da’vat etgan adabiyotshunos U.Normatov: “Qodiriy buyuk so‘z ustalariga xos realistik tasvirning sehrli qudratini ko‘rsatadi, hattoki hajviy personajlar talqinida ham bir xildagi rang, ohanglardan qochib, bo‘yoqlarning rang-barang jilolarini namoyon etdi” [6, 83], - deydi.

Yozuvchi hajviyalari to‘laligicha qahramon monologi asosiga qurilgan. U maqsad va intilishlarini personaj nutqi orqali ochib beradi. Chunki muallif fikrini o‘ziga olgan qahramon nutqi aslida o‘z yo‘nalishini yo‘qotmaydi va o‘ziga xos ohang hamda intonatsiyalarni saqlab qoladi. Uning nutqida namoyon bo‘lgan tasvir joziba kuchi bilan kitobxonni o‘ziga maftun etadi. Adib tasvirda nutqni xalq tiliga nihoyatda yaqinlashtiradi. Insonlar ongida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun, uni qandaydir boshqa tanishroq narsa-hodisaga yoxud uning belgilariga o‘xshatib, yorqinroq, aniqroq qilib ko‘rsatadi. “Kalvak mahzumning xotira daftaridan” asaridagi realistik hajviy xarakterdagi obraz – Kalvak ham kulgili, ham fojeali obrazdir. Shu sababli kitobxonda goh nim tabassum, goh achchiq kinoyali, goh fosh etuvchi kulgu almashib turadi. Masalan, Kalvakning ko‘rinishi o‘z tilidan quyidagicha tasvirlanadi: “... nazir boshim kesak qisqon qovundek qiyshiq bo‘lib, jovdirlog‘on ko‘zim qassobdan et olib, baqqol bilan muomala qilaturg‘on darajaga yetibdur. Ammo faqirning qorni kundan-kunga g‘ovlagan torvuzdek o‘sib, bul ma’nidin padar birlan volida “bolamiz qorin sola boshladi”, deb benihoyat xushnud bo‘lar ekanlar [7,250]. Bu qiyofa, eng avvalo, muallifning personajga munosabatini aniq ifoda etgan. Qodiriy bunda kesak qisqon qovun, et, g‘ovlagan torvuz kabi detal va tashbehlardan foydalanishining boisi shundaki, bu detallar kitobxonga hajviy personaj qiyofasini aniq, yorqin, jonli tasavvur qilish imkonini berish bilan birga unda kuchli kulgi hamda achinish hissini qo‘zg‘atadi. Maxzumning o‘z nutqi orqali berilgan misollarda uning bolaligida bir yerda yotaverganidan, boshining kesak qisgan qovunga o‘xshab ketganligi, olti yoshgacha yurmay, bir yerda o‘tirib tinimsiz ovqat iste’mol qilganidan, qorni tarvuzdek katta bo‘lib ketganligi g‘ovlagan tarvuzga o‘xshatilishi o‘ta kulgili hol bo‘lib, kitobxon ko‘z o‘ngida polizda dumalab yotgan qiyshiq qovun va palak yozib g‘ovlab ketgan tarvuz gavdalanib, o‘quvchida aniq tasavvur uyg‘otadi. Abdulla Qodiriy qahramonlarining tashqi qiyofasidagi achinarli ko‘rinishni bo‘rttirib ko‘rsatishda mubolag‘adan o‘rinli foydalanadi: ... *Agarda o‘zingizga ham chechak chiqqan bo‘lsa sezarsiz: misoli yuzingiz g‘alvirak bodom... Ammo faqirning yuzimda ba’zi chandiqlar ham zuhurga kelgani uchun go‘yoki husni Yusuf bizda xotima topdi... agar siz bir hovuch tariqni yuzimizga qaratib sepsangiz da, bir dona yerga tushsa, biz benavat»* [7, 250-254]. Yuqoridagi misollarda o‘ta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday etalonlar tasvir obyektini yanada oydinroq yoritish imkonini beradi. Adib jamiyatdagi qoloq, jirkanch din ulamosining bolaligidan achinarli qismatni boshidan kechirganligini o‘z tasviri orqali ochib bergan. *“Bul kasalim asnosida cho‘b-ustixon bo‘lub, samovarning ichidan ko‘rinatur ganajiva aksdek bo‘lub, kishilar hazar qilaturg‘on darajaga yetub, me’dam xazimadan qolub, taom botmay, ammo endilikda volidai muhtaramayn faqirni yurmasdanoq tinchgina yeguligimni yeb, o‘lturishimgagina rozi bo‘lg‘on edilar.* [7, 252]. Mahzumning olti yoshida qadam bosishi munosabati bilan o‘tkazilgan “oyoq to‘yi”da nafsini tiyolmay, qozonga tashlangan echkining

go‘shtini to‘yib yegani, mehmonlar ushatgan turshak, magiz, qurtlarni paqqos tushirib, yurolmay qolib, ichi ketishi, ko‘ngil aynish kasalligiga chalinishi, buning evaziga eti suyagiga yopishib qolganligini tasvirlash orqali kitobxonda achinish hissini uyg‘otadi. Adib hajviyalarida qahramon tashqi qiyofasini yanada chuqurroq ochish, qirralarini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun o‘zlariga tanish bo‘lgan narsalardan foydalanib, tasvirga katta o‘rin beradi. Bunday detallashtirilgan predmet orqali qahramonning kimligi va qandayligi kitobxonga yanada aniqroq ko‘rinadi. Abdulla Qodiriy qahramon tashqi qiyofasi tasviri orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar va yangiliklarni qabul qilolmay dovdiragan, aqli yetmaydigan ishda ham o‘zini “bilag‘on” qilib ko‘rsatuvchi Kalvakning bolalikdan sho‘r peshona bo‘lganligi, ota-onasi bag‘rida “qog‘ozda asrolg‘on qanddek” ulg‘ayib, mudarris ota panohida madrasada shaltoq ishlarga aralashib yurgan mahzumning ichki dunyosini ochib bergan. Abdulla Qodiriy ijodida qahramonlarning tashqi qiyofasi bilan ichki dunyosini uyg‘un tasvirlash prinsipi yorqin ko‘rinadi. Maxzum o‘zining tashqi qiyofasini kuldirib tasvirlash orqali o‘z ichki dunyosini yaqqol oynadek ko‘rsatib beradi. Bu tasvirlar odatiy tasvir emas, teran falsafiy va estetik ma’nolarni singdirgan, o‘quvchini o‘ziga xushyor torttiradigan detallar vositasida yoritilgan. Yozuvchi bu usul yordamida asarning hayotiyligi va badiiyligi darajasini oshirib, ko‘zlagan maqsadiga erishadi, yuragi qatlarida yashirinib yotgan armonlarini ochib tashlaydi. U qahramonlari xarakterini va dunyoqarashini yorqin bo‘yoqlarda aks ettiradi. Qahramonning quvonchu g‘amlarini tasvirlash orqali o‘quvchining aql-idroki va sezimlarini ishg‘ol qiladi. Xarakterning tashqi holat o‘zgarishlari, portret chizgilari, tashqi qiyofa detallari, ruhiy hayotning nafasi bilan qahramonning so‘zlash ohangi, personajning rangin nutqi orqali ochib berilgan. Hajviy qahramon tashqi qiyofasini yoritishda monologik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, bunda yozuvchi qahramon nutqi orqali davr illatlarini ro‘yi-rost ochib tashlaydi. Buning qulayliklari: birinchidan, so‘z tejaladi; hajviy personaj o‘z nutqi, qiliqlari bilan kulgi qo‘zg‘atadi, lekin kulgi bo‘layotganini o‘zi sezmaydi; ikkinchidan, qahramon nutqi orqali kitobxonda kulgu qo‘zg‘atish muallif nutqiga qaraganda kuchli bo‘ladi; uchinchidan, qahramonning o‘zini tutishi, o‘z-o‘zini masxaralashi o‘quvchiga qiziq tuyulib, asarning badiiy-estetik ta’sir kuchi ortadi; to‘rtinchidan, so‘zni personajga berib qo‘yib muallif o‘z shaxsini qahramonga, voqea hodisalarga subyektiv munosabatini ifodalaydi; beshinchidan, yozuvchi asar qahramonning ichki kechinmalarini ro‘yi rost ochib, personajning individual xususiyatini ochishga muvaffaq bo‘ladi. Xulosa. Hajviy qahramon tashqi qiyofasini tasvirlashda monologik nutqning o‘rni shundaki, bunda yozuvchi kulib turib hayotning mungli, ayanchli haqiqatini o‘zi ishtirok etmay turib, qahramon ruhiyatiga mos tasvir detallari orqali qoyil qilib ayta olgan, shu bilan obrazlilik, individuallik fazilatlarini kashf etgan. Nihoyatda aniq, serma’no so‘zlar orqali obrazli ifodalarni yaratadi, his-tuyg‘ular bo‘yog‘i bilan to‘ydirilgan bu obrazlilik o‘quvchiga kuchli ta’sir etadi, xotirasiga mahkam muhrlanib qoladi. Chunki u bir yo‘la ko‘rgazmalilik, manzaralar go‘zalligi, aniqlik, predmetlilik xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Xuddi mana shu xolis tasvirning individualligi va takrorlanmasligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgustdagi mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi nutqi. uza.uz/ …/ adabyet-va-sanat-madaniyatni rivojlantirish.

2. Tursunova F.G‘. Hajviy asarda monologik nutqning xos xususiyatlari (Abdulla Qodiriy asarlari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 2023. Farg‘ona.–B. 135.

3. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол.фанлари д-ри дисс.. –Т., 2002. –В.292.

4. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т. Ўқитувчи. 1986.–В.220

5. Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижод йўли. –Т., Ўзбекистон, 1986, –Б. 251.

6. Норматов У. Қодирий мўъжизаси. – Т., O‘zbekiston, 2010. –Б. 272

7. Misollar: Qodiriy A. Diyori bakr. V jillik. III jild. –T., “Info Capital Group” 2018. –Б.568

Feruza ALLANAZAROVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi (PhD) Dotsent
(e-mail: f.allanazarova@ndpi.uz
allanazarova1988@mail.ru)

ROMAN JANRI GENEZISI VA ADABIY TALQIN O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: maqolada Yevropa va o‘zbek nasridagi o‘ziga xos tushunchalar, aqidalar, janrning taraqqiyot tendensiyalari, modifikatsiyasi haqida so‘z boradi. Shuningdek, o‘zbek romanchiligida mafkuraviy ta’sir, mustaqillik davri badiiy izlanishlari hamda jahon adabiyoti bilan integratsiyalashuv jarayonlari yoritiladi. Ijodkorlarni badiiy izlanishlari, umuman, roman badiiyatidagi janriy ichki tuzilishlar muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: *roman qissa, janr, kompozitsiya, kinoya, davr, ruhiyat, uslub, mafkura.*

Аннотация: в статье рассматриваются специфические концепции, принципы, тенденции развития и жанровые модификации в европейской и узбекской прозе. Также анализируются роль идеологического влияния на узбекский роман, художественные поиски в период независимости и процессы интеграции с мировой литературой. Кроме того, в статье освещаются творческие искания авторов и внутренняя жанровая структура, присущая художественной природе романа.

Ключевые слова: *роман, повесть, жанр, композиция, ирония, эпоха, психология, стиль, идеология.*

Annotation: the article examines specific concepts, principles, development trends, and genre modifications within European and Uzbek prose. It also analyzes the role of ideological influence on the Uzbek novel, artistic explorations during the independence era, and processes of integration with world literature. Furthermore, the article highlights the authors’ creative endeavors and the internal genre structure inherent to the artistic nature of the novel.

Key words: *novel, novella, genre, composition, irony, era, psychology, style, ideology.*

Kirish. Roman haqida ayrim mulohazalar haqida so‘z yuritilsa, ko‘z o‘ngimizga darrov “O‘tkan kunlar” keladi. Tadqiqotimiz hikoyadan – qissaga, romanga olib boruvchi makon va zamon haqida bo‘lgani bois mulohazalarimizni roman tabiatidagi muammolar xususida oydinlashtirishni maqsad qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Prof. D.Quronovning “Roman haqida ayrim mulohazalar” nomli maqolasida yozishicha: “Aslida, romanning ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Romanga bag‘ishlangan ilk maxsus tadqiqotlardan biri – “Romanlarning paydo bo‘lishi haqida risola” ning muallifi P’er-Daniel’ Yue janrning ibtidosini Provans yo Italiyadan izlash xatoligini, uning ildizlarini juda qadimdan, uzoq o‘lkalardan qidirish kerakligini ta’kidlaydi. Uning yozishicha, roman antik davrlarda yuzaga kelgan va uzoq asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida hozirgi qoliga kelgan. Masalaga tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan qaragani uchun ham Yue o‘z davriga kelib “roman janri” tushunchasi o‘zgarganini nazarda tutadi va endilikda roman deganda “o‘quvchilarga zavq berish orqali nasiqat qilish maqsadida to‘qib chiqarilgan sevgi tarixini nasrda mahorat bilan tasvirlagan” asar tushunilishini ta’kidlaydi [3.5]. “Roman o‘qish – vaqtni behuda sovurish” qabilidagi qarashga qarshi o‘laroq, Yue romanning bosh maqsadi har vaqt ezgulikning taqdirlanishi, yovuzlikning jazolanishini ko‘rsatish orqali yozuvchiga saboq berish” deb biladi [3.5]. Binobarin, prof.D.Quronovning mana shu talqinida haqiqatdan ham, romanning o‘zi bir vaqtlar xuddi zavq va shavq berish uchun to‘qib chiqarilgan (uydirma, latifa)lar ekanligini ham ko‘pchilik G‘arb olimlari aytishgan. Undagi voqelarga o‘quvchini ishontirish esa juda murakkab ekanligini tan olishgan. Shunday bo‘lsa-da, romanlar yozilgan, o‘qilgan, ulardagi hayotiy deb bilgan qahramonlarga esa ergashishgan. Asar qahramonlaridagi ibratli xarakterlar, voqealar, hikmatomuz mushohadali munozaralar o‘quvchi “bo‘shlig‘ini”, tafakkurini boyitishga xizmat qilgan. Ayni tamoyil har bir qahramonning inson o‘laroq yashashi, vaqtlar hamda zamonlar o‘tishi bilan katta bir umumlashma hosil qilishga yo‘naltirilganini taqozolaydi. Romanning bir davrda boshqacha ifoda qilinishi, fan-texnikaning taraqqiyoti deb qabul qilish lozim.

Epik makon universaldir. Unda ishtirok etuvchi qahramonlardan tortib, voqelar silsilasiga qadar juda yirik umumlashma hosil qiladi. Aytaylik, romanning bir-biriga ta’sir qilishi, tarixiy, ijtimoiy, zamonaviy, ramziy ifodasida yaqqol ko‘rinadi. Avval yunon romanlari tarixiy shaxslarning hayotini bir qadar talqin qilishga bag‘ishlangan bo‘lsa, endilikda romanning o‘zi yangi “izm”larning o‘zgarishiga zamin hozirlamoqda. Demak, yangi roman ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘layotgani yo‘qdir. Ana shu o‘ziga xosliklar borasida ko‘p nazariy mulohazalarni keltirish mumkin. “Antik adabiyotdagi romanlar, grek va rim romanlarining paydo bo‘lishi, ularni yuzaga keltirgan jamiyat yemirilayotgan davrga to‘g‘ri keladi, ya’ni antik romanlar tug‘ilgan-u, lekin yashashga qodir bo‘lmagan. Mazkur romanlar hali ayrim kishilar taqdiri, urf-odati, jamiyat masalalarini ifodalay olmagani uchun uzoq yashamagan. Shuning uchun ham grek romanlari mashhur “Iliada”, “Odisseya” eposlari kabi shuhrat topa olmagan” [2.14]. Demak, prof.S.Mirvaliyev antik romanlar yashab qolishi

mumkin emasligi haqidagi qarashlari adabiyotda e'tirof etilgan. O'z davrida ham, keyin ham bizgacha yetib kelmaganligi ham tafakkur, mantiq, hali rivoj topmagan bir davrni anglashimizga imkon beradi. Ayni damda, XIX asrdan boshlab "roman" termini yirik asarlarga nisbatan qo'llanilib o'rganila boshlagan.

Muhokama.

XX asrning 30-yillariga qadar atamaning yanada ommalashishi kuchaydi. Roman yozish "moda"ga aylanib, yozuvchilar bu borada o'z iste'dodlarini, hunaru maqsadlarini, intilishu qiziqishlarini sinovdan o'tkaza boshlandi. Biroq sho'ro siyosatining zulmi natijasida haqiqatni roman yoki asarda aytish, qattiq ta'qib ostiga olindi. "A.Qodiriy, Cho'lpon va boshqa romannavislar bu davrda "muhim" gapini aytib, ayrimlari katta ta'qibga uchrab bo'lgandi. Shu boisdan ham, "kolxozlashtirish" siyosatining avj nuqtalariga chiqishi, katta bir iste'dodlarning yuzaga chiqishiga to'siq bo'ldi. Sababi esa barchamizga ma'lumdir" [1.46].

Romanlardagi insoniy qadriyatlar qaysi makon, qaysi zamonga xos bo'lmasin, o'zimizning milliy zamindagi o'sish-o'zgarishlarni yodimizga solardi. Buning natijasida yozuvchilar har bir mahalla hayoti, yo'qchilik, amaldorlarning asl basharasi, yoki biror yosh-qiz yigitning orzu umidlari, baxtli bo'lishga bo'lgan intilishlari chegarasida, maishiy muammolar girdobida hayot kechiirishini qalamga olishardi. Rus va Yevropa adiblarida chegarani kengaytirish, tafakkur orqali butun umuminsoniy masalalarga kirib borish holatlari namoyon bo'lib, mana shu dunyoqarash shakllanishiga hissa bo'lib qo'shilardi. Romanda ideal odam obrazi. Ideal, komil inson bo'lish har kimga ham nasib etadigan yorliq emas. chunki iymoni zaif, e'tiqodi nomukammal odamdan hech qachon ideal odam chiqmangan. Shuning uchun ham, Qodiriy Otabek va Kumush, Anvar va Ra'nolarni mukammallashtirishga, hayotdagi prototiplarini topishga harakat qilgan. Qodiriy so'zga ham, asardagi voqealar oqimiga ham qattiq ishlov bergan. Biror qahramonning kim ekanligini bilmoqchi bo'lsangiz uning nutqidagi diqqat qilinsa anglashiladi. Kumush va Zaynab obrazini olib ko'ring, Homid yoki Otabek xarakteriga baho bering, ularning nutqidan xarakterini, xarakteridan ichki olamini, siyratini bilib olish mumkin. Tarixiy asardagi makon va zamon ham xuddi shunday davrlarni yodimizga soladi. Biz tadqiqotmizning asosiy qismi o'sha davrning qanday bo'lsa, shunday ochib berilganiga emas, vaqtlar o'tishi bilan qahramonlarning nuqsonlari ham ko'rinib borayotganini talqin qilishni nazarda tutganligimizda bilinadi. Dunyo adabiyoti har bir davrning o'z muammolarini ochiqlashga qaratilgani bilan qadrlidir.

Aslida adabiyotdek san'at dunyosi uchun badiiy til juda muhim sanaladi: so'z vositasida obrazning ichki va tashqi olami chiziladi. Barchaga ayon bu haqiqat badiiy adabiyotning murakkab alifosi, albatta. So'z vositasida obraz yaratish usullari yuzasidan maxsus to'xtalishga zarurat yo'q. Bir narsa aniqki, Abdulla Qodiriy so'zga juda-juda e'tiborli edi. Abdulla Qodiriy so'zida insonni o'ziga bog'lab turadigan, insonni o'ziga ohangrabodek tortib turgan quvvat bor. Buni o'quvchi sezmasligi mumkin emas. Aynan so'zning ta'siri bois Kumush o'lgan sahnada kitobxon ho'ng-ho'ng yig'laydi. Aslida bu epizodning o'zi sahnada yig'lab yozilgan. Demak, yozuvchining yurak urishi, qalb sadosi, ko'ngil yig'isi shu sahifalarga ko'chib o'tgan. Adibning badiiy-estetik olami ana shunday sahifalarga abadiy muhrlangandir. Ko'rinadiki, A.Qodiriy ham o'z makon va zamonini juda hayratli, iztirobli va quvonchu shodliklari, qayg'ulari bilan qalamga ola bilgan sanoqli adiblardandir. Mana shu konsepsiya har ikki romanida ham o'z ifodasini topa olgan. Qodiriy yashagan zamonning tutimlari nihoyatda og'ir bo'lgan. Bu davrning og'riqlarini hamisha yodimizga olganimizda shunday ulkan iste'dodning nobud qilinishi, shahid bo'lishi hech birimizni unutishga yo'l qo'yilmaydi.

Natijalar.

Yana shuni qayd etish lozim XX asrning 70-yillariga qadar roman va zamon birligida ham ma'lum bir davrning ifodaviy qirralari aks etdi. A.Qodiriy boshlab bergan an'ana o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. "Moziyga qaytib ish ko'rmoq" niyatida boshlangan romanchilik XX asrning 90-yillarida esa jahonga bo'ylasha boshlash borasidagi hikoyadan – qissaga tomon o'sish-o'zgarshilarda ko'zga tashlanadi. Masalan, Sh.Xolmirzaevning 10 ga yaqin hikoyalari jahonbopligi bilan ajralib tursa, N.Eshonqulning qissalarida modernistik ifoda alohida bir tadqiqotni tayin etadi. X.Do'stmuhammad, L.Bo'rixon, I.Sulton asarlarida ham mavjud an'analardan tamomila o'ziga xos bir badiiy butunlikni ko'ramiz. Ulug'bek Hamdam nasrining boshlaridagi izlanishlari she'rdan – hikoyaga, - hikoyadan qissaga tutashgan badiiy pafosni his etamiz.

Xulosa. XX asrda yaratilgan romanlarimizda ideal odam obrazi ikki xil tushunchani aniqlashga yordam beradi: birinchisi tarixiy zamon, ikkinchisi sho'ro mafkurasi. Bularning barchasi davrning hayqiriqlari natijasi o'laroq tarix sahifalaridan o'chib keta boshladi. 90-yillarda yozilgan "Lolazor", "Otamdan qolgan dalalar" romanlarida esa mavjud tuzumning haqiqiy basharasi aks ettirilgan bo'lsa, keyinchalik dunyo yuzini ko'rgan asarlarimizda jahonga bo'ylashish, o'rganish, shakl, uslub jihatidan alohidalik kasb etishi ko'rinardi. Mana shu asarlarda har birimizga ibrat bo'lgulik hayotiy voqeliklar ifodalansa, ayrimlarida ramziy-majoziy tasvirlar oqimi tajassum topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. Qodiriy qadri. – T.: "Fan", 2003. 46-b.
2. Mirvaliev S. O'zbek romani. – T.: "Fan", 1969. 14-b.
3. Quronov D. Zavqimdan bir shingil. – T.: "Akademnashr", 2012. 5-b.

Тимур АЮПОВ,
Доцент, Кокандский государственный университет
Timurka2005@bk.ru

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ГЕРОЕВ В. ПЕЛЕВИНА В РАННЕЙ ПРОЗЕ

Аннотация: в данной статье предлагается осмысление сборника В.О. Пелевина «Диалектика Переходного Периода из Ниоткуда в Никуда» через интертекстуальные отсылки к поэме Н.В. Гоголя «Мертвые души». Выявляются модификации образов птицы-тройки и мертвых душ, а также отсылки к фактам жизни русского классика. Выявленные элементы позволяют определить один из тематических блоков в книге - тему исторического пути России и развития общества.

Ключевые слова: *В. Пелевин, ранняя проза, художественная реальность, ДПП(NN), Числа, Македонская критика французской мысли, Один вог, Акико, Фокус-группа, интертекст.*

Annotation: this article offers an interpretation of V. O. Pelevin's collection Dialectics of the Transitional Period from Nowhere to Nowhere (DPP (NN)) through intertextual references to N. V. Gogol's poem Dead Souls. It identifies modifications of the "bird-troika" and "dead souls" motifs, as well as allusions to the life of the classic Russian author. These elements help define one of the book's thematic clusters: the historical trajectory of Russia and the development of its society.

Key words: *V. Pelevin, early prose, artistic reality, Dialectics of the Transitional Period from Nowhere to Nowhere (DPP(NN)), Numbers, Macedonian Critique of French Thought, One Vog, Akiko, Focus Group, intertext.*

Annotatsiya: ushbu maqolada V. O. Pelevinning "Hech qayerdan hech qayerga o'tish davri dialektikasi" to'plami N. V. Gogolning "O'lik jonlar" she'riga intertekstual havolalar orqali o'rganiladi. Troyka qushi va o'lik jonlar obrazlarining modifikatsiyalari, shuningdek, rus klassikasi hayotiga havolalar aniqlangan. Bu elementlar bizga kitobning tematik bloklaridan birini – Rossiyaning tarixiy yo'li va jamiyat rivojlanishi mavzusini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *V. Pelevin, ilk nasr, badiiy voqelik, DPP(NN), Raqamlar, fransuz tafakkurining makedoniyalik tanqidi, One Vog, Akiko, Fokus-guruh, intertekst.*

Творчество известного современного российского писателя В. Пелевина, с нашей точки зрения, отличается явными, намеренно огрубленными интертекстуальными и автоинтертекстуальными связями. Более того, можно сказать, что интертекстуальность у В. Пелевина как писателя-постмодерниста является «основным художественным приёмом, через который реализуется концептуальность текста» [7. с. 73]. Как отмечает И. Яценко, «интертексты в постмодернистском тексте являются организующими структурами, и исследование того или иного интертекста неизбежно приведет к проникновению в смысл постмодернистского текста» [7. с. 77]. В этом отношении книга В. Пелевина «Диалектика Переходного Периода из Ниоткуда в Никуда» является довольно ярким примером.

Писатель обращается к разнообразным русским и зарубежным культурным претекстам начиная от античной мифологии и русской классики XIX века и заканчивая «Звездными войнами», а также покемонами (японскими мультипликационными карманными монстрами). Интертекстуальный пласт русской классики достаточно отчетливо явлен: на страницах романа «мерцают» аллюзии и реминисценции так называемых «программных» текстов XIX века: «Евгений Онегин» А.С. Пушкина, «Преступление и наказание», «Идиот» и «Братья Карамазовы» Ф.М. Достоевского, «Воскресение» Л.Н. Толстого, «Мертвые души» Н.В. Гоголя, «Смерть поэта» М.Ю. Лермонтова, «Дама с собачкой» А.П. Чехова, «Что делать?» Н.Г. Чернышевского.

Каждый из названных претекстов играет немаловажную роль в постижении смысла всего сборника, однако в рамках данной статьи мы обратимся лишь к гоголевским реминисценциям, которые организуют один из тематических блоков в «ДПП(NN)» и позволяют прочитать книгу в контексте поисков исторического пути России.

Книги В. Пелевина актуальны, так как отражают близкую времени их написания российскую действительность. Автор четко и остро реагирует на кризисные ситуации в жизни России: будь то политика, бизнес, информационный бум, коррупция, банковские махинации и т.п., представляя в своем творчестве меткие, яркие и порой остросатирические сюжеты-интерпретации. Причем они зачастую носят реальную либо вымышленную эзотерическую подоплеку (шумерский культ богини Иштар, дзэн-буддизм, китайская «Книга Перемен», учение Че Гевары, оборотничество, учение о сверхоборотне, культ амитафо и т.д.). В начале творческого пути писателя его тексты были наполнены антисоветским пафосом («ОМОН Ра» – мифичность советского космоса, «Затворник и Шестипалый» - птичий инкубатор как модель общества Страны Советов), в девяностых годах в книгах Пелевина Россия предстает в перестроечный и постперестроечный период («Чапаев и Пустота», «Generation "П"»), в начале XXI века - новый переходный период России на пороге двух тысячелетий, так называемый период «парадигматического сдвига» [6. с. 34].

Именно в эту эпоху живут персонажи романа «Числа», повести «Македонская критика французской мысли» и

рассказов «Один вог», «Акико» и «Фокус группа»: банкиры Степан Михайлов и Георгий Сракандаев, секретарь-референт Мюс Джулиановна, сын нефтяного олигарха Кика Нафиков, майор-джедай Леня Лебедкин, братья-чечены Иса и Муса, гадатель Простислав, PR-технолог Малюта (известный нам еще по роману «Generation “П”»), Йцукен и др. Каждый из персонажей находится в плену своего личного consumeridentity: «Но в постиндустриальную эпоху главным становится не потребление материальных предметов, а потребление образов, поскольку образы обладают гораздо большей капиталоемкостью. Поэтому мы на Западе берем на себя негласное обязательство потреблять образы себя…» [6. с. 81]. Так, Степан и Георгий – герои-антиподы – живут числами 34 и 43, причем каждый из них имеет двойную идентичность: Степа – покемон Пикачу и одновременно воплощение цифры 34, Жора – Ослик 7 центов и 43. Мюс потребляет образ себя-покемона, Лебедкин – киллера Леона из одноименного кинофильма и джедая из «Звездных войн» Джорджа Лукаса, Кика Нафиков попал в плен шизофренической интерпретации работы Бодрияра «Символический обмен и смерть»2, камикадзе Иса и Муса мечтают достичь стадии шрапнельно-осколочного тела. Так же и персонажи рассказа «Фокус-группа», в отличие от вышеназванных, представляют некий срез среднестатистических обывателей, усопших и попавших в некий предзагробный мир («Фокус-группа» – это один из методов соцопроса в рекламном маркетинге): Дездемона, Барби, Дама с собачкой, Родина-мать, Монтигомо, Телепузик и Отличник. Важно отметить, что в книге отчетливо явлен процесс обезличивания персонажей – людей постиндустриальной эпохи: человеческими именами становятся потребительские образы, социальные и культурные клише и бренды, причем в их ряду имена собственные также теряют индивидуальность, а социальные статусы становятся брендами: «Это потребление образом, связанных с материальными предметами. <...> Я – покемон Мюс. <...>твой друг Лебедкин – он джедай. А из телевизора нам улыбается Тони Блэр – он премьер-министр» [6. с. 82]; «СКАНДИНАВИЯ, ARMANI, GUCCI, PRADA, BURBERRY, BRABUS, MERCEDES GELANDEWAGEN, VICHY PUETAINE, TRINIDAD FUNDADORES, КРЕМЛЬ»3 [6. с. 303-304]. Конечная стадия обезличивания отражается в имени персонажа рассказа «Акико»: Йцукен – это всего лишь шесть кнопок подряд на клавиатуре компьютера (qwerty).

Все персонажи в книге, центральные и эпизодические, тесно связаны по сюжету: Иса и Мусса «крышуют» владельца «карманного» банка Степу Михайлова, Мюс – его секретарь и половой партнер, а также объект обсуждения уровня гламура в женском туалете ресторана «Скандинавия» (рассказ «Один вог»), Сракандаев – антипод-партнер Степана по банковскому делу, Малюта создает для Михайлова и Сракандаева телевизионный проект «Чубайка и Зюзя», майор Лебедкин сменяет «крышу» Степана Михайлова и Георгия Сракандаева, а затем уходит в пятое главное управление по борьбе с терроризмом в интернете, Кика Нафиков является владельцем нефтяной фирмы, на которую работают банкиры-антиподы. Персонаж рассказа «Акико» по адресу координатам кредитной карты оказывается одним из служащих «Альфа-банка», как и другие, входящего в единую банковскую систему отмывания денег, а семеро усопших в «Фокус-группе» оказываются свидетелями перехода нелепо погибшего Георгия Сракандаева в иной, «лучший» мир. Сюжет связывает всех персонажей части «Мощь великого» в единый узел, представляя нам гротескную модель современного российского общества. Более того, автором последовательно проводится мысль, что механизм информационного потребления и взаимодействия, который представляет собой в книге Россия, является лишь частью, «винтиком» в более глобальном – мировом механизме потребления: «Ты хоть знаешь, сколько людей в цепочке? <...> Это раньше была страна. А теперь весь свободный мир, понял, нет? И несвободный тоже» [6. с. 259].

Лейтмотивом части «Мощь великого» становится мысль о пустотности, ложности потребляемых образов себя и разнообразных вер на «рынке религий»: «И еще, – окликнула его (Степана Михайлова – А.В.) Бинга. – Солнечное число может быть любым. И лунное тоже. Дело не в числах, а совсем в другом <...> Если ты сам не видишь прямо сейчас, – сказала она, – кто и когда тебе объяснит?» [6. с. 34]. В конце романа «Числа» Степан Михайлов находится очень близко от ответа на вопрос, что же на самом деле важно и истинно: число 34, записанное двоичным кодом, предстало в виде гексаграммы «Книги перемен» со значением «ошибки молодости, недоразвитость». Однако герой не смог избавиться от привычки сознания и, утратив число-фетиш, нашел себе новое. Одной из основных идей «Мощи великого» является идея ложности, симулятивности мира, создаваемого человеческим сознанием и существующего только в нем. Очевидна связь с лейтмотивом поиска ветра, становящимся метафорой «тихого голоса истины», который можно услышать, по мысли автора, лишь при условии полного молчания, а следовательно, отсутствия слов и создаваемого ими мира, то есть пустоты.

Изначальная неистинность самоидентификации персонажей «Мощи великого», их гротескные образы, мутировавшая аксиология, а также обезличивание жителей изображенного в книге российского «постиндустриального общества» говорят о симулятивности самого существования персонажей В. Пелевина. Незакавыченное название поэмы Н.В. Гоголя, а также прозвище, данное писателю Сенковским, Булгариным и славянофилами, – Гомер [2. с. 42], использованные автором в «Элегии 2», своего рода введении в «ДПП(НН)», позволяет провести параллель с гоголевскими помещиками, «мертвой» Россией:

«Гомер, твой список мертвых душ
На середине уж» [6. с. 4]

Эта аллюзивная связь с «Мертвыми душами» вносит в тему пути России новый смысловой пласт: с одной стороны, персонажи книги В. Пелевина – в какой-то степени «мертвые души», существующие в неисчислимом множестве симулякров, силой лишь собственного разума загнавшие себя в виртуальный тупик, духовно деградирующие (духовность («духовный фастфуд») в книге писателя

становится в один ряд с такими продуктами потребления, как автомобили престижных марок, бренды лучших модельеров, коктейли-невидимки и т.д.). То есть в отношении героев «Мощи великого» мы можем говорить об их духовной, «символической» смерти, причем она («Македонская критика французской мысли») накрывает собой всю страну, и более того – весь мир (вспомним: Н.В. Гоголь писал о намерении показать всю Россию, какая она есть). Таким образом, автор «ДПП(НН)», делая социальный срез современного общества, последовательно проводит мысль о пустотности, ложности любого стереотипа/симулякра и о поразительной силе человеческого ума, способного любые вещь или явление наделить сакральной силой. Сакральной силой такой степени, что далее уже не людские умопостроения движут созданный в их сознании мир, а придуманные симулякры управляют своими создателями.

С другой стороны, «мертвые души» (в сочетании с именем Гомера) вводят в тематический комплекс также глубоко-философский мотив молчания автора (символической смерти автора) и придают художественному миру книги широкий эпический размах. Подобно Н.В. Гоголю, сжегшему второй том поэмы, автор «ДПП(НН)» в образе студента Постепенности Упорядочивания Хаоса («Запись о поиске ветра», часть «ЖЗЛ»), узрев Великий Путь, в поисках истины приходит лишь к одному: необходимо замолчать, перестать производить слова, мир исчезнет, и именно в этой пустоте промелькнет «тихий голос истины»: «... слова всегда дуалистичны, субъектно-объектны <...> Они способны отражать только концептуальное мышление, а там истина даже не ночевала. Слова в лучшем случае могут попытаться указать направление, и то примерно» [6. с. 162]. Немаловажным в реализации темы исторического пути России в XX веке, с нашей точки зрения, становится появление в тексте «Чисел» знаменитого образа гоголевской птицы-тройки: «И Степа, и Сракандаев были маленькими живыми винтиками в двигателе непостижимого уму мерседеса – березового «Геландевагена» с тремя мигалками, который сменил гоголевскую птицу-тройку, и так же неудержимо – чу! – несся **в никуда** по заснеженной равнине истории» (выделено нами – А.В.) [6. с. 127]. Несомненно, «березовый «Геландевваген» с тремя мигалками», как и птица-тройка, является символом России, новой, в период так называемого «парадигматического сдвига» на границе двух тысячелетий. Смена традиционного образа птицы-тройки свидетельствует о подмене сути главного вопроса. Если в «Мертвых душах» задавался вопрос: «Русь, **куда** несешься ты, дай ответ...» (выделено нами – А.В.), то в «Числах» классический философский вопрос автора поэмы трансформируется: не *куда*, а *как*. Потому что направление движения истории России, человечества, единичной человеческой жизни и его сознания на пути к истине обозначено автором на самой первой странице книги – в заглавии: «**Диалектика** Переходного Периода из **Ниоткуда** в **Никуда**» (выделено нами – А.В.). Слово «диалектика» подразумевает саму процессуальность пути, важность того, *как* идет движение, а не *куда*, так как направление пути задано отрицательными наречиями со значением места: из *ниоткуда* в *никуда*. Тем самым писатель вводит в книгу традиционный для своего творчества образ пустоты, который приобретает черты истины. Так как ход истории России в XX веке, по нашему мнению, является лишь одним из тематических блоков в «ДПП(НН)». Кроме того, диалектика – это один из основных методов философского познания мира, базирующийся на анализе всевозможных точек зрения на исследуемый предмет. Как правило, такой всесторонний анализ различных точек зрения сводится к столкновению двух противоположных существенных позиций, которые принято называть тезисом и антитезисом. Именно этим методом структурируется художественный мир в книге: в каждом тексте книги представлены различные грани восприятия процесса, обозначенного как «парадигматический сдвиг» – в рассказах, романе и повести уделяется внимание тому или иному персонажу книги, которые, как мы уже говорили, тесно связаны по сюжету. Таким образом достигается диалогичность точек зрения и собственно диалектическое изображение картины мира.

Список используемой литературы.

1. Гашева Л. П. Интертекст как полифункциональная единица текста // Интертекст в художественном и политическом дискурсе. - Магнитогорск: Изд-во МаГУ, 2003.

2. Дронова Е. М. Интертекстуальность и аллюзия: проблема соотношения // Язык, коммуникация и социальная среда. Вып.3. - Воронеж: ВГУ, 2004.

3. Липовецкий М. Паралогия русского постмодернизма // НЛО, 1998. № 2. С. 287

4. Шульга К. В. Интертекст как средство разоблачения симуля-кровой реальности в романе В. Пелевина «Generetion П». URL: http://www.tstu.ru/education/elib/pdf/st/2005/shulgas.pdf

5. Павлов М. Generetion П или П Forever // Знамя. 1999. № 12 URL: http://magazines.russ.ru/znamia/1999/12/pavlov.html

6. Пелевин В.О. Диалектика Переходного Периода из Ниоткуда в Никуда: избранные произведения. - М.: Эксмо, 2003. - 384 с.

7. Яценко И. И. Интертекст как средство интерпретации художественного текста (на материале рассказа В. Пелевина «Ника»). - Мир русского слова, № 1, 2001.

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



UDK 81’25:004.8

Yulduz ISMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
https://orcid.org/0000-0001-8698-6250



SUN’IY INTELLEKT VOSITASIDA YARATILGAN INGLIZCHA-O‘ZBEKCHA BADIIY TARJIMALARNI POSTTAHRIRLASH KONSEPSIYASI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada sun’iy intellekt vositasida yaratilgan inglizcha-o‘zbekcha badiiy tarjimalarni posttahrirlash tushunchasining nazariy mazmuni, funksional chegaralari va metodologik tamoyillari yoritiladi. Tadqiqotda posttahrir ISO 18587 talablari, tarjima sifati uchun MQM yondashuvi hamda badiiy tarjimada ijodkorlikni o‘rganuvchi zamonaviy tadqiqotlar asosida qayta talqin qilinadi. Inglizcha-o‘zbekcha badiiy tarjima uchun posttahrirning besh o‘lchovli modeli — semantik adekvatlik, lingvistik tabiiylik, lingvomadaniy muvofiqlik, badiiy-estetik adekvatlik va kommunikativ-retseptiv moslik — taklif etiladi. Posttahrir “mashina matnini tuzatish” emas, balki inson tomonidan maqsadli qayta ijodiy shakllantirish jarayoni sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, generativ SI, mashina tarjimasi, posttahrir, badiiy tarjima, ingliz tili, o‘zbek tili, lingvomadaniyat, ijodkorlik, tarjima sifati, MQM, ISO 18587.*

Аннотация: в статье рассматриваются теоретическое содержание, функциональные границы и методологические принципы понятия постредактирования англо-узбекских художественных переводов, созданных с помощью искусственного интеллекта. В исследовании постредактирование переосмысливается с учётом требований стандарта ISO 18587, подхода MQM к оценке качества перевода, а также современных исследований, посвящённых проблеме креативности в художественном переводе. Предлагается пятикомпонентная модель постредактирования англо-узбекского художественного перевода, включающая семантическую адекватность, лингвистическую естественность, лингвокультурологическое соответствие, художественно-эстетическую адекватность и коммуникативно-рецептивную эквивалентность. Постредактирование обосновывается не как простое «исправление машинного текста», а как целенаправленный процесс его творческой переработки человеком-переводчиком.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, генеративный искусственный интеллект, машинный перевод, постредактирование, художественный перевод, английский язык, узбекский язык, лингвокультура, креативность, качество перевода, MQM, ISO 18587.*

Annotation: this article examines the theoretical content, functional boundaries, and methodological principles of post-editing English–Uzbek literary translations generated by artificial intelligence. The study reconceptualizes post-editing in accordance with the requirements of ISO 18587, the Multidimensional Quality Metrics (MQM) approach to translation quality assessment, and contemporary research on creativity in literary translation. A five-dimensional model of post-editing for English–Uzbek literary translation is proposed, encompassing semantic adequacy, linguistic naturalness, linguocultural appropriateness, artistic and aesthetic adequacy, and communicative-receptive alignment. Post-editing is conceptualized not merely as the “correction of machine-generated text,” but as a purposeful process of human creative reshaping aimed at achieving semantic, linguistic, cultural, aesthetic, and communicative adequacy in the target text.

Key words: *artificial intelligence, generative AI, machine translation, post-editing, literary translation, English, Uzbek, linguoculture, creativity, translation quality, MQM, ISO 18587.*

Kirish(Introduction). Generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi tarjima faoliyatini “inson tarjima qiladi” modelidan “SI hosil qiladi, inson baholaydi va qayta yaratadi” modeliga yaqinlashtirmoqda. Neyron mashina tarjimasi va katta til modellari grammatik jihatdan ravon matn yaratishi mumkin, biroq badiiy tarjimada ravonlikning o‘zi yetarli mezon emas: obraz, metafora, personaj nutqi, milliy realiya, ohang, kinoya va estetik ta’sir ham saqlanishi kerak.

ISO 18587:2017 mashina tarjimasi chiqishini inson tomonidan to‘liq posttahrirlash talablari va posttahrirchi kompetensiyalarini belgilaydi [1]. Biroq badiiy tarjimada sifat faqat aniqlik va grammatik to‘g‘rilik bilan cheklanmaydi. Guerberof-Arenas va Toral tadqiqotlari MT va posttahrir ijodkorlikka ta’sir qilishi hamda mashina taklifi tarjimonning ijodiy qarorlarini cheklashi mumkinligini ko‘rsatadi [2]. 2026-yilgi tadqiqotlar esa avtomatik baholash vositalarining badiiy ijodiy siljishlarni professional baholash bilan to‘liq moslashtira olmasligini ko‘rsatmoqda [3].

MATERIALLAR VA METODLAR (MATERIALS AND METHODS). Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, posttahrir standartlari, mashina tarjimasi, badiiy tarjima ijodkorligi va tarjima sifati modellariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Qiyosiy-tahliliy, komponent, funksional-semantik, lingvomadaniy, diskursiv va konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Posttahrir birligi sifatida alohida gapdan tashqari badiiy funksiyaga ega “mikrosegment” tushunchasi qabul qilindi. U metafora, frazeologizm, realiya, personaj replikasi, muallif izohi yoki narrativ bog‘lanish bo‘lishi mumkin.

O‘lchov	Asosiy savol	Posttahrir obyekti
Semantik adekvatlik	Manba ma’no saqlanganmi?	qo‘shish, tushirib qoldirish, noto‘g‘ri talqin
Lingvistik tabiiylik	O‘zbekcha matn tabiiy eshitiladimi?	sintaksis, kollokatsiya, grammatik shakl
Lingvomadaniy muvofiqlik	Madaniy mazmun saqlanganmi?	realiya, urf-odat, metaforik kod
Badiiy-estetik adekvatlik	Estetik ta’sir saqlanganmi?	obraz, ritm, ohang, poetiklik
Kommunikativ-reseptiv moslik	Kitobxonga kerakli ta’sir yuzaga keladimi?	registr, emotsional ton, personaj ovozi

Natijalar (Results). Tadqiqot natijasida posttahrirning quyidagi ta’rifi taklif etiladi: posttahrir — SI tomonidan hosil qilingan tarjimani manba matn, tarjima maqsadi, o‘zbek adabiy tili me’yorlari, lingvomadaniy kontekst va badiiy-estetik vazifalar bilan qiyoslash asosida inson tarjimoni tomonidan qayta baholash, tahrirlash va zarur hollarda qayta tarjima qilish jarayonidir.

Ushbu ta’rif posttahrirni mexanik korrekturadan ajratadi. Korrektura shakliy xatolarni bartaraf etishga yo‘nalsa, posttahrir semantik qaror, manbaga qaytish va SI taklifini rad etish huquqini ham o‘z ichiga oladi. Badiiy posttahrirda yakuniy mezon “AI variantini saqlash” emas, “eng maqbul badiiy yechimni topish”dir.

Ikkinchi natija — besh bosqichli model: 1) diagnostik o‘qish; 2) semantik-verifikatsion tahrir; 3) lingvomadaniy moslashtirish; 4) badiiy-estetik qayta yaratish; 5) yakuniy retseptiv nazorat. Birinchi bosqich muammoli joylarni belgilaydi; ikkinchisi ma’no va mantiqni tekshiradi; uchinchisi madaniy kodni; to‘rtinchisi obraz, ritm va personaj ovozini; beshinchisi matnni mustaqil badiiy asar sifatida o‘qishni nazarda tutadi.

Uchinchi natija — “mashina xatosi” va “ijodiy nomuvofiqlik”ni farqlash zarurligi. Metaforaning so‘zma-so‘z tarjimasi grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa ham, badiiy funksiyani yo‘qotsa, posttahrir zarur. Aksincha, inson tarjimoni manba shaklidan uzoqlashib, funksiyani saqlagan bo‘lsa, bu avtomatik ravishda xato emas.

To‘rtinchi natija — lingvomadaniy posttahrirni mustaqil bosqich sifatida ajratish. Realiya, antroponim, toponim, murojaat shakli, kinoya va urf-odat birliklari uchun saqlash, izohlash yoki funksional almashtirish strategiyalari kontekstga qarab tanlanadi.

Beshinchi natija — sifatni faqat yakuniy mahsulot bilan emas, jarayon ko‘rsatkichlari bilan ham baholash zarurligi. O’Brien posttahrir unumdorligini vaqt va kognitiv jarayon ko‘rsatkichlari bilan bog‘lagan [5],

Snover va hammualliflar HTERni tahrir miqdorini o‘lchash vositasi sifatida taklif qilgan [6]. Badiiy tarjimada esa bu ko‘rsatkichlar ijodkorlik va estetik adekvatlik bilan birga qo‘llanishi lozim.

Muhokama (Discussion). Taklif etilayotgan konsepsiya posttahrirni “AIga qarshi inson” modeli emas, “SI — tarjimon — badiiy matn” uchligi sifatida ko‘radi. LLM yordamidagi posttahrir ayrim sharoitlarda vaqtni qisqartirishi va ijodkorlikni nisbatan saqlashi mumkin [7], biroq yakuniy nazorat inson mutaxassisida qolishi zarur.

Avtomatik baholashga haddan tashqari tayanish badiiy tarjimada xavfli. 2026-yilgi EAMT tadqiqoti avtomatik metrikalar va LLM-as-a-judge usullarining professional ijodkorlik baholari bilan cheklangan mosligini ko‘rsatadi [3]. Shu sababli gibrid baholash — avtomatik ko‘rsatkich + MQM asosidagi ekspert bahosi + badiiy retsepsiya tahlili — maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi empirik tadqiqotda inglizcha-o‘zbekcha parallel badiiy korpus tuzilib, bir xil fragmentning inson tarjimasi, SI tarjimasi va posttahrirlangan varianti qiyoslanishi mumkin. O‘zgarishlar “xato tuzatish”, “uslubiy qayta qurish”, “lingvomadaniy moslashtirish” va “ijodiy siljish” sifatida kodlanadi.

Xulosa. Sun’iy intellekt vositasida yaratilgan inglizcha-o‘zbekcha badiiy tarjimalarni posttahrirlash alohida metodologik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Semantik adekvatlik, lingvistik tabiiylik, lingvomadaniy muvofiqlik, badiiy-estetik adekvatlik va kommunikativ-retseptiv moslikdan iborat besh o‘lchovli model AI tarjimasining ravonligi bilan haqiqiy badiiy sifat o‘rtasidagi farqni aniqlashga yordam beradi. Kelgusida model parallel korpus va ekspert baholash rubrikasi asosida empirik tekshirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ISO 18587:2017. Translation services — Post-editing of machine translation output — Requirements. Geneva: International Organization for Standardization, 2017. 15 p.

2. Guerberof-Arenas A., Toral A. Creativity in translation: Machine translation as a constraint for literary texts // Translation Spaces. 2022. Vol. 11, No. 2. P. 184–212. DOI: 10.1075/ts.21025.gue.

3. Gerrits K., van Noord R., Guerberof Arenas A. Creativity Bias: How Machine Evaluation Struggles with Creativity in Literary Translations // Proceedings of the 26th Annual Conference of the European Association for Machine Translation. Tilburg, 2026. P. 682–704.

4. Lommel A., Uszkoreit H., Burchardt A. Multidimensional Quality Metrics (MQM): A Framework for Declaring and Describing Translation Quality Metrics // Tradumàtica. 2014. No. 12. P. 455–463. DOI: 10.5565/rev/tradumatica.77.

5. O’Brien S. Towards predicting post-editing productivity // Machine Translation. 2011. Vol. 25, No. 3. P. 197–215. DOI: 10.1007/s10590-011-9096-7.

6. Snover M., Dorr B., Schwartz R., Micciulla L., Makhoul J. A Study of Translation Edit Rate with Targeted Human Annotation // Proceedings of AMTA. 2006. P. 223–231.

7. Castaldo A., Castilho S., Moorkens J., Monti J. Extending CREAMT: Leveraging Large Language Models for Literary Translation Post-Editing // Machine Translation Summit. 2025.

8. Guerberof-Arenas A., Toral A. The Impact of Post-editing and Machine Translation on Creativity and Reading Experience // Translation Spaces. 2020. DOI: 10.1075/ts.20035.gue.

9. Macken L., Vanroy B., Desmet L., Tezcan A. Literary translation as a three-stage process: machine translation, post-editing and revision // Proceedings of the 26th Conference of the European Association for Machine Translation. 2022.

10. Исматова Ю. Асарни бошқа миллий заминга кўчиришда таржимон шахсининг роли. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2018;3(2):67.

Nasiba MUMINOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi,
f.f.f.d (PhD), katta o'qituvchi,
E-mail: nasiba_9095@inbox.ru

KVEST-TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada kvest-texnologiyasi asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi va talabalarning shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Filologik kompetensiyaviy yondashuv hamda 4K modeli integratsiyasi orqali talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlik qilish, samarali muloqotga kirishish kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *kvest-texnologiyasi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, loyihalash, ko'nikma, rivojlantirish metodikasi, didaktik kompetentlik, shaxsiy ta'lim trayektoriyasi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik mexanizm, ta'lim sifati, 4 K modeli.*

Annotation: this article provides a theoretical justification for the methodology of developing pre-service English language teachers' design skills through quest-based technology and examines the mechanisms for shaping students' individual learning trajectories. It explores the integration of the philological competency-based approach and the 4C model to enhance students' critical thinking, creativity, collaboration, and communication skills.

Key words: *quest technology, prospective English language teachers, design, skills, development methodology, didactic competence, individual learning trajectory, competency-based approach, pedagogical mechanism, quality of education, 4C model.*

Аннотация: в статье теоретически обоснована методика развития проектировочных умений будущих учителей английского языка на основе квест-технологии, а также рассмотрены механизмы формирования индивидуальных образовательных траекторий студентов. Проанализированы возможности интеграции филологического компетентностного подхода и модели 4К, направленной на развитие критического мышления, креативности, сотрудничества и коммуникативных навыков студентов.

Ключевые слова: *квест-технология, будущие учителя английского языка, проектирование, умения, методика развития, дидактическая компетентность, индивидуальная образовательная траектория, компетентностный подход, педагогический механизм, качество образования, модель 4К.*

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar aholining barcha qatlamlari, ayniqsa talabalarning sifatli ta'lim olishlari, kasbiy sohasining sir-asrorini mukammal egallashlari, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor intellektual salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis kadrlarni yetishtirish uchun zamin yaratmoqda. Didaktik yondashuvlar asosida talabalarning lingvistik kompetentsiyasini Kvest texnologiyasi asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning lingvistik kompetentsiyasini Kvest texnologiyasi ega bo'lgan, og'zaki nutq malakalarini egallagan, suhbatdoshi va muloqotga kirishuvchilarga o'z fikrini erkin bayon qila oladigan shaxslarga ehtiyoj mavjud. Bu esa, aynan ingliz tilidagi talabalarning lingvistik kompetensiyasini Kvest texnologiyasi asosida rivojlantirish orqali samarali kechadigan didaktik jarayon hisoblanadi.

Kvest-texnologiyasi asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi didaktik kompetentning xususiyatlarini hisobga olgan holda dastur yozish va pedagogik texnologiyalarni tanlashni o'z ichiga olgan milliy DTS bilan almashtirildi. XXI asr intellektual avlod asri mazkur davrda darsliklarning yangi avlodi tushunchasi hayotiylik kasb etadi. Bu davrda yaratilgan dastur va darsliklarda asosiy maqsad bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun yaratilgan yangi zamonaviy darsliklar 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv taqdim etilgan. Ushbu metodologiya ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash. Bu kompetensiyalar Kvest-texnologiyasi asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi orqali tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kvest-texnologiyasi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi didaktik kompetentlik xususiyatlari mavzularni chuqur anglash ehtiyojini to‘ldirish, ta’lim oluvchilar to‘la anglab yetmagan yoki tushunilishi qiyinchilik tug‘diradigan mavzularni kengroq izohlash va shu orqali yetarli nutqiy malakani shakllantirish, turli xil mavzular ustida ishlashga, ko‘nikmalarni o‘stirish kabi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan.


MDH olimlarining kvest haqidagi qarashlari, g‘oyalar muhim ahamiyat kasb etadi. S.M. Tyunnikova, L.P. Borzova, A.A. Tyukov, E.Bern, D.N.Uznadze, V. Y. Platov, B.P.Nikitin, P.F.Kapterev, V.P.Gashkova, G.V.Devyatkina, I.Ivakina, D.N.Kavtaradze, G.G.Kalayeva, P.I. Pidkasistiy, N.G.Kravchenko, O.N.Krilova, G.K.Kryukova, V.I.Kuvshinov, I.V.Kucheruk, N.V.Lebedeva, O.L.Livshis, A.N.Leontyev, Y.D.Matron, L.N.Matrosova, O.D.Minakov, R.M.Mironova, G.N.Nazarenkova, V.D.Ponomarev, E.N.Savelyeva, L.A.Sajko, Y.A.Strelkova, A.I.Timonin, L.X.Seyeva, D.V.Elkonin, M.G.Yanovskaya kabilarning ishlari bunga misol bo‘la oladi.

Kvest-texnologiyasi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi nafaqat didaktik kompetentlikni, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishni nazarda tutadi. Jumladan, muammolarni hal qilish, hamkorlik, o‘z xatti-harakatlarini boshqarish, mas’uliyat va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish talabalarning ijtimoiy-emotsional tayyorgarligini oshirib, kvest-texnologiyasini ta’lim jarayonida samarali qo‘llash imkonini beradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Kvest (o‘yin) ko‘ngilochar, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg‘ulot. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma’lum qoidalar asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulot”, deb tariflangan [1;632-b].

Avstriyalik psixolog, psixoanalist, psixiatr va nevrolog Z.Freyd kvest nazariyasiga hissa qo‘shgan bo‘lib, u kvest texnologiyasiga nisbatan ikki xil didaktik yondashuvni ilgari suradi. **Birinchidan** – kvestlarga ijtimoiy hayotda imkonsiz bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaralsa, **ikkinchidan** – shaxsning muayyan ehtiyojlari va his-tuyg‘ulari o‘yin predmeti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘z tabiatini o‘zgartirib, kvest jarayonida faollashadi [3;43-b].

L.Breeman, Van Lier Pol, T.Vubbelslar kvest texnologiyasi yordamida ta’lim oluvchilarda o‘zlikni anglash hissining rivojlanishi, odamlar orasida ijtimoiy munosabatlar va hamkorlikni shakllantirishga xizmat qilishini nazariy jihatdan asoslab bergan [4;156-167-b].

Natijalar. Kvestlarning ijtimoiy-ta’limiy ahamiyatini ochishda E.Bern [5;33-b] konsepsiyasiga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida shaxslararo muloqotning o‘ziga xos tabiati ochib berilgan. E. Bernning ta’kidlashicha, kvestlar avloddan avlodga uzatiladi. U o‘tmishdagi hayotni qamrab olib, istiqboldagi taraqqiyotni bashorat qiladi. Bu o‘rinda olim kvestlarning ijtimoiy-ta’limiy ahamiyati ta’lim jarayonida kelishishga va qarorlar qabul qilishga asoslangan holda namoyon bo‘ladi. Kvestga asoslangan ta’lim jarayonini tadqiq etishda Slevko G.K., alohida hissa qo‘shganlar. L.S. Vigotskiy birinchilardan bo‘lib, rolli kvestlarni ajratib ko‘rsatgan va ilmiy jihatdan tavsiflangan edi. U ta’lim jarayonida foydalaniladigan kvestlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi. Kvest-texnologiyasi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi didaktik kompetentlik xususiyatlari asosida ongini aniqlab, ta’lim jarayonida kvestlarning asl mohiyatini anglab yetadilar.



1-rasm. Didaktik o‘yin bosqichlari

Ta’lim jarayonida kvest texnologiyalaridan foydalanish o‘zaro bog‘liqligini pedagogik muammo sifatida ilmiy tadqiqotlarda bahstalab mavzu sifatida ko‘p ko‘tarildi. D.N. Uznadzening qarashlarida, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir degan g‘oyani ilgari suradi [6;44]. A.N. Leontev esa o‘yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida tushuntiradi [7;89-91-b]. Didaktik kvestlar haqidagi quyidagi fikr diqqatga sazovor: “O‘qitishda didaktik o‘yinlar ta’lim oluvchilarni bilimlarga qiziqtiruvchi, bilish doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, shaxsni faollashtirish omillaridan hisoblanadi. Chunki kvest jarayonida ta’lim oluvchi faol fikr yuritadi, o‘zida ijodiy erkinlik sezadi” [8;75-82-b].

Muhokama. Kvestning muhim ahamiyati shundaki, taniqli mutaxassis B.P. Nikitin ham kvestlardan ta’lim oluvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularni voqelikni

tushunishlariga ko'maklashish, o'qitish va davolash vositasi sifatida foydalanishni taklif qiladi. U o'z tadqiqotlarida dramatik kvestlarning vazifalarini ajratib ko'rsatadi. Olimning ta'biricha, ular: - aniq hayotiy rollarni bajarish; - shaxs tajribalarining ifodalanishi; - shaxs ehtiyojlarining aks ettirilishi; - man qilingan qo'zg'alishlarining namoyon bo'lishi; - o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan rollarga murojaat qilish; - shaxsning o'sishi, rivojlanishi, ulg'ayishining ifodalanishi; - kvest jarayonida o'z muammolarini hal etish kabilar [9;49-50].

Hozirgi kunda ta'lim samaradorligini oshirishda kvest-texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor kuchaymoqda. Ushbu texnologiyalar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalari va didaktik kompetentligini rivojlantirish, mustaqil izlanish, tahlil qilish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda o'qituvchi ta'lim oluvchilarning shaxsiy va jamoaviy rivojlanishini ta'minlovchi, ularni yo'naltiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Shu bois oliy ta'lim jarayonida kvest-texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Kvest texnologiyasini tizimli o'rganishga urinishni birinchi bo'lib, XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross amalga oshirdi. U kvestda kelajakda yashash uchun kurash sharoitlariga nisbatan instinktlarning ogohlantirishi bo'lib o'tadi, deb hisoblagan ("Ogohlantirishlar nazariyasi"). K.Byuler kvestni "funksional huzur" olish uchun bajariladigan faoliyat sifatida ta'riflaydi. Kvest-texnologiyasi asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalarini metodik rivojlantirish, ularni o'quv materiallarini o'zlashtirishga qiziqtirish va ongli tarzda yaratuvchilikka undashda o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Bunday o'yinlarni tashkil etishni imkon qadar 1 bosqichdan boshlash lozim. Pedagoglar hamda psixologlarning ta'kidlashicha, ta'lim oluvchining o'zi qiziqmasa, egallagan bilimlari uning hissiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmaydi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, Kvest-texnologiyasi asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalarini metodik rivojlantirishda mazkur bilimlarni o'zlashtirish jarayonida dars mashg'ulotlari kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida qanday vazifalarni yechish mumkinligi pedagogik jihatdan to'g'ri belgilanishi lozim. Ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining psixologik holatini yaxshilash, ularni turli zo'riqishlardan asrash, bilimlarini turli o'yinlar orqali mustahkamlab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Kvest-texnologiyasi asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi didaktik kompetentlik xususiyatlari mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashga, intellektual salohiyatni yuksaltirishga hamda fikrni to'g'ri va aniq ifoda etishga qaratilgan o'yinlardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tanlangan o'yinning o'tilayotgan mavzuga mos kelishi, qulayligi, ko'zlangan natijaga olib kelishi ham muhim mezonlardan sanaladi. Bu esa o'qituvchining kasbiy mahoratiga, maqsadni to'g'ri belgilay olishiga ham bog'liq. Ta'lim jarayonida motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: Fan, 1976. 632.
2. Piaje Jan "Psixologiya intellekta" – SPb.: Izdatelstvo: "Piter" 2003.ISBN: 5-94723-096-8
3. Freyd A.Psixologiya "Ya" i zashitnie mexanizmi. – M.: Pedagogika-Press. 1993. 144s.
4. Breeman, Linda D.:van Lier,Pol A.S.; Wubbels, Theo; Effest of the Good Behavior Game on the Behavioral, Emotsional,and Sosial, Problems of Shildren With Psyshiatris Disorders in Spesial EdusationSetting // journal of positive behavior interventions-USA. jul 2016.156– 167.http://webofssiense.som.
5. Igumnova Ye. A. Kvest-texnologiya v obrazovanii: ucheb. Po-sobie / Ye. A. Igumnova, I. V. Radeskaya. –Chita : ZabGU 2016. 164 s. [Elektronniy resurs] / Ye. A. Igumnova, I. V. Radeskaya // Sovremennie problemi nauki i obrazovaniya. 2016. – Rejim dostupa URL: https://scienceeducation.ru/pdf/2016/6/ 25517.pdf.
6. Uznadze D.N. Osnovi eksperimentalnoy psixologii. – M., 1965.
7. Leontev A. A., Leontev D. A., Sokolova Ye. Ye. Predislovie // Leontev A. N. Deyatelnost, soznanie, lishnost. – M.: Smisl. 2005.
8. M.E.Axmedova. Filologik ta'limni didaktik loyihalash. – T., 2002. 75–82-b.
9. Nikitin B.P.Stupenki tvorshestva, ili Razvivayuщie igrы. 3-ye izd.,dop. – M.:Prosveshenie, 1990. 160 s
10. Muminova N.S. "Lexical-Semantic Characteristics of the Concept of Truth in Linguistics" Таълим ва инновацион тадқиқотлар. Web of Journals, *2024.*

Nafosat OROMOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti v.b. dostenti

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslari yoritiladi. Badiiy asarni mustaqil tahlil qilish, muallif pozitsiyasini anglash, obrazlar xatti-harakatiga baho berish, dalillar asosida fikr bildirish va turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash tanqidiy fikrlashning muhim ko‘rsatkichlari sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, muammoli savollar, munozara, qiyosiy tahlil, “aqliy hujum” va dalillashga asoslangan topshiriqlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari mazkur metodlarning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va badiiy matnni chuqur anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *adabiyot ta’limi, tanqidiy fikrlash, badiiy matn, metodika, mustaqil fikrlash, muammoli ta’lim, munozara, qiyosiy tahlil, o‘quvchi kompetensiyasi.*

Annotation: this article examines the methodological foundations of developing students’ critical thinking skills in literature lessons. Independent analysis of literary works, understanding the author’s position, evaluating characters’ actions, expressing opinions based on evidence, and comparing different perspectives are considered important indicators of critical thinking. The article also explores the methodological potential of using problem-based questions, discussions, comparative analysis, brainstorming, and evidence-based tasks. The findings demonstrate the importance of these methods in developing students’ independent thinking and their ability to understand literary texts in greater depth.

Key words: *literature education, critical thinking, literary text, methodology, independent thinking, problem-based learning, discussion, comparative analysis, student competence.*

Аннотация: в статье рассматриваются методические основы развития навыков критического мышления учащихся на уроках литературы. Самостоятельный анализ художественного произведения, понимание авторской позиции, оценка поступков персонажей, аргументированное выражение собственного мнения и сопоставление различных точек зрения рассматриваются как важные показатели критического мышления. Также раскрываются методические возможности использования проблемных вопросов, дискуссий, сравнительного анализа, мозгового штурма и заданий, основанных на аргументации. Результаты исследования показывают значимость данных методов в развитии самостоятельного мышления учащихся и формировании навыков глубокого понимания художественного текста.

Ключевые слова: *литературное образование, критическое мышление, художественный текст, методика, самостоятельное мышление, проблемное обучение, дискуссия, сравнительный анализ, компетентность учащихся.*

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi va o‘z nuqtayi nazarini asoslab bera olishi muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan adabiyot fani nafaqat badiiy asar mazmunini o‘rgatish, balki o‘quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ham katta imkoniyatga ega.

Adabiyot darslarida badiiy matnni tayyor xulosalar asosida o‘zlashtirish o‘rniga, o‘quvchini matn ustida mustaqil fikrlashga yo‘naltirish muhimdir. Qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berish, muallif pozitsiyasini aniqlash, asardagi muammolarni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish, dalillar asosida fikr bildirish va matndan tegishli misollar keltirish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli savollar, munozara, bahs, qiyosiy tahlil, “aqliy hujum”, klaster va dalillashga asoslangan topshiriqlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tahlilchi va fikr bildiruvchi subyektga aylantiradi. Ayniqsa, badiiy asardagi biror voqea yoki obrazga turlicha baho berish imkoniyatining mavjudligi o‘quvchilarning mustaqil qarashlarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shu sababli adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlarni ilmiy-metodik jihatdan asoslash va ularni dars jarayoniga samarali tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolaning maqsadi adabiyot darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali metod

va usullarini aniqlash hamda ularning badiiy matnni tahlil qilish jarayonidagi metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari adabiyot darslarida o‘quvchilarni tayyor xulosalarni qabul qilishga emas, balki badiiy matn asosida mustaqil fikr yuritishga yo‘naltirish tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, muammoli savollar, munozara, qiyosiy tahlil va dalillashga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Muammoli savollardan foydalanish o‘quvchini asar mazmunini qayta aytib berishdan ko‘ra, voqea va obrazlarga munosabat bildirishga undaydi. Masalan, “Qahramonning bu qarorini to‘g‘ri deb hisoblaysizmi?”, “Agar qahramon boshqa qaror qabul qilganida, voqealar qanday rivojlangan bo‘lardi?” kabi savollar o‘quvchini fikrini asoslashga majbur qiladi. Bunda javobning tayyor yoki yagona bo‘lishi emas, uning badiiy matn bilan asoslanganligi muhim hisoblanadi.

Munozara metodi ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. O‘quvchilar bir masala yuzasidan turli nuqtayi nazarlarni ilgari surish orqali o‘z fikrini himoya qilish, boshqa fikrni tinglash va unga munosabat bildirishni o‘rganadi. Bu jarayonda o‘quvchining faqat xulosa chiqarishi emas, balki xulosaga qanday dalillar orqali kelgani ham ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil asosida esa ikki obraz, ikki asar yoki bir muammoning turli talqinlarini solishtirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, qahramonlarning xarakteri, dunyoqarashi va qarorlarini qiyoslash orqali o‘quvchilar o‘xshash va farqli jihatlarni mustaqil aniqlaydi. Natijada tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Dalillashga asoslangan topshiriqlar ham muhim metodik natija berdi. O‘quvchidan “fikringizni matndan misol bilan asoslang” talabining qo‘yilishi uning shaxsiy munosabatini badiiy matn bilan bog‘lashiga yordam beradi. Bunday yondashuv subyektiv fikrni dalil bilan mustahkamlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Tahlil natijasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli ham muhim ekanligi aniqlandi. O‘qituvchi tayyor javobni beruvchi emas, balki o‘quvchini savol, muammo va dalillar orqali mustaqil xulosaga olib keluvchi tashkilotchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bunda noto‘g‘ri javobdan qo‘rqmaslik, turli qarashlarni tinglash va ularni matn asosida baholash uchun imkoniyat yaratish muhimdir.

Shunday qilib, adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bitta metod bilan cheklanmaydi. Muammoli savol, munozara, qiyosiy tahlil va dalillash metodlarini badiiy matn bilan uzviy bog‘lash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning badiiy asarni chuqur anglash, mustaqil fikr bildirish va o‘z qarashlarini dalillar asosida asoslashiga imkon beradi. Muammoli savollar, munozara, qiyosiy tahlil va dalillashga asoslangan topshiriqlardan foydalanish bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bois adabiyot ta’limida o‘quvchini tayyor xulosani qabul qiluvchi emas, balki mustaqil tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi faol subyekt sifatida shakllantirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. 400-b.

Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. 404-b.

To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 256-b.

Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. 192-b.

Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. 112-b.

Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 306-b.

Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – Toshkent: Tamaddun, 2010. 112-b.

Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. 132-b.

Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001.

Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Insight Assessment, 2015.

Baxtiyor SHOMIRZAYEV,
Jizzax politexnika instituti mustaqil tadqiqotchisi,
G‘allaorol tuman 2-son texnikumi ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi bosh mutaxassisi
UDK: 377.018:004.8

MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI DARSLARIDA RAQAMLI DIDAKTIK VOSITALAR VA PLATFORMALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada professional ta’lim tizimida o‘quvchilarning media va axborot savodxonligini rivojlantirishda raqamli didaktik vositalar hamda platformalardan foydalanish metodikasi tadqiq etilgan. IMRAD standarti asosida tayyorlangan tadqiqotda Padlet, Google Sites hamda LMS platformalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tajriba-sinov ishlari natijalari raqamli vositalarni tizimli qo‘llash o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, feyk axborotlarni aniqlash va kiberxavfsizlik ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.
Kalit so‘zlar: *media va axborot savodxonligi, raqamli didaktika, Padlet, Google Sites, LMS, feyk xabarlar, kiberxavfsizlik, professional ta’lim.*
Аннотация: в данной статье исследуется методика использования цифровых дидактических средств и платформ в развитии медийно-информационной грамотности учащихся в системе профессионального образования. В исследовании, подготовленном на основе стандарта IMRAD, проанализированы педагогические возможности платформ Padlet, Google Sites и LMS. Результаты опытно-испытательной работы показали, что систематическое применение цифровых средств существенно повышает навыки критического мышления, выявления фейковой информации и кибербезопасности учащихся.
Ключевые слова: *медийно-информационная грамотность, цифровая дидактика, Padlet, Google Sites, LMS, фейковые новости, кибербезопасность, профессиональное образование.*
Annotation: this article examines the methodology of using digital didactic tools and platforms in developing media and information literacy among students in the vocational education system. Prepared on the basis of the IMRAD standard, the study analyzes the pedagogical capabilities of Padlet, Google Sites, and LMS platforms. The results of experimental work showed that the systematic use of digital tools significantly improves students’ critical thinking, fake news detection, and cybersecurity skills.
Keywords: *media and information literacy, digital didactics, Padlet, Google Sites, LMS, fake news, cybersecurity, vocational education.*

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida shaxsning media va axborot savodxonligini shakllantirish professional ta’limning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Axborot oqimining keskin ortishi, sun’iy intellekt texnologiyalarining ommalashuvi hamda dezinformatsiya (feyk xabarlar) ko‘lamining kengayishi bo‘lajak mutaxassislardan nafaqat axborotni iste’mol qilish, balki uni tanqidiy tahlil qilish va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini talab etmoqda. YuNESKO tavsiyalarida ta’kidlanganidek, media va axborot savodxonligi fuqarolarning uzluksiz ta’lim olishi hamda raqamli jamiyatda xavfsiz faoliyat yuritishining bazaviy kompetensiyasidir. Biroq, an’anaviy ta’lim usullari o‘quvchilarda axborot xatarlariga qarshi immunitetni shakllantirishda har doim ham kutilgan samarani bermayapti. Shu munosabat bilan, MAS darslarida raqamli didaktik vositalar (Padlet, Google Sites, LMS, interaktiv simulyatsiyalar) va o‘qitishning mahsulotli (loyihaviy) metodlarini integratsiyalash zaruriyati tug‘ilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli didaktika va media savodxonligini rivojlantirish muammosi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xalqaro tadqiqotlarda media savodxonligi faqat texnik ko‘nikma emas, balki tanqidiy tahlil, ijodkorlik va fuqarolik mas’uliyatini o‘z ichiga olgan kompleks kompetensiya sifatida talqin etiladi [1, 2]. D. Buckingham [1] ta’kidlashicha, raqamli media muhitida o‘quvchilarni himoyalashning eng maqbul yo‘li – ularda axborot yaratish va tahlil qilish bo‘yicha amaliy tajribani shakllantirishdir. R. Hobbs [2] esa media savodxonligini faol fuqarolik va raqamli muloqot madaniyatining poydevori sifatida ko‘rsatadi. Mamlakatimiz olimlari va pedagog-izlanuvchilari tomonidan professional ta’limda raqamli texnologiyalar, LMS platformalari hamda pedagogik diagnostika vositalaridan foydalanish bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, U.N. Nishonaliyev [3] va N.A. Muslimov [4] bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda raqamli didaktik vositalarning o‘rnini asoslab bergan bo‘lsa, B.SH. Usmonov va boshqalar [5,6,7] oliy va professional ta’lim tizimida o‘quv jarayonini LMS platformalari orqali boshqarish metodikasini yoritganlar. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarda loyihalash va media kompetensiyalarni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kompleks foydalanish zarurligi ta’kidlangan.

Metodologiya. Tadqiqot davomida nazariy (tahlil, sintez, umumlashtirish), pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot bazasi va kontingenti. Tajriba-sinov ishlari professional ta’lim muassasasi (texnikum) o‘quvchilari o‘rtasida olib borildi. Tadqiqotda jami n=120 nafar o‘quvchi ishtirok etib, ular ikki guruhga ajratildi:

- **Nazorat guruhi (NG):** n=60 nafar o‘quvchi (an’anaviy metodika bo‘yicha ta’lim olgan).

- **Tajriba guruhi (TG):** n=60 nafar o'quvchi (raqamli didaktik platformalar va loyihaviy metodika qo'llanilgan).

Tajriba guruhida MAS darslari quyidagi raqamli didaktik platformalar integratsiyasi asosida tashkil etildi:

1.Padlet: jamoaviy fikr almashish, feyk va haqiqiy xabarlarni vizual doskada saralash, g'oyalarni jamlash uchun.

2.Google Sites: o'quvchilarning amaliy raqamli mahsulotlarini (masalan, interaktiv qo'llanma yoki media-xartiya) veb-sahifa ko'rinishida loyihalashi uchun.

3.LMS (Learning Management System): o'quv materiallarini joylashtirish, test va diagnostika topshiriqlarini avtomatlashtirish uchun.

O'quvchilarning media va axborot savodxonligi 3 ta daraja bo'yicha (yuqori, o'rta, qoniqarli) quyidagi diagnostik mezonlar yordamida baholandi:

- *Kognitiv:* axborot xavfsizligi va media qoidalarini bilish.
- *Operatsional:* raqamli vositalar va platformalardan foydalana olish ko'nikmasi.
- *Analitik (Refleksiv):* feyk xabarlarni va kiberxavflarni tanqidiy tahlil qila olish.

Natijalar. Tajriba-sinov ishlarining boshida va yakunida o'quvchilarning loyihalash hamda media savodxonligi kompetensiyalari darajalari bo'yicha diagnostika o'tkazildi.

Tajriba va nazorat guruhlarida erishilgan o'sish ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Tajriba va nazorat guruhlarida media va axborot savodxonligi ko'rsatkichlari 1-jadval.

Guruhlar	Bosqich	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Qoniqarli daraja (%)
Nazorat guruhi (NG, n=60)	Tajribadan oldin	13,3	46,7	40,0
	Tajribadan keyin	18,3	51,7	30,0
Tajriba guruhi (TG, n=60)	Tajribadan oldin	15,0	45,0	40,0
	Tajribadan keyin	**41,7**	**46,7**	**11,6**

Olingan matematik-statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida (TG) yuqori darajadagi media savodxonligiga ega o'quvchilar ulushi tajriba boshidagi **15,0%** dan tajriba yakunida **41,7%** gacha (**+26,7%**) oshdi. Qoniqarli darajadagi o'quvchilar esa **40,0%** dan **11,6%** gacha kamaydi. Nazorat guruhida (NG) esa mos ravishda yuqori daraja bor-yo'g'i **+5,0%** ga oshgani kuzatildi.

Amaliy misol: tajriba guruhida *"Kiberxavfsizlik va feyk xabarlarni aniqlash"* mavzusida o'quvchilarga kichik guruhlarda **"Texnikum media-xavfsizlik xartiyasi"** nomli amaliy loyiha topshirildi. O'quvchilar Padlet va Google Sites imkoniyatlaridan foydalanib, texnikum o'quvchilari uchun media-savodxonlik bo'yicha interaktiv qo'llanma loyihasini yaratdilar va taqdimot qilishdi [1, 8].

Loyihaning raqamli muhitda amalga oshirilish bosqichlari:

1.*1-bosqich:* kiberxavfsizlik va feyk xabarlar bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi hamda muhokama qilindi.

2.*2-bosqich:* padlet doskasida xartiya qoidalari, tavsiyalar va g'oyalar jamoaviy shakllantirildi.

3.*3-bosqich:* Google Sites platformasida interaktiv veb-qo'llanma loyihasi yaratildi va unga infografikalar joylashtirildi.

4.*4-bosqich:* tayyor interaktiv mahsulot taqdim etildi hamda pedagogik-diagnostik mezonlar bo'yicha baholandi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, media va axborot savodxonligini o'qitishda raqamli platformalarni shunchaki namoyish vositasi sifatida emas, balki **interaktiv va mahsulotli loyihalash vositasi** sifatida qo'llash yuqori samara beradi. O'quvchilar axborotni passiv tinglovchi emas, balki Padlet va Google Sites yordamida o'z raqamli mahsulotini yaratuvchi subyektga aylandilar. Bulutli texnologiyalar guruhlarda ishlash, fikrlarni erkin bildirish va kollegial qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. "Texnikum media-xavfsizlik xartiyasi" kabi amaliy topshiriqlar nazariy bilimlarni hayotiy ko'nikmalarga aylantirishga xizmat qildi. Ushbu natijalar xalqaro va mahalliy tadqiqotchilarning raqamli interaktiv ta'lim vositalari o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini oshirishi to'g'risidagi xulosalarini to'liq tasdiqlaydi.

Xulosa. Media va axborot savodxonligi darslarida raqamli didaktik vositalar va loyihali o'qitish metodikasini qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida tajriba guruhida yuqori darajadagi kompetensiyaga ega o'quvchilar ulushi 26,7% ga ortib, 41,7% ni tashkil etdi. Taklif etilgan metodika va "Texnikum media-xavfsizlik xartiyasi" amaliy loyiha modeli professional ta'lim muassasalarida media savodxonligi va raqamli didaktika fanlarini o'qitishda o'quv-uslubiy tavsiya sifatida keng joriy etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Buckingham, D. (2019). *The Media Education Manifesto*. Polity Press.

2.Hobbs, R. (2021). *Media Literacy in Action: Questioning the Media*. Rowman & Littlefield.

3.Nishonaliyev, U.N. (2020). *Kasb ta'limi pedagogikasi va didaktikasi*. – Toshkent: O'qituvchi.

4.Muslimov, N.A. (2021). *Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

5.Usmonov, B.SH., Kodirov, M.A. (2022). Oliy va professional ta'limda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish amaliyoti. *Pedagogik ta'lim*, 4(2), 15–22.

6.Daminov, O.O. (2023). Professional ta'limda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. *Kasb-hunar ta'limi*, 1(3), 45– 51.

7.Axmedov, M.K. (2022). Raqamli didaktika sharoitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish. *Ta'lim texnologiyalari*, 3(1), 30– 36.

Нилуфар СУВАНОВА,
Самаркандский государственный институт иностранных языков, независимый соискатель (PhD)

МУЛЬТИМОДАЛЬНЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ВЕБ-САЙТ «SAVODMEDIA» ДЛЯ УРОКОВ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ: СТРУКТУРА, ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ

Аннотация: в статье описаны структура, функции и дидактические задачи мультимодального образовательного веб-сайта «SavodMedia» для уроков читательской грамотности в начальной школе.

Ключевые слова: *образовательный веб-сайт, мультимодальный текст, читательская грамотность, начальная школа, дидактические задачи, SavodMedia.*

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslari uchun “SavodMedia” multimodal ta’lim veb-saytining tuzilmasi, funksiyalari va didaktik vazifalari tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim veb-sayti, multimodal matn, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich sinf, didaktik vazifalar, SavodMedia.*

Annotation: the article describes the structure, functions and didactic tasks of SavodMedia, a multimodal educational website for primary reading literacy lessons.

Key words: *educational website, multimodal text, reading literacy, primary school, didactic tasks, SavodMedia.*

Разработка методической системы обучения мультимодальному чтению неизбежно сталкивается с проблемой ресурсов. Учителю нужны тексты, в которых слово и изображение действительно взаимодействуют, задания к ним, образцы уроков и средства наблюдения за продвижением учеников. Подбор и подготовка таких материалов к каждому уроку требуют времени, которым учитель начальных классов, как правило, не располагает. Цифровой ресурс, собирающий нужные материалы в одном месте и упорядочивающий их в соответствии с методической системой, способен существенно облегчить эту задачу. Вместе с тем цифровые ресурсы для детей несут и риски. Метаанализ З. Такач, Э. Сварт и А. Бус показал, что мультимедийные элементы, поддерживающие сюжет, помогают пониманию, тогда как интерактивные и игровые элементы, не связанные с содержанием, отвлекают младших читателей (Takacs et al., 2015). Поэтому при создании сайта недостаточно перенести материалы в цифровую среду: каждую функцию нужно подчинить дидактической цели. Цель статьи состоит в описании структуры, функциональных возможностей и дидактических задач веб-сайта «SavodMedia», созданного в рамках исследования мультимодальной читательской грамотности младших школьников.

Под мультимодальным текстом в исследовании понимается текст, смысл которого создаётся совместно несколькими семиотическими средствами: словом, изображением, цветом, композицией, звуком (Kress & van Leeuwen, 2006). Читательская грамотность в отношении таких текстов предполагает умение не только понять слово и рассмотреть картинку, но и соотнести их между собой, заметить, что изображение добавляет к тексту или в чём расходится с ним. Сайт разработан методом педагогического проектирования, работа над ним прошла этапы определения требований, проектирования структуры, создания прототипа и его доработки по замечаниям учителей. Требования к содержанию вытекали из модели «Смотри – Понимай – Создавай», критериев отбора мультимодальных текстов и системы заданий, разработанных на предыдущих этапах исследования. Требования к представлению материала основывались на принципах мультимедийного обучения Р. Майера, прежде всего на принципах когерентности, смежности и выделения главного: лишний материал убирается, слово и относящееся к нему изображение располагаются рядом, а существенное выделяется (Mayer, 2009; Clark & Mayer, 2016). Удобство использования оценивалось по эвристикам юзабилити Я. Нильсена (Nielsen, 1993), доступность обеспечивалась в соответствии с рекомендациями WCAG 2.1 (W3C, 2018). Роль учителя в цифровой среде рассматривалась с позиций модели технологического педагогического предметного знания (Mishra & Koehler, 2006). Проектирование опиралось на четыре принципа. Принцип дидактической подчинённости требует, чтобы каждая функция сайта служила определённому читательскому действию; функция, для которой такое действие назвать нельзя, в сайт не включалась. Принцип отсутствия отвлекающих

элементов означает, что на сайте нет баллов, анимационных наград и соревнования, а результат выполнения задания сообщается ребёнку в виде короткого описания и подсказки о следующем шаге. Принцип доступности предполагает, что сайт работает в браузере без установки, сохраняет материалы для работы без интернета и предусматривает печатные версии заданий. Принцип защиты данных выражается в том, что ребёнок входит по коду класса и псевдониму, не вводя имени, фамилии и других персональных сведений.

Сайт состоит из восьми разделов: библиотеки мультимодальных текстов, модулей «Смотри – Понимай – Создавай», медиамастерской, раздела диагностики, кабинета учителя, методической библиотеки, иллюстрированного словаря и раздела для родителей.

Metod va metodologiya. Tadqiqot materiali ingliz va o'zbek badiiy, memuar hamda publitsistik matnlaridan, izohli va frazeologik lug'atlardan tanlandi. Ingliz materialida Richard Henry Dananing "Two Years Before the Mast", Margaret Atwoodning "The Handmaid's Tale" asarlarida qayd etilgan know the ropes qo'llanishlari, zamonaviy idiomatik manbalardagi good with one's hands kontekstlari hamda jismoniy qobiliyatni ifodalovchi sifatlar kuzatildi. O'zbek materialida Rashod Nuri Guntekinning o'zbekcha "Choliqushi" tarjimasi, xalq ertagi matni, G'afur G'ulom ijodiga oid o'quv matni va boshqa badiiy tarjimalardagi qo'lidan ish kelmoq, epchil, chevar singari birliklarning kontekstlari tahlilga jalb qilindi. Tahlilda kontekstual-semantik, qiyosiy, frazeologik va lingvomadaniy usullar qo'llandi. Har bir misolda birlikning

lug‘aviy ma’nosi bilan matnda yuzaga kelgan ma’no o‘rtasidagi munosabat, shaxs tavsifidagi vazifasi, baholovchi mazmuni va ikkinchi tildagi mumkin bo‘lgan muqobili tekshirildi. Qiyoslashda so‘zma-so‘z o‘xshashlik emas, matndagi kommunikativ vazifaning mosligi asosiy mezon sifatida olindi.

Natijalar. *O‘zbek badiiy matnida epchillik va amaliy mahoratning birgalikda ifodalanishi:* “Choliqushi”ning o‘zbekcha tarjimasida muovina xonim haqida: “Muovina xonim nihoyatda epchil, bilarmon xotin. Qo‘lidan har ish keladi. Kursiga chiqib lampani tuzata boshladi”, deyiladi [Guntekin, “Choliqushi”, 139-b.]. Mazkur parcha qobiliyatning uch xil til vositasi orqali ketma-ket ochilishini ko‘rsatadi. Epchil sifati qahramonning tez va uddaburon harakat qila olishini bildiradi; bilarmon uning tajriba va xabardorligini ko‘rsatadi; qo‘lidan har ish keladi esa bu ikki belgini real faoliyatda namoyon bo‘ladigan amaliy layoqat darajasiga olib chiqadi. Muallifning keyingi “lampani tuzata boshladi” tasviri frazeologik tavsifni voqea bilan tasdiqlaydi. Demak, bu kontekstda qo‘lidan har ish kelmoq umumiy maqtov emas, konkret amaliy vazifani mustaqil bajarish qobiliyatining badiiy xarakteristikasidir. Ingliz tilidagi good with one’s hands mazkur kontekstning ayrim qismini bera oladi. Idiomatik manbalarda birlik qo‘l bilan biror narsa yasash yoki bajarishda mohir bo‘lish ma’nosida izohlanadi. Masalan, “he always was good with his hands” shaklidagi qo‘llanish shaxsning artist yoki hunarmand sifatidagi manual qobiliyatiga asos bo‘ladi. Biroq o‘zbekcha qo‘lidan har ish keladi faqat qo‘lning nozik harakatiga bog‘lanmaydi; u ishni eplash, vaziyatga moslashish va turli vazifalarni bajarish imkoniyatini ham qamrab oladi. Shu sabab “Choliqushi”dagi kontekst uchun good with her hands mumkin bo‘lgan tarjima bo‘lsa-da, resourceful yoki capable singari birliklar bilan kengaytirilgandagina o‘zbekcha ifodaning semantik hajmi to‘laroq beriladi. *Qo‘lidan ish kelmoq va ijtimoiy mustaqillik:* O‘zbek xalq ertagi matnida ota katta o‘g‘li haqida “Akang katta, uning qo‘lidan ish keladi, u endi o‘z nonini topib yeydi” deydi; kenja o‘g‘il haqida esa “hozircha sening qo‘lingdan ish kelmaydi” shakli qo‘llanadi [O‘zbek xalq ertagi, 174-b.]. Bu qarama-qarshi qo‘llanish frazeologizmning ma’nosini ayniqsa aniq ochadi. Katta o‘g‘ilning qo‘lidan ish kelishi biror buyumni mohirona yasash bilangina bog‘lanmagan. Kontekst uni iqtisodiy va maishiy jihatdan mustaqil yashay oladigan, mehnat qilib o‘z ehtiyojini ta’minlaydigan shaxs sifatida tavsiflaydi. Kenja farzandga nisbatan inkor shaklining ishlatilishi esa yosh va hayotiy tajriba bilan bog‘liq vaqtinchalik layoqatsizlikni bildiradi. Shu misol qo‘lidan ish kelmoq frazeologizmini faqat “be good with one’s hands” bilan tenglashtirish cheklanganligini ko‘rsatadi. Inglizcha birlik odatda, manual dexterity va amaliy yasash-bajarish qobiliyatiga yaqin turadi. O‘zbekcha frazeologizm esa ayrim kontekstlarda “be capable of working”, “be able to manage on one’s own” mazmunlariga yaqinlashadi. Demak, uning tarjimasi matndagi faoliyat turiga qarab o‘zgarishi kerak. *Qo‘lidan ish keladigan kishilar: qobiliyatning mehnat resursi sifatida talqini:* G‘afur G‘ulom hayoti va “Shum bola” qissasining tarixiy foniga bag‘ishlangan o‘quv matnida Birinchi jahon urushi davrida “qo‘lidan ish keladigan kishilarni majburan mardikorlikka olib ketardi” degan jumla uchraydi. Bu yerda birlik individual hunarni maqtash vazifasida emas, mehnatga yaroqli va jismoniy-amaliy ishni bajara oladigan kishilar qatlamini belgilash uchun ishlatilgan. Shunday qilib, frazeologizm kontekst ta’sirida individual xarakteristikadan ijtimoiy-mehnat kategoriyasiga o‘tadi.

Bunday qo‘llanishda qobiliyat jismoniy quvvat bilan amaliy ish layoqatining kesishgan nuqtasida turadi. Ingliz tilida able-bodied workers, capable workers yoki men fit for labour kabi ifodalar kontekstual jihatdan yaqinroq bo‘ladi; good with their hands esa haddan tashqari tor ma’no berishi mumkin. Bu fakt frazeologik ekvivalentlikni faqat komponentlarning tashqi o‘xshashligiga asoslab belgilash mumkin emasligini ko‘rsatadi. *Epchil, chevar va qo‘lidan har bir ish keladi: qobiliyatning kumulyativ tavsifi:* Chexov hikoyasining o‘zbekcha tarjimasida kelin haqida “ishga epchil, chevar, qo‘lidan har bir ish keladi” tarzidagi tavsif berilgan. Uch birlik bir-birini takrorlamaydi. Ishga epchil mehnat jarayonidagi tezkorlik va uddaburonlikni, chevar muayyan hunar va tikuvchilik-maishiy mahoratni, qo‘lidan har bir ish keladi esa bu xususiyatlarni umumlashtiruvchi keng amaliy kompetensiyani bildiradi. Badiiy portretda qobiliyat bitta sifat bilan emas, semantik jihatdan bosqichma-bosqich kengayuvchi nominatsiyalar orqali qurilgan. Bu kabi kumulyativ tavsif ingliz tilida handy, skilful, capable, good with her hands kabi birliklarning birgalikdagi ishlatilishi bilan berilishi mumkin. Biroq handy ko‘pincha ta’mirlash va maishiy ishga moyillikni, skilful esa muayyan faoliyatdagi mahoratni ta’kidlaydi. O‘zbekcha qo‘lidan har bir ish keladi esa kontekstda umumlashtiruvchi yakun vazifasini bajaradi. *Ingliz tilida know the ropes: amaliy tajribaning matndagi rivoji:* Richard Henry Dananing “Two Years Before the Mast” asarida kapitan haqida “knew the ropes” iborasi qo‘llanadi. Tarixiy manbalarda bu 1840-yilgi misol iboraning dastlabki mashhur qaydlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Dengizchilik kontekstida kapitan avval shu qirg‘oqda bo‘lgan va qayiqni boshqarishni o‘z zimmasiga oladi. Demak, ibora shunchaki nazariy bilimni emas, oldingi tajribaga tayangan holda real vaziyatda to‘g‘ri harakat qilishni ifodalaydi [Dana, 1840; Martin, Phrase Finder]. Margaret Atwoodning “The Handmaid’s Tale” asarida esa qahramon “I don’t know enough, I don’t know the ropes…” deya o‘zining mavjud tartib va xavfli vaziyat ichidagi tajribasi yetishmasligini ifodalaydi [Atwood, “The Handmaid’s Tale”; Dictionary.com misollar bazasi]. Bu yerda dengizchilik bilan bog‘liq konkret tasvir butunlay yo‘qolgan, ammo “tizimning amaliy tartibini bilish” ma’nosi saqlangan. Bir frazeologizm tarixiy-professional kontekstdan ijtimoiy-siyosiy va kundalik tajriba kontekstiga ko‘chib, umumlashgan amaliy bilimni ifodalash vositasiga aylangan. ***Know the ropes va ishning ko‘zini bilmoq o‘rtasidagi farq:*** O‘zbek tilidagi ishning ko‘zini bilmoq birligi ham tajriba va ish usulini puxta egallashni ifodalaydi. Shunga qaramay, ikki frazeologizmning obrazli asosi boshqa-boshqa. Know the ropes tarixiy jihatdan murakkab faoliyatning vositalari va tartibini bilishga bog‘langan bo‘lsa, ishning ko‘zini bilmoq

ishning muhim nuqtasi, nozik jihati va muvaffaqiyatli bajarish usulini anglashni ifodalaydi. Tarjimada ular ko‘p vaziyatlarda funksional muqobil bo‘lishi mumkin, ammo badiiy matnda obrazning stilistik qiymati muhim bo‘lsa, bu farq e’tibordan chetda qolmasligi kerak. *Jismoniy kuch va amaliy qobiliyatning chegarasi:* Strong–kuchli juftligi tashqi tomondan eng sodda ekvivalentlikni namoyon qiladi. Biroq badiiy matnda strong insonning gavda kuchi, iroda, ta’sir yoki ruhiy bardoshliligini ham ifodalashi mumkin; kuchli leksemasida ham shunday polisemiya mavjud. Baquvvat esa shaxsning jismonan pishiq va quvvatli ekanini kuchliroq konkretlashtiradi. Shu sabab jismoniy portret tasvirida strong man – kuchli odam bilan bir qatorda baquvvat odam tarzida ham berilishi mumkin, lekin strong argument, strong personality yoki strong influence kontekstlarida baquvvat ishlatilmaydi.

Epchil–agile munosabatida ham o‘xshash holat kuzatiladi. Agile jismoniy harakatning tezligi va koordinatsiyasiga yaqin; epchil esa o‘zbek tilida harakat tezligidan tashqari ishni eplash va uddaburonlikni ham ifodalashi mumkin. “Choliqushi”dagi epchil xotin tavsifi aynan shu kengaygan ma’noni namoyon etadi: qahramonning epchilligi keyingi lampani tuzatish harakati bilan amaliy natijaga ulanadi.

Muhokama. Tahlil qobiliyatni ifodalovchi birliklarning ma’nosi lug‘atdagi qisqa definitsiya bilan cheklanmasligini ko‘rsatdi. Ayniqsa o‘zbekcha qo‘lidan ish kelmoq badiiy va ijtimoiy kontekstlarda manual mahorat, umumiy uddaburonlik, mehnatga layoqat va mustaqil hayot kechirish imkoniyatini ifodalay oladi. Bu ma’no kengligi inglizcha good with one’s hands birligidan sezilarli darajada katta. Somatik komponentning mavjudligi ikki tilda ham inson faoliyatini tana tajribasi orqali ifodalash imkonini beradi. Biroq qo‘l/hand qatnashgan birliklarning funksiyasi avtomatik ravishda tenglashmaydi. O‘zbek tilida qo‘lidan ish kelmoqning tasdiq va inkor shakllari shaxsning amaliy layoqatini keng baholaydi; ingliz tilida good with one’s hands ko‘proq manual skill bilan chegaralanadi. Know the ropes esa qo‘l komponentisiz turib ham amaliy tajriba va ish tartibini bilishni obrazli ifodalaydi.

Real matnlar yana bir muhim holatni ko‘rsatadi: qobiliyat ko‘pincha boshqa insoniy belgilar bilan birga beriladi. “Epchil, bilarmon… qo‘lidan har ish keladi” yoki “ishga epchil, chevar, qo‘lidan har bir ish keladi” kabi qatorlarda jismoniy harakat, bilim, hunar va amaliy natija bir-birini to‘ldiradi. Bunday kontekstlar qobiliyatni alohida leksemaning abstrakt ma’nosi sifatida emas, shaxs portretining kompleks komponenti sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Tarjimada ham aynan kontekst ustuvor bo‘lishi kerak. Qo‘lidan ish kelmoqni har safar good with one’s hands deb berish katta o‘g‘ilning “o‘z nonini topib yeyishi” haqidagi misolda yetarli emas; u yerda capable of earning his own living mazmuni muhim. Aksincha, lampa tuzatish yoki buyum yasash kontekstida good with one’s hands tabiiyroq. Demak, frazeologik ekvivalentlik lug‘at darajasida emas, matn va vaziyat darajasida aniqlanadi.

Xulosa. Ingliz va o‘zbek tillaridagi real matn materiallari jismoniy va amaliy qobiliyatning bir necha turdagi nominativ vositalar bilan ifodalanishini ko‘rsatdi. Bevosita sifatlar jismoniy kuch, tezlik yoki mahoratning muayyan jihatini nomlasa, frazeologik birliklar shaxsning tajribasi, mustaqilligi, mehnatga layoqati va faoliyat natijasini kontekst bilan birgalikda tavsiflaydi. O‘zbekcha qo‘lidan ish kelmoq tahlil qilingan matnlarda ayniqsa keng semantik imkoniyat namoyon etdi: u lampani tuzata oladigan amaliy shaxsni ham, o‘z nonini topib yeyishga qodir voyaga yetgan kishini ham, mehnatga yaroqli ijtimoiy qatlamni ham tavsifladi. Inglizcha know the ropes esa tarixiy dengizchilik tajribasidan umumiy amaliy bilim va tizimni tushunish ma’nosiga kengaygan. Shu bois qobiliyat birliklarining qiyosiy tadqiqida tayyor lug‘aviy muqobillarni sanash emas, ularning real matndagi semantik hajmi, baholovchi vazifasi va shaxs portretini yaratishdagi ishtirokini aniqlash asosiy ilmiy mezon bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atwood, M. The Handmaid’s Tale. – Toronto: McClelland & Stewart, 1985.
2. Dana, R. H. Two Years Before the Mast. – Boston, 1840.
3. Guntekin, R. N. Choliqushi. O‘zbekcha tarjima. Ziyouz elektron nashri. 139-b.
4. O‘zbek xalq ertaklari. ZiyoNET elektron nashri. 174-b.
5. Cambridge Dictionary. Learn/know the ropes. Cambridge University Press.
7. Farlex Dictionary of Idioms. Be good with one’s hands.
8. Rahmatullayev, Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006–2008.
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KwAWTgAAAAJ&citation_for_view=9KwAWTgAAAAJ:qjMakFHDy7Sc
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KwAWTgAAAAJ&citation_for_view=9KwAWTgAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC

Nigora RAXIMOVA,
O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti PhD katta o‘qituvchisi

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI DORIVOR O‘SIMLIK NOMLARI KOGNITIV BELGILARINING TASVIRIY IFODALAR VA FRAZEMALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI MOTIVATSION-NOMINATSION FUNKSIYASI

Annotatsiya: mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv belgilarini aniqlash hamda ushbu belgilar asosida shakllangan tasviriy ifodalar va frazemalarning motivatsion-nominatsion xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda dorivor o‘simlik nomlarining nominatsiyasida insonning olamni idrok etishi, konseptuallashtirishi va kategoriyalashi bilan bog‘liq kognitiv omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *konsept, klassifikatsion, medunitsa, Zarcho`va, basilikón phutón, qirollik o‘simligi, yorongul.*

Аннотация: Данное исследование посвящено выявлению когнитивных особенностей, лежащих в основе наименований лекарственных растений в узбекском и английском языках, а также проведению сравнительно-типологического анализа мотивационных и номинативных характеристик описательных выражений и идиом, сформированных на базе этих особенностей. В работе рассматриваются когнитивные факторы, участвующие в процессе наименования лекарственных растений — факторы, связанные с тем, как человек воспринимает, концептуализирует и классифицирует окружающий мир.

Ключевые слова: *концепт, классификационный, медуница (lungwort), куркума (zarcho‘va), basilikón phutón (царское растение), герань (yorongul)*

Annotation: this study focuses on identifying the cognitive features underlying the naming of medicinal plants in the Uzbek and English languages, and conducts a comparative-typological analysis of the motivational and nominative characteristics of descriptive expressions and idioms formed on the basis of these features. The work examines the cognitive factors involved in the process of naming medicinal plants—factors related to how humans perceive, conceptualize, and classify the world around them.

Key words: *concept, classification, medunitsa (lungwort), turmeric (zarchova), basilikón phutón (tsarskoe plant), geranium (yrongul)*

Kirish. Kognitiv tilshunoslikda kognitiv belgi tushunchasi ham keng qo‘llanadi. Manbalarda kognitiv-klassifikatsion va kognitiv-differensial belgi farqlangan.

“Konseptlar guruhida va alohida konseptlarda namoyon bo‘ladigan kognitiv-klassifikatsion belgilar kognitiv jarayon sifatida kategoriyalashtirish mahsuli hisoblanadi. Kognitiv-klassifikatsion belgilar konsept va uning turlarini yaxlit konseptosferaga tartiblaydi”[1]. *Kognitiv belgi* deganda ko‘pincha kognitiv-differensial belgi tushuniladi. “Kognitiv-differensial belgi (kognitiv belgi) – obyektning inson ongi tomonidan anglangan va konsept strukturasida mazmunning alohida elementi sifatida namoyon bo‘ladigan belgisidir”[2].

O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari insonning kundalik faoliyati, davo choralarini ko‘rishi natijasidagina emas, balki muntazam ravishda qo‘llanuvchi barqaror birikmalar, tasviriy ifodalar tarkibida uchrashi bilan ham xozirada saqlanadi. Quyida o‘simlik va giyohlarga nisbatan qo‘llanadigan ingliz tilidagi perifrazalarning kognitiv-semantik xususiyatlariga e’tibor qaratamiz.

Ingliz tilidagi perifrazalarda dorivor o‘simliklarning qaysi tana a’zosidagi kasallikka davo bo‘lishi ham nazarda tutilgan: *medunitsa* – medunitsiya o‘simligi *o‘pka malhami.* Onkologik kasalligi mavjud bemorlar uchun foydasi ko‘pligi sababli *atirshoh* deb ham ataladi. O‘simlikning qaysi tana a’zosidagi kasallikni davolash xususiyati e’tiborga olingan: *Pulmonaria officinalis, common names lungwort, common lungwort*[3]*/* xalq orasida o‘pka o‘ti deb ataluvchi o‘simlik...

– ilohiylashtirilgan, mif, afsonalarga asoslanilgan: Medunisa giyohi juda foydali o‘t-giyohlardan bo‘lib, bu giyoh quyidagicha perifrazalashtirilgan: *Marys tears* (Maryamning ko‘z yoshlari) yoki *Our Ladys milk drops* (xonimimizning sut tomchilari). ...*Mary’s tears or Our Lady’s milk drops, is a herbaceous rhizomatous evergreen perennial plant of the genus Pulmonaria, belonging to the family Boraginaceae*[4]*/* Boraginaceae oilasiga mansub Pulmonaria turkumiga kiradigan ko‘p yillik, doimiy yashil, ildizpoyali o‘simlik Mariyaning ko‘z yoshlari yoki xonimimizning sut tomchilari deb ataladigan o‘simlik hisoblanadi.

– dorivor o‘simlikning umumiy shifobaxshlik xususiyatlariga asoslanilgan: Masalan, zarchabil o‘simligi *healing spice,* ya’ni “shifobaxsh ziravor” perifrazasi bilan qo‘llanadi: *Turmeric – Zarcho`va itself has also been known to be a “healing spice” –* “shifobaxsh ziravor” *and has been used to help many ailments*[5]*/* Zarcho‘va o‘ti ham “shifobaxsh ziravor” sifatida tanilgan hamda ko‘plab kasalliklarni davolashda qo‘llanib kelgan.

Ingliz tilidagi tasviriy ifodalarda ham sinonimik munosabat uchraydi. Masalan, *rosemary (Rozmarin) – memory herb (xotira giyohi) // Mary’s dress* (*Maryam libosi;* o‘simlik nomi sifatida – Lady’s mantle) *// va Compass plant – (kompas o‘ti – Silphium laciniatum)* perifrazalari bilan nomlanadi. Bibariya o‘simligi (rozmarin) ensiklopediyada quyidagicha ta’riflanadi: *Known as herb of remembrance:* rosemary alsohas long been tied to

1 Дербишева З.К. Язык и этнос. – М.: Флинта, Наука, 2017. – С.31.
2 Дербишева З.К. Указанная лит. – С.36.
3 Раздорская О.В. Этимологический анализ фармацевтической лексики в английском и русском языках. Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2018, 4 (81). – С.184-187.
4 Раздорская О.В. Этимологический анализ фармацевтической лексики в английском и русском языках. Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2018, 4 (81). – С.184-187.
5 Раздорская О.В. Там же.– С.184-187.

legends and traditions[6]/ Xotira giyohi sifatida tanilgan rozmarin uzoq zamonlardan beri afsonalar va an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Qadim zamonlardan beri bu xushbo'y o't xotirani yaxshilash xususiyatlariga ega, deb qaralgan. Ehtimol, shuning uchun adabiyotda va folklorda bu o'simlik sodiqlikning hamda xotiraning timsoliga aylangan. Yana bir boshqa manbada nafaqat xotiraning timsoliga, balki do'stlik va muhabbatning ham timsoliga qiyoslangan: *Rosemary is traditionally known as the herb of remembranceand friendship. Also known as Marys mantleand compass weed, rosemary is a lovely, sweet scented, shrubby perennial in Mediterranean countries that can be grown as an annual in Northern climates or as an indoor potted plant*[7]/ Rozmarin an'anaviy ravishda xotira va do'stlik giyohi sifatida tanilgan. Shuningdek, "Maryam libosi" va "kompas o'ti" nomlari bilan ham ma'lum bo'lgan rozmarin, O'rta Yer dengizi mamlakatlarida o'sadigan yoqimli, xushbo'y hidli, buta shaklidagi ko'p yillik o'simlikdir.

Royal herb – "qirollik o'ti" // rayhon giyohi: *Basil has a long history of use,being known as the "royal herb"inancient Greece, and employed invarious cultures not only for culinary but also medicinal and religious use*[8]/ Rayhonning qo'llanilishi uzoq tarixga ega bo'lib, qadimgi Yunonistonda u "qirollik o'ti" sifatida tanilgan va turli madaniyatlarda nafaqat pazandachilikda, balki tibbiyot va diniy maqsadlarda ham ishlatilgan.

Rayhon giyoh / king of herbs (shifobaxsh o'simliklarning qiroli) nomi bilan perifrazalashtirilgan: It is also called the "king of herbs" and the "royal herb". The name "basil" comes from Greek-βασιλικόνφυτόν (basilikón phutón), "royal/kingly plant"[9]/ Rayhonni "giyohlar shohi" va "shoh giyohi" deb ham atashadi. "Rayhon" nomi yunon tilidagi βασιλικόνφυτόν (basilikón phutón) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qirollik o'simligi" yoki "shohona o'simlik" degan ma'noni anglatadi.

Aloe vera – the universal panacea "universal shifo"// *plant of immortality* "mangulik giyohi" // *wonder plant* "mo'jizakor o'simlik". Yunon olimlari *Aloe verani the universal panacea* "universal shifo", deb nomlaganlar, qadimgi misrliklar *the plant of immortality* "mangulik giyohi" deb perifrazalashtirishgan: *2000 years ago, the Greek scientists regarded Aloe vera as "the universal panacea". The Egyptians called Aloe "the plant of immortality". Today, the Aloe vera plant has been used for various purposes in dermatology*"[10]/ 2000 yil avval yunon olimlari Aloe verani "universal shifo" deb hisoblaganlar. Misrliklar esa uni "mangullik giyohi" deya ataganlar. Bugungi kunda Aloe vera o'simligi dermatologiyada turli maqsadlarda qo'llanmoqda. Bu perifraza keng qo'llangan bo'lib, boshqa manbalarda ham uchraydi.

Aloe vera "plant of immortality" – "mangulik giyohi" deb perifrazalashtirilgan: "According to a study published in the Indian Journal of Dermatology, in ancient Egypt, they called Aloe verathat "plant of immortality"[11]; *Aloe vera* "wonder plant" (mo'jizakor o'simlik): "Nine health benefits and medical uses of Aloe vera. Bu gulning nega *wonder plant* "mo'jizakor o'simlik" deb atalishi izohlab o'tilgan: Aloe vera, sometimes described as a "wonder plant", is a short-stemmed shrub. Aloe is a genus that contains more than 500 species of flowering succulent plants[12]/ Aloe vera, ba'zan "mo'jizakor o'simlik" deb ataladigan, kalta poyali buta hisoblanadi. Aloe turkumi 500 dan ortiq gulli sersuv o'simlik turlarini o'z ichiga oladi. Bu esa ingliz tilidagi emotsional-ekspressiv markerlarning xilma-xilligini ko'rsatadi. *Uqhuvon Bobuna* – moychechak; boshqa nomlari: *Govche shamiy*, Babunej, *Govche shamiy* – murihiy; lotin tilida – *Herba Matricaria chamomilla*, ingliz tilida – *Matricaria Herb. Matricaria chamomilla* – Rim moychechak; Matricaria – lot. matrix (ona, homila) bilan bog'liq; chamomilla – yun. *chamai* (yer) + millos (olma); shunga o'xshash hidga ega (ЭСЛБНЛР, 90).

O'simlik va giyohlarni ifodalovchi yana ko'plab perifrazalar mavjud. Bunday tasviriy ifodalar so'z boyligini oshirishga va nutq takrorlanishining oldini olishga yordam beradi. Perifrazalar ijtimoiy turmush tarzining turli qirralari haqida funksiya bajarib, axborot berishga xizmat qiladi. So'zlashuv va badiiy uslubda tasviriy ifodalar faol qo'llanadi. Ilmiy va rasmiy uslubda perifrazalar deyarli uchramaydi. Dorivor o'simliklarning perifrazaga teng nomlarini terminlarning ilmiy uslubdagi ko'rinishi sifatida baholash mumkin. Chunki bunda tasviriy ifodalar o'simlik xususiyatlaridan, xarakterli belgilaridan kelib chiqib, nomlash vazifasini bajaradi. Tasviriy ifodalar so'zlashish davomida, nutq jarayonida yuzaga keladi va asta-sekinlik bilan madaniyat vakili, til sohibi ongida barqarorlashadi, til birligiga aylanadi.

6 Mirjonov N. N.Shifobaxsh o'simlik nomlarining lingvistik xususiyatlari. Scientific progress, 2022. 3 (2). – C. 214–223.

7 Abdullayev A., Gulyamov M., & Mishin O. Semantic characteristics of names of medicinal plants in languages of different systems (based on Russian, English and Uzbek languages) // Bulletin of Udmurt University. Series «History and Philology», 2023.

8 Раздорская О.В. Этимологический анализ фармацевтической лексики в английском и русском языках. Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2018, 4 (81). – С.184–187.

9 Maznev N. I. Encyclopedia of medicinal plants. 3rd ed., corr. and add. Moscow. Martin, 2022.

10 Komilov I. The phenomenon of medicine in the cultural horizon: the theoretical basis of analysis and ethno-cultural specification. – Tomsk: IAA SB RAS Publishers, 2022.

11 Mirjonov N. N. Shifobaxsh o'simlik nomlarining lingvistik xususiyatlari. Scientific progress, 2022, 3 (2). – C. 214 – 223.

12 Abdullayev A., Gulyamov M., & Mishin O. Semantic characteristics of names of medicinal plants in languages of different systems (based on Russian, English and Uzbek languages). Bulletin of Udmurt University. Series «History and Philology», 2023, (1).– C. 147–153.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdullayev A., Gulyamov M., & Mishin O. Semantic characteristics of names of medicinal plants in languages of different systems (based on Russian, English and Uzbek languages) // Bulletin of Udmurt University. Series "History and Philology", 2023.

2.Раздорская О.В. Этимологический анализ фармацевтической лексики в английском и русском языках. Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2018, 4 (81). С.184–187.

3.Maznev N. I. Encyclopedia of medicinal plants. 3rd ed., corr. and add. – Moscow. Martin, 2022.

4.Коцюбинская Л.В., Теплова Л.И. Когнитивная структура языкового знака (на материале английских фразеологических единиц), 2014. С.38– 47.

UDK 81’362:81’44 [811.111+811.133.1+811.512.133]

Raxima KURBANOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
“Lotin tili va tibbiy terminologiya” kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchi
ORCID: 0000-0002-5668-8559



PREDIKATIVLIK UMUMLINGVISTIK QONUNIYAT TUSHUNCHASI SIFATIDA: NAZARIY TALQINLAR VA INGLIZ, FRANSUZ, O‘ZBEK TILLARIDAGI NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya: maqolada predikativlik tushunchasining mazmuni va chegaralari umumlingvistik nuqtayi nazardan aniqlanadi. Asosiy nazariy yondashuvlarning umumiy o‘zagi – gap mazmunini voqelikka bog‘lovchi munosabat ekani ko‘rsatilib, birlamchi, ikkilamchi predikatsiya va polipredikativlik ingliz, fransuz va o‘zbek tillari materialida qiyoslangan. Predikativlikning ishchi ta’rifi va modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *predikativlik, predikatsiya, kesimlik kategoriyasi, ikkilamchi predikatsiya, polipredikativlik, ingliz, fransuz, o‘zbek tillari.*

Аннотация: в статье с общелингвистической точки зрения определяются содержание и границы понятия предикативности. Показано, что общим ядром основных подходов является отношение, соотносящее содержание предложения с действительностью; первичная, вторичная предикация и полипредикативность сопоставлены на материале английского, французского и узбекского языков. Предложены рабочее определение и модель предикативности.

Ключевые слова: *предикативность, предикация, вторичная предикация, полипредикативность, английский, французский, узбекский языки.*

Annotation: the article defines the content and boundaries of the concept of predicativity from a general linguistic perspective. The common core of the main approaches is shown to be the relation linking the content of a sentence to reality; primary and secondary predication and polypredicativity are compared in English, French and Uzbek. A working definition and a model of predicativity are proposed.

Key words: *predicativity, predication, secondary predication, polypredicativity, English, French, Uzbek.*


Kirish. Predikativlik tilshunoslikning eng ko‘p qo‘llanadigan, ammo eng kam bir xil talqin qilinadigan tushunchalaridan biridir: turli maktablar uni tuslangan fe’l, bog‘lama, modallik, zamon va shaxs kategoriyalari majmui yoki ega va kesim o‘rtasidagi struktur munosabat bilan tenglashtiradi. Bu terminologik chalkashlikka ham olib keladi: masalan, ingliz grammatikasida *predicative* kesimning ot qismini bildiradi. Ingliz va fransuz tillarida predikativlik tuslangan fe’l va majburiy ega bilan bog‘langan bo‘lsa, o‘zbek tilida u kesim tarkibidagi qo‘shimchalar orqali ifodalanadi. Tadqiqot maqsadi – predikativlikni umumlingvistik qonuniyat tushunchasi sifatida aniqlashtirish va uning invariant mazmunini uch til materialida asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Predikativlik g‘oyasi Aristotelning mulohazani “nimadir haqida nimadir aytish” deb tavsiflashiga borib taqaladi [1]. A.M. Peshkovskiy predikativlikni fe’lning tuslangan shakli bilan bog‘lagan [2], V.V. Vinogradov esa uni gap mazmunining voqelikka munosabatini ifodalovchi modallik, zamon va shaxs kategoriyalari majmui deb ta’riflagan [3]. O. Jespersen predikativ munosabat (*nexus*) *I found the cage empty* kabi qurilmalarda ham mavjud ekanini ko‘rsatgan [4], E. Williams birlamchi va ikkilamchi predikatlarni farqlagan [5]. Ingliz va fransuz tillaridagi ikkilamchi predikatsiyali qurilmalar B.A. Ilyish [6] va M. Riegel [7] ishlarida tavsiflangan. N. Mahmudov va A. Nurmonov gapning [WPm] modeli va kesimlik ko‘rsatkichlarining gap hosil qiluvchi

vazifasini asoslagan [8]. Biroq predikativlikni uch til materialida yaxlit tahlil qiluvchi ishlar kam.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, komponent va transformatsion tahlil hamda modellashtirish usullari qo‘llanildi. Qiyos asosi sifatida predikativlik belgilarining (modallik, zamon, shaxs) gapda to‘liq, qisman yoki ko‘p marta namoyon bo‘lishi olindi. Material – uch tilning nufuzli grammatikalaridagi misollar [7, 9, 10] va muallif tuzgan parallel gaplar.

Tahlil va natijalar. ***Predikativlikning invariant tarkibi.*** Mantiqiy va formal yondashuvlar predikativlikni muayyan shakl (bog‘lama yoki tuslangan fe’l) bilan tenglashtiradi; bu talqin ingliz va fransuz tillari uchun qulay, ammo nol bog‘lamali gaplarga ega o‘zbek tiliga to‘liq mos kelmaydi. Semantik-modal yondashuv esa predikativlikni ifoda vositasidan ajratib, turli tipdagi tillarni qiyoslash imkonini beradi [3]. Shunga tayanib, predikativlikning invariant modelini taklif etamiz (1-rasm).



1-rasm. *Predikativlik tushunchasining modeli (muallif ishlanmasi)*

Modelning yadrosi – modallik: *He works – Il travaille – U ishlaydi* (real), *He would work – Il travaillerait – U ishlardi* (noreal). Zamon gap mazmunini nutq momentiga, shaxs esa nutq ishtirokchilariga bog‘laydi. *Yes – Oui – Ha* kabi so‘z-gaplarda zamon va shaxs yo‘q, ammo modal munosabat saqlanadi [9, 11].

Birlamchi predikatsiya. Predikativlik belgilarining barchasi to‘liq ifodalangan holat mustaqil sodda gapga xos. Ingliz va fransuz tillarida u ega bilan tuslangan fe’l birikuvida (*The students passed the exam – Les étudiants ont réussi l’examen*), o‘zbek tilida esa kesimlik qo‘shimchalarida yuzaga keladi (*Talabalar imtihondan o‘tdilar* yoki egasiz *Imtihondan o‘tdik*). Egasiz gapning ham to‘liq predikativ bo‘lishi o‘zbek tilida predikativlik eng avvalo kesimga xos ekanini ko‘rsatadi [8, 11].

Ikkilamchi (yarim) predikatsiya. “Subyekt – predikat” munosabatini saqlagan, lekin mustaqil gap bo‘la olmaydigan qurilmalarda modallik va absolyut zamon asosiy gapdan “olinadi”, qurilmaning o‘zi esa faqat nisbiy zamonni ifodalaydi [4, 6]. Uch tildagi asosiy turlar 1-jadvalda qiyoslangan.

1-jadval

Ikkilamchi predikatsiyaning ingliz, fransuz va o‘zbek tillarida ifodalanishi

Qurilma turi	Ingliz tili	Fransuz tili	O‘zbek tili
Idrok fe’li + harakat qiluvchi	I saw *him cross* the street.	Je l’ai vu *traverser* la rue.	*Uning* ko‘chani kesib *o‘tganini* ko‘rdim.
Absolyut (mustaqil) qurilma	*The lesson over*, we went home.	*Le cours terminé*, nous sommes rentrés.	*Dars tugagach*, uyga ketdik.
Obyekt predikativi	They elected *him president*.	Ils *l’*ont élu *président*.	*Uni prezident qilib* saylashdi.
Ega bilan bog‘liq holat (depiktiv)	He came home *tired*.	Il est rentré *fatigué*.	U uyga *charchab* keldi.
Harakat nomi / gerundiy qurilmasi	I insist on *his coming*.	J’insiste pour *qu’il vienne* (ergash gap).	*Uning kelishini* talab qilaman.

Ingliz tilida bu qurilmalar noshaxsiy fe’l shakllari [9], fransuz tilida infinitivli va absolyut qurilmalar [7] asosida hosil bo‘ladi; o‘zbek tilida esa sifatdosh, harakat nomi va ravishdosh qurilmalarida shaxs egalik qo‘shimchalari orqali ifodalanadi: *kelganim, kelganing, kelgani* [10]. Ular to‘liq ergash gapga aylantiriladi (*Dars tugagach, uyga ketdik → Dars tugaganidan keyin uyga ketdik*), ya’ni “siqilgan” gaplardir.

Polipredikativlik. Bir gapda bir necha predikativ markazning mavjudligi qo‘shma gapning asosiy belgisidir [12]: *If it rains, we will stay at home – S’il pleut, nous resterons à la maison – Yomg‘ir yog‘sa, uyda qolamiz*. Ingliz va fransuz tillarida ergash gap to‘liq predikativlikni saqlaydi; o‘zbek tilidagi *yog‘sa* kesimi esa zamon ma’nosini bosh gapdan oladi va to‘liq hamda yarim predikatsiya oralig‘ida turadi.

Ishchi ta’rif. Tahlil asosida quyidagi ta’rifni taklif etamiz: *predikativlik – modallik, zamon va shaxs kategoriyalari orqali gap mazmunini voqelikka va nutq vaziyatiga bog‘lovchi, barcha tillarda mavjud, ammo har bir tilda o‘ziga xos vositalar bilan ifodalanadigan va namoyon bo‘lish darajasiga ko‘ra birlamchi, ikkilamchi va ko‘p markazli turlarga ajraluvchi sintaktik kategoriya*.

Xulosa va takliflar. Predikativlikka oid yondashuvlarning umumiy o‘zagi – gap mazmunini voqelikka bog‘lovchi munosabat bo‘lib, tillarni qiyoslash uchun semantik-modal yondashuv eng maqbul asosdir. Predikativlik darajalanuvchi tushuncha: sodda gapdan yarim predikativ qurilmaga qarab avval mustaqillik, keyin absolyut zamon va modallik yo‘qoladi, shaxs esa eng barqaror belgi sifatida o‘zbek tilida egalik qo‘shimchasi orqali saqlanadi. Ingliz tilidagi *predicative* va fransuz tilidagi *attribut du sujet* terminlari kesimning ot qismini bildirgani uchun ularni o‘zbek tiliga “predikativ” deb tarjima qilish noto‘g‘ri. Natijalardan nazariy grammatika va qiyosiy tipologiya fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle. (1963). Categories and De Interpretatione (J. L. Ackrill, Trans.). Oxford: Clarendon Press.
2. Пешковский, А. М. (1956). Русский синтаксис в научном освещении (7-е изд.). Москва: Учпедгиз.
3. Виноградов, В. В. (1975). Основные вопросы синтаксиса предложения. В кн.: Исследования по русской грамматике: избранные труды. Москва: Наука.
4. Jespersen, O. (1924). The Philosophy of Grammar. London: George Allen & Unwin.
5. Williams, E. (1980). Predication. Linguistic Inquiry, 11(1), 203–238.
6. Ilyish, B. A. (1971). The Structure of Modern English (2nd ed.). Leningrad: Prosveshcheniye.
7. Riegel, M., Pellat, J.-C., & Rioul, R. (1994). Grammaire méthodique du français. Paris: Presses Universitaires de France.
8. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. (1995). O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). –nToshkent: O‘qituvchi.
9. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman.
10. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. –Toshkent: Fan, 1976.
11. Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Boqiyeva, G., Qurbonova, M., Yunusova, Z., & Abuzalova, M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009
12. Nematova, N. (2025). Xitoy va o‘zbek tillari murakkab sintaktik qurilmalarida polipredikativlik hodisasi. O‘zMU xabarlari, (1/2), 351–353.

Sh.R.AMANTURDIYEVA,
Termiz davlat universiteti, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

DINIY MATNLARNING STILISTIK, PRAGMATIK VA PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada diniy matnlarning stilistik, pragmatik va psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ritorik vositalar, nutqiy maqsadlar hamda matnni qabul qilish jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari misollar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *diniy matn, stilistika, pragmatika, psixolingvistika, ritorik vositalar, nutqiy akt, matnni qabul qilish.*

Аннотация: в статье анализируются стилистические, прагматические и психолингвистические особенности религиозных текстов. На примерах рассматриваются риторические средства, коммуникативные цели и особенности восприятия религиозной речи.

Ключевые слова: *религиозный текст, стилистика, прагматика, психолингвистика, риторические приемы, речевой акт, восприятие текста.*

Annotation: this article examines the stylistic, pragmatic, and psycholinguistic features of religious texts. It explores rhetorical devices, communicative purposes, and the specific characteristics of religious discourse processing through illustrative examples.

Key words: *religious text, stylistics, pragmatics, psycholinguistics, rhetorical devices, speech act, text reception.*

Diniy matnlar stilistikasi diniy mazmunning nutqiy shakllanishi, matnning kompozitsion tuzilishi, ifoda vositalari va ularning estetik hamda ta’sirchanlik imkoniyatlarini o‘rganadi. Unda til vositalari muayyan fikrni bayon qilish bilan birga, tinglovchining diqqatini jalb etish, ma’naviy qadriyatlarni ta’kidlash va nutqning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Diniy matnlarning uslubiy xususiyatlari, avvalo, ularning janri va kommunikativ vazifasi bilan belgilanadi. Masalan, duo matnida *iltijo va tilak,* va’zda *nasihat va tushuntirish,* diniy nasihat matnida esa *axloqiy xulosa* chiqarishga undash ustuvor bo‘lishi mumkin. Shu sababli har bir janrning stilistik vositalarini uning ichki tuzilishi va maqsadi bilan bog‘liq holda tahlil qilish lozim.

Diniy nutqda *ritorik so‘roq, takror, parallelizm, murojaat, undov va antiteza* kabi vositalar muhim o‘rin tutadi. Ularning vazifasi fikrni oddiy yetkazish bilangina cheklanmaydi, balki uning tinglovchi ongida mustahkamlanishiga ham yordam beradi.

Masalan, “Insonni ulug‘laydigan narsa boylikmi yoki uning ezgu amallarimi?” kabi ritorik savol tinglovchini mustaqil fikrlashga undaydi. “Yaxshilik qiling, ezgulikni asrang, insonlarga mehr ko‘rsating” jumlasining parallel qurilishi esa fikrning izchilligi va ta’sirchanligini oshiradi. Bu misollar maqola uchun tuzilgan shartli ifodalar bo‘lib, diniy manbalardan olingan iqtiboslar emas.

Diniy matnlarda kompozitsion izchillik ham muhim stilistik omil hisoblanadi. Matnning kirish qismida mavzuga e’tibor qaratilishi, asosiy qismida fikrning dalil va misollar bilan rivojlantirilishi, yakunida esa umumlashtiruvchi xulosa yoki duo keltirilishi mumkin. Bunday kompozitsion qurilish tinglovchiga mazmunni bosqichma-bosqich anglash imkonini beradi.

Diniy matnlarning stilistik ta’sirchanligida **ritorik vositalar** alohida ahamiyatga ega. Ular fikrni ta’kidlash, tinglovchida hissiy munosabat uyg‘otish va nutqning asosiy g‘oyasini mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Diniy diskurs bo‘yicha tadqiqotlarda ham ritorik savollar, takror va metafora kabi vositalarning ishontirishga qaratilgan nutqdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Takror usuli muhim fikrni bir necha marta ifodalash orqali uning ahamiyatini kuchaytiradi. Masalan, “Sabr insonni mustahkamlaydi, sabr insonni qiyinchilikda qo‘llab-quvvatlaydi” jumlasining ikkinchi qismi birinchi fikrni mazmunan rivojlantiradi. Biroq takror me’yordan ortiq qo‘llanilsa, nutqning tabiiyligi va ravonligi pasayishi mumkin.

Parallelizmda bir xil yoki o‘xshash sintaktik qurilmalar ketma-ket keladi. “Qalbda mehr bo‘lsin, so‘zda samimiyat bo‘lsin, amallarda adolat bo‘lsin” misolida parallel qurilmalar axloqiy g‘oyalarni bir butun mazmunga birlashtiradi. Bunday ifoda tinglovchiga fikrni oson qabul qilish va eslab qolishda yordam berishi mumkin.

Antiteza qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon qo‘yish orqali fikrni kuchaytiradi. “Adolat jamiyatni mustahkamlaydi, zulm esa uni zaiflashtiradi” jumlasining ta’sirchanligi ikki holat o‘rtasidagi ziddiyatga asoslangan. Bu usul axloqiy tanlov va xatti-harakatlar oqibatini tushuntirishda samarali bo‘lishi mumkin.

Murojaat va undov shakllari ham diniy nutqning muhim uslubiy belgilaridir. “Ey, azizlar, har bir amalingizga mas’uliyat bilan yondashing!” kabi ifoda tinglovchi bilan bevosita muloqot o‘rnatadi. Duoda esa murojaat muayyan iltijo yoki tilak bilan birlashadi: “Allohim, bizga sabr va matonat ato et”.

Shu bilan birga, ritorik vositalarni har doim ham bir xil ta’sirga ega deb bo‘lmaydi. Ularning samaradorligi nutq vaziyati, auditoriyaning tayyorgarligi, matnning mazmuni va ifoda uslubiga bog‘liq.

Pragmatika til birliklarining muayyan muloqot vaziyatida qanday maqsadda ishlatilishi, so‘zlovchining niyati va tinglovchining nutqni qanday qabul qilishi bilan shug‘ullanadi. Diniy matnlarning pragmatik tahlilida ham matnning faqat mazmuni emas, balki u orqali bajarilayotgan kommunikativ harakat hisobga olinadi. Nutqiy aktlar nazariyasiga ko‘ra, gapirish jarayonida inson ma’lumot berishdan tashqari, iltimos qilish, maslahat berish, da’vat etish, minnatdorlik bildirish yoki va’da berish kabi harakatlarni ham amalga oshiradi. Diniy nutqqa oid tadqiqotlarda va’z va xutbalardagi nutqiy aktlarning

kommunikativ vazifalari maxsus o‘rganilgan. Diniy matnlarda quyidagi pragmatik vazifalarni ajratish mumkin.

Birinchisi, axborot berish va tushuntirish. Bunda muayyan diniy qoida, voqea yoki axloqiy tamoyil izohlanadi. Masalan, “Inson o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his qilishi lozim” gapi muayyan me’yorni tushuntiradi.

Ikkinchisi, da’vat va nasihat qilish. “Muhtojlarga yordam bering”, “Omonatga vafo qiling” kabi jumlalar tinglovchini muayyan harakatni bajarishga undaydi. Bu yerda buyruq shakli faqat grammatik vosita emas, balki axloqiy yo‘naltirish vazifasini ham bajaradi.

Uchinchisi, iltijo va tilak bildirish. “Allohim, oilamizga tinchlik ato et” ifodasida so‘zlovchining tilagi va iltijosi namoyon bo‘ladi. Duoning pragmatik xususiyati uning kimga qaratilgani, qanday vaziyatda aytilgani va qanday niyatni ifodalashi bilan belgilanadi.

To‘rtinchisi, minnatdorlik va hissiy munosabatni ifodalash. “Yaratganga shukr” kabi ifodalar minnatdorlikni bildirishi mumkin. Bunday nutqiy harakatlar so‘zlovchining shaxsiy munosabatini ochib beradi.

Diniy nutqda bevosita murojaat ham pragmatik ahamiyatga ega. “Aziz birodarlar”, “Hurmatli tinglovchilar” kabi shakllar auditoriyaga e’tibor qaratadi va muloqot ishtirokchilarining munosabatini belgilaydi. “Biz barchamiz ezgu amallarga intilishimiz kerak” kabi birinchi shaxs ko‘plik shakli esa so‘zlovchi bilan tinglovchilar o‘rtasida umumiylik hissini shakllantirishi mumkin. Pragmatik tahlilda matnning ta’sirini oldindan mutlaq tarzda belgilash mumkin emas. Bir xil nasihat turli tinglovchilar tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun diniy matnning kommunikativ maqsadi bilan uning real qabul qilinishi o‘rtasidagi farqni hisobga olish zarur.

Psixolingvistika til, tafakkur, xotira, hissiyot va nutqni anglash jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Diniy matnlarni psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish o‘quvchi yoki tinglovchining matnni qanday qabul qilishi, uning mazmunini qanday anglashi va ifodalarga qanday hissiy munosabat bildirishini tushunishga yordam beradi. Diniy matnni qabul qilish jarayonida til vositalari bilan birga insonning avvalgi tajribasi, bilimlari, e’tiqodi, madaniy muhiti va mavzuga bo‘lgan munosabati ham ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bir xil matn ayrim insonlarda xotirjamlik yoki umid tuyg‘usini uyg‘otishi, boshqalarda esa faqat axborot sifatida qabul qilinishi mumkin.

Duo janrining kognitiv va psixologik jihatlari haqidagi tadqiqotlarda duo tili insonning fikrlash va his qilish jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Xususan, duo muayyan madaniy va kommunikativ vaziyatda shakllanadigan nutqiy amaliyot sifatida qaraladi.

Diniy matnlarni anglashda diqqat va xotira muhim o‘rin tutadi. Qisqa, mazmunan izchil jumlalar, o‘rinli takrorlar va ravshan xulosalar axborotni qabul qilishni yengillashtirishi mumkin. Masalan, “Inson mehribon bo‘lsin, adolatni saqlasin, va’dasiga vafo qilsin” kabi ketma-ket qurilmalar axloqiy talablarni bir tizimda taqdim etadi.

Hissiy qabul qilish ham muhim omildir. Diniy nutqda *umid, sabr, shukr, kechirim va mehr* kabi tushunchalarni ifodalovchi jumlalar tinglovchining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lanishi mumkin. Biroq muayyan so‘z yoki gap barcha insonlarda bir xil psixologik ta’sir uyg‘otadi, deb xulosa chiqarish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Buni aniqlash uchun kuzatuv, so‘rovnoma va tajriba kabi empirik usullar talab etiladi.

Nutqning ohangi va sur’ati og‘zaki diniy chiqishlarni qabul qilishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Muhim fikrni aniq talaffuz qilish, ma’no jihatdan tugal qismlar o‘rtasida tanaffus qilish va ovoz sur’atini mazmunga moslashtirish tinglovchining diqqatini saqlashga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bunday ta’sirni muayyan auditoriya va vaziyatda empirik tekshirish lozim.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan diniy matnlarning samaradorligi faqat hissiyotga emas, balki mazmunning tushunarliligi, fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanish va tinglovchining matnni o‘z tajribasi bilan bog‘lay olishiga ham bog‘liq.

Xulosa qilish mumkinki, diniy matnlar stilistikasi, pragmatikasi va psixolingvistikasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, ammo alohida tadqiqot vazifalariga ega yo‘nalishlardir. Stilistik tahlil matnning kompozitsion tuzilishi, ritorik vositalari, takror, parallelizm va murojaat kabi ifoda usullarini aniqlashga xizmat qiladi. Pragmatik tahlil esa nasihat, da’vat, iltijo, tilak va minnatdorlik kabi nutqiy harakatlarning maqsadini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Амонтурдиева Ш. Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик тадқиқи: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020.

2.Yusupova Sh. T. Recognizing a Distinct Functional Style for Religious Texts: Implications for Linguistic Research // Indonesian Journal of Cultural and Community Development. 2023. – Vol. 14, No.

3.Pak S. M. Persuasive Religious Discourse: Linguistic Mechanisms of Impact // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. 2022.

4.Smyrnova M. S. Speech Acts in Realization of the Global Fideistic Strategy in the Orthodox Sermon of the XX Century // Scientific Bulletin of Kherson State University. Series “Germanic Studies and Intercultural Communication”. 2016. – № 5.

5.Downes W. Linguistics and the Scientific Study of Religion: Prayer as a Cognitive Register // Religion, Language, and the Human Mind. – Oxford University Press, 2018. – Б. 89–114.

6.Savelyuk N. Psycholinguistic Universals of Comprehending the Prayer “Our Father” (Discursive Approach) // East European Journal of Psycholinguistics. 2017.

Fazliddin SADINOV,
SamDCHTI, katta o‘qituvchisi, PhD

CHORVACHILIK VA VETERINARIYA TERMINLARINING KO‘P MA’NOLILIK VA SHAKLDOSHLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada terminologiyada omonimiya hodisasi xususida fikr yuritilgan. Jumladan, chorvachilik va veterinariya terminlarining boshqa sohalar hamda o‘ziga tegishli tarmoqlararo omonimik munosabatga kirishuvi masalalari yoritilgan. Maqolada morfologiya, oqsil, chechak, manqa, dabba, bo‘ka, bostiriq, bo‘g‘oz, bayir, burang, yem kabi soha terminlarining omonimlik va ko‘p ma’nolilik xususiyatlari aniq misollar vositasida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *chorvachilik, veterinariya, terminologiya, termin, omonim, omonimiya, sheva, semantika, omoforma.*

Аннотация: в статье рассматривается явление омонимии в терминологии. В частности, освещаются вопросы вступления животноводческих и ветеринарных терминов в омонимические отношения как с другими отраслями, так и внутри собственных междисциплинарных структур. На конкретных примерах (морфология, белок/ящур, оспа, сап и др.) анализируются особенности омонимии и полисемии терминов ветеринарной сферы.

Ключевые слова: *животноводство, ветеринария, терминология, термин, омоним, омонимия, диалект, семантика, омоформа.*

Annotation: the article examines the phenomenon of homonymy in terminology. In particular, it highlights the interdisciplinary homonymic relationships of animal husbandry and veterinary terms both with other fields and within their own sub-branches. Based on specific linguistic data, the features of homonymy and polysemy of specialized veterinary terms (such as morphology, protein/foot-and-mouth disease, pox, glanders, etc.) are analyzed with illustrative examples.

Key words: *animal husbandry, veterinary medicine, terminology, term, homonym, homonymy, dialect, semantics, homoform.*

Ma’lumki, barcha terminologik tizimlar qatori chorvachilik va veterinariya sohalarida ham polisemantik, omonimik xususiyatlar mavjud bo‘lib, bu birinchi galda ularning ikki va undan ortiq soha terminologik tizimiga tegishli tushunchalarni anglatishida namoyon bo‘ladi. Masalan, morfologiya termini tibbiyot va veterinariyada deyarli bir xil ma’noda qo‘llansa-da, botanika va tilshunoslikda esa butunlay boshqa sohalarni anglatadi.

Morfologiya [*yun.*morphe –shakl+logos – ta’limot]

1. Odam, hayvonlar va o‘simliklar organizmining shakli va tuzilishini o‘rganadigan fanlar majmuyi. *Eksperimental morfologiya. Odam morfolgiyasi. O‘simlik poyasining morfologiyasi. Bakteriya morfologiyasi.*

2. *tlsh.* Til tizimining bir o‘z doirasida grammatik ma’nolarni ifodalash vositalarini qamrab oluvchi qismi.

3. *tlsh.* Grammatikaning so‘z tuzilishi (tarkibi)ni, so‘z doirasida grammatik ma’nolarning ifodalanishini, so‘z o‘zgartiruvchi shakllarni, shuningdek, so‘zlarning so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlanishini o‘rganuvchi bo‘limi; so‘z shakllari haqidagi ta’limot. *O‘zbek tili morfologiyasi. Fe’l morfologiyasi.* [O‘TIL, III, 227].

Nefrit I [*yun.* nefhros- buyrak] *tib.* Buyrakning, eng avvalo, buyrak tugunchasining yallig‘lanishi. [O‘TIL, III, 363].

Nefrit II *min*. Yashil yoki oq rangli tig‘iz kristall mineral. Nefritning mayda toshlari buyrak shaklida bo‘lganligidan ushbu mineral shunday ataladi [O‘TIL, III, 363].

Veterinariya terminlariga xos omonimik xususiyat nafaqat boshqa terminologik sohalar bilan bir qatorda, aynan soha bo‘g‘inlariga oid terminlarga xos ekanligini materiallar tahlilida namoyon bo‘lishiga ham guvoh bo‘ldik.

Quyida veterinariya terminologik tizimiga oid terminlarga xos bo‘lgan omonimik xususiyalar xususida fikr yuritishga harakat qilamiz.

OQSIL I *biol.* **1** Hayvon va o‘simliklar organizmining eng muhim tarkibiy qismini tashikl etgan, tarkibida azot bo‘lgan murakkab organik modda. *Oqsil hujayralar tuzilishi uchun zarur bo‘lgan moddadir.* N.Ismoilov, Kasallarni parvarish qilish. *Non mahsulotlari tarkibida oqsil, turli mineral moddalar va vitaminlar bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.* “Fan va turmush”. *Ushbu guruh vositalari (burishtiruvchi moddalar) yallig‘langan shilliq pardalarga ta’sir ko‘rsatishi natijasida to‘qima oqsillari hamda suyuqlik kaogulatsiyaga uchratadi va albuminatlar hosil qiladi*

2 Tovuq tuxumining oq moddasi. *Ayol tuxumni chaqdi. Yutoqib oqsilni so‘rdi. Keyin tuxumdagi teshikni barmog‘i bilan kengaytirib, sarig‘ini yutdi.* “Yoshlik”. *Buning uchun*

tuxumning oqsil qismidan sarig‘i ajratib olinadi-da, suv bilan aralashtiriladi. Gazetedan. [O‘TIL, III, 510].

Oqsil II Chorva mollari va cho‘chqalarda bo‘ladigan, shiddatli o‘tadigan yuqumli kasallik, yashchur. [O‘TIL, III, 510].

Ushbulardan oqsil terminining omonimlik bilan bir qatorda ko‘p ma’ nolilik xususiyatiga ham ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Oqsim I *s.t. ayn.* **oqsil** I [O‘TIL, III, 510].

Oqsim II *s.t. ayn.* **oqsil** I [O‘TIL, III, 510].

Oqsil terminining shevalarga xos so‘zlashuv nutqida bir qancha fonetik variantlari ham mavjud: oqsim, ovsil, osil kabilar.

Chechak I Filtrlanuvchi viruslar tomonidan qo‘zg‘aladigan, qishloq xo‘jalik hayvonlari, ayrim tur parrandalar hamda odamlar kasallanib intoksikatsiya, isitmalash, teri va shilliq pardalarda toshmalar, yiringli tugunchalar paydo bo‘lish bilan namoyon bo‘ladigan, asosan qishda uchraydigan o‘tkir o‘tuvchi yuqumli kasallik. *Chechak bilan qo‘y, echki, cho‘chqa, qoramol, tuya, otlar, qushlardan tovuqlar, kurka va kaptarlar kasallanadi. Lekin chechak kasali bilan ko‘proq qo‘y, echki, cho‘chqa va qushlar og‘riydi* [O‘TIL, VI, 768].

Chechak II Tabiiy ravishda o‘sadigan gulli o‘simlik; gul. *Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo‘y hididan mast.* M.Osim, Karvon yo‘llarida. *Shamollar ichida men ham bir shamol, Chechaklar atridan men ham sarmastman.* A.Oripov [O‘TIL, VI, 768].

Manqa I Asosan surunkali o‘tishi, shilimshiq qavatlar, teri hamda ichki organlarda kazeoz chirishiga moyil bo‘lgan tugunchalarni, yaralarning paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladigan toq tuyoqli hayvonlarga xos yuqumli kasallik. *Manqa bilan kasallangan mollar yo‘qotiladi. Shuningdek, kasallikning oldini olish va u bilan kurashga ko‘plab mablag‘ sarflanadi.*

Manqa bilan odamlar ham kasallanadi [O‘TIL, III, 98].

Manqa II **1** Dimog‘ida gapiruvchi. *Shu payt Eshon machitdan manqa manqa so‘fining pang ovozi eshitildi.* H.G‘ulom, Toshkentliklar. **2** *shv.* Mishiq [O‘TIL, III, 98].

Dabba I **1** *ot* Ichki a’zolarning o‘zi joylashib turgan bo‘shliqdan shu bo‘shliq devori orqali tashqariga turtib chiqishi yoki pastga – moyakdonga tushishidan iborat kasallik; churra. *Qorin dabbasi.*

2. *sft* Shunday kasallikka chalingan, mubtalo bo‘lgan (odam yoki jonivor) *Dabba odam. Dabba ot.*

3. *ko‘chma dag‘l.* Sudralgan, yurishmay qolgan ish, kasod bo‘lgan mol; dangasa va ishyoqmas odam va shu kabilar haqida. *Nima balo dabbamisan, yotganing yotgan. Dabba mol. Bu hafta bozor dabba.* [O‘TIL, I, 733].

Dabba II Juvozkashlarning charmdan yoki metaldan yasalgan va yog‘, umuman, suyuqlik quyib ichadigan idishi [O‘TIL, I, 733].

Bo‘ka I Ba’zi hasharotlarning tuxumidan chiqadigan, qo‘shqanotlilar turkumiga mansub qurt (o‘qaloq); hayvonlarning terisi ostida, oshqozonida, burnida parazitlarcha yashab yetiladigan, qo‘shqanotlilar turkumiga mansub hasharotlarning umumiy nomi. Qo‘y bo‘kasi. Qoramol bo‘kasi. *Men yetib borgunimcha, o‘t chimdib turadi, yetib borganimdan keyin menga bir qarab qo‘yadi-da, xuddi sag‘risiga bo‘ka tushganday yana o‘ynoqlab qochadi, - dedi shum bola*. G‘. G‘ulom. [O‘TIL, I, 680].

Bo‘ka II *shv.* ***Sayg‘oq*** [O‘TIL, I, 680].

Bostiriq I Ovqat, dori va sh. k. usti-dan iste’mol qilinadigan boshqa ovqat yoki ichimlik. – *Bostiriqqa mana buni ichib yubor, bo‘tam, – dedi bosh yilqichi, Sokolovga qimiz tutib.* K.Yashin, Hamza. *Keyin bir ho‘plam choyni bostiriq kilib ichdi-yu, “Bolta” deb kimnidir chaqirdi.* K.Yashin, Hamza. [O‘TIL, I, 558]

Bostiriq II **1** Yaydoq ot ustiga yopib qo‘yiladigan qalin mato. *Boyning o‘ttiz besh bolorli keng cam yunasi egarlari olinib, bostiriq bilan yot , xo‘rakka qo‘yilgan otlar bilan to‘la edi.* S.Ayniy, Qullar. *Bedov otning bostirig‘i gullidir, Ot ustida o‘ti-rishi ballidir.* “Qo‘shiqlar”.

2 Kiyim-kechak choki ustidan yana bir bor bostirib tikish, bostirma chok. *Bostiriq qilib tikmoq.* [O‘TIL, I, 558]

Bo‘g‘oz I **1** Qornida bolasi bor (hayvonlar haqida). *Bo‘g‘oz sigir. Bo‘g‘oz sovliq. – Bo‘g‘oz quyonlarni homiladorlik davrida o‘z vaqtida sifatli ozuqa va toza suv berib parvarish qilish lozim.* “Fan va turmush”.

2 *s.t.* Homilador. *Tug‘ishiga to‘rt oy qolgan bo‘g‘oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *Bir necha bo‘g‘oz xotinlar kulishib, o‘zidan ketdi.* “Hasanxon”. [O‘TIL, I, 726]

Bo‘g‘oz II *geogr.* Ikki suv havzasini tutashtiruvchi tor suv yo‘li. *Gibraltar bo‘g‘ozi. – Dushmanni izma-iz quvib borayotgan qo‘shinlar bilan Abdullayevning vzvodi ham Kerch bo‘g‘oziga yetib bordi.* A.Rahmat, Qahramon sapyor. [O‘TIL, I, 726]

Bayir I **1** Qo‘lga o‘rgatilgan hayvon (asosan ot); jaydari. *Bayir ot. – ..rais bilan O‘ktam oyoq ustida bir piyoladan qaynoq choy ichishdi-da, qora bayir va qizil jiyronga minishdi.* Oybek, O.v.shabadalar. *Men uning yigitlariga bir kam to‘qson bayir berganman.* A. Muxtor, Qoraqalpoq qissasi.

2 *ko‘chma s.t.* Sharoitga ko‘nikib, qadrdon bo‘lib qolgan. *Taqsirim bayir xotinlarining ustiga.. o‘n to‘rt*

yashar qiz olib.. ishrat kamarini bog‘ladilar. “Mushtum”. [O‘TIL I, 321]

Bayir II Qumli cho‘llarda shamol oqi-batida paydo bo‘lgan botiqjoylar. *Bayirda kichik-kichik chuqurliklar bilan birga qator qum tepaliklari ham bo‘ladi.* “O‘zME”. [O‘TIL I, 321]

Burang I Buralgan, egri-bugri. *Burang yog‘och.* [O‘TIL, I, 639]

Burang II Qo‘y va echkilarda uchraydigan bir xil kasallik. *Mirzacho‘l, Ohangaron, Qarshi va Yozyovon cho‘llarida boqiladigan qo‘zi va uloqlar ko‘pincha burang deb ataluvchi kasallik bilan og‘riydi.* Gazetadan. [O‘TIL, I, 639]

Yem I **1** Hayvonlarga beriladigan g‘alla mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan ozuqa. Yem yegan ot to‘rvani teshar. Maqol. Yanga oxurdagi yemini yamlab yutayotgan sigirga qaradi. S.Nurov, Karvon. Tarlonga azonda besh kilo, tushda besh kilo, oqshomda ham shuncha arpa yem berdim. T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

2 Qo‘lda boqiladigan qushlarga beriladigan go‘sht.

3 Qarmoqqa yoki tuzoqqa ilintirib qo‘yiladigan go‘sht, chuvalchang va sh. k.

Baland (yoki **katta) oxurdan yem yemoq** Hayot, maishat darajasi yuqori bo‘lmoq (yakka shaxs haqida). Siz baland oxurdan yem yeb yurgan bolaga o‘xshaysiz. S.Siyoev, Yorug‘lik. Sen katta oxurdan yem yeb o‘rgangansan, chidolmaysan. A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. **Yem bo‘lmoq** Narsaga yoki kimsaga yemish bo‘lmoq, yirtqichlar og‘ziga tushib halok bo‘lmoq. Ikki shunqor talashsa, bir qarg‘aga yem bo‘lar. Maqol. **–**Turg‘unoy, – dedi Masshon, — shu yerda qoladigan bo‘lsak, bo‘riga yem bo‘lamiz. A.Qahhor, Maston. **Oq yem bo‘lmoq** Suvda ko‘p turib yoki chaynalaverib oqarib ketmoq (et yoki teri haqida). Og‘zidagi oq yem bo‘lib ketgan chandirni olib, namat tagiga qistirgan kampir.. yig‘lab yubordi. S.Ahmad, Hukm. [O‘TIL, VI, 170]

Yem II Ot oyoqlarida hosil bo‘ladigan chiqiq, shish kasalligi. Otning oyog‘iga yem tushsa, oyog‘i qotib qoladi. Paylari dirillab uchadi. T.Murod, Ot kishnagan oqshom.

Oyog‘ingga yem tushganmi? Sekin, sudralib yuradigan (qadam tashlaydigan) odamga nisbatan qo‘llanadigan ibora. [O‘TIL, VI, 170]

Bint I [*nem.* Binge – bog‘ich, bog‘] Yaralarni bog‘lashga mo‘ljallangan doka (bo‘z, flanel, lenta va b.)...*bint tayyorlash sexida Buviniso Mannonova yetakchilik qilayotgan brigada a’zolari boshqalarga o‘rnak bo‘lmoqda.* Gazetadan. *Teskari amaki bint bilan chandilgan qo‘llarimga qarab qo‘yib, tag‘in piching qildi.* S.Siyoev, Yorug‘lik. [O‘TIL, I, 467]

Bint II *esk.* Xotin-qizlar ismidan keyin “qizi” ma’nosini bildirib keladigan so‘z. *Kumushbibi binti Mirzakarimboyga.. Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lidan.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. [O‘TIL, I, 467]

Shuningdek, veterinariya terminologiyasiga tegishli bo‘lgan manqa, bez, bint, bichmoq, bog‘lam, bo‘ka, dabba, mushak va shu kabi bir qator terminlar qo‘llanishida ham shakldoshlik xususiyatlari o‘ziga xos ichki qonuniyat asosida yuzaga kelganligidan dalolat berib turibdi.

Xullas, chorvachilik va veterinariya terminologik tizimida omonimiklik o‘ziga xos tarzda yuzaga kelishi natijasida nafaqat boshqa sohalar, balki uning o‘zaro ichki bo‘linmalari doirasida ham yuzaga kelishini tadqiq etish terminologiya fani oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Birinchi jild. – Тошкент: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2023.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Ikkinchi jild. – Тошкент: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2023.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Uchinchi jild. – Тошкент: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2023.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. To‘rtinchi jild. – Тошкент: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2023.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Beshinchi jild. – Тошкент: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2023.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. Oltinchi jild. – Тошкент: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2023.
7. Шопўлатов Ж. Ветеринария асослари. – Тошкент: “Меҳнат”, 1993 .
8. Salimov Y. Veterinariya farmakologiyasi. – Toshkent: “Noshir”, 2019.

Shaxnoza NORKULOVA,
TerDPI mustaqil izlanuvchisi
shaxnoza_norkulova@tues.uz
ORCID: 0009-0008-7546-7613

BOQIRG‘ONIY LIRIKASIDA MATN MUAMMOSI VA TEKSTOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya: mazkur maqolada Boqirg‘oniy lirikasida matn muammosi va asarlarni tekstologik tahlil qilish masalalari yoritiladi. Shoir ijodiy merosidagi matnlarning mazmuniy yaxlitligi, badiiy xususiyatlari, matn variantlari hamda ularni o‘rganishning ilmiy-nazariy jihatlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, lirik asarlarning mazmunini to‘g‘ri anglash va talqin etishda tekstologik tahlilning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Boqirg‘oniy, lirika, matn muammosi, tekstologik tahlil, badiiy matn, matn yaxlitligi, matn variantlari, ilmiy talqin.*

Аннотация: в статье рассматриваются проблемы текста и вопросы текстологического анализа лирики Бокыргани. Особое внимание уделяется смысловой целостности текстов, их художественным особенностям, вариантам произведений и научно-теоретическим аспектам их изучения. Также раскрывается значение текстологического анализа для правильного понимания и интерпретации содержания лирических произведений поэта.

Ключевые слова: *Бокыргани, лирика, проблема текста, текстологический анализ, художественный текст, целостность текста, варианты текста, научная интерпретация.*

Annotation: this article examines textual problems and the principles of textological analysis in Boqirg‘oniy’s lyrical works. Particular attention is paid to the semantic integrity of texts, their artistic features, textual variants, and the theoretical aspects of their scholarly study. The article also highlights the importance of textological analysis in accurately understanding and interpreting the meaning of the poet’s lyrical works.

Key words: *Boqirg‘oniy, lyric poetry, textual problems, textological analysis, literary text, textual integrity, textual variants, scholarly interpretation.*

Har qanday mumtoz asarni ilmiy o‘rganish, avvalo, uning matniy asoslarini — qo‘lyozma va bosma manbalarini aniqlash, tavsiflash va qiyoslashdan boshlanadi. Sulaymon Boqirg‘oniy lirikasi misolida bu vazifa o‘ziga xos murakkablik kasb etadi, chunki shoir merosi asrlar davomida og‘zaki va yozma yo‘l bilan tarqalib, ko‘plab o‘zgarish va qo‘shimchalarga uchragan.

“Boqirg‘on kitobi”ning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari turli kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi. Ular orasida matn hajmi, hikmatlar tartibi va soni jihatidan sezilarli tafovutlar mavjud. Bu holat asarning yagona, qat’iy belgilangan matnga ega emasligini, balki “ochiq” to‘plam sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.[1]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “Boqirg‘on kitobi” Qozonda toshbosma usulida bir necha marta chop etilgan. Qozon nashrlari kitobning Volgabo‘yi va O‘rta Osiyo turkiy xalqlari orasida keng yoyilishida muhim rol o‘ynadi. Toshkentda ham asar toshbosma shaklida nashr qilingan. Bu nashrlar matnning umumiy turg‘un qatlamini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ularda ham o‘zaro farqlar uchraydi.[2]

Mustaqillik yillarida milliy ma’naviy merosga e’tibor kuchayishi natijasida “Boqirg‘on kitobi”ning zamonaviy o‘zbek alifbosidagi nashrlarini tayyorlashga harakat qilindi. Bunday nashrlar keng kitobxon ommasini shoir merosi bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etdi, biroq ularning aksariyati ilmiy-tanqidiy emas, ommabop xarakterga ega bo‘lib qoldi. Demak, asarning to‘liq ilmiy-tanqidiy matnini yaratish hanuz dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Qozon toshbosma madaniyati XIX asrda turkiy-musulmon yozma merosini ommalashtirishda alohida o‘rin tutdi. Aynan shu davrda “Boqirg‘on kitobi” singari diniy-tasavvufiy to‘plamlar ko‘plab nusxalarda chop

1 Mumtoz turkiy yodgorliklar matnshunosligi tamoyillari haqida qarang: Бертельс Е.Э. Избранные труды. История литературы и культуры. – Москва: Наука, 1988. – С. 211–230.

2 Toshbosma nashrlar tavsifi uchun qarang: Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent, 1991. 30–35-b.

etilib, madrasa va xonadonlarga kirib bordi. Toshbosma nashrlar matnni nisbatan barqarorlashtirgan bo‘lsa-da, ular ilmiy-tanqidiy tamoyillarga emas, balki amaliy-diniy ehtiyojga asoslangan edi. Shu bois ularda matn tanlash va tartiblashda izchillik har doim ham saqlanmagan.

Qo‘lyozma va toshbosma nusxalarni tavsiflashda quyidagi ko‘rsatkichlar e’tiborga olinadi: nusxaning yaratilgan davri va joyi; xati va imlosi; hajmi (hikmatlar soni); matn tartibi; boshqa nusxalar bilan munosabati. Bu ko‘rsatkichlar asosida nusxalar tasniflanadi va ularning o‘zaro qarindoshligi (shajarasi) aniqlanadi. Afsuski, Boqirg‘oniy merosi nusxalarining to‘liq ilmiy katalogi va tavsifi hanuz yaratilgani yo‘q.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mumtoz turkiy yodgorliklar, jumladan hikmat to‘plamlarining matnshunosligi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Bu yo‘nalishda matnni tiklash, sanalash, lokalizatsiya qilish va atributsiya masalalari hal etiladi. Boqirg‘oniy merosi ham aynan shunday kompleks matnshunoslik tadqiqotini talab qiladi.[3]

Sulaymon Boqirg‘oniy merosini o‘rganishdagi eng murakkab masala — mualliflik (atributsiya) muammosidir. Tadqiqotchilar bir ovozdan ta’kidlaydilarki, “Boqirg‘on kitobi” tarkibidagi barcha hikmatlarni so‘zsiz Sulaymon Boqirg‘oniy qalamiga mansub deb hisoblash ilmiy jihatdan asossizdir.

Bu fikrni dastlab izchil asoslagan olim Mehmed Fuad Köprülü bo‘ldi. U turkiy tasavvuf adabiyotidagi “muallif nomi ostida to‘plam shakllanishi” hodisasini tahlil qilib, Yassaviy va Boqirg‘oniy kabi mashhur pirlar nomi bilan keyingi davr shoirlari ham hikmatlar bitganini, bu hikmatlar vaqt o‘tishi bilan asl muallif merosiga qo‘shilib ketganini ko‘rsatdi.[4]

Bunday hodisaning yuzaga kelishining bir necha sababi bor. Birinchidan, tasavvuf an’anasida shaxsiy shuhrat emas, balki g‘oya va tariqat ustuvor sanalgani uchun, shoirlar ko‘pincha o‘z hikmatlarini ustozi yoki mashhur pir nomidan tarqatishni ma’qul ko‘rganlar. Ikkinchidan, hikmatlar og‘zaki ijro etilib, xotira orqali avloddan-avlodga o‘tgani uchun, ularning mualliflig‌i unutilib, mashhur nomga nisbat berilavergan. Uchinchidan, taqlid (nazira) an’anasi tufayli Boqirg‘oniy uslubida bitilgan asarlar uning merosi tarkibiga singib ketgan.

Atributsiya muammosini hal qilishda tadqiqotchilar bir necha mezonga tayanadilar: hikmatdagi taxallus (maqta’da kelgan shoir nomi), til va uslub xususiyatlari, tarixiy-madaniy ishoralar hamda g‘oyaviy mazmunning Yassaviya an’anasiga mosligi. Maqta’da “Sulaymon”, “Hakim”, “Hakim Ota” taxalluslari kelgan hikmatlar shoir merosining ishonchliroq qatlamini tashkil etadi.[5]

Shu tariqa, Boqirg‘oniy merosini o‘rganishda uni ikki qatlamga ajratish maqsadga muvofiq: birinchisi — taxallus, til va g‘oyaviy mezonlar bo‘yicha shoirning o‘ziga tegishli deb e’tirof etiladigan asl hikmatlar; ikkinchisi — uning nomi va uslubida keyinchalik yaratilgan, to‘plamga qo‘shilgan she’rlar. Bunday ajratish shoirning haqiqiy badiiy qiyofasini tiklashda muhim ahamiyatga ega.

Atributsiya muammosini chuqurroq tushunish uchun “muallif” tushunchasining mumtoz sharq adabiyotidagi o‘ziga xosligini hisobga olish lozim. Zamonaviy adabiyotdan farqli ravishda, mumtoz an’anada matn ko‘pincha “ochiq” bo‘lib, kotiblar, hofizlar va keyingi shoirlar tomonidan o‘zgartirilishi, to‘ldirilishi mumkin edi. Tasavvuf she’riyatida bu hol yanada kuchli, chunki bu yerda asar shaxsiy mulk emas, balki umumiy ma’naviy meros sifatida qabul qilingan.

Taxallus mezoni atributsiyada eng ishonchli ko‘rsatkichlardan biri hisoblansa-da, u ham mutlaq emas. Chunki taqlid (nazira) yo‘li bilan yozilgan hikmatlarda keyingi shoirlar asl muallif taxallusini saqlab qolishlari yoki o‘z hikmatlarini unga nisbat berishlari mumkin edi. Shu bois taxallus mezoni boshqa — til, uslub, g‘oyaviy mazmun va tarixiy ishoralar mezonlari bilan birgalikda qo‘llanilishi kerak.[6]

Mualliflik muammosi turkiy tasavvuf adabiyotigagina xos emas. Fors tasavvuf she’riyatida ham mashhur shoirlar — masalan, Attor yoki Mavlono nomi bilan keyingi asarlarning tarqalishi kuzatiladi. Bu — butun tasavvuf adabiyoti uchun umumiy qonuniyat bo‘lib, uning ildizi tariqat madaniyatining shaxsdan ko‘ra g‘oyani ustun qo‘yuvchi tabiatiga borib taqaladi. Boqirg‘oniy merosidagi atributsiya muammosi ham shu kontekstda tushunilishi lozim.

Turli nusxalardagi matniy tafovutlar (variantlar) mumtoz asar tarixini o‘rganishning muhim manbasidir. “Boqirg‘on kitobi”ning nusxalarini qiyoslaganda quyidagi turdagi tafovutlar kuzatiladi: ayrim so‘z va iboralarning almashinishi; misra yoki baytlarning tushib

3 Mumtoz manbashunoslik metodologiyasi haqida qarang: Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyoti manbashunosligi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. 24–58-b.

4 Köprülü M.F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – Ankara, 1976. – B. 88–92.

5 Taxallus (maxlas) orqali muallifni aniqlash usuli haqida qarang: Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2009. 145–152-b.

6 Atributsiyada kompleks mezonlardan foydalanish haqida qarang: Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. 102–115-b.

qolishi yoxud qo‘shilishi; hikmatlar tartibining o‘zgarishi; imloviy va fonetik farqlar.

Bunday tafovutlarning yuzaga kelishi bir necha omil bilan izohlanadi: hikmatlarning og‘zaki tarzda ijro etilishi va xotira orqali tarqalishi; kotiblarning matnni o‘z shevasiga moslab ko‘chirishi; turli davr va hududlarda til me’yorlarining o‘zgarishi. Shu bois matniy tafovutlar nafaqat tekstologik, balki tarixiy-lingvistik jihatdan ham qimmatli ma’lumot beradi.[7]

Qiyosiy tekstologik tahlilning maqsadi — mavjud nusxalarni o‘zaro solishtirish orqali asarning eng ishonchli, asl holatga yaqin matnini tiklashdir. Bu jarayonda nusxalarning yoshi, ishonchliligi va o‘zaro qarindoshligi (nusxalar shajarasi) hisobga olinadi. Eng qadimgi va mukammal nusxalar tayanch matn sifatida tanlanadi, qolganlari esa qiyosiy material vazifasini bajaradi.

Qiyosiy tekstologik tahlilda matniy tafovutlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: mexanik (kotib xatosi, tushib qolish, takrorlanish) va ijodiy (ataylab kiritilgan o‘zgarish, tahrir, qo‘shimcha). Birinchi guruh tafovutlar asl matnni tiklashda inobatga olinmaydi, ikkinchi guruh esa matn tarixi va uning qabul qilinishi (retseptsiyasi) haqida ma’lumot beradi. Shu bois har bir tafovutni baholashda uning tabiatini aniqlash muhim.

Matnshunoslik nazariyasida “tayanch nusxa” (asosiy nusxa) va “qiyosiy nusxalar” tushunchalari markaziy o‘rin tutadi. Tayanch nusxa — eng qadimgi, ishonchli va to‘liq nusxa bo‘lib, ilmiy-tanqidiy matn aynan uning asosida tuziladi. Qolgan nusxalardagi farqlar esa ilmiy apparatda (matn ostidagi tafovutlar ro‘yxatida) qayd etiladi. Bunday yondashuv asarning matniy tarixini to‘liq aks ettirish imkonini beradi.[8]

Boqirg‘oniy lirikasi misolida ilmiy-tanqidiy matn yaratish — kelajak tadqiqotlarning muhim vazifasidir. Bunday matn shoir merosini ham ilmiy, ham badiiy jihatdan to‘g‘ri baholash, uning poetik mahoratini xolisona ochib berish imkonini beradi. Mazkur monografiyada esa mavjud nashrlar asosida shoir lirikasining g‘oyaviy-poetik tahliliga e’tibor qaratiladi.

7 Matniy tafovutlarni tahlil qilish metodikasi haqida qarang: Бертельс Е.Э. Избранные труды. – Москва: Наука, 1988. – С. 218–229.

8 Ilmiy-tanqidiy matn tuzish tamoyillari haqida qarang: Бертельс Е.Э. Избранные труды. – Москва: Наука, 1988. – С. 222–230.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat / Nashrga tayyorlovchi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.
2. Boqirg‘on kitobi. – Qozon: toshbosma nashri, XIX–XX asrlar.
3. Boqirg‘on kitobi / Nashrga tayyorlovchilar va so‘zboshi mualliflari. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
4. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Hakim Ota kitobi (manoqib) / Qo‘lyozma va toshbosma nusxalar.
6. Köprülü M.F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1976.
7. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009.
8. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
9. Haqqul I. Irfon va idrok. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998
10. Rahmonov N. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
11. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1977.
12. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
13. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
14. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent: Fan, 1970.
15. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumtoz adabiyoti manbashunosligi. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
16. Eraslan K. Ahmed-i Yesevî: Dîvân-ı Hikmet’ten Seçmeler. – Ankara: Kültür Bakanlığı, 1991.
17. Bice H. Hoca Ahmed Yesevî: Dîvân-ı Hikmet. – Ankara: TDV Yayınları, 2010.
18. Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
19. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
20. Norkulova Sh.T. Ahmad Yassaviyning Turkiston madaniy hayotidagi o‘rni. “New renaissance” xalqaro ilmiy jurnali. 2025/09/21

Aqida MAVLONOVA

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDAGI ADABIY PARCHALARNING JANR VA POETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida saqlangan she’riy parchalar janriy va poetik jihatdan tahlil qilinadi. Marsiya, qahramonlik, ov, mavsum, bayram va ishqiy qo‘shiqlarga xos mavzu, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilish hamda ifoda vositalari qiyosiy o‘rganiladi. Manzumalarning vazn va qofiya xususiyatlari, grammatik parallelizm, tashbeh, tashxis va mubolag‘aning badiiy vazifasi yoritiladi. Ayrim matniy variantlar misolida lug‘aviy izoh bilan poetik talqin o‘rtasidagi munosabat aniqlanadi. She’riy parchalarni tasniflashda mavzu va shakl bilan cheklanmay, voqea, lirik kechinma va badiiy vositalarning o‘zaro aloqasini ham hisobga olish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”, qadimgi turkiy she’riyat, janr, poetika, marsiya, qahramonlik qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari, ishqiy lirika, tashbeh, qofiya.*

Annotation: this article examines the genre characteristics and poetics of the verse excerpts preserved in Mahmud al-Kashgari’s *Dīwān Lughāt al-Turk*. It offers a comparative analysis of the themes, imagery, composition, and expressive devices of elegies, heroic and hunting songs, seasonal and festive songs, and love lyrics. Particular attention is given to metre and rhyme, grammatical parallelism, simile, personification, and hyperbole. Selected textual variants are discussed to clarify the relationship between lexical explanation and poetic interpretation. The article argues that the classification of these excerpts requires attention not only to theme and form but also to the interaction of narrative action, lyrical experience, and poetic devices.

Key words: *Mahmud al-Kashgari, Dīwān Lughāt al-Turk, Old Turkic poetry, genre, poetics, elegy, heroic songs, seasonal songs, love lyrics, simile, rhyme.*

Аннотация: *в статье анализируются жанровые и поэтические особенности стихотворных фрагментов, сохранившихся в произведении Махмуда Кашгари «Дивану лугат ат-тюрк». В сравнительном аспекте рассматриваются тематика, система образов, композиционное построение и художественно-выразительные средства марсий, героических, охотничьих, сезонных, праздничных и любовно-лирических песен. Исследуются особенности стихотворного размера и рифмовки, художественные функции грамматического параллелизма, сравнения, олицетворения и гиперболы. На примере отдельных текстовых вариантов раскрывается взаимосвязь лексического толкования и поэтической интерпретации. Обосновывается необходимость учитывать при жанровой классификации не только тематику и форму произведений, но и взаимодействие повествовательного действия, лирического переживания и художественных средств.*

Ключевые слова: *Махмуд Кашгари, «Дивану лугат ат-тюрк», древнетюркская поэзия, жанр, поэтика, марсия, героические песни, сезонные песни, любовная лирика, сравнение, рифма.*

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy tillar tarixi bilan bir qatorda, qadimgi turkiy she’riy an’analarni o‘rganishda ham muhim manbadir. Muallif so‘zlarning ma’nosi va qo‘llanishini izohlash uchun maqollar, hikmatli iboralar va she’riy parchalardan foydalanadi. Ayniqsa, marsiya, qahramonlik, muhabbat hamda tabiatga oid manzumalar turkiy xalqlarning dunyoqarashi va badiiy tafakkuri haqida tasavvur beradi.

“Devon”dagi bayt va to‘rtliklar mustaqil she’riy to‘plam tarzida emas, lug‘atning turli o‘rinlarida misol sifatida keltirilgan. Ayrimlari alohida olinganda ham tugallangan fikrni ifodalasa, boshqalari kengroq matnning uzindisi bo‘lishi mumkin. Biroq mavzu yoki qofiya yaqinligi ularni yagona asar tarkibiga kiritish uchun yetarli dalil emas. Q.Sodiqov ham tarqoq she’riy parchalarni sun’iy ravishda bir doston yoki bir necha qo‘shiqqa jamlashdan ogohlantiradi [Sodiqov, 2025: 27]. Shu sababli ularni turkumlashtirishda matnning saqlanish holati, mazmuni va shakliy belgilarini birgalikda hisobga olish lozim.

Bu masalaga dastlab tizimli yondashgan olimlardan biri Abdurauf Fitratdir. U “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasida “Devon”dagi she’riy parchalarni o‘zaro aloqadorligiga ko‘ra guruhlashga uringan. O.Hamroyevaning ta’kidlashicha, Fitrat mavzu, janr, vazn va mazmuniy yaqinlikka e’tibor berib, majmuaning dastlabki qismidagi namunalarni o‘n to‘rt sarlavha

ostida birlashtirgan [Hamroyeva, 2023: 37-38]. Bu tajriba manzumalarni lug‘aviy misol sifatida emas, adabiy meros sifatida ham o‘rganishga yo‘l ochgan. Shunga qaramay, janrni aniqlashda tasvir predmeti bilangina cheklanib bo‘lmaydi: bir mavzu marsiya, qahramonlik yoki lirik qo‘shiqda boshqa-boshqa badiiy vazifa bajarishi mumkin. Shuning uchun voqea va kechinmaning nisbati, nutq yo‘nalishi, obrazlar tizimi hamda kompozitsion qurilish ham muhim mezondir.

“Devon”dagi marsiyalar o‘lim va ayriliq iztirobini zamon haqidagi tasavvurlar bilan uyg‘un ifodalaydi. Alp Er To‘nga vafotiga bag‘ishlangan mashhur to‘rtlik bunga misoldir:

Alp Er Toŋa öldimü?
Esiz, ažun qaldïmü?
***Öδ**läk öčin aldïmu?*
Emdi yüräk yïrtïlur [Koshg‘ariy, 2025: 44].

Dastlabki uch misradagi ritorik so‘roqlar bahodirning o‘limini qabul qilish qanchalik og‘irligini sezdiradi. Birinchi so‘roq yo‘qotishning o‘ziga, ikkinchisi undan ayrilgan dunyoga, uchinchisi esa zamonning shafqatsizligiga qaratilgan. ***Öδ**läk öčin aldïmu?* misrasida zamon o‘ch oluvchi kuch sifatida jonlantiriladi; *yüräk yïrtïlur* ifodasi esa ruhiy iztirobni jismoniy jarohat obrazi orqali ochadi. So‘roq ohangining so‘nggi misrada xabarga aylanishi fikrning izchil rivojini ta’minlaydi. Yetti bo‘g‘inli misralar va takroriy sintaktik qurilish marsiyaning motam ohangiga mos tushadi.

Boshqa bir parchada qayg‘u kishilarning tashqi harakatlari orqali gavdalanadi:

Ulïšïp erän börläyü,
Yïrtïn (yïrtïp?) yaqa urlayu,
Sïqrïp üni yurlayu,
*Sï**γ**tap közi örtülür* [Koshg‘ariy, 2025: 114].

Börläyü so‘zi faryodni bo‘ri uvillashiga qiyoslaydi. Yoqa yirtish, nola qilish va yig‘idan ko‘zlarning yosh bilan qoplanishi bir-birini to‘ldirib, jamoaviy motam manzarasini yaratadi. *Börläyü – urlayu – yurlayu* ohangdoshligi faryodning davomiyligini sezdirsa, so‘nggi misradagi ***örtülür*** shakli tasvirni ruhiy oqibat bilan yakunlaydi. Birinchi misra sakkiz, qolganlari yetti bo‘g‘inli ekani ham qayd etilgan [Sodiqov, 2025: 29]. Demak, bu to‘rtlikdagi ohang faqat bo‘g‘in tengligiga emas, tovush va sintaktik uyg‘unlikka ham tayanadi.

Mazkur parchaning ikkinchi misrasi 2025-yilgi “Turkiy so‘zlar devoni”da *Yïrtïn (yïrtïp?) yaqa urlayu*, Q.Sodiqov risolasida esa *Yïrtïp yaqa urlayu* shaklida berilgan [Koshg‘ariy, 2025: 114; Sodiqov, 2025: 29]. Birinchi nashrda o‘qishga doir ikkilanish saqlangan, ikkinchisida muayyan shakl tanlangan. Tafovut mazmunni tubdan o‘zgartirmasa-da, fe’lning grammatik talqini va misra qurilishini aniqlashda ahamiyatlidir. Fitrat ushbu marsiyaga aloqador deb hisoblagan to‘rtliklarni birlashtirishga harakat qilgan; O.Hamroyeva uning Fuad Ko‘prulu bilan bu boradagi qarashlari farqlanganini qayd etadi [Hamroyeva, 2023: 38-39]. Mazmun va ohangdoshlik parchalar o‘rtasidagi aloqani taxmin qilishga imkon bersa-da, ularning dastlab yagona kompozitsiyaga mansubligini qat’iy tasdiqlamaydi.

Marsiyada vafoti munosabati bilan ulug‘langan alp qahramonlik qo‘shiqlarida jang maydonidagi jasorati orqali namoyon bo‘ladi. G.Rahmatova “Devon”dagi jangnoma ruhidagi manzumalarni mavzu jihatidan tasniflab, ularda yakka bahodirning jasorati, jangchilarning hamjihatligi va harbiy yurishlar tasvirlanganini ko‘rsatadi [Rahmatova, 2018: 59-60]. Yakka qahramonning nutqi bilan berilgan quyidagi to‘rtlik bunga misoldir:

***Öpkäm kelip oγ**radïm,*
Arslanlayu kökrädim,
*Alplar bašïn to**γ**radïm,*
Emdi meni kim tutar? [Koshg‘ariy, 2025: 84].

Tasvir g‘azabdan jangovar harakatga, undan g‘alabaga qarab rivojlanadi. *Arslanlayu kökrädim* misrasidagi tashbeh jangchining qudrati va shiddatini arslon obrazi orqali ifodalaydi. *O**γ**radïm – kökrädim – to**γ**radïm* ohangdoshligi harakatlar ketma-ketligiga ritmik izchillik bag‘ishlaydi. Yakuniy *Emdi meni kim tutar?* ritorik so‘rog‘i marsiyadagi iztirobli savollardan farqli ravishda, qahramonning o‘z kuchiga ishonchini bildiradi.

*Alplar arï**γ** alqïšur* misrasi bilan boshlanuvchi boshqa to‘rtlikda esa kurash jamoaviy tus oladi [Koshg‘ariy, 2025: 134]. *Küč bir qïlïp arqašur* ifodasi jangchilarning birlashuvi va o‘zaro yordamini anglatadi. *Alqïšur – arqašur – alqašur* shakllarining grammatik hamda fonetik yaqinligi hamjihatlik g‘oyasini ritmik jihatdan mustahkamlaydi. Shunday qilib, qahramonlik tasviri faqat yakka bahodir qudrati bilan cheklanmay, umumiy maqsad yo‘lida birlashgan jangchilarning harakatini ham qamrab oladi.

Jangovar da’vat ohangi *Tünlä bilä köčälim* misrasi bilan boshlanuvchi to‘rtlikda yanada ravshan ko‘rinadi. Undagi *köčälim – kečälïm – ičälim* fe’llari birinchi shaxs ko‘plikdagi istak shaklida kelib, so‘zlovchining o‘zini ham safdoshlari qatoriga qo‘shadi [Koshg‘ariy, 2025: 266]. Fe’llarning misra oxirida takrorlanishi grammatik parallelizm hosil qiladi; ko‘chish, daryodan o‘tish va suv ichish harakatlari esa harbiy yurishning izchil bosqichlari sifatida beriladi. So‘nggi misradagi *uwulsun* shakli dushmanning mag‘lub bo‘lishiga qaratilgan tilakni bildirib, oldingi da’vatlarni umumiy jangovar maqsadga bog‘laydi.

Harakatlarning ketma-ket bayon qilinishi ov qo‘shiqlariga ham xos. *U**δ**u barïp öküš ewdim* misrasi bilan

boshlanuvchi to‘rtlikda ovchining o‘ljani ta’qib qilishi va uning atrofida ot bilan aylanishi hikoya qilinadi [Koshg‘ariy, 2025: 105]. *Barïp, yurïp, körüp* ravishdoshlari harakatlarni o‘zaro bog‘lasa, *ewdim – kewdim – ewdim* shakllari birinchi shaxs birlikdagi o‘tgan zamon bayonini va ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. So‘nggi misradagi ***aγdï*** fe’li bilan tasvir ovchining harakatidan o‘ljaning holatiga ko‘chadi. Jangovar manzumada birgalikdagi harakatga da’vat ustun bo‘lsa, ov qo‘shig‘ida boshdan kechirilgan hodisa va ovchining mahorati oldingi o‘ringa chiqadi.

Mavsum qo‘shiqlarida tasvir markazi inson faoliyatidan tabiatdagi o‘zgarishlarga ko‘chadi. Bahor manzarasi quyidagi to‘rtlikda ifodalangan:

*Qar, buz qamu**γ** erüšdi,*
*Ta**γ**lar suwï aqïšdï.*
Kökšin bulït örüšdi,
*Qay**γ**uq bolup egrišür* [Koshg‘ariy, 2025: 113].

Qor va muzlarning erishi, tog‘ suvlarining oqishi va bulutlarning ko‘tarilishi tasvirni yer yuzasidan osmon kengliklariga olib chiqadi. So‘nggi misrada bulutlarning harakati qayiqning suzishiga qiyoslanadi. *Erüšdi – aqïšdï – örüšdi* fe’llarining ohangdoshligi va grammatik parallelizmi dastlabki uch misrani bog‘lasa, hozirgi-kelasi zamon ma’nosidagi *egrišür* harakatni davom etayotgan jarayon sifatida gavdalantiradi. Shu tariqa zamon shakllarining almashinuvi ham tasvir dinamikasida ishtirok etadi.

Türlüg čečäk yazïldï misrasi bilan boshlanuvchi boshqa to‘rtlikda gullarga burkangan yer naqshinkor ipak gilamga, yashnagan borliq jannatga qiyoslanadi [Koshg‘ariy, 2025: 80]. *Barčïn ya**δïm kerildi*** ifodasidagi gilam obrazi tabiat go‘zalligini kundalik turmushga oid tasavvur bilan bog‘lasa, *Učmaq yeri körüldi* misrasi manzarani ideallashtiradi. Sovuqning qaytmasligi haqidagi yakuniy fikr bahor kelishi bilan bog‘liq yangilanish kayfiyatini mustahkamlaydi.

Mavsum qo‘shiqlarida fasllar almashinuvi o‘zaro kurash shaklida ham talqin etiladi:

Qïš yay bilä toquštï,
Qïŋïr közün baqïštï.
Tutušqalï yaqïštï,
*Ut**γ**alïmat o**γ**rašur* [Koshg‘ariy, 2025: 106].

Qish va yozning to‘qnashuvi, bir-biriga qing‘ir qarashi va g‘alabaga intilishi tashxis san’ati orqali berilgan. *Toquštï – baqïštï – yaqïštï* fe’llarining ohangdoshligi va o‘zaro harakat ma’nosi ziddiyatni bosqichma-bosqich kuchaytiradi; *o**γ**rašur* shakli esa kurashni davom etayotgan holatda ko‘rsatadi. *Ut**γ**alïmat* tarkibidagi maqsad ma’nosi va ta’kid yuklamasi raqiblarning yutishga intilishini belgilaydi [Sodiqov, 2025: 32]. Bunda jonlantirish alohida tasvir vositasigina emas, balki fasllarni munozara ishtirokchilariga aylantiruvchi kompozitsion asosdir. Shu bilan birga, alohida to‘rtlikka tayanib yaxlit munozara matnining tuzilishi haqida qat’iy xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Mavsum manzumalarida tabiat hodisalari tasvir markazida tursa, ishqiy lirikada asosiy e’tibor mahbuba husni va lirik qahramon kechinmalariga qaratiladi. Q.Sodiqov bunday she’rlarda tashbeh, nozik ta’rif va majoziy ifodalarning faol qo‘llanganini qayd etadi [Sodiqov, 2025: 32-33]. Mahmud Koshg‘ariy *ulas köz* (“xumor ko‘z”) birikmasini quyidagi to‘rtlik orqali izohlaydi:

Bulnar meni ulas köz,
Qara meŋiz, qïzïl yüz.
Andïn tamar tükäl tüz,
Bulnap yana ol qačar [Koshg‘ariy, 2025: 52].

Xumor ko‘z, qora xol va qizil yuz mahbuba portretini yaratadi; *Andïn tamar tükäl tüz* misrasida uning shirin so‘zliligi obrazli ifodalanadi [Sodiqov, 2025: 33]. *Bulnar – bulnap* o‘zakdosh shakllarining takrori dastlabki va so‘nggi misralarni bog‘laydi: avval oshiqni maftun etgan yor yakunda undan qochadi. *Köz – yüz – tüz* ohangdoshligidan keyin *qačar* bilan tugallangan misraning ajralishi mazmundagi burilishga hamohangdir. Shu tariqa portret tasviri yorning jozibasi va unga yetishish mushkulligi o‘rtasidagi ziddiyat bilan to‘ldiriladi.

Ishqiy kechinma so‘zning ko‘pma’noliligi orqali ham ifodalanadi:

İglädi menin**g **a**δ**aq,
*Körmä**δ**ip o**γ**rï tuzaq.*
İglädim andïn uzaq,
Emlägil emdi, tuzaq [Koshg‘ariy, 2025: 194].

Tuzaq dastlab “ov arqoni, tuzoq” ma’nosida keladi, yakunda esa sevikli yorga murojaat shaklini oladi [Sodiqov, 2025: 33-34]. Tuzoqqa ilinib qolish bilan muhabbat asiriga aylanish o‘rtasidagi majoziy bog‘lanish to‘rtlik mazmunini uyushtiradi. ***İglädi – iglädim*** shakllari jarohat va iztirobni, *emlägil* esa davolash haqidagi iltimosni ifodalaydi. Lirik qahramon o‘zini azobga solgan mahbubadan shifo kutadi; jarohat va davo qarama-qarshiligi she’rning asosiy badiiy ziddiyatiga aylanadi.

Tabiat obrazlari ishqiy lirikada ham turlicha vazifa bajaradi. *Kim ayïp, eštür qulaq: Ay ewi artuč butaq?* baytida mahbubaning yuzi oyga, bo‘y-basti sanubar daraxtiga qiyoslanadi [Koshg‘ariy, 2025: 193]. Q.Sodiqov izohlaganidek, tasvirda oy go‘yo sanubar butog‘ida turgandek ko‘rinadi [Sodiqov, 2025: 34]. Ikki tashbehning bitta manzarada uyg‘unlashuvi yor husniga g‘ayrioddiylik bag‘ishlaydi, so‘roq shakli esa hayrat ohangini yuzaga keltiradi.

*Aqturur közüm yulaq, Tüš qïlur ördäk, yu**γ**aq* baytida esa ko‘z yoshlari jilg‘aga qiyoslanib, unga suv qushlarining qo‘nishi tasvirlanadi [Koshg‘ariy, 2025: 421]. Dastlabki

misradagi tashbeh ikkinchisida mubolag‘ali manzaraga kengayadi: lirik qahramonning qayg‘usi qushlar qo‘na oladigan suv tasviri orqali anglashiladi. Bayt “Devon”ning boshqa bir o‘rnida *Aqturur közüm yolaq, Tüšlänür ördäk, yuγaq* ko‘rinishida ham keladi [Koshg‘ariy, 2025: 127]. *Yolaq* va *yulaq* lug‘atda mos ravishda “kichik yo‘l” va “jilg‘a” ma’nolarida izohlangani uchun birinchi misradagi variantlar leksik talqinga ta’sir qiladi; *tüšlänür* va *tüš qïlur* esa qushlarning qo‘nish harakatini turlicha grammatik qurilishda bildiradi. Har ikki o‘rinda ko‘z yoshi va suv manzarasining obrazli bog‘lanishi saqlangan. Bunday tafovutlar poetik tahlilda matnshunoslik kuzatishlari zarurligini ko‘rsatadi.

Manzumalarning badiiy yaxlitligini vazn, qofiya va sintaktik qurilishning o‘zaro aloqasi ham belgilaydi. Q.Sodiqov lirik to‘rtliklarning ko‘pi yetti bo‘g‘inli ekanini, *a-a-a-b, a-a-a-a, a-b-c-b* kabi qofiyalanish tartiblari, baytlarda esa *a-a* shakli uchrashini qayd etadi [Sodiqov, 2025: 32]. Biroq ritmni bo‘g‘inlar soni bilangina izohlash qiyin: so‘roq shakllari, fe’l qo‘shimchalari, tovush takrori va grammatik parallelizm ham ohang hosil qiladi. Halil Çeçen va Ramazan Sarıçiçek “Devon”dagi she’rlarning badiiy san’atlarini tizimli o‘rganib, ularga oid misollarni tasniflaganlar [Çeçen va Sarıçiçek, 2005: 162-184]. Ushbu vositalarning vazifasi matnning janriy yo‘nalishiga bog‘liq: ritorik so‘roq marsiyada iztirobni, qahramonlik qo‘shig‘ida g‘ururni, ishqiy baytda hayratni ifodalaydi. Demak, shakliy belgilarning ahamiyati ularning badiiy mazmun bilan munosabatida ochiladi.

Bu munosabat bayram va o‘yin-kulgu qo‘shiqlarida ham kuzatiladi. *Yigitlärig išlätü* misrasi bilan boshlanuvchi to‘rtlikda yigitlarni ishlatish, meva qoqtirish va hayvonlarni ovlatish bayramga tayyorgarlik sifatida tasvirlanadi [Koshg‘ariy, 2025: 144]. ***İšlätü – ïrγatu – awlatu*** shakllarining ohangdoshligi hamda parallel qurilishi dastlabki uch misradagi harakatlarni bog‘laydi. Yakuniy *Bäδräm qïlïp awnalïm* misrasi ularning maqsadini ochadi; *awnalïm* fe’lidagi birinchi shaxs ko‘plik istak shakli esa jamoaviy shodlikni ifodalaydi. Shunday qilib, mehnat va ov jarayonlari umumiy bayram kayfiyatiga bo‘ysundiriladi.

Keltirilgan parchalar epik va lirik ifoda belgilarini qat’iy ajratish har doim ham mumkin emasligini ko‘rsatadi. Jangovar she’rlarda harakat tasviri qahramonning kechinmalari bilan, marsiyalarda aniq voqea motam ohangi bilan uyg‘unlashadi. “Devon”da saqlangan matnlar turli davr va ijro an’analariga mansub bo‘lishi mumkinligi uchun ularni hozirgi janr qoliplariga to‘liq moslashtirish ham ehtiyotkorlikni talab etadi. Janr tasnifida mavzu, kompozitsiya, nutq shakli va poetik vazifani birgalikda ko‘rish, parchaning dastlabki yaxlit matnga mansubligi haqidagi taxminlarni esa matniy dalillar bilan chegaralash maqsadga muvofiq.

“Devon”ning lug‘aviy tuzilishi bu vazifani bajarishda alohida imkoniyat beradi. Muallifning izohlari *tuzaq*, *yulaq*, *ulas köz* singari birliklarning lug‘aviy va obrazli qo‘llanishini qiyoslashga yordam beradi. Biroq bir so‘zning ma’nosi uning ishtirokidagi she’rning barcha mazmunini qamrab olmaydi: poetik ma’no obrazlar o‘rtasidagi munosabat, ohang va kompozitsiya orqali shakllanadi. Shuning uchun lug‘aviy izoh matnni tushunish uchun asos bo‘lsa-da, mustaqil badiiy tahlilning o‘rnini bosa olmaydi.

Tadqiq etilgan namunalar qadimgi turkiy she’riyatda ixcham shakl orqali murakkab kechinma va voqealarni ifodalash imkoniyati shakllanganini ko‘rsatadi. Manzumalarda kundalik hayot va tabiatga oid tasavvurlar yangi poetik ma’no kasb etadi, ritmik hamda grammatik vositalar esa shu ma’noni ta’sirchan yetkazishga xizmat qiladi. “Devonu lug‘otit turk”ning adabiy qimmati ham ana shu janriy xilma-xillik va badiiy ifoda boyligini saqlab qolganidadir. Uning she’riy parchalarini keyingi mumtoz turkiy adabiyot bilan qiyoslash poetik an’analarning tarixiy rivojini yoritishi mumkin, biroq bunday davomiylikni faqat obrazlardagi o‘xshashliklarga emas, aniq matniy va tarixiy dalillarga tayangan holda belgilash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Çeçen H., Sarıçiçek R. Divanü Lügat-it-Türk’te Geçen Şiirlerde Edebî Sanatlar // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten, 2005, C. 53. – S. 162-184.
2. Hamroyeva O. Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari. – Toshkent: Bookmany print, 2023. 84-b.
3. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni [Dīvānu luġāti-t-türk] / Nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2025. 624-b.
4. Rahmatova G. “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi jangnoma she’rlar tasnifi // Sharqshunoslik, 2018, № 2. 59-64-b.
5. Sodiqov Q. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025. 44-b.

Xayrulla RAXMATOV,
O‘zMU Jizzax filiali “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi
xayrulla.raxmatov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-7769-0706

BUXORO AMIRLIGI AHOLISINING ETNIK VA ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi xususidagi tadqiqotchining fikr-mulohazalari qisqacha bayon qilingan. Unda asosan Buxoro amirligining ma’muriy-hududiy tuzilishi, aholisi, aholi tarkibi, etnik guruhlarning joylashgan hududi, so‘zlashuv tili haqida so‘z boradi. Shuningdek, muallif maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligi vohasi aholisining etnik tarkibi va etnotoponimlar masalasini o‘rganishda Zarafshon vodiysi ayniqsa muhim o‘rin tutishiga e’tibor qaratgan.

Kalit so‘zlar: *etnos, etnogenez, amirlik, chegara, Turkiston, Zarafshon vodiysi, o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, arablar, afg‘onlar, toponim, qo‘ng‘irot, etnotoponim*

Аннотация: в статье кратко изложены взгляды исследователя на этнический состав населения Бухарского эмирата во второй половине XIX - начале XX веков. В нём освещается вопросы административно-территориального устройства Бухарского эмирата, его населения, структуры населения, территории этнических групп, языка, на котором они говорили.Автор также уделяет внимание на то, что Зерафшанская долина сыграла особо важную роль в исследование этнического состава населения оазиса Бухарского эмирата в начале XX века и проблемы изучение этнотопонимов.

Ключевые слова: *этнос, этногенез, эмиратство, граница, Туркестан, Зерафшанская долина, узбеки, таджики, туркмены, арабы, афганцы, топоним, кунгират, этнотопоним.*

Annotation: this article includes the researcher’s standpoint on the ethnic composition of the population of the Emirate of Bukhara in the second half of the XIX - early XX centuries. It basically, deals with the administrative-territorial structure of the Emirate of Bukhara, its population, population structure, the territory of ethnic groups, the language of communicatio. Furthemore, the author of the article paid special attention to the role of the Zarafshan valley in the study of the ethnic composition and ethno-toponyms of the population of the Bukhara emirate in the early twentieth century.

Key words: *ethnos, ethnogenesis, emirate, border, Turkestan, Zarafshan valley, Uzbeks, Tajiks, Turkmens, Arabs, Afghans, toponym, bell, ethnotoponym.*

Kirish. O‘zbekiston tarixi, ajdodlarimiz madaniy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ta’lim-tarbiya sohasida undan keng foydalanish o‘sib kelayotgan avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ma’naviyatning asosi bo‘lmish tarix, o‘tmish voqeligi milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirishga, tarixiy xotira esa insonni o‘zligini tanitishga, irodasini mustahkamlashga, uning dunyoqarashini kengaytirishga ko‘mak beruvchi katta kuch hisoblanadi.

Asosiy qism. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi natijasida yuksak bilimli va intellektual rivojlangan, ma’naviy barkamlol avlodni yuzagakeltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Mazkur sohada erishilgan yutuqlar hozirgi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan haqli tarzda e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgan kundan boshlab uning hududida yashagan xalqlarning etnik tarixi, kelib chiqishi, shakllanish jarayonlari, milliy qadriyatlarga aylangan asriy an’analarini o‘rganishga alohida e’tibor berila boshlandi [1] [1.4-b.].

Etnogenez jarayonida etnosni belgilovchi hududiy omillar: til va etnik nom birligi, etnomadaniy birlik, ijtimoiy-iqtisodiy va xo‘jalik, etnonim hamda o‘zlikni anglash, xususiyat, fazilatlar birligi, siyosiy uyushma birligi, din umumiyligi va boshqa bir qator etnik alomatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Zarafshon vohasining, xususan, vohaning yuqori qismi toponimiyasi A.L.Xromov tomonidan maxsus o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchi tog‘lik hududlardagi yuzlab joy nomlari (qishloq, mavze, gidronim, oronim va h.k.)ni tarixiy etimologik jihatdan tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotchi Zarafshonning yuqori qismi toponimlarining katta bir qismini sug‘diy toponimlar tashkil qilishini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, vohaning ushbu tog‘lik hududlaridagi ko‘plab joy nomlari turkiy asosda, xususan, qadimgi turkiy negizda izohlanishi diqqatga sazovordir. A.L.Xromovning fikricha, bu holat vohada qadimdan sug‘diy va turkiy etnoslar o‘zaro qo‘shni va aralash yashagan. 1960-1970 yillarda o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, etnik tarkibi hamda mintaqalardagi qator subetnoslar bo‘yicha B. Ahmedov, A.Asqarov, K.Sh. Shoniyozov, M. Ermatov, X. Doniyorov, X. Toshev kabi olimlarning fundamental monografiya va tadqiqotlari nashr etildi. Shuningdek, S. Qorayev, U. To‘ychiyev kabi toponomist va elshunos olimlarning tadqiqotlarida ham mintaqaning etnogenezi bo‘yicha muhim ma’lumotlar mavjud. Akademik B.Ahmedov esa o‘z izlanishlarida ko‘chmanchi o‘zbeklarning siyosiy faoliyati, ularning vohaga kirib kelish va tarqalish jarayonlariga, shuningdek, Shayboniy sulolasi vakillarining Zarafshon vohasida o‘tkazgan yer-suv islohotlari, aholining Nurota va Zarafshon

vohalarida joylashuvi masalalariga birmuncha to‘xtalib o‘tgan. Yirik etnograf olim K. Shoniyozov esa o‘zbeklarning etnik tarixida katta o‘rin tutgan urug‘-qabilalarga, xususan, o‘zbeklarning qipchoq va qarluq komponentlariga bag‘ishlab yozgan maxsus monografiyalarida Zarafshon vohasiga e’tibor qaratgan.

Tadqiqot natijalari.

Shu o‘rinda fikrimizni Buxoro amirligiga qaratsak: XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi chegaralari Amudaryoning so‘l qirg‘oqlari bo‘ylab cho‘zilib, Shimoliy Afg‘oniston, Janubiy Turkmanistonning Murg‘ob daryosi vohasidagi yerlar, hozirgi Tojikistonning janubiy rayonlari, O‘zbekistonning markaziy qismi, ya’ni Zarafshon daryosi, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylaridagi serhosil yerlar va aholisi zich joylashgan Buxoro, Samarqand, Qarshi, Chorjo‘y, Termiz va Kerki kabi yirik shaharlarni qamrab olgan. Amirlik g‘arbiy tomondan Xiva xonligi, sharqiy tomondan esa Qo‘qon xonligi bilan chegaradosh edi. O‘rta Osiyo xonliklari orasida Buxoro amirligi o‘zining hududi, aholisi va tabiiy zaxiralari jihatidan muhim mavqega ega edi. Bizga ma’lumki, XVI-XVIII asrlarda va undan keyin ham O‘zbekiston hududida rasmiy til o‘zbek tili edi. Tojik tili o‘zbek aholisining ma’lum qismi uchun (xususan, Zarafshon vodiysining ayrim shahar va tog‘li qishloqlarida) ikkinchi til hisoblangan[1] [3.273-b.]. Eski o‘zbek tili Movarounnahrda tojik-fors tili bilan juda yaqin vad doimo uzviy aloqada rivojlandi. Shuning uchun bo‘lsa kerak,

Movarounnahr aholisining talay qismi, ayniqsa, ziyolilar tabaqasi ikki tilda: turkiy va tojik tilida so‘zlashar va yoza olar edi. Buxoro amirligi aholisning katta qismini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lib, ko‘plab o‘zbek urug‘lari vakillari amirlikning deyarli barcha hududlarida yashaganlar. Aholi tarkibida bo‘lgan tojiklar Samarqand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog‘li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko‘lob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabog‘ bekliklarida, Zarafshonning yuqori qismida istiqomat qilganlar. Shuningdek, turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta qismini tashkil etgan. Ular amirlikka qarashli bo‘lgan Amudaryoning ikki qirg‘og‘ida joylashgan yerlarda, ya’ni, uning janubiy va g‘arbiy hududlarida istiqomat qilishgan. Bu hududlarda saroy, qo‘ng‘irot, mang‘it, qipchoq, xitoy, nukuz, nayman, qiyot, ass, durman, uyshun, jaloyir, qang‘li, typk, qatag‘on, kerait, chandir, urganji va h.k. urug‘ nomlaridan hosil bo‘lgan toponimlar ko‘proq tarqalgan [7.S. 5-41, 62-72.].

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi dolzarb vazifa etnos muammosi bilan bog‘liq masalalardir. Mintaqa aholisining tarixan tarkib topishidagi uzoq davom etgan etnogenetik jarayonlarni ilmiy asosli o‘rganish, mintaqa etnoslari orasida qadimdan davom etib kelgan an’anaviy hamkorlik, hamjihatlik fazilatlari, ular o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy va madaniy munosabatlarni har tomonlama o‘rganish lozim.

Har qanday jamiyat hayotida bunday tub, olamshumul o‘zgarishlar bosqichma-bosqich, ba’zan bir necha o‘n yilliklar va hatto asrlar davomida amalga oshadi. Shu bois tarixiy o‘tmish saboqlarini hisobga olmasdan, mintaqamizdagi xalqlarning tarixiy tajribasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, shu jumladan, O‘rta Osiyo davlatchiligi tajribalarini o‘rganmasdan, bugungi kunda buyuk deb ta’riflash mumkin bo‘lgan hozirgi islohotlarning mohiyati va ahamiyatini to‘liq tushunish va baholash mumkin emas.

XX asr boshlari Zarafshon vohasi etnotoponimlari tarkibida “turkman”, “qozoq”, “qoraqalpoq”, “tatar”, “qirg‘iz”, “o‘zbek” etnonimlari bilan atalgan joy nomlari uchrashi bilan bir qatorda mazkur etnik guruhlarning tarkibiy bir qismi bo‘lmish urug‘-qabila nomlariga aloqador etnotoponimlar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘zbek va turkman urug‘lari – bayat, chandir, xalaj, xidir-eli, ig‘dir; o‘zbek va qoraqalpoq urug‘lari – achamayli, durman, mang‘it, mitan-muyten, kenagas, qatag‘on, qipchoq, qo‘ng‘irot, xitoy; o‘zbek va qozoq urug‘lari – nayman, olchin va hokazo etnotoponimlar vohaning bir necha viloyat va tumanlarida uchraydi [8. S.147, 149, 154-157, 161-164].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абашин С.Н. Этнографическое знание и национальное строительство в Средней ... – С. 19 (Abashin S.N. Etnograficheskoe znanie i natsionalnoe stroitelstvo v Sredney ... - C. 19)

2. Алимова Д.А., АшировА.А. Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этиши (XVI-XIX аср биринчи ярми) Т.: “Янги нашр” 2011. 4- б. (Alimova D.A., AshirovA.A. Sources of ethnic history of the peoples of Central Asia and demographic processes in the region (first half of the XVI-XIX centuries) T .: “New edition” 2011. 4-p.)

3. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.: ТошДЎТАУ: 2018. – Б. 17. (Allaberdiev A. Vocabulary of Bukhara Oghuz dialects. Author’s abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences. T .: ToshDO’TAU: 2018. - Б. 17.)

4. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.: “Университет”, 2007. 273-б.(Askarov A. Ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. T .: “Universitet”, 2007. 273-p.)

5. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: “Ўзбекистон”, 2015. 578-б.

6. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана ... – С. 147, 149, 154-157, 161-164. (Askarov A. History of the origin of the Uzbek people. T .: “Uzbekistan”, 2015. 578-p.)

7. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2010. 668-б. (An explanatory dictionary of basic concepts of spirituality. T .: NMIU named after G. Gulom, 2010. 668 p.)

Dilovar KAMALOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasi, Ingliz tili 3-fakulteti,
katta o‘qituvchisi

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA NUTQIY AKTLARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishi, rivojlanishi va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Nutqiy aktlarning kommunikativ maqsadi, illokutiv kuchi, pragmatik vazifasi hamda nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy akt, pragmalingvistika, kommunikativ maqsad, illokutiv akt, perlokutiv ta’sir, diskurs, kommunikativ strategiya.

Аннотация: в данной статье представлен научно-теоретический анализ становления, развития и коммуникативно-прагматических особенностей теории речевых актов в современном языкознании. Рассматриваются коммуникативные цели, иллокутивная сила, прагматические функции речевых актов, а также их возможности в выражении социальных отношений между участниками речевого общения.

Ключевые слова: *речевой акт, прагмалингвистика, коммуникативная цель, иллокутивный акт, перлокутивный эффект, дискурс, коммуникативная стратегия.*

Annotation: this article presents a theoretical analysis of the emergence, development, and communicative-pragmatic features of speech act theory in modern linguistics. It examines the communicative purposes, illocutionary force, and pragmatic functions of speech acts, as well as their role in expressing social relations between participants in verbal communication.

Key words: *speech act, pragmalinguistics, communicative purpose, illocutionary act, perlocutionary effect, discourse, communicative strategy.*

Zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotida tilning faqat strukturaviy va semantik xususiyatlarini emas, balki uning real kommunikativ jarayondagi funksional imkoniyatlarini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Til insonlar o‘rtasida axborot almashish vositasi bo‘lish bilan birga, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, muayyan harakatga undash, munosabat bildirish, hissiy holatni ifodalash va kommunikativ maqsadlarga erishish imkonini beruvchi murakkab tizimdir. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy aktlar nazariyasi til birliklarining kommunikativ faoliyatdagi o‘rnini aniqlashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Nutqiy akt tushunchasi so‘zlovchining muayyan kommunikativ vaziyatda til vositalari orqali amalga oshiradigan maqsadli harakati sifatida talqin etiladi. Bunda nutq faqat axborotni ifodalovchi vosita emas, balki ijtimoiy harakatning o‘ziga xos shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, so‘zlovchining va’da berishi, uzr so‘rashi, maslahat berishi, iltimos qilishi yoki minnatdorchilik bildirishi muayyan kommunikativ vazifani amalga oshiradi.

Nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganishda so‘zlovchining niyati, tinglovchining kommunikativ kutishlari, nutqiy vaziyat, ijtimoiy mavqe, kommunikativ masofa va milliy-madaniy me’yorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bir xil grammatik shaklda ifodalangan gap turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha pragmatik mazmunni anglatishi mumkin. Aksincha, bir xil kommunikativ maqsad turli leksik, grammatik va sintaktik vositalar yordamida ifodalanadi.

Bugungi kunda nutqiy aktlarni o‘rganish an’anaviy og‘zaki muloqot doirasidan chiqib, yozma, institutsional, ommaviy axborot va raqamli diskurs shakllarini ham qamrab olmoqda. Ayniqsa, elektron yozishmalar, ijtimoiy tarmoqlar va internet muloqotida nutqiy aktlarning bilvosita ifodalanishi, kommunikativ strategiyalar bilan bog‘liqligi hamda pragmatik talqinidagi o‘zgarishlar dolzarb tadqiqot masalalariga aylanmoqda. Tadqiqotning maqsadi zamonaviy tilshunoslikda nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini nazariy jihatdan tizimlashtirish, ularning kommunikativ vazifalari va ifodalanish mexanizmlarini aniqlash hamda nutqiy aktlarning pragmatik talqiniga ta’sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslashdan iborat. Nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik mohiyati til birliklarining muayyan muloqot sharoitida qanday vazifa bajarishi bilan belgilanadi. Nutqning grammatik tuzilishi va lug‘aviy mazmuni uning kommunikativ funksiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, nutqiy aktning haqiqiy pragmatik mazmuni so‘zlovchi niyati, adresatning talqini hamda kommunikativ vaziyat bilan uzviy bog‘liqdir.

Perlokutiv akt esa nutqning adresatga ko‘rsatgan amaliy yoki psixologik ta’siri bilan bog‘liq. Masalan, adresatning derazani yopishi, isitish moslamasini yoqishi yoki bildirilgan fikrga munosabat qaytarishi perlokutiv natija bo‘lishi mumkin. Mazkur uch jihatning farqlanishi nutqiy aktning faqat ifoda shakli bilan cheklanmasligini, balki kommunikativ

maqsad va natija o‘rtasidagi munosabatlarni ham qamrab olishini ko‘rsatadi. Bunda illokutiv maqsad bilan perlokutiv natija har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Jumladan, iltimos shaklida ifodalangan nutqiy akt adresat tomonidan bajarilmasligi mumkin, biroq bu holat uning iltimos sifatidagi illokutiv mohiyatini inkor etmaydi.

Nutqiy aktlarning muhim xususiyatlaridan biri kommunikativ maqsadning bevosita yoki bilvosita ifodalanishidir. Bevosita nutqiy aktlarda grammatik shakl bilan kommunikativ vazifa o‘rtasida nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabat mavjud bo‘ladi. Masalan, “Eshikni yoping” gapida buyruq maylidagi fe’l harakatga undash vazifasini bajaradi. Bilvosita nutqiy aktlarda esa gapning grammatik shakli uning asosiy kommunikativ maqsadidan farqlanishi mumkin. Masalan, “Eshikni yopib qo‘ya olasizmi?” jumlasi grammatik jihatdan so‘roq gap bo‘lsa-da, muayyan kommunikativ vaziyatda iltimos mazmunini ifodalaydi. Ingliz tilidagi “Could you open the window, please?” jumlasi ham so‘roq shakli orqali iltimos qilishning odatiy usullaridan biridir. Bevosita va bilvosita nutqiy aktlarning farqlanishi faqat grammatik tuzilish bilan emas, balki kommunikativ strategiya, ijtimoiy masofa, muloyimlik me’yorlari va adresatning kutilayotgan reaksiyasi bilan bog‘liq.

Bu holat nutqiy aktlarning kommunikativ samaradorligi faqat axborot mazmuniga emas, balki uning qanday usulda yetkazilishiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Nutqiy aktlarning qo‘llanishida milliy-madaniy qadriyatlar, nutqiy etiket, ijtimoiy mavqe va kommunikativ an’analar muhim ahamiyatga ega. Turli lingvomadaniy muhitlarda bir xil kommunikativ maqsad turlicha til vositalari yordamida ifodalanishi mumkin. Ayniqsa, iltimos, uzr, minnatdorchilik, tabrik, taklif va rad etish kabi nutqiy aktlarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlar sezilarli rol o‘ynaydi. Masalan, o‘zbek tilida iltimos mazmunini ifodalashda “Iltimos”, “Imkoningiz bo‘lsa”, “Marhamat qilib” kabi birliklardan foydalanish mumkin. Shuningdek, fe’lning hurmat shakllari va boshqa grammatik vositalar nutqning kommunikativ yo‘nalishini belgilashga xizmat qiladi. Ingliz tilida esa “Could you...”, “Would you mind...”, “I would appreciate it if...” kabi konstruksiyalar turli darajadagi bilvosita iltimosni ifodalashi mumkin.

Biroq mazkur birliklarning mavjudligi asosida bir til yoki madaniyatni boshqasiga nisbatan mutlaq muloyimroq deb baholash ilmiy jihatdan asosli emas. Nutqiy etiketning namoyon bo‘lishi kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabatlar va muayyan nutqiy hamjamiyat me’yorlariga bog‘liq. P.Braun va S.Levinson nazariyasida nutqiy aktlarning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari suhbatdoshlarning ijtimoiy masofasi, o‘zaro mavqei va nutqiy harakatning talabchanlik darajasi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy aktlarning lingvomadaniy tahlilida uch asosiy jihat muhimdir: kommunikativ maqsadning ifodalanish shakli, adresant va adresat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabat hamda nutqiy harakatning muayyan madaniy muhitdagi maqbulligi. Mazkur mezonlar nutqiy aktlarni leksik yoki grammatik shakliga qarab tasniflash bilan cheklanmasdan, ularning kommunikativ faoliyatdagi funksional xususiyatlarini kompleks o‘rganish imkonini beradi. Shu asosda nutqiy aktlarni tahlil qilishning quyidagi konseptual ketma-ketligini taklif etish mumkin: Kommunikativ vaziyat → So‘zlovchi niyati → Nutqiy aktning ifodalanishi → Illokutiv vazifa → Adresat talqini → Perlokutiv natija. Ushbu ketma-ketlik nutqiy faoliyatning tahliliy bosqichlarini ifodalaydi. Biroq mazkur komponentlar real kommunikatsiyada qat’iy chiziqli tartibda emas, balki o‘zaro bog‘liq va dinamik munosabatda namoyon bo‘ladi. Xususan, adresatning talqini va reaksiyasi keyingi nutqiy harakatlarni shakllantirishga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Taklif etilgan mezonlar tizimi mustaqil ravishda empirik tekshirilgan yangi nazariya sifatida emas, balki mavjud pragmalingvistik qarashlarni umumlashtiruvchi tahliliy yondashuv sifatida baholanadi.

Xulosa. Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini o‘rganish tilning ijtimoiy va funksional mohiyatini aniqlashda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Shunday qilib, nutqiy aktlar nazariyasi til va kommunikativ faoliyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishning muhim metodologik yo‘nalishi hisoblanadi. Uning zamonaviy diskurs shakllariga tatbiq etilishi pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va raqamli kommunikatsiya tadqiqotlarining nazariy hamda amaliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Kelgusida nutqiy aktlarning kommunikativ samaradorligini autentik og‘zaki va yozma diskurs materiallari asosida korpus, statistik hamda eksperimental-pragmatik metodlar yordamida o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Searle J. R. A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society. 1976. Vol. 5, No. 1. P. 1–23.

Shahbos QUTLIYEV,
Toshkent davlat texnika universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi assistenti
@-mail : shahboz6617gmail.com

IJTIMOIY-EKOLOGIK MAS’ULIYAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy-ekologik mas’uliyat tushunchasi falsafiy-metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Zamonaviy ekologik tahdidlar va ularning jamiyatga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Biosfera va jamiyatning o‘zaro aloqasi, mas’uliyat kategoriyasining rivojlanish bosqichlari, shuningdek barqaror rivojlanish strategiyasida ekologik ong shakllanishining roli asoslab beriladi. Maqolada insoniyatning tabiat oldidagi ma’naviy va axloqiy mas’uliyati masalasi ko‘tariladi hamda “inson–jamiyat–tabiat” tizimida yangi qadriyatlar paradigmasini qaror toptirish zarurligi ta’kidlanadi. Tahlil asosida ekologik inqirozni bartaraf etish uchun davlat, jamiyat va shaxs darajasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-ekologik mas’uliyat, barqaror rivojlanish, biosfera, ekologik inqiroz, ekologik ong, noosfera, axloqiy mas’uliyat, globallashuv, ekologik xavfsizlik, qadriyatlar paradigmasi.*

Аннотация: в статье рассматривается понятие социально-экологической ответственности с позиций философско-методологического анализа. Исследуются современные экологические угрозы и их влияние на общество. Раскрываются взаимосвязи биосферы и общества, этапы эволюции категории ответственности, а также роль формирования экологического сознания в стратегии устойчивого развития. Поднимается вопрос нравственной и этической ответственности человечества перед природой и обосновывается необходимость утверждения новой парадигмы ценностей в системе «человек–общество–природа». На основе проведённого анализа предлагается комплекс мер по преодолению экологического кризиса на уровне государства, общества и личности.

Ключевые слова: *социально-экологическая ответственность, устойчивое развитие, биосфера, экологический кризис, экологическое сознание, ноосфера, нравственная ответственность, глобализация, экологическая безопасность, парадигма ценностей.*

Annotation:this article examines the concept of socio-ecological responsibility from a philosophical and methodological perspective. It investigates contemporary ecological threats and their impact on society, as well as the interrelationship between the biosphere and human civilization, the evolution of the category of responsibility, and the role of ecological consciousness in sustainable development strategies. The article raises the question of humanity’s moral and ethical responsibility toward nature and substantiates the need to establish a new value paradigm within the «human–society–nature» system. Based on the analysis conducted, a set of measures is proposed to overcome the ecological crisis at the state, societal, and individual levels.

Key words: *socio-ecological responsibility, sustainable development, biosphere, ecological crisis, ecological consciousness, noosphere, moral responsibility, globalization, ecological security, value paradigm.*

Zamonaviy dunyo o‘ta murakkab ekologik ziddiyatlar bilan yuzma-yuz turibdi. Biosferaning tobora kuchayib borayotgan antropogen bosim ostida yemirilishi, iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning samarasiz sarflanishi va ekotizmlarning izdan chiqishi — bularning barchasi yagona bir muammoning turli ko‘rinishlaridir. Bu muammo nafaqat tabiiy-ilmiy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy-falsafiy fikr vakillari bu masalaga yangicha yondashuv bilan qaray boshladi. “Inson–jamiyat–tabiat” tizimidagi munosabatlarning buzilishi endi alohida mamlakatlar doirasidagina qolmay, umumsayyoraviy miqyosga ko‘tarila boshladi. Natijada mas’uliyat tushunchasi ham yangicha mazmun kasb etdi — u shaxsiy yoki milliy chegaralardan chiqib, butun insoniyatni, hatto kelajak avlodlarni ham qamrab oladigan darajaga yetdi. Aynan shu o‘zgarish falsafiy-metodologik

tahlilni zarur qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ekologik inqirozni bartaraf etishda ijtimoiy-ekologik mas'uliyatning nazariy-konseptual zaminini ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy-ekologik mas'uliyat muammosi falsafiy tafakkur tarixida nisbatan yangi, ammo tobora dolzarblashib borayotgan yo'nalishdir. Muammoning teran ildizlari V.I. Vernadskiyning noosfera nazariyasiga borib taqaladi. Olimning biosfera va noosfera haqidagi g'oyalari insoniyatning tabiat bilan munosabatini yangicha falsafiy asosda ko'rib chiqishga zamin yaratdi. V.I. Vernadskiyning shogirdi akademik A.Ye. Fersman esa biosferaning antropogen ta'sir natijasida beqarorlashishi xavfini ilk bor ilmiy jihatdan asoslab berdi [1]. Ekologik mas'uliyat g'oyasini falsafiy jihatdan shakllantirgan mutafakkirlardan biri nemis faylasufi X. Ionasdir. U o'z asarlarida shunday deydi: "Haqiqiy oqibatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson faoliyatining mohiyati amalda o'zgardi va biz mas'uliyat yuklay oladigan narsalar qatoriga mutlaqo yangi tartibdagi obyekt qo'shildi — bu sayyoramizning butun biosferasi, chunki biz uning ustidan hokimiyatga egamiz" [2]. Bu fikr zamonaviy ijtimoiy-ekologik mas'uliyat tushunchasining falsafiy negizini ifodalaydi — mas'uliyat obyekti endi yakka shaxs yoki millat emas, balki butun sayyora biosferasi bo'lib qoldi. N.M. Mamedov tabiatdan foydalanish sohasida axborot ta'minoti va ekologik madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, quyidagini ta'kidlaydi: "Jamiyatning axborotlashuvi ekologik vaziyatni yumshatishning omillaridan biri bo'lsa-da, o'z-o'zicha ekologik muammoni hal qila olmaydi. Ijtimoiy-tabiiy vaziyatni tushunish ko'p jihatdan qadriyatli-dunyoqarashli bilimga, ekologik madaniyatga va aholi ta'lim darajasiga bog'liq" [8]. Bu mulohaza ekologik inqirozni bartaraf etishda texnologik omillar bilan bir qatorda ma'naviy-madaniy omillarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Ekologik inqirozni chuqur o'rganganda, uning ildizlari moddiy texnologiyada emas, balki aqliy-ma'naviy sohada ekanligini ko'rish mumkin. Industrial tafakkur tizimi ko'p asrlar davomida tabiatni inson ehtiyojlarini qondirish uchun mavjud bo'lgan resurslar manbai deb qarab keldi. Bu munosabat qadriyatlar darajasida mustahkamlangan va avloddan avlodga o'tib kelgan. Natijada insoniyat nafaqat tabiatni, balki o'z kelajagini ham xavf ostiga qo'ydi. Buni anglash uchun falsafiy tafakkur zarur bo'ladi, chunki texnologik yechimlar yolg'iz o'zi yetarli emas — avvalo aqliy-ma'naviy burilish yuz berishi kerak.

Ijtimoiy-ekologik mas'uliyatning shakllanish jarayonida bir nechta bosqich kuzatiladi. Dastlabki bosqichda mas'uliyat nisbatan tor ma'noda — konkret zararni bartaraf etish yoki qonun talablariga rioya qilish sifatida tushunilgan. Keyinchalik u kengayib, butun ekotizimni saqlash mas'uliyatiga aylana boshlagan. Hozirgi bosqichda esa mas'uliyatning yangi turi — kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat — tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'ziga xos ma'naviy majburiyat bo'lib, uning bajarilishi uchun hech qanday huquqiy mexanizm majburlay olmaydi; faqat inson ongi va vijdoni bu jarayonni harakatga keltira oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy-ekologik mas'uliyat globallashuv sharoitida yangicha mazmun kasb etadi. Ekologik muammolar hududiy chegaralar bilan cheklanmaydi — iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yupqalashuvi, okeanlarning ifloslanishi kabi hodisalar barcha davlatlar va xalqlarni bir xil darajada qamrab oladi. Bu esa mas'uliyatni milliy doiradan chiqarib, umumbashariy miqyosga olib chiqadi. Demak, har bir davlat, har bir jamiyat va har bir inson o'zining ekologik harakatlarida nafaqat mahalliy, balki umumsayyoraviy oqibatlarni ko'z oldida tutishi kerak. Bu talabni anglash zamonaviy fuqarolik ongining muhim belgisiga aylanib bormoqda.

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, ekologik mas'uliyatni shakllantirishda axborot va ta'lim tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ekologik ong o'z-o'zidan rivojlanmaydi — uni maqsadli ravishda shakllantirish lozim. Buning uchun aholi ekologik savodxonligini oshirish, davlat boshqaruvi tizimida ekologik ma'lumotlarning oshkoraligi va ishonchliligi ta'minlanishi hamda ilmiy bilimlarning keng ommaga yetkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday yondashuv ekologik madaniyatni hayotiy zaruriyat sifatida idrok etishga zamin yaratadi. Iqtisodiy manfaatga asoslangan tabiatdan foydalanish yondashuvi o'rniga evolyutsiya — ya'ni jamiyat va tabiatning birgalikdagi muvozanatli rivojlanishi — g'oyasini qaror toptirish zarur. Bu esa faqat huquqiy me'yorlar orqali emas, balki qadriyatlar tizimini qayta shakllantirish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy-falsafa fani bu borada muhim metodologik asos beradi: u ekologik muammoni sof texnik masala sifatida emas, balki insoniyatning o'z-o'ziga, tabiatga

va kelajakka bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqish jarayoni sifatida talqin etadi.

Ehtiroflisi shundaki, Iohannesburg deklaratsiyasi va Yer Xartiyasi kabi xalqaro hujjatlar ijtimoiy-ekologik mas’uliyatni qonuniy majburiyat darajasiga ko‘tara olmadi, chunki bu soha hali ham asosan axloqiy-ixtiyoriy xususiyatga ega. Shu sababli ijtimoiy-falsafiy tafakkur bu sohada o‘z vazifasini — mas’uliyat mezonlarini nazariy asoslash, qadriyatlar tizimini takomillashtirish va ekologik etika tamoyillarini shakllantirish — to‘liq bajarishi kerak. Aynan falsafiy yo‘nalish bu masalaga chuqurlik va tizimlilik baxsh etadi. Amalga oshirilgan falsafiy-metodologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-ekologik mas’uliyat zamonaviy tafakkurning eng muhim va dolzarb kategoriyalaridan biriga aylandi. U an’anaviy mas’uliyat tushunchasidan keskin farq qilib, insoniyatni butun biosfera va kelajak avlodlar oldida javobgar subyekt sifatida belgilaydi. Bu o‘zgarish qadriyatlar sohasida tubdan burilish talab etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ekologik inqirozning asosiy sababi texnologik kamchiliklar emas, balki qadriyatlar va dunyoqarash darajasidagi ziddiyatlardir. Itimoiy-ekologik mas’uliyat nafaqat qonuniy, balki axloqiy kategoriyadir. Huquqiy mexanizmlar mas’uliyatning tashqi chegaralarini belgilashi mumkin, ammo ichki mas’uliyatni faqat tarbiyalangan vijdon va ekologik ong ta’minlay oladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida ekologik muammolar umuminsoniy muammoga aylangani uchun ularni yechish ham umumbashariy hamjihatlik asosida amalga oshirilishi lozim. Barqaror rivojlanish strategiyasi ijtimoiy-ekologik mas’uliyatni o‘z ichiga qamrab olmasa, bu strategiya to‘liq bo‘lmaydi. Ushbu xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi. Birinchi taklif: ekologik ta’lim tizimini barcha ta’lim bosqichlarida kuchaytirish va uni faqat bilim berish bilan cheklamay, qadriyatlarni shakllantirish vositasiga aylantirish zarur. Ekologik ongni erta bolalikdan shakllantirishning uzoq muddatli ta’siri bor. Ikkinchi taklif: davlat boshqaruvi tizimida ekologik mas’uliyat tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlash va aholini ekologik axborot bilan ta’minlashning oshkora mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Uchinchi taklif: ilmiy-tadqiqot sohasida ijtimoiy-ekologik mas’uliyatning milliy va mahalliy darajadagi amaliy modellarini ishlab chiqish kerak, chunki global g‘oyalar faqat mahalliy sharoitga moslashtirilgandagina samarali bo‘ladi. To‘rtinchi taklif: fuqarolik jamiyati institutlari orqali ekologik mas’uliyat madaniyatini ommalashtirish, ekologik muammolarni ijtimoiy muhokama markaziga olib chiqish va har bir fuqaroning ongli ishtirokini rag‘batlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вернадский В.И. Научная мысль как планетное явление. –М., 1991. 271 с.
2 Ионас Х. Принцип ответственности. Опыт этики для технологической цивилизации. –М., 2004. 480 с.
3. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. – М., 1987. 240 с.
4. Швейцер А. Благоговение перед жизнью. – М., 1992. 572 с.
5. Моисеев Н.Н. Судьба цивилизации. Пути разума. – М., 1998. 228 с.
6. Мамедов Н.М. Основы социальной экологии. –М., 2003. 274 с.
7. Печчеи А. Человеческие качества. – М., 1985. 312 с.

Abrorbek RAXMONOV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
Raxmonovabror0101@gmail.com

MEDIANING IJTIMOIY-FALSAFIY KONSEPSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida axborot, targ‘ibot va tashviqotning o‘rni hamda uning davlat boshqaruvi va geosiyosiy jarayonlardagi ahamiyati tarixiy-evolyutsion yondashuv asosida tahlil qilingan bo‘lib, globallashuv sharoitida zamonaviy mediatizatsiyalashgan jamiyatning shakllanishi, jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, shuningdek, media vositalarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotdagi o‘rni falsafiy jihatdan chuqur yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *media, ijtimoiy-falsafiy konsepsiya, axborot, targ‘ibot va tashviqot, jamoatchilik fikri, globallashuv, zamonaviy jamiyat, ijtimoiy ong, geosiyosat.*

Аннотация: в данной статье на историко-эволюционном подходе анализируется роль информации, пропаганды и агитации на разных этапах развития человечества и их значение в государственном управлении и геополитических процессах. Подробно освещается формирование современного медиатизированного общества в контексте глобализации, механизмы влияния на общественное сознание, а также роль СМИ в социальном, экономическом, политическом и культурном развитии с философской точки зрения.

Ключевые слова: *СМИ, социально-философская концепция, информация, пропаганда и агитация, общественное мнение, глобализация, современное общество, социальное сознание, геополитика.*

Annotation: this article analyzes the role of information, propaganda, and agitation—as well as their significance in state governance and geopolitical processes—across various stages of human development, employing a historical-evolutionary approach. It provides an in-depth philosophical examination of the formation of a modern mediatized society amidst globalization, the mechanisms influencing public consciousness, and the role of media tools in social, economic, political, and cultural development.

Key words: *media, socio-philosophical concept, information, propaganda and agitation, public opinion, globalization, modern society, social consciousness, geopolitics.*

Kirish. Tarixga nazar solsak, insoniyat barcha davrlarda ham axborotga, targ‘ibot va tashviqotga zaruriyat va ehtiyoj sifatida qarab kelgan. Buning uchun turli kuch vositalarini qo‘llab, o‘z maqsad va ehtiyojlarini qondirib kelgan. Har qanday armiya yoki davlat ishonchli, tezkor axborotga ega bo‘lmasdan turib harbiy yurishlarda g‘alaba qozonishi, hududni mustamlaka qilishi yoki ommaga ta’sir o‘tkazishi imkonsiz holat sifatida baholangan. Zamonaviy dunyoda ham mazkur strategiya o‘z kuchi va ahamiyatini yo‘qotmagan holda gegemon davlatlar tomonidan turli geosiyosiy maqsad va vazifalar yo‘lida faol qo‘llanib kelinmoqda.

Zamonaviy dunyoda mediaga murojaat qilmagan bironta ham mamlakat yo‘qki, u adolatli demokratik davlat qurish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda uning mexanizmlaridan foydalanmagan bo‘lsin. So‘nggi yillarda jahon mamlakatlari axborotni yaratish, tahlil qilish va uzatish jarayonlariga alohida e’tibor qaratmoqda. Sababi, globallashib borayotgan dunyoda zamonaviy media nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, insonlarning fikrlash tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi hamda mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda taraqqiy etishiga turtki beruvchi asosiy omilga aylandi.

Medianing jamiyatdagi o‘rni va uning evolyutsion rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda o‘tgan asrning ilmiy-nazariy qarashlariga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. 1957-yil 7-iyul kuni “Nyu-York Tayms” gazetasida tadqiqotchi Djeyms Restonning maqolasi e’lon qilingan bo‘lib, unda quyidagi qiziqarli misol keltiriladi: “Shifoxonadan xabar keldi. Ko‘p televizor ko‘ruvchi bir sichqon katta yoshli mushuk va uning egasi bo‘lgan qizchaga hujum qildi. Biroq sichqon va mushukka hech qanday zarar yetmadi”. Keltirilgan majoziy iqtibos orqali tadqiqotchi o‘sha davrdayoq medianing (televideniye, gazeta, jurnallar) jamiyat ongiga ta’siri kuchayib borayotganiga ishora qilgan. Hatto media real voqelikni butkul o‘zgartirib, ishonib bo‘lmaydigan, yolg‘on narsalarni ham haqiqat sifatida tasvirlab beradigan qudratli kuchga aylanib borayotgani ilgari surilgan. Sichqonning mushukka hujumi tabiat qonunining buzilishi va mantiqan ishonish qiyin bo‘lgan hodisa sifatida tahlil qilinib, insonlarning fikrlash tarzi va odatlari media ta’sirida tubdan o‘zgarib borayotgani isbotlangan.

1. OAV va jurnalistlar faoliyatiga noqonuniy aralashishlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasida

ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Biroq, Jinoyat yoki Ma’muriy javobgarlik kodekslarida media faoliyatiga g‘ayriqonuniy aralashgan shaxslarga nisbatan ta’sirchan va aniq jazo choralari to‘liq aks ettirilmagan. Shuningdek, ayrim huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ochiq sud majlislariga jurnalistlarning kirishi cheklanishi, suratga olish va videoyozuv qilishga ruxsat berilmaslik holatlari ham uchrab turadi. Masalan, 2024 yil sentyabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan sud majlislarida OAV vakillarining jarayonlarni yoritishiga to‘sqinlik qilingani amaldagi qonunchilik talablariga zid keladi.

2. Rasmiy ma’lumotlarni olishdagi kechikishlar va byurokratik to‘siqlar: Qonunchilikka ko‘ra davlat idoralari murojaatlarga 15 kun muddatda javob berishi shart bo‘lsa-da, amalda so‘rovlarning muddatidan kechiktirilishi, chala yoki umumiy javoblar berilishi holatlari kuzatiladi. Bu esa axborotning o‘z vaqtida taqdim etilmasligi uning dolzarbligi va qiymatini yo‘qotishiga olib keladi.

3. Kiberxavfsizlik va texnik nosozliklar: So‘nggi yillarda milliy internet segmentiga bo‘layotgan kiberhujumlar ko‘payib, 2024-yilning 11-oyida mamlakatda 5500 dan ortiq kiberjinoyatlar sodir etilgan. Bu esa axborot almashinuvining buzilishiga, infratuzilmalarning himoyalanmaganiga va sohada malakali kadrlar yetishmasligiga borib taqaladi.

4. Aholi media savodxonligining yetarsizligi: Axborot makonida feyk va dezinformatsiyalarning ko‘payishi aholining, xususan, ayrim sodda va ishonuvchan qatlamlarning turli aldovlarga uchishiga sabab bo‘lmoqda. Pandemiya davridagi vaksinatsiyaga qarshi asossiz yolg‘on xabarlar yoki onlayn firibgarlik holatlari buning yaqqol misolidir.

Media taraqqiyotini ta’minlovchi ijobiy omillar va istiqbollar

Mamlakatimizda media sohasining jadal rivojlanishiga zamin yaratuvchi ko‘plab qulay sharoitlar mavjud:

Xususiy media sanoatining gurkirab rivojlanishi: Keyingi yillarda “Kun.uz”, “Daryo.uz”, “Gazeta.uz” kabi saytiar, shuningdek, qator xususiy telekanallar va radiolar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi axborot maydonida sog‘lom raqobat muhitini yaratdi. Xususiy media bozor talablariga tez moslashib, tanqidiy-tahliliy materiallar bilan jamiyat muammolarini ochib bermoqda. Raqamlashtirish va internet qamrovining kengayishi: Elektron hukumat tizimining joriy etilishi, olis hududlargacha internet tarmoqlarining kirib borishi davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlab, byurokratik to‘siqlarni keskin kamaytirdi. Yoshlar va blogerlarning faolligi: Mamlakatimizda 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 milliondan ortiq bo‘lib, ular zamonaviy media kontentlarni yaratuvchi asosiy kuchga aylangan. Blogerlik sohasining kirib kelishi axborot oqimini xilma-xil qilib, jamiyatning demokratlashuv jarayonlarini jadallashtirmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, media jamiyatning barcha sohalariga — iqtisodiyotda biznes va startaplarni yoritishda, ijtimoiy sohada mavjud muammolarni hal etishda, siyosatda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashda, madaniyatda esa milliy qadriyatlarimizni dunyoga targ‘ib qilishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, media makonini izchil rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash demokratik taraqqiyotning bosh sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексейчева Е.Ю. Монография. Патриотизм как проект (методология и опыт эмпирического исследования). – Москва: МГПУ, 2024. – 232 б.

2. Ҳолиқова Р.Э. Амир Темур ҳарбий маҳоратининг манбаларда талқин этилиши. Халқаро илмий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: 2022. – 71 б.

3. Raxmatov D. “Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda beshta muhim tashabbusning ahamiyati” mavzusidagi ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari to‘plami. – Farg‘ona, 2020. 379-b.

4. Rakhmonov, A. R. (2026, April). THE IMPACT OF MEDIA ON SOCIAL RELATIONS. In Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (Vol. 1, No. 4, pp. 73-86).

5. Ўсарова Р.Г. Ёш олимлар илмий амалий конференция материаллари тўплами. Бурч ва масъулият-инсон камолоти ва жамият тараққиётининг асосий мезони. –Тошкент: Zenodo, 2025. – 88 б.

6. Rakhmonov, A. R. (2026, April). THE SOCIAL-PHILOSOPHICAL CONSEPT OF MEDIA. In Symposium on Natural and Applied Sciences (Vol. 1, No. 4, pp. 31-43).

7. Раҳмонов, А. Р. (2026, April). МЕДИА АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИ. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 4, No. 41, pp. 26-36).

8. Rahmonov, A. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA TINCHLIKNI TA’MINLASHDA HARBIY VATANPARVARLIKNING MAFKURAVIY-KONSEPTUAL ASOSLARI. «Ёш олимлар ахборотномаси»–«Вестник молодых ученых», (Спецвыпуск), 75-79.

9. Rustamovich, R. A. HARBIY VATANPARVARLIKNING AXLOQIY-MA’NAVIY, IJTIMOIY-MADANIY QADRIYAT SIFATIDAGI ZAMONAVIY AHAMIYATI. Ne’matova II Shaxsning depressiv holatidagi psixologik xususiyatlari tahlili. 183, 64.

O‘ktam ALIQULOV,
IIV Akademiyasi katta o‘qituvchisi

KIBERXAVFSIZLIK VA KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARI

Annotatsiya: ushbu maqola mamlakatimizda kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, sog‘lom Internet-muhitiga ega axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish, internet orqali sodir etiladigan barcha turdagi jinoyatlarning oldini olishga qaratilayotgan tizimli ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *axborot xavfsizligi, internet-muhiti, profilaktikasi, Internet-muhiti, ketfishing, kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilik, global axborotlashtirish, ommaviy axborot vositalari, veb-makon, raqamli iqtisodiyot*

Annotation: this article analyzes systematic work aimed at combating cyber security and cyber crimes in our country, developing an information society with a healthy Internet environment, and preventing all types of crimes committed through the Internet.

Key words: *internet environment, prevention, Internet environment, cyber security, cyber crime, mass media, web space, digital econom.*

Аннотация: в статье анализируется системная работа, направленная на борьбу с кибербезопасностью и киберпреступностью в нашей стране, развитие информатционного общества со здоровой Интернет-средой, предотвращение всех видов преступлений, совершаемых через Интернет.

Ключевые слова: *интернет-среда, профилактика, Интернет-среда, кибербезопасность, киберпреступность, средства массовой информатции, веб-пространство, цифровая экономика.*

Jahonda bugungi kun raqamlashtirish davrida axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat va iqtisodiyot axborot texnologiyalariga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda, bu esa kiberxavf-xatarlarning ortishiga olib kelmoqda. Axborot xavfsizligi nafaqat shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, balki davlat, biznes va jamiyatning barqarorligini ta’minlash uchun ham zarurdir. Hakerlik hujumlari, firibgarlik va ma’lumotlarni o‘g‘irlash holatlari ortib bormoqda. Bugungi kunda davlat tashkilotlari, banklar va yirik kompaniyalar kiberhujumlardan jiddiy zarar ko‘rishmoqda. Internet foydalanuvchilarining shaxsiy ma’lumotlari, moliyaviy va tibbiy ma’lumotlari himoya qilinishi kerak. GDPR va boshqa xalqaro standartlar bunga katta e’tibor qaratmoqda. Axborot xavfsizligi davlat idoralarining maxfiy ma’lumotlarini himoya qilish, saylov jarayonlarini soxtalashtirishdan saqlash va kibertajovuzlarga qarshi kurashishda muhimdir. Binobarin, bugungi kunda mamlakatimizda kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, sog‘lom Internet-muhitiga ega axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish, milliy saytlarni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Internetda milliy veb-saytlarni yaratishga qaratilgan ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilayotgani, veb-ixtirochilarning moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanayotgani, sog‘lom axborot muhitini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan turli tadbirlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar hayot sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, jinoyatchilikning yangi shakli kiberxavfsizlikni ta’minlash va kiberjinoyatlarni yuzaga kelishiga zamin yaratdi hamda hayotimizga “kiberxavfsizlik”, “kiberjinoyatchilik” tushunchasini olib kirdi.

O‘zbekistonda axborot xavfsizligini ta’minlash dolzarb masala bo‘lib, mamlakatning raqamli taraqqiyoti va kiberxavfsizlik sohasidagi xalqaro tendensiyalarga moslashuviga asoslangan. Davlat va xususiy sektorda axborot xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan turli tadbirlar, qonunchilik va tadqiqotlar olib borilmoqda. “Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ko‘plab muammolar – tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar, terrorizm va ekstremizm, irqchilik, iqlim o‘zgarishlari – o‘zaro kelishilgan global hamkorlikni va mavjud muammolarni hal etish jarayonlariga yoshlarni faol jalb qilishni talab etmoqda”[1].. Shu nuqtayi nazardan, “...yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun

zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish”, axborot xavfsizligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3230-sonli “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli “Kiberxavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2017 yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 8-apreldagi F-5465-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 30 -iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi[2].

Kiberxavfsizlik masalalarini hal qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-sentyabr kunidagi PQ-4452-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘rsida”gi qaroriga binoan kiberxavfsizlik uni tartibga solish sohasida vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati hisoblanadi. O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasidagi nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi *(Davlat xavfsizlik xizmati tarkibida)* bilan birgalikda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqa tashkilotlar va idoralarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, axborot xavfsizligi holatini nazorat qilish, monitoring qilish, o‘rganish va tekshirishni amalga oshiradi. Bundan tashqari, raqamli ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xavflarning ortib borishi, davlat va jamiyat manfaatlari hamda fuqarolarning shaxsiy huquqlariga tahdid solishi – global raqamli boshqaruv uchun yangi muammolarni keltirib chiqarayotganligi sababli joriy yilning 15-mart kuni “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun prezident tomonidan imzolandi[3]. Kiberxavfsizlikni ta’minlashdagi asosiy prinsiplar – qonuniylik, shaxs va davlat manfaatlarini himoya qilish, sohaga yagona yondashuv, tizimni yaratishda (davlat xaridlarida) mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish, xalqaro hamkorlik uchun ochiqlik hisoblanadi. Ushbu qonunda ham, boshqa ko‘plab hujjatlar kabi O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilgan boshqacha qoidalarda ustuvorlik berilgan. Ya’ni, xalqaro shartnomada “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonundan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Davlat organlari va tashkilotlari ham kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida vakolatli davlat organidan kibertahdidlar, dasturiy ta’minotdagi, uskunalar va texnologiyalardagi zaifliklar to‘g‘risidagi axborot va maslahatlar olish huquqiga ega. Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari vakolatli organni kiberhujumlar to‘g‘risida ogohlantirishi, kiberhimoya uchun sertifikatlashtirilgan dasturiy ta’minotlardan foydalanishi, sohaga doir normativ va texnik hujjatlarni vakolatli organ bilan kelishishi shart[4]. Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari hamda resurslari ma’lumotlarining saqlanishini ta’minlash ma’lumotlarning zaxira nusxalarini yaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi, ularning saqlanish muddati oxirgi 3 oydan kam bo‘lmasligi kerak.

Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertiza majburiy tartibda yoki kiberxavfsizlik subyektlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladi. Quyidagilar kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan majburiy tartibda ekspertizadan o‘tkazilishi lozim: (18-modda) davlat organlarining axborot resurslari; davlat organlarining axborot tizimlari; muhim axborot infratuzilmasi obyektlari toifasiga kiritilgan axborot tizimlari. Kiberxavfsizlik hodisalari vakolatli davlat organi yoki kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ishchi organning mansabdor shaxslari tomonidan tekshiriladi. Shuningdek, texnik imkoniyatlarga ega bo‘lsa axborot resursining

o‘zi ham tekshiruv o‘tkazishi mumkin. Bunda u vakolatli organni natijalardan xabardor qilishi kerak (22-modda).

Shuningdek, qonunning oltinchi bobida muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta’minlash, ularni toifalashtirish va reestrini yuritish, huquq va majburiyatlari hamda xavfsizlik talablariga doir normalar berilgan. Kiberjinoyatchilik tushunchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko‘plab turdagi jinoyatlarni o‘zida birlashtirgan. Virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), xakkerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami va bank rekvizitlarini o‘g‘irlash (fishing va farming) hamda boshqa turli huquqbuzarliklar shular jumlasidandir. Bunday holatlarda jinoyatchilar o‘zlarini qiziqtirgan “obyektlar”ga moddiy va ma’naviy zarar yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Kiberjinoyatchilik va uni sodir etuvchi kimsalar doirasi esa yildan yilga kengayib borayotganini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi[4] Kiberhujum – (Cyber attack) bu shaxsiy yoki uyushgan guruh tomonidan kompyuter tarmoqlari, axborot tizimlari yoki katta AT infratuzilmasini nishonga olish uchun zararli kodni o‘g‘irlash, o‘zgartirish ushbu turdagi harakatlarning har qanday afzalliklaridan foydalanish uchun turli hil vositalardan foydalangan xolda ishlatiladigan hujum turlari hisoblanadi.

Ushbu sohadagi jinoyatlarning xavfi shundaki, mudofaa, ishlab chiqarish, iqtisodiy, bank va boshqa maqsadlardagi murakkab kompyuter tizimlarining boshqaruv sensorlari bilan bog‘liq harakatlar uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishi, bloklanishi, modifikatsiyasi odamlarning o‘limiga va ularning sog‘lig‘iga zarar etkazishi, mulkni yo‘q qilishi, katta miqyosda iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin. Shunday ekan, mamlakatimizda kiberxavfsizlikni ta’minlash axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi samarali mexanizmini takomillashtirish, shaxslarning ga doir ariza, xabarlarini elektron ro‘yxatga olish va natijalarining yagona elektron hisobini yuritish imkonini beruvchi dasturiy modulni yaratish, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ishtirokchilarning huquqiy maqomini belgilash, dispozitiv huquqlarni kengaytirish hamda kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlar qarshi kurashishning samarali tartibini joriy etishga doir muammolarning ilmiy va amaliy asoslangan yechimlarini topish maqsadga muvofiqdir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlar - 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzusida o‘tkazilgan inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumi ishtirokchilariga tabrigi: http://uza.uz/oz/politics/yeshlar-2020-global-mi-yesdagi-birdamlik-bar-aror-tara-iyet--12

2. Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатлари ва ҳуқуқларини таъминлаш – демократик жамият асосидир // Унинг ўзи. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд – Тошкент: “Ўзбекистон”. НМИУ. 2018. -252 б.

3. https://lex.uz/uz/docs/5960604

4. Axborot texnologiyalari soxasida, shu jumladan internet tarmog‘ida sodir etiladigan huquqbuzarlik hamda jinoyatlarni aniqlash, barvaqt oldini olish va tergov qilish metodologiyasi//O‘z.Res.IIV Akademiyasi//mualliflar jamoasi//Toshkent-2022 y// 8-bet.

Yulduz QO‘SHMONOVA,
Assistent, Samarqand Davlat Pedagogika Instituti
Urgut fakulteti,
kushmonovayulduz@gmail.com,
https://orcid.org/0009000135828188



O‘ZBEK TOPONIMIK AFSONALARINING MAVZUIY FUNKSIONAL TAHLILI

(“Ipak yo‘li afsonalari” kitobi asosida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Samarqand va unga tutash hududlarga oid toponimik afsonalar tahlil qilinadi. Toponimik afsonalar xalq og‘zaki ijodida joy nomlarining kelib chiqishini izohlash, tarixiy xotirani saqlash hamda muayyan axloqiy-ijtimoiy g‘oyalarni mustahkamlash funksiyasini bajaradi. Tadqiqotda “Jayhun”, “G‘azavot”, “Uch qiz tog‘i”, “Qizbuvi”, “Ko‘z yoshi qoyasi”, “Hazorasp”, “Devqal’a” kabi afsona matnlari mazmuniy-tematik va funksional belgilari asosida guruhlarga ajratildi. Tahlil natijasida ushbu afsonalarda muqaddas shaxslar kulti, metamorfoza (toshga aylanish), ilohiy sinov, tabiat hodisalarining personifikatsiyasi hamda tarixiy xotira motivlari yetakchi o‘rin tutishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *afsona, toponimika, Samarqand, metamorfoza, motiv.*

Аннотация: в настоящей статье анализируются топонимические легенды, связанные с Самаркандом и сопредельными территориями. В устном народном творчестве топонимические легенды выполняют функции объяснения происхождения географических названий, сохранения исторической памяти, а также закрепления определённых морально-социальных идей. В ходе исследования тексты легенд «Джайхун», «Газават», «Гора трёх девушек», «Кизбуви», «Скала слёз», «Хазарасп», «Девкала» были классифицированы на группы на основе их содержательно-тематических и функциональных признаков. В результате анализа установлено, что в данных легендах ведущее место занимают мотивы культа священных личностей, метаморфозы (превращения в камень), божественного испытания, персонификации природных явлений, а также мотивы исторической памяти.

Ключевые слова: *легенда, топонимика, Самарканд, метаморфоза, мотив.*

Annotation: this article analyzes toponymic legends associated with Samarkand and its adjacent regions. In oral folk tradition, toponymic legends serve to explain the origins of place names, preserve historical memory, and reinforce certain moral and social ideas. In the study, the legends “Jayhun,” “G‘azavot,” “Uch Qiz Tog‘i,” “Qizbuvi,” “Ko‘z Yoshi Qoyasi,” “Hazorasp,” and “Devqal’a” are classified into groups based on their thematic-content and functional features. The analysis reveals that the cult of sacred figures, metamorphosis (transformation into stone), divine испытание (divine trial), personification of natural phenomena, and motifs of historical memory occupy a leading place in these legends.

Key words: *legend, toponymy, Samarkand, metamorphosis, motif.*

Kirish. Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb vazifa bo‘lib, o‘zbek folkloridagi toponimik afsonalar xalqning tarixiy xotirasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim semantik qatlamdir. Garchi afsona janri keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, toponimik afsonalarning mavzuiy-funksional xususiyatlari maxsus tadqiqotlarda kam yoritilgan. Shu bois, ushbu maqolada joy nomlari bilan bog‘liq afsonalarning mavzu doirasi, semantik yuklamasi va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida professor Mamatqul Jo‘rayev tomonidan 1993-yilda nashr etilgan “Ipak yo‘li afsonalari” to‘plamiga kiritilgan matnlar tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, struktural-semantik hamda tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

An’anaviy e’tiqodlar hukmron bo‘lgan ibtidoiy va o‘rta asr jamiyatlarida borliq diniy-ramziy tafakkur asosida idrok etilib, ilohiy kuchlar hamda tabiat unsurlari antropomorfik va personifikatsion tarzda talqin qilingan. Natijada tabiat va ijtimoiy voqeliklar mifologik model orqali izohlanib, afsonaviy syujetlar vujudga kelgan va bu

holat afsona janrining shakllanishida muhim semantik omil bo‘lib xizmat qilgan. Dastlab jamoaviy mulk sifatida mavjud bo‘lgan bu og‘zaki matnlar keyinchalik diniy va madaniy ta’sirlar ostida transformatsiyalanib, tarixiy unsurlar bilan boyigan hamda yozma manbalarda qayd etilishi orqali afsona va manqaba janrlarining barqarorlashuviga zamin yaratgan.

Asosiy qism. Afsona janri masalasi folklorshunoslikda turli tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan bo‘lib, berilgan ta’riflar asosan, janrning mohiyati, badiiy xususiyatlari hamda folkloriy funksiyalarini aniqlashga qaratilgan. Jumladan, “Folklorshunoslikka kirish” darsligida afsona “sehr-jodu va xayolotga yo‘g‘rilgan, ajdodlardan avlodlarga og‘zaki an’ana orqali o‘tib kelayotgan hikoya” sifatida izohlanadi [3].

Folklorshunos olim Olimjon Safarov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” asarida “afsona” atamasining etimologiyasiga to‘xtalib, uning forscha *afsun* (“sehr-jodu”) so‘zidan kelib chiqqanini qayd etadi hamda afsonani fantastik va uydirma asosida yaratilgan nasriy hikoyalarga nisbatan qo‘llaniladigan termin sifatida tavsiflaydi [9].

Olimlar tomonidan ilgari surilgan mazkur ta’riflar umumlashtirilganda, afsona og‘zaki an’ana orqali avloddan avlodga o‘tib kelgan, fantastik va xayoliy unsurlarga tayanuvchi, real voqelikni mifologik tafakkur prizmasida talqin etuvchi nasriy folklor janri sifatida namoyon bo‘ladi. U xalqning qadimiy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim og‘zaki ijod namunasi bo‘lib, jamiyatning borliq haqidagi tasavvurlarini ramziy-badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Yer yuzidagi barcha xalqlar folklorida bo‘lgani kabi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham mazmun va funksional jihatdan rang-barang bo‘lgan ko‘plab afsonalar shakllangan. O‘zbek afsonalarini ilmiy o‘rganishga doir tadqiqotlar XIX asrda boshlangan bo‘lib, dastlabki izlanishlar gazeta va jurnallar sahifalarida chop etilgan. Xususan, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonga yuborilgan harbiy xizmatchilar, olimlar hamda missionerlar tomonidan olib borilgan kuzatishlar va yozib olingan folklor materiallari XIX asrning 70-yillaridan boshlab o‘zbek afsonalarining ilmiy jihatdan tizimli ravishda tadqiq etilishiga zamin yaratgan. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki ilmiy izlanishlar Komiljon Imomov nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘zbek afsonalarini to‘plash va tahlil qilish borasida muhim ishlarni amalga oshirgan [2; 81–90].

Biz tahlil uchun olgan prof. M. Jo‘rayevning 1993-yilda nashr qilingan “Ipak yo‘li afsonalari” nomli kitobidagi afsona matnlari Bekir Direkchi tomonidan ilgari mavjud afsona tasniflari hamda afsonalarning motiv xususiyatlari asosida tizimli ravishda tahlil etilib, ilmiy mezonlar asosida tasniflangan. Tadqiqot jarayonida ayrim afsonalarning bir nechta motivni o‘z ichiga olishi inobatga olingan holda, tasnifni shakllantirishda har bir afsonada ustunlik qiluvchi yetakchi motiv asosiy mezon sifatida tanlangan. Mazkur yondashuv afsona matnlarining ichki semantik tuzilishini aniqlash hamda ularning janriy-mavzuiy xususiyatlarini izchil ochib berishga xizmat qilgan.

Ushbu metodologik asosga ko‘ra, afsonalar quyidagi besh asosiy guruhga ajratilgan:

1. Tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqidagi afsonalar;
2. Diniy shaxslar bilan bog‘liq afsonalar, jumladan:

a) payg‘ambarlar, Xizr va boshqa diniy buyuk zotlar haqidagi afsonalar;

b) avliyo va diniy shaxslar haqidagi afsonalar;

c) ziyoratgohlar bilan bog‘liq afsonalar;

3. Joy nomlari (toponimlar) bilan bog‘liq afsonalar;
4. Mo‘jizaviy mavjudotlar haqidagi afsonalar;
5. Shakl o‘zgartirish (metamorfoza) motiviga asoslangan afsonalar, jumladan:

a) toshga aylanish haqidagi afsonalar;

b) boshqa turdagi metamorfozaga oid afsonalar.

Mazkur tasnif afsonalarni motiv-semantik mezon asosida tizimlashtirishga qaratilgan bo‘lib, u “Ipak yo‘li afsonalari” to‘plamidagi matnlarning janriy va mavzuiy rang-barangligini aniqlash hamda toponimik afsonalarni alohida guruh sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi [1; 39].

Toponimik afsonalarga qozoq olimi S. Qasqabasov yanada aniqroq ta’rif beradi. Olimning fikricha, agar biror hududda sodir bo‘lgan voqea hech qanday mo‘jizaviy yoki sehrli unsurlar qo‘shilmasdan bayon etilsa, bunday voqealar toponimik afsona deb ataladi. Toponimik afsonalarning asosiy xususiyati shundaki, ular joy nomining etimologiyasini izohlashdan ko‘ra, o‘sha makonda yuz bergan voqeani hikoya qilishga ko‘proq yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shunga qaramay, tashqi jihatdan qaralganda, hikoyachi go‘yo makon nomining kelib chiqishini sharhlayotgandek taassurot uyg‘otadi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, toponimik afsonalar haqiqiy tarixiy afsonalarga nisbatan badiiylik darajasi yuqori, obrazli ifoda vositalariga boy bo‘lib, ularda tarixiy voqeani yetkazish funksiyasi qisman

transformatsiyalanib, didaktik va ibratli jihatlar ustuvorlik kasb etadi [8; 150–151].

Mazkur ta'riflar va ilmiy yondashuvlar asosida ushbu tadqiqotda M. Jo'rayev tuzgan "Ipak yo'li afsonalari" to'plamidan qirq uchta toponimik afsona tanlab olinib, ularning turkiy xalqlar mifologiyasi hamda madaniy-tarixiy xotira tizimi doirasidagi funksional va semantik o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida ajratib olingan joy nomlariga doir afsonalar mazmuniy-tematik yo'nalishi shuningdek, funksional belgilariga ko'ra quyidagi to'rt asosiy guruhga ajratildi va birinchi va ikkinchi guruhlari tahlil qilindi:

1. Daryo, ko'l, buloq va kanal nomlari bilan bog'liq afsonalar: Jayhun (daryo), G'azavot (kanal), Sho'rhasan ko'li, Chashmai Ayub, Hazrati Ayub buloği, Jilbuloq chashmasi, Chilla hovuz.

2. Tog', tosh, tepalik va muayyan hudud nomlari bilan bog'liq afsonalar: Duldulotlagan, To'q do'ngining paydo bo'lishi, Cho'ponota, Cho'ponotaning paydo bo'lishi, Ko'hak tepaligi, Qirq qiz tosh tepaligi, Uch qiz tog'i, Abomuslimtepa, Ko'z yoshi qoyasi, Qizbuvi cho'qqisi, Qo'rg'ontepa, Kampirak tepa.

3. Shahar, tuman va qishloq nomlari bilan bog'liq afsonalar: Xorazm vohasi va Amudaryoning paydo bo'lishi, Olov bilan baliq, Xoru azim, Xivaning bunyod etilishi, Quyoshga duo etganlar, Qanotli arg'umoqlarning qo'lga tushirilishi, Ming otning qo'lga tushirilishi, Xorazm va Hurjamol, Polvon otaning hassasi, Samarqand nomining paydo bo'lishi, Nurota, Termiz, Buxoroning bino etilishi, Zarmitan qishlog'i, To'rt bokira qishlog'i, Tomdibuloq qishlog'i, Qoramurt qishlog'i, No'g'ayota qishlog'i, Bog'ojot qishlog'i.

4. Qal'a, masjid va qabriston nomlari bilan bog'liq afsonalar: Hazorasp band, Devqal'a, Darang'i masjid, Qayquvot qal'asi, Lavandak (qo'rg'on).

1. *Ko'l va buloq, daryo, kanal nomlari bilan bog'liq afsonalar*. Tadqiqot doirasida tahlil qilingan matnlarda ko'l, buloq, daryo, kanal nomlari bilan bog'liq yettita afsona mavjud. Ulardan Jayhun afsonasi Amudaryo nomining paydo bo'lishini hamda Xorazm hududidagi bir qator joy nomlarining kelib chiqishini mifologik-tarixiy talqin asosida izohlaydi. Afsonada markaziy obraz sifatida dono va qudratli podsho hamda uning uch o'g'li tasvirlanadi. Podsho o'g'illarining mardlik, aql va davlatni boshqarish qobiliyatlarini sinash maqsadida ularni cho'l va daryo bo'ylariga olib boradi. Afsonaning asosiy voqealari nomsiz, ulkan daryo atrofiga joylashtirilgan bo'lib, bu daryo keyinchalik Jayhun nomi bilan ataladi.

Afsonada podsho o'g'illarini ajdaho timsoli orqali sinaydi: katta o'g'il qo'rqib qochadi va noloyiq deb topiladi, o'rtancha o'g'il dovdirab "Anqov" laqabini oladi, uning hududi esa Xonqa deb ataladi. Kenja o'g'il esa jasorat va tashkilotchilik ko'rsatib, hududni obod qiladi hamda "ajdaho"ga qarshi dadil harakat qiladi. Shu sababli podsho uni "Jayhun" deb ataydi va daryo ham shu nomni oladi. Shuningdek, kenja o'g'il qurdirgan qo'rg'on va ming otliq lashkar bilan bog'liq holda Hazorasp ("ming otliq") toponimi izohlanadi. Afsonada Jayhun, Xonqa va Hazorasp nomlari mifologik sinov motivi va ijtimoiy qadriyatlar asosida talqin qilinadi.

"G'azavot" afsonasida suv va daryo muqaddas unsur sifatida talqin qilinib, joy nomlari insoniy fazilatlar bilan bog'lanadi. Afsona Xorazmdagi G'azavot kanali toponimining kelib chiqishini diniy-qahramonlik motivlari asosida izohlaydi: aranglarning isyoni tufayli suv toshadi, xalq Xonqada yashovchi eshon yordamiga murojaat qiladi. Eshon aranglarga qarshi mifologik jangda halok bo'lib, shahidlik maqomiga ko'tariladi va xalqni ofatdan qutqaradi. Natijada kanal "G'azavot" ("muqaddas kurash") deb nomlanadi. Umuman, afsona diniy yo'nalishdagi toponimik rivoyat bo'lib, unda suv, ofat va qurbonlik motivlari orqali xalqning e'tiqodi va madaniy xotirasi ifodalangan.

Sho'rhasan ko'li afsonasi. U Qashqadaryo viloyatining sobiq Miroqi nohiyasiga qarashli Sho'rhasan qishlog'idagi ko'l bilan bog'liq bo'lib, suv manbasining muqaddas va sirli tabiatini mifologik motivlar orqali izohlaydi. Afsonada suvdan chiqqan ayg'ir obrazi qadimiy e'tiqodlarda suv unsuri bilan bog'liq ilohiy kuch ramzi sifatida talqin etiladi. Sirni oshkor etish ta'qiqining buzilishi natijasida qulunning ko'lga olib ketilishi jazolovchi kuch motivini yuzaga chiqaradi. Afsona suv bilan bog'liq toponimik afsonalarga xos bo'lgan ta'qiq va jazo g'oyalarini aks ettiradi.

2. *Tog', tosh, tepalik va ma'lum bir hudud nomlari bilan bog'liq afsonalar*. Tahlil uchun olgan afsonalarimizning ichida 12 ta bu mavzudagi afsona mavjud. Mazkur guruhga kiruvchi afsonalarda geografik obyektlarning paydo bo'lishi Hazrat Ali, aziz-avliyolar, qahramonlar hamda begunoh insonlarning taqdiri bilan bog'lab talqin qilinadi. Ushbu afsonalarda joy nomlari ko'pincha ilohiy kuch, duo va qarg'ish, adolat va gunoh, shuningdek, insoniy fazilatlar va nuqsonlar bilan izohlanadi. "Duldulotlagan" va "Toshga aylangan xirmon" afsonalarida Hazrat Ali obrazi markaziy o'rinni egallaydi. Bu afsonalarda joy nomining vujudga kelishi Hazrat Alining dulduli bilan bog'liq hodisa hamda odamlarning baxilligi oqibatida

aytilgan qarg‘ish natijasida toshga aylanish motivi orqali tushuntiriladi. Ushbu afsonalarda adolatsizlik va saxiylikka zid xatti-harakatlar ilohiy jazoga sabab bo‘lishi g‘oyasi ilgari suriladi. Afsonadagi Ali obrazi bu Ali ibn Abu Tolib (taxm. 600–661, Ko‘fa) — islomda “xulafo ar-roshidin” deb atalgan to‘rt xalifaning to‘rtinchisi, Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadoniga mansub. U Muhammad (s.a.v)ning amakivachchasi va kuyovi bo‘lib, islomdagi shialik harakati bevosita uning nomi bilan bog‘liq. Markaziy Osiyoda Ali nomi bilan bog‘liq ziyoratgohlar mavjud bo‘lsa-da, tarixiy manbalarga ko‘ra, u bu hududlarda bo‘lmagan [6; 315].

“To‘q do‘ngining paydo bo‘lishi” afsonasida Avj bin Unuq obraziga xos teskari fe’l-atvor asosida yer relyefining shakllanishi izohlanadi. Afsona suv toshqinlari va sun’iy to‘siqlarning kelib chiqishini xalqona tafakkur bilan bog‘laydi. “To‘q do‘ngining paydo bo‘lishi” afsonasida markaziy obraz sifatida *Avj ibn Unuq* nomi bilan tanilgan bahaybat pahlavon tasvirlanadi. Ushbu obraz Sharq va turkiy-islomiy folklorda keng tarqalgan *gigant (bahaybat) qahramon* arxetipining mahalliy variantidir. Mazkur afsonada Avj ibn Unuq *xaos keltiruvchi kuch* sifatida namoyon bo‘ladi. U insoniy mantiqqa zid ravishda har qanday iltimosning aksini bajaradigan g‘alati fe’l-atvorga ega. Bu jihat uni oddiy insondan ajratib, mifologik mavjudot darajasiga ko‘taradi. Afsonada xalq donoligi aynan shu xususiyatdan ustalik bilan foydalanadi: Chimboy aholisi pahlavondan “tuproqni qirg‘oqqa to‘kma” deb iltimos qilib, uning teskari ish qilish odatini hisobga oladi. Natijada Avj ibn Unuq tuproqni daryo bo‘yiga to‘kadi va *To‘q do‘ngi* paydo bo‘ladi. Shu tariqa afsona toponimik xarakter kasb etib, tabiiy geografik obyekt — To‘q do‘ngining kelib chiqishini mifologik obraz orqali izohlaydi. Bu holat xalq og‘zaki ijodida keng uchraydigan tabiat hodisalarini shaxsiylashtirish (antropomorfizm) usulining yorqin namunasidir.

“Qo‘rg‘ontepa” va “Kampirak tepa” afsonalarida esa qarg‘ish va ilohiy jazoga asoslangan motivlar yetakchilik qiladi. Ayniqsa, “Kampirak tepa” afsonasida mehmondo‘stlik va insoniylik qadri ulug‘lanib, gunohkor shahar yer yutishi orqali jazolanadi. Bu afsona axloqiy saboq beruvchi xarakterga ega.

Mazkur afsonalarda tog‘, tepalik va toshlarning paydo bo‘lishi xalqning tarixiy xotirasi, diniy tasavvurlari va axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular geografik nomlarning shakllanishida muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek folkloridagi toponimik afsonalar xalqning tarixiy xotirasi, diniy e’tiqodlari va axloqiy qarashlarini mujassam etgan murakkab semantik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Prof. M. Jo‘rayev tuzgan “Ipak yo‘li afsonalari” [4] to‘plamidan tanlab olingan qirq uchta toponimik afsona tahlili ushbu janrning nafaqat joy nomlarining kelib chiqishini izohlash, balki muayyan hudud bilan bog‘liq tarixiy, mifologik va madaniy tasavvurlarni avloddan avlodga yetkazish funksiyasini ham bajarishini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy, struktural-semantik va tipologik metodlar asosida amalga oshirilgan tahlillar toponimik afsonalarning ichki tuzilishi, motivlar tizimi hamda funksional yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Afsonalarning motiv-semantik mezon asosida besh guruhga ajratilishi va ularning ichida toponimik afsonalarning alohida blok sifatida ko‘rib chiqilishi mazkur janrning nisbatan mustaqil tipologik xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, suv obyektlari (daryo, ko‘l, buloq, kanal), tog‘ va tepaliklar, shahar hamda qishloq nomlari bilan bog‘liq afsonalar xalq tafakkurida tabiat hodisalari va ijtimoiy voqeliklarning mifologik talqini ustuvor ekanini namoyon etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Direkchi B., “Ipak yo‘li afsonalari tasnifi”, *Turkiyat tadqiqotlari jurnali*, 39-son, –Turkiya.
2.Ergun M., *Turk dunyosi afsonalarida o‘zgarish motivi*, I–II jildlar, –Anqara, TDK nashriyoti, 1997.
3.Jo‘rayev M., Eshonqulov J., *Folklorshunoslikka kirish*, – Toshkent, 2017.
4.Jo‘rayev M., *Ipak yo‘li afsonalari*, – Toshkent, 1993.
5.Mirzayev T. va boshq., *O‘zbek folklori*, – Toshkent, 2020.
6.*O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*, A harfi, – Toshkent, 2000.
7.*O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*, X harfi, Toshkent, 2000.
8.Qasqabasov S., *Janazıq*, – Ostona, Awdarma nashriyoti, 2002.
9.Safarov O., *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*, – Toshkent, 2010.

Abror KURBONMURATOV,
abrorbek1941@gmail.com

O‘ZBEK TILIDAGI EKSTREMISTIK DISKURSNING TURLARI VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek tilidagi ekstremistik diskursning mazmuniy va kommunikativ-pragmatik turlari hamda ularning lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi ekstremistik diskursni tasniflash mezonlarini tizimlashtirish, diniy, siyosiy, etnik, irqiy, ijtimoiy va mafkuraviy yo‘nalishlarning o‘ziga xos belgilarini aniqlash hamda ularni lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan tavsiflashdan iborat. Ishda konseptual tahlil, ilmiy adabiyotlarni qiyoslash, diskurs tahlili va lingvistik belgilarni tizimlashtirish usullaridan foydalaniladi. Ekstremistik diskursning mazmuniy yo‘nalishi uning kommunikativ vazifasi bilan bir xil emasligi, matnni baholashda leksik birliklar, nutqiy harakat, muallif pozitsiyasi, nishon guruh va kontekst o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olish zarurligi asoslanadi. Da’vat, tahdid, targ‘ibot, zo‘ravonlikni oqlash, qutblashtirish va legitimlashtirish kabi kommunikativ strategiyalarning lingvistik ifodalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *ekstremistik diskurs, diskurs tipologiyasi, lingvistik ekspertiza, diniy ekstremizm, siyosiy ekstremizm, leksik-semantik tahlil, pragmatika, nutqiy strategiya, lingvistik indikator, o‘zbek tili.*

Аннотация: в статье исследуются содержательные и коммуникативно-прагматические разновидности экстремистского дискурса на узбекском языке и их лингвистические особенности. Цель исследования заключается в систематизации критериев классификации экстремистского дискурса, выявлении характерных признаков религиозных, политических, этнических, расовых, социальных и идеологических направлений, а также их описании с позиций лингвистической экспертизы. Используются концептуальный анализ, сопоставление научной литературы, дискурс-анализ и систематизация языковых признаков. Обосновывается необходимость разграничения тематической направленности текста и его коммуникативной функции. Рассматриваются такие стратегии, как призыв, угроза, пропаганда, оправдание насилия, поляризация и легитимация.

Ключевые слова: *экстремистский дискурс, типология дискурса, лингвистическая экспертиза, религиозный экстремизм, политический экстремизм, лексико-семантический анализ, прагматика, речевые стратегии, лингвистические индикаторы, узбекский язык.*

Annotation: this article examines the thematic and communicative-pragmatic types of extremist discourse in Uzbek and their linguistic characteristics. The study aims to systematise the criteria for classifying extremist discourse, identify the distinctive features of religious, political, ethnic, racial, social, and ideological orientations, and describe them from the perspective of forensic linguistic analysis. The methodology combines conceptual analysis, comparison of scholarly literature, discourse analysis, and the systematic description of linguistic features. The article argues that the thematic orientation of a text should be distinguished from its communicative function. Particular attention is paid to speech strategies such as incitement, threats, propaganda, justification of violence, polarisation, and legitimation.

Key words: *extremist discourse, discourse typology, forensic linguistics, religious extremism, political extremism, lexical-semantic analysis, pragmatics, speech strategies, linguistic indicators, Uzbek language.*

Raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy munosabatlarning muhim qismi internet muhitida amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va elektron axborot platformalari turli qarashlar, mafkuraviy pozitsiyalar hamda ijtimoiy munosabatlarni ifodalash imkoniyatlarini kengaytirdi. Raqamli muloqotda zo‘ravonlikni oqlash, muayyan guruhlarga qarshi tajovuzni targ‘ib qilish va keskin qarama-qarshiliklarni shakllantirishga qaratilgan matnlar ham uchrashi mumkin. Bunday kommunikativ hodisalarni lingvistik jihatdan tadqiq etish zamonaviy amaliy tilshunoslik, sud lingvistikasi va kompyuter lingvistikasining dolzarb vazifalaridan biridir. Ekstremistik diskursni

o‘rganishda uning mazmuniy yo‘nalishi va kommunikativ vazifasini farqlash alohida ahamiyatga ega. Chunki diniy, siyosiy yoki ijtimoiy mavzudagi matnning mavjudligi uning ekstremistik mazmunga egaligini anglatmaydi. Matnning kommunikativ xususiyatini aniqlash uchun unda qanday fikr ilgari surilgani, qanday harakat baholangani, muallifning munosabati va adresatga qanday ta’sir ko‘rsatish maqsadi ifodalangani tekshirilishi kerak. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa xabarlar, izohlar va qayta ulashilgan materiallarda matnning asl mazmuni oldingi yozishmalar, iqtiboslar va kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mazkur maqolada ekstremistik diskurs tushunchasi zo‘ravonlikni oqlash yoki unga undash, muayyan guruhga qarshi tajovuzni maqbullashtirish va shu mazmundagi kommunikativ munosabatlarni ifodalovchi matnlarni lingvistik tadqiq etish uchun qo‘llanadi. Ushbu ta’rif tadqiqotning nazariy chegarasini belgilaydi va ekstremizmning huquqiy ta’rifini almashtirmaydi. Nafrat nutqi, haqorat, radikal qarash va ekstremistik da’vat o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin, biroq ularni bir xil lingvistik kategoriya sifatida talqin qilish ilmiy tasnifning aniqligini pasaytiradi. Shuning uchun matnning mavzusi, nutqiy harakat turi va kontekstual xususiyatlarini mustaqil mezonlar sifatida ajratish zarur. Kurbonmuratovning ekstremistik matnlarni kategoriyalashtirish va avtorizatsiyalashga bag‘ishlangan dissertatsiyasida mazkur yo‘nalishning lingvistik ekspertiza bilan bog‘liq masalalari tadqiq etilgan[1]. Ushbu maqolada mazkur tadqiqot yo‘nalishi davom ettirilib, ekstremistik diskursning mazmuniy va kommunikativ-pragmatik turlarini tizimlashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor diskursning qanday mavzuga oidligi bilan uning qanday kommunikativ harakatni amalga oshirishi o‘rtasidagi farqni aniqlashga qaratiladi. Davidsonning avtomatik nafrat nutqini aniqlashda haqoratli birliklar bilan nafrat ifodalarini farqlash muammosini ko‘rsatgan.[2] Ularning tadqiqotidan kelib chiqadigan metodologik xulosa shundan iboratki, ayrim so‘zlarning mavjudligi matnning kommunikativ vazifasini to‘liq ifodalamaydi. Masalan, salbiy baholovchi birlik jurnalistik tanqidda, yoki ilmiy tavsifda, yo haqoratli murojaat tarkibida turlicha vazifani bajarishi mumkin. Shu sababli ekstremistik diskursni tasniflashda faqat leksik birliklarga tayanish yetarli emas. Van Dijk diskurs tahlilida ijtimoiy guruhlar, mafkuraviy pozitsiyalar va kommunikativ munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratadi.[3] Ushbu yondashuv guruhlarni ijobiy va salbiy tasvirlash, “biz” va “ular” qarama-qarshiligini shakllantirish hamda muayyan ijtimoiy pozitsiyani til orqali ifodalash mexanizmlarini tushuntirishda muhimdir. Biroq guruhlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning mavjudligi o‘z-o‘zidan ekstremistik mazmunni anglatmaydi. Uning kommunikativ yo‘nalishi matnning boshqa semantik va pragmatik belgilariga bog‘liq. Talat va hammualliflar onlayn radikallashuvni tabiiy tilni qayta ishlash vositalari yordamida o‘rganishda kommunikativ jarayonlarning murakkabligi va vaqt davomida o‘zgarishini hisobga olish zarurligini muhokama qilgan.[4] Mazkur yondashuv ekstremistik diskursni muayyan shaxsning barqaror xususiyati sifatida emas, balki konkret matn va kommunikativ vaziyat doirasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda tahlil birligi sifatida muallif shaxsi emas, balki kontekst bilan ta’minlangan matn va undagi nutqiy harakat tanlanadi. Tadqiqot nazariy-konseptual yondashuv asosida bajarildi. Material sifatida ekstremistik diskurs, nafrat nutqi, tanqidiy diskurs tahlili va onlayn radikallashuvga oid ilmiy adabiyotlar tanlandi. Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Dastlab ekstremistik diskursning mazmuniy yo‘nalishlari ajratildi. Keyingi bosqichda ushbu yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan kommunikativ-pragmatik strategiyalar tavsiflandi. So‘ng mazkur strategiyalarni ifodalovchi leksik-semantik, morfologik, sintaktik va diskursiv belgilar tizimlashtirildi. Tadqiqot doirasida maxsus korpus yaratilmagan va statistik tajriba o‘tkazilmagan. Shuning uchun quyidagi tasnif empirik jihatdan tasdiqlangan natija emas, balki keyingi tadqiqotlarda tekshirilishi mumkin bo‘lgan nazariy model sifatida taqdim etiladi. Ekstremistik diskursning mazmuniy tasnifida diniy, siyosiy, etnik, irqiy, ijtimoiy va mafkuraviy yo‘nalishlarni ajratish mumkin. Mazkur kategoriyalar matnning qaysi ijtimoiy yoki g‘oyaviy sohaga oidligini aniqlashga yordam beradi. Biroq ularning chegaralari aniq emas. Masalan, diniy mazmundagi matnda siyosiy maqsad ifodalanishi yoki mafkuraviy qarash etnik guruhga nisbatan munosabat bilan ifodalanishi mumkin. Shu sababli mazmuniy kategoriyalarni bir-birini istisno qiluvchi guruhlar sifatida emas, balki birga qo`llanishi mumkin bo‘lgan diskursiv yo‘nalishlar sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq.

Diniy-ekstremistik diskurs diniy tushunchalar, qadriyatlar va tasavvurlardan zo‘ravonlikni oqlash yoki unga undash maqsadida foydalanish bilan bog‘liq kommunikativ tuzilmalarni qamrab oladi. Bunday matnlarda diniy terminlar, majburiyatni ifodalovchi birliklar, qat’iy baholash va muayyan harakatni asoslashga qaratilgan sintantik konstruksiyalar uchrashi mumkin. Biroq diniy terminologiyaning mavjudligi mustaqil ravishda ekstremistik mazmunni ko‘rsatmaydi. Masalan, diniy qarashlarni bayon qilish, diniy ta’limotlarni qiyoslash yoki diniy masalalar yuzasidan bahslashish ekstremistik da’vat bilan tenglashtirilmasligi kerak. Lingvistik ekspertizada diniy tushunchaning mavjudligi emas, uning qanday harakatni asoslash uchun ishlatilgani va muallifning ushbu harakatga munosabati aniqlanishi zarur. Siyosiy-ekstremistik diskurs siyosiy maqsadlarni zo‘ravonlik orqali amalga oshirishni oqlash yoki tajovuzkor harakatlarga undash bilan bog‘liq kommunikativ munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu diskursda hokimiyat, boshqaruv, siyosiy tuzum va ijtimoiy tartibga oid terminlar, guruhlarni qarama-qarshi qo‘yuvchi birliklar hamda harakatga undovchi konstruktsiyalar uchrashi mumkin. Biroq siyosiy tanqid, norozilik yoki muqobil qarashning ifodalanishi ekstremistik mazmun mavjudligini anglatmaydi. Matnning kommunikativ vazifasini aniqlashda unda zo‘ravonlikka undash yoki uni maqbullashtirish mavjudligi alohida tekshiriladi. Etnik ekstremistik diskurs muayyan etnik yoki milliy guruhga qarshi tajovuzni oqlash, guruh a’zolarini umumlashtirilgan salbiy xususiyatlar orqali tasvirlash va ularga nisbatan zo‘ravonlikni targ‘ib qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.[5] Mazkur diskursda etnonimlar, salbiy baholovchi birliklar, umumlashtiruvchi olmoshlar va qarama-qarshi guruhlarni ifodalovchi nominatsiyalar muhim o‘rin tutadi. Bunda muayyan shaxsning xatti-harakatini tanqid qilish bilan butun etnik guruhga salbiy xususiyat yuklash o‘rtasidagi semantik farq hisobga olinishi lozim. Salbiy stereotip, kamsitish va zo‘ravonlikka undash turli kommunikativ kategoriyalar ekanligi e’tibordan chetda qolmasligi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kurbonmuratov, A. A. (2026). *Lingvistik ekspertizada ekstremistik matnni kategoriyalashtirish va avtorizatsiyalash* [PhD dissertatsiyasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti]. Qo‘lyozma.

2. Davidson, T., Warmsley, D., Macy, M., & Weber, I. (2017). Automated hate speech detection and the problem of offensive language. *Proceedings of the International AAAI Conference on Web and Social Media, 11*(1), 512–515. https://doi.org/10.1609/icwsm.v11i1.14955

3. van Dijk, T. A. (1993). Principles of critical discourse analysis. *Discourse & Society, 4*(2), 249–283. https://doi.org/10.1177/0957926593004002006

4. Talat, Z., Schlichtkrull, M. S., Madhyastha, P., & De Kock, C. (2025). Pathways to radicalisation: On research for online radicalisation in natural language processing and machine learning. *Proceedings of the 9th Workshop on Online Abuse and Harms (WOAH)*, 276–283. https://aclanthology.org/2025.woah-1.25/

5. Bender, E. M., & Friedman, B. (2018). Data statements for natural language processing: Toward mitigating system bias and enabling better science. *Transactions of the Association for Computational Linguistics, 6*, 587–604. https://doi.org/10.1162/tacl_a_00041

UDK: 81’38:81’42

Nargiza XOLBEKOVA,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi ingliz tili o‘qituvchisi
kholbekova.1987@gmail.com
ORCID iD: 0009-0002-2921-7572

BADIIY MATNLARDA METALINGVISTIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy matnlardagi metalingvistik birliklarning funksional xususiyatlari R. Yakobsonning tilning olti funksiyasi modeli asosida tahlil qilinadi. Kontekstual tahlil, metalingvistik identifikatsiya va qiyosiy-chog‘ishtirma usullari qo‘llanildi. Natijalar metalingvistik birliklarning uch vazifasini ko‘rsatadi: ma’nolarni tabaqalashtirish, kommunikativ noaniqlikni yuzaga keltirish va obrazlilikni kuchaytirish. Xulosalar lingvopoetika, metalingvistika va kognitiv tilshunoslikni o‘zaro bog‘laydi.

Kalit so‘zlar: *metatil, metalingvistik birlik, poetik funksiya, lingvopoetika, kommunikativ noaniqlik, obrazlilik, she’riy matn.*

Аннотация: в статье рассматриваются функции металингвистических единиц в поэтических текстах в рамках модели шести функций языка Р. Якобсона. Использованы контекстуальный анализ, металингвистическая идентификация и сравнительно-сопоставительный метод. Выявлены три основные функции: расслоение значений, создание коммуникативной неоднозначности и усиление образности. Результаты дополняют исследования на пересечении лингвопоэтики, металингвистики и когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: *метаязык, металингвистическая единица, поэтическая функция, лингвопоэтика, коммуникативная неоднозначность, образность, поэтический текст.*

Annotation: this article analyses metalinguistic units in poetic texts through Jakobson’s six-function model of language. It uses contextual analysis, metalinguistic identification, and comparative methods. The findings identify three functions: stratifying meaning, creating communicative ambiguity, and intensifying figurative expression. The study connects linguopoetics, metalinguistics, and cognitive linguistics.

Key words: *metalanguage, metalinguistic unit, poetic function, linguopoetics, communicative ambiguity, figurativeness, poetic text.*

Kirish. Metatil masalasi falsafa va mantiq bilan bog‘liq. A. Tarski va R. Carnap uni obyekt tilini tasvirlovchi ikkilamchi til sifatida izohlagan. R. Yakobson metatilni kommunikatsiya modeliga kiritib, kodning umumiyligini tekshirishga qaratilgan metalingvistik funksiyani ajratgan.

She’riy matnda metatil kodni izohlash bilangina cheklanmay, poetik ma’no ham yaratadi. Shu bois uning vazifalarini aniqlash lingvopoetikaning muhim yo‘nalishidir.

Maqolada metalingvistik birliklarning uch funksiyasi — ma’nolarni tabaqalashtirish, kommunikativ noaniqlik va obrazlilikni kuchaytirish — lingvopoetika, metalingvistika hamda kognitiv tilshunoslik asosida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili

Mantiqiy-falsafiy yo‘nalishda A. Tarski (1936) obyekt tili va metatilni farqlagan, R. Carnap (1988) til darajalarini tavsiflagan. Bu qarash metatilni izohlash vositasi deb biladi.

R. Yakobson metalingvistik funksiyani kommunikativ modelga kiritib, uni kundalik nutq va ilmiy tasvirda uchraydigan universal hodisa sifatida izohlagan.

Kognitiv-psixolingvistik yo‘nalishda J. Verschueren (2000), M. Dakovskaya (1993) va A. Vejbitskaya (2001) metatilni bilish hamda muloqot bilan bog‘lagan. Bialystok (1991) metalingvistik bilimning ongli va avtomatik ko‘rinishlarini farqlagan.

G. Xopkins she’riyatni tovush figuralari bilan bog‘lagan, U. Empson esa noaniqlikni poetik ta’sir manbai deb hisoblagan.

O‘zbek tilshunosligida metatil B. Qodirov, N. Mahmudov va stilistika-pragmalingvistika tadqiqotlarida yoritilgan, biroq uning poetik matndagi funksiyalari alohida yetarlicha o‘rganilmagan.

Metodologiya

Tadqiqotda metalingvistik identifikatsiya, kontekstual va qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil usullari qo‘llanildi. Material sifatida jahon she’riyati, folklor paremiologiyasi va she’riy prozadagi metanutqiy konstruksiyalar tanlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Ma’nolarni tabaqalantirishning metalingvistik mexanizmi

Metalingvistik birliklar ma’noni bir necha qatlamga ajratadi. R. Yakobsonning ekvivalentlik tamoyiliga ko‘ra, til birligi denotativ ma’nosi bilan birga o‘ziga nisbatan metalingvistik sharhni ham yuzaga chiqaradi.

So‘z uch qatlamda ishlaydi: leksik (denotativ) ma’no, so‘z haqidagi metalingvistik ishora va ular ziddiyatidan tug‘iladigan poetik ta’sir. Bu tuzilma metalingvistik birliklarning she’riy matndagi faoliyatini ko‘rsatadi.

“Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham, boyning o‘g‘li gapirsin” maqolida leksik ma’no va boylik imtiyozini bildiruvchi ijtimoiy ma’no ziddiyati qo‘shimcha qatlam yaratadi.

2. Kommunikativ noaniqlikning metalingvistik tabiati

Ikkinchi funksiya — kommunikativ noaniqlikni maqsadli yaratish. U. Empson noaniqlikni she’riyatning muhim vositasi deb biladi; u metatil va obyekt tilining qorishishidan yuzaga keladi.

Shekspirning Mark Antoniy nutqidagi “Honourable man” iborasi maqtovdan neytral bayonga, so‘ng istehzoga o‘tadi. Ma’noning kontekstda o‘zgarishi kommunikativ noaniqlikni kuchaytiradi.

Ironik matnlarda so‘zning ma’nosi kontekst orqali o‘zgaradi. “O‘z aybini bilgan avliyo” iborasida “avliyo” diniy emas, ironik-metalingvistik ma’noda qo‘llangan.

3. Obrazlilikni kuchaytiruvchi metalingvistik vositalar

Uchinchi funksiya — obrazlilikni kuchaytirish. Tilning o‘z tuzilishiga murojaat qilish allegoriya, metafora va kinoyaga asos bo‘ladi.

Poetik etimologiyada tovush, ichki shakl va ma’no munosabati yangilanib, tasviriy kuch ortadi; metalingvistik birlik badiiy obraz yaratadi.

Folklor parallelizmi sinonimik va antonimik munosabatlarni faollashtirib, obrazni boyitadi. Rus to‘y qo‘shig‘idagi “Bir jasur yigit ayvonga ketayotgan edi, Vasiliy manoraga ketayotgan edi” misolida sintaktik parallelizm semantik ekvivalentlikni ifodalaydi.

Xulosa. Metalingvistik birliklar leksik, metalingvistik va poetik qatlamlarni birlashtiradi. Kommunikativ noaniqlik obrazning ko‘p ma’noliligini ta’minlaydi; poetik etimologiya va grammatik parallelizm esa obrazlilikni kuchaytiradi. Natijalar lingvopoetika va metalingvistika kesishmasida yangi yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda o‘zbek she’riyatidagi birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini tizimli o‘rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bart, R. (1994). Tanlangan asarlar: Semiotika. Poetika. – Moskva.
2. Bialystok, E. (1991). Metalinguistic dimensions of bilingual language proficiency. Language Processing in Bilingual Children, 113–140.
3. Carnap, R. (1988). Meaning and Necessity: A Study in Semantics and Modal Logic. Chicago University Press.
4. Empson, W. (1947). Seven Types of Ambiguity. New Directions.
5. Jakobson, R. (1975). Lingvistika va poetika. Strukturizm: “uchun” va “qarshi”. – Moskva.
6. Jakobson, R. (1985). Tanlangan asarlar. – Moskva.
7. Kashkin, V. B. (2002). Tilning kundalik falsafasi va til qarama-qarshiligi. Nazariy va amaliy tilshunoslik, 3, 34–51.
8. Kulikova, I. S., & Salmina, D. V. (2002). Metalingvistikaga kirish. Sankt-Peterburg.
9. Ostapenko, D. I. (2015). Tarjima metamatni: tipologiyasi, tuzilishi va funksiyalari. – Moskva.
10. Tarski, A. (1936). Der Wahrheitsbegriff in den formalisierten Sprachen. Studia Philosophica, 1, 261–405.
11. Verschueren, J. (2000). Notes on the role of metapragmatic awareness in language use. Pragmatics, 10(4), 439–456.
12. Vejbitskaya, A. (2001). Kalit so‘zlar orqali madaniyatlarni tushunish. Moskva.
13. Xopkins, G. M. (1967). She’rlar (4-nashr). London: Oxford University Press.

Guliston QOBILOVA,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti, “Filologiya” kafedrasi
E-mail: kobilovaguliston54@gmail.com



ILMIY-TEXNIK REKLAMA MATNLARIDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR: GLOBAL VA MAHALLIY KONTEKSTLAR

(Ingliz va o‘zbek tillari misolida)

Annotatsiya: maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy-texnik reklama matnlarida global texnologik leksika hamda mahalliy xizmat, qulaylik va ishonch semantikasining o‘zaro munosabati o‘rganiladi. Ochiq korpus sifatida Google’ning ingliz tilidagi Chromebook yangiliklari sahifasi, Artel’ning o‘zbek tilidagi servis sahifasi va UZTELECOM’ning o‘zbek tilidagi internet xizmatiga ulanish sahifasidagi tanlangan mikromatnlar olinadi. Materiallar sifat jihatidan qiyosiy diskurs tahlili va nutqiy aktlar talqini yordamida o‘rganildi. Inglizcha matnda shaxsiylashtirish hamda foydalanish imkoniyati, o‘zbekcha matnlarda esa aniq xizmat muddati, hududiy xizmat infratuzilmasi va mahalliy to‘lov qulayligi ustuvorligi kuzatildi. Bular milliy madaniyatga oid qat’iy universal qonuniyat emas, balki mazkur kichik korpusning pragmatik xususiyatlaridir. Texnik atamani mahalliy foyda va tekshiriladigan dalil bilan bog‘lash samarali lokalizatsiya mezoni sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy-texnik reklama, lingvomadaniyat, pragmatika, lokalizatsiya, global diskurs, mahalliy kontekst, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Annotation: this article examines how global technology vocabulary interacts with local meanings of service, convenience and trust in English and Uzbek technology advertising. A small purposive corpus comprises selected microtexts from Google’s English Chromebook update page and the Uzbek service pages of Artel and UZTELECOM. Qualitative contrastive discourse analysis identifies appeals to personalization and accessibility in the English case, and to verifiable service commitments and local payment convenience in the Uzbek cases. The findings describe these particular texts rather than essential properties of either language community. The article argues for linking technical claims to locally intelligible benefits and evidence.

Key words: *technology advertising, linguoculture, pragmatics, localization, global discourse, local context, English, Uzbek.*

Аннотация: в данной статье исследуется взаимодействие глобальной технологической лексики с местными значениями сервиса, удобства и доверия в рекламе технологических товаров на английском и узбекском языках. Небольшой целенаправленный корпус включает в себя отобранные микротексты со страницы обновления Chromebook на английском языке от Google и узбекских страниц сервисов компаний Artel и UZTELECOM. Качественный контрастивный дискурсивный анализ выявляет призывы к персонализации и доступности в английском варианте, а также к проверяемым обязательствам по предоставлению услуг и удобству местной оплаты в узбекском варианте. Результаты описывают эти конкретные тексты, а не существенные свойства какого-либо языкового сообщества. В статье утверждается необходимость связывания технических утверждений с местными понятными преимуществами и доказательствами.

Ключевые слова: *реклама технологических товаров, лингвокультура, прагматика, локализация, глобальный дискурс, местный контекст, английский, узбекскийреклама технологических товаров, лингвокультура, прагматика, локализация, глобальный дискурс, местный контекст, английский, узбекский*

Kirish (Introduction)

Ilmiy-texnik mahsulot reklamasida iste’molchi bir vaqtning o‘zida ikki turdagi axborotni qabul qiladi: qurilma yoki xizmatning texnik imkoniyati va bu imkoniyat uning kundalik ehtiyojini qanday qondirishi. “Sun’iy intellekt”, “ilova”, “raqamli xizmat” kabi nomlar xalqaro texnologik muomalada tez tarqaladi; ularning foydasi esa auditoriyaning tili, tajribasi, xarid sharoiti va ishonch mezonlari bilan izohlanadi. Shuning uchun aynan bir funksiyani boshqa tilga ko‘chirish so‘zma-so‘z tarjima bilan yakunlanmaydi. Reklama da’vosi, dalili va adresatga murojaat shakli qayta tuzilishi mumkin.

Reklamani madaniy muhitga moslashtirish bo‘yicha tarjimashunoslik tadqiqotlari marketing xabarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy cheklovlarga bog‘liqligini qayd etadi [1]. Madaniyatlararo pragmatika esa nutqiy birlikni alohida so‘z sifatida emas, adresat, vaziyat va kommunikativ niyat birligida ko‘radi [2].

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi ilmiy-texnik reklama mikromatnlarida global texnologik tushuncha mahalliy foydaga qanday aylantirilishini ko‘rsatishdir. Savollar quyidagicha: texnik nom qanday kundalik natija bilan bog‘lanadi; ishonch qanday dalil bilan yaratiladi; ingliz va o‘zbek materiallari orasidagi farqning qaysi qismi tilga, qaysi qismi mahsulot turi va kommunikativ vazifaga tegishli? Tadqiqot katta korpusdagi chastotalarni aniqlashga da’vo qilmaydi.

Material va metodlar (methods)

2026-yil 6-oktabr holatida ochiq ko‘rinib turgan uchta kompaniya sahifasidan maqsadli tanlov amalga oshirildi: Google’ning inglizcha Chromebook yangiliklari sahifasidagi imkoniyat ta’rifi [4], Artel’ning o‘zbekcha servis xizmatlari sahifasidagi afzalliklar bloki [5] hamda UZTELECOM’ning o‘zbekcha internetga ulanish sahifasidagi qulayliklar bloki [6]. Tahlil birligi — sarlavha yoki bitta xizmat da’vosidan iborat mikromatn. Bu sahifalar bir xil mahsulotning ikki tildagi parallel tarjimasi emas; qiyos til-madaniyatga oid ehtimoliy strategiyalarni ko‘rsatadi, sababiy til farqini isbotlamaydi.

Kodlashda besh belgi qo‘llandi: 1) global texnik birlik, 2) kundalik foyda, 3) murojaat/agentlik, 4) dalillash usuli, 5) mahalliy kontekstga ishora. Har bir parcha tavsifiy va pragmatik qatlamda

o‘qildi: ifoda qanday ma’lumot beradi va iste’molchidan qanday xulosa yoki harakat kutadi? Tarjima namunasi sifatida keltirilgan o‘zbekcha variantlar muallifning tahliliy taklifidir; ular brendning rasmiy matni hisoblanmaydi. Ochiq sahifalar yangilanib turishi mumkin, shu sababli havola va ko‘rilgan sana adabiyotlarda berildi.

Natijalar (results)

Inglizcha misolda Google sahifasi “Google AI” orqali fonlarni moslashtirishni, shuningdek yuz harakatlari yordamida qurilmani boshqarish imkoniyatini ifodalaydi [4]. Birinchi da’vo texnik nomni ijodiy erkinlik bilan bog‘laydi; ikkinchisi imkoniyatni jismoniy harakati cheklangan foydalanuvchi uchun aniq kundalik vazifaga aylantiradi. Pragmatik ta’sir markazi “siz nima qila olasiz?” savolidir.

Artel sahifasida “3 yil ta’mirlash kafolati”, “32 ta xizmat ko‘rsatish markazlari”, “3 soatdan boshlab ta’mirlash” birliklari xizmatdan keyingi bosqichni raqamli dalil orqali tasvirlaydi [5]. Kafolat va servis tarmog‘i mahsulot tanlashdagi noaniqlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu birliklar O‘zbekiston auditoriyasining muayyan universal madaniy xususiyatini emas, aynan kompaniya servis taklifining qanday dalillanganini ko‘rsatadi. UZTELECOM sahifasidagi “Ofisga tashrifisiz 1 kun ichida ro‘yxatdan o‘tish” va ilova orqali to‘lovdagi “3% cashback” takliflari [6] texnik infratuzilmadan ko‘ra xarid jarayonidagi vaqt va moliyaviy qulaylikni oldinga chiqaradi. Inglizcha matndagi shaxsiy moslashtirishga o‘xshash ravishda bu yerda ham foyda adresat harakati bilan bog‘langan; farq shundaki, foyda mahalliy xizmat kanali va to‘lov amaliyotida konkretlashgan.

Manba / til	Texnik yoki xizmat belgisi	Pragmatik va’da	Kontekst
Google / inglizcha	AI, yuz harakati bilan boshqarish	Moslashtirish, foydalanish imkoniyati	Individual tajriba
Artel / o‘zbekcha	Kafolat, servis tarmog‘i	Xavfni kamaytirish, xizmatga ishonch	Hududiy xizmat
UZTELECOM / o‘zbekcha	Ilova, onlayn ulanish	Vaqt va to‘lov qulayligi	Mahalliy xizmat jarayoni

1-jadval. Tanlangan mikromatnlarning qiyosiy pragmatik xaritasi. Manbalar: [4–6].

Uch matnning umumiy mexanizmi “xususiyat → foyda → ishonch yoki harakat” ketma-ketligidir. Farq foydaning konkret predmetida namoyon bo‘ladi: moslashtirish va foydalanish imkoniyati, servis kafolati, ro‘yxatdan o‘tish hamda to‘lov qulayligi. Shunday qilib, “global” va “mahalliy”ni tillarning o‘zgarmas belgisi sifatida emas, reklama matnida bir paytda ishlaydigan resurslar sifatida tavsiflash o‘rinlidir.

Muhokama (discussion)

Lingvomadaniy moslashtirishda “AI” kabi xalqaro qisqartma saqlanishi mumkin, ammo uning yonida foydaning oddiy o‘zbekcha ifodasi zarur. Masalan, inglizcha “Customize backgrounds with Google AI” mazmunini “Sun’iy intellekt yordamida videoqo‘ng‘iroq fonini o‘zingizga moslang” tarzida berish birgina terminning tarjimasidan ko‘ra vazifa va natijani aniqroq qiladi. Bu muallif taklif qilgan tahliliy variant bo‘lib, korpusdagi rasmiy o‘zbekcha slogan emas.

“Cashback” kabi o‘zlashma birlik o‘zbekcha matnda xalqaro raqamli savdo diskursi belgisidir. “To‘lovning bir qismi qaytariladi” singari izoh manfaatni kengroq auditoriya uchun ochadi. Kod almashishi doimiy ravishda yomon yoki yaxshi emas: maqsadli auditoriya terminni bilishi, matn joyi va normativ aniqlik darajasi qarorni belgilaydi.

Amaliy jihatdan lokalizatsiya uchun uch bosqichli tekshiruv taklif etiladi. Birinchidan, atama va texnik da’vo mahsulot hujjatiga mos bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, da’vo foydalanuvchi vazifasiga, masalan, moslash, ta’mirlash yoki ulanishga ulanadi. Uchinchidan, ishonchni ta’minlaydigan shart, manzil, muddat yoki xizmat kanali ochiq beriladi. Shu yo‘l bilan global texnologik birlik mahalliy auditoriyaga tushunarli va tekshiriladigan xabarga aylanadi.

Xulosa (conclusion)

Tanlangan inglizcha va o‘zbekcha ilmiy-texnik reklama mikromatnlari texnik imkoniyatni kundalik foyda bilan bog‘lashda bir umumiy pragmatik tamoyilga tayanadi. Inglizcha misolda individual moslashtirish va foydalanish imkoniyati, o‘zbekcha misollarda xizmat muddati, servis tarmog‘i hamda to‘lov qulayligi ko‘zga tashlandi. Bu tafovutlar mazkur korpusda kuzatilgan, til yoki milliy madaniyatning doimiy belgisi sifatida talqin qilinmaydi. Reklama lokalizatsiyasida termin, foyda va tekshiriladigan dalil uyg‘unligi asosiy lingvopragmatik mezon bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guidère, M. Advertising and Localization. In: The Oxford Handbook of Translation Studies. Oxford University Press, 2011. https://academic.oup.com/edited-volume/34526/chapter/292918604

2. Kecskes, I. Cross-Cultural and Intercultural Pragmatics. In: The Oxford Handbook of Pragmatics. Oxford University Press, 2017. https://academic.oup.com/edited-volume/28055/chapter-abstract/212013591

3. Hermeking, M. Culture and Internet Consumption: Contributions from Cross-Cultural Marketing and Advertising Research. Journal of Computer-Mediated Communication, 11(1), 2005, 192–216. https://doi.org/10.1111/j.1083-6101.2006.tb00310.x

4. Google. June 2025: Latest update — Google Chromebooks (inglizcha sahifa). https://www.google.com/intl/en_ca/chromebook/whatsnew/ (murojaat: 06.10.2026).

5. Artel Electronics. Servis markazining afzalliklari (o‘zbekcha sahifa). https://artelgroup.org/service (murojaat: 06.10.2026).

6. UZTELECOM. Internet xizmatiga ulanish (o‘zbekcha sahifa). https://uztelecom.uz/uz/umumiy/onlayn-ariza/internet-xizmatiga-ulanish/ (murojaat: 06.10.2026).

Yulduz TURSUNOVA,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
ORCID: 0009000946117216
UDK ; 811.512.133(045)

BADIIY ASARDAGI POETONIMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

(ABDULLA QAHHOR ASARLARI MISOLIDA)

Annotatsiya: matn mazmunini chuqur tushunish uchun nafaqat ma’lum bir madaniyat doirasida, balki madaniyatlararo aloqa darajasida ham ona tilida so‘zlashuvchilarning bilimlarini kognitiv va ijtimoiy tahlil qilish zarur.

Matnning mazmuni nafaqat axloqiy-estetik mezonlar orqali baholanishi mumkin, balki unda yozuvchining obrazli ifoda vositalaridan foydalanishdagi badiiy mahorati ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘quvchining interpretativ faoliyati, ya’ni intellektual izlanishlari, semantik qatlamlarni anglash va kontekstual aloqalarni tiklashga qaratilgan individual sa’y-harakatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Matnga intertekstual unsurlarni kiritish orqali muallif badiiy ifodaning ko‘lamini kengaytiradi, bu esa matnni yanada murakkab, ko‘p qatlamli va boy semantik tuzilishga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada atoqli otlar, jumladan Abdulla Qahhor asarlari onomastikasi ham konsept bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Bu jarayonda madaniyatning muhim konseptlaridan bo‘lgan pretsedent nomlarga milliy madaniyatimizni namoyon qilishdagi asosiy birlik sifatida qaralgan.

Kalit so‘zlar: *konsept, pretsedent birlik, pretsedent nom, ramziy ma’no, onomastik metafora va b.*

Аннотация: для глубокого понимания содержания текста необходимо проводить когнитивный и социальный анализ знаний носителей языка не только в рамках определённой культуры, но и на уровне межкультурной коммуникации.

Содержание текста может оцениваться не только посредством нравственно-эстетических критериев, но и через художественное мастерство писателя в использовании образных средств выражения. Вместе с тем важное значение имеет интерпретативная деятельность читателя, то есть его индивидуальные интеллектуальные усилия, направленные на осмысление семантических пластов и восстановление контекстуальных связей. Включение интертекстуальных элементов в текст позволяет автору расширить границы художественного выражения, что способствует формированию более сложной, многослойной и богатой семантической структуры текста.

В данной статье имена собственные также рассматриваются в связи с концептом. В этом процессе прецедентные имена, являющиеся одними из важных концептов культуры, рассматриваются нами как основные единицы, репрезентирующие национальную культуру.

Ключевые слова: *концепт, прецедентная единица, прецедентное имя, символическое значение, ономастическая метафора и др.*

Annotation: for a deep understanding of the content of a text, it is necessary to conduct a cognitive and social analysis of the knowledge of native speakers not only within the framework of a particular culture but also at the level of intercultural communication.

The content of a text can be evaluated not only through moral and aesthetic criteria but also through the writer’s artistic mastery in the use of figurative means of expression. At the same time, the reader’s interpretive activity, that is, their individual intellectual efforts aimed at understanding semantic layers and reconstructing contextual connections, is also of great importance. By incorporating intertextual elements into a text, the author expands the scope of artistic expression, thereby contributing to the formation of a more complex, multilayered, and semantically rich textual structure.

In this article, proper names are also examined in relation to the concept. In this process, precedent names, which are considered one of the important concepts of culture, are regarded as key units representing national culture.

Key words: *concept, precedent unit, precedent name, symbolic meaning, onomastic metaphor, etc.*

Har bir tabiiy til dunyoni idrok etish va tashkil etishning (“konseptualizatsiya”) o‘ziga xos usulini aks ettiradi. Unda ifodalangan ma’nolar ma’lum bir yagona qarashlar tizimiga, barcha ona tilida so‘zlashuvchilar uchun majburiy bo‘lgan umumiy falsafaga aylanadi.

Konseptning tilda voqealanishi haqidagi nazariy qarashlarni atoqli otlar hosil bo‘lishining kognitiv mexanizmlarini aniqlashga tatbiq etilsa, atoqli otlarda nominatsiya tamoyillarini belgilash, atoqli otlarning tadriji, ularda obyekt – nominator – nom munosabatlari

masalalariga bir qadar oydinlik kiritish mumkin bo‘ladi [1; 100].

Yuqoridagi fikrlar muallifi D.Yo‘ldoshev atoqli ot orqali voqelangan konsept, avvalo, u nomlangan obyekt xususidagi umumiy tasavvur, tushuncha ekanligini aytib, konsept va tushuncha o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatadi:

Konsept – atoqli ot haqidagi umumiy tasavvur, tushuncha esa xususiy tasavvurdir.

Atoqli ot tilda konsept, nutqda tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

Onomastik birliklar tadqiqida atoqli otlar ko‘pincha konsept sifatida tahlil qilinadi [1; 100].

Pretsedent birliklar tadqiq qilinishiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi: pretsedent matn, pretsedent ibora, pretsedent vaziyat va pretsedent nom. Mazkur birliklar lingvokulturologiyaning o‘rganish obyektlaridan biri sanaladi.

Pretsedent nomlar tayyor mazmuniy bloklar bo‘lishi va ular tilshunoslikda ko‘p qirrali hodisa sifatida turli aspektlarda o‘rganilishi kerakligini Y.N.Karaulov ta’kidlagan [2; 216-217].

Pretsedent birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) til egalarining xotirasida mavjud bo‘lishlik; 2) mashhurlik; 3) biror mashhur matn yoki vaziyat bilan bog‘liqlik; 4) ramziy ma’no kasb etishi [1; 58].

Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasida o‘zbek xalqining sho‘rolar davridagi ijtimoiy hayoti qalamga olingan. Asarda “Bo‘ston” kolxozining partiya tashkiloti sekretari – Saida va kolxozning raisi Arslonbek Qalandarov o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar aks ettirilgan. Qissada yozuvchining badiiy maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi ko‘plab antroponimlar qo‘llangan. Ular badiiy matnda pretsedent nom sifatida turli funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi.

Atoqli otlar xalqning turmushi, xo‘jalik faoliyati va o‘tmishi haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalardan biridir. O‘zbek adiblari tomonidan asarlarda qo‘llangan atoqli otlar ham xalq hayotining turli jihatlaridan darak beruvchi vosita sanaladi. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan atoqli otlar haqida ilmiy-nazariy ma’lumotga ega bo‘lish adibning maqsadini, asarning asl mohiyatini tushunishga ko‘mak beradi. Chunki xalq tarixi, o‘tmishi, hoziri va kelajagi mana shu madaniy manbalarda o‘z aksini topgan.

Pretsedent birliklar orasida pretsedent nomlar o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu nom orqali yozuvchi kitobxonga o‘zining maqsadini ochiqroq yetkaza oladi.

O‘zbek nomshunosligida badiiy uslubda qo‘llangan pretsedent nomlarni lingvopoetik jihatdan o‘rgangan N.Ahmadjonov o‘zining “Badiiy uslubda qo‘llangan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi” nomli dissertatsiyasida she’riyatda va nasrda qo‘llanuvchi pretsedent nomlar haqida fikr yuritgan. Olim nasriy va she’riy matnlarning asosiy farqli tomonlari to‘g‘risida V.N.Mixaylovning “Nasr matnida atoqli ismning ma’nosi bo‘linmasligi va o‘zgarmasligi bilan ajralib turadi. Nasrda so‘zlar faqat ma’lum bir kontekst uchun zarur bo‘lgan ma’nolarinigina saqlab qoladi”, degan fikrlarini keltirgan [3; 122-123].

Abdulla Qahhor qissa va hikoyalarida qo‘llangan pretsedent nomlarni quyidagi guruhlarga ajratdik:

Tarixiy shaxslar nomi.

Diniy shaxslar nomi.

Adabiy qahramonlar nomi.

Mashhur yozuvchilar nomi.

Abdulla Qahhor “Dumli odamlar” hikoyasida tarixiy nomlarga murojaat qilgan va mazkur nom badiiy matnda pretsedent nom vazifasida kelgan: “Mehmon savolimga javob berolmadi. Shundan keyin o‘lkamizda jahonga mashhur bo‘lib o‘tgan bir qancha kishilarning nomini aytib, mehmonni “chaqmoqlab” ko‘rdim. Yo‘q, mehmon bu odamlardan birontasini, hatto Ibn Sinoni ham eshitmagan ekan” [12; 141]. Sharqda “Shayx ur-rais”, G‘arbda esa “Avitsenna” nomi bilan mashhur bo‘lgan Ibn Sino O‘rta asrlar o‘zbek ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning “Al-qonun fit-tib” (“Tib qonunlari”) kitobi nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo tibbiyotida mashhur asardir. Bu asar XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan va XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan [13; 96]. Ibn Sino faqat tarixiy shaxs emas, balki Sharqda ilm-fan va tibbiyot timsoli hisoblanadi. Uni tanimaslik madaniyatdan ajralib qolishni ko‘rsatadi. Bu yerda nom mehmonning bilim darajasini sinash vazifasini ham bajarmoqda. O‘zbek xalqi ongida “G‘arbni lol qoldirgan ilm sohibi” sifatida shakllangan stereotipik obraz orqali yozuvchi o‘zining shaxsiy munosabatini bildiradi.

Pretsedent nomlar badiiy matnda intertekstuallikka ega birlik bo‘lib, intertekstuallikka M.Yo‘ldoshev shunday ta’rif keltiradi: “Muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir” [8; 116].

Olima D.Xudoyberganova intertekstuallik haqida fikr yuritib, pretsedent matnlarni intertekstuallikni hosil qiluvchi asosiy birliklar sifatida keltiradi.

Tilshunos D.Andaniyazova o‘zining “Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi” nomli monografiyasida

pretsedent nomlarning badiiy matndagi bir necha vazifalarini keltirgan [9; 54].

Pretsedent nomlar badiiy matnda qanday vazifani bajarishidan qat'i nazar, poetonim, ya'ni badiiy asarning muhim semantik va poetik unsuri hisoblangan nom maqomida bo'ladi.

Pretsedent birliklar milliylik bilan birga universal xarakterga ham ega bo'ladi. Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida jahon sahnalarida bir necha bor sahnalashtirilgan "Hamlet" tragediyasi qahramoni Gamlet ismi tilga olingan va bu orqali yozuvchi sahna asarlaridagi nomlarga murojaat qilgan: "Anvar anchadan keyin javob berdi. – Yo'qlab turishadi, yig'ilish kerak bo'lganda yig'ilishadi, yig'lash kerak bo'lganda yig'lashadi, menga taskin-tasalli berishadi. Bilasizmi, bir-biriga o'xshagan, bir-biridan sovuq quyma gaplarni eshitgani yuragim bezillaydi. Birorta odamning qalb so'zini, bironta odamning issiq nafasini sezmayman! Bunaqa yetimlik, bunaqa kimsasizlikni hech kmning boshiga solmasin! Marg'uba ammam qiziq, menga tasalli bergan bo'lib: "Hammaning ham ota-onasi o'ladi", – deydi! Uning eri Javlon pochcham undan ham oshiradi: "Ich shu alamlarga!" – deb menga nuqul vino tutadi!.. .Gamlet aytmoqchi, yo rabbim, odam odamga bunchalik muhtoj bo'lar ekanu!" [12; 29-30]. Parchada keltirilgan Gamlet garchi daniyalik bo'lsa-da, barcha o'zbek vakillari uchun yaxshi tanish bo'lgan qahramonlardan sanaladi. Yozuvchi Abdulla Qahhor qissasida Anvarning ruhiy holatini yorqin ochib berishni maqsad qilib ushbu qahramondan foydalanadi. Ya'ni meditsina fanlari kandidati Murod Alining kasal bo'lib olamdan o'tgandan keyin o'g'li Anvarning atrofidagi yor-u do'stlari ham kamayib qoladi. Bu orada u otasi davolagan qiz – Muhayyo bilan tanishib qoladi. Muhayyoning taskin gaplari uni ancha xursand qiladi. Ammo otasining bevaqt o'limi va qarindoshlari, do'stlarining undan uzoqlashganidan qattiq xafa bo'ladi. Yozuvchi qahramonining mana shunday og'ir kechinmalarni boshidan o'tkazayotgan holatini umidbaxsh tuyg'ular ramzi bo'lganga qiyoslaydi va nom matnda onomastik metafora vazifasini bajargan.

"Onomastik birliklar ham badiiy matnda metaforik ma'noda qo'llanishi mumkin. Metaforaning bu tip birliklar bilan namoyon bo'lishi onomastik metafora deb yuritiladi va u muayyan onomastik birliklarni nom bo'lmagan boshqa so'z ma'nosida qo'llashga asoslanadi, tushuncha va nom o'rtasidagi o'xshashlikka tayanadi" [11; 54].

Badiiy asarlar onomastikasini lingvomadaniy tahlil qilishda til va madaniyatning jonli jarayonlarini tasvirlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2021. – Б. 100.

2. Караулов Ю. Н. Язык и языковая личность. – М., 1987. – 264 с.

3. Ahmadjonov N. Badiiy uslubda qo'llangan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi: Fil. fan. falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2022. – B. 43.

4. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб пособие. – М.: Асадемия, 2001. – Б. 53.

5. Mahmudova O. Onomastik birliklar va ularning badiiy matndagi funksiyalari // International scientific and practical conference "Current issues of special pedagogy and pre-school education: problems, solutions and development prospects". 2024. – B. 26–30.

6. Qo'ldosheva Sh. Tarixiy shaxslar nomi asosida shakllangan pretsedent nomlar // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. https://conf.sciencebox.uz/. – B. 41-42

7. Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филол. фан. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 58.

8. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. – B. 116.

9. Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent, 2016. – B. 54.

10. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие. – М.: Академия, 2001. – Б. 91.

11. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. – Б. 87.

12. A.Qahhor. Anor: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2005. – B. 141.

13. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. (IV asrdan XVI asrgacha). – Toshkent, 2017. B. 96.

Umidbek ADAMBAYEV,
O‘zDJTU, Ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi
umid999adambaev@gmail.com

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

Annotatsiya: maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishdagi ijtimoiy va pedagogik ehtiyojlar, shuningdek, zamonaviy mehnat bozori tomonidan pedagog xodimlarga qoyilayotgan yangi talablar atroflicha tahlil qilingan. Unda raqamli ko‘nikmalar va shaxsga yo‘naltirilgan kompetensiyalar o‘rtasidagi muvozanat masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, oliy pedagogik ta’lim tizimiga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini samarali singdirishning obyektiv va subyektiv omillari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak chet tili o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy ehtiyoj, raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt, integrativ yondashuv, kasbiy kompetentlik.*

Аннотация**:** в данной статье представлено научно-теоретическое обоснование социально-педагогической необходимости совершенствования профессиональной подготовки будущих преподавателей иностранных языков в условиях цифровой трансформации. В ходе исследования проанализированы современные требования рынка труда к педагогическим кадрам, а также важность баланса между цифровыми и личностно-ориентированными компетенциями. Кроме того, автором научно аргументированы объективные и субъективные факторы, способствующие эффективной интеграции технологий искусственного интеллекта в систему высшего педагогического образования.

Ключевые слова: *будущий преподаватель иностранного языка, профессиональная подготовка, социальная необходимость, цифровая образовательная среда, искусственный интеллект, интегративный подход, профессиональная компетентность.*

Annotation: this article offers a comprehensive scientific and theoretical justification for the social and pedagogical necessity of enhancing the professional training of future foreign language teachers amidst ongoing digital transformation. The research thoroughly examines the modern labor market’s demands for teaching professionals, highlighting the crucial balance between digital literacy and person-centered competencies. Furthermore, it scientifically grounds the objective and subjective factors that drive the effective integration of artificial intelligence technologies into higher pedagogical education systems.

Key words: *future foreign language teacher, professional training, social necessity, digital learning environment, artificial intelligence, integrative approach, professional competence.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida chet tillarini chuqur o‘zlashtirish va ularni sifatli o‘qitish mamlakatning intellektual salohiyati hamda xalqaro arenadagi raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy strategik omillardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini tubdan yangilashni, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borishni taqozo etmoqda. Ayni paytda, o‘quv jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Ma’lumki, an’anaviy ta’lim modellari axborot oqimining yuqori sur’atlari va “raqamli avlod” vakillari bo‘lgan talabalarning o‘ziga xos bilish ehtiyojlarini to‘liq qondirishda bir qator cheklovlarga duch kelmoqda. Shu sababli, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish va bu jarayonning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini ilmiy asoslash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Metodologiya.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ularning professional kompetensiyalarini shakllantirish muammolari doimiy ravishda mahalliy hamda xorijiy olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, mahalliy tadqiqotchilar (N.N. Azizxo‘jayeva, U.Sh. Begimqulov, B.X. Xodjayev va boshqalar) o‘z ishlarida pedagogik mahoratni yuksaltirish, raqamli ta’lim muhitini loyihalash va bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kamolotga erishish

yo‘llarini nazariy jihatdan yoritib berganlar. Chet tili o‘qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish masalalarida J.J. Jalolov hamda M.R. Zuhriddinovaning ilmiy yondashuvlari mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda (A. Kukulska-Hulme, Y. Wang, M. Kershaw) esa sun’iy intellekt vositalarining ta’lim sifatiga ko‘rsatadigan ta’siri va bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli-kommunikativ **ko‘nikmalarini** rivojlantirishning innovatsion modellari atroflicha tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ustida ishlash jarayonida tizimli-strukturaviy tahlil, pedagogik kuzatuv, xalqaro tajribani qiyosiy o‘rganish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish va mantiqiy sintez kabi ilmiy usullardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdagi ijtimoiy zaruriyatni quyidagi hal qiluvchi omillar belgilab beradi:

Mehnat bozori talablarining tubdan o‘zgarishi. Hozirgi kunda ish beruvchilar nafaqat nazariy bilimdon, balki tez moslashuvchan, raqamli savodxonligi yuqori va pedagogik vaziyatlarni sun’iy intellekt imkoniyatlari orqali samarali hal eta oladigan mutaxassislarni qidirmoqda.

“Raqamli avlod”ning psixologik va pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy talabalar yoshlari axborotni ko‘proq vizual va interaktiv formatda qabul qilishga moslashgan. Bu holat o‘qituvchidan an’anaviy ma’ruza uslubidan voz kechib, sun’iy intellektga tayangan holda har bir talaba uchun individual o‘quv trayektoriyasini ishlab chiqishni talab etadi.

Ta’limni shaxsiylashtirish va teng imkoniyatlar muhitini yaratish. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali har bir talabaning o‘zlashtirish darajasi va o‘quv sur’atiga moslashuvchan ta’lim kontentini shakllantirishga erishish mumkin.

An’anaviy va integrativ ta’lim yondashuvlarining qiyosiy tahlili.

An’anaviy va integrativ ta’lim yondashuvlarini qiyosiy o‘rganish orqali ular o‘rtasidagi tub farqlarni aniqlash mumkin. Birinchidan, o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi o‘rni tubdan o‘zgaradi: an’anaviy tizimda pedagog asosan axborot uzatuvchi (ma’ruzachi) vazifasini bajarsa, integrativ yondashuvda u fasilitator, tyutor va raqamli kurator sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘quv materiallarini taqdim etish mexanizmi ham farq qiladi. An’anaviy modelda barcha talabalar uchun bir xil, ya’ni unifikatsiyalashgan kontentlar taqdim etilsa, sun’iy intellekt va integrativ yondashuv ta’limni har bir shaxsning ehtiyojiga moslashuvchan (adaptiv) va individual yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi. Uchinchidan, baholash tizimida ham jiddiy o‘zgarish kuzatiladi: an’anaviy usul vaqti-vaqti bilan o‘tkaziladigan statik baholashga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy integrativ model real vaqt rejimida uzluksiz va dinamik monitoringni ta’minlaydi. Nihoyat, shakllanayotgan kasbiy kompetensiya doirasi ham kengayadi. Agar an’anaviy yondashuv tor doiradagi sohaviy va metodik bilimlarga urg‘u bersa, integrativ yondashuv bo‘lajak o‘qituvchida keng qamrovli, raqamli hamda pedagogik-texnologik ko‘nikmalarni uyg‘un shakllantirishga xizmat qiladi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga sun’iy intellekt vositalarini joriy etish shunchaki texnik yangilik yoki ko‘nikma emas, balki butun jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-pedagogik mas’uliyatdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishda sun’iy intellektga asoslangan integrativ texnologiyalarni joriy etish ta’lim tizimi oldida turgan obyektiv va ijtimoiy zaruriyatdir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish yuzasidan quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarining amaldagi o‘quv rejalari tarkibiga “Chet tili ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalari” nomli maxsus amaliy modulni kiritish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan mas’uliyat bilan foydalanish, mediamadaniyat va akademik halollik (akademik yaxlitlik) tamoyillarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish.

Nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan chambarchas bog‘lovchi integrativ topshiriqlar majmuasini ishlab chiqish va ularni bevosita o‘quv jarayoniga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.

2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. 160-b.

3. Begimqulov U.Sh. Oliy pedagogik ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. 304-b.

4. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. 432-b.

5. Kukulska-Hulme A. Mobile-assisted language learning and Artificial Intelligence in higher education // Educational Technology & Society. - 2021. - Vol. 24(3). - P. 112-125.

Shahnoza HASANOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o‘qituvchisi
shahnoz0807@gmail.com

ZAMONAVIY FRANSUZ DIPLOMATIK TERMINOLOGIYASIDAGI NEOLOGIZMLARNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy fransuz diplomatik terminologiyasida neologizmlarning shakllanishi, semantik va struktur xususiyatlari hamda ularning xalqaro siyosiy diskursdagi funksional imkoniyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Diplomatik terminlarning leksik-semantik transformatsiyasi va terminologik tizimning dinamik rivojlanish tendensiyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *diplomatik neologizm, terminologik innovatsiya, fransuz diplomatik diskursi, leksik-semantik transformatsiya, terminologizatsiya, neologizatsiya, terminologik derivatsiya, semantik neologizm, xalqaro munosabatlar diskursi, pragmalingvistik xususiyatlar, terminologik tizim, lingvistik dinamika.*

Аннотация: в статье анализируются особенности формирования неологизмов в современной французской дипломатической терминологии, их структурно-семантические характеристики и функциональный потенциал в дискурсе международных отношений. Особое внимание уделяется лексико-семантической трансформации дипломатических терминов и динамике развития терминологической системы.

Ключевые слова: *дипломатический неологизм, терминологическая инновация, французский дипломатический дискурс, лексико-семантическая трансформация, терминологизация, неологизация, терминологическая деривация, семантический неологизм, дискурс международных отношений, прагмалингвистические характеристики, терминологическая система, языковая динамика.*

Annotation: this article examines the formation of neologisms in contemporary French diplomatic terminology, focusing on their structural and semantic characteristics and functional potential within international political discourse. Particular attention is paid to the lexico-semantic transformation of diplomatic terms and the dynamic development of the terminological system.

Key words: *diplomatic neologism, terminological innovation, French diplomatic discourse, lexico-semantic transformation, terminologization, neologization, terminological derivation, semantic neologism, international relations discourse, pragmalinguistic features, terminological system, linguistic dynamics.*

Kirish. XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimining transformatsiyalashuvi, geosiyosiy jarayonlarning jadallashuvi hamda diplomatik kommunikatsiya shakllarining takomillashuvi zamonaviy fransuz diplomatik terminologiyasining leksik-semantik va funksional jihatdan yangilanishiga olib kelmoqda. Xususan, xalqaro siyosiy muloqotning yangi formatlari, ko‘p tomonlama diplomatik hamkorlik, raqamli diplomatiya va transmilliy muammolarning dolzarblashuvi diplomatik diskurs tarkibida yangi terminologik birliklarning shakllanishi va mavjud birliklarning mazmunan qayta talqin etilishini taqozo etmoqda. Mazkur jarayonlar tilning ijtimoiy-siyosiy voqelikni aks ettiruvchi dinamik tizim ekanligini namoyon etish bilan birga, neologizmlarni zamonaviy fransuz tilshunosligining muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylantiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi zamonaviy fransuz diplomatik terminologiyasida neologizmlarning shakllanish xususiyatlari, strukturaviy-semantik tasnifi va funksional-pragmatik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida diplomatik neologizmlarning yuzaga kelish omillari, ularning terminologik tizimdagi o‘rni, xalqaro siyosiy diskursda qo‘llanish xususiyatlari hamda tarjimaviy muvofiqligi masalalariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari fransuz tili leksikologiyasi, terminologiya, siyosiy lingvistika va diplomatik diskurs nazariyasiga oid ilmiy qarashlarni boyitishga, shuningdek, diplomatik matnlarni tarjima qilish va yangi terminlarni tizimlashtirish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Metodologiya. Zamonaviy fransuz diplomatik terminologiyasidagi neologizmlarning xususiyatlarini aniqlash va ilmiy jihatdan tavsiflash jarayonida

lingvistik tahlilning o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Tadqiqotning metodologik asosini deskriptiv, qiyosiy-tipologik, kontekstual, komponent tahlil hamda korpus tahlili metodlari tashkil etadi. Mazkur metodlarni kompleks qo‘llash diplomatik sohada yangi terminlarning shakllanish mexanizmlarini, ularning semantik xususiyatlarini, struktur modellarini va xalqaro muloqot jarayonidagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, global siyosiy munosabatlar, raqamli kommunikatsiya, ekologik xavfsizlik va xalqaro axborot almashinuvi bilan bog‘liq o‘zgarishlar fransuz diplomatik leksikasining doimiy ravishda boyib borishini taqozo etmoqda. Tadqiqot materiallarini shakllantirishda Fransiya Yevropa va tashqi ishlar vazirligining rasmiy materiallari, xalqaro munosabatlar terminologiyasiga oid normativ hujjatlar, *FranceTerme* terminologik bazasi hamda fransuz diplomatik diskursida qo‘llaniladigan terminologik birliklar asosiy manbalar sifatida belgilanadi. Xususan, Fransiyada yangi tushunchalarni fransuz tilida ifodalash va xorijiy tillardan o‘zlashtirilgan birliklarga muqobil terminlar yaratish bilan shug‘ullanuvchi terminologiya va neologiya tuzilmalarining faoliyati tadqiqot uchun muhim empirik asos vazifasini bajaradi [1;124]. Shuningdek, xalqaro munosabatlar terminologiyasiga oid rasmiy ro‘yxatlarda keltirilgan *diplomatie hybride* (gibrid diplomatiya), *diplomatie informelle* (norasmiy diplomatiya) va *diplomatie environnementale* (ekologik diplomatiya) kabi birliklar sohaviy terminlarning semantik va funksional xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida tanlangan materiallar lingvistik saralashdan o‘tkazilib, ularning diplomatik diskursga mansubligi, yangilik darajasi va terminologik maqomi aniqlanadi. Bunda neologizm tushunchasi faqat yaqinda paydo bo‘lgan so‘zlar bilan cheklanmay, balki mavjud leksik birliklarning yangi siyosiy-diplomatik ma’no kasb etishi, barqaror terminologik birikmalarning shakllanishi va xorijiy tillardagi tushunchalarning fransuz tiliga moslashtirilishi kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Masalan, *infox* termini ingliz tilidagi *fake news* birikmasi ifodalaydigan soxta axborot tushunchasiga fransuzcha muqobil sifatida taklif etilgan bo‘lib, u leksik yaratilish va terminologik muqobillashtirish jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi [2; 67-75]. Mazkur yondashuv neologizmlarning shakliy yangiligi bilan bir qatorda, ularning sohaga xos kommunikativ vazifasini ham hisobga olishni talab etadi.

Deskriptiv metod yordamida zamonaviy fransuz diplomatik terminologiyasida kuzatiladigan neologizmlarning asosiy belgilari tizimli ravishda tavsiflanadi. Ushbu metod orqali terminlarning leksik tarkibi, morfologik tuzilishi, ma’no doirasi va qo‘llanish kontekstlari o‘rganiladi. Masalan, *diplomatie hybride* birikmasida *hybride* komponenti diplomatik faoliyatda turli vositalar, subyektlar yoki ta’sir shakllarining uyg‘unlashuvini ifodalovchi ma’noni shakllantirishi mumkin. Bu birikma yangi siyosiy-diplomatik voqelikni mavjud leksik vositalar orqali nomlashning namunasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, *diplomatie informelle* termini rasmiy muzokara kanallaridan tashqarida olib boriladigan diplomatik muloqotni ifodalaydi. Ushbu misollar yangi terminologik tushunchalarning ko‘p hollarda butunlay yangi so‘z yaratish orqali emas, balki mavjud leksik birliklarning biriktirilishi va ularga ixtisoslashgan ma’no yuklanishi natijasida shakllanishini ko‘rsatadi .Qiyosiy-tipologik metod fransuz tilidagi diplomatik neologizmlarning ingliz tilidagi muqobillari bilan munosabatini aniqlashga yo‘naltiriladi. Bunda terminlarning shakliy tuzilishi, ma’noviy hajmi va pragmatik xususiyatlari o‘zaro taqqoslanadi. Masalan, ingliz tilidagi *multi-track diplomacy* tushunchasi diplomatik jarayonlarda davlat organlari bilan bir qatorda mahalliy hokimiyatlar, nodavlat tashkilotlar va boshqa subyektlarning ishtirokini anglatadi. Uning fransuz tilidagi muqobillari kontekst va terminologik manbaga qarab tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil orqali fransuz tilidagi terminologik muqobillarning milliy til me’yorlariga moslashuvi, ma’noni ifodalashdagi o‘ziga xosliklari va xalqaro terminologik standartlashtirish jarayonidagi o‘rni ochib beriladi. Bunda ingliz tilidan ta’sirlanish har doim to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirishni anglatmasligi, ayrim hollarda fransuz tilining ichki so‘z yasash imkoniyatlari asosida muqobil birliklar hosil qilinishi ham inobatga olinadi. Kontekstual tahlil metodi neologizmlarning aniq matniy muhitdagi semantik va pragmatik vazifalarini ochish uchun qo‘llaniladi. Diplomatik terminning ma’nosi faqat lug‘aviy ta’rif bilan cheklanmaydi, balki uning rasmiy bayonotlar, xalqaro muzokaralar, diplomatik notalar va siyosiy muloqotda qanday maqsadda ishlatilishi bilan ham belgilanadi. Masalan, *diplomatie environnementale* birikmasi atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va global ekologik

resurslarni boshqarish bilan bog‘liq xalqaro hamkorlik kontekstida qo‘llaniladi. Ushbu terminning mazmunini *diplomatie climatique* birikmasi bilan qiyoslash orqali umumiy ekologik masalalarga yo‘naltirilgan diplomatik faoliyat va aynan iqlim muammolariga qaratilgan muzokaralar o‘rtasidagi semantik chegaralarni aniqlash mumkin. Shu tariqa, kontekstual tahlil terminlarning ma’no doirasi, qo‘llanish sohasi va kommunikativ maqsadini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Zamonaviy fransuz diplomatik terminologiyasida neologizmlarning shakllanishi xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, ekologik muammolarning dolzarblashuvi hamda global xavfsizlikka oid yangi tahdidlarning yuzaga kelishi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jarayonlar diplomatik faoliyatning mazmunini o‘zgartirib, yangi tushunchalarni ifodalovchi terminologik birliklarga ehtiyojni oshirmoqda. Xususan, *diplomatie numérique* (raqamli diplomatiya), *diplomatie d’influence* (ta’sir diplomatiyasi) va *diplomatie environnementale* (ekologik diplomatiya) kabi terminlar zamonaviy xalqaro munosabatlarning yangi yo‘nalishlarini aks ettiradi. Mazkur birliklar nafaqat yangi tushunchalarni nomlaydi, balki diplomatik faoliyatning an’anaviy chegaralari kengayib borayotganini ham ko‘rsatadi.

Fransuz diplomatik neologizmlarining muhim xususiyatlaridan biri ularning muayyan so‘z yasash modellari asosida shakllanishidir. Masalan, *cyberattaque* (kiberhujum), *cybersécurité* (kiberxavfsizlik) va *cyberespace* (kiberfazo) terminlarida *cyber-* komponenti raqamli muhit bilan bog‘liq yangi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birliklarning faol qo‘llanishi diplomatik terminologiyaning zamonaviy texnologiyalar ta’sirida boyib borayotganini tasdiqlaydi [3;127]. Shu bilan birga, ayrim terminlarning ma’nosi vaqt o‘tishi bilan kengayadi. Masalan, *diplomatie numérique* dastlab raqamli vositalar orqali diplomatik aloqalarni amalga oshirish bilan bog‘langan bo‘lsa, hozirgi qo‘llanishida internet boshqaruvi, kiberxavfsizlik, axborot siyosati va raqamli makondagi inson huquqlarini ham qamrab olishi mumkin. Bu holat neologizmlarning faqat yangi shakl sifatida emas, balki yangi mazmunni ifodalovchi dinamik til birliklari sifatida rivojlanishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Zamonaviy fransuz diplomatik terminologiyasidagi neologizmlarning lingvistik, semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilinishi diplomatik diskursning uzluksiz yangilanib boruvchi til tizimi ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro munosabatlar arxitekturasidagi o‘zgarishlar, geosiyosiy jarayonlarning murakkablashuvi, raqamli diplomatiyaning rivojlanishi hamda global xavfsizlik va transmilliy hamkorlik masalalarining dolzarblashuvi fransuz diplomatik leksikasining mazmuniy va struktur jihatdan boyishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur jarayonda neologizmlar yangi diplomatik voqeliklarni nomlash, siyosiy tushunchalarni konseptuallashtirish va xalqaro muloqotning terminologik aniqligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari fransuz diplomatik terminologiyasida neologizmlarning shakllanishi bir nechta o‘zaro bog‘liq mexanizmlar asosida kechishini ko‘rsatadi. Xususan, so‘z yasash, affiksatsiya, so‘z birikmalari hosil qilish, semantik transformatsiya, abbreviatsiya hamda ingliz tilidan o‘zlashtirish kabi jarayonlar yangi terminologik birliklarning yuzaga kelishida muhim o‘rin tutadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Dadaboyev H. *O‘zbek terminologiyasi.*, – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 136-b.

2.Haydarov A. A., Shamsimuxamedov I. *Diplomatik terminlar izohli lug‘ati.*, – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. 224-b.

3.Madvaliyev A. *Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug‘ati.,* – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. 432-b.

4.Mavlyanov S. O‘zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar // *O‘zbekiston: til va madaniyat.*, – Toshkent, 2022. № 1, 45–54.

5.Mavlyanov S. O‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi // *O‘zbekiston: til va madaniyat.*, – Toshkent, 2023. № 4. 83–101 b.

6.Mavlyanov S. Structure of Diplomatic Terms of Uzbek Language // *International Journal of Social Science Research and Review.*, 2022. Vol. 5, № 5. P. 295–299.

7.Qosimov N. *O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari (so‘z o‘zlashtirish va affiksatsiya masalalari).*, – Toshkent: Fan, 1985. 56 - b.

Muzaffar ACHILOV,
Toshkent Tibbiyot universiteti
1-son O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi
mnn.achilov@gmail.com

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TIBBIYOTGA DOIR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya:mazkur maqolada fransuz va o‘zbek tillarida tibbiyotga doir frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki tildagi tibbiy mazmunni ifodalovchi frazeologizmlarning semantik, strukturaviy va funksional jihatlarini aniqlash hamda ularning o‘ziga xos va umumiy belgilarini ochib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, tibbiy frazeologiya, semantika, lisoniy xususiyat.*

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ лингвистических особенностей фразеологических единиц медицинской тематики во французском и узбекском языках. Основная цель исследования заключается в выявлении семантических, структурных и функциональных особенностей фразеологизмов, выражающих медицинское содержание в двух языках, а также в раскрытии их специфических и общих признаков.

Ключевые слова: *фразеологическая единица, медицинская фразеология, семантика, лингвистические особенности.*

Annotation: this article provides a comparative analysis of the linguistic features of medical phraseological units in the French and Uzbek languages. The main objective of the study is to identify the semantic, structural, and functional characteristics of phraseological units expressing medical concepts in the two languages, as well as to reveal their specific and common features.

Key words: *phraseological unit, medical phraseology, semantics, linguistic features.*

Kirish. ***Tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi.*** Hozirgi globallashuv va madaniyatlararo kommunikatsiya sharoitida turli tillar frazeologik fondini qiyosiy o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki frazeologizmlar til tizimining eng konservativ qatlamlaridan biri bo‘lib, ular orqali tarixiy tafakkur, milliy mentalitet va madaniy stereotiplar namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, turli tipologik guruhlarga mansub fransuz va o‘zbek tillari frazeologiyasini qiyosiy-etimologik jihatdan tadqiq etish ularning o‘xshash va farqli lingvistik mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa umumiy til nazariyasi, qiyosiy tilshunoslik va frazeologiya sohalarining nazariy asoslarini boyitadi.

Tibbiyotga doir frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari masalasi bugungi kunga qadar asosan alohida til doirasida yoki semantik tavsif darajasida o‘rganilgan bo‘lib, ularning struktur-genezis modeli, etimologik qatlamlanishi hamda lug‘aviy reprezentatsiyasi masalalari kompleks tizim sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, tibbiy frazeologizmlarning etimologik manbalarini aniqlash, ularni tipologik jihatdan guruhlash, milliy va universal obrazlarni ajratish hamda lug‘atlarda aks ettirish prinsiplari masalasi ilmiy jihatdan izchil yondashuvni talab qiladi. Shu sababli tibbiyotga doir frazeologik birliklarning kelib chiqish mexanizmlarini tizimli rekonstruksiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tibbiy frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish, ularning etimologik manbalari, struktur-semantik modellari va lug‘aviy reprezentasiya xususiyatlarini aniqlash hamda fransuz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy-tipologik jihatdan ilmiy tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, u fransuz va o‘zbek tillaridagi tibbiy frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlarini integrativ va qiyosiy jihatdan ilmiy asosda tadqiq qiladi.

Adabiyotlar sharhi (Literature Review)

Fransuz tilidagi tibbiy frazeologik birliklarning tarixiy-etimologik manbalari masalasi roman tillari lingvistikasi doirasida keng o‘rganilgan bo‘lib, bu yo‘nalish frazeologizmlarning kelib chiqish omillari, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari hamda semantik evolyutsiyasini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni qamrab oladi. Fransuz frazeologiyasi turli tarixiy qatlamlar lotin tilidan meros bo‘lgan birliklar, o‘rta asr xalq og‘zaki nutqi, diniy

matnlar, ritsarlik adabiyoti, saroy uslubi hamda keyingi davr badiiy adabiyoti asosida shakllangan murakkab tizim hisoblanadi.Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, fransuz frazeologizmlarining eng qadimgi manbai vulgarlashgan lotin tili hisoblanadi. *Romanistika vakillari frazeologik birliklarning ko‘pchiligi lotincha iboralar semantik transformatsiyasi natijasida paydo bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu jarayon tilning tarixiy taraqqiyoti davomida metaforizatsiya, metonimizatsiya va semantik torayish kabi hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan*[1].

Alan Rey frazeologizmlarni tarixiy lug‘atlar materiallari asosida tahlil qilib, ularning kelib chiqish manbalari ko‘pincha quyidagi sohalarga borib taqalishini ko‘rsatadi:

- antik adabiyot;
- xalq maqollari va matallari;
- tarixiy voqealar;
- kasb-hunar leksikasi;
- harbiy terminologiya.

Frazeologizmlarning maqollarga tayanishi quyidagilarni ko‘rsatadi ya’ni tilning tarixiy qatlamlari saqlanib qoladi, xalq tafakkuri stereotiplari aks etadi, milliy mentalitet til orqali namoyon bo‘ladi, frazeologiya til madaniyatining konservativ (sekin o‘zgaruvchi) qismi hisoblanadi. Fransuz frazeologizmlarining tarixiy-etimologik manbalari orasida xalq maqollari va matallari eng qadimiy va sermahsul qatlamdir. Ular dastlab mustaqil hikmatli gap bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan qisqarib, metaforik ma’no kasb etib, barqaror iboraga aylangan. Bu jarayon tilning tarixiy rivojlanishi, madaniy tajriba va kollektiv ong bilan chambarchas bog‘liq.

Fransuz frazeologik tizimining muhim tarixiy qatlamlaridan biri kasb-hunar (professional) leksikasiga borib taqaladi. Bunday iboralar dastlab muayyan hunar yoki ijtimoiy guruh nutqida termin yoki jargon sifatida qo‘llanilgan, keyinchalik umumxalq tiliga ko‘chib, ko‘chma ma’noli barqaror birikmaga aylangan. Tilshunoslikda bu hodisa terminologik metaforizatsiya yoki kasbiy frazeologizatsiya deb yuritiladi. Kasb nutqi ko‘pincha, aniq tasviriy obrazlarga boy bo‘ladi, qisqa va ta’sirchan ifodalarni talab qiladi, ma’lum guruh ichida tez tushuniladigan kodlashgan birliklar yaratadi. Shu sababli professional iboralar umumtilga o‘tishda o‘z obrazliligini saqlab qoladi. Shvetsariyalik tilshunos Sharl Balli frazeologizmlar haqida shunday degan: *“Barqaror iboralar tilning emotsional va ijtimoiy xotirasidir”*[2]. Uning fikricha, aynan kasbga oid metaforalar xalq tiliga tez singadi, chunki ular konkret tajribaga asoslanadi.

Qiyosiy tadqiqotlar turli tillardagi o‘xshash frazeologizmlar o‘rtasidagi genetik yoki tipologik aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Frazeologizmlar milliy madaniyatning til shaklidagi ifodasi bo‘lib, ularning etimologiyasi xalqning turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, urf-odatlari, mifologik qarashlari va tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etadi. Shu bois frazeologik birliklarning kelib chiqishini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy-tarixiy rekonstruksiya vazifasini ham bajaradi. Bu jihat ularni milliy identitetni o‘rganishda muhim ilmiy manbaga aylantiradi. Frazeologik etimologiya natijalari izohli, tarixiy va frazeologik lug‘atlar tuzishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.Til o‘qitish jarayonida frazeologizmlarning kelib chiqishini tushuntirish ularning ma’nosini chuqurroq anglashga yordam beradi. Tarjima nazariyasida etimologik ma’lumotlar ekvivalent topish va obrazni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Kelajak tadqiqotlarida frazeologizmlarning etimologiyasini o‘rganishda korpus lingvistikasi, raqamli matn bazalari va statistik modellarni qo‘llash ushbu sohaning ilmiy aniqligini oshiradi. Shuningdek, turkiy tillar doirasida qiyosiy frazeologik etimologiya yaratish umumturkiy madaniy-til birliklarini aniqlashda muhim ilmiy natijalar berishi mumkin. Frazeologizmlarning etimologiyasini o‘rganish tilning tarixiy rivoji, milliy tafakkur modeli va madaniy merosni kompleks tahlil qilish imkonini beruvchi fundamental nazariy yo‘nalishdir. U tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan integratsiyada rivojlanib, nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy lingvistika, tarjima, leksikografiya va til ta’limi uchun ham mustahkam ilmiy asos yaratadi.

1 Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin, 2010.

2 Bally Ch. Traité de stylistique française. Genève, 1909.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Achilov, M. Tibbiyot va frazeologiya inson omilida. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.

2.Ачилов, М. Н. (2019). Аналитическое словообразование. Modern scientific research, 247.

3.Norquliyevich, A. M. (2025). The phenomenon of nominal word formation in medical terminology. modern education and development, 22(1), 34-37.

4.Achilov, m. (2025). XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta’rif. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(4).

5.Burger H. *Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen.* Berlin, 2010.

6.Bally Ch. *Traité de stylistique française.* Genève, 1909.

Maftuna NURMUHAMEDOVA,
Oriental universiteti o‘qituvchisi
nurmuhamedovamaftuna@gmail.com

RUS VA O‘ZBEK IPAK YO‘LI TARIXIY ROMANLARIDA MUSHTARAK VA MILLIY-ESTETIK XUSUSIYATLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK MEZONLARI

Annotatsiya: maqolada rus va o‘zbek adabiyotining Buyuk Ipak yo‘li mavzusidagi tarixiy asarlarini qiyoslashda mushtarak poetik belgilar hamda milliy-estetik xususiyatlarni ajratish mezonlari ishlab chiqiladi. Muayyan obraz yoki motivning ikki matnda uchrashi avtomatik ravishda bir xil ma’no anglatmasligi ko‘rsatiladi. Muallif pozitsiyasi, hikoya nuqtayi nazari, tarixiy davrni modellashtirish, badiiy makon va madaniy xotira tadqiqot mezoni sifatida taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *qiyosiy tipologiya, Ipak yo‘li, tarixiy roman, milliy-estetik xususiyat, rus adabiyoti, o‘zbek adabiyoti*

Аннотация: в статье разработаны критерии для различения общих поэтических и национально-эстетических особенностей при сравнении исторических произведений русской и узбекской литературы на тему Великого Шелкового пути. Показано, что наличие определенного образа или мотива в двух текстах не означает автоматически одинакового смысла. В качестве критериев исследования предложены позиция автора, теория повествовательной точки зрения, моделирование исторического периода, художественное пространство и культурная память.

Ключевые слова: *сравнительная типология; Шелковый путь; исторический роман; национально-эстетическая особенность; русская литература; узбекская литература*

Annotation: this article develops criteria for distinguishing between general poetic features and national-aesthetic characteristics when comparing historical works from Russian and Uzbek literature that focus on the Great Silk Road. It demonstrates that the presence of a specific image or motif in two different texts does not automatically imply an identical meaning. The research criteria proposed include the author’s stance, the theory of narrative perspective, the modeling of a historical period, artistic space, and cultural memory.

Key words: *comparative typology; Silk Road; historical novel; national-aesthetic characteristic; Russian literature; Uzbek literature*

Buyuk Ipak yo‘li mavzusida yozilgan rus va o‘zbek tarixiy romanlarini taqqoslash bir tomondan umumiy tarixiy makonni, ikkinchi tomondan uni turlicha badiiy ko‘rish usullarini o‘rganish imkonini beradi. Biroq qiyoslash jarayonida o‘xshash voqea, mavzu va ramzlarni darhol milliy adabiyotlarning doimiy belgisi sifatida baholash noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Masalan, karvon motivi bir matnda sarguzasht mexanizmi, boshqa matnda madaniy uzviylik ramzi bo‘lib xizmat qilishi ehtimol. Shuning uchun maqola faktik o‘xshashlikni badiiy funksiya o‘xshashligidan farqlovchi mezonlarni bayon etadi.

Qiyosiy-tipologik metod uch bosqichda qo‘llanadi. Birinchi bosqichda taqqoslanadigan asarlarning muallifi, janri, davri va tanlangan nashri aniqlanadi. Ikkinchisida syujet vazifasi, personaj pozitsiyasi va makon tasvirining qurilishi kabi o‘lchovlar belgilab olinadi. Uchinchi bosqichda aniqlangan o‘xshashliklar mumkin bo‘lgan umumiy janr an’analari yoki tarixiy vaziyatlar bilan bog‘lanadi. Baxtinning xronotop haqidagi mulohazalari voqea va makon birligini tekshirishga yo‘naltiradi [3;84]. Mazkur usul milliylikni oldindan berilgan shior emas, matn asosida tavsiflanadigan estetik natija sifatida ko‘radi.

Zamon va makon munosabati har bir yozuvchida voqeani baholashga xizmat qiladi. Qiyosda tarixiy masofaning qanday yaratilishi ham tekshiriladi. Ushbu mulohazani tekshirish uchun avvalo tasvir kimning nigohi orqali berilganini aniqlash zarur. Muallif bayoni, qahramon idroki va xotira tarzidagi tasvir bir xil semantik maqomga ega emas. Mazkur farq tasvirning voqeaga munosabatini aniqlashda muhim: ayrim holatlarda makon vaziyatni belgilasa, boshqa hollarda u personajning ichki kechinmasini ochadi. Shuning uchun alohida olingan badiiy detal butun asarning g‘oyasini izohlovchi yagona dalil bo‘la olmaydi.

Qiyosiy tahlilda o‘xshash obrazlarning ayni vazifani bajarishini oldindan taxmin qilish metodik xatodir. Bir asarda ramziy mazmun kasb etgan motiv ikkinchi asarda syujetni birlashtiruvchi vosita sifatida ishlashi mumkin. Buni aniqlashda matndagi takrorlanish, baholovchi leksika, dramatik vaziyat va hikoya tezligi alohida qayd etiladi. Tarixiy geografiyaga muvofiqlik esa badiiy funksiyani avtomatik tarzda isbotlamaydi; adabiyotshunoslik xulosasi, avvalo, matnning ichki qonuniyatlariga tayanishi lozim.

«Tarixiy xronotopning qiyosiy ko‘rinishi» masalasini o‘rganishda quyidagi ketma-ketlik samarali hisoblanadi. Dastlab tegishli epizodlar aniq nashr asosida ajratiladi. So‘ng ularning syujetdagi o‘rni, tasvirlovchi subyekt va emotsional ohangi belgilanadi. Keyingi bosqichda bir asar ichidagi o‘xshash holatlar qiyoslanib, ulardan keyingina boshqa muallif matniga o‘tiladi. Natija esa tasdiqlangan matniy dalil darajasiga mos ravishda ifodalanadi. Bunday tartib mavhum o‘xshatishlar o‘rniga tekshiriladigan ilmiy kuzatishlarni shakllantiradi.

Asarda makon qahramon ongidan tashqarida neytral qolmasligi mumkin. Uning ma’nosi personaj maqsadi, xotirasi va hissiy reaksiyasiga qarab o‘zgaradi. Ushbu mulohazani tekshirish uchun avvalo tasvir kimning nigohi orqali berilganini aniqlash zarur. Muallif bayoni, qahramon idroki va xotira tarzidagi tasvir bir xil semantik maqomga ega emas. Mazkur farq tasvirning voqeaga munosabatini aniqlashda muhim: ayrim holatlarda makon vaziyatni belgilasa, boshqa hollarda u personajning ichki kechinmasini ochadi. Shuning uchun alohida olingan badiiy detal butun asarning g‘oyasini izohlovchi yagona dalil bo‘la olmaydi.

«Personaj va makon aloqasi» masalasini o‘rganishda quyidagi ketma-ketlik samarali hisoblanadi. Dastlab tegishli epizodlar aniq nashr asosida ajratiladi. So‘ng ularning syujetdagi o‘rni, tasvirlovchi subyekt va emotsional ohangi belgilanadi. Keyingi bosqichda bir asar ichidagi o‘xshash holatlar qiyoslanib, ulardan keyingina boshqa muallif matniga o‘tiladi. Natija esa tasdiqlangan matniy dalil darajasiga mos ravishda ifodalanadi. Bunday tartib mavhum o‘xshatishlar o‘rniga tekshiriladigan ilmiy kuzatishlarni shakllantiradi.

Tarixiy roman, tarixiy qissa va hajviy nasrni bir mezonda solishtirish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Har birining badiiy shartlilik darajasi va hikoyachi uslubi farqlanadi. Ushbu mulohazani tekshirish uchun avvalo tasvir kimning nigohi orqali berilganini aniqlash zarur. Muallif bayoni, qahramon idroki va xotira tarzidagi tasvir bir xil semantik maqomga ega emas. Mazkur farq tasvirning voqeaga munosabatini aniqlashda muhim: ayrim holatlarda makon vaziyatni belgilasa, boshqa hollarda u personajning ichki kechinmasini ochadi. Shuning uchun alohida olingan badiiy detal butun asarning g‘oyasini izohlovchi yagona dalil bo‘la olmaydi.

«Tipologik sintezning nazorat nuqtalari» masalasini o‘rganishda quyidagi ketma-ketlik samarali hisoblanadi. Dastlab tegishli epizodlar aniq nashr asosida ajratiladi. So‘ng ularning syujetdagi o‘rni, tasvirlovchi subyekt va emotsional ohangi belgilanadi. Keyingi bosqichda bir asar ichidagi o‘xshash holatlar qiyoslanib, ulardan keyingina boshqa muallif matniga o‘tiladi. Natija esa tasdiqlangan matniy dalil darajasiga mos ravishda ifodalanadi. Bunday tartib mavhum o‘xshatishlar o‘rniga tekshiriladigan ilmiy kuzatishlarni shakllantiradi.

Tahlil uchun besh mezon ajratildi. Birinchisi — tarixiy hodisaning kompozitsiyadagi vazifasi: voqea markazmi yoki qahramonning shaxsiy izlanishiga fonmi? Ikkinchisi — makonning obraz darajasi: shahar, daryo va cho‘l faqat tasvirlanadimi yoki konfliktga ta’sir qiladimi? Uchinchisi — personajning kollektiv bilan munosabati: qaror individual axloqiy tanlovmi yoki jamoa xotirasining ifodasimi? To‘rtinchisi — rivoyat ohangi va muallif bahosi: tarixiy masofa saqlanadimi yoki zamonaviy qiymatlar orqali yaqinlashtiriladimi? Beshinchisi — madaniy detalning vazifasi: u bezakmi yoki syujet va xarakter tizimiga kiradimi? Shu mezonlar qiyosiy farqni faqat mavzular soni bilan emas, ularning poetik ishlanishi bilan asoslashga yordam beradi.

Mushtarakliklarni izohlashda adabiy ta’sir va mustaqil tipologik o‘xshashlikni farqlash lozim. Ikki adibning bir xil tarixiy makon yoki shaxsga murojaat qilishi bevosita matnlararo ta’sirni isbotlamaydi. Ta’sir xulosasi uchun tarjima, mutolaa, tanishuv yoki ochiq intertekstual dalil talab etiladi. Milliy-estetik xususiyatni esa ayrim etnografik detallarga tenglashtirmaslik kerak. Bunday xususiyat voqeaga berilgan qadriyatlar tizimi, hikoya usuli va qahramonning tarixiy xotira bilan aloqasidan shakllanadi. Shu ma’noda rus va o‘zbek matnlaridagi o‘xshash obrazlar ham turli estetik vazifalarni bajarishi mumkin.

Ipak yo‘li adabiyotini qiyoslashda ishonchli natija umumiy motivlarni sanash orqali emas, ularning syujet, makon, personaj va axloqiy bahodagi funksiyasini tekshirish orqali olinadi. Tavsiya etilgan besh mezon alohida romanlar bo‘yicha chuqurlashtirilgan izlanishlar uchun ishchi model bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hansen V. The Silk Road: A New History. Oxford: Oxford University Press, 2012.
2. Wellek R., Warren A. Theory of Literature. New York: Harcourt, Brace, 1949.
3. Bakhtin M. M. The Dialogic Imagination. Austin: University of Texas Press, 1981.
4. Lotman Yu. M. The Structure of the Artistic Text. Ann Arbor: University of Michigan, 1977.

Ozoda KAYUMOVA,
O‘ZDJTU, mustaqil izlanuvchi
bakhramovnaozoda@gmail.com
Orcid number: 0009-0008-2955-2817

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ONOMATOPIK BIRLIKLARNING EKSPRESSIVLIK VA EVALUATIVLIKNI IFODALASH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi onomatopik birliklarning ekspressivlik va evaluativlikni ifodalash xususiyatlari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Ushbu birliklarning tovushga taqlid qilishdan tashqari, hissiy munosabatni bildirish, baholash, nutqning ta’sirchanligini oshirish va kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual va qiyosiy tahlil usullaridan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: *onomatopiya, taqlidiy so‘zlar, ekspressivlik, evaluativlik, baholash, emotsional ma’no, pragmatika, tovush ramziyligi, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Аннотация: в статье представлено сравнительное исследование того, как звукоподражательные единицы в английском и узбекском языках выражают экспрессивность и оценочность. Помимо своей основной функции — имитации звуков, — в работе анализируется роль данных единиц в передаче эмоционального отношения, выражении оценок, усилении воздействия речи и достижении коммуникативных целей. В исследовании используются описательный, контекстуальный и сравнительно-аналитический методы.

Ключевые слова: *звукоподражание, имитативные слова, экспрессивность, оценочность, оценка, эмоциональное значение, прагматика, звуковой символизм, сравнительное языкознание, английский язык, узбекский язык.*

Annotation: this article presents a comparative study of how onomatopoeic units in the English and Uzbek languages express expressiveness and evaluative meaning. Beyond their primary function—the imitation of sounds—the study analyzes the role of these units in conveying emotional attitudes, expressing evaluations, intensifying the impact of speech, and achieving communicative goals. The research employs descriptive, contextual, and comparative-analytical methods.

Key words: *onomatopoeia, imitative words, expressiveness, evaluative meaning, evaluation, emotional significance, pragmatics, sound symbolism, comparative linguistics, English language, Uzbek language.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining nominativ vazifasi bilan bir qatorda ularning ekspressiv, emotsional va baholovchi xususiyatlarini o‘rganishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jihatdan onomatopik birliklar muhim ahamiyatga ega: ular tovush va uni ifodalovchi til birligi o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘lib, har bir tilning fonetik tizimi va leksik imkoniyatlari bilan bog‘liq holda voqelanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida tovushga taqlid asosida shakllangan birliklar kundalik va og‘zaki nutqda, badiiy matn hamda dialoglarda keng qo‘llanadi, biroq ularning nutqiy vazifasini faqat tovushga taqlid bilan izohlash yetarli emas: muayyan kommunikativ vaziyatda ular hodisaning ta’sirchanligini oshirishi, so‘zlovchining hayrat yoki boshqa hissiy holatini ifodalashi hamda tasvirlanayotgan voqeaga ijobiy yoki salbiy munosabatni bildirishi mumkin. Shu sababli onomatopik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashda lug‘aviy ma’no bilan bir qatorda ularning kontekstdagi qo‘llanish maqsadi va muloqot ishtirokchilariga ko‘rsatadigan ta’siri ham hisobga olinishi lozim.

Tadqiqot metodlari.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi onomatopik birliklarning strukturaviy, semantik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishda tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, kontekstual hamda funksional-semantik tahlil usullari kompleks qo‘llanildi. Tavsifiy tahlil birliklarning fonetik tuzilishi, leksik-semantik mazmuni, takroriy shakllanishi hamda tovushning davomiyligi, kuchi va xarakterini ifodalash imkoniyatlarini tizimlashtirishga xizmat qildi. Qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil ikki tildagi birliklarning umumiy va farqli jihatlarini tovush manbai, fonetik shakli, semantikasi, takrorlanish xususiyati va nutqiy qo‘llanishi mezonlari asosida aniqlashga qaratildi. Kontekstual tahlil birlikning nutqiy vaziyatda voqelanadigan ma’nosini, uning leksik muhiti, kommunikativ vaziyati va so‘zlovchining ehtimoliy niyatini inobatga olgan holda belgilash uchun qo‘llanildi. Funksional-semantik tahlil esa onomatopik birliklarning tovushni bevosita ifodalash, tasviriy jonlantirish, harakat intensivligini ko‘rsatish va nutq ekspressivligini kuchaytirish vazifalarini o‘rganishga yo‘naltirildi; bunda ekspressivlik, emotsionallik va baholash alohida mezonlar sifatida farqlandi hamda ularning barcha birliklarda bir vaqtda mavjudligi taxmin qilinmadi, bu esa pragmatik talqinlarning asossiz kengayishining oldini oladi.

Muhokama.

Onomatopik birliklar tashqi olamdagi tovushlarni til vositalari orqali ifodalaydi: ingliz tilida *“buzz, bang, click, splash, meow”*, o‘zbek tilida *“g‘uv-g‘uv, qars, taq, shalop, miyov”.* Biroq ularning lingvistik xususiyatlarini faqat tovushga taqlid bilan izohlash yetarli emas, chunki kontekstda ular obrazlilik, emotsional ta’sirchanlik

va baholash ma'nolarini ham yuzaga chiqaradi. Ekspressivlik fikrni axborot uzatishdan ko'ra ta'sirchanroq va obrazliroq ifodalash xususiyati bo'lsa, evaluativlik so'zlovchining voqelikka nisbatan ijobiy, salbiy yoki boshqa qiymat munosabatini bildirishidir. Onomatopik birliklarda evaluativlik, odatda, lug'aviy ma'noda emas, kontekst, intonatsiya va so'zlovchi munosabati orqali shakllanadi; ayrim vaziyatlarda ikkala xususiyat uyg'unlashadi.

Ingliz tilida onomatopik birliklar tovushni aniq tasvirlash, voqea jadalligini ko'rsatish va nutqning emotsional ta'sirini oshirishga xizmat qiladi. *"Bang! The door slammed shut" misolida "bang"* voqeaning keskinligini kuchaytiradi, qo'rqinchli vaziyatda esa salbiy emotsional ta'sirni ham yuzaga chiqarishi mumkin.

"Buzz, buzz, buzz! This noise is driving me crazy!" misolida takrorlanish uzluksiz tovushni tasvirlab, so'zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi, ya'ni ekspressivlik va evaluativlik uyg'unlashadi. *"Splash! The children jumped into the pool"* misolida esa birlikning o'zi baho bildirmaydi, emotsional ma'no kontekst bilan belgilanadi. "Wow" kabi undovga yaqin birliklar ekspressiv vositalar doirasida qaralsa-da, sof onomatopik birliklardan farqlanishi lozim.

O'zbek tilida taqlidiy birliklar tovush va holatni ifodalaydi, takroriy shakllar esa tovush davomiyligi, takrori va intensivligini bildirishda faol qo'llanadi. *"Qars! Eshik qattiq yopildi" misolida "qars"* tasvir ta'sirchanligini oshiradi; *"G'uv-g'uv ovoz tinmay, uning boshini og'ritdi"* misolida takroriy shakl kontekst bilan birgalikda salbiy baholashni yuzaga chiqaradi; *"Shalop etib bola suvga sakradi"* misolida baho kontekstga bog'liq bo'ladi; *"Mushuk miyov-miyov qilib, egasini chaqirdi"* misolida takrorlanish tovushning bir necha bor chiqarilganini ko'rsatadi va erkalash kontekstida matnning iliq ohangini kuchaytirishi mumkin. Takroriy shakllar muhim ifoda vositasi bo'lsa-da, barcha taqlidiy birliklar uchun bir xil grammatik yoki pragmatik xususiyatni umumlashtirib bo'lmaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda onomatopik birliklar tovushni jonli tasvirlash va nutq ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi; evaluativlik ko'p hollarda birlikning o'zidan ko'ra uning kontekstdagi qo'llanishi bilan belgilanadi; ingliz va o'zbek tilidagi taqlid shakllari har doim ham mos kelmaydi, shu sababli tarjimada fonetik ko'rinish bilan birga kommunikativ vazifa ham hisobga olinishi kerak; takrorlanish, intonatsiya va gapdagi pozitsiya esa ikkala tilda ham ifodaning ta'sirchanligiga ta'sir qiladi.

Natijalar.

Tahlil natijasida onomatopik birliklarning ekspressivlik va evaluativlikni ifodalash imkoniyatlari bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Birinchisi, tovushni obrazli tasvirlash. Onomatopik birliklar hodisaning akustik xususiyatlarini ixcham shaklda ifodalab, nutqning tasviriy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchisi, emotsional ta'sirni kuchaytirish. Tovushning alohida ajratib ko'rsatilishi yoki takrorlanishi voqeaning keskinligi, davomiyligi yoxud hissiy ahamiyatini ta'kidlashi mumkin. Uchinchisi, baholovchi munosabatni ifodalash. Onomatopik birliklar kontekstda yoqimlilik, bezovtalik, hayrat yoki boshqa munosabatlarni ifodalashda ishtirok etadi. Biroq bunday baholarni har bir birlikning doimiy lug'aviy xususiyati deb hisoblash to'g'ri emas. To'rtinchisi, pragmatik moslashuvchanlik. Bir xil tovush shakli turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu holat onomatopik birliklarning ma'nosini aniqlashda kontekstual tahlilning muhimligini ko'rsatadi. Beshinchisi, tarjima ekvivalentligini ta'minlash. Ingliz va o'zbek tillarida tovushni ifodalovchi birliklar shaklan farqlanishi mumkinligi sababli tarjimon kontekstga mos, tabiiy va ekspressiv jihatdan muqobil shaklni tanlashi lozim.

Xulosa.

Ingliz va o'zbek tillaridagi onomatopik birliklarning ekspressivlik va evaluativlikni ifodalash xususiyatlarini qiyosiy o'rganish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. 1. Onomatopik birliklar tovushga taqlid qilish bilan birga, nutqning obrazliligi va emotsional ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. 2. Ekspressivlik va evaluativlik o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular bir xil hodisa emas: birinchisi ifodaning ta'sirchanligini, ikkinchisi esa muayyan hodisaga nisbatan baholovchi munosabatni anglatadi. 3. Har ikki tilda onomatopik birliklarning baholovchi ma'nosi ko'pincha kontekst, intonatsiya, takrorlanish va so'zlovchining kommunikativ maqsadi orqali shakllanadi. 4. Ingliz va o'zbek tillaridagi tovushga taqlid shakllari o'zaro qiyoslanishi mumkin, biroq ularning fonetik va leksik jihatdan to'liq mos kelishi shart emas. 5. Tarjima jarayonida tovushning o'zinigina emas, balki uning ekspressiv va pragmatik ta'sirini ham saqlash muhimdir. Shunday qilib, onomatopik birliklar ingliz va o'zbek tillarida tovushni ifodalash, hissiy ta'sirni kuchaytirish va baholovchi munosabatni yetkazishda muhim lingvistik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bredin, H. (1996). Onomatopoeia as a Figure and a Linguistic Principle. New Literary History, 27(3), 555–569.

2. Jakobson, R. (1960). Closing Statement: Linguistics and Poetics. In T. A. Sebeok (Ed.), Style in Language (pp. 350–377). Cambridge, MA: MIT Press.

3. Lyons, J. (1977). Semantics (Vols. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.

4. Xamrayeva, E. N. (2014). Distinctive Features of Onomatopoeic Words in Russian and Uzbek Languages. Philology. Theory & Practice, 2(1). GRAMOTA Publishing

5. Abdulazizova, D. (2023). Ingliz va o'zbek tillarida taqlid so'zlarning ishlatilishi. Current Approaches and New Research in Modern Sciences.

UDK: 811.111.811.512.133

Zahro ISLOMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
ingliz tili fani o‘qituvchisi
zahroislomova2484@gmail.com

AKSIOLOGIK BIRLIKLARNING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LINGVISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI

Annotatsiya:mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida aksiologik birliklarning lingvistik vositalar orqali ifodalanishiga bag‘ishlangan tadqiqot natijalari yoritilgan. Aksiologik birliklarning semantik, pragmatik va lingvokulturologik jihatlari tahlil qilinib, ularning leksik, frazeologik hamda grammatik vositalar orqali qanday namoyon bo‘lishi tadqiq etiladi. Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillarida aksiologik birliklarning ifodalanishidagi farqlar va o‘xshashliklarga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *aksiologik birliklar, lingvistik vositalar, leksik birliklar, frazeologik birliklar, semantika, pragmatika, lingvokulturologiya.*

Annotation: this article presents the results of a study on the expression of axiological units in Uzbek and English through linguistic means. The semantic, pragmatic, and linguocultural aspects of axiological units are analyzed, and their manifestation through lexical, phraseological, and grammatical means is examined. The article also focuses on the differences and similarities in the expression of axiological units in Uzbek and English languages.

Key words: *axiological units, linguistic means, lexical units, phraseological units, semantics, pragmatics, linguoculturology.*

Аннотация: в данной статье представлены результаты исследования выражения аксиологических единиц в узбекском и английском языках посредством лингвистических средств. Анализируются семантические, прагматические и лингвокультурологические аспекты аксиологических единиц, исследуется их проявление через лексические, фразеологические и грамматические средства. Также рассматриваются различия и сходства в выражении аксиологических единиц в узбекском и английском языках.

Ключевые слова: *аксиологические единицы, лингвистические средства, лексические единицы, фразеологические единицы, семантика, прагматика, лингвокультурология.*

Kirish. Til har bir jamiyatning asosiy ijtimoiy-madaniy ifoda vositasi bo‘lib, unda qadriyatlar va aksiologik birliklar muhim o‘rin tutadi. Aksiologik birliklar til orqali ifodalanadigan ijtimoiy, axloqiy va madaniy tushunchalar majmuasi bo‘lib, ular millatning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va madaniy merosi bilan bog‘liq. Ushbu tadqiqot turli tillarda aksiologik birliklarning lingvistik vositalar bilan qanday ifodalanishini tahlil qilishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ingliz tilidagi dramalar tahlilida kuzatish mumkinki, odatda, ishlatiladigan har bir muloqot vositasi “shaxsiy makon” doirasiga muvofiq qo‘llaniladi. Ingliz pragmalingvistik M. Argaylning fikricha, “nutqiy vaziyatga muvofiq kelmaydigan noverbal vositaning ishlatilishi adresantning shaxsiy makoniga bostirib kirishni anglatadi. [1, 210-233] Ya’ni tinglovchiga bu keskin ta’sir ko‘rsatadi va u o‘zini bundan olib qochishga yoki himoyalashga intiladi”. Albatta, bu jarayonda javob reaksiyasi beriladi va to‘la yakuniga yetmagan nutqiy vaziyatni yuzaga keltiradi. Shaxsiy makon deganda, shaxsning o‘z atrofidagi makoni tushuniladi, hudud esa shaxsiy hayotni ta’minlay oladigan kattaroq hudud (masalan, ofis yoki konferensiya zalidagi maxsus stul) nazarda tutiladi. Demak, shaxsiy makon kommunikantlarning o‘ziga bog‘liq vositalar (harakatlar, mimika, jestlar), shaxsiy hudud esa nutqiy vaziyatda ishtirok etuvchi boshqa komponentlardir.[7, 273-275] M. Argayl tomonidan “taktil aloqa” termini ishlatiladi va bu o‘z navbatida, qo‘l ishorasi, tana harakati, turtish orqali shaxsni kommunikatsiyaga chorlashni bildiradi. M. Argayl, buni “...shaxslarni kommunikativ aloqaga taklif qilish”, deb baholaydi. Harrisning nuqtayi nazari esa birmuncha farq qiladi. Uning fikricha, “...noverbal vositalar muloqotga chorlashni emas, tartibga solishni bildiradi. Odamlar qo‘l ishoralari orqali boshqalarning xatti-harakatlarini tartibga soladi. U o‘z fikrini dalillashda tashkilotlarda xodim, rahbar va hamkorlarning qo‘l berishlarini ko‘rsatadi. Birgina ushbu harakatning o‘ziyoq tasalli berish, qo‘llab-quvvatlash va tabriklash, qo‘l siqish kabi xatti-harakatlar

munosabatlarga qarab, ko‘pincha, tashkilotlarda shaxslar konfiguratsiyasini madaniy jihatdan tartibga soladi”[8, 228-230]

Belgilar to‘plamini uning asosiy xususiyati sifatida tavsiflashga asoslangan ta’rif turining aniq kamchiligi shundaki, u tildan noverbal aloqani sun’iy ravishda ajratib turadi. Ya’ni og‘zaki bo‘lmagan kodlar, ta’rifiga ko‘ra, kommunikativ bo‘lishi mumkin bo‘lgan tildan tashqari barcha kodlardir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda aksiologik birliklarning ifodalanishiga oid ma’lumotlar tanlab olinib, ularning leksik, frazeologik va grammatik jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqot sifatli va qiyosiy-lingvistik yondashuvga asoslanib olib borildi. Leksik birliklar semantik va pragmatik jihatdan o‘rganildi, frazeologik birliklarning qadriyat mazmunini ifodalashdagi roli tahlil qilindi, grammatik vositalarning aksiologik mazmun shakllantirishdagi o‘rni o‘rganildi. Lisoniy ifodalanish til vositalari orqali qadriyatlarni ifodalashni anglatadi. Bu yerda qadriyatlarning til orqali qanday tasvirlanganini ko‘rish mumkin.[11, 218] Lisoniy ifodalanish quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Leksik ifodalanish: tilning leksik vositalari, ya’ni so‘zlar va frazalarning qadriyatlarni ifodalashdagi roli. Masalan, “axloqli”, “o‘tkir”, “yuqori”, “past” kabi so‘zlar ma’lum qadriyatlarni ifodalashi mumkin.
2. Semantik ifodalanish: so‘zlar va iboralar orqali qadriyatlarning ma’nolari va semantik konteksti. Semantik tadqiqotlar qadriyatlarning so‘zlarning ma’nosida qanday aks etishini o‘rganadi.
3. Pragmatik ifodalanish: tilning kontekst va vaziyatga qarab qadriyatlarni qanday ifodalashni o‘rganadi. Masalan, qanday qilib e’tibor va hurmatni ko‘rsatadigan so‘zlar yoki frazalar tanlanishi.
4. Diskursiv ifodalanish: nutq va muloqotdagi strategiyalar, uslublar va diskursiv shakllar orqali qadriyatlarning qanday aks etishini o‘rganadi. Bu qadriyatlarni tasvirlovchi yoki ularga nisbatan munosabat bildirish usullarini o‘z ichiga oladi.

Lisoniy ifodalanish — qadriyatlarni til vositalari yordamida ifodalashni anglatadi. Bu yerda til orqali qadriyatlarning qanday tasvirlanishi, ifodalanishi va qabul qilinishi haqida gap boradi.[10, 205-208]

Ingliz va o‘zbek tillarida qadriyatlarning ifodalanishi tilning leksik, semantik, pragmatik va diskursiv jihatlarida farqlanadi. Har bir til o‘ziga xos usullar orqali qadriyatlarni aks ettiradi va ularga o‘z madaniy hamda ijtimoiy kontekstlarini singdiradi.

Leksik ifodalanish orqali qadriyatlar tilning so‘z boyligi yordamida namoyon bo‘ladi. Masalan, “axloqli”, “yaxshi”, “salbiy”, “zo‘r” kabi so‘zlar turli qadriyatlarni aks ettiradi. So‘zlarning rang-barangligi ham bu borada muhimdir. Ayrim so‘zlar ijobiy qadriyatlarni, masalan, “o‘ziga xos” yoki “quvnoq”, ifodalasa, boshqalari, masalan, “yomon” yoki “sovuq”, salbiy qadriyatlarni aks ettiradi. Bu so‘zlar va iboralar qadriyatlarni turli nuqtayi nazardan tasvirlash imkonini beradi.[3, 56]

Semantik ifodalanish qadriyatlarning so‘z ma’nolari va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. So‘zlar o‘z ma’nolarini kontekstga qarab o‘zgartirishi yoki kengaytirishi mumkin. Masalan, “adolat” so‘zi “haq” va “haqsizlik” tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning keng ma’noviy spektrini ko‘rsatadi. Shuningdek, ba’zi qadriyatlarning ma’nosi madaniyatga bog‘liq holda o‘zgaradi. Masalan, “oila” so‘zi ayrim madaniyatlarda eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi.[4, 81]

Pragmatik ifodalanish esa qadriyatlarning nutqiy kontekstlarda qanday aks etishini o‘rganadi. Bu yerda kontekstual tavsif muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, “rahmat” so‘zi minnatdorlikni ifodalaydi va u muloqot davomida hurmat va qadriyatlar ifodasiga aylanadi. Nutq strategiyalari, masalan, ta’rif, maqtov yoki tanqid orqali ham qadriyatlar aks ettiriladi. Shunday qilib, so‘zlar va iboralar muloqotda qadriyatlarni turli xil yo‘llar bilan ifodalaydi.

Diskursiv ifodalanishda qadriyatlar nutq uslublari va kommunikatsiya vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Bu usullar retorika, xushnudlik yoki tanqid orqali qadriyatlarni ta’kidlash imkonini beradi. Madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qadriyatlar turlicha aks etib, bu muloqot shakllariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ayrim jamiyatlarda kattalarga hurmat muloqotda aniq ko‘zga tashlanadi va turli nutq usullari orqali yoritiladi.

Shunday qilib, qadriyatlar tilning barcha darajalarida – leksik, semantik, pragmatik va diskursiv jihatlar orqali ifodalanib, muloqot va kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ingliz va o‘zbek tillarida qadriyatlarning ifodalanishi tilning leksik, semantik, pragmatik va diskursiv jihatlarida farqlanadi. Har bir til o‘ziga xos usullar orqali qadriyatlarni aks ettiradi va ularga o‘z madaniy hamda ijtimoiy kontekstlarini singdiradi.

Leksik jihatdan, ingliz tilida qadriyatlarni ifodalovchi so‘zlar keng ko‘lamga ega. Masalan, “honest” (halol), “generous” (saxovatli), “kind” (mehribon) kabi so‘zlar

ijobiy qadriyatlarni ifodalasa, “dishonest” (soxta) va “bad” (yomon) kabi so‘zlar salbiy qadriyatlarni tasvirlaydi. O‘zbek tilida esa qadriyatlarni ifodalovchi so‘zlar madaniy va tarixiy kontekstlarga mos ravishda namoyon bo‘ladi. Masalan, “halol”, “mehribon”, “mehmondo‘st” kabi so‘zlar qadrlanadigan fazilatlarni ifodalasa, “soxta” yoki “yomon” kabi so‘zlar salbiy xulq-atvorni ko‘rsatadi. Har ikki tilning leksik xususiyatlari qadriyatlarni tasvirlashda o‘ziga xos bo‘lib, ularning ma’nolari va ishlatilishi tilning ijtimoiy va madaniy kontekstiga bog‘liq.[6, 298-300]

Semantik jihatdan, ingliz tilida qadriyatlarni ifodalovchi so‘zlarning ma’nolari kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan, “freedom” (ozodlik) so‘zi ijtimoiy, siyosiy yoki shaxsiy kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash jarayon kuzatiladi. “Ozodlik” so‘zi tarixiy va madaniy sharoitlarga ko‘ra turli xil ma’nolarni anglatishi mumkin. Semantik tahlil so‘zlarning qadriyatlarni qanday aks ettirayotganini va ularning o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Pragmatik jihatdan esa har ikkala til qadriyatlarni ifodalashda nutq kontekstini hisobga oladi. Ingliz tilida “please” (iltimos) va «thank you» (rahmat) kabi so‘zlar hurmat va odobni ifodalovchi asosiy vositalar sifatida ishlatiladi. Bular ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida esa “iltimos” va “rahmat” so‘zlari shunga o‘xshash vazifani bajaradi. Shuningdek, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda qanday so‘zlar va iboralardan foydalanish muloqotning samaradorligini belgilaydi.[6, 298-300]

Diskursiv jihatdan, qadriyatlar tilning uslublari va strategiyalari orqali ifodalanadi. Ingliz tilida nutqda xushmuomalalik, qabul qilish yoki tanqid kabi qadriyatlar turli diskurs usullari bilan aks ettiriladi. Masalan, biror mavzuni muhokama qilishda yoki mulohaza bildirishda nutq uslubi qadriyatlarni ifoda etishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida ham diskursiv strategiyalar qadriyatlarni ifodalashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Masalan, ehtiyotkorlik, hurmat ko‘rsatish yoki tanqid qilish orqali qadriyatlar turli kontekstlarda namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksiologik birliklar turli tillarda turli lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Leksik birliklar orqali qadriyatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash mumkin bo‘lsa, frazeologik birliklar ularning obrazli va ta’sirchan shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Grammatik vositalar esa aksiologik birliklarning nutqiy strukturasi va sintaktik muhitida o‘z aksini topadi. Tadqiqot davomida aksiologik birliklarning umumiyliklari va farqlari tahlil qilindi.[9, 306-309] Kelgusida mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish uchun boshqa tillardagi aksiologik birliklar bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бондарко А.В. Временная локализованность // Теория функциональной грамматики. – Л.: Наука, 1987. – С.210 – 233.

2. Кошмидер Э. Очерк науки о видах польского глагола: Опыт синтеза // Вопросы глагольного вида. – М.: Наука, 1962. – С.105 – 167.

3. Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Фан, 2012. – Б.56.

4. **Неъматов Ҳ., Менглиев Б. Ғ.Ғуломнинг лисоний имкониятлардан фойдаланиш маҳорати.** Ғ.Ғулом ва даврimиз (Тўплам). – Қарши, 2003. – Б. 81.

5. Islomova Z. Research of axiological lexicon in Uzbek and English languages // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Special Issue – 1 (2024) / ISSN 2181-3701 –B. 245-249.

6. Islomova Z. O‘zbek tilshunosligida aksiologik birliklarning o‘rganilishiga doir // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2024. №1/9/1. 298-300-bet.

7. Islomova Z. Exploring axiological lexic themes: values in language // Til va adabiyot ilmiy-metodik elektron jurnal 2024-yil 18-son. 273-275-bet.

8. Islomova Z. Axiological lexicon in uzbek and english languages // Til va adabiyot ilmiy-metodik elektron jurnal 2024-yil 19-son. 228-230-bet.

9. Islomova Z. On the Study of Axiological Units in Uzbek Linguistics // American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.1, No.7 (Oct, 2024), E-ISSN: 2997-9439 –P. 306-309

10. Yuldosheva N. Sodda gap qoliplari nutqiy voqelanishining lisoniy va nolisoniy omillari: Filol. fan. d-ri ... diss. –Qarshi, 2023. 218-bet.

Xilola NIZAMOVA,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti katta o'qituvchisi
Toshkent davlat transport universiteti, mustaqil izlanuvchisi
nizamova.hilola@gmail.com

KOMPLIMENTLARNING LINGVISTIK MODELLARI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI QIYOSIY TAHLILI ASOSIDA

Annotatsiya: maqtov shaxslararo muloqotda muhim ijtimoiy-pragmatik vosita bo'lib, ijobiy munosabatlarni mustahkamlashga, birdamlik hosil qilishga va ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi maqtovning leksik-grammatik modellari ko'rib chiqilib, sifatlar, kuchaytirgichlar va sintaktik tuzilmalarning o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, bu lingvistik vositalarning kundalik va institutsional nutqda maqtovning hissiy-pragmatik kuchini qanday oshirishi ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *maqtov, pragmatika, sifat, kuchaytirgich, sintaktik tuzilma, xushmuomalalik, shaxslararo muloqot.*

Аннотация: комплимент выступает важным социально-прагматическим инструментом межличностного общения: он укрепляет позитивные отношения, создаёт чувство солидарности и поддерживает социальную гармонию. В статье рассматриваются лексико-грамматические модели комплимента в английском языке с акцентом на роль прилагательных, интенсификаторов и синтаксических конструкций. Кроме того, анализируется, каким образом эти языковые средства усиливают эмоциональное и прагматическое воздействие комплимента в повседневной и официальной речи.

Ключевые слова: *комплимент, прагматика, прилагательное, интенсификатор, синтаксическая структура, вежливость, межличностное общение.*

Annotation: compliments function as an important socio-pragmatic tool in interpersonal communication, reinforcing positive relations, building solidarity, and helping to maintain social harmony. This article looks at the lexical-grammatical models used to express compliments in English, with particular attention to the role of adjectives, intensifiers, and syntactic structures. It further considers how these linguistic elements shape the emotional and pragmatic force of compliments in both everyday and institutional discourse.

Key words: *compliment, pragmatics, adjective, intensifier, syntactic structure, politeness, interpersonal communication.*

Kirish. Ingliz kommunikativ madaniyatida maqtov eng faol qo'llaniladigan nutq harakatlaridan biri hisoblanadi: u oilaviy munosabatlarda, do'stona suhbatlarda, ish joyidagi muloqotda, akademik muhitda, hatto ommaviy chiqishlarda ham uchraydi. Ma'lum darajada, maqtovning tili orqali madaniy stereotiplar, xushmuomalalik odatlari va ijtimoiy normalar ham namoyon bo'ladi[1]. Shu sababli iltifot ifodalarining leksik va grammatik modellarini o'rganish ingliz muloqotining sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi[2].

Quyida iltifotning uchta lingvistik mexanizmiga alohida to'xtalamiz: baholovchi sifatlar, gapning hissiy ta'sirini kuchaytiruvchi intensifikatorlar hamda ingliz tilidagi iltifot naqshlariga xos sintaktik qurilmalar[3].

So'z turkumlarini o'rganish tilshunoslikning eng barqaror yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda, chunki har bir tilning grammatik tuzilishi va leksik tarkibi aynan shu turkumlanish orqali tizimga tushadi. Ingliz va o'zbek tillari umuman boshqa-boshqa til oilalariga mansub bo'lsa-da, so'z turkumlari tizimida ular o'rtasida ham umumiylik, ham jiddiy farqlar kuzatiladi. Bu kategoriyalar tilning eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biri sanaladi — ular avloddan-avlodga deyarli o'zgarmay o'tib kelgan. Har bir til so'zlarni o'z morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlariga

1 Lakoff, R. (1973). «The Logic of Politeness; or, Minding Your P's and Q's». In Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, pp. 292-305
2 Holmes, J. (1995). Women, Men and Politeness. London: Longman
3 Manes, J., & Wolfson, N. (1981). «The Compliment Formula». In F. Coulmas (Ed.), Conversational Routine: Explorations in Standardized Communication Situations and Prepatterned Speech. The Hague: Mouton Publishers

qarab guruhlaydi, biroq bu jarayon faqat grammatika bilan cheklanib qolmaydi — u inson tafakkuridagi kognitiv kategoriyalash mexanizmlari bilan ham chambarchas bog‘liq[4]. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘z turkumlari tizimi kognitiv-lingvistik jihatdan talqin qilinib, tipologik taqqoslash o‘tkaziladi. Ingliz tili german tillari guruhiga xos analitik tuzilishga ega bo‘lsa, o‘zbek tili turkiy tillarning agglyutinativ tipiga kiradi — aynan shu farq so‘z turkumlarining tasniflanishida o‘ziga xos jihatlarni yuzaga keltiradi[5]. Xullas, ikkala tilda ham so‘zlarning turkumlanishi leksik-semantik va grammatik mezonlarga tayanadi.

Muhokama va natijalar. So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi tarix davomida turlicha talqin qilingan. Qadimgi yunon va lotin grammatikalarida so‘zlar dastlab yettita asosiy toifaga bo‘lingan bo‘lsa, zamonaviy tilshunoslik bu tasnifni tillarning o‘ziga xos tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ancha kengaytirdi. Xususan, ingliz tilida so‘z turkumlari o‘n ikkitani tashkil etadi: ot, sifat, olmosh, fe’l, ravish, predlog, bog‘lovchi, modal fe’llar, ko‘makchi fe’llar, undov so‘zlar, artikl va determinatorlar. O‘zbek tilida esa manzara biroz boshqacha — so‘z turkumlari asosiy va yordamchi guruhlarga bo‘linadi: birinchisiga ot, sifat, son, olmosh, fe’l va ravish kirsa, ikkinchisiga bog‘lovchi, yuklama, modal so‘zlar, ko‘makchilar, undovlar va taqlid so‘zlar kiradi[6]. E’tiborli jihati shundaki, ingliz tilidagi artikl va determinatorlarga o‘zbek tilida umuman mos kategoriya topilmaydi.

Tilning analitik yoki agglyutinativ bo‘lishi so‘z turkumlarining qanday ishlashiga ham ta’sir qiladi. Ingliz tilida grammatik munosabatlar ko‘proq sintaktik vositalar va yordamchi so‘zlar zimmasida — masalan, fe’l zamonlari yordamchi fe’l va so‘z tartibi orqali hosil bo‘ladi: *read – is reading – will read*. O‘zbek tilida esa bu vazifani affikslar bajaradi: *o‘qi – o‘qidi – o‘qimoqchi*. Bundan tashqari, o‘zbek tilida fe’l shaxs va songa qarab aniq o‘zgaradi: *men boraman, sen borasan, u boradi*; ingliz tilida esa bu farq deyarli sezilmaydi, faqat uchinchi shaxs birlikda ko‘rinadi: *I go, you go, he goes*.

Otlarda ham shunga o‘xshash tipologik farq ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilida ko‘plik *–lar* qo‘shimchasi orqali yasalsa, ingliz tilida buning o‘rnini ko‘pincha *-s, -es* qo‘shimchalari bosadi — garchi *man – men, child – children, tooth – teeth* kabi istisnolar ham yetarli. Sifatlar borasida ikkala tilda ko‘p umumiylik bo‘lsa-da, daraja kategoriyasida yo‘llar ajraladi: o‘zbek tilida *–roq*, *eng* kabi so‘zlar orqali daraja ko‘rsatilsa, ingliz tilida buning vazifasini *-er, -est* affikslari yoxud *more, most* kabi yordamchi so‘zlar bajaradi[7]. Olmoshlar tizimida ham holat shunga yaqin: umumiy o‘xshashliklarga qaramay, ingliz tilidagi olmoshlarning hol kategoriyalari (nominativ, obyektiv, egalik) bo‘yicha ajratilishi o‘zbek tilida uchramaydigan xususiyat.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida so‘z turkumlari tizimining umumiy tamoyillari o‘xshash bo‘lsa-da, ularni ifodalash vositalari ancha farq qiladi: ingliz tilida so‘z turkumi ko‘proq gapdagi o‘rni va kontekstga qarab belgilansa, o‘zbek tilida bu vazifani asosan morfologik ko‘rsatkichlar bajaradi[8]. Zamonaviy tilshunoslik bu masalaga endi faqat morfologik yoki sintaktik emas, balki kognitiv, funksional va pragmatik nuqtayi nazardan ham yondashadi, ya’ni so‘z turkumlarini umumiy kommunikativ jarayon bilan bog‘liq holda tushunish talab etiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarining tipologik farqlarini shu tarzda qiyoslash universal grammatik kategoriyalarni chuqurroq anglashga yordam beradi va ikkala tilning o‘ziga xosligini yaqqolroq ko‘rsatib beradi. Bunday tadqiqotlar kelajakda kognitiv grammatika, psixolingvistika, tarjimashunoslik va til o‘qitish metodikasi kabi sohalarda ham o‘z o‘rnini topadi.

Ingliz tilida kompliment ifodalashning leksik-grammatik modellarini o‘rganish tilshunoslikda dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Kompliment shunchaki muloqotning ijtimoiy-psixologik vositasi emas — u ijobiy munosabat o‘rnatish, suhbatdoshni ruhlantirish va iliq muhit yaratishda ham muhim pragmatik vazifani bajaradi. Bunda sifatlar, intensifikatorlar va turli sintaktik qoliplar yetakchi o‘rin tutadi[9]. Sifatlar komplimentning mazmuniy o‘zagini tashkil qiladi va maqtovning aynan nimaga qaratilganini bildiradi, masalan: *beautiful,*

4 Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press 56-78

5 Wolfson, N. (1983). «An Empirically Based Analysis of Complimenting in American English». In N. Wolfson & E. Judd (Eds.), Sociolinguistics and Language Acquisition. Rowley, MA: Newbury House

6 Kerbrat-Orecchioni, C. (2005). «Politeness in France: How to Buy Bread Politely». In L. Hickey & M. Stewart (Eds.), Politeness in Europe. Clevedon: Multilingual Matters

7 Coulmas, F. (Ed.). (1981). Conversational Routine: Explorations in Standardized Communication Situations and Prepatterned Speech. The Hague: Mouton Publishers. 123-145

8 Leech, G. N. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman, 87-102

9 Herbert, R. K. (1990). «Sex-based Differences in Compliment Behavior». Language in Society, 19(2), 201-224

smart, impressive, talented. Intensifikatorlar esa maqtov darajasini oshirib, uning ta'sir kuchini yanada kuchaytiradi: *very, extremely, absolutely, really, so* va shu kabilar[10]. Sintaktik qurilmalar esa komplimentning shaklini belgilaydi, ko'pincha allaqachon formulaga aylanib qolgan tayyor iboralar tarzida keladi: *You look amazing today*, *What a wonderful idea!*, *I love the way you speak* kabi misollarda buni ko'rish mumkin.

Xulosa. Kompliment madaniyatga qarab ham o'zgarib turadi — uni qo'llash chastotasi, uslubi, unga javob berish strategiyasi va mavzusi turli madaniy muhitda turlicha kechadi[11]. Ingliz tilida esa kompliment ko'proq ijobiy kayfiyat yaratish, suhbatni davom ettirish va hurmatni bildirish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, ular ko'pincha epitet, metafora, o'xshatish kabi badiiy vositalar bilan boyitilib, hissiy-estetik ta'sirini yanada kuchaytiradi[12].

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi komplimentlarning leksik-grammatik modellari til madaniyati, nutq odobi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu modellarni bilish xorijiy til sifatida ingliz tilini o'rganayotganlar uchun ayniqsa foydali, chunki bu bilim ularga real muloqot vaziyatlarida o'zini erkin va tabiiy tutishga yordam beradi. Komplimentdan o'rinli foydalanish shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi, ijtimoiy yaqinlashuvni osonlashtiradi va muloqotga psixologik qulaylik baxsh etadi. Shu sababdan bu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, korpusga asoslangan yangi tadqiqotlar olib borish va olingan natijalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish — hali ham dolzarbligicha qolayotgan vazifalardan biridir.

10 Johnson, D. M., & Roen, D. H. (1992). «Complimenting and Involvement in Peer Review: Gender Variation». Language in Society, 21(1), 27-57
11 Pomerantz, A. (1978). «Compliment Responses: Notes on the Co-operation of Multiple Constraints». In J. Schenkein (Ed.), Studies in the Organization of Conversational Interaction. New York: Academic Press, 65-89
12 Pomerantz, A. (1978). «Compliment Responses: Notes on the Co-operation of Multiple Constraints». In J. Schenkein (Ed.), Studies in the Organization of Conversational Interaction. New York: Academic Press

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Holmes, J. (1995). *Women, Men and Politeness*. London: Longman.
2. Lakoff, R. (1973). "The Logic of Politeness; or, Minding Your P's and Q's". In *Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society*, pp. 292-305.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Manes, J., & Wolfson, N. (1981). "The Compliment Formula". In F. Coulmas (Ed.), *Conversational Routine: Explorations in Standardized Communication Situations and Prepatterned Speech*. The Hague: Mouton Publishers.
5. Coulmas, F. (Ed.). (1981). *Conversational Routine: Explorations in Standardized Communication Situations and Prepatterned Speech*. The Hague: Mouton Publishers.
6. Wolfson, N. (1983). "An Empirically Based Analysis of Complimenting in American English". In N. Wolfson & E. Judd (Eds.), *Sociolinguistics and Language Acquisition*. Rowley, MA: Newbury House.
7. Herbert, R. K. (1990). "Sex-based Differences in Compliment Behavior". *Language in Society*, 19(2), 201-224.
8. Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. London: Longman.
9. Kerbrat-Orecchioni, C. (2005). "Politeness in France: How to Buy Bread Politely". In L. Hickey & M. Stewart (Eds.), *Politeness in Europe*. Clevedon: Multilingual Matters.
10. Pomerantz, A. (1978). "Compliment Responses: Notes on the Co-operation of Multiple Constraints". In J. Schenkein (Ed.), *Studies in the Organization of Conversational Interaction*. New York: Academic Press.
11. Johnson, D. M., & Roen, D. H. (1992). "Complimenting and Involvement in Peer Review: Gender Variation". *Language in Society*, 21(1), 27-57.
12. Pomerantz, A. (1978). "Compliment Responses: Notes on the Co-operation of Multiple Constraints". In J. Schenkein (Ed.), Studies in the Organization of Conversational Interaction. New York: Academic Press.

Nilufar TO‘LQINJONOVA,
SamDCHTI tayanch doktoranti
tulkinjonovanilufar06191998@gmail.com

“TRISTAN VA IZOLDA” HAMDA “KUNTUG‘MISH”DA ISHQ, AYRILIQ VA SADOQAT MOTIVLARINING POETIK FUNKSIYASI

Annotatsiya: maqolada “Tristan va Izolda” hamda “Kuntug‘mish”da ishq, ayriliq va sadoqat motivlarining poetik funksiyasi masalasi “Tristan va Izolda” hamda “Kuntug‘mish” asarlari misolida qiyosiy-tipologik va poetik tahlil asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ikki an’ananing umumiy motivlari bilan bir qatorda janr, qahramonlar munosabati va ma’no tashkil etishidagi farqlari aniqlanadi. Xulosalar matnlarning nashr va variant xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: *ishq motivi, ayriliq, sadoqat, sinov, syujet, qiyosiy poetika*

Аннотация: в статье на примере произведений «Тристан и Изольда» и «Кунтугмиш» на основе сравнительно-типологического и поэтического анализа исследуется вопрос поэтической функции мотивов любви, разлуки и верности в произведениях «Тристан и Изольда» и «Кунтугмиш». В исследовании выявляются общие мотивы обеих традиций, а также их различия в жанре, взаимоотношениях персонажей и смысловой организации. С учетом особенностей издания и варианта текстов сделаны выводы.

Ключевые слова: *мотив любви, разлука, верность, испытание, сюжет, сравнительная поэтика*

Annotation: this article examines the poetic function of the motifs of love, separation, and fidelity in the works “Tristan and Isolde” and “Kuntugmish”, employing a comparative-typological and poetic analysis. The study identifies motifs common to both traditions, as well as differences regarding genre, character relationships, and semantic organization. Conclusions are drawn with consideration for the specific editions and textual variants analyzed.

Key words: *motif of love, separation, fidelity, ordeal, plot, comparative poetics*

Ishq, ayriliq va sadoqat dunyo epik adabiyotida ko‘p uchraydigan motivlardir. Shu bois ularning ikki asarda mavjudligigina o‘zaro tarixiy ta’sirni isbotlamaydi. Mazkur maqolada “Tristan va Izolda” hamda “Kuntug‘mish”dagi mazkur motivlarning aynan syujetni harakatga keltirish va axloqiy ziddiyatni ifodalash vazifasi qiyoslanadi. [2]

Motivning vazifasi. Motiv poetik birlik sifatida hodisalar bog‘lanishini faollashtiradi. Ishq qahramonni qaror qabul qilishga majbur etishi, ayriliq bu qarorning oqibatini kuchaytirishi, sadoqat esa tanlovni baholash me’yorini belgilashi mumkin. Har uch motivni mustaqil sanash o‘rniga ularning sabab va oqibat munosabatini aniqlash muhim. [4;25]

Bu kuzatishni asoslashda qiyosiy poetikaning strukturaviy o‘lchovlari muhim: asosiy epizodning boshlanish sharti, personajning vazifasi, syujetdagi burilish nuqtasi va yakuniy baho alohida belgilanadi. Mazkur mezonlar tadqiqotchining oldindan shakllangan taxminini matnga majburan tatbiq etish ehtimolini kamaytiradi. Shuningdek, dostonning og‘zaki kelib chiqishi va rivoyatning yozma qayta ishlangan shakli o‘rtasidagi farq har bir xulosada e’tiborga olinadi. [7;33]

Tristan va Izoldadagi ishq. Tristan rivoyatida muhabbat shaxsiy hisning o‘zidan ko‘ra murakkabroq ziddiyatning manbaidir. U mavjud majburiyat, qirollik tartibi va ijtimoiy sadoqat bilan to‘qnashadi. Shu jihatdan ishq voqealarning ruhiy keskinligini ta’minlaydi hamda qahramonlarni bir vaqtning o‘zida bir necha qiymat tizimi orasida qolishga majbur etadi. [1]

Mazkur farqlanishni tasvirlashda tipologik yaqinlik bilan bevosita ta’sir masalasi chegaralanadi. Matnlardagi o‘xshash motiv yoki ramzning mavjudligi mustaqil ravishda tarixiy aloqa dalili bo‘la olmaydi. Buning uchun tarjima, qo‘lyozma, ijro an’anasi va madaniy vositachilik bo‘yicha qo‘shimcha hujjatlar talab etiladi. Demak, hozirgi natijalar badiiy struktura va semantik vazifalarga oid ilmiy talqin maqomidadir. [8;131]

Kuntug‘mishdagi ishq. “Kuntug‘mish”da ishq maqsad sari safar va mashaqqatlarga dosh berishning kuchli sababidir. Qahramonning yorga intilishi qahramonlik sinovi bilan tutashib, ichki qat’iyatni namoyish etadi. Natijada muhabbat qahramonning nafaqat kechinmasi, balki uning mardligi va irodasini sinovdan o‘tkazuvchi syujet markazi bo‘lib xizmat qiladi. [2]

Ayriliqning strukturaviy ahamiyati. Ayriliq har ikki matnda vaqtning cho‘zilishi, noma’lumlik va to‘siqlar orqali dramatik taranglik yaratadi. Biroq uning natijasi va qahramonlar boshidan kechiradigan sinovlar turlicha

tashkil etiladi. Qahramonlarning qayta ko‘rishish umidi yoki uning cheklanishi aynan ayriliq epizodiga berilgan badiiy bahoni belgilaydi. [3;84]

Bu kuzatishni asoslashda qiyosiy poetikaning strukturaviy o‘lchovlari muhim: asosiy epizodning boshlanish sharti, personajning vazifasi, syujetdagi burilish nuqtasi va yakuniy baho alohida belgilanadi. Mazkur mezonlar tadqiqotchining oldindan shakllangan taxminini matnga majburan tatbiq etish ehtimolini kamaytiradi. Shuningdek, dostonning og‘zaki kelib chiqishi va rivoyatning yozma qayta ishlangan shakli o‘rtasidagi farq har bir xulosada e’tiborga olinadi. [7;33]

Sadoqatning ikki yo‘nalishi. Tristan rivoyatida sadoqatning murakkabligi uning bir nechta obyektga qaratilganidadir: sevgiliga muhabbat va hukmdorga qarzdorlik o‘rtasida ziddiyat mavjud. “Kuntug‘mish”dagi sadoqat esa yor, oila va or-nomus munosabatlarini o‘zaro mustahkamlashi bilan ajralib turadi. Shu farq motivning mavhum axloqiy fazilat emasligini, u muayyan ijtimoiy tizimda ma’no olishini ko‘rsatadi. [1]

Sinov epizodlari. Sinov motivning haqiqiy qiymatini ochadigan voqea nuqtasidir. Qahramon yo‘l tanlay olmagan yoki tashqi majburiyat bilan yuzlashgan vaziyatda uning idealga munosabati ayonlashadi. Shu bois motivlar tahlilida “sevgisi kuchli” kabi umumiy ta’riflar o‘rniga aniq vaziyatning sharti, tanlov va oqibat ketma-ketligi tasvirlanishi lozim. [4;25]

Mazkur farqlanishni tasvirlashda tipologik yaqinlik bilan bevosita ta’sir masalasi chegaralanadi. Matnlardagi o‘xshash motiv yoki ramzning mavjudligi mustaqil ravishda tarixiy aloqa dalili bo‘la olmaydi. Buning uchun tarjima, qo‘lyozma, ijro an’anasi va madaniy vositachilik bo‘yicha qo‘shimcha hujjatlar talab etiladi. Demak, hozirgi natijalar badiiy struktura va semantik vazifalarga oid ilmiy talqin maqomidadir. [8;131]

Tipologik chegaralar. Muhabbat va ayriliq universal insoniy tajribaga tayangani uchun turli epik makonlarda takror yuz berishi mumkin. Bunday o‘xshashlikdan bevosita matniy qarz olish haqida xulosa chiqarish uchun manbalararo aloqa, xronologiya va o‘tish kanallari aniqlanishi shart. Hozirgi qiyosda bunday aloqa tasdiqlanmaganligi sabab tipologik darajada qolish ilmiy jihatdan to‘g‘riroq. [3;84]

Bu kuzatishni asoslashda qiyosiy poetikaning strukturaviy o‘lchovlari muhim: asosiy epizodning boshlanish sharti, personajning vazifasi, syujetdagi burilish nuqtasi va yakuniy baho alohida belgilanadi. Mazkur mezonlar tadqiqotchining oldindan shakllangan taxminini matnga majburan tatbiq etish ehtimolini kamaytiradi. Shuningdek, dostonning og‘zaki kelib chiqishi va rivoyatning yozma qayta ishlangan shakli o‘rtasidagi farq har bir xulosada e’tiborga olinadi. [7;33]

Har ikki asarda uch motiv bitta syujet zanjirini tashkil etsa-da, funksional yo‘nalish boshqa-boshqa. Tristan rivoyatida ular shaxsiy ehtiros va sotsial majburiyat o‘rtasidagi fojiali kuchlanishni, “Kuntug‘mish”da esa sevgi orqali mustahkamlangan qahramonlik va sabrni yoritadi. Bu farq qiyosiy poetikadagi eng muhim natijadir.

Motivlarni qiyosiy o‘rganish uchun ularning mavjudligi emas, vazifasi, kompozitsion joyi va natijasi birlamchi mezondir. Mazkur yondashuv ishq, ayriliq hamda sadoqatni ikkala epik an’anada mustaqil va tizimli tushuntirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bédier, Joseph. The Romance of Tristan and Iseult. Translated by Hilaire Belloc; completed by Paul Rosenfeld. New York: D. Appleton and Company, 1910.

2. Kuntug‘mish. O‘zbek xalq dostoni. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti; H. Zarif tayyorlagan nashr. Toshkent, 1975. (Nashr rekvizitlari va sahifalar manba nusxasi bilan solishtirilishi lozim.)

3. Bakhtin, M. M. Forms of Time and of the Chronotope in the Novel. In: The Dialogic Imagination. Austin: University of Texas Press, 1981.

4. Propp, Vladimir. Morphology of the Folktale. 2nd ed. Austin: University of Texas Press, 1968.

5. Lord, Albert B. The Singer of Tales. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.

6. Halbwachs, Maurice. On Collective Memory. Chicago: University of Chicago Press, 1992.

7. Genette, Gérard. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca: Cornell University Press, 1980.

8. Lotman, Yuri M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. Bloomington: Indiana University Press, 1990.

Intizor ABDUJABBOROVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 1-kurs tayanch doktoranti

“BAHROMNOMA” DOSTONLARIDA KANIZAKLAR TIMSOLI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida “Bahromnoma” an’anasi asosida yaratilgan dostonlarda kanizaklar timsolining badiiy talqini o‘rganiladi. Xususan, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” va G‘aribiyning “Shoh Bahrom va Dilorom” dostonlari misolida ayol obrazlarining syujet rivoji, kompozitsion yaxlitlik va asar g‘oyaviy mazmunini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Kanizaklar timsolining ijtimoiy-madaniy mohiyati, ularning hukmdor saroyidagi vazifalari, asosiy qahramonlar bilan munosabati hamda badiiy an’ana doirasida namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos jihatlari tadqiqotning asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Shuningdek, ayol obrazlarining badiiy vazifalarini o‘zaro qiyoslash orqali mumtoz dostonchilikda an’ana va ijodiy individuallik munosabati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Bahromnoma, kanizaklar timsoli, ayol obrazlari, Alisher Navoiy, “Sab’ai sayyor”, G‘aribiy, “Shoh Bahrom va Dilorom”, saroy muhiti, badiiy obraz, syujet, kompozitsiya, mumtoz adabiyot.*

Аннотация: в статье исследуются особенности художественной репрезентации образов канизак (придворных служанок) в дастанах узбекской классической литературы, созданных в русле традиции «Бахрамнаме». На материале произведений Алишера Навои «Сабъаи сайёр» и Гариби «Шох Бахром ва Дилором» анализируется роль женских персонажей в развитии сюжетного действия, обеспечении композиционной целостности и раскрытии идейно-тематического содержания произведений. Особое внимание уделяется социально-культурной семантике образов канизак, их функциональной роли в придворной среде, характеру взаимоотношений с центральными персонажами, а также специфике их художественного воплощения в контексте литературной традиции. Сопоставление художественных функций женских персонажей позволяет выявить особенности взаимодействия традиционных сюжетно-образных моделей и индивидуально-авторского начала в классической узбекской дастанной литературе.

Ключевые слова: *Бахрамнаме, образы канизак, женские персонажи, Алишер Навои, «Сабъаи сайёр», Гариби, «Шох Бахром ва Дилором», придворная среда, художественный образ, сюжет, композиция, классическая литература.*

Annotation: this article examines the artistic representation of female attendants in dastans of Uzbek classical literature composed within the Bahramnama tradition. Focusing on Alisher Navoi’s "Sab’ai Sayyor" and Gharibi’s Shah Bahram and Dilorom, the study explores the role of female characters in plot development, the maintenance of compositional unity, and the articulation of the works’ ideological and thematic dimensions. Particular attention is paid to the sociocultural significance of female attendants, their functions within the royal court, their relationships with the principal characters, and the distinctive features of their artistic portrayal within the broader framework of the literary tradition. By comparing the narrative and compositional functions of female characters in the two dastans, the study elucidates the interplay between inherited literary conventions and individual authorial expression in classical Uzbek dastan literature.

Key words: *Bahramnama, female attendants, female characters, Alisher Navoi, Sab’ai Sayyor, Gharibi, Shah Bahrom va Dilorom, royal court, literary representation, plot, composition, classical literature.*

Sharq mumtoz adabiyotida Bahrom Go‘r obrazi bilan bog‘liq dostonlar muhim badiiy an’anani tashkil etadi. Ushbu an’ana doirasida yaratilgan asarlarda hukmdorning hayoti, ishqiy kechinmalari, ruhiy o‘zgarishlari, adolat va axloq masalalari turli badiiy vositalar orqali yoritiladi. “Bahromnoma” turkumiga mansub dostonlarda saroy hayoti, hukmdor va uning atrofidagi kishilar munosabati, ayol obrazlarining voqealar rivojidagi ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiyotdagi ayol obrazlarini o‘rganishda kanizaklar timsoliga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki saroy muhitida faoliyat yurituvchi ayollar ayrim asarlarda asosiy qahramonlarga xizmat qiluvchi ikkinchi darajali personajlar sifatida ko‘rinsa, boshqa holatlarda voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi, xabar yetkazuvchi, sirdosh yoki muayyan vaziyatning mazmunini ochib beruvchi obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli kanizaklar timsolini faqat ijtimoiy mavqe nuqtayi nazaridan emas, balki syujet-kompozitsion va g‘oyaviy-estetik vazifalari jihatidan ham tahlil qilish zarur.

“Bahromnoma” turkumiga kiruvchi dostonlar Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht”, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor”, G‘aribiyning “Shoh Bahrom va Dilorom” hamda Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” asarlari syujetida kanizaklar timsoli juda muhim o‘rin tutadi. Ushbu dostonlarda kanizaklar

shunchaki saroy xizmatchilari emas, balki voqealar rivojini belgilovchi, shoh Bahromning ma'naviy evrilishiga sabab bo'luvchi faol va chuqur falsafiy obrazlar hisoblanadi.

"Shohnoma"da Bahromning tug'ilishidan tortib to o'limigacha bo'lgan voqealar badiiy hikoya qilib beriladi. Bahromning tarbiyalanishi, otasi o'limidan so'ng kurash olib borib taxtga egalik qilishi, hukmdor bo'lgach, tez-tez ovga chiqib biror qishloqda mehmon bo'lib qolishi, insof-adolat, baxillik va saxiylik, to'g'ri-no'to'g'ri siyosatlar haqida eshitishi yoki o'zi bularning guvohi bo'lishi kabilar tasvirlanar ekan, Bahromning adolatparvar hukmdor bo'lishi uchun ijodkor uni tayyorlab boradi. Asar rivoji davomida Bahrom Hind yurtiga qiyofasini o'zgartirib, elchi niqobida boradi hamda shoh qizini nikohiga olib, Hindistonni o'z hukmronligi ostiga oladi. Chin xoqoni bilan kurashib uni mag'lub etadi. Doston yakunida esa Bahrom o'z qasrida vafot etadi. Ushbu doston va dostonning atigi bir faslini tashkil etuvchi shoh Bahrom tarixi hikoyati o'zidan keyin eron dostonchiligiga ulkan hissa qo'shdi. Ko'p ijodkorlar "Shohnoma"dan ta'sirlanib, undagi voqealar silsilasiga ergashib yangidan yangi she'riy va nasriy asarlar yaratdilar. Xususan, Bahrom va uning o'z kanizagi ("Shohnoma"da Ozoda) bilan bo'lgan to'qnashuvi voqealari qalamga olingan asarlar vujudga keldi. "Shohnoma"da Bahrom kanizagi bilan go'r (kiyik) oviga chiqqanda Ozodaga kiyikni qanday otay, sen aytganingday ota olaman, deya maqtanadi va kanizagining istagiga binoan kamon o'qi bilan kiyiklarning erkagini urg'ochiga, urg'ochisini esa erkakka muguzini almashtirib, boshini oyog'iga chatib tashlaydi. Ammo shunday merganlik va iqtidor uchun kanizagidan maqtov o'rniga kiyiklarga berahmlik qilgani uchun ta'na-malomatlar qilingan Bahrom g'azab otiga minadi va kanizini tuya oyoqlari ostiga tashlab yanchtirib yuboradi. Umuman olganda, Firdavsiy bu o'rinda kanizak Ozodaga sira ham achinmagan. Uni qiziqtirgan va diqqat markazida turgan obraz Bahrom edi. Sha'nining toptalishiga jim qarab tura olmagan hukmdor o'z mahbubini ayab o'tirmasligi va keyinchalik bu qilmishidan afsuslanmasligi, nafaqat achinmaslik, balki Ozodani butunlay yodidan chiqarib yuborishi Bahromda mujassamlashgan ijobiy va salbiy xislatlarning bo'y ko'rsatishida yordam bergan. Firdavsiy u, avvalo, g'ururli shoh edi va shu bois uni o'z darajasiga ko'ra hurmatlamaganlarning holi shu taxlit yakun topishi kerak, deya hisoblaydi. Ammo xuddi ana shu lavhadan ta'sirlangan Nizomiy Ganjaviy voqeani qayta ishlaydi va mashhur "Haft paykar" dostonini yaratadi. Ammo Nizomiy Firdavsiydan farqli o'laroq, Bahromni nafaqat shoh, balki oshiq ham qilib gavdalantirgan. "Shohnoma"da Bahrom va Ozoda sarguzashti kichik bir sahna sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, "Haft paykar"da u butun boshli asar yaralishiga sabab edi. Ganjaviyning asarida Ozoda Fitna, Amir Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht" va Amir Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor"ida Dilorom nomlari bilan ataladi. Nizomiy Firdavsiy ta'riflagan Bahromning hukmdorlik, mohir sarkardalik, jasurlik kabi asosan, ijobiy xislatlarini olib, o'zidan yana ko'plab jarayonlar qo'shadi, badiiy to'qimalar asosida bu gal ishq tarannum etilgan sevgi dostonini yaratadi. Firdavsiyning "Shohnoma"sidan farqli o'laroq, Nizomiyning "Yetti go'zal"ida Bahrom asosiy qahramon rolini o'ynaydi. Shoir Bahrom haqidagi afsonani mukammalroq bayon etishga harakat qiladi. Bahrom to'g'risidagi rivoyatlar "Shohnoma"da ko'proq tarixiy ruhda bayon etilgan bo'lsa, Nizomiy uni o'z g'oyaviy-badiiy didiga moslab qayta yaratadi. Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar"i bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan besh hikoyatdan iborat. Firdavsiydan farqli o'laroq, Nizomiy kanizak Fitnani o'ldirmaydi, chunki u Bahromni shoh deya ta'riflash bilan birga oshiq ham qilishi kerak edi. Ganjaviy Bahrom va Fitna obrazlarini tasvirlash uchun ketma-ket kelgan ikki bobni ajratadi. Ular "Bahrom va uning kanizagi haqida doston" hamda "Bahromning ovdan qaytayotib sarkardaning oromgohida mehmon bo'lishi" deya nomlangan. Voqealar rivojida "Shohnoma"da bo'lgani kabi shoh Bahrom Go'r kanizagi bilan ovga chiqadi va go'rlarni shunchalar mohirlik bilan otadiki, o'zi ham bunga hayron qoladi. U o'q yordamida kiyikning oyog'ini qulog'iga bog'lagan edi. Ammo kanizak buni maqtov-u, hamd-sanolar bilan e'tirof etmay, shunchaki mashq natijasi, deb aytgani uchun g'azab otiga minib uni o'ldirmoqchi bo'ladi. Ammo saroy a'yonlari Bahromdek ulug' hukmdorga bir ojiza ayolning qonini to'kish yarashmaydigan ish, deb bunga qarshi chiqishgach, Bahrom Fitnani o'ldirishni sarkardasi Sarxangga topshiradi. Sarxang esa uni o'ldirmay hayotini saqlab qoladi va keyinchalik Fitnaning tashabbuskorligi natijasida Bahrom va Fitna qayta topishadilar.

Amir Xusrav Dehlaviy shoh Bahrom sarguzashti uchun atab yaratilgan asarini "Hasht behisht", ya'ni "Sakkiz jannat" deya ataydi. Bu dostonda endi Firdavsiyning Ozoda, Ganjaviyning Fitnasi Diloromga aylanadi. Umuman olganda, Dehlaviyning maqsadi o'zaro bog'liq bo'lgan yetti hikoya yaratish emas, balki bir-biridan mustaqil sakkizta qiziqarli turli hikoyalar ijod qilish edi. Shuning uchun Nizomiyning "Haft paykar"idan uning "Hasht behisht"ining eng birinchi farqi ham aynan nomlanishida kuzatiladi. Voqealar rivojini yoritar ekan, shoir Bahrom hayotidagi ko'plab voqealarni qisqartiradi yoki butunlay olib tashlaydi. Xususan, Bahromning tarbiyalanishi, qahramonliklari, yetti qasrning qurilishi kabi o'rinlar qisqartirilgan bo'lsa, cho'pon bilan uchrashuv, xoin vazirning jazolanishi kabi o'rinlarni butunlay olib tashlaydi. Endi Bahromning kanizak Dilorom bilan ovga chiqishi sahnasi gavdalantiriladi. Bu voqea Firdavsiyning "Shohnoma"si va Ganjaviyning "Haft paykar"ida bo'lgani kabi tasvirlanadi. Go'rlarni ovlash bilan mashg'ul bo'lgan Bahrom Diloromga san'ati kuchini

ko‘rsatib maqtanish uchun undan kiyiklarni qanday otishni so‘raydi. Diloromning istagiga ko‘ra, u ota kiyik shoxini ko‘chirib ona kiyikka o‘tkazishi (“Shohnoma”dagi kabi), ya’ni ota kiyikni ona kiyikka, ona kiyikni esa, ota kiyikka aylantirishi kerak edi. Shoh Bahrom buni muvaffaqiyatli uddalaydi va buning evaziga Diloromdan maqtov so‘zlari kutadi. Ammo Dilorom kutilganidek maqtov yog‘dirish o‘rniga hozirgi ov haqiqatda ajoyib bo‘lganligini, ammo bundan-da zo‘rrog‘ini ko‘z oldiga keltirish qiyin emasligini aytib qo‘ya qoladi. Bundan darg‘azab bo‘lgan Bahrom o‘zidan zo‘rroq boshqa birov bu olamda topilmasligini, agar topilguday bo‘lsa, Diloromga o‘shaning oldiga ketishini aytib, uni otdan uloqtirib yuboradi va bir o‘zini sahroda yolg‘iz tashlab ketadi. Bu o‘rinda insonning ruhiy holati real tarzda namoyon bo‘ladi. Voqealar rivojida Bahrom va kanizak qayta topishadilar. Nizomiydagi Fitna bilan Navoiydagi Diloromni bir-biri bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Fitna – oddiy ma’shuqa. U Bahromni sevadi, lekin unda Diloromdagiday otashin muhabbat yo‘q. Navoiy Diloromi – zo‘r san’atkor, nozik qalbli, ishqi zo‘r, sadoqati mustahkam qiz. Navoiyda bu timsol har tomonlama ishlangan. Uning qiynalishi, iztiroblari, sinovlardan o‘tishi haroratli misralarda tarannum etiladi. Navoiy bu timsol talqini orqali ishq va shohlik masalasini ko‘tarib chiqadi. U shohlik bilan oshiqlik birga yashay olmaydi, yo oshiq bo‘lmoq kerak, yo shohlik qilish kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu g‘oya ham Navoiyning o‘z davri bilan bog‘langan. Ishqbozlik yo‘liga kirib ketib davlat ishlarini barbod bergan temuriylar anchagina edi. Dostonda Bahromdagi ishratparastlik, xudbinlik, mag‘rurlik, mayparastlik tanqid qilinadi. Shoh shu xislatlari uchun jazolanadi, shu xislatlar oxir-oqibatda uni yer ostiga tortib ketadi . “Sab’ai sayyor”da Dilorom soz chalganida odamlar bir o‘lib, bir tirilishi keltiriladi. Bu holat Dehlaviynikidan biroz farq qiladi. Xususan, Dehlaviy yaratgan Dilorom soz chalganda hayvonlar o‘lib tirilar edi, deyilgan. Navoiy hazratlari bu yerda biroz mantiqiylikka yaqin keladilar, ya’ni san’at hayvon uchun emas, balki odamlar uchun ekanligiga ishora qiladilar. G‘aribiy ayrim o‘rinlarda u yoki bu timsolni kengroq xarakterlash kerak bo‘lib qolganda, ayrim epizodlarning to‘liq va barkamol tasviri kerak bo‘lib qolganda kitobxonga buni Navoiy kitobidan o‘qi, deb “Xamsa”ga ishora qiladi. Masalan, u Dilorom jamolini tasvirlashga bag‘ishlangan o‘rinda lo‘nda qilib shunday deydi:

انینگ وصفینی‌قیلامن گدا
نوائی کتابیده قیل‌میش ادا

Aning vasfini qilmadim man gado,
Navoiy kitobida qilmish ado.1

بو سوزنینگ دوامینی قیلسنگ هواس
آچیب کور نوائی کتابیده بس

Bu so‘zning davomini qilsang havas,
Ochib ko‘r, Navoiy kitobida bas .
Yoxud Mehr husnining ta’rifida keltiradi:

أگر کورماق إیستسنگ زولفو حال
نوائی کتابینی‌إیلگینگه‌آل

Agar ko‘rmoq istar esang zulfu hol,
Navoiy kitobini ilgingga ol!3

Umuman, mazkur mavzuni qiyosiy-tipologik yo‘nalishda o‘rganish mumtoz adabiyotda ayol obrazlarining poetik xususiyatlarini, an’anaviy syujetlarning qayta talqin qilinishini va ijodkorlarning individual uslubini aniqlashga xizmat qiladi. Kanizaklar obrazining har bir dostondagi aniq ko‘rinishlari va vazifalari esa tegishli matnlar asosida batafsil tahlil qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 10-жилд: Хамса: Сабъаи сайёр. – Тошкент: Фан, 1992. Б.448.

2.Муҳиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. – Тошкент: Тамаддун. 2021. Б.234.

3.Қаюмов А. Асарлар. 3-қисм. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.

4.Муҳиддинов М.Талқинларда оламча маъно. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. Б. 106–229.

5.Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. Б.382.

1. Муҳиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. – Т.: Тамаддун. 2021. Б.234.
2. غریبي - شاه بهرام و دلارام 8-9-бетлар.
3 Ўша қўлёзма, 26-бет.

Dilnoza SAPAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich mustaqil tadqiqotchi doktoranti

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA TAKRORLANUVCHI OBRAZLAR TIZIMI VA ULARNING POETIK FUNKSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi tarkibidagi hikoyalarni o‘zaro bog‘lovchi takrorlanuvchi obrazlar tizimi va ularning poetik funksiyasi tadqiq etiladi. Qissa tarkibidagi alohida hikoyalarning nisbatan mustaqil syujetga ega ekaniga qaramay, ularda bir xil yoki o‘zaro bog‘liq obrazlarning takroriy namoyon bo‘lishi asarning kompozitsion yaxlitligini ta’minlovchi muhim badiiy vosita sifatida qaraladi. Maqolada Ona, bola va ular bilan bog‘liq personajlarning turli hikoyalardagi funksional-semantik yuklamasi qiyosiy-poetik jihatdan tahlil qilinadi. Takrorlanuvchi obrazning har bir yangi kontekstda aynan o‘sha holatda qaytmasligi, balki xotira, vaqt, ruhiy kechinma va voqea munosabati orqali yangi semantik qirralar kasb etishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, qissa, obraz, takrorlanuvchi obraz, obrazlar tizimi, hikoyalararo aloqa, kompozitsiya, poetik funksiya, xotira poetikasi, avtobiografizm.*

Аннотация: в статье исследуется система повторяющихся образов и их поэтическая функция в повести О‘ткира Хошимова «Дела мира» («Dunyoning ishlari»), связывающих между собой рассказы, входящие в структуру произведения. Несмотря на относительно самостоятельные сюжеты отдельных рассказов, повторное появление одних и тех же или взаимосвязанных персонажей рассматривается как важное художественное средство, обеспечивающее композиционную целостность произведения. В статье посредством сравнительно-поэтического анализа исследуются функционально-семантические особенности образов Матери, ребёнка-рассказчика и связанных с ними персонажей в различных рассказах. Обосновывается, что повторяющийся образ при каждом новом появлении не воспроизводится в неизменном виде, а под воздействием памяти, времени, душевных переживаний и конкретной событийной ситуации приобретает новые смысловые оттенки.

Ключевые слова: *О‘ткир Хошимов, «Дела мира» («Dunyoning ishlari»), повесть, образ, повторяющийся образ, система образов, межрассказная связь, композиция, поэтическая функция, поэтика памяти, автобиографизм.*

Annotation: this article examines the system of recurring characters and their poetic function in O‘tkir Hoshimov’s novella *Dunyoning ishlari* (*The Affairs of the World*), which serves to connect the individual stories comprising the work. Despite the fact that the separate stories within the novella have relatively independent plots, the repeated appearance of the same or interconnected characters is considered an important artistic device that ensures the compositional integrity of the work. The article provides a comparative-poetic analysis of the functional and semantic significance of the Mother, the child, and the characters associated with them across different stories. It is argued that a recurring character does not reappear in exactly the same form in each new context; rather, under the influence of memory, time, psychological experiences, and the circumstances of particular events, the character acquires new semantic dimensions.

Key words: *O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari (The Affairs of the World), novella, character, recurring character, system of characters, inter-story connection, composition, poetic function, poetics of memory, autobiographical elements.*

O‘zbek nasrida inson ruhiyati, xotira, oila, ona va farzand munosabatlarini badiiy ifodalash imkoniyatlarini kengaytirgan ijodkorlardan biri O‘tkir Hoshimovdir. Adibning “Dunyoning ishlari” qissasi uning ijodiy merosida alohida o‘rin tutib, asarda inson hayotining oddiy va kundalik hodisalari orqali katta ma’naviy-axloqiy mazmun ifodalanadi. Qissaning o‘ziga xosligi, avvalo, uning tarkibiy tuzilishida namoyon bo‘ladi: alohida hikoya va lavhalar nisbatan mustaqil voqelikni ifodalasa-da, ularni yagona ruhiy, mavzuviy va obrazlar tizimi birlashtirib turadi.

Mazkur xususiyat qissani faqat alohida hikoyalar yig‘indisi sifatida emas, balki ichki poetik aloqalarga ega yaxlit badiiy sistema sifatida tadqiq etishni taqozo qiladi. Ayniqsa, ayrim obrazlarning turli hikoyalarda qayta-qayta namoyon bo‘lishi mazkur aloqadorlikning muhim ko‘rsatkichidir. Bu holatda obrazning takroriyligi faqat syujetning uzluksizligini ta’minlash bilan cheklanmaydi. U xotira, ruhiy kechinma, vaqt, muallif-hikoyachi munosabati va milliy-ma’naviy qadriyatlarning turli qatlamlarini bir-biriga bog‘laydi. Mavzuning dolzarbligi ham ana shunda ko‘rinadi. “Dunyoning ishlari”ga bag‘ishlangan so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda Ona obrazi, uning badiiy-estetik xususiyatlari, ona-farzand munosabatlari, obraz xarakterini ochishda nutqiy detallar kabi bir qancha xususiyatlarga ega.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida takrorlanuvchi obrazlar tizimini aniqlash hamda ularning hikoyalararo kompozitsion va funksional-semantik poetik vazifalarini ochib berishda ona obrazidan tashqari Komil tabib obrazi ham uchraydi.Keyinchalik biz bu obrazni O‘tkir Hoshimov

romanlarida ham kuzatdik. Xususan "'Ikki eshik orasi'" romani buning yorqin misolidir.

O'tkir Hoshimov ijodi, xususan, "Dunyoning ishlari" qissasi o'zbek adabiyotshunosligida turli aspektlarda tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy izlanishlarni mazmuniga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh tadqiqotlarda yozuvchining badiiy mahorati, nasriy tafakkuri va asarlarining g'oyaviy-estetik xususiyatlari umumiy adabiy jarayon kontekstida ko'rib chiqiladi. Bunday tadqiqotlar O'tkir Hoshimov ijodining o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi.

Ikkinchi guruhni bevosita "Dunyoning ishlari" qissasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga bag'ishlangan ishlar tashkil etadi. Ularda qissaning hayotiyligi, insoniy qadriyatlarni ifodalashi, ona va farzand munosabatlari hamda muallifning hayotiy kuzatishlarini badiiy umumlashtirish mahorati yoritilgan. Uchinchi guruh tadqiqotlarida **Ona obrazi** markaziy masala sifatida qaraladi. Mazkur yo'nalishning keyingi bosqichida Ona obrazining badiiy takomili, avtobiografizm va hayotiy faktlarning badiiy sintezi masalasi ham tadqiq etilgan. Bunday yondashuv Ona obrazining individual xotira doirasidan umumlashma badiiy timsol darajasiga ko'tarilishini ko'rsatadi.Bu jihat "Dunyoning ishlari"ning janriy tabiatini tushunishda ham muhim. Qissa tarkibidagi hikoyalar mustaqil epizod sifatida o'qilishi mumkin, biroq takrorlanuvchi obrazlar, umumiy xotira makoni va yagona hikoyachi pozitsiyasi ularni yaxlit badiiy tizimga birlashtiradi. Demak, qissaning yaxlitligi faqat syujetning davomiyligi bilan emas, balki **obrazlararo va hikoyalararo semantik takrorlar** bilan ham ta'minlanadi.

"Dunyoning ishlari" qissasidagi hikoyalarda poklik va tizim to'qnashuvi. Barchamizga ma'lumki, ushbu qissa asosan, onaga bo'lgan muhabbat haqida bo'lsa-da,uning zamirida totalitar tuzum davridagi qishloq hayoti va odamlar ruhiyati aniq chizilgan. "Dunyoning ishlari" qissasida O'tkir Hoshimov totalitar tuzumga ochiqdan-ochiq siyosiy ayblov qo'ymaydi, balki buni **lirik-psixologik tahlil** orqali amalga oshiradi. Tizim odamlarni robotlashtirishga, qo'rqitishga va bir xil andozaga solishga urinadi. Ammo Onaning va u kabi sof qalbli insonlarning pokligi bu mudhish mashina qarshisida insoniylikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Tizim ularning jismiga shikast yetkazishi mumkin, lekin ruhiy va ma'naviy go'zalligini yengolmaydi.

"Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida adib ochlik, kasallik, ijtimoiy hayot va fojialar inson ma'naviyatini qanday sinovdan o'tkazishini tasvirlaydi.Tizim urush barchani teng ko'radi deb da'vo qilsa-da, amalda odamlar o'zaro bir-birini tushunmaydigan, faqat yashab qolish instinkti bilan harakat qiladigan darajaga yetadi.Umri bo'yi halol yashagan insonning o'g'rilik qilishga majbur bo'lishi – tuzum insonni iqtisodiy va ruhiy jihatdan qanchalik qashshoqlashtirganining isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi takrorlanuvchi obrazlarni tahlil qilish natijasida ular asarning oddiy personajlar tarkibini tashkil etuvchi birliklar emas, balki qissaning ichki poetik yaxlitligini yuzaga keltiruvchi muhim vositalardan biri ekanligi aniqlandi. Birinchidan, qissadagi Ona, bola-hikoyachi va ular bilan bog'liq personajlarning turli hikoyalarda qayta namoyon bo'lishi alohida hikoyalar o'rtasida kompozitsion va semantik aloqa hosil qiladi. Ikkinchidan, obrazning takrorlanishi uning mazmunining aynan takrorlanishini anglatmaydi. Bir obraz yangi voqea, xotira va ruhiy vaziyat doirasida yangi funksional-semantik qirralarga ega bo'ladi. Shu sababli takrorlanuvchi obrazni **dinamik poetik birlik** sifatida baholash mumkin. Uchinchidan, Ona obrazi qissadagi takrorlanuvchi obrazlar tizimining markaziy komponenti bo'lsa-da, uning badiiy mazmuni bola-hikoyachi obrazi bilan munosabatda yanada to'liq namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O'. *Dunyoning ishlari: qissa va hikoyalar*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
2. Ahmad S. *Dunyoning ishlari qissasi haqida*. – Toshkent: Kamalak, 2016.
3. Normurodova S. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida Ona obrazi // *Tadqiqotlar*. 2024. – №31. 57–58-b.
4. Fayzullayeva M., Boliqulova F. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Ona" obrazining o'ziga xos xususiyatlari // *Models and Methods in Modern Science*. 2023. – Vol. 2, №12. 94–97-b.
5. Uzoqova F. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida obrazlar xarakterini yoritishda nutqiy detallar ahamiyati // *Central Asian Journal of Interdisciplinary Research and Management*. 2026. – Vol. 3, №5. 98–102-b.
6. Bobomurodov I. O'tkir Hoshimov nasrida "Ona" obrazining badiiy takomili ("Dunyoning ishlari" qissasi misolida). 2026.
7. O'tkir Hoshimov asarlarida "Ona" obrazi talqini // *Modern Science and Research*. 2024. 377–383-b.
8. Linguistic analysis of specific similes in the works of O'tkir Hashimov (in the interpretation of "Dunyoning ishlari") // *Modern Science and Research*. 2023.
9. Arifova U. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" asarida realiyalarning berilishi // *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*. 2026.
10. Hoshimov, O'. (2010). Dunyoning ishlari: hayot va insoniylik haqida hikoyalar. – Toshkent: Akademnashr.
11. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.208-b.
12. Hoshimov O'. O'zbeklar: Hikoyalar, o'ylar, hajviyalar // – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. 267-b.

Мадина ТУРСЫНОВА,
ассистент-преподаватель
Нукусского государственного педагогического
института имени Ажинияза
Нукус (Республика Узбекистан, Каракалпакстан)
tursinovamadina2@gmail.com

ВОПЛОЩЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В РОМАНЕ О. УАЙЛЬДА «ПОРТРЕТ ДОРИАНА ГРЕЯ»

Аннотация: в статье исследуется система эстетических принципов Оскара Уайльда и их художественная репрезентация в романе «Портрет Дориана Грея». На основе анализа текста произведения, манифестарного предисловия и поэтики персонажей рассматриваются ключевые категории уайльдовского эстетизма: самоценность искусства, соотношение искусства и морали, гедонистический имморализм, дуализм красоты и духовного распада, а также функция искусства как зеркала, отражающего зрителя. Роман интерпретируется как сложный философско-эстетический эксперимент, в котором декларируемые принципы «чистого искусства» подвергаются испытанию в контексте человеческой бытийности. Исследование опирается на историко-литературный, герменевтический, сравнительно-типологический и рецептивно-эстетический методы анализа.

Ключевые слова: *О. Уайльд, эстетизм, декаданс, «Портрет Дориана Грея», самоценность искусства, гедонизм, мотив двойничества, поэтика красоты, мораль.*

Annotatsiya: maqolada Oskar Uayldning estetik prinsiplar tizimi va ularning “Dorian Grey portreti” romanida badiiy gavdalanishi o‘rganilgan. Asar matni, manifest ko‘rinishidagi muqaddima va qahramonlar poetikasi tahlili asosida Uayld estetizmining asosiy kategoriyalari: san’atning o‘z-o‘zidan qimmatliligi, san’at va axloqning o‘zaro munosabati, gedonistik immoralizm, go‘zallik va ruhiy tanazzul dualizmi hamda san’atning tomoshabinni aks ettiruvchi ko‘zgu sifatidagi funksiyasi ko‘rib chiqiladi. Roman “sof san’at” prinsiplari insoniy borliq kontekstida sinovdan o‘tkaziladigan murakkab falsafiy-estetik tajriba sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-adabiy, germenevtik, qiyosiy-tipologik va retseptiv-estetik tahlil usullariga tayanilgan.

Kalit so‘zlar: *O. Uayld, estetizm, dekadans, “Dorian Grey portreti”, san’atning o‘z-o‘zidan qimmatliligi, gedonizm, egizaklik (ikki shakllilik) motivi, go‘zallik poetikasi, axloq.*

Annotation: the article explores Oscar Wilde’s system of aesthetic principles and their artistic representation in the novel “The Picture of Dorian Gray.” Based on the analysis of the text, the manifesto-like preface, and the poetics of the characters, key categories of Wildean aestheticism are examined: the intrinsic value of art, the relationship between art and morality, hedonistic immoralism, the dualism of beauty and moral decay, and the function of art as a mirror reflecting the spectator. The novel is interpreted as a complex philosophical and aesthetic experiment in which the declared principles of “pure art” are tested within the context of human existence. The research relies on historical-literary, hermeneutic, comparative-typological, and receptive-aesthetic methods of analysis.

Key words: *O. Wilde, aestheticism, decadence, “The Picture of Dorian Gray,” intrinsic value of art, hedonism, motif of the doppelgänger, poetics of beauty, morality.*

Введение

Эстетизм как социокультурное и литературно-художественное направление последней трети XIX века сформировался в качестве реактивной программы против господствовавшего в викторианской Англии утилитаризма, морализаторства и мещанского прагматизма. В основе эстетической философии этого периода легла идея автономии искусства, восходящая к концептам И. Канта, Ш. Бодлера, Д. Рескина и У. Пейтера. В контексте поздневикторианского декаданса ключевой фигурой английского эстетизма стал Оскар Уайльд, чьё творчество представляло собой синтез изысканного афоризма, философского парадокса и яркой эстетической декларации.

Роман «Портрет Дориана Грея» (1890/1891) является вершиной уайльдовской прозы и одновременно уникальным художественным пространством, в котором теоретические установки автономии искусства подвергаются всесторонней художественной проверке. Несмотря на то что предисловие к роману позиционируется как манифест «искусства ради искусства» (*l’art pour l’art*), само фабульное развёртывание произведения демонстрирует глубокую трагедию эстетизации реальной жизни.

Цель исследования — раскрыть особенности поэтической и философско-эстетической реализации концепции эстетизма О. Уайльда в романе «Портрет Дориана Грея».

Задачи исследования:

1. Проанализировать предисловие к роману как теоретический манифест эстетизма.
2. Раскрыть триаду главных персонажей (Бэзил Холлуорд, лорд Генри Уоттон, Дориан Грей) как

систему воплощения различных граней эстетической концепции.

3. Исследовать функцию портрета как символического медиатора между искусством, временем и моралью.

4. Выявить категорию гедонизма и её роль в духовной эволюции главного героя.

5. Определить философско-эстетический итог романа в контексте взаимодействия искусства и действительности.

1. Предисловие к роману как манифестарное ядро эстетической концепции

Предисловие к роману «Портрет Дориана Грея», состоящее из 22 афоризмов, представляет собой законченный теоретический манифест эстетизма. В нём Уайльд формулирует постулаты, дистанцирующие художественное творчество от дидактики и социально-бытового реализма.

Центральным тезисом становится утверждение абсолютной автономии художника и произведения: «Художник — создатель прекрасного» [1, с. 5]. Уайльд снимает с искусства этическую ответственность, заявляя: «Нет книг нравственных или нравственных. Книги хорошо написаны или плохо написаны» [1, с. 5]. Этика и эстетика разводятся по разным категориям бытия, где эстетическое совершенство признаётся единственным критерием оценки произведения.

Особое место в предисловии занимает концепция восприятия: «Раскрыть себя и утаить художника — вот к чему стремится искусство» [1, с. 5], а также: «В сущности, искусство — зеркало, отражающее того, кто в него смотрится, а вовсе не жизнь» [1, с. 6]. Данный афоризм предвосхищает рецептивную эстетику XX века и закладывает основу для прочтения судьбы главного героя: портрет становится зеркалом не внешней формы, а скрытой внутренней реальности.

2. Система персонажей как эстетическая триада

Художественный мир романа структурируется вокруг трёх ключевых фигур, каждая из которых репрезентирует специфическое отношение к эстетической философии:

1. **Бэзил Холлуорд (Художник-создатель)** — воплощает концепцию чистого служения искусству, основанную на бескорыстном поклонении Красоте. Для Бэзила искусство неотделимо от личности и душевного состояния творца. Он вкладывает в портрет «чересчур много самого себя» [1, с. 18], что, по уайльдовской логике, нарушает принцип автономии искусства и приводит художника к трагической гибели.

2. **Лорд Генри Уоттон (Эстетик-теоретик)** — носитель интеллектуального гедонизма и идеолог «нового гедонизма». Лорд Генри воспринимает окружающую действительность исключительно как материал для эстетического наблюдения и экспериментирования. Его речи построены на парадоксах, разрушающих традиционные викторианские табу: «Единственный способ избавиться от искушения — поддаться ему» [1, с. 29]. Лорд Генри превращает самого Дориана в объект эстетического творчества.

3. **Дориан Грей (Эстетик-практик)** — персонификация уайльдовского идеала абсолютной внешней красоты, трансформирующаяся в субъект жизненного эксперимента. Дориан воплощает в реальность теоретические конструкции лорда Генри, пытаясь превратить собственное существование в непрерывный поток эстетических впечатлений.

3. Символика портрета: трансформация искусства и мотив двойничества

Центральным элементарным локусом и главным символическим центром произведения является портрет, написанный Бэзилом. В контексте поэтики романа портрет выполняет функцию экзистенциального двойника Дориана Грея.

Сделка, совершаемая Дорианом («Если бы старел портрет, а я навсегда оставался молодым!» [1, с. 38]), нарушает естественный порядок вещей и устанавливает иррациональную связь между искусством и человеком. В традиционной эстетике Уайльда искусство вечно и неизменно, тогда как живая форма подвержена увяданию. В романе происходит инверсия: живой человек обретает статику и нерушимость формы, в то время как произведение искусства становится динамичным, отражая физиологические и нравственные следствия грехопадения героя.

Портрет аккумулирует все следы порока, духовного распада и старения, сохраняя идеальную внешнюю оболочку Дориана отпечатком юности. Таким образом, портрет реализует уайльдовский принцип «искусства как зеркала»: он показывает не внешнюю действительность, а истинное состояние души эстета, попытавшегося отделить красоту от морального закона.

4. «Новый гедонизм» и конфликт эстетического с этическим

Идейным двигателем сюжета выступает философия «нового гедонизма», декларируемая лордом Генри и воспринятая Дорианом. Её суть заключается в поиске новых ощущений, культе момента и абсолютизации чувственного опыта как высшей ценности бытия [2, с. 112–115].

Однако роман демонстрирует постепенное перерождение эстетического поиска в разрушительную страсть. Эпизод с Сибиллой Вейн становится переломным моментом в развитии конфликта. Дориан любит Сибиллу до тех пор, пока она является воплощением искусства на сцене (Джульетта, Офелия, Дездемона). Как только реальное чувство актрисы разрушает её способность условно проживать страсти на сцене, Дориан отвергает её: «Вы убили мою любовь!» [1, с. 98]. Гибель Сибиллы становится первой жертвой на пути превращения жизни в эстетический аттракцион.

Культивирование изысканных предметов (коллекционирование тканей, драгоценных камней,

музыкальных инструментов, ароматов) выступает попыткой заместить духовную пустоту внешней эстетизацией бытия [6, с. 142]. Однако, вопреки установкам лорда Генри о безвредности чистого эстетизма, моральный распад Дориана неизбежно приводит к преступлению — убийству Бэзила Холлуорда, символизирующему уничтожение самого источника красоты и творчества.

5. Нарратологические и стилистические особенности романа

Стилистическая ткань романа характеризуется высокой степенью орнаментальности, орнаментального психологизма и афористичности.

Нарративная структура объединяет элементы готического романа (мотив тайны, волшебный предмет, атмосфера упадка), интеллектуального романа-дискуссии и декадентского этюда. В тексте доминирует диалогическая стихия: именно в спорах персонажей выстраивается теоретическая база эстетизма.

Авторская позиция выражается через изысканную поэтику деталей. Описания интерьеров, нарядов, парфюмерии и драгоценностей создают особую эмоционально-чувственную атмосферу, соответствующую принципам декадентской эстетики конца XIX века [4, с. 88–91].

Заключение

Роман О. Уайльда «Портрет Дориана Грея» представляет собой сложную и неоднозначную художественную реализацию эстетической философии автора.

С одной стороны, произведение провозглашает культ Прекрасного, утверждается независимость искусства от грубой утилитарности и морализаторства, а текст наполняется афористическим блеском эстетической теории. С другой стороны, сюжетное развитие романа демонстрирует границы и опасность превращения эстетизма в абсолютный жизненный ориентир.

Попытка Дориана Грея полностью отделить эстетическое наслаждение от нравственной ответственности приводит к разрушению личности и неизбежной катастрофе. Финал романа — уничтожение портрета, приведшее к гибели героя, — воссоздаёт исконный порядок: искусство возвращает себе вечную, нетронутую покровом порока красоту, а человек подпадает под действие естественного и морального закона. Таким образом, О. Уайльд создаёт произведение, которое, декларируя автономию искусства, становится глубоким философским исследованием человеческой природы и пределов эстетического опыта.

Список литературы:

1. Уайльд О. Портрет Дориана Грея. — М.: Азбука, 2021. — 320 с.
2. Акройд П. Последнее завещание Оскара Уайльда. — М.: Иностранка, 2003. — 285 с.
3. Аникин Г. В. Эстетика Оскара Уайльда. — М.: Наука, 1986. — 210 с.
4. Вайдман Б. Оскар Уайльд и английский эстетизм конца XIX века. — М.: Высшая школа, 1994. — 175 с.
5. Жданов А. А. Поэтика декаданса в англоязычной прозе рубежа XIX–XX веков. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2008. — 240 с.
6. Лотман Ю. М. Семиосфера. — СПб.: Искусство-СПБ, 2000. — 704 с.
7. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1986. — 445 с.
8. Соколянский М. Г. Творчество Оскара Уайльда: Очерк. — Киев: Одесса: Лыбидь, 1990. — 198 с.
9. Тишунина Н. В. Западноевропейский символизм и проблемы синтеза искусств. — СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2003. — 320 с.
10. Парандовский Я. Алхимия слова. — М.: Прогресс, 1990. — 336 с.
11. Хализев В. Е. Теория литературы. — М.: Высшая школа, 2004. — 405 с.
12. Эллис А. Искусство и мораль в философии англосаксонского модернизма. — М.: Мысль, 1998. — 250 с.
13. Пейтер У. Очерки по истории Ренессанса. — М.: Прогресс, 2006. — 224 с.
14. Гачев Г. Д. Ментальности народов мира. — М.: Эксмо, 2008. — 544 с.
15. Рескин Д. Искусство и действительность. — М.: Искусство, 1900 / Переизд.: М.: Либроком, 2012. — 218 с.

Д.А.ПУЛАТОВА,
преподаватель кафедры современного русского языка
Узбекского государственного университета мировых языков
(г. Ташкент, Узбекистан)

МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКАЯ КОММУНИКАЦИЯ И ПЕРЕДАЧА ЦЕННОСТЕЙ В РОМАНЕ Г. ЯХИНОЙ «ДЕТИ МОИ»

Аннотация: статья посвящена анализу семейной и межпоколенческой коммуникации в романе Г. Яхиной «Дети мои». Рассматриваются отношения учителя Якова Баха с дочерью Анче и другими близкими, а также роль рассказа, молчания, повседневных правил и эмоциональной поддержки в формировании детской идентичности. Показано, что семейная коммуникация передаёт ценности не только через прямые наставления, но и посредством повествования, совместной памяти, заботы и выбора языковых моделей. Примеры представлены как аналитический пересказ сюжетных ситуаций, а не как дословные цитаты.

Ключевые слова: *семейная коммуникация, межпоколенческий дискурс, семейная память, ценности, метакоммуникация, идентичность, Гузель Яхина.*

Annotation: the article examines family and intergenerational communication in Guzel Yakhina's novel "My Children". It explores the relationship between the teacher Yakov Bach and his daughter Ansche, as well as the role of storytelling, silence, everyday rules, and emotional support in shaping children's identity. The article demonstrates that family communication transmits values not only through direct instruction but also through storytelling, shared memory, care, and the choice of linguistic patterns. The examples are presented as analytical paraphrases of plot situations rather than direct quotations.

Key words: *family communication, intergenerational discourse, family memory, values, metacommunication, identity, Guzel Yakhina.*

Annotatsiya: maqola G'uzal Yaxinaning «Bolalarim» romanida oilaviy va avlodlararo kommunikatsiya tahliliga bag'ishlangan. Unda o'qituvchi Yakov Baxning qizi Anche va boshqa yaqinlari bilan munosabatlari, shuningdek, hikoya qilish, sukut saqlash, kundalik qoidalar hamda hissiy qo'llab-quvvatlashning bolalar identifikatsiyasini shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Oilaviy kommunikatsiya qadriyatlarni nafaqat bevosita nasihatlar, balki hikoya qilish, umumiy xotira, g'amxo'rlik va til modellarini tanlash orqali ham yetkazishi ko'rsatiladi. Misollar bevosita iqtiboslar emas, balki syujetdagi vaziyatlarning tahliliy bayoni sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: *oilaviy kommunikatsiya, avlodlararo diskurs, oilaviy xotira, qadriyatlar, metakommunikatsiya, identifikatsiya, G'uzal Yaxina.*

Семья является одной из основных сред передачи культурного опыта. Ребёнок усваивает ценности не только из прямых наставлений, но и через повседневные разговоры, семейные истории, формы обращения, реакцию взрослых на ошибки и способы выражения заботы. Поэтому семейную коммуникацию следует рассматривать как механизм формирования идентичности и межпоколенческой преемственности.

В романе Г. Яхиной «Дети мои» семейные отношения разворачиваются на фоне жизни поволжских немцев и исторических потрясений. Образ учителя Якова Баха позволяет исследовать, как повествование, память и повседневное взаимодействие помогают взрослому и ребёнку сохранять связь в условиях утраты и нестабильности.

Материалом являются эпизоды романа, связанные с Яковом Бахом, его дочерью Анче и семейным окружением. Применяются дискурсивный, контекстуальный и лингвокультурологический анализ. В центре внимания — коммуникативные функции семейного рассказа, наставления, молчания, эмоциональной поддержки и повседневных правил.

Примеры ниже сформулированы как исследовательский пересказ сюжетных ситуаций, а не как прямые цитаты из романа. Для публикации с точными цитатами необходимо сверить формулировки и страницы по используемому изданию.

Одной из значимых форм семейной коммуникации является повествование. Рассказ позволяет взрослому не только сообщить информацию, но и организовать опыт ребёнка: объяснить происходящее, сохранить память о прошлом и придать событиям эмоциональный смысл. В художественном мире романа рассказ связан также с профессиональной и личностной идентичностью Баха как учителя.

Пример 1. Образ Баха как человека слова и учителя позволяет рассматривать объяснение и повествование как привычный способ осмысления мира. В семейном контексте рассказ становится способом сделать сложную действительность доступной ребёнку.

Пример 2. Истории и воображаемые сюжеты в романе можно интерпретировать как средство эмоционального посредничества: вместо прямого обсуждения страха или утраты взрослый использует повествование, чтобы придать переживанию форму и удержать контакт с ребёнком.

Пример 3. Семейная память формируется через повторное обращение к событиям и людям. Повторяемый рассказ закрепляет значимые образы, создаёт общую систему ориентиров и позволяет ребёнку воспринимать себя частью семейной истории.

В межпоколенческом общении наставление может выполнять разные функции: передавать правило, защищать ребёнка, выражать тревогу или подтверждать авторитет взрослого. Прагматический эффект зависит от того, оставляет ли взрослый ребёнку возможность задать вопрос и выразить собственное понимание.

Пример 4. Когда взрослый объясняет устройство мира через понятные ребёнку образы, его речь выполняет одновременно информационную и воспитательную функции. Важно, что ценность передаётся не только содержанием объяснения, но и самим способом разговора — через терпение, последовательность и внимание к адресату.

Пример 5. Забота Баха о дочери проявляется в повседневных действиях и решениях, направленных на её безопасность и благополучие. Даже если чувства не выражаются длинными эмоциональными высказываниями, они становятся понятны через поступки, готовность отвечать за ребёнка и организацию его жизни.

Пример 6. В условиях исторической нестабильности взрослый вынужден одновременно сохранять привычные правила и адаптировать их к новым обстоятельствам. Это показывает, что семейная коммуникация не только передаёт готовые нормы, но и пересматривает их в ответ на изменения.

Молчание в семейном дискурсе нельзя автоматически считать отсутствием общения. Оно может выражать переживание, растерянность, нежелание усиливать тревогу или невозможность подобрать слова. В художественном тексте значение молчания раскрывается через обстоятельства, действия персонажей и последствия паузы.

Пример 7. В ситуациях, когда взрослому трудно объяснить ребёнку происходящее, отсутствие прямого ответа может отражать не равнодушие, а эмоциональную перегруженность. Однако такое молчание оставляет ребёнку пространство для самостоятельных догадок и может усиливать неопределённость.

Таблица 1. Функции семейной коммуникации в романе

Практика	Пример аналитической ситуации	Функция
Семейный рассказ	Взрослый организует сложный опыт через повествование	Интерпретационная, эмоциональная
Наставление	Объяснение правил и ожидаемого поведения	Воспитательная, регулятивная
Забота в действии	Повседневные решения ради безопасности ребёнка	Эмоциональная, защитная
Молчание	Невозможность или нежелание прямо объяснить переживание	Эмоциональная, неоднозначная
Повторение семейных историй	Сохранение общей памяти о прошлом	Идентификационная, трансляционная
Адаптация правил	Изменение привычных решений в новых обстоятельствах	Регулятивная, интерпретационная

Проведённый анализ романа «Дети мои» позволяет рассматривать семейную коммуникацию как процесс передачи опыта, ценностей и культурной памяти. Семейный рассказ, наставление, повседневные действия и молчание участвуют в формировании детской идентичности и поддержании эмоциональной связи.

При этом передача ценностей не сводится к прямому поучению. Ребёнок усваивает нормы через способы объяснения, поведение взрослого, повторяющиеся семейные практики и интерпретацию пережитых событий. В условиях исторических перемен семейная коммуникация одновременно сохраняет преемственность и помогает переосмыслить унаследованные модели. Роман Г. Яхиной представляет продуктивный материал для дальнейшего исследования взаимосвязи семейного дискурса, памяти и этнокультурной идентичности.

Литература:

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – 2-е изд. – М.: Искусство, 1986. – 444 с.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – 446 с.
3. Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов / пер. с англ. А. Д. Шмелёва. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 287 с.
4. Карасик В. И. Языковые ключи: монография. – М.: Гнозис, 2009. – 406 с.
5. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
6. Watzlawick P., Beavin J. H., Jackson D. D. Pragmatics of Human Communication: A Study of Interactional Patterns, Pathologies, and Paradoxes. – New York: W. W. Norton, 1967. – 296 p.
7. Яхина Г. Ш. Дети мои: роман. – М.: АСТ, 2018. – 496 с.

Адхам ТУРСОАТОВ,
Денауский институт предпринимательства и педагогики
Денау, Узбекистан
E-mail tursoatovatham@gmail.com



ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ АНТОНИМИИ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация: в статье проводится сравнительно-сопоставительный анализ фразеологической антонимии в русском и узбекском языкознании. Рассматриваются семантическая структура, факторы формирования и национально-культурные особенности фразеологических антонимов. Анализируются научные взгляды В.Н. Телии, А.И. Молоткова, Ш. Рахматуллаева и Б. Юлдашева, а также выявляются сходства и различия фразеологических систем двух языков.

Ключевые слова: *фразеология, фразеологическая антонимия, русское и узбекское языкознание, семантическая противоположность, сопоставительная лингвистика.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of phraseological antonymy in Russian and Uzbek linguistics. It examines the semantic structure, formation factors, and national-cultural features of phraseological antonyms. The theoretical views of V.N. Teliya, A.I. Molotkov, Sh. Rahmatullaev, and B. Yuldashev are analyzed, highlighting the similarities and differences between the phraseological systems of the two languages.

Key words: *phraseology, phraseological antonymy, Russian and Uzbek linguistics, semantic opposition, comparative linguistics.*

Annotatsiya: ushbu maqolada rus va o‘zbek tilshunosligida frazeologik antonimiya hodisasi, uning semantik tuzilishi, shakllanish omillari va milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. V.N. Teliya, A.I. Molotkov, Sh. Rahmatullayev va B. Yo‘ldoshev kabi olimlarning nazariy qarashlari hamda ikki til frazeologik tizimidagi o‘xshashlik va farqlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologik antonimiya, rus va o‘zbek tilshunosligi, semantik qarama-qarshilik, qiyosiy lingvistika.*

ВВЕДЕНИЕ

Фразеология занимает особое место в языкознании, поскольку устойчивые выражения отражают исторический опыт, мировоззрение и национально-культурные особенности народа. Важным аспектом сопоставительного изучения фразеологического состава является фразеологическая антонимия — семантическая противоположность устойчивых выражений, передающих не только противоположные значения, но и эмоционально-оценочное отношение говорящего.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью выявления универсальных и национально-специфических особенностей фразеологической антонимии в русском и узбекском языках, принадлежащих к разным языковым семьям.

В русском языкознании теоретические основы изучения данного явления представлены в трудах А.И. Молоткова, М.И. Сидоренко, В.Н. Телии, А.В. Кунина и Ю.П. Солодуба. В.Н. Телия отмечает, что фразеологическая антонимия основывается на противоположности оценочных и эмоционально-экспрессивных компонентов значения [Телия, 1996, с. 84]. М.И. Сидоренко подчеркивает сложность смысловой и парадигматической организации фразеологических антонимов по сравнению с лексическими [Сидоренко, 1982, с. 45].

В узбекском языкознании развитие фразеологии связано с трудами Ш. Рахматуллаева, Б. Юлдашева, А. Маматова, Ш. Усмановой и Э. Бегматова. Ш. Рахматуллаев системно исследовал семантические категории узбекских фразеологизмов, включая синонимию и антонимию [Рахматуллаев, 1978, с. 62]. Б. Юлдашев отмечает образность фразеологической антонимии и её тесную связь с этнокультурными традициями узбекского народа [Юлдашев, 1993, с. 118].

Цель исследования — провести сравнительно-сопоставительный анализ подходов к изучению фразеологической антонимии в русском и узбекском языкознании и выявить общие и специфические структурно-семантические закономерности данного явления. Для достижения цели рассматриваются история изучения фразеологической антонимии, критерии её классификации, семантическая структура антонимических оппозиций и их лингвокультурологические особенности на основе языковых примеров.

Научная новизна заключается в рассмотрении фразеологической антонимии русского и узбекского языков с учётом достижений когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. **Практическая значимость** определяется возможностью применения результатов в преподавании сопоставительной фразеологии,

лексикографии, теории и практики перевода, а также при составлении двуязычных фразеологических словарей.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Medical professionals must absorb global research published in English and contribute their own findings to digital international journals. This requires fluency in abstract construction, precise data reporting using accurate academic hedging (e.g., 'suggests', 'indicates', 'appears to correlate'), and digital collaboration tools. Instructional strategies use reference management software, automated syntax and style verification tools tailored to scientific publishing, and cloud-based platforms for joint research drafting and peer review.

Functional Course Modules for Curriculum Integration

To seamlessly merge Digital EMP into medical degree programs, the curriculum can be organized into focused, practical modules designed to enhance specific digital language competencies: Module 1: Remote Diagnostic Dialogue (Telehealth); Module 2: EHR Documentation & Case Presentation; Module 3: Interprofessional Digital Communication; Module 4: Digital Academic Communication & Research.

Discussion

Implementing Digital EMP across medical faculties presents several operational challenges. Primary among these is the need for comprehensive faculty training to ensure language instructors are proficient in both specialized medical discourse and modern digital tools. Additionally, institutions must secure stable technological infrastructure, high-speed internet access, and licensed educational software. Teachers must carefully balance linguistic goals with technical complexity, ensuring that digital platforms enhance rather than obscure language learning objectives. Furthermore, ethical considerations regarding health data confidentiality, patient privacy, and compliance with regulations like HIPAA must be thoroughly integrated into all digital simulation activities.

Conclusion

Digital EMP represents a comprehensive methodological framework bridging classical language acquisition theories with advanced, technology-driven clinical environments. Institutions adopting these technology-enhanced methods ensure their graduates are prepared not only to communicate effectively in English, but to thrive within an increasingly digitized and globalized healthcare landscape. This pedagogical transition is not merely a superficial linguistic upgrade; it constitutes a vital methodological evolution required to meet the demanding communication standards of 21st-century medical practice.

References:

1. Flowerdew, J. (2013). Academic Discourse. Routledge.
2. Hyland, K. (2006). English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book. Routledge.
3. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge University Press.
4. Kennerly, S. M., & Maher, M. A. (2020). Digital communication in clinical settings. Journal of Medical Education, 45(2), 112-125.

PEDAGOGIKA



Rustam XURRAMOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi,
“Umumiy fanlar” kafedrasi v/b dotsent, p.f.f.d. (PhD)
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-0159-4757
e-mail: xurramovrustam8787@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISHNING INDIVIDUAL STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich ta’limda har bir o‘quvchiga alohida yondashuvni o‘quvchilarni “ko‘ruvchi”, “eshituvchi” va “harakatlanuvchi” guruhlarga ajratish bilan tenglashtirish tanqidiy baholangan. O‘ziga xos o‘rganish yo‘li o‘quvchining doimiy xususiyati emas, balki topshiriqqa mos ravishda tanlanadigan va ongli boshqariladigan bilish yo‘li sifatida talqin etilgan. Sxema tuzish, qoida yaratish, amallar ketma-ketligini belgilash, amaliy namuna yasash va tanlangan usulni asoslash vositalaridan iborat “usullar to‘plami” hamda o‘quvchining taqliddan tanlashga, moslashtirishga va o‘z usulini yaratishga ko‘tarilish pog‘onalari ishlab chiqilgan. Usulni yaratish bosqichi ijodiy tafakkurning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: o‘ziga xos o‘rganish yo‘li, o‘rganish usuli, o‘z fikrlashini anglash, o‘zini boshqarib o‘rganish, usullar to‘plami, sxema tuzish, ijodiy tafakkur, o‘z ishini tahlil qilish.

Аннотация: в статье критически оценивается отождествление индивидуального подхода в начальном образовании с делением учащихся на «визуалов», «аудиалов» и «кинестетиков». Индивидуальная стратегия рассматривается не как постоянная характеристика ученика, а как путь познания, выбираемый в соответствии с задачей и сознательно регулируемый. Разработан «портфель стратегий», включающий составление схемы, создание правила, определение последовательности действий, изготовление практического образца и обоснование выбранного способа, а также ступени восхождения ученика от подражания к выбору, адаптации и созданию собственной стратегии. Этап создания стратегии обоснован как особая форма проявления творческого мышления.

Ключевые слова: индивидуальная стратегия, учебная стратегия, метакогниция, саморегулируемое обучение, портфель стратегий, составление схемы, творческое мышление, рефлексия.

Annotation: the article critically assesses the tendency to equate an individual approach in primary education with sorting pupils into “visual”, “auditory” and “kinaesthetic” types. An individual strategy is interpreted not as a fixed trait of the pupil but as a path of learning that is chosen to fit the task and consciously regulated. A “strategy portfolio” comprising drawing a scheme, formulating a rule, setting a sequence of actions, making a practical model and justifying the chosen method is developed, together with the levels through which a pupil rises from imitation to choice, adaptation and the creation of his or her own strategy. The stage of creating a strategy is substantiated as a distinctive manifestation of creative thinking.

Key words: individual strategy, learning strategy, metacognition, self-regulated learning, strategy portfolio, scheme drawing, creative thinking, reflection.

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida keng tarqalgan bir qarash bor: har bir bola o‘ziga xos idrok turiga ega, kimdir ko‘rib, kimdir eshitib, kimdir qo‘l bilan ushlab yaxshiroq o‘rganadi, demak, har bir o‘quvchiga alohida yondashuv o‘quvchini o‘z turiga mos material bilan ta’minlashdan iborat. Bu qarash tashqi tomondan insonparvar ko‘rinadi, ammo yashirin xavfga ega. Bolaga bir marta “ko‘ruvchi” degan tamg‘a bosilgach, unga faqat rasm va jadvallar beriladi, boshqa bilish yo‘llarini sinab ko‘rish imkoni esa cheklanadi. Natijada har bir o‘quvchiga alohida yondashuv bolani rivojlantirish o‘rniga uni bir qolipga qamab qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning ta’lim olish huquqi bilan bir qatorda ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi kafolatlangan [1]. Ijod erkinligi maktab sharoitida, avvalo, o‘quvchining o‘z fikrlash yo‘lini tanlash erkinligi orqali namoyon bo‘ladi. Agar o‘quvchiga faqat tayyor usul berilsa va uni aynan shu usulda bajarish talab qilinsa, u bilimni o‘zlashtirishi mumkin, lekin bilimga olib boruvchi yo‘lni o‘zi qurishni o‘rganmaydi.

Ushbu maqolada individual strategiya, ya’ni o‘ziga xos o‘rganish yo‘li, o‘quvchining tug‘ma xususiyati emas,

balki shakllantiriladigan va boshqariladigan bilish yo‘li sifatida qaraladi. Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilimlarni o‘zlashtirishning o‘ziga xos yo‘llarini shakllantirish usullarini ishlab chiqish va bu jarayonning ijodiy tafakkur rivojiga qanday xizmat qilishini asoslashdan iborat.


Adabiyotlar tahlili. O‘zbek psixologiyasi va pedagogikasida har bir o‘quvchiga alohida yondashuvning nazariy asoslari puxta ishlab chiqilgan. E.G‘.G‘oziyev umumiy psixologiyada tafakkur, xotira va diqqatni bilish jarayonlari tizimida ko‘rib chiqib, tafakkurning faol, yo‘naltirilgan faoliyat ekanini ta’kidlaydi [2]. Muallifning ontogenez psixologiyasiga oid asarida esa kichik maktab yoshidagi bolaning bilish imkoniyatlari, o‘quv faoliyatining shakllanishi va bu yoshda o‘z-o‘zini nazorat qilishning endigina paydo bo‘layotgani tavsiflanadi [3]. Bu xulosa muhim: kichik maktab yoshidagi bola o‘z bilish jarayonini mustaqil boshqarishga hali tayyor emas, ammo bu qobiliyat aynan shu yoshda shakllanishi mumkin. R.A.Mavlonova va N.H.Rahmonqulova boshlang‘ich ta’lim pedagogikasida yakka tartibdagi ish, o‘quv faoliyatini tashkil etish va ijodiy fikrlash unsurlarini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqadi [4]. Biroq mahalliy adabiyotda har bir o‘quvchiga alohida yondashuv ko‘proq o‘qituvchining o‘quvchiga moslashishi sifatida tushuniladi; o‘quvchining o‘zi usul tanlashi va uni ongli boshqarishi masalasi alohida tadqiq etilmagan.

Xorijiy adabiyotda bu yo‘nalish o‘z fikrlashini anglash va o‘zini boshqarib o‘rganish tushunchalari doirasida rivojlangan. C.Dignath va M.V.J.Veenman sinf kuzatuvlarini umumlashtirib, usulni faqat nomlash yetarli emasligini, o‘qituvchi uni ochiq namoyish qilishi va so‘ng o‘quvchiga mustaqil qo‘llash imkonini berishi zarurligini ko‘rsatgan [5]. L.Dörrenbächer-Ulrich, S.Dilhuit va F.Perels o‘zini boshqarib o‘rganish, o‘z fikrlashini anglash va o‘z harakatini boshqarish qobiliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, usullarni o‘rgatish ta’lim bosqichiga moslashtirilishi lozimligini qayd etgan [6]. Ta’lim samaradorligi fondining yangilangan tavsiyanomasi esa rejalashtirish, kuzatish va baholashni aniq o‘rgatish hamda o‘qituvchining o‘z fikrlash jarayonini ovoz chiqarib ko‘rsatishini asosiy tavsiyalar qatoriga kiritgan [7]. N.Paz-Baruch, G.Grovas va Z.R.Mevarech o‘quvchilarga fikrlash usulini ataylab tanlash, sinab ko‘rish va u haqida mulohaza yuritishni o‘rgatish ijodiy tafakkurning ravonlik va o‘ziga xoslik jihatlarini kuchaytirishini aniqlagan [8]. Ammo bu tadqiqotlar asosan yuqoriroq sinflarda o‘tkazilgan; boshlang‘ich sinfda usul tanlashni ijodiy tafakkur bilan bevosita bog‘lash masalasi ochiq qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-metodik yo‘nalishda olib borildi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, har bir o‘quvchiga alohida yondashuvga oid turli talqinlarni qiyoslash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonini kuzatish va ular bilan suhbat o‘tkazish, shuningdek, pedagogik loyihalash usullari qo‘llanildi. Suhbatlarda o‘quvchilarga “Buni qanday esladingiz?”, “Nima uchun aynan shu yo‘ldan bordingiz?” kabi savollar berilib, ularning o‘zlari anglamagan holda qo‘llayotgan bilish yo‘llari aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Kuzatish va suhbatlar o‘quvchilarning aksariyati o‘zlashtirish usuliga ega ekanini, ammo uni anglamasligini ko‘rsatdi. Ko‘paytirish jadvalini bir o‘quvchi qo‘shish orqali, boshqasi barmoqlarida, uchinchisi esa she’r kabi yodlab eslaydi. Biroq ulardan hech biri o‘z usulini nomlay olmaydi, uni boshqa topshiriqqa ko‘chirmaydi va usul samara bermaganida boshqasiga almashtirmaydi. Shu asosda o‘ziga xos o‘rganish yo‘lini shakllantirish ikki o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda tashkil etilishi lozim degan xulosaga kelindi: o‘quvchining biladigan usullari doirasini kengaytirish va uning usulni boshqarish darajasini oshirish (1-chizma).

1-rasm. O‘ziga xos o‘rganish yo‘llarini shakllantirish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish tizimi



Rasmning pastki qismida o‘quvchining **usullar to‘plami** tasvirlangan. U beshta vositadan tashkil topadi. Sxema tuzish bilimni ko‘rinadigan shaklga keltiradi; qoida yaratish ko‘plab misollardan umumiy qonuniyatni o‘quvchining o‘z so‘zlari bilan chiqarishni talab qiladi; amallar ketma-ketligini belgilash murakkab ishni qadamlarga bo‘ladi; amaliy namuna yasash mavhum tushunchani qo‘lda ushlanadigan ko‘rgazmaga aylantiradi; usulni asoslash esa o‘quvchidan nima uchun aynan shu yo‘lni tanlaganini tushuntirishni so‘raydi. To‘plam bitta o‘quvchiga bitta vosita emas, har bir o‘quvchiga barcha vositalarni beradi; o‘ziga xos xususiyat esa qaysi vosita qachon va qanday tanlanishida namoyon bo‘ladi.

Rasmning markaziy qismi usulni boshqarishning to‘rt pog‘onasini ko‘rsatadi. **Taqlid** pog‘onasida o‘quvchi o‘qituvchi ko‘rsatgan usulni aynan takrorlaydi. **Tanlash** pog‘onasida u o‘ziga ma’lum bo‘lgan bir nechta usuldan topshiriqqa mosini tanlaydi. **Moslashtirish** pog‘onasida tanlangan usulni topshiriq shartiga qarab o‘zgartiradi: masalan, ona tili darsida o‘rgangan jadvalni atrofimizdagi olam darsida hayvonlarni guruhlash uchun qayta tuzadi. **Yaratish** pog‘onasida esa o‘quvchi mavjud vositalarni birlashtirib, o‘zining yangi usulini tuzadi va uni sinfdoshlariga tushuntiradi. Aynan shu pog‘ona ijodiy tafakkurning bevosita ko‘rinishi hisoblanadi, chunki bu yerda o‘quvchi tayyor yo‘ldan foydalanmaydi, balki yangi yo‘l yaratadi.

Chizmaning o‘ng tomonidagi rejalash, kuzatish va baholash davrasi har bir pog‘onada ishlaydi. Topshiriqdan oldin o‘quvchi “Qaysi yo‘lni tanlayman?” deb o‘ylaydi, topshiriq davomida “Tanlagan yo‘lim ishlayaptimi?” deb o‘zini tekshiradi, topshiriqdan so‘ng esa “Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?” degan savolga javob beradi. Kichik maktab yoshida o‘z-o‘zini nazorat qilish endigina shakllanayotganini [3] hisobga olib, bu savollar dastlab o‘qituvchi tomonidan ovoz chiqarib beriladi, keyinchalik esa o‘quvchi kartochkasiga o‘tadi.

Usullar to‘plami vositalarining dars jarayonidagi o‘rni jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

Usullar to‘plami vositalari va ularning ijodiy tafakkurga qo‘shadigan hissasi

Vosita	O‘quvchining ichki savoli	Namunaviy topshiriq	Ijodiy tafakkurga hissasi
Sxema tuzish	*Buni qanday chizib ko‘rsatsam bo‘ladi?*	ertakdagi voqealarni strelkalar bilan bog‘lab chizish	bog‘lanishlarni ko‘rish, bilimni yangicha joylashtirish
Qoida yaratish	*Bu misollarning barchasida umumiy nima bor?*	bir nechta so‘zni kuzatib, qo‘shimchaning yozilish qoidasini o‘z so‘zi bilan tuzish	umumlashtirish, o‘z xulosasini shakllantirish
Amallar ketma-ketligi	*Avval nima, keyin nima qilaman?*	masala yechishning o‘z tartibini kartochkalarga yozib chiqish	ish yo‘lini loyihalash, muqobil tartib izlash
Amaliy namuna yasash	*Buni qo‘lim bilan qanday ko‘rsataman?*	kasrni qog‘oz bo‘laklari yordamida yasab ko‘rsatish	mavhum g‘oyani moddiy shaklga keltirish
Usulni asoslash	*Nima uchun aynan shu yo‘l menga qulay?*	ikki usulni solishtirib, birini tanlash sababini aytish	baholash, tanlovni dalillash, o‘z ishini tahlil qilish

Jadvalda ko‘rsatilgan ichki savollar har bir vositaning kaliti hisoblanadi. O‘quvchi usulni eslab qolishi uchun uning nomini emas, balki shu savolni yodda tutishi muhim. Savol o‘quvchini vosita tomon yo‘naltiradi, vosita esa bilimni qayta tashkil etishga undaydi. Shu tariqa bilimni o‘zlashtirish jarayonining o‘zi ijodiy faoliyatga aylanadi.

Taklif etilayotgan yondashuvning asosiy farqi shundaki, o‘ziga xos xususiyat o‘quvchiga oldindan belgilangan tur sifatida emas, balki uning tanlovlarida namoyon bo‘ladigan sifat sifatida qaraladi. Bu E.G‘. G‘oziyevning tafakkurni faol va yo‘naltirilgan faoliyat sifatidagi talqiniga [2] to‘liq mos keladi: agar tafakkur faoliyat bo‘lsa, uning yo‘lini ham tanlash va o‘zgartirish mumkin. R.A. Mavlonova va N.H. Rahmonqulova ta’kidlagan yakka tartibdagi ish va ijodiy fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlik [4] bizning tizimda aniq amaliy yo‘l topadi: yakka tartibdagi ish o‘quvchining usul tanlashi va uni yaratishi orqali ijodiy tusga kiradi.

C. Dignath va M.V.J. Veenman xulosalari [5] taqlid pog‘onasining ahamiyatini tasdiqlaydi. Usul o‘quvchi ko‘z oldida ochiq namoyish qilinmasa, u tanlash pog‘onasiga o‘ta olmaydi, chunki tanlash uchun avval bir nechta yo‘lni bilish kerak. Shu bois o‘qituvchi har bir yangi vositani o‘z fikrlashini ovoz chiqarib izohlagan holda ko‘rsatishi lozim, bu tavsiya xalqaro tajribada ham asosiy o‘rinlardan birini egallaydi [7]. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlar ijodiy tafakkurni emas, o‘zini boshqarib o‘rganishni o‘rganganini e’tiborga olish zarur.

Yaratish pog‘onasini ijodiy tafakkur bilan bog‘lash N. Paz-Baruch va hammualliflarning ma’lumotlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi [8]: fikrlash usulini ongli tanlash va u haqida mulohaza yuritish ijodiy tafakkurning ravonlik va o‘ziga xoslik jihatlarini kuchaytirgan. Biroq bu natija yuqoriroq sinf o‘quvchilarida olingan, boshlang‘ich sinfda esa yaratish pog‘onasiga ko‘tarilish ancha sekin kechadi va o‘qituvchidan sabr talab qiladi. L. Dörrenbächer-Ulrich va hammualliflar ta’kidlaganidek [6], usullarni o‘rgatish yoshga moslashtirilishi lozim; shuning uchun birinchi sinfda asosiy e’tibor taqlid va tanlashga, uchinchi va to‘rtinchi sinflarda esa moslashtirish va yaratishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Yondashuvni qo‘llashda bir xavfni ham ta’kidlash kerak: usul o‘rgatish o‘z-o‘zidan maqsadga aylanib, fan mazmunini siqib chiqarmasligi lozim. Usullar to‘plami alohida darsda emas, balki ona tili, matematika va atrofimizdagi olam darslarining mazmuni ichida shakllantirilishi kerak.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda har bir o‘quvchiga alohida yondashuvni o‘quvchilarni idrok turlariga ajratish bilan tenglashtirish bolaning bilish imkoniyatlarini toraytiradi. O‘ziga xos o‘rganish yo‘li o‘quvchining tug‘ma xususiyati emas, balki topshiriqqa mos ravishda tanlanadigan, moslashtiriladigan va yaratiladigan bilish yo‘lidir.

Sxema tuzish, qoida yaratish, amallar ketma-ketligini belgilash, amaliy namuna yasash va usulni asoslashdan iborat usullar to‘plami har bir o‘quvchiga turli bilish yo‘llarini ochib beradi. O‘quvchining o‘ziga xosligi esa ushbu vositalardan qaysi birini, qachon va qanday tanlashida namoyon bo‘ladi.

Usulni boshqarish taqlid, tanlash, moslashtirish va yaratish pog‘onalari orqali rivojlanadi. Yaratish pog‘onasida o‘quvchi tayyor yo‘ldan foydalanuvchidan yangi yo‘l muallifiga aylanadi va bu ijodiy tafakkurning bilimni o‘zlashtirish jarayonidagi eng yuqori ko‘rinishidir. Rejalash, kuzatish va baholash davrasi bu jarayonni barcha pog‘onalarda qo‘llab-quvvatlaydi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida topshiriqlarni bajarishning yagona usulini emas, bir nechta usulini ko‘rsatish va o‘quvchidan ulardan birini tanlab asoslashni talab qiluvchi topshiriqlar sonini ko‘paytirish, o‘qituvchilar uchun esa usullar to‘plamini shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar tayyorlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 30.04.2023 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. I-kitob. – Toshkent: Universitet, 2002.
3. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – 288 b.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
5. Dignath C., Veenman M.V.J. The Role of Direct Strategy Instruction and Indirect Activation of Self-Regulated Learning—Evidence from Classroom Observation Studies // Educational Psychology Review. – 2021. – Vol. 33. – P. 489–533. – DOI: 10.1007/s10648-020-09534-0.
6. Dörrenbächer-Ulrich L., Dilhuit S., Perels F. Investigating the relationship between self-regulated learning, metacognition, and executive functions by focusing on academic transition phases: a systematic review // Current Psychology. – 2024. – Vol. 43. – P. 16045–16072. – DOI: 10.1007/s12144-023-05551-8.
7. Education Endowment Foundation. Metacognition and Self-Regulated Learning: Guidance Report. Second Edition. – London: EEF, 2025.
8. Paz-Baruch N., Grovas G., Mevarech Z.R. The effects of meta-creative pedagogy on elementary school students’ creative thinking // Metacognition and Learning. – 2025. – Vol. 20. – Art. 9. – DOI: 10.1007/s11409-025-09412-6.

Madina ELBOYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Madinaelboyeva1102@gmail.com

CHET TILLARINI O'QITISHDA ADABIYOTSHUNOSLIKNING ROLI VA AHAMIYATI

Annotatsiya:ushbu maqolada adabiyotshunoslikdan chet tillarini o'rganishni rivojlantirish uchun qanday qilib samarali foydalanish mumkinligi o'rganiladi va turli xil o'qish usullari chuqur o'rganiladi. Texnologiyalar rivojlanib borishi bilan til o'rganishda inson omilini boyitish juda muhimdir. Bunga o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirish, qahramonlarning hayot yo'llarini tahlil qilish va adabiyot orqali lingvistik va grammatik qobiliyatlarini oshirish kiradi.

Kalit so'zlar: *badiiy matn, tanqidiy fikrlash, boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodkorlikni oshirish, savodxonlikni tahlil qilish va chuqur ishlash, til ko'nikmalarini grammatik va lingvistik jihatdan oshirish.*

Annotation: this article explores how literary studies can be effectively utilized to promote foreign language learning and examines various reading methods in depth. As technology continues to develop, enriching the human factor in language learning is crucial. This includes fostering learners' critical thinking and creativity, analyzing characters' life paths, and enhancing linguistic and grammatical competence through literature.

Key words: *literary text, thinking critically, improving management skills, enhancing creativity, analyzing and deep working on literacy, boosting language skills grammatically and linguistically.*

Аннотация: в данной статье рассматривается, как литературоведение может эффективно использоваться для популяризации изучения иностранных языков, а также подробно анализируются различные методы чтения. По мере развития технологий, обогащение человеческого фактора в изучении языка становится все более важным. Это включает в себя развитие критического мышления и креативности учащихся, анализ жизненных путей персонажей и повышение языковой и грамматической компетентности посредством литературы.

Ключевые слова: *Литературный текст, критическое мышление, совершенствование управленческих навыков, повышение креативности, анализ и углубленная работа над грамотностью, повышение языковых навыков в грамматическом и лингвистическом плане.*

Kirish. Til o'rganuvchilar badiiy asarlarni o'qishni boshlaganlarida, ular matnni ongli ravishda tushunishlari va tahliliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Biroq, asosiy qiyinchilik shundaki, ko'plab til o'rganuvchilar ma'lumotni tez va samarali olishga ko'proq qiziqishadi, bu esa ularning adabiy tahlilga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, adabiy asarlarni o'qiydiganlardan asosiy talab yozuvchining fikrlarini va qahramonlar hayotini tushunish, shu bilan birga o'z nuqtayi nazarlarini ifoda eta olishdir. Til ixlosmandlari ma'lum grammatik tuzilmalar bilan tanish bo'lsalar ham, ular adabiy asarni uch xil zamonda taqqoslash orqali tahlil qilishda qiynalishlari mumkin. Shuning uchun adabiyotshunoslik tilni o'rganishda chuqur ahamiyatga ega, chunki ular til haqida chuqur va mazmunli tushuncha beradi. Tilni o'rganish va adabiyot o'rtasidagi dinamik munosabatlar rivojlanishda davom etmoqda. Ko'pgina olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, adabiyot o'quvchilar uchun tildan foydalanishda madaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi degan nuqtayi nazarni mustahkamlashda potensial rol o'ynaydi.

Bruks o'z nashrida adabiyotni o'qitishda o'qituvchi va talabaning rolining muhimligini ta'kidlaydi. U adabiy tahlilning amaliy nazariyasi diqqatni jamlash o'rniga, o'rganish samaradorligini oshiradigan dialoglar va hamkorlikdagi ishlar shaklidagi munozaralarni o'z ichiga olishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, adabiy asarlarni o'qish va ularning ma'nosini tahlil qilish jarayoni adabiy tahlilga bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llashni o'z ichiga oladi. Bunga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va lingvistik va grammatik mahoratni oshirish kiradi.

Metodologiya. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi bosqichlar joriy etiladi:

1. O'qish jarayonini tanlash va tuzish: til o'rganuvchilar o'z qiziqishlariga qarab adabiy asarlarni tanlashlari va o'qish jarayonini boshqariladigan bo'limlarga ajratishlari kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ko'pincha murakkab grammatik tuzilmalar va so'z boyligini tushunishdagi qiyinchiliklar tufayli o'qishni to'xtatadilar.

Yechim matnni kichikroq qismlarga ajratish va tezlikka emas, balki tushunish sifatiga e'tibor qaratish, samaraliroq o'qish tajribasini ta'minlashdan iborat.

2. Qiyin so'zlar va murakkab jumlalarni tushunish: o'quvchilar qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan notanish so'zlar va uzun, murakkab jumlalarni aniqlashlari kerak. Ular ularning ma'nolarini tushunish ustida ishlashlari va ularni yangi, grammatik va kontekstual jihatdan aniq jumlalarga qayta tiklashlari kerak.

3. O'qilgan matnni tahlil qilish va muhokama qilish: biror qismni o'qib bo'lgach, o'quvchilar uni yozma ravishda umumlashtirishlari va tahlil qilishlari kerak. O'quvchilar o'z talqinlarini taqdim etadigan guruh muhokamalari tushunish va tanqidiy fikrlashni yaxshilaydi. Asosiy maqsad g'oyalar almashinuvini rag'batlantirish va matnga yangi nuqtayi nazarlarni rivojlantirishdir.

4. Asosiy g'oyalarni umumlashtirish va ijodiy ish yaratish; Til o'rganuvchilar adabiy asardan asosiy g'oyalarni to'plashlari va qisqa hikoya, she'r yoki mulohaza kabi ijodiy asar yaratishlari kerak. Bu usul tasavvurni kuchaytiradi va til tarixi va madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi, cheksiz bilim beradi.

O'zlashtirilgan bilimlarini sarhisob qilib, o'quvchilar savol-javoblar, bahslar yoki musobaqalarda qatnashishlari mumkin. Ushbu yondashuv ularga nazariy va tushunish va tahliliy ko'nikmalarni solishtirish imkonini beradi. Adabiy asardagi so'zlarning uyg'unligi va jumlalar ma'nosini tushunish tushunishdagi qiyinchiliklarni yengishning kalitidir. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish lug'atni yodlash jarayonini soddalashtirishi mumkin

O'qituvchilar va talabalarning roli; O'qituvchilar ham, talabalar ham adabiy o'qish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va global bilimlarga asoslanib, madaniy xilma-xillikni farqlash va matnlarni og'zaki va yozma shakllarda tarmoq orqali tahlil qilish tanqidiy fikrlashni kengaytiradigan real vaziyatlarni yaratadi.

Muhokama. Ijodiy yozishda esda qolarli belgilar qo'shish, adabiy tahlil mashqlarini bajarish va personajlarni tasavvur qilish yoki sahnalarni tasvirlash kabi badiiy ifodalardan foydalanish tasavvurni boyitadi. Adabiyot bilan shug'ullanish til o'rganuvchilarni tilning o'ziga singdiradi, fikrlar uyg'unligini rivojlantiradi va shu bilan birga til tarixi va madaniyati kelajak hayot uchun qimmatli manbalar bo'lib xizmat qilishini namoyish etadi. Badiiy matn bo'yicha umumiy savollar va kichik musobaqalarni tashkil qilish o'quvchilarga o'zlarining tushunish darajasini, moslashuvchanligini va asarni tahlil qilishdagi qulayligini baholash imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiyot so'z boyligini rivojlantirishni, so'zlardan to'g'ri foydalanish qobiliyatini va og'zaki va yozma ifodada ravonlikni sezilarli darajada yaxshilaydi. Bundan tashqari, u o'quvchilarga turli millatlardagi madaniy xilma-xillikni ajratishga yordam beradi va chuqur va keng qamrovli bilimlarni rivojlantiradigan amaliy o'rganish tajribasini taqdim etadi.

So'nggi asrlarda yozilgan badiiy matnlarni tanlash o'quvchilarga materialga osonroq moslashishga va uni zamonaviy hayot bilan bog'lashga yordam beradi. Leksik boylik va grammatik tuzilmalarni o'rganishning asosiy manbai adabiy matnlardir. Ulardan foydalanish so'zlarni turli jumlalarda qayta-qayta uchratish imkonini beradi, bu ularga turli matnlarga qanchalik mos kelishini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytib o'tilgan ilmiy nazariyalarga asoslanib, har bir mamlakat uchun badiiy asarlardan foydalanish orqali chet tillarini o'rganishning osonroq usulini yaratish uchun ta'limda yangi standartlarni joriy etish tavsiya etiladi. Chet tili darslarida badiiy matnlardan muntazam foydalanishni rag'batlantirish, talabalar o'rtasida kuchli adabiy raqobatni rivojlantirish va til o'rganuvchilarning til nazariyasi doirasidagi nuqtai nazarlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish muvaffaqiyatga erishishning muhim qismidir. Bundan tashqari, ko'plab ishlarda chet tillarini o'rganish cheksiz imkoniyatlar yaratishi keng ma'noda tushuntiriladi. Shuningdek, o'qituvchilar juda ehtiyotkorlik bilan yondashuvni qo'llashlari kerak. Savodxonlik asarlarining ta'sirini kuchaytirish uchun yozuvchilar o'quvchilarni jalb qiladigan qiziqarli asarlar yaratishlari kerak, natijada kitob ixlosmandlari soni ko'payadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https:/zienjournals.comTexas Filologiya, Madaniyat va Tarix jurnali ISSN NO:2770-8608, Nashr 11-01-2023.
2. www.jurnal.isft-ilm.uz Ilmiy va metodik jurnal 1/1-2024.
3. https/www.researchergate.net/publication/231992110 Amos Paran UCL Ta'lim Instituti, London Universitet Kolleji, Til o'qitish. 2008-yil oktyabr.
4. Teaching English Language jurnali ISSN:2538-5488 http://tel.journal.org. 18-jild, 2-son, 2024-yil yozgi kuz, 1-34-betlar.

Shoxruxbek RUSTAMJONOV,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti
Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0001-6663-4810

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim talablari sharoitida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, o‘quv jarayonini loyihalash hamda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini innovatsion metodlar asosida tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuv, kasbiy kompetentlik, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik imkoniyat, innovatsion metodlar, metodik kompetensiya, pedagogik faoliyat, refleksiv yondashuv, raqamli ta’lim vositalari.*

Аннотация: в статье раскрываются педагогические возможности развития профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры на основе инновационного подхода. Рассматриваются научно-методические аспекты совершенствования профессиональной подготовки будущих специалистов в условиях обновления содержания высшего педагогического образования. Особое внимание уделяется интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, формированию способности анализировать педагогические ситуации, проектировать образовательный процесс и применять современные методы организации занятий по физической культуре.

Ключевые слова: *инновационный подход, профессиональная компетентность, будущий учитель физической культуры, профессиональная подготовка, педагогические возможности, инновационные методы, методическая компетентность, педагогическая деятельность, рефлексивный подход, цифровые образовательные средства.*

Annotation: the article examines the pedagogical opportunities for developing the professional competence of future physical education teachers through an innovative approach. The study focuses on methodological aspects of improving the professional preparation of prospective specialists in the context of the modernization of higher pedagogical education. Particular attention is given to the integration of theoretical knowledge with practical activity, the development of students’ ability to analyze pedagogical situations, design educational processes, and organize physical education classes using innovative methods.

Key words: *innovative approach, professional competence, future physical education teacher, professional training, pedagogical opportunities, innovative methods, methodological competence, pedagogical activity, reflective approach, digital educational tools.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassisning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, balki ularni amaliy pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llay olishi, ta’lim jarayonini mustaqil loyihalashi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi hamda mashg‘ulotlarning mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtira olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish oliy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jismoniy tarbiya ta’limining o‘ziga xosligi mazkur yo‘nalishda mutaxassis tayyorlash jarayoniga alohida metodik talablar qo‘yadi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchi jismoniy mashqlar texnikasi va nazariy asoslarini bilish bilan bir qatorda, mashqlarni o‘quvchilarning yoshi, jismoniy

rivojlanish darajasi, funksional imkoniyatlari va individual ehtiyojlariga muvofiq tanlay olishi zarur. Bunda pedagogik kuzatuv, diagnostik tahlil, mashg‘ulotni rejalashtirish, yuklamani me’yorlashtirish, xavfsizlik talablariga rioya etish va o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish kabi kasbiy faoliyat komponentlari o‘zaro uyg‘unlashadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika, jismoniy tarbiya nazariyasi va kasbiy ta’lim metodikasi kesishmasida shakllanadigan murakkab ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish, pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganilgan. Xususan, N.A. Muslimovning kasbiy ta’lim pedagogikasi va pedagogik kompetentlikka oid tadqiqotlarida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini faoliyat bilan bog‘lash, kompetensiyalarning tarkibiy tuzilishini aniqlash va ularni rivojlantirishning pedagogik shartlarini belgilashga katta e’tibor qaratilgan. Sh.A. Abdullayeva, O‘.Q. Tolipov, N.X. Usmonova kabi tadqiqotchilarning pedagogik texnologiyalar, ta’lim metodlari va kasbiy tayyorgarlik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy qarashlari ham mazkur muammo uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Natija. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni o‘zaro bog‘liq pedagogik omillar majmuasi asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka ega bo‘lishini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi asosiy komponentlar tizimlashtirildi. Ular motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-faoliyatli, kommunikativ, refleksiv va kreativ tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tuzilma sifatida qaraldi. Motivatsion-qadriyatli komponent talabaning jismoniy tarbiya kasbiga qiziqishi, pedagogik faoliyatga ijobiy munosabati va kasbiy rivojlanishga intilishini ifodalasa, kognitiv komponent sohaga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini belgilaydi. Amaliy-faoliyatli tarkib mashg‘ulotlarni tashkil etish, jismoniy yuklamani belgilash, pedagogik vaziyatlarni boshqarish va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini qamrab oladi. Kommunikativ komponentning rivojlanganligi bo‘lajak mutaxassisning o‘quvchilar, hamkasblar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali pedagogik muloqot o‘rnatishiga imkon beradi. Refleksiv tarkib o‘z faoliyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va keyingi pedagogik harakatlarni takomillashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kreativ komponent esa standart pedagogik vaziyatlardan tashqari holatlarda muqobil yechimlar ishlab chiqish, mashg‘ulot mazmunini ijodiy boyitish hamda yangi metodik g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini belgilaydi. Tadqiqot natijasida innovatsion yondashuvni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari muammoli ta’lim, amaliy keyslar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, loyiha faoliyati, hamkorlikdagi topshiriqlar, refleksiv tahlil va raqamli ta’lim vositalari bilan bog‘liq holda aniqlandi. Ushbu vositalarning maqsadli uyg‘unlashtirilishi talabalarning tayyor metodik ko‘rsatmalarni takrorlashiga emas, balki mustaqil ravishda pedagogik qarorlar ishlab chiqishiga sharoit yaratadi. Tadqiqot doirasida kasbiy kompetentlikni baholash uchun mezonlar ham aniqlashtirildi. Motivatsion-mezon kasbga qiziqish va kasbiy rivojlanish ehtiyojini; kognitiv-mezon nazariy-metodik bilimlarning puxtaligini; faoliyatli-mezon amaliy pedagogik vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatini; kommunikativ-mezon pedagogik muloqot samaradorligini; refleksiv-mezon esa o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish darajasini ifodalaydi. Mazkur mezonlarning o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanishi bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishini kompleks baholash imkonini beradi.

Muhokama. Olingan natijalar innovatsion yondashuvni bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining alohida elementi sifatida emas, balki ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va baholash mezonlarini o‘zaro birlashtiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuvda innovatsiyaning mohiyati faqat yangi texnologiya yoki raqamli vositadan foydalanish bilan belgilanmaydi. Uning asosiy mazmuni talabaning kasbiy vazifalarni anglash, mustaqil yechim ishlab chiqish, pedagogik faoliyat natijasini baholash va o‘z tajribasini takomillashtirish jarayonlariga faol jalb etilishi bilan izohlanadi. Tadqiqotda aniqlangan motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-faoliyatli, kommunikativ, refleksiv va kreativ komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi kasbiy kompetentlikning kompleks tabiatini tasdiqlaydi. Mazkur komponentlardan birining yetarli darajada shakllanmasligi mutaxassisning umumiy kasbiy tayyorgarligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, nazariy bilimlarning yuqoriligi ularni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati bilan mustahkamlanmasa, kasbiy kompetentlikning amaliy qiymati pasayadi. Aksincha, yetarli

nazariy asosga ega bo‘lmagan amaliy tajriba pedagogik qarorlarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli mazkur komponentlarning parallel va o‘zaro aloqador rivojlanishi muhim metodik talab sifatida namoyon bo‘ladi. Muhokama jarayonida innovatsion metodlarning samaradorligi ularning yangiligi bilan emas, balki muayyan kasbiy vazifani hal etishga qay darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlashda ushbu metodlarning ahamiyati mazkur kasbiy faoliyatning amaliy xarakteri bilan yanada kuchayadi. O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini kuzatishi, yuklama hajmini moslashtirishi, mashqlar ketma-ketligini belgilashi, xavfsizlik talablarini nazorat qilishi va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishi kerak. Bunday kompetensiyalarni faqat ma’ruza mashg‘ulotlari orqali shakllantirish cheklangan imkoniyatlarga ega. Shu bois o‘quv jarayonida kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va amaliy topshiriqlar ulushini oshirish bo‘lajak mutaxassisning real faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi. Natijalar, shuningdek, innovatsion yondashuvni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik qiymati ularning mavjudligi bilan emas, balki ta’lim maqsadiga muvofiq tanlanishi bilan belgilanadi. Masalan, videoanaliz vositalari orqali jismoniy mashqlar bajarilish texnikasini kuzatish, elektron platformalar yordamida mustaqil topshiriqlarni tashkil etish, raqamli test va diagnostika vositalari orqali o‘zlashtirish darajasini aniqlash talabaning kasbiy faoliyatini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Muhokama natijalari innovatsion yondashuvning samaradorligi pedagogik jarayonning barcha bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikka bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Olib borilgan nazariy-metodik tahlillar asosida innovatsion yondashuv bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik omillaridan biri ekanligi asoslandi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini yangi metod va vositalar bilan boyitish bilangina cheklanmay, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga munosabati, mustaqil fikrlashi, amaliy tayyorgarligi, ijodiy izlanishi va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatini yaxlit tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijasida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-faoliyatli, kommunikativ, refleksiv va kreativ komponentlarning o‘zaro aloqadorligi asosida shakllanishi aniqlandi. Mazkur jarayonni ilmiy asoslangan metodik tizim asosida tashkil etish kelajakdagi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish, pedagogik faoliyatning amaliy samaradorligini kuchaytirish hamda ta’lim jarayonida innovatsion fikrlash va kasbiy mas’uliyatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-394-son, 2015-yil 4-sentabr.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga oid farmon va qarorlari.

4. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish: monografiya.

5. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy-pedagogik malakalarini shakllantirish: pedagogika fanlari nomzodi ... dissertatsiyasi. – Toshkent, 2000.

6. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: pedagogika fanlari doktori ... dissertatsiyasi. – Toshkent, 2005.

7. Hamidov J.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi: monografiya. – Toshkent: Sano-standart, 2017.

8. Jumaniyozova M.T. O‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari: monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023.

9. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York: Teachers College Press, 2012.

10. European Commission. Supporting Teacher Competence Development for Better Learning Outcomes. – Brussels: European Commission, 2013.

11. OECD. Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – Paris: OECD Publishing, 2020.

Дилором ХОЛМАТОВА,
ФГТУ, кафедра узбекского языка и преподавания языков,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам

ПРИМЕНЕНИЕ ГЕНЕРАТИВНЫХ МОДЕЛЕЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ: ПРАКТИКА, РИСКИ, ОГРАНИЧЕНИЯ

Аннотация: материал акцентирует внимание на том, как алгоритмы генерации текста встраиваются в повседневные процессы обучения и преподавания. Описывается эволюция искусственного интеллекта: из узкопрофильного инструмента он превращается в всестороннего собеседника. На основе обзора академических источников изучается реальный опыт внедрения таких решений, выявляются сопутствующие сложности и объективные рамки применимости подобных систем в учебной сфере.

Ключевые слова: генеративная система, модель, студент, риск, ограничение.

Annotatsiya: ushbu material matn yaratish (generatsiya qilish) algoritmlarining o‘qitish va pedagogik faoliyatning kundalik jarayonlariga integratsiyalashuviga qaratilgan. Unda sun’iy intellektning rivojlanish bosqichlari tavsiflanadi: u tor doiradagi vositadan har tomonlama muloqot qiluvchi hamkorga aylanmoqda. Akademik manbalar sharhi asosida bunday yechimlarni joriy etishning real tajribasi o‘rganiladi, shuningdek, o‘quv jarayonida ushbu tizimlarni qo‘llash bilan bog‘liq qiyinchiliklar va obyektiv cheklovlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: generativ tizim, model, talaba, xavf, cheklov

Annotation: this material focuses on how text generation algorithms are integrated into everyday learning and teaching processes. It describes the evolution of artificial intelligence, highlighting its transformation from a niche tool into a comprehensive conversational partner. Based on a review of academic sources, the paper examines the real-world experience of implementing such solutions, identifying the associated challenges and the objective limitations of applying these systems in the educational sphere.

Key words: generative system, model, student, risk, limitation.

Введение

В течение последних двух лет дискуссии о применении генеративных моделей в учебном процессе эволюционировали: от осторожного любопытства они перешли к практическим попыткам интегрировать их в ежедневную деятельность педагогов. Имеются в виду крупные языковые модели и схожие системы, умеющие создавать тексты, программный код, графические материалы и прочее по запросу пользователя. В образовательном процессе это выражается так: средство, ранее функционировавшее как специализированный сервис для решения отдельных задач, превратилось в универсального диалогического партнёра, доступного как учащимся, так и преподавательскому составу.

Но наличие доступности вовсе не гарантирует полезности. Далее рассматриваются три ключевых аспекта для специалистов: то, что действительно применяется на практике; какие проблемы при этом возникают; и где заканчивается зона действия генеративных систем. Изложение базируется на актуальных научных публикациях и аналитических обзорах.

Основная часть

Что уже применяется на практике? Первое, что бросается в глаза – это подготовка материалов. Преподаватели используют модели для черновиков заданий, вариантов тестов, примеров. Это экономит время, и это наименее спорная область применения. Но есть нюанс: модель выдаёт уверенный текст, в котором может быть фактическая ошибка. Если преподаватель не проверил, то ошибка уходит студентам. Дальше идёт обратная связь. Студент получает быструю реакцию на черновик, а преподаватель подключается позже, к содержанию. Звучит разумно. На практике качество такой обратной связи сильно зависит от того, как сформулирован запрос и умеет ли студент критически оценить ответ. Персонализация – это третье направление и здесь нужно быть осторожным. Модель действительно может адаптировать объяснение под уровень студента. Но применение ИИ в высшем образовании остаётся самой обещаемой и одновременно самой недоказанной областью. Публикаций много, строгих исследований эффективности мало. Есть ещё административная рутина. Планы, программы, формулировки компетенций, переводы. Здесь модели работают как ускоритель, и спорить особо не о чем.

И отдельно – это использование моделей самими студентами. Это происходит независимо от того, разрешает преподаватель или нет. Поэтому практический вопрос не «как запретить», а «как сделать это прозрачным».

Какие существуют риски? Первым риском, о котором говорится чаще всего – это академическая честность. Модель позволяет сдать работу, которая не отражает знаний студента. Обнаружить это сложно. Детекторы ИИ-текста работают ненадёжно, дают ложные срабатывания и обходятся. Строить политику курса на детекторах считается тупиком и это стоит признать прямо.

Второй риск – это качество. Языковые модели склонны порождать правдоподобные, но неверные утверждения, включая вымышленные ссылки. Студент без достаточной подготовки не отличит корректный ответ от ошибочного. А

значит, вопрос о базовых навыках проверки информации становится частью предметного обучения, а не отдельной темой. Третьим можно считать этический и правовой риски. Существует целый набор проблем: конфиденциальность данных студентов, смещения в моделях, вопросы авторства и ответственности за решения, принятые с участием системы. В учебном контексте сюда добавляется вопрос, кому принадлежит материал, созданный с помощью модели. Четвёртый риск – это педагогический, и он мне кажется самым недооценённым. Если модель берёт на себя объяснение, разбор и проверку, у студента может не формироваться способность преодолевать интеллектуальное затруднение. А это затруднение часто и есть момент обучения. Пятый риск – неравенство. Платные версии, качество связи, цифровая грамотность. Разрыв между студентами и между учебными заведениями никуда не исчезает, а местами растёт.

Если говорить об ограничениях, **з**десь важно не смешивать технические ограничения с педагогическими:

1. *Технические ограничения.* Модели не «знают» ничего в человеческом смысле. Они предсказывают продолжение текста. Отсюда возникают ошибки, чувствительность к формулировке запроса, отсутствие воспроизводимости. Один и тот же вопрос сегодня и завтра может дать разные ответы. Данные. Качество ответа ограничено обучающей выборкой. Мало материала по дисциплине или по языку, поэтому ответы слабее. Для многих предметных областей и для языков – это ощутимая проблема.

2. *Педагогические.* Модель не знает студента, не видит его затруднений, не отвечает за его прогресс. Она может быть инструментом в руках преподавателя, но не его заменой.

3. *Институциональные.* Внедрение упирается в подготовку преподавателей, в пересмотр форм контроля, в политику вуза. Без этого отдельные инициативы остаются личными экспериментами и умирают вместе с энтузиастом, который их запустил.

Что это значит для преподавателя? Пересмотреть формы контроля там, где результат можно получить с помощью модели без реального освоения материала. Не отказаться от письменных работ, сместить акцент на процесс, на защиту, на задачи, где важен контекст и рассуждение. Обсуждать со студентами, где использование моделей допустимо, а где нет. Прозрачные правила работают лучше запретов, которые всё равно обходятся. Учить проверке. Умение задать вопрос, оценить ответ, найти первоисточник – это часть предметной подготовки, а не отдельный навык. И относиться к моделям как к инструменту с известными дефектами. Этот инструмент полезен, но требует контроля.

Разговор о генеративных моделях часто ведётся на англоязычном материале, а практика в Узбекистане имеет свою специфику. В Узбекистане тема идёт в связке с государственной программой цифровизации образования. Основными площадками являются научные журналы и сборники конференций Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, Национального университета Узбекистана. Публикации выходят на узбекском и русском языках. Отдельное направление включает в себя материалы конференций по цифровой экономике и образованию. Инструменты появляются быстрее, чем успевают проводиться исследования их влияния на результаты обучения. Это не отменяет пользы отдельных инициатив, но означает, что региональный опыт пока описан фрагментарно, в основном на уровне методических рекомендаций, а не строгих экспериментов.

Заключение

Генеративные модели уже в учебном процессе и спорить об их допустимости поздно. Содержательный вопрос другой: как использовать их так, чтобы выигрывал студент, а не только экономилось время преподавателя. Практика показывает, что польза реальна в рутинных и вспомогательных задачах. Риски реальны там, где модель подменяет обучение или оценку. Ограничения: технические, педагогические, институциональные пока не сняты и вряд ли будут сняты в обозримом будущем. Разумная позиция для преподавателя сегодня – это не запрет и не восторг, а осознанное, ограниченное и проверяемое применение.

Литература

1. Холмс В., Порайска-Помста К., Хольштейн К. и др. Этика ИИ в образовании: на пути к общесистемной рамочной модели // International Journal of Artificial Intelligence in Education. 2022. № 32. С. 504–526.

2. Каснеци Э., Сесслер К., Кюхеманн С. и др. ChatGPT во благо? О возможностях и вызовах больших языковых моделей для образования // Learning and Individual Differences. 2023. № 103.

3. Лакин Р., Холмс В., Гриффитс М., Форсье Л. Б. Раскрытый интеллект: аргумент в пользу ИИ в образовании. London: Pearson, 2016.

4. Селвин Н. Должны ли роботы заменить учителей? ИИ и будущее образования. Cambridge: Polity Press, 2019.

5.Завацки-Рихтер О., Марин В. И., Бонд М., Гувернёр Ф. Систематический обзор исследований применения искусственного интеллекта в высшем образовании – где же преподаватели? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2019. № 16, с.39.

Феруза ХУДАЙКУЛОВА,
Старший преподаватель кафедры современного русского языка,
Узбекского государственного университета мировых языков

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Аннотация: в статье рассматриваются теоретико-методологические основы применения инновационных образовательных технологий в условиях модернизации современной системы образования. Особое внимание уделяется трансформации традиционной модели обучения, обусловленной цифровизацией образовательной среды, изменением общественных требований к профессиональной подготовке специалистов и реализацией компетентностного подхода. На основе теоретического анализа выделены педагогические условия результативного использования инновационных технологий.

Ключевые слова: инновационные образовательные технологии, педагогические инновации, качество образования, компетентностный подход, деятельностное обучение, цифровизация образования, интерактивные методы, личностно-ориентированное обучение, образовательная среда.

Annotatsiya: maqolada zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning nazariy-metodologik asoslari ko‘rib chiqiladi. Ta’lim muhitining raqamlashtirilishi, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga qo‘yiladigan ijtimoiy talablarning o‘zgarishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning amalga oshirilishi bilan bog‘liq an’anaviy o‘qitish modelining transformatsiyasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim texnologiyalari, pedagogik innovatsiyalar, ta’lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta’lim, ta’limni raqamlashtirish, interfaol metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim muhiti.

Annotation: this article examines the theoretical and methodological foundations of the application of innovative educational technologies in the context of the modernization of the contemporary education system. Particular attention is paid to the transformation of the traditional teaching model driven by the digitalization of the educational environment, changing societal demands for the professional training of specialists, and the implementation of a competency-based approach. Based on a theoretical analysis, the pedagogical conditions for the effective use of innovative technologies are identified, including goal orientation, a systematic approach, adaptability.

Key words: innovative educational technologies, pedagogical innovations, quality of education, competency-based approach, activity-based learning, digitalization of education, interactive methods, educational environment.

Практически во все сферы человеческой деятельности происходящие изменения существенно влияют на систему образования, определяя необходимость пересмотра традиционных подходов к организации учебного процесса, содержанию образовательных программ и оцениванию результатов подготовки специалистов. В современных условиях образование выступает не только механизмом передачи накопленного научного и культурного опыта, но и важнейшим фактором интеллектуального развития общества, формирования человеческого капитала и обеспечения устойчивого социально-экономического прогресса. Традиционная модель обучения, ориентированная преимущественно на объяснение, усвоение и воспроизведение учебной информации, сохраняет определённую дидактическую ценность. Вместе с тем её возможностей не всегда достаточно для формирования комплекса компетенций, необходимых личности в условиях постоянно изменяющейся профессиональной среды. Современный специалист должен обладать способностью самостоятельно приобретать новые знания, анализировать информационные потоки, критически оценивать различные точки зрения, принимать обоснованные решения и эффективно взаимодействовать с участниками профессиональной деятельности. Не менее важными становятся готовность к непрерывному образованию, творческая инициативность, коммуникативная культура и умение адаптироваться к новым условиям. Решение обозначенных задач непосредственно связано с внедрением инновационных образовательных технологий, способствующих переходу от преимущественно репродуктивного усвоения информации к активной познавательной деятельности обучающихся. Актуальность исследования определяется необходимостью научного обоснования педагогических возможностей инновационных технологий и выявления условий их эффективного использования в образовательном процессе.

Методы исследования: теоретический анализ и обобщение научно-педагогических положений, сравнительно-сопоставительный анализ традиционных и инновационных моделей обучения, систематизация

характеристик образовательных технологий и педагогическое моделирование.

Развитие современной образовательной системы характеризуется переходом к качественно новым принципам организации педагогической деятельности. Данный процесс обусловлен не только техническим обновлением образовательной инфраструктуры, но и существенной трансформацией целей обучения, структуры учебной деятельности и характера взаимодействия между преподавателем и обучающимися. Если в традиционной педагогической практике основное внимание уделялось накоплению определённого объёма предметных знаний, то современная образовательная парадигма предполагает формирование личности, способной самостоятельно использовать полученную информацию и эффективно действовать в условиях неопределённости. В этом контексте инновационное развитие образования следует рассматривать как целенаправленный процесс совершенствования педагогической системы, основанный на внедрении научно обоснованных методов, организационных решений и технологических инструментов. Существенное место в данном процессе занимает компетентностный подход, определяющий результат обучения через совокупность знаний, практических умений, способов деятельности, личностных качеств и готовности применять приобретённый опыт в конкретных ситуациях. Реализация компетентностного подхода предполагает изменение традиционной логики построения образовательного процесса. Инновационный характер образовательной деятельности определяется прежде всего качественными изменениями способов обучения, взаимодействия и оценивания результатов.

Инновация представляет собой не формальное использование современных методических приёмов, а осмысленное преобразование педагогической практики, направленное на совершенствование качества обучения и развитие личности обучающегося. Принципиальное отличие технологии от отдельного метода заключается в её системном характере. Если метод выступает способом решения определённой учебной задачи, то педагогическая технология объединяет взаимосвязанные элементы образовательного процесса, обеспечивая последовательность, управляемость и возможность оценки достигнутых результатов.

Взаимосвязь обозначенных компонентов позволяет рассматривать инновационную образовательную технологию как целостную педагогическую систему, ориентированную на развитие познавательной активности, самостоятельности, творческого потенциала и профессиональных компетенций обучающихся.

Современная педагогическая практика характеризуется многообразием образовательных технологий, направленных на повышение результативности учебной деятельности. Одним из перспективных направлений является применение интерактивных технологий, предусматривающих организацию активного взаимодействия между участниками образовательного процесса. Использование дискуссий, проблемных заданий, ролевых и деловых игр способствует развитию коммуникативных способностей, навыков аргументации и коллективного принятия решений. Электронные образовательные платформы, мультимедийные ресурсы, виртуальные учебные среды и автоматизированные средства оценивания позволяют разнообразить способы представления информации и обеспечить оперативную обратную связь. Системное сочетание интерактивных, проектных, цифровых и личностно-ориентированных технологий способствует формированию образовательной среды, ориентированной на развитие самостоятельности, критического мышления и готовности к практическому применению знаний.

Представленное сопоставление свидетельствует о том, что инновационная модель не исключает традиционные методы преподавания, а предполагает их содержательное дополнение технологиями, обеспечивающими более активное участие обучающихся в образовательном процессе. На основании проведённого теоретического анализа можно выделить три взаимосвязанных направления инновационного преобразования образовательной деятельности.

Взаимосвязь указанных направлений позволяет рассматривать инновационную образовательную технологию как комплексный механизм модернизации учебного процесса.

Заключение. Проведённый теоретический анализ позволяет сделать вывод о том, что внедрение инновационных образовательных технологий является одним из значимых направлений совершенствования современной системы образования. Инновационное развитие образовательного процесса предполагает не только расширение возможностей использования цифровых инструментов, но и изменение традиционной педагогической модели в направлении активизации самостоятельной, исследовательской и практико-ориентированной деятельности обучающихся. Использование инновационных образовательных технологий создаёт условия для совершенствования качества подготовки специалистов и формирования компетенций, востребованных в современном обществе.

Литература

1.Худайкулова Ф.Х. Использование цифровых технологий на занятиях русского языка как средство повышения учебной мотивации и качества обучения. Дата публикации. 2026/1/9 Журнал. Лучшие интеллектуальные исследования. Том. 60. Номер-2. Страницы. 46-49.

2.Khudaykulova, F. Kh**.** *Russian Language.* 2024.

3.Khudaykulova, F. Kh**.** *Inclusive Education and Tolerance in the Educational Environment: Knowledge Assessment. KONFERENSIYA-2025.* P. 258.

KICHIK TADQIQOT









Zeboxon AMINJONOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich magistranti
zeboaminjonova01@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-6243-3839

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDA JANNAT VA DO‘ZAX MOTIVI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va jahon adabiyotidagi eng qadimiy va universal motivlardan biri — jannat va do‘zax talqini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida Dante Aligyeri, Jon Milton hamda Alisher Navoiy va Erkin Vohidov kabi adiblarning esxatologik asarlari tanlab olindi. Tahlil davomida jannat va do‘zax tushunchalarining shunchaki diniy mifologema emas, balki inson ruhiyatini ifodalovchi universal badiiy vosita ekanligi asoslandi. Tadqiqotning maqsadi ushbu motivlarning milliy va umuminsoniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish orqali adabiy jarayondagi o‘rnini aniqlashdir. Maqolada Sharq va G‘arb adabiyotidagi ma’naviy-axloqiy ierarxiya masalalari falsafiy va estetik jihatdan qiyoslandi.

Kalit so‘zlar: *jannat va do‘zax motivi, esxatologiya, Jon Milton, Dante Aligyeri, Alisher Navoiy, psixologik parallelizm*

Аннотация: в данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуется один из древнейших и универсальных мотивов узбекской и мировой литературы — мотив рая и ада. В качестве объекта исследования были выбраны эсхатологические произведения таких писателей, как Данте Алигьери, Джон Мильтон, Алишер Навои и Эркин Вохидов. В ходе анализа обосновывается, что понятия рая и ада являются не только религиозно-мифологемными образами, но и универсальным художественным средством выражения человеческой психологии. Цель исследования заключается в определении места данных мотивов в литературном процессе посредством сравнительного изучения их национальных и общечеловеческих особенностей. В статье в философском и эстетическом аспектах сопоставляются вопросы духовно-нравственной иерархии в восточной и западной литературах.

Ключевые слова: *мотив рая и ада, эсхатология, Джон Мильтон, Данте Алигьери, Алишер Навои, психологический параллелизм*

Annotation: this article provides a comparative-typological analysis of one of the oldest and most universal motifs in Uzbek and world literature — the motif of Heaven and Hell. The eschatological works of such authors as Dante Alighieri, John Milton, Alisher Navoi, and Erkin Vohidov have been selected as the objects of research. The analysis demonstrates that the concepts of Heaven and Hell are not merely religious mythologemes, but also universal artistic means of expressing the human psyche. The aim of the study is to determine the place of these motifs in the literary process through a comparative examination of their national and universal human characteristics. The article comparatively examines the issues of spiritual and moral hierarchy in Eastern and Western literature from philosophical and aesthetic perspectives.

Key words: *motif of Heaven and Hell, eschatology, John Milton, Dante Alighieri, Alisher Navoi, psychological parallelism*

Kirish. Badiiy adabiyotda insoniyatning mavjudlik fojiasi va ma’naviy kamoloti masalalari jannat hamda do‘zax motivlari orqali yoritib kelingan. Mazkur motivlar jahon adabiyotining barcha bosqichlarida – qadimgi mifologiyadan tortib zamonaviy postmodern asarlargacha markaziy o‘rin egallaydi. O‘zbek adabiyotida islomiy konsepsiyaga asoslangan jannat va do‘zax talqini inson axloqi va qalb pokligi bilan uzviy bog‘liqdir. G‘arb adabiyotida, xususan Uyg‘onish va Ma’rifatparvarlik davrlarida bu tushunchalar ijtimoiy-axloqiy ierarxiya hamda isyonkor ruh ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matndagi psixologizmni tahlil qilish ehtiyoji bilan belgilanadi. Esxatologik obrazlar vositasida berilgan ruhiy holatlarni ilmiy asosda yoritish inson qalbini tadqiq etishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi jahon va o‘zbek adabiyotida ushbu tasvirlarning qahramon ruhiy kechinmalarini aks ettirishdagi o‘rnini aniqlashdir. Sharq klassik she’riyatidagi irfoniy jannat va G‘arb adabiyotidagi intellektual do‘zax tushunchalarini qiyoslash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur motiv insoniyatning ezgulik

va yovuzlik o‘rtasidagi abadiy kurashini badiiy aks ettiradi. Maqolada Dante va Miltonning epik ko‘lami Navoiy va Vohidovning lirik-falsafiy tahlillari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Inson irodasining erkinligi masalasi har to‘rtala adib ijodida ham jannat va do‘zax tanlovi orqali yoritilgan. Tadqiqot davomida ushbu ramzlarning estetik funksiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

1.Jahon va o‘zbek adabiyotidagi jannat va do‘zax motivlarining tarixiy-madaniy ildizlarini aniqlash;

2.Dante, Milton, Navoiy va Vohidov asarlarida esxatologik obrazlarning badiiy funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish;

3.Ushbu motivlarning qahramon ruhiyatini (psixologizmni) ochib berishdagi o‘rnini ilmiy asoslash;

4.Sharq va G‘arb adabiyotidagi makoniy va metaforik tasvirlash usullarining o‘ziga xosligini tizimlashtirish.

Tadqiqotdan quyidagi natijalar olindi:

1.Jannat va do‘zax motivlarining ontologik, axloqiy va psixologik funksiyalari aniqlandi;

2.G‘arb adabiyotida makoniy-geometrik, Sharq adabiyotida esa metaforik-ruhiy tasvirlar yetakchilik qilishi isbotlandi;

3.Klassik davrdan zamonaviy adabiyotga o‘tgan sayin ushbu motivlarning psixologik qatlami kengayib borishi tahlillar orqali ko‘rsatildi;

4.Har ikki adabiy tizimda ham ushbu obrazlar insonni ezgulikka va ma’naviy kamolotga chorlovchi universal vosita ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot savollari sifatida quyidagilar tanlandi:

1.G‘arb va Sharq esxatologik tasavvurlari o‘rtasidagi tub tipologik o‘xshashliklar va farqli jihatlar nimalardan iborat?

2.Badiiy matnda jannat va do‘zax motivlari qahramonning ichki psixologik holatini (psixologizmni) ochib berishda qanchalik funksional vosita bo‘lib xizmat qiladi?

Adabiyotlar sharhi. Badiiy makon va vaqt (xronotop) konsepsiyasida tasviriy muhit qahramon ongining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Mixail Baxtinning (1981) xronotop nazariyasi esxatologik makonlarni tahlil qilishda asosiy nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi. Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” (2014) asari jahon adabiyotida jannat va do‘zax ierarxiyasini matematik aniqlikda chizib bergan ilk monumental asardir. Jon Miltonning “Yo‘qotilgan Jannat” (2005) asari esa bu motivni inson irodasi va intellektual isyoni darajasiga ko‘tardi. O‘zbek adabiyotshunosligida Izzat Sulton (2005) peyzaj va makon tasvirining qahramon ruhiyatini ochib berishdagi funksiyasini keng asoslagan. Alisher Navoiy asarlaridagi jannat va do‘zaxning irfoniy talqinlari ko‘plab sharqshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Shoirning “Hayrat ul-abror” (1483) dostonidagi axloqiy-falsafiy qarashlar insonning ko‘ngil dunyosini jannat bilan qiyoslaydi. Erkin Vohidov she’riyatidagi inson qalbi tadqiqi hozirgi adabiyotshunoslikning eng diqqat markazidagi mavzularidan biri hisoblanadi. Shoirning “Inson” (1973), “O‘zbegim” (1968) va “Arslon o‘ynatuvchi” (1970) kabi asarlarida esxatologik ramzlar yangicha mazmun kasb etgan. Qozoqboy Yo‘ldoshev badiiy tahlil asoslari haqida to‘xtalib, asardagi har bir detal qahramon kechinmasiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Sharq va G‘arb adabiyoti o‘rtasidagi tipologik yaqinliklar V.M. Jirmunskiy (1940) tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Miltonning Shaytoni va uning ichki do‘zaxi haqidagi qarashlari jahon adabiy tanqidchiligida insoniy fojianing cho‘qqisi sifatida baholanadi. Navoiyning “Nafs do‘zaxi” (1483) haqidagi konsepsiyasi tasavvufiy adabiyotning o‘zagini tashkil etadi. Zamonaviy tadqiqotchilar jannat va do‘zaxni ko‘proq metaforik-ramziy ma’noda o‘rganishga moyildirlar. Erkin Vohidov ijodida (1970) inson qalbining “tadqiq qilinishi” bevosita esxatologik tushunchalar bilan parallel holda kechadi. Adabiyotshunoslikda ushbu motivlarning transformatsiyasi jamiyatdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Sultonmurod Olim Navoiy va zamonaviy she’riyat o‘rtasidagi vorisiylik aloqalarini ilmiy asoslab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada sifatli tadqiqot yondashuvi va qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Dante, Milton, Navoiy va Vohidovning reprezentativ asarlari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida matnni kuzatish, saralash va germenevtik interpretatsiya usullari qo‘llanildi. Struktur-semantik yondashuv orqali jannat va do‘zax obrazlarining badiiy matndagi ma’no qatlamlari ochib berildi. Psixologik parallelizm metodi yordamida tabiat, makon va inson ruhiyati o‘rtasidagi bog‘liqliklar tahlil qilindi. Natijalarni asoslashda nazariy manbalarning ilmiy triangulyatsiyasi ta’minlandi.

Natija va muhokamalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jannat va do‘zax motivlari adabiyotda uchta asosiy funksiyani bajaradi: ontologik, axloqiy va psixologik. Qiyosiy tahlillar Sharq va G‘arb adabiyotidagi bir qancha muhim farqlarni ochib berdi. G‘arbda makoniy-geometrik tasvirlar ustun bo‘lsa, Sharqda metaforik-ruhiy tasvirlar yetakchilik qiladi. Biroq har ikki tizimda ham ushbu motivlar insonni ezgulikka chorlashdek umumiy maqsadga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan Sharq va G‘arb modellarining o‘ziga xosligi shundaki, Dante Aligyeri ijodida

do‘zax ijtimoiy adolatning qat’iy mezoni bo‘lib, undagi jismoniy jazo turlari insonning dunyoviy gunohlariga matematik aniqlikda mutanosibdir. Jon Miltonda esa ushbu motivning psixologik transformatsiyasi kuzatiladi: uning Shaytoni uchun tashqi makonning ahamiyati yo‘q, chunki ongning o‘zi jannatni do‘zaxga yoki aksincha holatga aylantira oladi.

Ushbu g‘oyaviy yo‘nalish Alisher Navoiy va Erkin Vohidov ijodida irfoniy-axloqiy qatlamlar bilan boyitiladi. Navoiyning “nafs do‘zaxi” tushunchasi insonning o‘zligidan begonalashuvi sifatida talqin etilsa, Erkin Vohidov zamonaviy she’riyatda ushbu an’anani davom ettirib, inson ichidagi “arslon” – yovvoyi nafsni jilovlashni ma’naviy jannatga erishishning yagona yo‘li sifatida ko‘rsatadi.

1-jadval. Sharq va G‘arb adabiyotidagi farqlar

Muallif / Asar	Do‘zax Talqini	Jannat / Najot Manbai	Asosiy Yondashuv
Dante Aligyeri	9 aylanali geometrik va jismoniy jazo makoni	Adolat ierarxiyasi va ilohiy tartib	**Ontologik** (Borliq ierarxiyasi)
Jon Milton	Inson ongi va irodasining holati	Erkin iroda va intellektual quvvat	**Psixologik** (Individualizm)
Alisher Navoiy	Nafsga qul bo‘lish, ko‘ngilning nurdan mahrumligi	Ilohiy ishq, ma’rifat va Alloh diydori	**Irfoniy** (Metafizik-ruhiy)
Erkin Vohidov	Irodasizlik, hayvoniy nafs va ruhiy inqiroz	Ma’naviy hurlik va gumanistik qadriyatlar	**Gumanistik** (Axloqiy-ijtimoiy)

Qiyosiy-tipologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, G‘arb eposidagi epik ko‘lam va Sharq lirik-falsafiy tafakkuri inson irodasining erkinligi masalasida mushtarak nuqtaga ega. Har ikki adabiy tizimda ham jannat va do‘zax shunchaki oxirat manzillari emas, balki tirik inson qalbida har daqiqa sodir bo‘ladigan ma’naviy tanlov jarayonidir. Bu esa motivning xronotop doirasidan chiqib, universal psixologik vositaga aylanganini isbotlaydi.

Adabiy tasvirlash uslubidagi farqlarni quyidagi ikki qutbga ajratish mumkin:

G‘arb Modeli (Dante, Milton):

- Geometriya: do‘zax va jannat aniq chegaralangan makon sifatida (aylanalar, qatlamlar).
- Individualizm: shaxsning o‘z irodasi va aqliy tanlovi birinchi o‘rinda.
- Tasvir: vizual va jismoniy detallarga boylik.

Sharq Modeli (Navoiy, Vohidov):

- Metafora: makon emas, holat tasviri (ko‘ngil – jannat yoki do‘zax).
- Komillik: najot – nafsni yengish va ilohiy ishq orqali komillikka erishishda.
- Tasvir: ramziy-majoziy va botiniy (ichki) dunyoga yo‘naltirilganlik.

3. Motivlarning funksional bog‘liqligi

Jannat va do‘zax motivlari adabiyotda quyidagi uchta markazni birlashtiradi:

1.Axloqiy markaz: yaxshilik va yomonlikning yakuniy natijasini ko‘rsatish.

2.Psixologik markaz: insonning ichki kechinmalari, vijdon azobi yoki ruhiy xotirjamligini ifodalash.

3.Gumanistik markaz: (ayniqsa zamonaviy adabiyotda) insonni o‘z tabiatidagi “hayvoniy” va “ilohiy” qutblarni anglashga chorlash.

Garchi tasvirlash usullari turlicha bo‘lsa-da (Dantedagi geometrik aniqlikdan Navoiydagi ruhiy teranlikkacha), barcha asarlar uchun yagona umumiy nuqta mavjud:

Insonni ezgulikka chorlash va komillik sari yo‘naltirish. Dante uchun bu – adolatdan qo‘rqish bo‘lsa, Milton uchun – iroda erkinligi, Navoiy uchun – ishq va ma’rifat, Erkin Vohidov uchun esa – ma’naviy hurlikdir.

Tadqiqot natijasida motivlarning funksional taqsimoti quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

2-jadval. Motivlarning adabiy manbalardagi qiyosiy-tahliliy tavsifi

Muallif	Markaziy asar	Jannat talqini	Do‘zax talqini
Dante Aligyeri	Ilohiy komediya	Ierarxik adolat	Jismoniy jazo
Jon Milton	Yo‘qotilgan jannat	Erkin iroda	Intellektual isyon
Alisher Navoiy	Hayrat ul-abror	Ilohiy vasl	Nafs bandligi
Erkin Vohidov	Saylanma	Ma’naviy poklik	Ruhiy tanazzul

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, klassik davrdan zamonaviylikka o‘tgan sayin motivning psixologik qatlami kengayib borgan. Milton va Vohidov ijodidagi irodaviy tanlov masalasi o‘zaro hamohanglik kasb etadi. Dante va Navoiydagi ierarxik tizim esa ma’naviy darajalarni belgilashda muhim o‘rin tutadi. Har bir adib o‘z milliy mentaliteti va diniy-falsafiy qarashlaridan kelib chiqib motivni boyitgan. Muhokama davomida jannat va do‘zaxning inson ichki dunyosidagi “ko‘zgu” ekanligi yana bir bor isbotlandi. Badiiy tasvir vositalari (tashbeh, istiora) motivning emotsional ta’sirini kuchaytirgan. Tadqiqot savollariga javob berish jarayonida ushbu motivlarning universal xarakteri tasdiqlandi. Adabiyot insonni doimo ushbu ikki qutb orasida o‘zligini topishga chorlaydi. Olingan natijalar qiyosiy adabiyotshunoslikning nazariy xulosalarini to‘ldiradi. Mazkur tahlillar nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa va estetika fanlari uchun ham qiziqarlidir. Motivning badiiy evolyutsiyasi inson tafakkurining rivojlanish bosqichlarini ham ko‘rsatadi. Nihoyat, jannat va do‘zax – insoniyatning abadiy ma’naviy qidiruvlarining ramziy nuqtasidir. Tadqiqotimiz ushbu murakkab jarayonning faqat ayrim qirralarini yoritishga harakat qildi. Adabiy qahramonlarning jannat va do‘zax orqali o‘tishi aslida o‘quvchining ma’naviy yuksalishi demakdir. Sharq she’riyatidagi lirik “men” va G‘arb eposidagi epik qahramon aynan shu nuqtada birlashadi. Matnlarni germenevtik tahlil qilish orqali yangi ma’no qirralari kashf etildi. Tahlillar adabiyotning millatlararo muloqotdagi o‘rnini ko‘rsatdi. Vohidovning qarashlarida insonning “arslon” bo‘lishi – jannat sari tashlangan qadamdir. Oxir oqibat, jannat va do‘zax tushunchalari asar estetik qiymatini belgilovchi asosiy komponentlardir. Tadqiqotimiz ushbu sohadagi kelgusi izlanishlar uchun zamin yaratadi.

Xulosa. Jannat va do‘zax motivlari o‘zbek va jahon adabiyotida insonning ma’naviy tanlovini ko‘rsatuvchi eng muhim badiiy o‘lchovdir. Dante va Milton ijodida ushbu motivlar G‘arb madaniyatiga xos bo‘lgan adolat va erkin iroda tamoyillarini o‘zida mujassam etgan. Navoiy va Vohidov asarlarida esa Sharqona hikmat va inson qalbi pokligiga intilish ustuvorlik qiladi. Tahlillar natijasida aniqlandiki, har to‘rtala muallif uchun ham do‘zax – bu insonning o‘zligidan va ilohiy haqiqatdan uzoqlashishidir. Jannat esa insonning o‘z ichki dunyosida topadigan ma’naviy xotirjamligi va kamolotidir. Badiiy makon va peyzaj tasvirlari ushbu ruhiy holatlarni o‘quvchiga yetkazishda asosiy estetik qurol bo‘lib xizmat qiladi. Qiyosiy-tipologik tahlil Sharq va G‘arb adabiyoti o‘rtasidagi universal qadriyatlarning mushtarakligini tasdiqladi. Motivning tarixiy evolyutsiyasi uning doimiy dolzarbligini va insoniyat uchun ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Erkin Vohidov she’riyatidagi inson qalbi tadqiqi mumtoz an’analarning zamonaviy talqindagi cho‘qqisidir. Tadqiqot savollariga berilgan javoblar motivning psixologik va ramziy qatlamlarini ilmiy asosladi. Mazkur maqola adabiyotshunoslik fanida esxatologik obrazlarni o‘rganish bo‘yicha mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. Ilmiy xulosalar oliy ta’lim darsliklarini boyitish uchun nazariy asos bo‘la oladi. Badiiy asar – insonni o‘z ichidagi do‘zaxdan qutqarib, jannat sari yetaklovchi ma’naviy vositadir.

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fani doirasida Sharq va G‘arb esxatologik qarashlarini uyg‘unlikda o‘rganish tizimini kengaytirish lozim.

2. Erkin Vohidov asarlaridagi “Inson qalbini tadqiq etish” tamoyili asosida yoshlarda yuksak ma’naviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar yaratish tavsiya etiladi.

3. Maktab darsliklarida ushbu motivlarning faqat diniy emas, balki gumanistik va axloqiy mohiyatini ochib beruvchi tahlillarga ko‘proq o‘rin ajratish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusi tadqiqotlarda mazkur motivning zamonaviy o‘zbek nasridagi transformatsiyasini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Bakhtin, M. M. (1981). *The dialogic imagination: Four essays*. – Austin: University of Texas Press.
Dante Aligyeri. (2014). *Ilohiy komediya*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
Milton, J. (2005). *Paradise Lost*. – London: Penguin Classics.
Navoiy, A. (2011). *Hayratul-abror*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
Vohidov, E. (2016). *Saylanma*. – Toshkent: Sharq.
Yo‘ldoshev, Q. (2016). *Badiiy tahlil asoslari*. – Toshkent: Akademnashr.
Sulton, I. (2005). *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi.

Muhayyo TURSUNQULOVA,
Qarshi davlat universiteti 3-kurs talabasi

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA PAYG‘AMBARLAR SIYMOSI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Alisher Navoiyning “Badoye ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” asarlarida nomlari zikr qilingan payg‘ambarlarga e’tibor qaratilgan. Payg‘ambarlar siymosi orqali ifodalangan tasavvufiy ma’nolar, ularning vazifalari, mazmuni va ahamiyati tadqiq etilgan. Navoiy payg‘ambarlarni nafaqat diniy shaxslar, balki axloqiy, ruhiy va ma’naviy namunalar sifatida tasvirlaydi. Shu bilan birga, payg‘ambarlar Navoiy she’riyatida ishq, sabr, fidoyilik va ma’naviy barkamollik ramzi sifatida ham ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *sabr, ishq, payg‘ambar, ruh, tasavvuf, mo‘jiza, vahiy, dard*

Аннотация: в данной статье рассматриваются пророки, упомянутые в произведениях Алишера Навои, одного из великих деятелей узбекской классической литературы: «Бадое уль-бидоя», «Наводир ун-нихоя». Изучаются мистические смыслы, выраженные через образ пророков, их задачи, содержание и значение. Навои описывает пророков не только как религиозных деятелей, но и как моральные, духовные и нравственно-нравственные образцы для подражания. В то же время в поэзии Навои пророки представлены как символы любви, терпения, самоотверженности и духовного совершенства.

Ключевые слова: *терпение, любовь, пророк, дух, мистицизм, чудо, откровение, боль*

Annotation: this article focuses on the prophets mentioned in the works of Alisher Navoi, one of the great figures of Uzbek classical literature, “Badoyi ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”. The mystical meanings expressed through the image of the prophets, their tasks, content and significance are studied. Navoi describes the prophets not only as religious figures, but also as moral, spiritual and moral role models. At the same time, the prophets are also shown in Navoi's poetry as symbols of love, patience, selflessness and spiritual perfection.

Key words: *patience, love, prophet, spirit, mysticism, miracle, revelation, pain*

Ishq — bu juda chuqur, ko‘p qatlamli tushuncha bo‘lib, u nafaqat insoniy sevgi, balki ilohiy haqiqatga intilish ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Sharq mumtoz adabiyotida ishq ko‘pincha inson ruhining yuksalishi, poklanishi va kamolotga yetish yo‘li sifatida tasvirlanadi. Alisher Navoiy asarlarining asosiy mavzusi ishqdir. Navoiy bu ishqni ilohiy darajaga ko‘tarish uchun o‘z g‘azal, muxammas, qit’alarida payg‘ambarlar obrazini keltiradi. Masalan, “Xazoyin ul-maoniy” devonining tarkibiga kiruvchi devonlardan biri bo‘lgan “Badoye’ ul-bidoya” devonida uchraydigan bir g‘azalda shunday deyiladi:

Kiyik charmi zaif egnimga majnunlug‘ nishoni bas,
Junun toshi sinu qoshim uza qush oshyoni bas.
Damingni asra, ey Isoki, ranjim daf’iga har kun,
G‘izo ul oy qilichi zahmining bir qatra qoni bas.
Senu hayvon suyi, ey Xizr, tutqil tarki jonimkim,
Manga yor ollida o‘lmak hayoti jovidoni bas.
Shahu izzat saririki, agar budur jahon johi,
Manga idbor ko‘yida mazallat xokdoni bas.
G‘aniyu ko‘nglida pinhon diram fikriyu ishq o‘ti,
Mening ko‘nglumda kuydurgon necha dog‘i nihoniy bas.
Sanga kavsar suyiu lahni Dovudiyki, dayr ichra
Mug‘anniy nag‘masi birla manga jomi mug‘oniy bas.
Havodis daf’iga shoh ko‘k hisori uzra gar chiqsun,
Ki faqr ahli uchun dayri fano dorul-amoni bas.
Fig‘onkim, lutfu qahrig‘a tafovut yo‘qni ham anglab,
Fano ahliqa javrin qilmadi bu dayri foniy bas.
Navoiydek o‘lar holimda demang huri jannatni,
Sizning barcha ki bu ovoraqa bir ko‘rmak oni bas. (1,220)

Yuqoridagi g‘azalda matladan to maqtaga qadar yorga bo‘lgan go‘zal ishq tasvirlangan, ammo ishq deganda faqatgina yorga bo‘lgan ishq emas, balki Alloh taologa bo‘lgan haqiqiy ishqni ham tushunish kerak. Navoiyning deyarli barcha g‘azallarida bunday holatlar ko‘zga tashlanadi. G‘azaldagi payg‘ambarlar obraziga keladigan bo‘lsak, 2-baytda qo‘llangan Iso payg‘ambar bir nafasi bilan o‘likni tiriltira oladigan xususiyatga ega bo‘ladi, lekin baytda shoir aytadi: Meni davolashga hojat yo‘q, menga yor bergan jarohatning o‘zi kifoya.

Iso payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan avval kelgan payg‘ambardir. Bu kishi haqida Abul Hasan an-Nadviyning “Payg‘ambarlar tarixi” asarida shunday deyiladi: Alloh Iso alayhissalomga payg‘ambarlik va vahiy berdi. U zotga Injilni nozil qildi. Ruhul Quddus va ochiq-oydin mo‘jizalar berdi. U zotga hech qayerdan davo

topa olmaydigan xastalarni, tug‘ma ko‘rlarni, moxovlarni davolash imkonini berdi. Allohning izni bilan o‘liklarni tiriltirar, loydan qush yasab unga puflar va haligi loyga jon bitib qush bo‘lib uchardi. Odamlar uylarida yegan va yashirib qo‘ygan narsalari haqida xabar berardilar. Ilohiy qudrat va payg‘ambarlarning mo‘jizalariga doir Tavrotda kelgan xabarlarni tasdiqlardilar. Nafsga qul bo‘lishning to‘g‘ri emasligini aytardilar”.(3, 289)

6-baytda Alisher Navoiy jannat ne’matlari bilan ilohiy ishqni qiyoslaydi. Shoir Dovudning go‘zal ovozi va Kavsar suvini tilga olib, bular oddiy inson uchun oliy ne’mat ekanini ko‘rsatadi. Biroq oshiq uchun mayxona va “may” — ya’ni ilohiy ishq zavqi bundan ustun turadi. Demak, baytda haqiqiy oshiq jannatni emas, ishq holatini eng katta baxt deb bilishi ifodalangan. “Payg‘ambarlar tarixi” kitobida esa Dovud payg‘ambar haqida quyidagi fikrlar aytiladi: “ Alloh taolo Dovud alayhissalomga qushlarning, tog‘larning tilini tushunish imkonini berdi. U zotga sovut yasash san’atini o‘rgatdi va temirni bo‘ysundirib qo‘ydi. Har qanday temir ul zotning qo‘llarida mumday erib ketardi. Bu katta mulkka, mahoratli qo‘llarga ega bo‘lgan Dovud alayhissalom Allohdan qo‘rquvchi, tavba qiluvchi, zikr qiluvchi, duoda bardavom bo‘lgan, adolat bilan hukm yuritgan va hech kimga zulm qilmaydigan rahbar banda edilar”. (3, 265)

Ayyub alayhissalom sabr timsolidir, qancha dardga chalinsa-da Allohga isyon qilmagan. Quyida bu haqida rivoyat keltiriladi:

Ayyub alayhissalom 80 yil yashadi. 14 o‘g‘il-qiz ko‘rdi, salomatlikka va odamlarning muhabbatiga sazovor bo‘ldi. So‘ng Alloh taolo bu ne’matlarni olishni iroda qildi. Natijada Ayyub alayhissalomning farzandlari vafot etdi, o‘zi esa qattiq kasallikka chalindi. Hatto harakat qila olmaydigan darajagacha yetib bordi. Tana a’zolari birin-ketin to‘kila boshladi. Odamlar undan qochadigan bo‘ldi. Ayolidan boshqa hech kim atrofida qolmadi. Ayyub alayhissalomning bu xastaligi 18 yil davom etdi. Qanday og‘ir kunlar! Bunga kim sabr qila oladi?! Hatto ayoli barcha mol-mulkini sarfladi, payg‘ambarning uyida yeyish uchun hech narsa qolmadi! Shunda ayoli ko‘chaga chiqib, odamlarning xizmatini qila boshladi. Musibatlarning ketma-ketligini ko‘ring! Ayol to‘shakka mixlanib qolgan eriga luqma olib kelish uchun ishlayapti! Ayoli: “Allohga shifo berishini so‘rab duo qilmaysizmi?”, deganida, Ayyub alayhissalom: “Alloh menga 80 yil ne’mat berdi. Men sakkiz yil sabr qila olmasdan Unga qanday qilib duo qilaman”, dedi. Ayyub alayhissalom ayoli sochini kesib sotishga majbur bo‘lgunicha sabr qildilar. Ayolining sochini sotganini bilgach, Allohga duo qildilar. Lekin “O‘n sakkiz yil sabr qildim” yoki “Nega menga buncha balolarni yubording?” deb minnat qilmadi. Balki **“... “**(Ey, Rabbim!) **Menga musibat yetdi. O‘zing rahmlilarning rahmlirog‘idirsan”,** dedi (*Anbiyo, 83*). Duosining ijobati esa quyidagi oyat bo‘ldi: **“Bas, Biz uni** (ya’ni duosini) **ijobat qilib, undagi zahmatni ketkazdik hamda o‘z huzurimizdan mehribonlik ko‘rsatib, barcha ibodat qiluvchilarga eslatma bo‘lsin, deb** (Ayyubga) **oilasini va ular bilan qo‘shib, yana ularning barobarida ahlu avlod ato etdik»** *(Anbiyo, 84).*

Yorutmas quyosh tiyra shomim qarosin,
Ki bu shom etar tiyra aning ziyosin.
Ochar shoh o‘zi band qilg‘anni, lekin
Xalos aylay olmas birov mubtalosin.
Gar Ayyub sabr etti turli baloda,
Valek ko‘rmadi hajr shomi balosin.
Bulut bo‘ldi ohimki, ul oy ni yopqay,
Ulustin qilib tiyra ishq havosin.
Diram o‘rniga bersa anjumning toshlar,
Agar imtihon qilsang, ul on gadosin.
Qani ra’yi mundin savob, ey ko‘ngulkim,
Kishi qoyil o‘lsa, bilib o‘z xatosin. (2, 429)

“Navodir un-nihoya” devonidan olingan ushbu g‘azalning 3-baytida shunday deyiladi: Ayyubning sabri juda ulug‘ bo‘lsa-da, inson ishqidagi ayriliq, sevgidan ayrilish azobi undan ham og‘irroq va boshqacha**.** Tasavvufiy ma’noda esa bayt ishqning inson ruhiga yetkazadigan sinovini tasvirlaydi. Ayyub sabr timsoli sifatida keltiriladi, lekin haqiqiy ishq yo‘lida oshiq uchun ayriliqning og‘irligi buni ortda qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher N. Badoye’ ul-bidoya. Mukammal asarlar to‘plami. XX tomlik, 2-tom. –Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1987.689-bet

2. Alisher N. Navodir un-nihoya. Mukammal asarlar to‘plami. XX tomlik, 1-tom. –Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1987.622-bet

3. Abul Hasan an-Nadviy. Payg‘ambarlar tarixi. –Toshkent: “Credo Print Group” MCHJ nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 304-b.

Dildora ABDIMO‘MINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistranti

USMON AZIMNING “BIR QADAM YO‘L” DRAMASIDA RUHIYAT TASVIRINING USULLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Usmon Azimning “Bir qadam yo‘l” dramasidagi mohiyat va tasvir, dialog va monologlarda aks etgan psixologizmlarni yoritib berishga harakat qilingan.

Usmon Azimning faqatgina she’rlarida emas balki nasriy asarlarida ham ruhiyat tasvirining yuksak ifodasi o‘z aksini topishiga e’tibor qaratilgan. Yozuvchi aynan chol, Jo‘ra, Shokir, Qosim, Beg‘am, Eshmamatov singari personajlarning nutqi, suhbati va xatti-harakatiga ruhiyat tasvirlari ijodkor tomonidan mahorat bilan yoritilishi masalasi ushbu maqolada ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *hovli, Samarqand, yo‘l, salla, yaktak, eshik, tog‘, urush, g‘arib, non, majruh, poklik, ramz.*

Annotation: this article examines the essence and imagery, as well as the psychological nuances reflected in the dialogue and monologues, within Usmon Azim’s drama “Bir qadam yo‘l” (A One-Step Journey).

It highlights how the depiction of the inner psyche is masterfully rendered not only in Usmon Azim’s poetry but also in his prose works. The article specifically explores how the author skillfully portrays the psychological states of characters such as the Old Man, Jo‘ra, Shokir, Qosim, Beg‘am, and Eshmamatov through their speech, conversations, and actions.

Keywords: *courtyard, Samarkand, road, turban, yaktak, door, mountain, war, destitute, bread, wounded, purity, symbol.*

Аннотация: в статье рассматриваются сущность, образный строй и психологические нюансы, отраженные в диалогах и монологах драматического произведения Усмона Азима «Бир қадам йўл» («Путь в один шаг»).

Автор подчеркивает, что мастерское изображение внутреннего мира личности характерно не только для поэзии, но и для прозы Усмона Азима. Особое внимание уделяется тому, как писатель искусно раскрывает психологические состояния таких персонажей, как Старик, Джура, Шокир, Косим, Бегам и Эшмаматов, через их речь, диалоги и поступки.

Ключевые слова: *двор, Самарканд, дорога, чалма, яктак, дверь, гора, война, нищий, хлеб, раненый, чистота, символ.*

Kirish. Adabiyotning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biri inson ruhiyatini, ichki kechinmalari va yashirin tuyg‘ularini ochib berishdir. Badiiy asar qanchalik chuqur ruhiylikka ega va hayot haqiqatiga yaqin bo‘lsa, kitobxon qalbidan o‘rin egallay oladi. Ma’rifatparvar Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon mahorat tushunchasi hayotga monandlik tushunchasi bilan uyqash ekanligini ta’kidlagan. Adib adabiyotni hayotga yaqinlashtirish tarafdori, zero adabiyotning vazifasi milliy turmushning eng dolzarb muammolarini qamrab olishda deb biladi.[1] Aynan inson ruhiyati tasvirlanayotgan vaqtda kichik hayotiy detallar ham muhim. Masalan, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”ni yozish chog‘ida Marg‘ilonga borganimda, bir ko‘chadan o‘ta turib, nomozshom mahalida, dog‘ qilinayotgan zig‘iryog‘ning hidi burnimga urildi, men buni esda tutib qolishga tirishdim. “O‘tkan kunlar”ning bir joyiga shu kichkina detal kirgizilganida, berilayotgan tasvirning yana ham odam ishonarli chiqqani esimda” deya yozgani bu fikrimizga dalil bo‘la oladi[2].

O‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri, shoir, dramaturg Usmon Azim faqatgina nazmda emas, balki nasrda ham qahramon ruhiyatini mahorat bilan ifodalay olgan. Adibning “Bir qadam yo‘l” dramasi shunday asarlari sirasiga kirib, psixologik tasvir, dialog, peyzaj kabi vositalar yozuvchiga qahramonlarning murakkab ichki olamini ochishda yordam bergan. Muallifning qo‘llagan sarlavhasi, asarning hajmi kitobxonning psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatmay qo‘ymaydi. Dramaning nomi esa o‘quvchidan chuqur mushohadani talab etadi, ilk o‘qigandan o‘ziga tortadi va asar yakuniga borib sarlavhaning mazmuni oydinlashadi.

Dramada *bir qadam yo‘l* jumlasi uch o‘rinda qo‘llanilgan bo‘lib, ularning hech birida ko‘zlangan maqsadga yetishilmagan. Dastlab, chol kichik o‘g‘lining qo‘shni qiz Salima bilan bir-birida ko‘ngli borligini bilgan holda o‘g‘liga

1 Dilmurod Quronov Cho‘lpon nasri poetikasi. – T., 2004.
2 Bahodir Karimov. Ruhiyat alifbosi. – T., 2018.

yuzlanib, *“…bir tayin gapni aytsang, hoziroq Choriboy bilan to‘yning maslahatini qilib chiqaman. Choriboyning uyi, ana, bir qadam yo‘l…”* deydi, biroq asar yakuniga borib o‘g‘lining urushda mayib bo‘lib qaytganligi ma’lum bo‘ladi va hech qanaqa to‘y bo‘lmaydi. Keyingi o‘rinlarda esa 27 yildan buyon Shokirga armon bo‘lib kelayotgan tog‘ga va bosh qahramon cholning butun umrlik orzusidan armoniga aylangan Samarqandga sayohat qilishga nisbatan bu jumla ishlatilgan.

Usmon Azim drama boshidagi atrof-muhit tasviri orqali asarning keyingi voqealariga ishora qilgan. Jumladan, *Tong chog‘i. Saranjom-sarishta hovli. Dabdabali emas, lekin hamma narsa joyida ekanligidanmi, chiroyli ko‘rinadi.* 70 yoshlar atrofidagi chol bu uyda 2 o‘g‘li Jo‘ra va Qosim bilan birgalikda yashaydi. Uyning toza, narsalarning joy-joyida ekanligi bu uyda farosatli ayol istiqomat qilishidan darak beradi. Uning kelini Saodat *“Hozir xamir qormoqchimisan? Qo‘y shu xamiringni. Bir kun-ikki kun do‘kondan non olib kelib tursalaring ham bo‘ladi”* deb qaynotasi yuzlangan vaqtda *“Uyning noni boshqacha bo‘ladi, bobo. Mehmonlar kelgan. Jaydari nondan tatib ko‘rishsin”* deya bergan javobi orqali juda ham ko‘ngilchan va o‘zbek ayollariga xos barcha fazilatlarni o‘zida jamlaganligini yozuvchi kitobxonga ko‘rsatib bergan.

Tasvirdagi uyning hashamatli emasligi cholning katta o‘g‘li Jo‘raga borib taqaladi. U rais bo‘lib faoliyat yuritar ekan, unga belgilangan oylikdan ortiqcha hech qanday tushumni qabul qilmaydigan halol inson edi. Uning ruhiyati, dunyoqarashi naqadar sof ekanligi, doim aholini o‘ylashi, birovning haqqidan hazar qilishini adib: *“Men eskicha odamman. Har holda xalqqa, Vatanga xizmat qilish kerak deb o‘ylayman. Bir odamning umri esa, ochmi, to‘qmi – o‘tadi. Ko‘pchilik tirikchilik tashvishida izg‘igan hozirgi sharoitda esa, kekirib yashash… Uyat!”, “Islohotlarning manfaati bir kunmas, bir kun barchaga barobar tegadi. Mana bu yil – “inson manfaati yili” deb e’lon qilindi”, “... ammo bu odamlarni kim o‘ylaydi?”* deya ukasi Shokir bilan bo‘lgan suhbatda dialog tarzida bergan.

Asardagi Eshmamatov va Bozorboyev obrazlari esa tamomila Jo‘raning aksi edi. Ular kabi obrazlar orqali jamiyatdagi ma’naviy tanazzul ko‘rsatiladi. Bu qahramonlar tashqi jihatdan muvaffaqiyatli ko‘rinsa-da, ularning ichki dunyosi bo‘sh va ma’nosizdir. Ular moddiy manfaatni birinchi o‘ringa qo‘yib, inson qadrini unutadilar. Ulardan biri hokim, biri militsiyaning boshlig‘i bo‘lsa-da, Shokir bilan birgalikda ancha-muncha harom ishlarga qo‘l urganligini ularning suhbatidagi *“…bizning ishni do‘zaxni bo‘yniga olganlar qiladi”* jumlasidan anglash mumkin.

Asar qahramonlarining ruhiyat tasvirini ochib beruvchi unsurlardan hisoblangan muallif nutqi, monolog, dialoglarga obrazning badiiy qiyofasi, ichki dunyosi ruhiyat tasviri bilan uyg‘un holda ochib beriladi.

Usmon Azim dialoglardan ham o‘rinli foydalangan. Xususan, Eshmamatovning *“Avvalambor, bir muhim narsani ta’kidlab o‘tishni istardim. Bozor iqtisodi sari dadil borayotgan mustaqil O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshira borib, katta yutuqlarni qo‘lga kirgizmoqda. Siz kabi, Shokirjon, ishbilarmonlarning paydo bo‘lishi ham mustaqillik sharofatidan! Yurtboshimiz boshchiligidagi hukumat Vatanni gullab-yashnatish yo‘lida...”* degan gaplari uning yurt ravnaqi yo‘lida naqadar jonboz ekanligi ko‘rsatayotgandek tuyulsa-da, Shokirning *“…hech bo‘lmasa meni oldimda uyaling! Ikkalamiz qilayotgan ishlarni ona Vatan bilib qolsa, peshonamizdan otadi-ku”* degan so‘zlari kitobxon xayoliga kelgan yuqoridagi fikrlarni inkor qilgan holda, hokimning ikkiyuzlamachi shaxs ekanligini isbotlab qo‘ygan.

Asarda Shokir ko‘p o‘rinlarda Eshmamatovning aytgan gaplariga *“E, falsafaga balo bormi!”, “Eshmamatov! Aka shu payt “vich-vich”lamay turing”* deyishlari, Bozorboyevga ko‘p marotaba ustidan mazax qilib, qaltis javoblar berishi, Jo‘raga esa hokimiyatdan qo‘ng‘iroq qilib paxta terimi boshlangan pallada umuman aloqasi yo‘q insonlarni qo‘shiq tanloviga jalb etilishini talab qilishlari tasviri orqali muallif ijtimoiy tuzumning qoloq ekanligiga, mansabdor shaxslar o‘zlarining noma’qul qilmishlari natijasida obro‘sizlantirishlariga ko‘nikib qolganligiga ishora qilgan.

Dramaning boshidagi tasvirda *“…Hovlidagi daraxt tagida yog‘och karavot qo‘yilgan. Karavotda bemor uchun o‘rin to‘shalgan”* deya uydagi bemor, ya’ni cholga ishora qilinadi. Asardagi yana bir tasvir hayotiy haqiqatni o‘zida mujassamlashtirgan. Xususan, *“Eshikdan chol ko‘rinadi. Boshida salla. Boshdan oyoq oq kiyimda:Yaktagi ham oq. Qo‘lida hassa. U shu turishida, payg‘ambargami-ey, avliyogami-ey o‘xshaydi. Bozorboyev cholni ortidan hozirgina xalqni qoyil qilgan sehrgarday, ikki qo‘lini yoyib, quvonch bilan yurib kelyapti. Hamma o‘rnidan turadi… Chol birin - ketin hamma bilan qo‘l olishib, Xorijlik va Uchuvchi bilan quchoqlashib ko‘rishadi.Keyin stol atrofiga o‘tirmoqchi bo‘ladi, ammo dasturxondagi ichimliklarga ko‘zi tushgach, nariroqqa stul qo‘yishni ishora qiladi. Uchuvchi chaqqon turib ikki stulni olib, nariroqqa qo‘yadi. Biriga cholni o‘tqazib, ikkinchisiga o‘zi o‘tiradi”.* Demak, bu tasvirdagi cholning kiyinishi, uni avliyo-yu payg‘ambarga mengzash o‘zbek xalqi uchun g‘ayrioddiy hodisa emas. Haj va umra safarini ado etib kelgan mo‘ysafidlarga ko‘zimiz

tushsa, farishtali, yuzida nuri bor deyilishi xalqimizda bor udum. Otaning turli xil ichimliklar bor bo‘lgan stol atrofida o‘tirish shashtidan qaytishi esa uning tashqi tasviri – oq kiyimi, sallasi, yaktagi bilan ruhiyatining o‘zaro bog‘liqligidan dalolat beradi. Oq libos poklik ramzi, qahramonning haromdan hazar qilishi, xatto aroq bor stol yonida o‘tirishni o‘ziga ep ko‘rmasligi, uning tiynatida imon, solihlik, halollik kabi fazilatlarning mujassamligi muallif tomonidan libosi kabi kichik detalda o‘z aksini topgan.

Rasul Hamzatovning “Mening Dog‘istonim” asarida muallif Kislovodskda bir o‘zbek bilan hamroh bo‘lgan kezlari derazadan Elbursning ko‘zga yaqqol tashlanayotgan cho‘qqisi adib uchun sochi olingan va janglarda boshidan yaralanib, jarohatini bog‘lab olgan Shomilning muridini eslatgan chog‘da, bu holat o‘zbek uchun Buxorodagi oppoq soch-soqolli nuroniyni yodiga solgandi. Bu tasvir ikki millat vakilining ham qalbida yurt muhabbati borligidan dalolat beradi. Usmon Azim dramasidagi mana shu tasvir orqali asardagi ikki qahramon Beg‘am va Qosimning naqadar mahzunligini ko‘rishimiz mumkin.

Beg‘am kiyiko‘ti terish uchun tog‘ga borib kelgach, ovsini Saodatga *“Bu yerlarni yaxshi ko‘raman, opa. Kuz kirib qolibdi. Qirlar biram huvillagan. Tog‘lar nima qilarini bilmay garangsirab turganga o‘xshaydilar. Voy, opajon, tog‘lar… g‘aribga o‘xshab ko‘rinadi ko‘zimga”* deganida ovsini uning aytgan bu gaplaridan ta’sirlanib, uningcha, bular Afg‘on ukalariga naqadar o‘xshash ekanligini aytadi, *“…ikkovlaring tus o‘xshaysizlar”* deya qo‘shib qo‘yadi. Aslini olganda, ular dramadagi g‘amli umr, taqdir zarbalariga ko‘nib yashashga majbur insonlarning badiiy obrazi sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Beg‘amning ismi ham muallif tomonidan zid ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, u Shokir bilan majburan yashayotganligini *“Men sizga turmushga chiqayotganda, bir umr yig‘lashni bo‘ynimga olib chiqqanman”* jumlasi orqali anglash mumkin. Beg‘am erining yomon ishlaridan xabardor bo‘lib, turmushining boshidanoq u bilan o‘zi istab yashamagan. Qosim esa o‘zi yoqtirgan Salimaning boshqaga tegib ketishiga chidab turolmay afg‘on urushiga ketadi va uyiga sog‘-omon qaytayotgan paytda minani bosib, butun umrlik majruhga aylangan edi. Bu ikki obraz ruhiy dunyosining o‘xshashligi ularning bir xil fikrlashidan ayon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kitobxon o‘qigan asar mazmun-mohiyatini anglash jarayonida asarda chuqur ruhiy tasvirlarni uchratadi. Qosim, Chol va Salima obrazlari misolida insonning orzu, armon va ruhiy iztiroblari hayotiy, ishonchli voqealar rivoji asosida tasvirlanganligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi.

Salima va Qosim o‘rtasidagi munosabatlar asarning eng ta’sirchan qismi hisoblanadi. Ular bir-birini chin dildan sevsalar-da, taqdir ularni birlashtirmaydi, muhabbat baxt manbai emas, balki ruhiy iztirob va sinov yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi. Salimaning nidolari, Qosimning umidsiz iqrorlari inson qalbidagi og‘riqni jonli va ta’sirchan aks ettiradi. Muallif bu orqali muhabbat har doim ezgulik bilan yonma-yon baxtni ifodalamasligi, u insonni beshafqat taqdir yo‘rig‘iga solishi, ba’zan fojiaviyligi ochib beriladi.

Muallif jamiyatdagi illatlar, orzular ro‘yobi, ma’naviy qadriyatlar inqirozi, ijtimoiy muhitning inson qismati va shaxsiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekanligiga ishora etadi. Shu nuqtayi nazardan, asar nafaqat estetik qimmatga ega, balki inson ruhiyatining rangin olamini ochishga jazm qilingan, bugungi ma’naviy illatlar urchigan jamiyat va inson munosabatlarini zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasida yorqin ifodalab bergan asar sifatida ahamiyatlidir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Dilmurod Quronov Cho‘lpon nasri poetikasi. – T., 2004.
2.Bahodir Karimov. Ruhiyat alifbosi. – T., 2018.
3.Usmon Azim. Tanlangan asarlar 7-jild. – T., 2023.
4.Rasul Hamzatov. Mening Dog‘istonim. – T., 2024.
5.Usmon Azim. Bir qadam yo‘l ziyo.com kutubxonasi
6.Ashurova G. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy obrazi. Monografiya. – Toshkent: “Qamar media”, 2023. 408-б.
7.Ashurova G. Image of Navai and Artistic Interpretation in the Drama “Navai and Baykara” // International Journal on Integrated Education, 2022. Volume 5, Issue 9. P. 145 150. (№ 23; SJIF, 6.196)
8.Ashurova G. About Isajan Sulton’s Novel Alisher Navai // MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN, 2025. Volume 28. P. 99. 104. (№ 23; SJIF, 5.499)

Malika TO‘XTAYEVA,
Buxoro davlat universiteti
Adabiyotshunoslik o‘zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ERGASH OCHILOVNING “BARHAYOT SIYMOLAR” TO‘PLAMIDA SHARQ MUMTOZ SO‘Z SAN’ATI NAMOYANDALARI IJODINING ILMIY-OMMABOP TALQINI

Annotatsiya: maqolada adabiyotshunos, tarjimashunos va mumtoz adabiyot tadqiqotchisi Ergash Ochilovning “Barhayot siymolar” to‘plamida Sharq ilm-fani hamda mumtoz so‘z san’ati namoyandalarining hayoti va ijodini ilmiy-ommabop talqin etish tamoyillari tahlil qilinadi. To‘plamdagi Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Lutfiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Furqat singari siymolar haqidagi maqolalarning faktografik asoslari, badiiy-estetik tahlil usullari, qiyosiy yondashuvi va ma’rifiy ahamiyati yoritiladi. Muallifning murakkab ilmiy masalalarni keng kitobxon uchun sodda, dalilli va obrazli bayon etishi to‘plamning asosiy ilmiy-ommabop xususiyati sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *Ergash Ochilov, «Barhayot siymolar», Sharq mumtoz adabiyoti, ilmiy-ommabop talqin, adabiy portret, badiiy mahorat, tasavvuf, hikmat, g‘azal, ruboiy, adabiy aloqalar, qiyosiy tahlil.*

Аннотация: в статье анализируются принципы научно-популярной интерпретации жизни и творчества представителей восточной науки и классического словесного искусства в сборнике литературоведа и переводоведа Эргаша Очилова «Барҳаёт сиймолар». Рассматриваются фактографическая основа, историко-литературный контекст, сравнительный метод и художественно-эстетический анализ очерков о Фараби, Беруни, Ибн Сине, Омаре Хайяме, Махмуде Кашгари, Ахмаде Яссави, Юсуфе Хос Ходжибе, Низами Гянджеви, Саади, Джалалиддине Руми, Хафизе, Лутфи, Физули, Махтумкули и Фуркате. Особое внимание уделяется способности автора сочитать научную точность с ясным, образным и доступным изложением.

Ключевые слова: *Эргаш Очилов, «Барҳаёт сиймолар», восточная классическая литература, научно-популярная интерпретация, литературный портрет, художественное мастерство, суфизм, газель, рубаи, литературные связи.*

Annotation: this article examines the principles of popular-scholarly interpretation used by literary scholar and translator Ergash Ochilov in his collection Barhayot siymolar. Particular attention is paid to the biographical, historical, comparative and aesthetic treatment of major representatives of Eastern classical thought and literature, including al-Farabi, al-Biruni, Ibn Sina, Omar Khayyam, Mahmud al-Kashgari, Ahmad Yasawi, Yusuf Khass Hajib, Nizami Ganjavi, Saadi, Jalal al-Din Rumi, Hafez, Lutfi, Fuzuli, Makhtumquli and Furqat. The study argues that the collection derives its educational and scholarly value from the author’s ability to combine reliable factual material, literary analysis, intertextual comparison and an accessible narrative style.

Key words: *Ergash Ochilov, Barhayot siymolar, Eastern classical literature, popular scholarship, literary portrait, poetic mastery, Sufism, ghazal, rubai, literary relations.*

Sharq mumtoz adabiyoti bir necha asrlar davomida shakllangan ulkan ma’naviy-estetik tizim bo‘lib, unda badiiy so‘z falsafa, axloq, irfon, tarix va insonshunoslik bilan uzviy birlashadi. Bu merosni zamonaviy kitobxonga yetkazishda faqat matnni tanishtirishning o‘zi yetarli emas: tarixiy sharoitni, ijodkor shaxsiyatini, janr tabiatini, timsollar tizimini va asarning keyingi adabiy jarayonga ta’sirini bir butun holda sharhlash talab etiladi. Ergash Ochilovning 2012-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan, 424 betlik “Barhayot siymolar” to‘plami aynan shu ehtiyojga javob beradigan asarlardan biridir. Bibliografik manbalarda kitob Sharq ilm-fani va mumtoz so‘z san’atining yirik namoyandalari hayoti hamda ijodini ilmiy-ommabop usulda keng yorituvchi majmua sifatida tavsiflanadi.

To‘plamning muhim jihati shundaki, unda “siymo” tushunchasi oddiy tarjimai hol ma’nosidagina emas, balki tarixiy shaxsning ma’naviy qiyofasi, ijodiy fenomeni va madaniy xotiradagi o‘rni birligi asosida talqin etiladi. Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi qomusiy allomalar haqidagi materiallar Sharq tafakkurida ilm bilan badiiy-estetik dunyoqarash bir-biridan keskin ajralmaganini anglatadi. Umar Xayyom misolida esa olim va shoir shaxsining ikki qirrasi bir nuqtada tutashadi: ruboiydagi qisqa shakl hayot, vaqt, taqdir, inson erki va mavjudlik haqidagi murakkab savollarni nihoyatda siqiq poetik tuzilishda ifodalaydi. Ochilov bunday siymolarni talqin etishda ularni afsonalashtirishdan ko‘ra, ilmiy ma’lumot bilan badiiy meros o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatishga intiladi.

Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiyga bag‘ishlangan talqinlarda turkiy yozma madaniyatning ildizlari, til va tafakkur birligi, axloqiy-didaktik qarashlarning badiiy shaklga ko‘chishi alohida ahamiyat kasb etadi. “Devonu lug‘otit turk” faqat lug‘at emas, balki qadimgi turkiy xalqlarning til boyligi, og‘zaki ijodi, dunyoqarashi va madaniy geografiyasini mujassamlashtirgan manba sifatida anglashiladi. “Qutadg‘u bilig”dagi adolat, davlat, aql va qanoat timsollari esa shaxs kamoloti bilan jamiyat tartibi

orasidagi bog‘liqlikni ochadi. Shu tariqa muallif tarixiy yodgorlikni zamonaviy o‘quvchi uchun “muzey eksponati” emas, bugungi ma’naviy tafakkur bilan muloqotga kirisha oladigan tirik matn sifatida ko‘rsatadi.

Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniy haqidagi qarashlarda ilmiy-ommabop talqinning yana bir kuchli tomoni – tasavvufiy mazmunni tushunarli tilda sharhlashdir. Hikmat janri murakkab irfoniy tushunchalarni xalqona ohang, sodda sintaksis va axloqiy da’vat bilan uyg‘unlashtiradi. Yassaviy an’anasida nafsni tiyish, tavba, faqrlik, ishq, Haqni anglash va insoniy poklanish markaziy tushunchalarga aylanadi. Boqirg‘oniy hikmatlari ham shu ma’naviy maktabning davomiyligini ko‘rsatadi. Ochilovning yondashuvida tasavvuf faqat diniy istilohlar yig‘indisi emas; u insonning ichki tarbiyasi, ma’naviy mas’uliyati va komillikka intilishi bilan bog‘liq badiiy-falsafiy tajriba sifatida ochiladi.

Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy va Hofiz Sheroziy singari forsiyzabon mumtoz adabiyot vakillari talqinida Sharq adabiy makonining umumiyligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Nizomiy ijodida epik tafakkur, ishq va adolat konsepsiyasi; Sa’diyda hayotiy tajriba bilan hikmatning uyg‘unligi; Rumiyda ilohiy ishq va ruhiy harakat; Hofizda esa ramziy qatlam, rindona ruh va g‘azalning yuksak musiqiyligi yetakchi poetik xususiyatlardan biridir. Mazkur ijodkorlarni bir to‘plam doirasida o‘qish o‘quvchiga Sharq mumtoz adabiyotining milliy chegaralardan kengroq bo‘lgan adabiy-estetik tizim ekanini ko‘rsatadi. Bunda obraz, janr, motiv va g‘oyalarning bir adabiyotdan ikkinchisiga o‘tishi ijodiy o‘zlashtirish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘plamning ilmiy qimmatini oshiradigan jihatlardan biri – qiyosiy va intertekstual yondashuvdir. Masalan, Fuzuliy ijodiga bag‘ishlangan talqinda shoirning turkiy, forsiy va arabiy adabiy muhit bilan aloqasi, janrlar ko‘lami hamda keyingi o‘zbek adabiyotiga ta’siri faktlar va adabiy misollar orqali ko‘rsatiladi. Zamonaviy adabiy tanqidda ham Ochilovning Fuzuliy haqidagi maqolasida uning devonlari va janrlariga doir statistik ma’lumotlar keltirilgani, so‘ng Fuzuliy ta’siri o‘zbek adabiyoti vakillarigacha izchil bog‘langani qayd etilgan. Bu usul muallif uchun adabiy siymoni alohida, yopiq hodisa sifatida emas, balki davom etuvchi an’ana va ta’sirlar zanjirining faol bo‘g‘ini sifatida ko‘rish muhim ekanini bildiradi.

Lutfiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Mulla Nafas, Mirzo G‘olib va Furqat haqidagi materiallar esa turkiy, ozarbayjon, turkman, hind, musulmon va o‘zbek adabiy muhitlari o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlikni sezdiradi. Bu ijodkorlarning har biri o‘z milliy poetik an’anasiga mansub bo‘lsa-da, ishq, hijron, komil inson, adolat, ma’rifat, vatan va inson qadr-qimmati kabi mavzular ularni umumiy Sharq adabiy tafakkuriga bog‘laydi. Ayniqsa, Furqatga kelganda mumtoz poetika bilan yangilanish ehtiyoji yonma-yon ko‘rinadi. Shu jihatdan “Barhayot siymolar” faqat o‘tmishni tavsiflovchi kitob bo‘lib qolmay, mumtoz merosdan yangi davr adabiyotiga o‘tish jarayonini ham his etishga yordam beradi.

Ergash Ochilov uslubining bosh belgisi — ilmiylik va ommaboplik muvozanatidir. Ilmiylik tarixiy sana, manba, janr, asar, adabiy ta’sir va poetik xususiyatlarning dalillanishida ko‘rinsa, ommaboplik fikrning ravonligi, murakkab tushunchalarning ortiqcha terminologiyasiz tushuntirilishi hamda ijodkor shaxsini jonli tasvirlashda namoyon bo‘ladi. Ilmiy-ommabop matnning vazifasi ilmiy haqiqatni soddalashtirib yuborish emas, balki uning mantig‘ini keng kitobxon anglay oladigan shaklda ochishdir. “Barhayot siymolar”ning muvaffaqiyati ham shu nuqtada: kitobxon ma’lumot oladi, lekin quruq ensiklopedik bayon ichida qolib ketmaydi; u ijodkorning ruhiy olami, poetik qudrati va tarixiy ahamiyatini ham his qiladi.

To‘plamdagi adabiy portretlar tarbiyaviy-ma’rifiy funksiyaga ham ega. Buyuk siymolarning ilmga sadoqati, badiiy izlanishi, axloqiy qarashlari va murakkab tarixiy sharoitda yaratgan merosi bugungi avlod uchun intellektual mas’uliyat namunasidir. Biroq bu tarbiyaviylik bevosita nasihat shaklida emas, ijodkor taqdiri va asarlarining mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Shuning uchun kitob maktab o‘quvchisi, talaba, o‘qituvchi va mumtoz adabiyotga qiziquvchi keng kitobxon qatlamiga birdek foydali bo‘lishi mumkin. U o‘quvchini asl asarlarga qaytishga, g‘azal, ruboiy, hikmat, doston singari janrlarni chuqurroq o‘rganishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ergash Ochilovning “Barhayot siymolar” to‘plami Sharq mumtoz merosini zamonaviy kitobxon tafakkuriga yaqinlashtiruvchi ilmiy-ma’rifiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Unda biografik fakt, tarixiy muhit, asar tahlili, qiyosiy kuzatish va adabiy ta’sir masalalari o‘zaro uyg‘unlashgan. Muallif siymolarni faqat ulug‘lash bilan cheklanmay, ularning ijodiy o‘ziga xosligini, poetik tafakkurini va umumsharq adabiy jarayonidagi o‘rnini ochishga intiladi. Shu sababli “barhayotlik” kitob nomidagi badiiy sifatgina emas: mumtoz so‘z san’ati vakillarining g‘oyalari, obrazlari va estetik tajribasi yangi avlod o‘qishida qayta yashashi haqidagi konseptual xulosadir. To‘plamning ilmiy-ommabop qimmati ham ana shu tarixiy merosni faktga tayangan holda, lekin tirik va ta’sirchan adabiy tafakkur sifatida talqin etishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov, Ergash. Barhayot siymolar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. 424-b.

2. Termiz davlat pedagogika instituti axborot-kutubxona tizimi. “Barhayot siymolar” bibliografik tavsifi va annotatsiyasi.

3. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti elektron kutubxonasi. Ochilov E. “Barhayot siymolar” bibliografik yozuvi. ISBN: 978-9943-01-876-1.

4. “Olimu muallimu” nashridagi Ergash Ochilov ijodiga bag‘ishlangan maqola: “Barhayot siymolar”ning fakt va dalillarga boyligi, tahlillarining aniqligi va yangiligi haqidagi kuzatishlar.

5. 2025-yil 12-noyabrdagi adabiy-tanqidiy maqola: Ergash Ochilovning “Barhayot siymolar” kitobi va Fuzuliy haqidagi “Layli she’riyatning Majnun shoiri” maqolasi tahlili.

Nafisa ESHNAZAROVA,
Navoiy davlat universitetining
Tillar fakulteti Lingvistika yo‘nalishi
2-bosqich magistranti

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA TURKIY XALQLAR TILI VA ADABIYOTINING AKS ETISHI: LEKSIK-SEMANTIK, PAREMIOLOGIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL

Annotatsiya: mazkur maqolada Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy xalqlar tili, og‘zaki ijodi va madaniy tafakkurining ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarning leksikografik, dialektologik, paremiologik va lingvomadaniy imkoniyatlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi. Lug‘atda keltirilgan ayrim so‘zlar, maqol va matallar hamda she’riy parchalar asosida til birliklarining semantik xususiyatlari, xalq tajribasining paremiologik ifodasi va tilning madaniy axborotni saqlashdagi vazifasi yoritiladi. Shuningdek, asarning turkiy tillar tarixini o‘rganishdagi ahamiyati hamda uni zamonaviy tarixiy tilshunoslik va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan tadqiq etish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”, turkiy tillar tarixi, tarixiy leksikologiya, tarixiy semantika, leksik-semantik tahlil, paremiologiya, maqol va matallar, xalq og‘zaki ijodi, turkiy folklor, lingvokulturologiya, dialektologiya, tarixiy dialektologiya, etnolingvistika, lingvopoetika, badiiy tafakkur, madaniy meros, milliy dunyoqarash, til va madaniyat munosabati, XI asr turkiy yozma yodgorliklari.*

Annotation: this article examines how the language, oral traditions, and cultural worldview of Turkic peoples are represented in *Dīwān Lughāt al-Turk* (*Compendium of the Turkic Dialects*), a seminal work compiled by Mahmud al-Kashgari in the eleventh century. The lexicographic, dialectological, paremiological, and linguocultural dimensions of the work are explored in an integrated manner. Drawing on selected lexical items, proverbs, sayings, and poetic excerpts recorded in the dictionary, the article elucidates the semantic features of linguistic units, the expression of collective experience through paremiological forms, and the role of language in preserving and transmitting cultural knowledge. It also highlights the significance of *Dīwān Lughāt al-Turk* for the study of the historical development of Turkic languages and examines its potential for further research from the perspectives of modern historical linguistics and linguoculturology.

Keywords: *Mahmud al-Kashgari, Dīwān Lughāt al-Turk (Compendium of the Turkic Dialects), history of Turkic languages, historical lexicology, historical semantics, lexical-semantic analysis, paremiology, proverbs and sayings, oral folk literature, Turkic folklore, linguoculturology, dialectology, historical dialectology, ethnolinguistics, linguopoetics, artistic thought, cultural heritage, national worldview, the relationship between language and culture, eleventh-century Turkic written monuments.*

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy tilshunoslikning birlamchi manbai bo‘lsa-da, uning bugungi talqinlari asl matnga emas, ko‘chirilgan yagona va nuqsonli qo‘lyozma nusxasiga hamda bir-biridan jiddiy farq qiluvchi tarjimalarga tayanadi. Shu bois asarni tadqiq etishda matnshunoslik, leksikografik tuzilma va sheva ma’lumotlarini talqin qilish muammolari bir butun masala sifatida qo‘yilishi lozim.

Turkiy filologiyada “Devonu lug‘otit turk” haqida yaratilgan tadqiqotlarning salmog‘i katta bo‘lsa-da, ularning aksariyati asarni tayyor va barqaror matn sifatida qabul qiladi. Aslida tadqiqotchilar qo‘lidagi matn uch bosqichli vositachilik mahsulidir: muallif avtografi, qo‘lyozma avtografdan qariyb ikki asr keyin ko‘chirilgan yagona nusxa hamda shu nusxa asosidagi nashr va tarjimalar. Har bir bosqich o‘z nuqsonlarini keyingisiga o‘tkazgan. Biroq, G‘arb olimlari Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”i bilan XX asrning birinchi choragiga qadar tanish bo‘lmagan. Agar tanish bo‘lganlarida edi, uning tilshunoslikdagi xizmatlari oldida tiz cho‘kkan va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvogeografiya singari tilshunoslik yo‘nalishlarining otasi sifatida Mahmud Koshg‘ariyni e’tirof etgan bo‘lardilar[1].

Shu sababli “Devonu lug‘otit turk” ustidagi har qanday lingvistik yoki adabiyotshunoslik xulosasi, agar u matnshunoslik asosiga tayanmasa, metodologik jihatdan himoyasiz qoladi. Asarning bugungi kunga qadar yagona qo‘lyozma nusxasi ma’lum. U Istanbuldagi Millet

1 G.Norova “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Navoiy. 2023-y. 301-b.

qo‘lyozmalar kutubxonasining Ali Amiriy fondida “Arabcha, 4189-raqam” shifri ostida saqlanib kelinmoqda. Hajmi 319 varaqni tashkil etadigan ushbu asar matni ilmiy muomalaga kirgandan so‘ng bir asr ichida o‘nlab tillarga o‘girildi.

Turkiy xalqlar tarixi, tili va adabiy merosini o‘rganishda XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan arab tilida tuzilgan ushbu asar turkiy so‘zlarning ma’nosini izohlash bilan birga, ularning qo‘llanishi, turli turkiy qabila va elatlar nutqidagi farqlari, maqol-matallar, she’riy parchalar hamda xalq hayotiga oid ma’lumotlarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan asarni faqat lug‘at sifatida emas, balki o‘rta asr turkiy dunyosining til va madaniyat manzarasini aks ettiruvchi ko‘p qatlamli yozma yodgorlik sifatida o‘rganish mumkin[2].

Asarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda til materiallari madaniy va ijtimoiy kontekstdan ajratilmagan. Muallif ko‘plab so‘zlarni izohlashda misol jumlalar, maqollar va she’riy parchalarni keltiradi. Natijada lug‘aviy birliklarning ma’nosi bilan bir qatorda, ularning xalq hayotida qanday vaziyatlarda qo‘llanganini ham anglash imkoniyati yuzaga keladi. Zamonaviy tadqiqotchilar ham “Devonu lug‘otit turk”ning leksikografik materiallarini amaliy tilshunoslik va sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganish mumkinligini ta’kidlaydilar[3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, asardagi til birliklarini tarixiy-semantik, paremiologik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida tahlil qilish turkiy xalqlarning tarixiy tafakkuri, qadriyatlari va adabiy an’analarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bunda o‘rta asrlarga oid til materiallarini bugungi turkiy tillar bilan qiyoslashda tarixiy o‘zgarishlar, semantik siljishlar va janr xususiyatlarini hisobga olish zarur.

“Devonu lug‘otit turk”ning ilmiy qiymati, avvalo, unda til hodisalarining real nutq materiallari bilan izohlanishida namoyon bo‘ladi. Muallif ayrim so‘zlarni faqat arabcha muqobili bilan cheklab qo‘ymaydi, balki ularning qo‘llanishini ko‘rsatuvchi jumlalar, maqollar va she’riy parchalarni ham keltiradi. Natijada so‘zning lug‘aviy ma’nosi, kontekstdagi vazifasi va madaniy mazmuni o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Asarda turli turkiy qabila va elatlarning nutq xususiyatlari haqida ma’lumot berilishi uning dialektologik ahamiyatini ham belgilaydi. Koshg‘ariy ayrim til birliklarining qaysi guruhlarda ishlatilishini qayd etib, turkiy tillar va lahjalar o‘rtasidagi farqlarni tasvirlashga intilgan. Bu ma’lumotlar tarixiy dialektologiya uchun qimmatli bo‘lsa-da, ularni zamonaviy tasniflar bilan aynan tenglashtirishdan oldin davr, hudud va muallifning tasnif tamoyillarini hisobga olish lozim.

Asarning adabiy qimmati esa unda xalq og‘zaki ijodiga mansub maqollar, hikmatli iboralar va she’riy parchalar saqlanib qolganida ko‘rinadi. Ushbu namunalar o‘sha davr turkiy xalqlarining hayotiy tajribasi, tabiatga munosabati, axloqiy qarashlari va badiiy ifoda vositalarini o‘rganish imkonini beradi.

“Devonu lug‘otit turk” materiallarini tarixiy leksikologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish so‘z ma’nosining shakllanishi, kontekstda aniqlanishi va madaniy tajriba bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Lug‘atdagi so‘zlar kundalik turmush, tabiat, hayvonot, ijtimoiy munosabatlar va inson faoliyatiga oid tushunchalarni qamrab oladi.

Masalan, ilmiy adabiyotda asardan ağız – “og‘iz”, av – “ov”, aq – “oq” kabi birliklar keltiriladi. Ushbu birliklar sodda lug‘aviy ma’noga ega bo‘lishiga qaramay, ularning kontekstda ishlatilishi qo‘shimcha semantik xususiyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin[4].

Birinchidan, “ağız” leksemasi. Mazkur birlik inson yoki hayvonning og‘iz a’zosini bildiradi. Biroq u maqol tarkibida qo‘llanganda, bevosita tana a’zosi ma’nosidan tashqari, insonning xatti-harakati va ijtimoiy munosabatlariga oid mazmunni ham ifodalashi mumkin. Bu hodisa so‘z ma’nosining kontekst orqali kengayishi va ko‘chma ma’no hosil qilishi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, “av” leksemasi. Ushbu so‘zning “ov” ma’nosida qo‘llanishi turkiy xalqlar hayotida ovchilik faoliyatining muhim o‘rin tutganini ko‘rsatuvchi leksik dalillardan biridir. Ilmiy maqolada qayd etilgan “beg avğa çıqtı” — “bek ovga chiqdi” misoli so‘zning fe’l bilan birikib, muayyan harakatni ifodalashini ko‘rsatadi[5]. Mazkur misolni faqat lug‘aviy izoh sifatida emas, balki tarixiy nutqning sintaktik namunasi sifatida ham o‘rganish mumkin.

Uchinchidan, “aq” leksemasi. Mazkur birlik “oq” rangini bildiradi. Koshg‘ariy materiallariga tayangan tadqiqotda

2 Mahmūd al-Kāšġarī. Compendium of the Turkic Dialects (Dīwān Luγāt at-Turk). Edited and translated by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. 3 vols. – Cambridge, MA: Harvard University, Office of the University Publisher, 1982–1985.

3 Kocaoğlu, Timur. “Diwanu Lugati’t-Turk and Contemporary Linguistics.” Mater (maqola PDF shaklida tarqalgan ilmiy nashr). Maqolada Koshg‘ariy lug‘atining amaliy tilshunoslik, sotsiolingvistika va madaniy kontekst bilan aloqasi tahlil qilinadi. Elektron manba: https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/3798750

4 V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov “O‘zbek dialektologiyasi” – Toshkent. 1978. 18-b.

5 Mahmūd al-Kāšġarī. Compendium of the Turkic Dialects (Dīwān Luγāt at-Turk). Edited and translated by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. 3 vols. – Cambridge, MA: Harvard University, Office of the University Publisher, 1982–1985.

uning ot rangini ifodalash bilan bog‘liq qo‘llanishi ham qayd etilgan. “Aq at” birikmasi “oq ot” ma’nosida izohlanadi, biroq ayrim tarixiy rang nomlarining hozirgi rang tasniflari bilan to‘liq mos kelmasligi mumkin. Shu sababli rang bildiruvchi so‘zlarni tahlil qilishda tarixiy semantika va etnografik kontekstni hisobga olish zarur.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, “Devonu lug‘otit turk”dagi leksik materiallar so‘zlarning ma’nosini aniqlash bilan birga, ularning nutqdagi vazifasi va tarixiy qo‘llanish doirasini o‘rganishga ham imkon beradi. Bunda zamonaviy turkiy tillardagi muqobillar bilan qiyoslash foydali bo‘lsa-da, tarixiy birlikning ma’nosini faqat bugungi til shakliga asoslanib belgilash to‘g‘ri emas[6].

Asarning eng muhim jihatlaridan biri unda maqol va matallarning lug‘aviy izohlar bilan birga berilishidir. Bu usul tilni o‘rganuvchiga so‘zning ma’nosini anglash bilan birga, uning muayyan nutqiy vaziyatda qanday ishlatilishini ham tushunishga yordam beradi. Timur Kocaoğlu “Devonu lug‘otit turk”da so‘z izohlarini misol jumlalar, maqollar va she’riy parchalar bilan boyitish usuliga alohida e’tibor qaratadi.

“Ağız yése köz uyadur” maqoli. Kocaoğlu keltirgan ilmiy misollardan biri quyidagicha: *“Ağız yése köz uyadur.”*

Muallifning inglizcha izohida ushbu maqolning mazmuni “og‘iz yesa, ko‘z uyaladi” tarzida beriladi. U boshqa birovning hadyasini yoki ne’matini qabul qilib, buning evaziga kutilgan munosabatni ko‘rsatmagan kishining noqulay ahvolini ifodalash uchun qo‘llangan.

Maqolning semantik tuzilishida “og‘iz” va “ko‘z” kabi tana a’zolari orqali insonning ijtimoiy xulqi ifodalanadi. Birinchi komponent – “og‘iz” – ne’matni qabul qilish bilan, ikkinchi komponent – “ko‘z” – esa uyat yoki noqulaylik holati bilan bog‘lanadi. Shu tariqa maqol insonning olgan narsasi va uning ortidan yuzaga keladigan axloqiy mas’uliyati o‘rtasidagi munosabatni obrazli shaklda ifodalaydi.

Lingvomadaniy nuqtayi nazardan, ushbu maqolda o‘zaro munosabat, minnatdorlik va javob qaytarish kabi ijtimoiy-axloqiy tushunchalar mujassam. Biroq mazkur mazmunni barcha tarixiy turkiy jamoalarga bir xil darajada xos bo‘lgan umumiy qoida sifatida emas, balki manbada qayd etilgan paremiologik namuna sifatida baholash lozim.

“Ay tolun bolsa elgin imlemes” maqoli. Asarda qayd etilgan yana bir maqol ilmiy tadqiqotda quyidagicha keltiriladi: *“Ay tolun bolsa elgin imlemes.”*

Kocaoğlu ushbu namunani “Oy to‘lin bo‘lsa, unga qo‘l bilan ishora qilinmaydi” mazmunida sharhlaydi. Maqol ko‘rinib turgan, barchaga ayon bo‘lgan narsani ortiqcha ko‘rsatish yoki izohlash zarur emasligini anglatadi.

Maqolning obrazli asosini oy va inson qo‘li o‘rtasidagi qarama-qarshilik tashkil etadi. To‘lin oy o‘zining yorqinligi bilan bevosita ko‘zga tashlanadi; shu sababli unga ishora qilish ortiqcha harakat sifatida tasvirlanadi. Obrazdan kelib chiqadigan umumlashma esa ochiq-oydin holatlarni qayta-qayta ta’kidlashning hojati yo‘qligidir.

Paremiologik jihatdan ushbu misolda ikki bosqichli ma’no kuzatiladi: birinchi bosqichda oy va ishora bilan bog‘liq bevosita tasvir yuzaga keladi; ikkinchi bosqichda esa tasvir asosida umumiy hayotiy xulosa ifodalanadi. Bu xususiyat maqollarning ixcham shaklda keng mazmunni yetkazish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Har ikki misol “Devonu lug‘otit turk”da maqollarning shunchaki bezak sifatida emas, balki lug‘aviy ma’noni ochish, nutqiy vaziyatni tushuntirish va madaniy axborotni yetkazish vositasi sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi.

“Devonu lug‘otit turk” materiallari tilni jamiyatdan ajralgan hodisa sifatida emas, balki turli ijtimoiy va madaniy sharoitlarda shakllanadigan aloqa vositasi sifatida o‘rganish imkonini beradi. Asarda ayrim turkiy qabilalar va boshqa til jamoalari o‘rtasidagi aloqalar, ikki tillilik hamda turli nutq xususiyatlari haqida ma’lumotlar mavjud.

Kocaoğlu tahlilida Koshg‘ariyning ayrim qabila va hududlarda turkiy tilning boshqa tillar bilan aloqasi, shuningdek, ikki tillilik holatlarini qayd etgani ta’kidlanadi. Bunday ma’lumotlar tarixiy sotsiolingvistika uchun muhim: ular tilning faqat ichki grammatik tizimini emas, balki undan foydalanuvchi jamoalar va ularning o‘zaro munosabatlarini ham yoritadi.

Shu bilan birga, muallifning qabila va lahjalarga oid tasniflari o‘rta asr ilmiy qarashlari doirasida shakllanganini unutmaslik zarur. Tarixiy manbadagi “sof til”, “aralash nutq” yoki boshqa tavsiflarni zamonaviy tilshunoslikdagi tushunchalar bilan to‘liq tenglashtirish mumkin emas. Ularni muallifning kuzatuvlari, o‘sha davrning ijtimoiy sharoiti va tasnif mezonlari asosida tahlil qilish lozim.

Asardagi lug‘aviy birliklar va maqollar madaniy tajribaning tilda saqlanishini ham ko‘rsatadi. Masalan, ovchilikka oid so‘zlar insonning xo‘jalik faoliyatini, ot ranglarini bildiruvchi birliklar chorvachilik bilan bog‘liq tushunchalarni, maqollar esa o‘zaro munosabat va axloqiy baholash me’yorlarini o‘rganishga yordam beradi. Bunday materiallar asosida muayyan tarixiy jamoaning dunyoqarashi haqida xulosalar chiqarish mumkin, biroq

6 Türk Dil Kurumu. “Bulunuşundan Yayımlanışına Dîvânu Lugâti’t-Türk’ün Hikâyesi.” Elektron ilmiy-ma’rifiy manba. https://tdk.gov.tr/divanu-lugatit-turk/bulunusundan-yayimlanisina-divanu-lugatit-turkun-hikayesi/

bu xulosalar boshqa tarixiy va etnografik manbalar bilan qiyoslanganida yanada asosli bo‘ladi.

Bugungi tilshunoslikda tarixiy lug‘atlarni faqat so‘zlar ro‘yxati sifatida emas, balki fonetik, leksik, grammatik, pragmatik va madaniy axborot manbasi sifatida o‘rganish imkoniyatlari kengaymoqda. “Devonu lug‘otit turk” ham bir necha ilmiy yo‘nalishda tadqiq etilishi mumkin.

Birinchi yo‘nalish – tarixiy leksikologiya va semantika. Bunda asardagi so‘zlarning XI asrdagi ma’nosi, qo‘llanish doirasi, semantik guruhlari va keyingi turkiy tillardagi muqobillari o‘rganiladi. So‘zlarning tarixiy shakllari va bugungi ko‘rinishlarini qiyoslashda muntazam tovush o‘zgarishlari hamda ma’no taraqqiyotini hisobga olish kerak.

Ikkinchi yo‘nalish – paremiologiya. Maqol va matallarni mavzu, semantik tuzilish, obrazlilik, pragmatik vazifa va tarbiyaviy mazmuniga ko‘ra guruhlash mumkin. Masalan, insoniy munosabatlar, mehnat, tabiat, vaqt, bilim va axloq bilan bog‘liq namunalarni alohida tahlil qilish asardagi xalqona tafakkur shakllarini tizimli o‘rganishga yordam beradi.

Uchinchi yo‘nalish – lingvokulturologiya. Ushbu yondashuvda so‘z va iboralarda saqlangan madaniy ma’no, ramziy obrazlar hamda jamoaviy tajriba o‘rganiladi. “Ağız yése köz uyadur” maqolida tana a’zolari orqali ijtimoiy munosabatning ifodalanishi yoki to‘lin oy haqidagi maqolda ko‘rinib turgan haqiqat obrazining yaratilishi bunga misol bo‘la oladi.

To‘rtinchi yo‘nalish – tarixiy dialektologiya va sotsiolingvistika. Asarda qayd etilgan qabila nomlari, hududiy farqlar va til aloqalari tarixiy lingvistik xaritalash, til kontaktlari hamda ko‘p tillilik masalalarini o‘rganish uchun material beradi.

Beshinchi yo‘nalish – matnshunoslik va raqamli gumanitar tadqiqotlar. Asarning turli nashrlaridagi matnlarni qiyoslash, transkripsiya variantlarini aniqlash, lug‘aviy birliklarni elektron korpusda belgilash va ularning semantik guruhlarini raqamli tahlil qilish kelgusidagi tadqiqotlar uchun samarali yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Mazkur yondashuvlarning uyg‘unligi “Devonu lug‘otit turk”ni tarixiy lug‘at, adabiy yodgorlik va madaniy xotira manbasi sifatida kompleks o‘rganishga imkon beradi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlarning XI asrdagi tili, adabiy an’analari va madaniy hayotini o‘rganishda muhim yozma manba hisoblanadi. Uning ilmiy ahamiyati lug‘aviy birliklarni qayd etish bilangina cheklanmaydi: asarda so‘zlarning qo‘llanishi misollar bilan izohlangan, maqol va matallar orqali xalq tajribasi ifodalangan, she’riy parchalar orqali esa badiiy tafakkur namunalari saqlab qolingan.

Leksik-semantik tahlil so‘zlarning ma’nosi va tarixiy qo‘llanish xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Paremiologik tahlil maqollarning obrazli tuzilishi, axloqiy mazmuni va nutqiy vazifasini aniqlaydi. Lingvomadaniy yondashuv esa til birliklarida mujassam bo‘lgan tarixiy tajriba va ijtimoiy tasavvurlarni yoritadi.

Shunday qilib, “Devonu lug‘otit turk”ni leksikografik, tarixiy-lingvistik, paremiologik va lingvomadaniy jihatlarning o‘zaro bog‘liqligida tadqiq etish turkiy tillar tarixi hamda turkiy xalqlar adabiy merosini chuqurroq anglash uchun muhim ilmiy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G.Norova “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Navoiy. 2023-y. 301-b.

2.Mahmūd al-Kāšġarī. Compendium of the Turkic Dialects (Dīwān Luγāt at-Turk). Edited and translated by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. 3 vols. – Cambridge, MA: Harvard University, Office of the University Publisher, 1982–1985.

3.Kocaoğlu, Timur. “Diwanu Lugati’t-Turk and Contemporary Linguistics.” Mater (maqola PDF shaklida tarqalgan ilmiy nashr). Maqolada Koshg‘ariy lug‘atining amaliy tilshunoslik, sotsiolingvistika va madaniy kontekst bilan aloqasi tahlil qilinadi. Elektron manba: https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/3798750

4.V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov “O‘zbek dialektologiyasi” – Toshkent. 1978.18-b.

5.Mahmūd al-Kāšġarī. Compendium of the Turkic Dialects (Dīwān Luγāt at-Turk). Edited and translated by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. 3 vols. – Cambridge, MA: Harvard University, Office of the University Publisher, 1982–1985.

6.Türk Dil Kurumu. “Bulunuşundan Yayımlanışına Dîvânu Lugâti’t-Türk’ün Hikâyesi.” Elektron ilmiy-ma’rifiy manba. https://tdk.gov.tr/divanu-lugatit-turk/bulunusundan-yayimlanisina-divanu-lugatit-turkun-hikayesi/

Gulnoza ERNAZAROVA,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti
e-mail: gulnozaernazarova91@gmail.com

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TERMINOLOGIK TIZIMIDA XUSUSIY BIRIKUVCHI BIRIKMALARNING MAQOMI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)

Annotatsiya: maqolada axborot texnologiyalari (AT) terminologik tizimida qo‘llanuvchi xususiy birikuvchi birikmalarning (restricted collocations) lingvistik maqomi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — mazkur birliklarni erkin so‘z birikmalari, terminologik kollokatsiyalar va ko‘p komponentli terminlardan farqlash mezonlarini aniqlash, ularning strukturaviy-semantik modellarini belgilash hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobilligini ko‘rsatishdan iborat. Material sifatida ingliz tilidagi AT sohasiga oid 120 ta ko‘p komponentli terminologik birlik tanlab olindi; tavsifiy, strukturaviy-semantik, komponent, qiyosiy va korpus tahlili metodlari qo‘llanildi. Natijada to‘rtta strukturaviy model va olti turdagi semantik munosabat aniqlandi hamda xususiy birikuvchi birikmalarni ajratishning yettita mezoni asoslandi.

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, terminologik tizim, xususiy birikuvchi birikma, kollokatsiya, terminologik kollokatsiya, ko‘p komponentli termin, baza, kollokat, leksik cheklanganlik, korpus lingvistikasi.*

Annotation: the article analyses the linguistic status of restricted collocations used in the terminological system of information technology (IT). The aim of the study is to establish the criteria that distinguish such units from free word combinations, terminological collocations and polylexical terms, to determine their structural and semantic models, and to show their correspondences in English and Uzbek. The material comprises 120 multi-word terminological units of the English IT domain; descriptive, structural-semantic, componential, comparative and corpus-based methods were applied. Four structural models and six types of semantic relations were identified, and seven criteria for distinguishing restricted collocations were substantiated.

Key words: *information technology, terminological system, restricted collocation, collocation, terminological collocation, polylexical term, base, collocate, lexical restriction, corpus linguistics.*

Аннотация: в статье анализируется лингвистический статус ограниченных (несвободных) словосочетаний, функционирующих в терминологической системе информационных технологий (ИТ). Цель исследования — определить критерии их разграничения со свободными словосочетаниями, терминологическими коллокациями и составными терминами, выявить структурно-семантические модели и показать их соответствия в английском и узбекском языках. Материалом послужили 120 многокомпонентных терминологических единиц английского языка; применялись описательный, структурно-семантический, компонентный, сопоставительный и корпусный методы. Выделены четыре структурные модели и шесть типов семантических отношений, обоснованы семь критериев выделения ограниченных словосочетаний.

Ключевые слова: *информационные технологии, терминологическая система, ограниченное словосочетание, коллокация, терминологическая коллокация, составной термин, база, коллокат, лексическая ограниченность, корпусная лингвистика.*

Kirish. XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot va ishlab chiqarishda yangi tushunchalar hamda ularni ifodalovchi terminologik birliklarning shakllanishiga olib keldi. Axborot texnologiyalari terminologiyasi terminlarning tez paydo bo‘lishi, xalqaro miqyosda tarqalishi va milliy tillarga o‘zlashuvining faolligi bilan boshqa maxsus leksik qatlamlardan ajralib turadi.

AT terminologiyasini o‘rganishda yakka leksemalarni tadqiq qilishning o‘zi yetarli emas: bu sohada terminlarning salmoqli qismi ikki yoki undan ortiq komponent birikuvi asosida shakllanadi (operating system, information security, data processing, machine learning, cloud computing). Bunday birliklar barqaror sintagmatik munosabat mahsuli bo‘lib, komponentlarning erkin almashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Jahon tilshunosligida so‘zlarning birikuv imkoniyati uzoq vaqt sintaksis va leksikologiyaning kesishgan nuqtasidagi masala sifatida qaralgan. “Kollokatsiya” tushunchasining lingvistik termin sifatida shakllanishi J. R. Firth nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u so‘z ma’nosini uning boshqa so‘zlar bilan qo‘llanishidan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlagan va “meaning by collocation” tamoyilini ilgari surgan [1]. M. A. K. Halliday kollokatsiyani leksik birliklarning sintagmatik assotsiatsiyasi sifatida miqdoriy jihatdan ta’riflagan [2], J. Sinclair esa uni korpus ma’lumotlari asosida o‘rganish metodologiyasini ishlab chiqqan [3]. F. J. Hausmann birikma komponentlari o‘rtasidagi munosabatni “baza — kollokat” tushunchalari orqali izohlagan [4], I. Mel’čuk leksik funksiyalar apparatini taklif qilgan [5], E. Aisenstadt esa xususiy (cheklangan) kollokatsiyalar masalasini alohida tadqiq etgan [6].

So‘nggi yillarda terminologik kollokatsiyalarning maqomi alohida muhokama obyektiga aylandi: I. O. Onal ularni termin hosil qiluvchi va termin tarkibli turlarga ajratadi [7], R. Costa va

hamkasblari esa ko‘p komponentli termin bilan terminologik kollokatsiya farqi konseptual ekanini ta’kidlaydi [8]. O‘zbek tilshunosligida bunday birliklar “xususiy birikuvchili birikmalar” nomi bilan o‘rganilib, A. Madaminov ularning tor valentlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [9].

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi umumiy leksik kollokatsiyalar, frazeologiya va chet tilini o‘qitish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, xususiy birikuvchi birikmalarning aynan AT terminologik tizimidagi maqomi ingliz va o‘zbek tillari qiyosida kompleks tarzda o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotning ilmiy muammosi ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Tadqiqot maqsadi — AT terminologik tizimida xususiy birikuvchi birikmalarning maqomini aniqlash, ularning strukturaviy-semantik modellarini belgilash va ajratish mezonlarini asoslashdan iborat.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi AT sohasiga oid ilmiy-texnik matnlar, o‘quv qo‘llanmalar, dasturiy mahsulot hujjatlari va terminologik lug‘atlardan tanlab olingan 120 ta ko‘p komponentli terminologik birlik xizmat qildi. Birliklar sakkizta tematik guruh bo‘yicha taqsimlandi: umumiy tushunchalar, apparat ta’minot, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar va ma’lumotlar bazasi, tarmoq va aloqa, internet va veb, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi.

Tahlil quyidagi metodlar asosida olib borildi: tavsifiy metod — birliklarning umumiy xususiyatlarini bayon etish uchun; strukturaviy-semantik tahlil — komponentlarning grammatik modeli va o‘zaro ma’noviy munosabatini aniqlash uchun; komponent tahlili — birikma ma’nosining semalar bo‘yicha tarkibini belgilash uchun; qiyosiy metod — ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobil birliklarni solishtirish uchun; korpus tahlili — birikmaning chastotasi, kontekstual tarqalishi va komponentlar almashtirilishining darajasini tekshirish uchun.

Korpus tahlilida birikmaning takroriyligi, assotsiativ bog‘liqlik ko‘rsatkichlari (chastota, MI, t-score) va komponentlarning boshqa leksemalar bilan birika olish qobiliyati hisobga olindi [10]. Tahlil olti bosqichda olib borildi: materialni to‘plash va tematik guruhlash; strukturaviy model bo‘yicha tasniflash; semantik munosabat turini aniqlash; komponentlar almashtirilishini tekshirish; o‘zbek tilidagi muqobilini qiyoslash; natijalarni umumlashtirish. Birlik kamida to‘rtta mezonga javob bergandagina xususiy birikuvchi birikma deb kvalifikatsiyalandi.

Natijalar. **Strukturaviy modellar.** Tahlil natijasida AT terminologiyasidagi xususiy birikuvchi birikmalarning to‘rtta asosiy strukturaviy modeli ajratildi (1-jadval). Birinchi ikki model eng mahsuldor bo‘lib, tanlangan materialning asosiy qismini tashkil etdi; uch komponentli birliklar esa amaliyotda ko‘pincha qisqartmaga aylanadi (CPU, RAM, LAN, NLP, LLM).

Model	Ingliz tilidagi misollar	O‘zbekcha muqobili
sifat + ot	artificial intelligence, virtual reality, digital content, information security	sun’iy intellekt, virtual voqelik, raqamli kontent, axborot xavfsizligi
ot + ot	data processing, software development, database management, network security	ma’lumotlarni qayta ishlash, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, ma’lumotlar bazasini boshqarish, tarmoq xavfsizligi
sifat + ot + ot	central processing unit, random access memory, local area network	markaziy protsessor, tezkor xotira, lokal tarmoq
fe’l + ot	process data, store information, encrypt data, deploy an application	ma’lumotlarni qayta ishlash, axborotni saqlash, ma’lumotlarni shifrlash, ilovani joriy etish

1-jadval. AT terminologiyasidagi xususiy birikuvchi birikmalarning strukturaviy modellari

Semantik munosabatlar. Birikma komponentlari o‘rtasida olti turdagi semantik munosabat aniqlandi (2-jadval). Bu munosabatlar birikma ma’nosining komponentlar ma’nolari yig‘indisidan farq qilish darajasini ko‘rsatadi.

Semantik munosabat	Inglizcha misol	O‘zbekcha muqobili
obyekt + jarayon	data processing	ma’lumotlarni qayta ishlash
obyekt + boshqaruv	database management	ma’lumotlar bazasini boshqarish
tizim + xavfsizlik	network security	tarmoq xavfsizligi
mahsulot + ishlab chiqish	software development	dasturiy ta’minotni ishlab chiqish
vosita + jarayon	machine learning	mashinali o‘rganish
muhit + hisoblash	cloud computing	bulutli hisoblash

2-jadval. Komponentlar o‘rtasidagi semantik munosabat turlari

“Baza — kollokat” munosabati. Hausmann modeli asosidagi tahlil komponentlarning kollokatsion salohiyati bir xil emasligini ko‘rsatdi: data komponenti keng birikuv salohiyatiga ega (data processing, data mining, data storage, data security), artificial intelligence yoki cloud computing kabi birliklarda esa komponentlar standartlashgan va almashtirilmaydi (*synthetic intelligence, *fog computing shakllari me’yoriy emas). Demak, birikmaning kollokatsion kuchi va substitutsiya darajasi ham hisobga olinishi lozim.

Ajratish mezonlari. Tadqiqot natijasida AT terminologiyasidagi xususiy birikuvchi birikmalarning yettita belgisi aniqlandi: 1)

sohaviylik — birikmaning muayyan soha diskursiga tegishliligi; 2) strukturaviy barqarorlik — komponentlar tartibining o‘zgarmasligi; 3) leksik tanlanish — komponentlardan birining cheklangan doiradagi so‘zlar bilan birikishi; 4) semantik yaxlitlik — birikma ma’nosining komponentlar ma’nolari yig‘indisidan kengroq bo‘lishi; 5) komponentlarning cheklangan almashtirilishi — sinonim bilan almashtirishning imkonsizligi; 6) terminologik funksionallik — birikmaning maxsus tushunchani ifodalashi; 7) korpusdagi takroriylik — birikmaning statistik jihatdan barqaror qo‘llanishi.

Qiyosiy jihat. Ingliz tilidagi ot + ot modelidagi birliklar o‘zbek tiliga ko‘pincha ot + harakat nomi shaklida o‘tadi: data processing — ma’lumotlarni qayta ishlash; database management — ma’lumotlar bazasini boshqarish. Ayrim hollarda struktura saqlanadi (network security — tarmoq xavfsizligi), ayrimlarida esa komponentlar o‘zlashma holida qoladi (server, internet, blog).

Muhokama. Olingan natijalar terminologik kollokatsiya va xususiy birikuvchi birikma tushunchalarini qat’iy chegaralash zarurligini ko‘rsatadi. Terminologik kollokatsiya kengroq tushuncha bo‘lib, muayyan sohaga oid terminlarning professional diskursda muntazam birikishini ifodalaydi. Xususiy birikuvchi birikma esa komponentlardan kamida birining birikuv imkoniyati leksik jihatdan cheklangan birlikdir. Shu bois barcha terminologik birikmalarni avtomatik ravishda xususiy birikuvchi birikma deb hisoblash metodologik jihatdan asossizdir: computer system birikmasi terminologik ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uning komponentlari erkinroq birikadi (computer network, computer program, computer technology, computer security).

Shundan kelib chiqib quyidagi iyerarxiyani taklif qilish mumkin: erkin birikuvlar → kollokatsiyalar → terminologik kollokatsiyalar → xususiy birikuvchi terminologik birikmalar → ko‘p komponentli terminlar. Bu iyerarxiya R. Costa va hamkasblarining konseptual mezoni bilan uyg‘unlashadi: bog‘liqlik mustahkamlanib, birikma tushunchani atay boshlasa, u ko‘p komponentli termin maqomiga o‘tadi [8].

Natijalar korpusga asoslangan yondashuvni tasdiqlaydi: birlikning xususiy birikuvga egaligini real matnlardagi takroriy qo‘llanishi orqali asoslash lozim [3; 4]. Shuningdek, AT terminologiyasidagi birikmalar tor valentlikka ega leksemalar ishtirokida hosil bo‘lishi aniqlandi, bu A. Madaminov xulosalarini maxsus soha materialida tasdiqlaydi [6; 9].

Natijalar AT terminologiyasini yakka terminlar majmuyi emas, balki sintagmatik munosabatlarga kirishuvchi tizim sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusi tadqiqotlarda AT sohasiga oid maxsus korpus yaratish va birikmalarni avtomatik ajratish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Xulosa. Jahon tilshunosligida xususiy birikuvchi birikmalarni o‘rganish kollokatsiya nazariyasining shakllanishi bilan uzviy bog‘liq: Firth nazariy asos yaratgan, Halliday va Sinclair uni korpus tahlili bilan boyitgan, Hausmann “baza — kollokat” munosabatini asoslagan, Aisenstadt esa xususiy kollokatsiyalarni leksikologiya nuqtayi nazaridan tavsiflagan.

AT terminologik tizimida xususiy birikuvchi birikmalar erkin birikma bilan ko‘p komponentli termin orasidagi oraliq maqomga ega. Tadqiqot natijasida to‘rtta strukturaviy model va olti turdagi semantik munosabat aniqlandi hamda bunday birliklarni ajratishning yetti mezoni asoslandi. Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili ingliz tilidagi ot + ot modelidagi birliklar o‘zbek tilida ko‘pincha ot + harakat nomi konstruksiyasi orqali ifodalanishini ko‘rsatdi. Mazkur mezonlar AT terminologiyasini tizimli tavsiflash, terminologik lug‘atlar yaratish va tarjima amaliyotini takomillashtirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Firth J. R. Papers in Linguistics 1934–1951. – London: Oxford University Press, 1957. – 233 p.
2. Halliday M. A. K. Lexis as a Linguistic Level // In Memory of J. R. Firth. – London: Longman, 1966. – P. 148–162.
3. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 179 p.
4. Hausmann F. J. Le dictionnaire de collocations // Wörterbücher. Dictionaries. Dictionnaires. – Berlin; New York: Walter de Gruyter, 1989. – P. 1010–1019.
5. Mel’čuk I. Collocations and Lexical Functions // Phraseology: Theory, Analysis and Applications / ed. by A. P. Cowie. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 23–53.
6. Aisenstadt E. Restricted Collocations in English Lexicology and Lexicography // ITL Review of Applied Linguistics. 1981. – Vol. 53. – P. 53–61.
7. Онал И. О. Терминологические коллокации как объект изучения // Научный диалог. 2019. – № 1. – С. 73–87.
8. Costa R., Ramos M., Canelas M., Mouro A. Exploring Terminological Collocations in Biomedical Texts // MDTT 2025. – Thessaloniki: CEUR-WS, 2025. – 7 p.
9. Madaminov A. Xususiy birikuvchi so‘z birikmalari va ularning nutqiy voqelanishi // Filologiya va pedagogika. 2025. – № 12 (16). – B. 6–7.
10. Stefanowitsch A. Corpus Linguistics: A Guide to the Methodology. – Berlin: Language Science Press, 2020. – 510 p.
11. Xudayqulov A. E., Norbo‘tayeva M. Ch. Ingliz va o‘zbek tillari axborot texnologiyalari sohasi terminologiyasining chog‘ishtirma tadqiqi // Yangi izlanuvchi. 2026. – Vol. 11, iss. 2. – B. 2459–2462.
12. Abdulboqiyeva O. A. Terminlarni tartibga solish masalasi (axborot texnologiya terminlari misolida) // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. DOI: 10.5281/zenodo.13639090.

Marjona O‘LJABOYEVA,
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
II bosqich magistranti
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v/b.,
f.f.d. N.S.G‘ulomova taqrizi ostida



FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARKIBIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklar til tizimida shakllangan struktur-semantik konstruksiyalar sifatida tadqiq etiladi. Ularning barqaror tarkibi, semantik yaxlitligi va komponentlararo munosabatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik ma’noning shakllanishida metaforik va metonimik ko‘chishlarning o‘rni, birliklarning stilistik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari yoritiladi. Frazeologizmlarning milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, struktur-semantik model, barqarorlik, frazeologik ma’no, kognitiv mexanizm, lingvomadaniy qatlam, metaforizatsiya*.

Аннотация: в статье фразеологические единицы рассматриваются как устойчивые структурно-семантические образования. Анализируются их структурная стабильность, семантическая целостность и функциональные связи компонентов. Особое внимание уделяется роли когнитивных механизмов, метафорических и метонимических переносов в формировании фразеологического значения. Также раскрываются стилистические, прагматические и лингвокультурные особенности фразеологизмов и их связь с национальным мышлением и культурными ценностями.

Ключевые слова: *фразеологическая единица, структурно-семантическая модель, устойчивость, фразеологическое значение, когнитивный механизм, лингвокультурный компонент, метафоризация.*

Annotation: the article examines phraseological units as stable structural-semantic formations within the language system. It analyzes their structural stability, semantic integrity, and functional component relations. Particular attention is given to cognitive mechanisms, especially metaphorical and metonymic transfers, in shaping phraseological meaning. The study also highlights their stylistic, pragmatic, and linguocultural features and their connection with national mentality and cultural values.

Key words: *phraseological unit, structural-semantic model, stability, phraseological meaning, cognitive mechanism, linguocultural component, metaphorization.*

Kirish. Tilning frazeologik tarkibi xalq tafakkuri, mentaliteti, tarixiy-madaniy tajribasi va qadriyatlarining badiiy ifodasidir. Frazeologizmlar ko‘p asrlik hayot tajribasi va ijtimoiy-madaniy meros bilan bog‘liq bo‘lib, tilning muhim leksik qatlamini tashkil etadi. Ular barqaror struktura, ko‘chma ma’no, obrazlilik va madaniy mazmunni mujassamlashtirgan til-tafakkur-madaniyat birligidir. Frazeologik birliklar o‘zbek tilshunosligida mustaqil leksik-semantik qatlam sifatida qaraladi. Ularning asosiy belgisi tarkibiy barqarorlik va semantik yaxlitlikdir. Komponentlarning o‘rnini almashtirish yoki sinonim bilan almashtirish odatda, frazeologizm ma’nosining buzilishiga olib keladi. Masalan, “bosh qotirmoq” iborasini “miya qotirmoq” tarzida qo‘llash me’yoriy hisoblanmaydi. Frazeologik birliklar kamida ikki komponentdan tashkil topib, nutqda tayyor holda qo‘llanadi va gapda muayyan sintaktik vazifani bajaradi. Ular fe’lli, otli, sifatli va ravishli modellarda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan frazeologizmlar erkin so‘z birikmalaridan tarkibiy barqarorligi, semantik yaxlitligi va qolipliligi bilan farqlanadi. Navoiy ijodida ham turg‘un birikmalarning keng qo‘llanishi shoirning so‘z imkoniyatlaridan yuksak mahorat bilan foydalanganini ko‘rsatadi [8:162].

1-jadval. Frazeologizmlarning semantik jihati.

Frazeologik model	Frazeologik birlik	Lug‘aviy ma’nosi	Frazeologik ma’nosi	Funksiyasi
Fe’lli	Bosh qotirmoq	Boshni qotirish	Chuqur o‘ylamoq	Harakatni ifodalash
Fe’lli	Ko‘z yumdi	Ko‘zni yopmoq	Vafot etdi, e’tibor bermadi	Holatni ifodalash
Otli	Ko‘ngil ko‘zi	Ichki ko‘z	Ichki sezgi, fahm	Abstrakt tushuncha
Sifatli	Yuragi tosh	Yuragi qattiq	Mehrsiz, sovuq	Sifatlash, belgilash
Sifatli	Ko‘ngli oq	Rang jihati	Pok niyatli	Axloqiy baho
Ravishli	Ko‘z ochib yumguncha	Juda tez	Bir lahzada	Harakat tezligi

Frazeologik birliklarni mustaqil lingvistik hodisa sifatida o‘rganish XX asr boshlarida E.D. Polivanov tomonidan ilmiy asoslangan. U frazeologizmlarning til tizimida o‘ziga xos strukturaviy va semantik qatlamga ega ekanini ta’kidlab, ularni boshqa til birliklaridan farqlovchi jihatlar — komponentlararo barqaror bog‘liqlik, qat’iy tartib va semantik yaxlitlikni ko‘rsatgan [1:45]. Keyinchalik A.I. Smirnitskiy frazeologizmlarning sintaktik funksiyasini, A.V. Kunin esa ularning stilistik xususiyatlari va pragmatik imkoniyatlarini tadqiq etgan [2:112; 3:89]. Frazeologik ma’no komponentlarning oddiy yig‘indisidan emas, balki birlikning yaxlit semantik mazmunidan shakllanadi. U odatda, asosiy frazeologik ma’no va qo‘shimcha ma’no bo‘yoqlaridan tashkil topadi. Frazeologizmlarning muhim xususiyati obrazlilik, emotsional-ekspressivlik va baholovchanlikdir. Shu jihatdan ular oddiy leksik birliklardan farqlanib, nutqda o‘ziga xos badiiy va pragmatik vazifa bajaradi. Frazeologik birliklarning semantik tuzilishida stilistik komponent ham muhim o‘rin egallaydi. S.K. Bashiyeva uni frazeologik ma’noning mustaqil qatlami sifatida baholab, uning kommunikativ niyat va pragmatik mazmunni ifodalashdagi rolini ta’kidlaydi [5:14]. A.V. Kunin esa frazeologizmlarni neytral, so‘zlashuv, kitobiy va ekspressiv qatlamlarga ajratib, ularning stilistik ranglanishini kontekst va qo‘llanish xususiyatlari bilan bog‘laydi [6:15]. Frazeologik birliklarning semantik murakkabligi ularning obrazli va ta’sirchan ifoda imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, “boshimni osmonga yetkazdi”, “qildan qiyiq topib janjal chiqarardi”, “qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarib qo‘ydi” kabi iboralar muayyan holat, harakat yoki belgini obrazli tarzda ifodalab, frazeologik semantikaning boyligini ko‘rsatadi [7:60]. Shunday qilib, frazeologik ma’noning semantik va stilistik komponentlari birliklarning emotsional-ekspressiv, baholovchi va pragmatik imkoniyatlarini belgilaydi.

Frazeologik birliklar ma’no jihatdan frazeologik butunlik, chatishma va qo‘shilmalarga ajratiladi. Ularning semantik tuzilmasi denotativ, konnotativ va stilistik komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Masalan, “ko‘ngli qora” iborasi insonning salbiy ruhiy holatini ifodalab, bir vaqtning o‘zida emotsional va baholovchi mazmunni ham anglatadi. Frazeologizmlar milliy madaniyat, xalq tafakkuri, axloqiy qadriyatlar va mental stereotiplarni aks ettiradi. Ular nutqning kommunikativ ta’sirchanligini oshirib, emotsional va baholovchi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlar nafaqat holatni nomlaydi, balki unga nisbatan munosabatni ham bildiradi. Masalan, “ta’bi xira bo‘lmoq” iborasi vaqtinchalik salbiy ruhiy holatni bilvosita va yumshatilgan tarzda ifodalaydi [8:29]. Undagi “xira” komponenti ruhiy holatning susayishini bildiradi. Kognitiv jihatdan mazkur ibora ruhiy holatni vizual “xiralashish” obrazi orqali konseptuallashtiradi. Shu sababli u o‘zbek nutqida emotsiyani bevosita emas, balki madaniy jihatdan maqbul va bilvosita ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Frazeologik birliklar, ularning ma’nosi va lingvomadaniy jihatlarini quyidagi jadval asosida ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval. Frazeologik birliklar, ularning ma’nosi va lingvomadaniy jihatlari.

Frazeologik birlik	Frazeologik ma’nosi	Lingvomadaniy jihati
Ko‘ngli qora	Hasad, yomon niyat bilan harakat qiladigan inson	Salbiy baho uyg‘otadi
Yuragi tosh	Mehrsiz, sovuq, hissiyotsiz inson	Axloqiy baho berish va milliy madaniyat konteksti orqali xarakterni ifodalaydi
Jon-jahdi bilan	Barcha imkoniyatlarini ishga solib, kuch bilan harakat qiladigan	Milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik va fidoyilikni ko‘rsatadi

O‘zbek tilida salbiy baholashni ifodalovchi “ko‘ngli qora” [7:283] frazeologizmi shaxsning ruhiy va axloqiy xususiyatlarini obrazli ifodalaydi. Uning semantik asosida metaforik tafakkur yotib, “ko‘ngil” ichki olamni, “qora” esa salbiylik, adovat va axloqiy nuqsonni anglatadi. Shu asosda birlik yaxlit baholovchi ma’no kasb etadi. Mazkur frazeologizmda konnotativ, emotsional-ekspressiv va baholovchi komponentlar ustun bo‘lib, shaxsga nisbatan salbiy munosabatni ifodalaydi. U asosan, badiiy, publitsistik va og‘zaki nutqda qo‘llanib, personajning ichki mohiyatini ochish va muallif munosabatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Rasmiy va ilmiy uslublarda esa kam qo‘llanadi.

Pragmatik jihatdan “ko‘ngli qora” frazeologizmi salbiy baho, axloqiy hukm va ogohlantirishni ifodalab, shaxs haqida salbiy tasavvur shakllantiradi. Metaforik asosda yuzaga kelgan ushbu birlik kuchli konnotativ va baholovchi xususiyatga ega. Lingvokulturologik jihatdan esa u xalq tafakkuri, axloqiy qadriyatlar va milliy mentalitetni aks ettiradi. Shu bois uning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritishda muhimdir.

Madaniy-kognitiv funksiyasi: “Ko‘ngil” va “qora” komponentlari xalq tafakkuridagi metaforik kodlarni aks ettiradi. “Ko‘ngil” insonning ichki olami va axloqiy holatini, “qora” esa hasad, yovuzlik va adovat kabi salbiy sifatlarni ifodalaydi. Shu bois “ko‘ngli qora” frazeologizmi shaxsning salbiy sifatlarini baholash bilan birga, xalqning axloqiy-me’yoriy qarashlari va “yomon niyat” konsepsiyasini ham ifodalaydi.

Mentalitet va pragmatik funksiyasi: “Ko‘ngli qora” frazeologizmi nafaqat shaxsning ichki sifatlarini, balki jamiyatning axloqiy baholash me’yorlarini ham ifodalaydi. Shaxsning salbiy fazilatlarini ochib beradi, tinglovchi yoki o‘quvchi uchun ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni qayta tasdiqlash vazifasini bajaradi.

Lingvokulturologik xulosa: frazeologizm xalq tafakkuri va axloqiy qadriyatlarni yoritadi. Metaforik tarkib shaxsning ichki dunyosi va xatti-harakatlarini tushunarli tarzda ifodalaydi. Nutqdagi kommunikativ vazifasi orqali salbiy baho, axloqiy hukm va ogohlantirishni yetkazadi. Shunday qilib, “ko‘ngli qora” frazeologik birligi o‘zbek tilida lingvokulturologik jihatdan boy ma’no yukiga ega bo‘lib, til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Nutq kontekstida bu frazeologizm salbiy baho berish, ogohlantirish yoki ijtimoiy normani eslatish vositasi sifatida ishlatiladi.

Xulosa. Frazeologik birliklar tilning tayyor, barqaror va semantik yaxlit konstruksiyalari bo‘lib, tarkibiy barqarorligi va komponentlararo bog‘liqligi bilan erkin birikmalardan farqlanadi. Ularning ma’nosi komponentlar yig‘indisidan emas, balki semantik integratsiya hamda metaforik va metonimik ko‘chishlar asosida shakllanadi. Frazeologizmlar milliy tafakkur, qadriyat va madaniy kontekstni aks ettirib, nutqda emotsional-ekspressiv, baholovchi va pragmatik vazifalarni bajaradi. Shu bois ularni til, tafakkur va madaniyat birligi sifatida o‘rganish frazeologiya nazariyasini boyitish hamda tilning lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Поливанов Е.Д. Избранные труды по языкознанию. – М.: Наука, 1968. 384 с.
2. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1956. 260 с.
3. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Международные отношения, 1972. 288 с.
4. Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Краснодар: КГУ, 1995. 23 с.
5. B.Mengliyev, M.Xudoyberdiyeva, O.Boymatova. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 39-b.
6. X.Muxiddinova, D.Xudoyberganova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 2006. 208-b.
7. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. 636-b.
8. G‘ulomova N. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallaridagi leksik birliklarning semantik bazasini yaratish. Monografiya. – Navoiy: Navoiy, 286-b.

Jumagul ABDURAKHMANOVA,
Master student
Tashkent Kimyo International University in Namangan branch

A COMPARATIVE ANALYSIS OF EASTERN AND WESTERN WORLDVIEWS AND THEIR INFLUENCE ON LANGUAGE UNDERSTANDING

Annotation: the ways in which individuals from Eastern and Western cultures perceive and understand the world diverge significantly, and these differences are deeply embedded in their languages. Eastern cultures, often influenced by philosophies such as Confucianism, Buddhism, and Taoism, emphasize collectivism, fluidity, and interconnectedness. In contrast, Western cultures, shaped by Cartesian rationalism and individualism, focus on the self, linear progression, and objectivity. This paper explores how these divergent worldviews shape language structures, communication styles, and linguistic expressions, particularly in the context of English, a language spoken globally. By comparing the linguistic nuances that arise from these cultural worldviews, the study seeks to highlight the ways language acts as both a reflection of cultural beliefs and a medium for shaping cognitive processes. The findings underscore the crucial role of worldview in language learning, translation, and cross-cultural communication.

Key words: *Eastern worldview, Western worldview, language, cognition, cultural differences, English, communication, collectivism, individualism, cross-cultural studies.*

Аннотация: способы восприятия и понимания мира представителями восточных и западных культур существенно различаются, и эти различия глубоко укоренены в их языках. Восточные культуры, находящиеся под значительным влиянием таких философских учений, как конфуцианство, буддизм и даосизм, уделяют особое внимание коллективизму, изменчивости и взаимосвязанности явлений. В отличие от них, западные культуры, сформированные под влиянием картезианского рационализма и индивидуализма, акцентируют внимание на личности, линейном развитии и объективности. В данной статье рассматривается, каким образом эти различные мировоззренческие установки влияют на языковые структуры, коммуникативные стили и лингвистические выражения, особенно в контексте английского языка, получившего широкое распространение во всем мире. Посредством сопоставления лингвистических особенностей, обусловленных различиями в культурных мировоззрениях, исследование направлено на выявление того, каким образом язык одновременно отражает культурные ценности и убеждения и выступает средством формирования когнитивных процессов. Полученные результаты подчеркивают важную роль мировоззрения в изучении языков, переводческой деятельности и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: *восточное мировоззрение, западное мировоззрение, язык, когнитивные процессы, культурные различия, английский язык, коммуникация, коллективизм, индивидуализм, межкультурные исследования.*

Annotatsiya: sharq va g‘arb madaniyatlari vakillarining dunyoni idrok etishi va anglash usullari sezilarli darajada farq qiladi hamda ushbu tafovutlar ularning tillarida chuqur aks etgan. Konfutsiychilik, buddaviylik va daosizm kabi falsafiy ta’limotlarning ta’sirida shakllangan Sharq madaniyatlarida kollektivizm, o‘zgaruvchanlik va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, kartezian ratsionalizmi va individualizm ta’sirida shakllangan G‘arb madaniyatlarida shaxs, jarayonlarning chiziqli rivojlanishi va obyektivlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu turlicha dunyoqarashlarning til tuzilmalari, kommunikativ uslublar va lingvistik ifodalarga, xususan, butun dunyoda keng tarqalgan ingliz tiliga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Turli madaniy dunyoqarashlardan kelib chiqadigan lingvistik xususiyatlarni qiyoslash orqali tadqiqot tilning madaniy qadriyatlar va qarashlarni aks ettiruvchi vosita sifatidagi, shuningdek, kognitiv jarayonlarni shakllantiruvchi omil sifatidagi rolini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari dunyoqarashning til o‘rganish, tarjima faoliyati va madaniyatlararo kommunikatsiyadagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Sharq dunyoqarashi, G‘arb dunyoqarashi, til, kognitiv jarayonlar, madaniy farqlar, ingliz tili, kommunikatsiya, kollektivizm, individualizm, madaniyatlararo tadqiqotlar.*

INTRODUCTION

The relationship between culture, cognition, and language is a longstanding area of scholarly inquiry, with particular focus on how different worldviews shape linguistic structures and communication practices. Eastern and Western cultures represent two dominant paradigms of human understanding, influencing not only social structures and values but also the languages used by their speakers. Language is not merely a tool for communication; it serves as a vessel for encoding and transmitting cultural knowledge. This study examines the distinct ways Eastern and Western cultures conceptualize the world and how these conceptualizations shape their languages, particularly English. It explores the differences in worldview and the corresponding implications for language structure, communication, and interpretation in both native and non-native speakers of English.

LITERATURE REVIEW

A growing body of research investigates the intersection between worldview, culture, and language. According to Nisbett (2003), Eastern cultures (e.g., China, Japan, and India) typically emphasize a holistic, context-dependent approach to cognition, focusing on relationships, interdependencies, and the broader

environment. This worldview influences how Eastern languages, including Mandarin and Japanese, often exhibit indirectness, ambiguity, and relational expressions. Conversely, Western cultures (e.g., the United States, Europe) promote an analytical, individualistic perspective that prioritizes clear categorization, objectivity, and linearity. This worldview is reflected in Western languages, such as English, which tends to favor directness, objectivity, and the prioritization of individual agency (Boroditsky, 2001).

Research by Heine (2016) emphasizes how these cultural distinctions extend to language use, with Eastern speakers employing more metaphorical and context-sensitive expressions, while Western speakers rely on explicit and rule-based language structures. Additionally, Vygotsky (1987) proposed that language shapes cognition, a concept that aligns with the theory of linguistic relativity, which suggests that language influences the way individuals perceive and think about the world.

RESEARCH METHODS

This study adopts a qualitative, comparative approach to explore the ways in which worldviews influence linguistic practices. The primary method involves analyzing linguistic features of English spoken by individuals from Eastern and Western backgrounds. Additionally, the study includes a review of existing literature on cross-cultural communication, as well as a set of semi-structured interviews with bilingual speakers from both cultural groups. The aim is to identify patterns in language use that reflect cultural worldviews, particularly in English as a second language.

RESEARCH OBJECT

The research object of this study consists of bilingual speakers of English from Eastern and Western backgrounds. The focus is on their use of English in both formal and informal contexts, examining how their native cultural frameworks influence their communication styles, speech patterns, and cognitive processes in the English language. The study specifically looks at differences in syntax, vocabulary choices, and rhetorical strategies employed in English by speakers from both cultural traditions.

RESEARCH ANALYSIS AND RESULTS

The analysis reveals several key differences between Eastern and Western speakers of English. First, Western speakers tend to favor linear, direct communication, with clear subject-verb-object sentence structures. In contrast, Eastern speakers are more likely to use hedging and indirect phrasing, reflecting a cultural tendency to avoid confrontation and maintain harmony. Furthermore, Western speakers often emphasize individual agency, evident in their frequent use of the active voice and personal pronouns, while Eastern speakers show a greater use of passive constructions, signaling a more collective and context-dependent approach to agency.

Another notable finding is the use of metaphors and idiomatic expressions. Eastern speakers tend to incorporate more metaphors related to nature and harmony, whereas Western speakers are more inclined toward metaphors that reflect individual struggle or achievement. This difference is consistent with the broader cultural themes of interconnectedness versus individualism.

DISCUSSION

The findings of this study confirm that worldview significantly influences language use. Eastern cultural values of collectivism, harmony, and interdependence shape communication styles that prioritize group cohesion and context-sensitive interpretation. In contrast, Western individualism, rationality, and linearity result in more direct and explicit forms of communication. These differences are not merely linguistic but reflect deeply ingrained cognitive and cultural orientations. The study also highlights how bilinguals, particularly those using English as a second language, navigate these cultural tensions, often blending Eastern and Western communicative norms depending on context and audience.

The influence of cultural worldview on language also has implications for second-language acquisition. Language learners from Eastern backgrounds may face challenges in adopting the directness and objectivity typical of English, while learners from Western backgrounds may struggle with the ambiguity and indirectness common in Eastern languages. These challenges suggest that effective language instruction should incorporate cultural competence, encouraging learners to understand and adapt to different communicative practices.


CONCLUSION

This study demonstrates that the way individuals understand and interpret the world, shaped by their cultural background, and directly influences their language use. The contrasts between Eastern and Western worldviews are mirrored in the structural and rhetorical characteristics of language, including English. A deeper understanding of these differences is essential for improving cross-cultural communication and language teaching. Future research could further explore the cognitive mechanisms behind these cultural influences and investigate how bilinguals integrate multiple worldviews into their language practices.

REFERENCES

1. Boroditsky, L. (2001). Does language shape thought?: Mandarin and English speakers' conceptions of time. *Cognitive Psychology, 43*(1), 1-22.
2. Heine, S. (2016). *Cultural psychology: A perspective on psychological functioning and social reform*. W.W. Norton & Company.
3. Nisbett, R. E. (2003). *The geography of thought: How Asians and Westerners think differently...and why*. Free Press.
4. Vygotsky, L. S. (1987). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.


Ijod soati



O‘qituvchi, muallim kasbiy faoliyati bevosita ijod bilan bog‘liq jarayon. Shu bois aksariyat ustozlarimizning badiiy adabiyotga daxldor ijod namunalari bo‘lishi tabiiy. Jurnalimiz mazmun-mundarijasidan kelib chiqqan holda, ijodkor muallimlar va o‘quvchi yoshlarning ilhom namunalarini ijod soati ruknida berib borishni joiz topdik. Zero, muallimlarning tunlari uxlamasdan ilhom va tafakkur uyg‘unligidagi zahmatli mehnatlari faqatgina o‘zlarining daftarlari varaqlarida qolib ketmasin. Ne ajabki, muallim daftarlarida bitilgan samimiy satrlar yoshlar va hamkasblari qalbida ham ilhom cho‘g‘larini otashlantirsa.

Til va adabiyot.uz

Bonu
SARIMOVA



I

Noyabr!
Seryomg‘ir oy,
Bahor bilan va’dalashgan kuz,
Gullamoqlik to boshida to‘kilmoqlik bor,
Ming afsus!
Katta yo‘l, raqsga tushadi yomg‘ir tomchilar,
Ko‘chani kezaman... yig‘layman gohi.
Qaydandir gitara ovozi yangrar,
She’rlarimni kimdir qilar xirgoyi.
Qaydasaan!
O‘zimni qaytarib ber,
Ishqning mangu quli bo‘lib qoldim man.
Yomg‘irpo‘shni yerlarga sudrab,
Kel, ortimga qaytib ketaman!
Qo‘llarimda Furruh Farruhzod,
Qalbimdagi isyonni to‘xtatolmas so‘z.
Tasodifni qara seni uchratdim oxir – ey, Kuz!
Men taslimman!
Pichirlayman aytib tazarru,
Pok ko‘zingga gunohdir boqsam.
Sendan ancha uzoq yog‘ardim,
Oq yomg‘irga aylanib qolsam.
Qo‘llaringni boshimga qo‘yding,
Ivigan sochlarim aylandi gulga.
Biz – gunohmiz! Eshitayapsanmi?
Biz birgamiz abadul birga.
Yomg‘irda yuguraylik,
Ishqning sohillarida.
Ishq uchun poklanaylik,
Rahmat yomg‘irlarida...
Rahmat yomg‘irlarida...

II

Kichik qahva xona,
"Karamel kafe",
Bizni kutgan intiq kursilar.
Avvalgiday negadir bari.
Qizil atirgul – musiqalar.
Tashqarida yomg‘ir...
Achchiq choy...
Xonani tutadi yomg‘irning isi.
Raqsga tushadi kapalak misol,
Osmonning qizi...
Kel ketamiz boshqa dunyoga,
Hech kim bizni topa olmaydi.
Yomg‘irlarga aylanib qolsak,
Izimiz ham yerda qolmaydi.
She’r aytardik faqatgina she’r,
Pok so‘zlarni asrab qolardik.
Yana yomg‘ir bahona bo‘lib
Yerda qolardik.
Xuv qadimiy muhabbat uchun dil,
Poklandi oxir.
Ko‘ngildagi g‘uborni yuvib,
Boshimizdan yog‘adi,
YOMG‘IR!!!

KO‘ZLARINGNING RANGI – KUZ!

Men kuzdan nolidim, kuzdan darak yo‘q,
Yolg‘izlik ichimda azaliy karaxt.
Yomg‘irlar istig‘for aytgan bir damda,
Men uchun duolar o‘qir bir daraxt...

Yelkamni ezg‘ilab qushlar cho‘qigan,
Oxiri toshlar ham hasratin aytdi.
Faqat shu qismatga teskari qarab,
Yelkalari qizil kuz yana qaytdi!

Osmon oshoyishta yerlar sarg‘aygan,
Kaftlari qizarib ketgan tuproqning.
Hali to‘kilmagan so‘zlarday titrab,
Qog‘ozdan teraman qora va oqni.

Sening ko‘zlaringning rangi – kuz!
Men yoshlar to‘kaman tonglari farah...
Men sendan noliyman, Sendan darak yo‘q!
Ich-ichimda yonib sarg‘aygan DARAXT!

CHEGARA

Chegara tashladi yo‘limga dunyo,
Buzolsang manziling deya huv o‘sha.
Hattoki chekladi aytarimni ham,
Hayotim qolipsiz o‘ylarga o‘xshar.
To‘rt xonam o‘ragan hayhot chegara!
Ko‘nglimga hayodan bunyod chegara,
Borarim, qaytarim ham dod chegara,
Qachon bo‘lajakdir barbod chegara?
Qanday to‘siqlarga yuzlandi ko‘nglim.
Izhorim aytmakka ixtiyorim yo‘q,
Bir umr bu sarhad aro holim tang,
Shuncha yil miq etmay yashadim endi,
Yuragimga chegara bermang!



Til va adabiyot.uz
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov, Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov, Abdurahim Nosirov, To'lqin Saydaliyev, Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva, Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev, Salima Jumayeva, Qayum Baymirov, Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov, Husniddin Norqulov, Madina Nuriddinova, Barno Kadirova, Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova, Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov, Feruza Manukyan, Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova, Sayyora Halimova, Tadjixon Sabitova, Maxpuza Karaxodjayeva, Gulboxor Ernazarova, Uyg'unjon Turdimurodov, Ra'no Abdullayeva, Sharif Yarashov, Sanobar Ulliyeva, Davronova Mahfuza, Normuhammad Ubaydullayev, Adiba Ma'diyeva, Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov, Xilola Ismailova, Kamola Jumayeva, Marxabo Abdullayeva, Nigoraxon Ro'zibayeva, Mahkamoy Tursunova, Farhod Nizomov, Moxira Sadullayeva, Muhayyo Vafoyiva, Bobomurod Mirsanov, Gulsanam Xoliqulova, Dildora To'rayeva, Shahzoda Gulyamova, Shahnoza Yunusova, Shodiyaxon Aripova, Xurshida Raxmonova, Aziza Saidova, Asilaxon Sadikova, Sanobar Saydazimova, Sarvinoz Toxirova, Shoxida Rofeyeva, Xayyom Mirzayev, Ma'rufat Qodirova, Amira Ibatova, Shaxnoza Muxtorova, Furqat Nurmanov, Fazliddin Sadinov, Anvarbek Turdialiyev, Feruza Negova, Gulnoza Narziyeva, Madina Elboyeva, Zahro Islomova, Yulduz Ismatova Mahbuba Bo'riyeva, Jamilaxon Sadullayeva, Sharipboy Bobojanov, Sanobar Ulliyeva, Sevara Qaxramonova, Xolmurod Xidirov, Sherzod Ermonov, Dilbar Alimova, Feruza Sharopova, Nargiza Boymuratova, Xolida Mamatkulova.

Bosh muharrir:
Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:
Bibimaryam Rahmonova, Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:
Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:
(93) 759-43-66, (77) 003-34-33, (94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:
TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
https: //oak.uz/pages/4802



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Baxtiyor XOLMUXAMEDOV
AQSHDA O'ZBEK TILI VA MADANIYATINING O'RGANILISHI: DIASPORADAN ILMIY MAKTABGACHA 3

Munira XUDOYOROVA
SHARAF GAVHARINING KONI... 5

Dilobar JURAYEVA
TIL VOSITAI ROBITAI OLAMIYONDUR (TIL – DUNYO XALQLARI O'RTASIDAGI ALOQA VOSITASIDIR) 8

TILSHUNOSLIK

Zohida MUQIMOVA
O'ZBEK TILIDAGI AYRIM KIYIM-KECHAK LINGVOMADANIY KODLARINING IFODALANISHI 12

Munosibxon ISHANJANOVA
ETNOGRAFIK BIRLIKLAR VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI 15

Dildora TO'RAYEVA
SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADA KONFLIKTOGEN NUTQIY AKTLARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI 17

Maxfurat OMONOVA
SUD HUJJATLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 21

Furqat NURMANOV
MATBUOT TILIDA QO‘LLANILADIGAN DIALEKTIZM VA FOLKLORIZMLARNING O‘RNI 23
Эльвина АДЖЕМИНОВА
ЭВФЕМИЗАЦИЯ КАК КОГНИТИВНО-ЯЗЫКОВОЙ И ДИСКУРСИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН 28
Dr. Ahmad Musa Abdullah Sayfiddin
Dr. Nabila Nabil Tokhy Kandil
A PROPOSED SCENARIO-BASED LEARNING PROGRAM TO DEVELOP SPEAKING SKILLS AND ORAL FLUENCY AMONG LEARNERS OF ARABIC AS A FOREIGN LANGUAGE 30

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ayimxan ESHNIYAZOVA
HIKOYALARDA AYOL QISMATINING BADIIY TALQINI 34
Sobirjon BAZAROV
ULUG‘BEK HAMDAM ROMANLARIDA MIFOLOGIYANING O‘RNI 36
Faridaxon TURSUNOVA
HAJVIY QAHRAMON TASHQI QIYOFASINI TASVIRLASHDA MONOLOGIK NUTQNING O‘RNI 39
Feruza ALLANAZAROVA
ROMAN JANRI GENEZISI VA ADABIY TALQIN O‘ZIGA XOSLIGI 42
Тимур АЮПОВ
ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ГЕРОЕВ В. ПЕЛЕВИНА В РАННЕЙ ПРОЗЕ 44

ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Yulduz ISMATOVA
SUN’IY INTELLEKT VOSITASIDA YARATILGAN INGLIZCHA-O‘ZBEKCHA BADIIY TARJIMALARNI POSTTAHRIRLASH KONSEPSIYASI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR 48
Nasiba MUMINOVA
KVEST-TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 51
Nafosat OROMOVA
ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 54
Baxtiyor SHOMIRZAYEV
MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI DARSLARIDA RAQAMLI DIDAKTIK VOSITALAR VA PLATFORMALARDAN FOYDALANISH METODIKASI 56
Нилуфар СУВАНОВА8
МУЛЬТИМОДАЛЬНЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ВЕБ-САЙТ «SAVODMEDIA» ДЛЯ УРОКОВ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ: СТРУКТУРА, ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ 58
Наргиза НАСЫРОВА
ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА 61
Fotima DAVRONOVA
A CONCEPT FOR THE INTEGRATIVE DEVELOPMENT OF ACADEMIC AND TRANSLINGUAL COMPETENCE: PRINCIPLES, STAGES AND TECHNOLOGIES 64
Oybek QULMAMATOV
GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND HUMOROUS DISCOURSE INTERPRETATION OPPORTUNITIES AND LIMITATIONS 67

TADQIQOTLAR

Madina BOBOYEVA
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA INSONNING JISMONIY VA AMALIY QOBILIYATINI IFODALOVCHI LEKSIK-FRAZEOLOGIK VOSITALARNING QIYOSIY TAHLILI 71
Nigora RAXIMOVA
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI DORIVOR O‘SIMLIK NOMLARI KOGNITIV BELGILARINING TASVIRIY IFODALAR VA FRAZEMALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI MOTIVATSION-NOMINATSION FUNKSIYASI 74
Raxima KURBANOVA
PREDIKATIVLIK UMUMLINGVISTIK QONUNIYAT TUSHUNCHASI SIFATIDA: NAZARIY TALQINLAR VA INGLIZ, FRANSUZ, O‘ZBEK TILLARIDAGI NAMOYON BO‘LISHI 76
Sh.R.AMANTURDIYEVA
DINIY MATNLARNING STILISTIK, PRAGMATIK VA PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI 79
Fazliddin SADINOV
CHORVACHILIK VA VETERINARIYA TERMINLARINING KO‘P MA’NOLILIK VA SHAKLDOSHLIK XUSUSIYATLARI 81
Shaxnoza NORKULOVA
BOQIRG‘ONIY LIRIKASIDA MATN MUAMMOSI VA TEKSTOLOGIK TAHLIL 84
Aqida MAVLONOVA
MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDAGI ADABIY PARCHALARNING JANR VA POETIK XUSUSIYATLARI 87

Xayrulla RAXMATOV
BUXORO AMIRLIGI AHOLISINING ETNIK VA ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI 91

Dilovar KAMALOVA
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA NUTQIY AKTLARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 93

Shahbos QUTLIYEV
IJTIMOIY-EKOLOGIK MAS'ULIYAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI 95

Abrorbek RAXMONOV
MEDIANING IJTIMOIY-FALSAFIY KONSEPSIYASI 98

O'ktam ALIQULOV
KIBERXAVFSIZLIK VA KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARI 100

Yulduz QO'SHMONOVA
O'ZBEK TOPONIMIK AFSONALARINING MAVZUIY FUNKSIONAL TAHLILI 103

Abror KURBONMURATOV
O'ZBEK TILIDAGI EKSTREMISTIK DISKURSNING TURLARI VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI 107

Nargiza XOLBEKOVA
BADIIY MATNLARDA METALINGVISTIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI 110

Guliston QOBILOVA
ILMIY-TEXNIK REKLAMA MATNLARIDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR: GLOBAL VA MAHALLIY KONTEKSTLAR 112

Yulduz TURSUNOVA
BADIIY ASARDAGI POETONIMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI 114

Umidbek ADAMBAYEV
BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI 117

Shahnoza HASANOVA
ZAMONAVIY FRANSUZ DIPLOMATIK TERMINOLOGIYASIDAGI NEOLOGIZMLARNING XUSUSIYATLARI 119

Muzaffar ACHILOV
FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA TIBBIYOTGA DOIR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI 122

Maftuna NURMUHAMEDOVA
RUS VA O'ZBEK IPAK YO'LI TARIXIY ROMANLARIDA MUSHTARAK VA MILLIY-ESTETIK XUSUSIYATLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK MEZONLARI 124

Ozoda KAYUMOVA
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ONOMATOPIK BIRLIKLARNING EKSPRESSIVLIK VA EVALUATIVLIKNI IFODALASH XUSUSIYATLARI 126

Zahro ISLOMOVA
AKSIOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LINGVISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI 128

Xilola NIZAMOVA
KOMPLIMENTLARNING LINGVISTIK MODELLARI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI QIYOSIY TAHLILI ASOSIDA 131

Nilufar TO'LQINJONOVA
"TRISTAN VA IZOLDA" HAMDA "KUNTUG'MISH"DA ISHQ, AYRILIQ VA SADOQAT MOTIVLARINING POETIK FUNKSIYASI 134

Intizor ABDUJABBOROVA
"BAHROMNOMA" DOSTONLARIDA KANIZAKLAR TIMSOLI 136

Dilnoza SAPAROVA
O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA TAKRORLANUVCHI OBRAZLAR TIZIMI VA ULARNING POETIK FUNKSIYASI 139

Мадина ТУРСЫНОВА
ВОПЛОЩЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В РОМАНЕ О. УАЙЛЬДА «ПОРТРЕТ ДОРИАНА ГРЕЯ» 141

Д.А.ПУЛАТОВА
МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКАЯ КОММУНИКАЦИЯ И ПЕРЕДАЧА ЦЕННОСТЕЙ В РОМАНЕ Г. ЯХИНОЙ «ДЕТИ МОИ» 144

Адхам ТУРСОАТОВ
ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ АНТОНИМИИ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ 146

Наргиза ДЖАББОРОВА
ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ГЕНДЕРНО-ВЕЖЛИВОЙ ЛЕКСИКИ И ФЕМИНИТИВОВ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 149

Muxlisa SAYFIYEVA
STYLISTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF NOMINATIVE SENTENCES IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE 151

Dildora ZOKIROVA
THE ACADEMIC WRITING DIFFICULTIES AND LEARNING NEEDS OF ENGLISH LANGUAGE LEARNERS 154

Aysultan PERMANOVA
DIGITAL EMP METHODOLOGY: IMPLEMENTING INTEGRATED DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH FOR MEDICAL PURPOSES 157

PEDAGOGIKA

Rustam XURRAMOV
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISHNING INDIVIDUAL STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH 160

Madina ELBOYEVA
CHET TILLARINI O‘QITISHDA ADABIYOTSHUNOSLIKNING ROLI VA AHAMIYATI 164

Shoxruxbek RUSTAMJONOV
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI..... 166

Дилором ХОЛМАТОВА
ПРИМЕНЕНИЕ ГЕНЕРАТИВНЫХ МОДЕЛЕЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ: ПРАКТИКА, РИСКИ, ОГРАНИЧЕНИЯ 169

Феруза ХУДАЙКУЛОВА
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ..... 171

KICHIK TADQIQOT

Zeboxon AMINJONOVA
O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDA JANNAT VA DO‘ZAX MOTIVI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL 174

Muhayyo TURSUNQULOVA
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA PAYG‘AMBARLAR SIYMOSI..... 178

Dildora ABDIMO‘MINOVA
USMON AZIMNING “BIR QADAM YO‘L” DRAMASIDA RUHIYAT TASVIRINING USULLARI..... 180

Malika TO‘XTAYEVA
ERGASH OCHILOVNING “BARHAYOT SIYMOLAR” TO‘PLAMIDA SHARQ MUMTOZ SO‘Z SAN’ATI NAMOYANDALARI IJODINING ILMIY-OMMABOP TALQINI..... 183

Nafisa ESHNAZAROVA
“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA TURKIY XALQLAR TILI VA ADABIYOTINING AKS ETISHI: LEKSIK-SEMANTIK, PAREMIOLOGIK VA LINGVOMADANIY TAHLIL..... 185

Gulnoza ERNAZAROVA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TERMINOLOGIK TIZIMIDA XUSUSIY BIRIKUVCHI BIRIKMALARNING MAQOMI 189

Marjona O‘LJABOYEVA
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARKIBIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI 192

Jumagul ABDURAKHMANOVA
A COMPARATIVE ANALYSIS OF EASTERN AND WESTERN WORLDVIEWS AND THEIR INFLUENCE ON LANGUAGE UNDERSTANDING 195

IJOD SOATI

Bonu SARIMOVA
KO‘ZLARINGNI RANGI – KUZ! CHEGARA..... 200

